O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

8.2022

научно-теоретический методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2022

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor (Xorazm Ma’mun akademiyasi),
ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ALEUOV Userbay, pedagogika fanlari doktori, professor (Nukus davlat Pedagogika instituti),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori (UrDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IBRAGIMOV Zair, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, AQSH),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas’ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva unversiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OLLAMOV Yarash, yuriduk fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston Respulikasi Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi),
OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat, pedagogika fanlari doktori (UrDU),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari, (UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN●JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI●2022 8(182)

MUASSIS: Urganch davlat universiteti●Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan●**GUVOHNOMA № 1131.**

Bekchanov Sardor (UrDU o‘qituvchisi)

DIFFERENSIAL HISOBNING ASOSIY TEOREMALARI VA ULARNING TATBIQI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bizga ko‘p uchraydigan differiensial hisoblash teoremalari hamda ular yordamida yechiladigan masalalar keltirilgan.*

Аннотация. *В статье мы представляем наиболее распространенные дифференциальные теоремы и задачи, которые могут быть решены с их помощью.*

Annotation. *In this paper, we present the most common differential theorems and problems that can be solved by using them.*

Kalit so‘zlar: *differiensial hisob, teorema, hosila, ochiq to‘plam.*

Ключевые слова: *дифференциальное исчисление, теорема, производная, открытое множество.*

Keywords: *differential calculus, theorem, product, open set.*

Bizga ba’zi masalalarni hal qilishda, ko‘pincha, hosilaga ega bo‘lgan funksiyalar haqidagi teoremalar qo‘l keladi. Bu teoremlar funksiyalarni tekshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, quyida keltirilgan teoremalarni ko‘rib chiqamiz:

1-teorema (Ferma teoremasi). $f(x)$ funksiya $X \subset R$ to‘plamda berilgan. $x_0 \in X$ nuqtaning atrofi uchun $U_\delta(x_0) = (x_0 - \delta,\ x_0 + \delta) \subset X \qquad (\delta > 0)$ bo‘lib, quyidagi shartlar bajarilsin:

1) $\forall x \in U_\delta(x_0)$ da $f(x) \le f(x_0) \qquad (f(x) \ge f(x_0))$,

2) $f'(x_0)$ mavjud va chekli bo‘lsin.

U holda $f'(x_0) = 0$ bo‘ladi.

Aytaylik, $\forall x \in U_\delta(x_0)$ da $f(x) \le f(x_0)$ bo‘lsin. Ravshanki, bu holda

$$f(x) - f(x_0) \le 0$$

bo‘ladi. Shartga ko‘ra, $f(x)$ funksiya x_0 nuqtada chekli $f'(x_0)$ hosilaga ega. Shuning uchun

$$f'(x_0) = \lim_{x \to x_0} \frac{f(x) - f(x_0)}{x - x_0} = \lim_{x \to x_0 + 0} \frac{f(x) - f(x_0)}{x - x_0} = \lim_{x \to x_0 - 0} \frac{f(x) - f(x_0)}{x - x_0}$$ bo‘ladi. Ayni paytda, $x > x_0$ bo‘lganda,[1]

$$\frac{f(x) - f(x_0)}{x - x_0} \le 0 \quad \Rightarrow \lim_{x \to x_0 + 0} \frac{f(x) - f(x_0)}{x - x_0} = f'(x_0) \le 0,$$

$x < x_0$ bo‘lganda,

$$\frac{f(x) - f(x_0)}{x - x_0} \ge 0 \quad \Rightarrow \lim_{x \to x_0 - 0} \frac{f(x) - f(x_0)}{x - x_0} = f'(x_0) \ge 0$$

bo‘lishidan $f'(x_0) = 0$ ekani kelib chiqadi.

2-teorema (Roll teoremasi). Faraz qilaylik, $f(x)$ funksiya $[a,\ b]$ da berilgan bo‘lib, quyidagi shartlarni bajarsin:

1) $f(x) \in C[a,\ b]$,

2) $\forall x \in (a,\ b)$ da $f'(x)$ mavjud va chekli;

3) $f(a) = f(b)$ bo‘lsin.

U holda shunday $x_0 \in (a,\ b)$ nuqta topiladiki, $f'(x_0) = 0$ bo‘ladi.

[1] Гелфанд Ғ. Методы доказательства неравенства. Москва, 1972.

Shartga ko‘ra, $f(x) \in C[a, b]$.Unda Veyershtrassning ikkinchi teoremasiga ko‘ra, $f(x)$ funksiya $[a, b]$ da o‘zining eng katta va eng kichik qiymatlarga erishadi, ya’ni shunday c_1, c_2 nuqtalar $(c_1, c_2 \in [a, b])$ topiladiki,

$$f(c_1) = \max\{ f(x) \mid x \in [a, b]\},$$
$$f(c_2) = \min\{ f(x) \mid x \in [a, b]\}$$

bo‘ladi.

Agar $f(c_1) = f(c_2)$ bo‘lsa, unda $[a, b]$ da $f(x) = const$ bo‘lib, $\forall x_0 \in (a, b)$ da $f'(x_0) = 0$ bo‘ladi.

Agar $f(c_1) > f(c_2)$ bo‘lsa, unda $f(a) = f(b)$ bo‘lganligi sababli $f(x)$ funksiya $f(c_1)$ hamda $f(c_2)$ qiymatlarning kamida bittasiga $[a, b]$ segmentning ichki x_0 $(a < x_0 < b)$ nuqtasida erishadi. Ferma teoremasiga binoan, $f'(x_0) = 0$ bo‘ladi.

3-teorema (Lagranj teoremasi). Faraz qilaylik, $f(x)$ funksiya $[a, b]$ da berilgan bo‘lib, quyidagi shartlarni bajarsin:

$f(x) \in C[a, b]$,

$\forall x \in (a, b)$ da $f'(x)$ hosila mavjud va chekli bo‘lsin. U holda shunday $c \in (a, b)$ nuqta topiladiki, $f(b) - f(a) = f'(c)(b - a)$ bo‘ladi.

Ushbu

$$F(x) = f(x) - f(a) - \frac{f(b) - f(a)}{b - a}(x - a) \tag{1}$$

funksiyani qaraymiz. Bu funksiya Roll teoremasining barcha shartlarini qanoatlantiradi. Ayni paytda, uning hosilasi

$$F'(x) = f'(x) - \frac{f(b) - f(a)}{b - a}$$

bo‘ladi.

Roll teoremasiga binoan, shunday c $(c \in (a, b))$ nuqta topiladiki,

$$F'(c) = 0 \tag{2}$$

bo‘ladi.

(1) va (2) munosabatlardan

$$f'(c) - \frac{f(b) - f(a)}{b - a} = 0,$$

ya’ni

$$f(b) - f(a) = f'(c)(b - a)$$

bo‘lishi kelib chiqadi.

1-natija. Aytaylik, $f(x)$ funksiya (a, b) da $f'(x)$ hosilaga ega bo‘lib, $\forall x \in (a, b)$ da $f'(x) = 0$ bo‘lsin. U holda $\forall x \in (a, b)$ da $f(x) = const$ bo‘ladi.

x, $x_0 \in (a, b)$ ni olib, chekkalari x va x_0 bo‘lgan segmentda $f(x)$ funksiyaga Lagranj teoremasini qo‘llab, $f(x) = f(x_0) = const$ bo‘lishini topamiz.

2-natija. $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalari (a, b) da $f'(x)$, $g'(x)$ hosilalarga ega bo‘lib, $\forall x \in (a, b)$ da $f'(x) = g'(x)$ bo‘lsin. U holda $\forall x \in (a, b)$ da $f(x) = g(x) + const$ bo‘ladi.

Bu natijaning isboti $f(x) - g(x)$ funksiyaga nisbatan 1-natijani qo‘llash bilan kelib chiqadi. 4-teorema (Koshi teoremasi). Aytaylik, $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar quyidagi shartlarni bajarsin.

1) $f(x) \in C[a, b]$, $g(x) \in C[a, b]$,

2) $\forall x \in (a, b)$ da $f'(x)$ va $g'(x)$ hosilalar mavjud va chekli;

3) $\forall x \in (a, b)$ da $g'(x) \neq 0$ bo‘lsin.

U holda, shunday $c \in (a, b)$ nuqta topiladiki,

$$\frac{f(b)-f(a)}{g(b)-g(a)} = \frac{f'(c)}{g'(c)}$$

bo‘ladi.

Avvalo, $g(b) \neq g(a)$ bo‘lishini ta’kidlab o‘tamiz, chunki $g(b) = g(a)$ bo‘ladigan bo‘lsa, unda Roll teoremasiga ko‘ra, shunday $c \in (a, b)$ nuqta topilar ediki, $g'(c) = 0$ bo‘lar edi. Bu 3-shartga zid.

Quyidagi

$$\Phi(x) = f(x) - f(a) - \frac{f(b)-f(a)}{g(b)-g(a)}[g(x)-g(a)] \quad (x \in [a, b])$$

funksiyani qaraymiz. Bu funksiya Roll teoremasining barcha shartlarini qanoatlantiradi. Unda Roll teoremasiga binoan shunday $c \in (a, b)$ nuqta topiladiki,

$$\Phi'(c) = 0 \tag{3}$$

bo‘ladi.

Ravshanki,

$$\Phi'(x) = f'(x) - \frac{f(b)-f(a)}{g(b)-g(a)} g'(x) \tag{4}$$

(3) va (4) munosabatlardan

$$f'(c) - \frac{f(b)-f(a)}{g(b)-g(a)} g'(c) = 0$$

ya’ni,

$$\frac{f(b)-f(a)}{g(b)-g(a)} = \frac{f'(c)}{g'(c)}$$

bo‘lishi kelib chiqadi.

1-misol. $\forall x', x'' \in R$ uchun $|\sin x' - \sin x''| \leq |x'-x''|$ tengsizlik isbotlansin.

Aytaylik, $x' < x''$ bo‘lsin. $f(x) = \sin x$ ga $[x', x'']$ da Lagranj teoremasini qo‘llaymiz. Unda shunday $c \in (x', x'')$ nuqta topiladiki, $|\sin x' - \sin x''| = |\cos c| \cdot (x''-x')$ bo‘ladi. Agar $\forall t \in R$ da $|\cos t| \leq 1$ ekanini e’tiborga olsak, unda yuqoridagi munosabatdan

[1]

$$|\sin x' - \sin x''| \leq |x'-x''| \qquad (\forall x', x'' \in R)$$

bo‘lishi kelib chiqadi.

2-misol. Ushbu

$$e^x \geq 1 + x$$

tengsizlik isbotlansin.

Aytaylik, $x > 0$ bo‘lsin. Unda $f(t) = e^t$ funksiyaga $[0, x]$ da Lagranj teoremasini qo‘llab topamiz:

$$e^x - e^0 = e^c (x-0). \qquad c \in (0, x)$$

[1] Сивяшинский В. Доказательство тригонометрических неравенств. Москва, 1985.

Agar $c > 0$ da $e^c > 1$ bo‘lishini e’tiborga olsak, unda keyingi munosabatdan $e^x \geq 1 + x$ bo‘-lishi kelib chiqadi.

Agar $x < 0$ bo‘lsa, unda $f(t) = e^t$ funksiyaga $[x,\ 0]$ da Lagranj teoremasini qo‘llab,

$$e^x - e^0 = e^c (0 - x)$$

ni va $-x > 0,\quad e^c < 1$ bo‘lishini e’tiborga olib, $e^x \geq 1 + x$ ekanligini topamiz.

Ravshanki, $x = 0$ da $e^0 = 1$. Demak, $\forall x \in R$ da $e^x \geq 1 + x$.

3-misol. Ushbu

$$\frac{a-b}{a} < \ln\frac{a}{b} < \frac{a-b}{b} \qquad (0 < b < a)$$

tengsizlik isbotlansin.

$[b,\ a]$ segmentda $f(x) = \ln(x)$ funksiyani qaraymiz. Bu funksiya shu segmentda uzluksiz va $(b,\ a)$ da $f'(x) = \frac{1}{x}$ hosilaga ega. Unda Lagranj teoremasiga ko‘ra, shunday c $(b < c < a)$ nuqta topiladiki,

$$\frac{\ln a - \ln b}{a - b} = \frac{1}{c} \tag{5}$$

bo‘ladi.

Ravshanki,

$$b < c < a \quad \Rightarrow \quad \frac{1}{a} < \frac{1}{c} < \frac{1}{b}. \qquad \text{(5) va (6) munosabatlardan}$$

$$\frac{a-b}{a} < \ln\frac{a}{b} < \frac{a-b}{b}$$

bo‘lishi kelib chiqadi.

Якубова Умида Шухратуллаевна (Тошкент Давлат Иқтисодиёт университети),
Парпиева Нодира Тулкуновна (Белорус–Ўзбекистон Қўшма тармоқлараро амалий техник квалификациялар институти)

ЧИЗИҚЛИ ПРОГРАММАЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИНИ СИМПЛЕКС УСУЛДА ЕЧИШ ҲАҚИДАГИ БАЪЗИ ТУШУНЧАЛАР

Аннотация. *Мақолада чизиқли программалаштириш масалаларини симплекс усулда ечиш кўрилган. Шунингдек, симплекс усулнинг ғояси (режани кетма-кет яхшилаш усули), чизиқли программалаштириш масаласининг оптималлик мезони келтирилиб, мисоллар ечилган.*

Аннотация. *В статье рассмотрено решение задач линейного программирования симплексным методом. Также раскрыта идея симплексного метода (метода последовательного улучшения плана), приведен критерий оптимальности задачи линейного программирования и решены примеры.*

Annotation. *The article deals with the solution of linear programming problems by the simplex method. Also, the idea of the simplex method (the method of sequential improvement of the plan) is revealed, the criterion for the optimality of the linear programming problem is given and examples are solved.*

Kalit so‘zlar: *симплекс усул, matematik model, funksiyaning eng kichik va eng katta qiymati.*

Ключевые слова: *симплексный метод, математическая модель, наименьшее и наибольшее значение функции.*

Keywords: *simplex method, mathematical model, minimum and maximum value of the function.*

Маълумки, ҳозирги кунда бир фанни ўрганиш учун унда кўрилаётган назарий тушунчаларни амалиётда қўллай олиш, шу ўринда, турли иқтисодий масалаларни ечишда уларнинг математик моделини тузиб олишни билиш муҳим аҳамият касб этмоқда.[1] Бунда чизиқли программалаштириш усулларидан бўлмиш симплекс усулидан фойдаланиш мумкин.

Симплекс усул каноник шаклда берилган чизиқли программалаштириш масаласини ечишнинг универсал усулларидан биридир.

Симплекс усулнинг ғояси (режани кетма-кет яхшилаш усули) шундан иборатки, бунда бирор бошланғич таянч ечимдан бошлаб, кетма-кет таянч ечимлар бўйича, йўналган ҳолда ҳаракатланиб, масаланинг оптимал ечимига эришади. Максимум масалада, мақсад функциянинг қиймати камаймайди. Таянч ечимлар чекли бўлгани учун, чекли сондаги қадамлардан сўнг оптимал ечим аниқланади.

Чизиқли программалаштириш масаласининг оптималлик критерийси қуйидаги ифодадан иборат:

$$\Delta_j = \sum_{i=1}^{m} c_i \alpha_i - c_j, \quad j = \overline{1,\ n}\,.$$

Агар максимум масалада, барча Δ_j баҳолар манфий бўлмаса, у ҳолда топилган ечим оптимал бўлиб, уни яхшилаш шарт эмас. Лекин, агар, ҳеч бўлмаганда, Δ_j бирор қиймати манфий бўлса, у ҳолда масаланинг ечимини яхшилаш зарур, бунда Δ_j га мос бўлган номаълум, базисдаги мос номаълум билан алмаштирилади.

Демак, чизиқли программалаштириш масаласини ечишнинг оптималлик мезони қуйидагича таърифланади: максимум масалада, чизиқли программалаштириш масаласини ечими оптимал бўлади, агар барча баҳолар манфий бўлмаса (яъни, $\Delta_j \geq 0$) ва минимум масалада эса барча баҳолар мусбат бўлмаса (яъни, $\Delta_j \leq 0$).

Чизиқли программалаштириш масаласининг каноник шакли:

Мақсад функция $L\left(\overline{x}\right) = c_1 x_1 + c_2 x_2 + ... + c_n x_n \to \max$

Чегаравий шартлар

$$\begin{cases} x_1 + a_{1,m+1} x_{m+1} + a_{1,m+2} x_{m+2} + ... + a_{1n} x_n = b_1 \\ x_2 + a_{2,m+1} x_{m+1} + a_{2,m+2} x_{m+2} + ... + a_{2n} x_n = b_2 \\ ..... \\ x_m + a_{m,m+1} x_{m+1} + a_{m,m+2} x_{m+2} + ... + a_{mn} x_n = b_m \end{cases}$$

$$x_j \geq 0 \ \left(j = \overline{1,n}\right)$$

Масалани симплекс усул билан ҳисоблаш учун симплекс жадвал тузилади.

БН	С	В	c_1	c_2	···	c_m	c_{m+1}	c_{m+2}	···	c_n
			x_1	x_2	···	x_m	x_{m+1}	x_{m+2}	···	x_n
x_1	c_1	b_1	1	0	...	0	$a_{1,m+1}$	$a_{1,m+2}$	···	a_{1n}
x_2	c_2	b_2	0	1	...	0	$a_{2,m+1}$	$a_{2,m+2}$	...	a_{2n}
…	…	...	...	...	...	...	...	...	...	...
x_m	c_m	b_m	0	0	...	1	$a_{m,m+1}$	$a_{m,m+2}$	...	a_{rn}
		$L\left(\overline{x}\right)$	0	0	...	0	Δ_{m+1}	Δ_{m+2}	···	Δ_n

[1] Якубова У.Ш., Парпиева Н.Т., Мирходжаева Н.Ш. Некоторые применения теории матриц в экономике. Бюллетень науки и практики. 2021, Т. 7, №2, с. 245–253 https://doi.org/10.33619/2414-2948/63/24

Симплекс усул алгоритми

1. Масаланинг математик модели каноник кўринишда бўлиши керак. Агар у каноник шаклда бўлмаса, каноник шаклга келтириш зарур.

2. Симплекс жадвал тўлдирилади. Биринчи қадамда жадвалнинг оптималлик критерияси Δ_j бўлган индекс сатрдан бошқа, барча сатрларини, чегаравий шартлардан ва мақсад функциядан фойдаланиб тўлдирамиз. Бошланғич таянч ечимни аниқлаймиз.

3. Топилган бошланғич таянч ечимни оптималлигини текширамиз. Индекс сатр номаълумлари $\Delta_j = \sum_{i=1}^{m} c_i \alpha_i - c_j, \quad j = \overline{1, n}$ формула билан топилиб, озод ҳадлар учун эса $\Delta_0 = \sum_{i=1}^{m} c_i b_i$ формула билан аниқланади.

Максимум масала ечилаётганда қуйидаги ҳоллар бўлади:

– барча оптималлик критериялари учун $\Delta_j > 0$ шарт бажарилади, у ҳолда топилган ечим оптимал бўлади;

– ҳеч бўлмаганда битта оптималлик критерияси учун $\Delta_j < 0$ шарт бажарилади, лекин бу ўзгарувчи учун бирорта ҳам мусбат коэффициент мавжуд эмас, у ҳолда масала ечиш тўхтатилади, чунки $L(\bar{x}) = \infty$, яъни мақсад функция мумкин бўлган ечимлар соҳасида чегараланмаган;

– ҳеч бўлмаганда битта оптималлик критерийси манфий бўлиб, бунга мос ўзгарувчида ҳеч бўлмаганда битта мусбат коэффициент мавжуд бўлса, у ҳолда, мақсад функция қиймати катта бўлган бошқа таянч ечимга ўтилади;

– индекс сатрда манфий бўлган оптималлик критерийлари бир нечта бўлса, у ҳолда базис номаълумга, манфий баҳоларнинг орасидан, абсолют қиймати бўйича энг катта бўлган ўзгарувчи киритилади.

Айтайлик, битта баҳо $\Delta_k < 0$, ёки абсолют қиймати бўйича энг катта бўлган $\Delta_k < 0$ учун, k – устунни танлаймиз. Бундан фойдаланиб, озод ҳадларни k–устуннинг мусбат элементларига бўлгандан сўнг, энг кичик нисбатдан, аниқловчи элемент топилади.

4. Симплекс жадвалнинг иккинчи қадами аниқланади:

–аниқловчи турган сатр элементлари, аниқловчи элементга бўлиниб, янги жадвалга ёзилади;

– базис номаълум тўлдирилади;

– жадвалнинг бошқа коэффициентлари ҳам шу каби топилади. Янги таянч ечим аниқланади.

5. Алгоритмнинг биринчи қадамига қайтилади.[1]

Мисол. Чизиқли программалаштириш масаласини симплекс усул билан ечинг.

$$L(\bar{x}) = -x_1 + 3x_2 + 2x_3 \to \min$$

$$x_1 + x_2 + 2x_3 \geq -5$$

$$2x_1 - 3x_2 + x_3 \leq 3$$

$$2x_1 - 5x_2 + 6x_3 \leq 5$$

$$x_j \geq 0 \quad \left(j = \overline{1, 3}\right)$$

Ечиш. Берилган масалани каноник шаклга келтирамиз:

$$L(\bar{x}) = -x_1 + 3x_2 + 2x_3 \to \min$$

чегаравий шартларда

$$-x_1 - x_2 - 2x_3 + x_4 = 5$$

$$2x_1 - 3x_2 + x_3 + x_5 = 3$$

$$2x_1 - 5x_2 + 6x_3 + x_6 = 5$$

$$x_j \geq 0 \quad \left(j = \overline{1, 6}\right)$$

[1] Сафаева Қ. Математик дастурлаш. Тошкент, 2004.

Симплекс жадвални тузамиз

БН	*C*	*B*	-1	3	2	0	0	0
			x_1	x_2	x_3	x_4	x_5	x_6
x_4 x_5 x_6	0 0 0	5 3 5	-1 (2) 2	-1 -3 -5	-2 1 6	1 0 0	0 1 0	0 0 1
		0	1	-3	-2	0	0	0
x_4 x_1 x_6	0 -1 0	13/2 3/2 2	0 1 0	-5/2 -3/2 -2	-3/2 ½ 5	1 0 0	½ ½ -1	0 0 1
		-3/2	0	-3/2	-5/2	0	-1/2	0

Симплекс жадвалдан фойдаланиб, масаланинг оптимал ечимини аниқлаймиз

$\bar{x}_{опт} = (x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6) = (3/2, 0, 0, 13/2, 0, 2),\ \min L(\bar{x}) = -3/2$.

Мисол. Чизиқли программалаштириш масаласини симплекс усул билан ечинг. $z = 40y_1 + 30y_2 \to max$

$$\begin{cases} y_1 + y_2 \le 12 \\ 2y_1 + y_2 \le 16 \\ y_{1,2} \ge 0 \end{cases}$$

Ечиш. $z - 40y_1 - 30y_2 = 0$

$$\begin{cases} y_1 + y_2 + y_3 = 12 \\ 2y_1 + y_2 + y_4 = 16 \\ y_{1,2,3,4} \ge 0 \end{cases}$$

B	z	Y_1	Y_2	Y_3	Y_4	озод
	1	-40	-30	0	0	0
Y_3	0	1	1	1	0	12
Y_4	0	2	1	0	1	16
	1	0	-10	0	20	320
Y_3	0	0	1/2	1	-1/2	4
Y_1	0	1	1/2	0	1/2	8
	1	0	0	20	10	400
Y_2	0	0	1	2	-1	8
Y_1	0	1	0	-1	1	4

Жавоб: $y_1=4$, $y_2=8$, $z_{max}=400$.

Отакулов Салим (доктор физико-математических наук, профессор,
Джизакский Политехнический институт; e-mail: otakulov52@mail.ru),
Рахимов Бойхуроз Шермухаммедович (Джизакский Политехнический институт)

ОБ УСЛОВИЯХ УПРАВЛЯЕМОСТИ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ВКЛЮЧЕНИЯ

Annotatsiya. *Ushbu maqolada differensial mansubliklar bir sinfi uchun boshqariluvchanlik masalasi o‘rganilgan. Tizimning berilgan terminal to‘plamga nisbatan boshqariluvchanligi zaruriy va yetarli shartlari olingan.*

Аннотация. *В работе для одного класса дифференциальных включений изучена задача управляемости. Получены необходимые и достаточные условия управляемости системы относительно заданного терминального множества.*

Annotation. *In this paper, the problem of controllability for one class of differential inclusion is researched. The necessary and sufficient conditions of controllability of the system with respect to the given terminal set are obtained.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv tizimi, differensial mansublik, terminal to‘plam, boshqariluvchanlik shartlari.*

Ключевые слова: *система управления, дифференциальное включение, терминальное множество, условия управляемости.*

Keywords: *dynamic control system, differential inclusion, terminal set, conditions of controllability.*

1. Введение. Дифференциальные включения имеют широкие приложения в теории динамических систем управления, дифференциальных играх и в других разделах современной математики.[1] В теории оптимального управления важной характеристикой каждой динамической системы управления является ее свойство управляемости, которое означает возможность перевода траекторий системы из начального состояния в требуемое конечное состояние.[2] Поэтому проблема управляемости актуальна для динамических систем, описываемых различными классами дифференциальных включений.

В теории управления большой интерес представляют проблемы условной и относительной управляемости,[3] а также условия локальной управляемости.[4] Отдельные свойства типа локальной управляемости и управляемости в малом для дифференциальных включений рассмотрены в работах. Свойство управляемости дифференциального включения с учетом структуры заданного множества терминальных состояний и управляемость ансамбля траекторий дифференциальных включений с параметрами изучены.[5] Представляет интерес изучение структурных свойств множества

---

[1]Благодатских В.И., Филиппов А.Ф. Дифференциальные включения и оптимальное управление. Труды математического института АН СССР. 1985, с. 194–252; Борисович Ю.Г., Гельман Б.Д., Мышкис А.Д., Обуховский В.В. Введение в теорию многозначных отображений и дифференциальных включений. М., КомКнига, 2005; Половинкин Е.С. Многозначный анализ и дифференциальные включения. М., Физматлит, 2015.

[2]Ли Э.Б., Маркус Л. Основы теории оптимального управления. М., “Наука”, 1972; Габасов Р.Ф., Кириллова Ф.М. Качественная теория оптимальных процессов. М., “Наука”, 1971; Ащепков Л.Т. Оптимальное управление линейными системами. Иркутск, ИГУ, 1982.

[3] Габасов Р.Ф., Кириллова Ф.М. Качественная теория оптимальных процессов. М., “Наука”, 1971.

[4]Margheri A. On the 0-local controllability of a linear control system. J.Opt. Theory and Appl., 1990, vol. 66, №1, p. 61–69; Азаматов А.Р., Пак Е.В. О локально 0-управляемости линейных систем. Управляемые системы. Сб. научных трудов ТашГУ, 1982, с. 3 – 8.

[5] Отакулов С. Задачи управления ансамблем траекторий дифференциальных включений. Монография, Lambert Academic Publishing, 2019; Otakulov S., Rahimov B.Sh. About the property of controllability an ensamble of trajectories of differential inclusion. International Enjineering Journal for Research & Development. Vol.5, issue 4, 2020, pp. 366 –374; Отакулов С., Рахимов Б.Ш. Задача управления ансамблем траекторий дифференциального включения с параметрами при условии подвижности терминального множества. Научный вестник СамГУ, серия точных наук, 2021, №1, с. 59; Otakulov S., Kholiyarova F.Kh. About conditions of controllability of ensamble trajectories of differential inclusion with delay. International Journal of Statistics and Applied Mathematics. 2020, vol.5, issue 3, p. 59–65; Otakulov S., Rahimov B.Sh. On the properties of the controllability set for differential inclusion under condition mobility of terminal set. Proceedings of 5th Global Congress on Contemporary Sciences&Advancements. A Multidisciplinary International Scientific Conference. Singapore, May 10th 2021, pp. 38 – 42.

управляемости относительно терминального множества. Важное значение имеют необходимые и достаточные условий управляемости дифференциального включения для заданных начальных и терминальных множеств.

2. Постановка задачи. Для динамических систем важной является задача о возможности перевода системы, описываемой дифференциальным включением

$$\dot{x} \in F(t,x),\ t \geq t_0,\quad x(t_0) = x_0 \in Z, \tag{1}$$

из множества начальных состояний $Z \subset R^n$ в заданное терминальное множество $M \subset R^n$ на некотором конечном отрезке времени $T = [t_0, t_1]$.

Под допустимыми траекториями рассматриваемой системы (1) будем понимать каждую абсолютно непрерывную n-вектор функцию $x = x(t)$, удовлетворяющую почти всюду на некотором отрезке времени $T = [t_0, t_1]$ заданному дифференциальному включению.

Определение. Будем говорить, что дифференциальное включение (1) управляемо из начального множества $Z \subset R^n$ в терминальное множество M на отрезке времени $T = [t_0, t_1]$, если существует абсолютно непрерывная траектория $x(t)$, такая, что $x(t_0) \in Z$, $x(t_1) \in M$.

Управляемость дифференциального включения из начального множества $Z \subset R^n$ в терминальное множество M равносильна тому, что $X(t_0, t_1, Z, F) \cap M \neq \varnothing$ при некотором моменте $t_1 > t_0$, где $X(t_0, t_1, Z, F)$ – множество достижимости динамической системы (1) в момент времени $t_1 > t_0$, т.е. множество концов $x_1 = x(t_1)$ всевозможных абсолютно непрерывных траекторий $x = x(t)$ с начальным условием $x(t_0) \in Z$.

Используем следующие обозначения:

$\Omega(R^n)$ – совокупность всех компактных (т.е. замкнутых и ограниченных) подмножеств из евклидового пространства R^n; $co\Omega(R^n)$ – совокупность всех выпуклых компактных подмножеств из R^n; $\|X\| = \sup\limits_{\xi \in X} \|\xi\|$ – норма ограниченного множества $X \subset R^n$; $X + Y = \{z : z = x + y, x \in X, y \in Y\}$ – алгебраическая сумма множеств X и Y из R^n; $\lambda X = \{z : z = \lambda x,\ x \in X\}$ – произведение множества X на число $\lambda \in R^1 = (-\infty, +\infty)$; $R^{n \times n}$ – пространство вещественных $n \times n$-матриц $A = (a_{ij}, i, j = \overline{1,n})$ с нормой $\|A\| = (\sum\limits_{i,j=1}^{n} a_{ij}^2)^{\frac{1}{2}}$; $L_1(T)$ - пространство интегрируемых на T по Лебегу функций $g = g(t)$; $c(X, \psi) = \sup\{(x, \psi) :\ x \in X\}$ – опорная функция компактного множества $X \subset R^n$.

3. Свойства множества достижимости линейного дифференциального включения. Рассмотрим линейное дифференциальное включение

$$\dot{x} \in A(t)x + B(t),\ t \geq t_0,\ x(t_0) \in Z, \tag{2}$$

где $A : R^1 \to R^{n \times n}$, $B : R^1 \to \Omega(R^n)$. Будем предполагать, что элементы матрицы $A(t)$ измеримы на $T = [t_0, t_1]$ и $\| A(t) \| \leq a(t)$, где $a(\cdot) \in L_1(T)$ а многозначное отображение $t \to B(t) \in \Omega(R^n)$ измеримо на отрезке $T = [t_0, t_1]$ и $\| B(t) \| \leq b(t)$, где $b(\cdot) \in L_1(T)$. Согласно принятого обозначения $X(t_0, t_1, x_0, A, B)$ – множество достижимости дифференциального включения (2).

Обозначим через $\Phi_A(t, \tau)$ фундаментальную матрицы решений уравнения $\dot{x} = A(t)x,\ t \in T$. Из результатов теории дифференциальных уравнений хорошо известно, что для каждой интегрируемой функции $b : T \to R^n$ абсолютно непрерывное решение начальной задачи

$$\dot{x} = A(t)x + b(t), t \in T, x(t_0) = \xi$$

представляется через формулы Коши:

$$x(t) = \Phi_A(t,t_0)\xi + \int_{t_0}^{t} \Phi_A(t,\tau)b(\tau)d\tau, t \in T. \quad (3)$$

Используя формулу (3) и лемму Филиппова о неявных функциях [1,3,15], можно получить представление множества достижимости дифференциального включения (2) через фундаментальной матрицы $\Phi_A(t,\tau)$ и многозначного отображения $B: T \to \Omega(R^n)$.

Лемма. Справедлива формула:

$$X(t_0,t,Z,A,B) = \Phi_A(t,t_0)Z + \int_{t_0}^{t} \Phi_A(t,\tau)B(\tau)d\tau,\ t \in T. \quad (4)$$

Следствие 1. Пусть $Z \subset R^n$ – выпуклое множество. Тогда множество $X(t_0,t,Z,A,B)$ выпукло при всех $t \in T$. Если $Z \in co\,\Omega(\grave{R}^n)$, то множество $X(t_0,t,Z,A,B)$ является выпуклым компактом из R^n при всех $t \in T$.

Следствие 2. Опорная функция множества $X(t_0,t,Z,A,B)$ вычисляется по формуле:

$$c(X(t_0,t,Z,A,B),\psi) = c(\Phi_A(t,t_0)Z,\psi) + \int_{t_0}^{t} c(\Phi_A(t,\tau)B(\tau),\psi)d\tau. \quad (5)$$

4. Условия управляемости. Рассмотрим следующую функцию:

$$\mu(\psi) = c(\Phi_A(t_1,t_0)Z,\psi) + \int_{t_0}^{t_1} c(\Phi_A(t_1,\tau)B(\tau),\psi)d\tau + c(M,-\psi), \psi \in R^n. \quad (6)$$

Теорема. Дифференциальное включение (2) управляемо из выпуклого начального множества Z в выпуклое терминальное множество M на отрезке времени $T = [t_0,t_1]$ тогда и только тогда, когда

$$\inf_{\|\psi\|=1} \mu(\psi) \geq 0. \quad (7)$$

Доказательство. Как уже заметили выше, управляемость дифференциального включения (2) из начального множества Z в терминальное множество M на отрезке времени $T = [t_0,t_1]$ равносильна соотношению

$$X(t_0,t_1,Z,A,B) \cap M \neq \varnothing.$$

А последнее имеет место тогда и только тогда, когда

$$0 \in X(t_0,t_1,Z,A,B) - M. \quad (8)$$

В силу следствия 1 множество $X_T(t_1,Z,A,B)$ выпукло, а по заданному условию M – выпуклое множество, и поэтому их разность также является выпуклым. Следовательно, соотношение (8) равносильно неравенству

$$c(X_T(t_1,Z,A,B),\psi) + c(M,-\psi) \geq 0, \forall \psi \in R^n, \|\psi\| = 1.$$

Используя формулы (4) и (5) из последнего соотношения, получим:

$$c(\Phi_A(t_1,t_0)Z,\psi) + \int_{t_0}^{t_1} c(\Phi_A(t_1,\tau)B(\tau),\psi)d\tau + c(M,-\psi) \geq 0,\ \|\psi\| = 1.$$

Теперь, учитывая (6), последнее соотношение записывается в виде (7). Теорема доказана.

Следствие 3. Если дифференциальное включение (2) управляемо из выпуклого компактного начального множества Z в выпуклое компактное терминальное множество M на отрезке времени $T = [t_0,t_1]$ и $\Phi_A(t_1,t_0)Z \cap M = \varnothing$, то для всех направлений $\psi^* \in R^n, \|\psi^*\| = 1$, строго разделяющих множеств $\Phi_A(t_1,t_0)Z$ и M гиперплоскостей, справедливо неравенство

$$\int_{t_0}^{t_1} c(\Phi_A(t_1,\tau)B(\tau),\psi^*)d\tau > 0. \quad (9)$$

В самом деле, из условия $\Phi_A(t_1,t_0)Z \cap M = \varnothing$ следует существование хотя бы одного вектора $\psi^* \in R^n, \|\psi^*\| = 1$, такого , что имеет место соотношение

$$c(\Phi_A(t_1,t_0)Z,\psi^*) + c(M,-\psi^*) < 0 \ .$$

Последнее означает, что $\Phi_A(t_1,t_0)Z$ и M строго разделяются гиперплоскостью, имеющее направление $\psi^* \in R^n, \|\psi^*\| = 1$. Теперь, если допустим, что условие (9) не выполняется, то получим следующее неравенство:

$$\inf_{\|\psi\|=1} \mu(\psi) \le c(\Phi_A(t_1,t_0)Z,\psi^*) + c(M,-\psi^*) + \int_{t_0}^{t_1} c(\Phi_A(t_1,\tau)B(\tau),\psi^*)d\tau < 0 \, .$$

Но это противоречит необходимому условию управляемости (7).

Следствие 4. Если

$$\inf_{\|\psi\|=1} [c(\Phi_A(t_1,t_0)Z,\psi) + c(M,-\psi)] + \inf_{\|\psi\|=1} \int_{t_0}^{t_1} c(\Phi_A(t_1,\tau)B(\tau),\psi)d\tau \ge 0 \, , \quad (10)$$

то дифференциальное включение (2) относительно управляемо из выпуклого начального множества Z в выпуклое терминальное множество M на отрезке времени $T = [t_0,t_1]$.

В самом деле, так как

$$\mu(\psi) \ge \inf_{\|\psi\|=1} [c(\Phi_A(t_1,t_0)Z,\psi) + c(M,-\psi)] + \inf_{\|\psi\|=1} \int_{t_0}^{t_1} c(\Phi_A(t_1,\tau)B(\tau),\psi)d\tau \, ,$$

то в силу (10) получим достаточное условие (7).

5. Заключение. В работе рассмотрен вопрос управляемости динамической системы для одного класса дифференциальных включений. Используя свойства множества достижимости дифференциального включения, доказаны необходимые и достаточные условия управляемости рассмотренной систе-мы из заданного начального множества в терминальное множество. Полученное условие представляет критерий управляемости для динамической системы, описываемой дифференциальным включением. Из полученных результатов выведены соответствующие следствия.

FALSAFA

Sharipova Oygul Tursunovna (BuxDU Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi)

XOJAGON TARIQATINING ABDULXOLIQ G‘IJDUVONIYDAN KEYINGI RIVOJI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xojagon tasavvufiy tariqatining takomillashib, keng yoyilishi, ushbu tasavvufiy tariqat asoschisi Abdulxoliq G‘ijduvoniydan keyingi rivojlanish, ularning tariqatdagi faoliyatlarining falsafiy tahlili o‘z aksini topgan.*

Аннотация. *В данной статье отражено развитие суфийского тариката Ходжагон, её развитие после основателя этой секты Абдулхалика Гиждувани, а также философский анализ их деятельности в тарикате.*

Annotation. *This article reflects the development of the Sufi tariqa Khojagon, its development after the founder of this sect, Abdulkhalik Gijduvani, as well as a philosophical analysis of their activities in the tariqa.*

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, tariqat, Xojagon tariqati, tariqat odoblari, zikr, samo, ilm, ijtimoiy hayot, axloqiy tarbiya, komil inson.*

Ключевие слова*: суфизм, тарикат (путь), тарикат Ходжаган, этикет тариката, зикр, само, наука, социальная жизнь, зрелый человек.*

Keywords: *Sufism, tariqat (way), tariqat Khojagan, etiquette of tariqa, dhikr, samo, science, social life, mature person.*

Markaziy Osiyoda rivoj topgan tariqatlar, ayniqsa, Xojagon-naqshbandiyaning dunyoga keng yoyilib, mashhur bo‘lishiga ona zaminimizdan yetishib chiqqan ulug‘ zotlarning hissasi beqiyos. Bu borada Buxoroyi sharifning dunyoga mashhur yetti piri: Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Bobo Samosiy, Xoja Sayyid Amir Kulol va Xoja Bahouddin Naqshbandning xizmatlari katta ahamiyatga ega.

Islom tasavvufining bu mashhur tariqat vakillari halolligi, sunnatga rioya etishlari, xalqparvarligi, me’yoriy hayot tarziga da’vati bilan barchani o‘ziga jalb qilgan. Chunki ular yuksak ilm-ma’rifat sohibi sifatida, xalq bilan hamnafas murshid, marhamatli ustoz, axloqi komil inson bo‘lganliklari uchun ham e’tiborga loyiq bo‘lganlar. Tasavvufda “irodat silsilasi”[1] deb, murshid[2] (shayx, pir) tomonidan muridga,[3] o‘z navbatida, murshidga aylangan murid tomonidan uning muridlariga uzluksiz ravishda uzatib boriladigan vorislik asosidagi murshidlik – muridlik zanjiri, so‘fiylik an’anasining bir avloddan keyingi avlodaga uzluksiz ravishda uzatib borilishini ta’minlaydigan murshidlik – muridlik tizimiga aytiladi. Shuningdek, ba’zida “irodat silsilasi“ deganda, biror murshidning o‘z murshidini va o‘z murshidini ushbu zanjirining oxirgi halqasi bo‘limish o‘zidan boshlab, mazkur zanjirning boshiga qarab uzluksiz tarzda nomma-nom aytib borishidan hosil bo‘lgan murshidlar ro‘yxati tushuniladi.[4]

Xojagon-naqshbandiya tariqatida ushbu tariqat vakillari o‘z irodat silsilalarini payg‘ambarimiz (s.a.v.)dan boshlangan deyishadi.

“Rashahot ayn al-hayot” (“Obi hayot tomchilari”) asarida ham murshidlik-muridlik rishtasi besh yo‘l orqali Xojagon-naqshbandiya pirlariga yetib kelganligi aytilsa ham, quyidagi silsilani asosiy yo‘l hisoblashgan: Muhammad (s.a.v.), Abu Bakr Siddiq, Solmoni Forsiy, Qosim bin Muhammad Ja’fari Sodiq, Boyazid Bistomiy, Abdulhasan Haraqoniy, Abu Ali Formadiy, Xoja Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy. Ushbu silsilaning mazkur tariqat shayxlari “Silsilat uz-zahab” (“Oltin silsila, “Oltin zanjir”) deb ataganlar. Abdulxoliq G‘ijduvoniy bu borada ustozining quyidagi fikrlarini bayon etgan: “Bu (tariqat) yo‘li hazrati Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhudan bizgacha yetib kelgan va qiyomatga qadar davom eta-

[1] Силсила (арабча: занжир, қатор, тизим); бирор таълимотнинг устоздан шогирдга узлуксиз тартибда узатиб бориш тизими.

[2] Муршид (арабча иршод қилувчи, тўғри йўлга бошловчи)

[3] Мурид (арабча иродат қилувчи, истовчи) муршидга шогирд тушган, толиби илм.

[4] Акимушкин О. Силсила. Ислам. Энциклопедический словарь. Москва, “Наука”, 1991, с. 206–209; Ислом. Энциклопедия. Шайх Абдулазиз Мансур таҳрири остида. Т., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 418 – 419-бетлар.

jakdir. Shu bois barcha mo‘minlar va solihlar bu tanlangan yo‘lga ergashishi, bu xonadon bilan suhbat qurishi, ularning yo‘liga suluk etib, ular bilan birga bo‘lishdan va unsiyatdan uzoq qolmasligi kerak”.[1]

“Ey Abdulxoliq! Bilginki, Haq yo‘lining yo‘lchiligi, ya’ni, suluk ikki qismdir: suluki zohir va suluki botin. Birinchisi, suluki zohir bo‘lib, u har hol-u korda ilohiy amr va ta’qiqlarga rioyat etish, imkon doirasida diniy mezonlarni saqlash va nafs orzularidan qochishdir. O‘z a’zolarini havo-yu nafsdan saqlab, shariat hududida muhofaza qilishdir. Ikkinchi qism bo‘lgan suluki botin esa qalbni poklashga harakat qilish va nafsoniy yomon sifatlarni yo‘qotish uchun g‘ayrat sarflashdir, Botiniy tahorat – qalbning Haq zikri bilan go‘yo bo‘lishligi uchun zikrda behad jidd-u jahd qilish. Bu zikr talqini, dastlab, hazrati Abu Bakr raziyallohu anhuning qalbiga, undan Salmon Forsiyga,[2] undan Ja’fari Sodiqqa, undan Sulton Boyazid (Bastomiy)ga, undan Shayx Abul Hasan Xaraqoniyga, undan buyuk shayx[3] Abu Ali Formadiy Tusiyga va undan esa bizga qadar yetib kelgan”, deyilgan.[4]

1. Abu Bakr Siddiq zamonidan Boyazid Bistomiy davrigacha – siddiqiya.

2. Boyazid Bistomiy zamonidan Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy davriga qadar Bistomiynig “Tayfur” degan ismidan kelib chiqqan holda tayfuriya.

3. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy zamonidan Xoja Bahouddin Naqshband davrigacha Xojagon;

4. Xoja Bahouddin Naqshband davridan Xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahror (1404–1490) zamonigacha naqshbandiya.

5. Xoja Nosiriddin Ubaydillo Ahrordan keyin naqshbandiya yoki ahroriya.

6. Sayyid Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy (1464–1549) davridan keyin naqshbandiya yoki dahbediya.

Mazkur tariqat Movarounnahrdagi butun tarixi davomida, Xoja Bahouddin Naqshband va Xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahrordan keyin ham Xojagon nomi bilan atalgan.[5] Xojagon-naqshbandiya tariqati 16–17-asrlardan boshlab Hindiston va Yaqin Sharqning turli mamlakatlariga tarqalgach, mazkur o‘lkalarda uning turli tarmoqlari vujudga keladi. Jumladan, ushbu tariqatning Shayx Ahmad Foruqiy Sirxindiy (1564–1624) tomonidan Hindistonda asos solingan tarmog‘i mujaddidiya, Shamsiddin Habibulloh Mazhar (1699–1781) tomonidan Hindistonda asos solingan tarmog‘i mazhariya, Mavlono Ziyouddin Xolid (1779–1827) tomonidan Iroq va Suriyada asos solingan tarmog‘i xolidiya deb atala boshlaydi. Biroq mazkur tarmoqlar, asosan, naqshbandiya deb atalar yoki naqshbandiya nomi ushbu tarmoqlar nomining tarkibida saqlanib qolgandi.[6]

Yusuf Hamadoniy Xurosonga ketganidan so‘ng Abdulxoliq G‘ijduvoniy bir muddat nafs tarbiyasi bilan shug‘ullanadi, natijada valiy darajasiga yetishadi.[7] O‘zining valiyligi va karomatlarini[8] boshqalardan yashiradi. Xojagon-Naqshbandiya tariqatiga oid manbalar G‘ijduvoniyning valiylik darajasini ko‘rsatish maqsadida uning bir namozni o‘qish uchun ham Ka’baga borib kelganligi to‘g‘risidagi rivoyatni eslatadi.[9]

Abdulxoliq G‘ijduvoniy hayotining keyingi bosqichida Xojagon silsilasiga rahbarlik qiladi. Manbalarda keltirilishicha, Xoja Yusuf Hamadoniy o‘limidan, avval, o‘zidan keyin uning o‘rniga Xoja Abdulloh Barakiy, undan keyin Xoja Hasan Andaqiy, undan so‘ng Xoja Ahmad Yassaviy xalifa bo‘lishi, Xoja Ahmad Turkistonga ketgach, uning o‘rnini Abdulxoliq G‘ijduvoniy egallashi lozimligini vasiyat qiladi.[10] Ha-madoniyning vasiyatiga muvofiq, Xoja Ahmad Yassaviy ma’lum muddat Buxoroda tariqat rahbarligini amalga oshirgach, Turkistonga ketar chog‘i barcha muridlarini Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyga topshirib ketadi.[11] Shundan so‘ng Abdulxoliq G‘ijduvoniy muridlar tarbiyalash va murshidlik qilish bilan shug‘ul-lanadi. “Rashaxot ayn al-hayot” muallifi bu to‘g‘rida yozadi: “Ul hazrat

---

[1] С.Сайфулоҳ, Н.Ҳасан. Абдулхолиқ Ғиждувоний. Рисолалар. Т., “Мовароуннаҳр”, 2018, 17-бет.
[2] Абдулхолиқ Ғиждувоний. Рисолалар. С.Сайфулоҳ, Н.Ҳасан. Т., “Мовароуннаҳр”, 2018, 17-бет.
[3] Шу манба.
[4] Шу манба.
[5] Шу манба.
[6] Заринкўб Абдулҳусайн. Эрон тасаввуфи борасида изланиш. Теҳрон, “Амири Кабир”, 1997, 206–20-бетлар.
[7] Валий (арабча, дўст) тасаввуфда комилликка эришган, Ҳақ мушуҳадаси билан машғул бўлган, Худонинг дўсти даражасига эга бўлган киши.
[8] Нафаҳот ул-унс. 383-бет; Насойим ул-муҳаббат. 254-бет; Манокиби Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. 19-бет; Рашаҳот айн ал-ҳаёт. 1-ж, 36-бет.
[9] Заринкўб Абдулҳусайн. Эрон тасаввуфи борасида изланиш. Теҳрон, “Амири Кабир”, 1997, 206 –207-бетлар.
[10] Макомоти Юсуф Ҳамадоний. 8-бет; Рашахот айн ал-ҳаёт. 1-ж, 14–19-бетлар.
[11] Нафаҳот ул-унс. 383-бет; Насойим ул-муҳаббат. 253-бет; Рашахот айн ал-ҳаёт. 1-ж, 18-бет.

bir qancha vaqt xalqni irshod va da’vat etish (to‘g‘ri yo‘lga chorlash va yo‘llash) maqomida qattiq turib, toliblar va sodiqlarga Haq yo‘lini ko‘rsatishga mashg‘ul bo‘ldilar”.[1]

Manbalarda Xojagon ta’limotining Movarounnahrdan ancha uzoqda joylashgan Shom o‘lkasida yoyilishi to‘g‘risida ham so‘z boradi. Jumladan, Shomda ko‘plab kishilar G‘ijduvoniyga murid tushishadi, ular ushbu o‘lkada o‘z pirlari ta’limotlarini yoyish uchun xonaqohlar barpo etishadi.[2] Xojagon-naqshbandiya tariqatining suriyalik izdoshi Abdulmajid Xoniy (1847–1900) esa “Al-Xadoyik al-vardiya” asarida G‘ijduvoniyning, hatto bir muddat Shomga borib yashagani, ushbu o‘lkada o‘z ta’limotini yoyish uchun xonaqoh barpo etgani hamda u yerda ko‘plab muridlar to‘plaganini yozadi. “Orifnoma” asarida Abdulxoliq G‘ijduvoniyning bir marta uch yillik haj safariga ketganligi, bu muddatda uning ko‘rsatmasiga ko‘ra, shogirdi Xoja Muhammad Orif Revgariy tariqat rahbarligini amalga oshirganligi to‘g‘risida ma’lumot keltiriladi.[3] G‘ijduvoniy hayotining so‘nggi yillarida amalga oshirganligini taxmin qilish mumkin bo‘lgan ana shu safar davomida uning Shom o‘lkasiga borib, ma’lum muddat u yerda yashaganligi va tariqatini yoygan bo‘lishi ham mumkin.

Garchi Xoja Yusuf Hamadoniy ko‘plab muridlar tarbiyalagan hamda ulardan yuqorida eslatib o‘tilgan to‘rttasi – mazkur silsilaga ketma-ket rahbarlik qilgan Baraqiy, Andakiy, Yassaviy va G‘ijduvoniylar uning asosiy shogirdlari hisoblangan bo‘lsalar-da, ilk ikki shogirddan keyin silsila rahbarligini o‘z zimmasiga olgan Yassaviy va G‘ijduvoniylargina Xojagon ta’limotini rivojlantirib, mazkur silsilani so‘fiylik tariqatiga aylantirishga, ya’ni, o‘z mustaqil tariqatlariga – Xojagon-naqshbandiya hamda asli Xojagon silsilasi natijasida vujudga kelgan yassaviya tariqatlariga asos solganlar. Xojagon-naqshbandiya tariqati manbalari ham aynan Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyning mazkur tariqat asoschisi ekanligini ta’kidlaydilar. Jumladan, ushbu tariqat nazariyotchisi Xoja Muhammad Porso (749/1348–822/1420) o‘zining “Fasl ul-xitob” asarida “Ul hazratning faoliyati tariqat uchun qonun bo‘lib, barcha tariqatlar tomonidan ma’qullangandir”,[4] deya aynan G‘ijduvoniyning so‘fiylik faoliyati Xojagon-naqshbandiya tariqati ta’limoti uchun asos bo‘lganligini ta’kidlasa, “Rashhxot ayn al-hayot” muallifi G‘ijduvoniyni “Xojagon zanjirining bosh halqasi”,[5] “Xojagon tabaqasining asoschisi va ushbu ulug‘lar silsilasining boshlovchisi”[6] deb tanishtirish orqali uning ushbu tariqat asoschisi ekanligini eslatadi.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy o‘z asarlarida shaxsiy so‘fiylik amaliyoti misolida Xojagon-naqshbandiya tariqatining quyidagi nazariy va amaliy asoslarini yaratib berdi: Shariat va sunnatga qattiq rioya qilish. Tasavvuf paydo bo‘lgan ilk davrlardan boshlab, so‘fiylar tasavvufning islom shariatiga muvofiqligini Markaziy Osiyo tasavvuf maktabining yirik vakillari, Buxoro so‘fiylik muhitidan yetishib chiqqan yirik tasavvuf nazariyotchilari Abu Bakr Kalobodiy (305/917–385/995) va Mustamliy Buxoriylar (vaf. 434/1043) ta’kidlaganlar va so‘fiylik yo‘lining aynan shariatdai boshlanishiga urg‘u berib o‘tganlar.[7]

Xoja Yusuf Hamadoniy ham “To‘g‘ri yo‘l Xudoning rasuli Hazrat Muhammad (s.a.v.) yo‘lidir”, deya shariatga rioya qilish so‘fiylikning ilk sharti ekanligiga ishora qilgan. Bu bilan, bir tomondan, tasavvufning shariatga muvofiqligiga bo‘lgan shubhalarning asossizligini ko‘rsatish, ikkinchi tomondan, shariatga xilof ish tutuvchi soxta so‘fiylardan uzoq yurish kerakligi ogoh qilingan. Yuqorida ham ta’kidlaganimizdek, Xojayi Jahon “Odobi tariqat” asarida shunday deydi: “Xudoyi taolo, Rasulullo, ota-ona va barcha mashoyixlarning haklarini ado qilguvchi bo‘l. Qur’on o‘qishni, aslo, tark qilma. Barcha ishlarda Qur’onga tayangin fiqh ilmi va hadis ilmini o‘rgan hamisha sunnatga amal qil, o‘tmishdagi ulug‘ ulamo-

[1] Рашаҳот айн ал-ҳаёт. 1-ж, 37-бет.

[2] Нафаҳот ул-унс. 383-бет; Насойим ул-муҳаббат. 254-бет; Манокиби Хожа Абдулхолий Ғиждувоний. 19-бет; Рашаҳот айн ал-ҳаёт. 1-ж, 36-бет.

[3] Орифнома. 14-бет.

[4] Шу манба.

[5] Шу манба.

[6] Шу манба.

[7] Абу Бакр Муҳаммад ибн Исҳоқ Ат-Таъарруф ли-мазҳаб аҳл ат-тасавуф (араб тилида). Нашрга тайёрловчи Аҳмад Шамсиддин. Байрут, Дор ул-кутуб ал-илмия. 2001, 7, 31–35-бетлар; Ап-Мустамлий ал-Бухорий, Абу Иброҳим Исмоил ибн Муҳаммад. Шар ат-Таъарруф ли-мазҳаб ат-тасаввуф (форс тилида) (Муҳаммад Равшан таҳрири остида). 5 рублик, 1-рубъ, Тсхрон, “Асотир”, 1363/1984, 41-бет, 51,73. 90-бетлар.

larning yo‘llaridan yurgin taqlidchi so‘fiylardan uzoq bo‘lginki, ular din yo‘lining o‘g‘rilaridir va musulmonlarni yo‘ldan uruvchidirlar”.[1]

Xoja Muhammad Porso ham G‘ijduvoniy ta’limoti Muhammad Mustafo (s.a.v.) shariati va sunnatiga, ahli sunnat va jamoat e’tiqodiga muvofiqligini ta’kidlagan.[2] Tasavvufning ilk davrlaridan boshlab sayr-u sulukning – so‘fiyning o‘z maqsadiga yetish uchun bosib o‘tadigan yo‘lining bosqichlari turlari, soni va ketma-ketligi borasida turlicha qarashlari mavjud bo‘lgan. Xojagonlikda ham so‘fiylik ta’limotlarida bo‘lgani kabi, tavba birinchi maqomi – so‘fiylik yo‘lining boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Xojagon tariqatida kishi tavba qilib, so‘fiylik yo‘liga qadam qo‘ygach, bu yo‘lda o‘ziga yo‘lboshchi – shayx topish va unga murid tushish uchun ikkinchi bosqich – irodat (muridlik) maqomiga yetadi. Shundan so‘ng solik maqomlar juftliklari – zuhd va taqvo, sabr va rizo, muhabbat va sadoqat, tafviz va taslim hamda shukr va tavakkul bosqichlarini bosib o‘tadi. G‘ijduvoniy sayr-u suluk bosqichlarini bosib o‘tish jarayonida zikr, xayolga kelgan o‘ylarni farqi va qalb sorligini muridlik shartlari sifatida eslatib o‘tadi.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy o‘z tariqati a’zolari uchun odob-axloq qoidalarini ham ishlab chiqdi. U o‘zining “Odobi tariqat” asarida xalifasi Avliyoyi Kabir misolida o‘zining barcha izdoshlarini mansab va shuhratparastlikka berilmaslik, boshqalarga nisbatan xushmuomala bo‘lish, tariqatda esa mashoyixlar xizmatida bo‘lish, safarlarga chiqish, riyozat chekish hamda samo majlislariga ko‘p o‘tirmaslikka chaqiradi.[3]

Buxoroning oltinchi piri hisoblangan Sayyid Amir Kulolnnig nevarasi Mavlono Shahobiddin “Manoqibi Sayyid Amir Kulol” risolasida Xojagon tariqatiga oid fikrlarni keltirib, Abdulxoliq G‘ijduvoniyni shunday ta’riflaydi: “U zot (Abdulxoliq G‘ijduvoniy) tariqat sultoni, haqiqat hujjati, muhaqqiqlar qutbi, solihlar raisi, mushohada sohibi, jismoniy mukoshafat egasi, xalqni Haqqa boshlovchi, Haqning xalqqa hujjatidir”.[4]

Abdulxoliq G‘ijduvoniydan so‘ng bu vorislik Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Bobo Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband kabi o‘z davrining mashhur shayxlari tomonidan davom ettirildi.

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Abdulxoliq G‘ijduvoniyning uchta xalifasi borligini yozadi. Xoja Ahmad Siddiq, Xoja Orif Revgariy, Xoja Avliyoyi Kalon, shuningdek, Bahouddin Naqshband nomlari keltirilgan. Lekin keyingi ishonchli manbalardan u kishining ko‘plab murid-muxlislari va to‘rt xalifasi borligi ma’lum bo‘ladi.

Xoja Ahmad Siddiq – Abdulxoliq G‘ijduvoniy vafotidan keyin uning maqomiga o‘tgan birinchi xalifasi, Xoja Avliyoyi Kabir, ikkinchi xalifalari va ularning muridlari haqida ham manbalarda yozilgan.[5]

Fazlulloh ibn Ruzbexon “Manokibi Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy” asarida Abdulxoliq G‘ijduvoniyning irshodga ijozat olgan uch xalifasi – Xoja Ahmad Siddiq, Xoja Avliyoyi Kabir va Xoja Orif Revgariy to‘g‘risida eslatadi. Uning yozishicha, Xoja Abdulxoliqdan so‘ng uning o‘rniga Xoja Ahmad Siddiq o‘tiradi. Qolgan ikki xalifa, garchi murshidlikka ruxsat olgan bo‘lsalar-da, Xoja Ahmad Siddiq vafotiga qadar uning hurmatini qilib, irshodga kirishmay turadilar. U vafot etganidan keyin esa Xoja Avliyoyi Kabir va Xoja Orif Revgariy, bir vaqtning o‘zida, o‘z muridlarini tarbiyalashga kirishadilar.[6] Biroq “Rashahot ayn al-hayot” muallifi Abdulxoliq G‘ijduvoniy o‘z xalifalaridan to‘rttasi – Xoja Ahmad Siddiq, Xoja Avliyoyi Kabir, Xoja Salmon Karminiy va Xoja Orif Revgariyni “da’vat va irshod maqomiga loyiq” topganligini ma’lum qiladi. Ya’ni, Koshifiy G‘ijduvoniyning irshod ruxsatini olgan xalifalari qatorida yuqoridagi uch so‘fiydan tashqari, Xoja Salmon Karminiyni ham espatib o‘tadi. Uning yozishicha, garchi mazkur to‘rt xalifaning barchasi murshidlik qilishga ruxsat olgan bo‘lsalar-da, G‘ijduvoniy vafotidan so‘ng Xoja Ahmad Siddiq tariqat rahbarligini o‘z zimmasiga oladi. U vafot etganidan keyin esa uning muridlari Xoja Avliyoyi Kabir va Xoja Orif Revgariy murshidligi ostiga o‘tishadi.

Xoja Orif Revgariy (taxminan, 1165–1262) Xojagon silsilasining ikkinchi piri, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy ishining davomchisi, “Mohitobon” (“Yogdu sochib turuvchi oy”) va “Peshvoyi orifon” (“Oriflar peshvosi”) nomlari bilan mashhur bo‘lgan.

---

[1] Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. Одоби тариқат. Форс тилидан Маҳмуд Ҳасаний ва Г.Музаффар қизи таржимаси. Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний (Сўз боши, таржима, луғат ва изоҳлар муаллифи Маҳмуд Ҳасаний). Тошкент, “Ўзбекистон”, 2003, 97 – 98-бетлар.

[2] Фасл ул-хитоб. 696 – 697-бетлар.

[3] Одоби тариқат. 99 – 100-бетлар.

[4] Сайфиддин Сайфуллоҳ. Етти пир (Дунё муршидлари). Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 38-бет.

[5] Шу манба. 84-бет.

[6] Манокиби Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. 20-бет; Рашоҳот айн ал-ҳаёт. 1-ж, 50 – 59-бетлар.

Manbalarning guvohlik berishicha, u yoshlik chog‘laridanoq so‘ufiylik yo‘liga kirib, Abdulxoliq G‘ijduvoniy muridlari qatoridan joy oladi. Revgariy Abdulxoliq G‘ijduvoniyning boshqa shogirdlari orasida tirishqoqligi bilan ajralib turgan.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy murshidligida tariqat odoblariga rioya qilib, Revgariy bora-bora uning eng buyuk muridlaridan va xalifalaridan biriga aylanadi.

Xojagon silsilasining uchinchi piri Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, taxminan, XIII asr boshlarida Buxoro yaqinidagi Vobkent muzofotining Anjirfag‘na qishlogida dunyoga kelgan.

Xoja Mahmud Xojagon tariqatida birinchilardan bo‘lib zikri jahriyni boshlab bergan. Yakka shaxs uchun zikri xafiyni, jamoat uchun zikri jahriyni afzal ko‘rgan. Zikri jahriydan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad sifatida kishilarning g‘aflat uyqusidan uyg‘onib, tavba qilishlari hamda shariat va tariqat yo‘lidan og‘ishmasdan yurishlarini ma’lum qilgan. Fag‘naviy o‘limi oldidan tariqat rahbarligini Xoja Ali Romitaniyga topshirganligini ma’lum qiladi.[1] Sarhalqa silsilani Xoja Ali Romitaniy davom ettirdilar.

Xoja Ali Romitaniy Xojagon silsilasining to‘rtinchi piri, “Hazrat Azizon”, “Xojayi Azizon” nomlari bilan atalgan. Xoja Ali Romitaniy, taxminan, 1195–1224-yillar oralig‘ida Buxoro atrofidagi qishloqlardan hisoblangan Romitanda dunyoga kelgan.

“Risolayi Hazrat Azizon” (“Hazrat Azizon risolasi”). Xoja Ali Romitaniy qalamiga mansub topilgan kichik hajmli ushbu asardan Romitaniyning tasavvuf borasidagi qarashlari joy olgan. Professor G.N. Navro‘zova ushbu asarni tarjima qilib, falsafiy tahlil asosida ilmiy muomalaga kiritganlar. Shuningdek, Xoja Ali Romitaniy shoirlik iste’dodiga ham ega bo‘lib, so‘fiyona qit’alar va ruboiylar yozgan. Ular manbalarda o‘z aksini topgan. Xoja Ali Romitaniy xojagon silsilasining o‘zidan avval o‘tgan pirlari ta’limotini yoyishda davom etish bilan birga, unga o‘zi ham ayrim yangiliklar kiritadi: ustozi Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy tomonidan o‘rnatilgan zikri jahriyni davom ettirish bilan birgalikda zikri xafiyni ham qo‘llay boshlaydi.

Xojagon silsilasining beshinchi piri Xoja Muhammad Bobo Samosiy muridlar tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Xoja Muhammad Bobo Samosiyning tarjimayi holidagi eng muhim o‘rinlardan biri u bilan Bahouddin Naqshband o‘rtasidagi munosabatdir. Xojagon-naqshbandiya tariqati manbalarida hikoya qilinishicha, Xoja Muhammad Bobo hali Bahouddin Naqshband tug‘ilmasidan turib, uning dunyoga kelishi va “zamona peshvosi” bo‘lishini bashorat qiladi, tavallud topganidan keyin esa uni ma’naviy farzandlikka qabul qilib, tarbiyasini Sayyid Amir Kulolga topshiradi Xoja Muhammad Bobo Samosiy Xojagon silsilasining boshqa pirlari kabi kasb-kor ahli – bog‘bon bo‘lib, o‘z halol mehnati orqali kun o‘tkazgan.[2]

Xojagon silsilasining oltinchi piri Sayyid Amir Kulol, taxminan, 1281-yili Buxoro atrofidagi Afshona qishlog‘ida dunyoga kelgan.[3] Uning Payg‘ambar (s.a.v.) avlodidan bo‘lgan otasi Amir Hamza ibn Amir Ibrohim, asli, Hijozning Madina shahridan bo‘lib, Movarounnahrga ko‘chib kelgach, Buxoro atrofida yashab qolgan. Sayyid Amir Kulol ko‘plab kishilarni o‘z tariqatiga kirgizishga muvaffaq bo‘ladi. Manbalarda uning muridlari soni bir yuz o‘n to‘rtta bo‘lib, ularning barchasi sayr-u sulukda kamolga yetganliklari to‘g‘risida ma’lum.

Xojagon silsilasining yettinchi piri, Xojagon-naqshbandiya tariqatining ikkinchi – naqshbandiya bosqichi boshlovchisi, “Xojayi Buzurg” (“Buyuk Xoja”), “Bahouddini Balogardon” (“Baloni qaytaruvchi Bahouddin”), “Shoh Naqshband” nomlari bilan mashhur bo‘lgan Xoja Bahouddin Muhammad ibn Muhammad Naqshband hisoblanadi. Xojagon tariqati ta’limotini takomillashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan Bahouddin Naqshband o‘sha davrda hayot bo‘lgan shayxlarning tasavvuf va sayru suluk borasidagi qarashlari, nazariya va amaliyoti bilan birgalikda o‘tmish davrlari so‘fiylari ta’limotini ham chuqur o‘rgangan.

Xulosa qilib aytganda, Xojagon-naqshbandiyaning Buxorodan yetishib chiqqan pirlari o‘z davrining ilm-u ma’rifatini, odob-axloqini, tasavvufiy sir-asrorini egallagan komil insonlar bo‘lgan. Ular ibodatda, dunyoviy munosabatlarda, xalq bilan muloqotlarda hamisha yaxshi amallarning, ezgulikning eng yuksak namunasini namoyon qilganlar. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniydan keyin Xojagon tariqati buyuk so‘fiylar, mutasavviflar tomonidan munosib davom ettirildi, yangiliklar, qo‘shimchalar kiritilib yanada takomillashtirildi. “Dastba kor-u, dil ba Yor” Abdulxoliq G‘ijduvoniy asoslagan shior, halol mehnat haqidagi g‘oyalar keyingi davr xojagonlik ta’limoti tarqqiyotida asos bo‘lib xizmat qildi.

---

[1] Рашаҳот айн ал-ҳаёт. 1-ж, 61 – 62-бетлар.

[2] Shu manba. 73-bet.

[3] Shu manba.

Valiyev Sherzodbek Ikromitdinovich (Andijon Mashinasozlik instituti o‘qituvchisi; wsh1983z@gmail.com)

FALSAFA NUQTAYI NAZARIDAN SUN’IY INTELLEKT VA VIRTUAL HAQIQAT

Annotatsiya*. Maqolada sun’iy intellekt tizimlari va virtual reallik texnologiyalari inson hayotida bugungi va kelajakdagi kundalik hayotda qanday o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligiga e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, taraqqiyot tarixida “fikrlash mashinalari” masalasi qanday qilib birinchi o‘ringa chiqqani ham tilga olinadi.*

Аннотация*.В статье уделяется внимание внимание тому, как системы искусственного интеллекта и технологии виртуальной реальности могут внести изменения в повседневную жизнь человека сегодня и в будущем. Вместе с тем упоминается и то, как в истории развития вопрос о “мыслящих машинах” вышел на первый план.*

Annotation*. The article focuses on how artificial intelligence systems and virtual reality technologies can make changes in a person's daily life today and in the future. At the same time, it is also mentioned how the question of “thinking machines” came to the fore in the history of development.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, kuchli, kuchsiz sun’iy intellekt, virtual olam, doksa, mashina, texnologiya.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, сильный, слабый искусственный интеллект, виртуальный мир, докса, машина, технология.*

Keywords*: artificial intelligence, strong, weak artificial intelligence, virtual world, doxa, machine, technology.*

Tafakkur tarixidagi eng mashhur olimlardan biri bo‘lgan Aristotel avtomatlashtirish haqida ma’lum ma’noda shunday fikr yuritadi: “Faraz qilaylik, bizda mavjud bo‘lgan har bir vosita o‘z vazifasini taklifimizda yoki ehtiyojni sezgan holda bajara oladi”.[1] U odamlarning bo‘sh vaqti bo‘lishi uchun qullik shart ekanligini ta’kidlaydi.

Aristoteldan bir necha asrlar o‘tib, XVII asrda Gotfrid Vilgelm Leybnis “hisoblash nisbatlovchisi”[2] deb ataydigan tizim orqali odamlarning fikrlashi o‘ziga xos hisob degan g‘oyaga asoslanib, qandaydir aqlli mashinani tasavvur qiladi.

1950-yilga kelib, kompyuter fanining otasi va sun’iy intellektning asoschisi hisoblangan Alan Tyuring “Mashinalar o‘ylay oladimi?” degan savoli tug‘iladi. Mind falsafa jurnalida chop etilgan “Kompyuter mashinalari va razvedka” sarlavhali maqolaning “Taqlid o‘yini” bo‘limida Tyuring shunday deydi: “Men “Mashinalar fikrlay oladimi?” degan savol ustida o‘ylashni taklif qilaman. Bu “mashina” va “o‘ylash” tushunchalarining ma’nolarini aniqlashdan boshlanishi kerak”.[3]

Shuni ta’kidlash kerakki, mashinalar fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan holda, fikrlash vaziyati mantiqiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Mantiq to‘g‘ri fikrlash usuli yoki to‘g‘ri fikrlash qoidalari bilan shug‘ullanadigan fan sifatida ta’riflanadi.[4] Mantiq ilmiga ko‘ra, fikrlash – mulohaza yuritish demak.

Dekartdan boshlangan zamonaviy falsafa nuqtayi nazaridan, bu savolga javob “ha” bo‘lishi mumkin, shu bilan birga, turli falsafiy yondashuvlardan kelib chiqib, “yo‘q” deb javob berish ham mumkin. Tafakkur nima degan savolga javobga asoslanib, mashinalar o‘ylaydi yoki faqat fikr yuritadi, deyish mumkin. Mashinalar faqat bugungi kunda fikr yurita olsa ham, maqsad mashinalar kelajakda odamlar qiladigan har qanday kognitiv faoliyatni amalga oshirishga qodir bo‘lishidir.

Garchi mashinalar hali Dekartning “Men o‘ylayman, menman”, degan gapini aytmagan bo‘lsa-da, nazariy jihatdan aytishga hech narsa to‘sqinlik qilmaydi. Chunki avtonom tizimlar tomonidan belgilangan ushbu mashinalar xatti-harakatlarda mustaqil bo‘lgan va shuning uchun tashqi aralashuvsiz ishlaydigan va fikrlaydigan mavjudotlar bo‘lishga qaratilgan.[5]

---

[1] Aristotle. The Politics, Translated by T.A.Sinclair, Revised and Re-Presented by Trevor J.Saunders, Penguin Books, 1992.

[2] www.krugosvet.ru/enc/filosofiya/leybnic-gotfrid-vilgelm

[3] Turing A. Computing machinery and intelligence. Mind. Oxford University Press, 1950.

[4] https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mantiq-uz/

[5] Peter W. Singer, Wired For War: The Robotics Revolution and Conflict in the Twenty-first Century, The Penguin Press, New-York, 2009, p. 51.

Inson taqlidiga asoslangan sun’iy intellekt texnologiyalarida inson darajasidagi ilg‘or sun’iy intellektga ikkita asosiy yondashuv mavjud: inson aql-zakovatining ishlashiga taqlid qilish yoki insonlarning aqlli xatti-harakatlariga taqlid qilish orqali erishish mumkinligi aytiladi.[1]

Tafakkur tarixida boshlangan, hatto inson kabi ishlab chiqaradigan mashinalar g‘oyasi bugungi kunda ko‘plab fanlarning asosiy o‘rganiladigan mavzularidan biriga aylandi. Huquq sohasida olib borilgan tadqiqotlar orasida ba’zi munozaralar, masalan, robotlarga huquq va majburiyatlar berilishi mumkinligi haqidagi bahslar juda diqqatga sazovordir.

Insoniyatning voqelik tajribasi Aflotun “doksa” deb ataydigan illuziya bo‘lishi mumkinmi, unda haqiqat yo‘q. Aflotun bu illuziyani “G‘or allegoriyasi” bilan tasvirlaydi.[2]

Odamlar g‘orning ichida, g‘or chiqishi qarshisidagi devorga qarab, qo‘llari bilan shiftga zanjirlangan holda yashaydilar. G‘or devorida tashqaridagi g‘or eshigidan o‘tuvchi narsalarning (odamlar, hayvonlar va boshqalar) soyalari aks etadi. Tashqari borligini bilmagan va g‘or devoriga qaragan odamlar bu soyalarni haqiqiy deb o‘ylashadi (qisqacha: agar odamlar g‘orda quyoshni ko‘rolmaydigan qilib zanjirlangan bo‘lsa va borliqni faqat soyalari orqali qabul qilsa, ular soyani haqiqiy deb bilib, quyoshni inkor etishadi. Muallif).

Aflotunning doksasi biz yashayotgan dunyoning haqiqati haqidagi so‘rovni o‘z ichiga olgan bo‘lsada, u virtual haqiqat masalasini talqin qilishga ham hissa qo‘shishi mumkin.

Virtual-real, sun’iy-tabiiy, mashina-inson tushunchalari o‘zaro bog‘langan bugungi dunyoda kelajak qanday bo‘lishi haqida tasavvurga ega bo‘lish juda mushkul ko‘rinadi. Rivojlanishlar sur’ati kundan kunga ortib borayotgani va shuning uchun kelajakni bashorat qilish qiyin bo‘lsa ham, “Bizni qanday kelajak kutmoqda?” degan savol hanuzgacha miyamizni band qilishda davom etmoqda.

Kevin Kelli protopik jarayonni (utopiya ham, distopiya ham emas – bu shunchaki taraqqiyot. Muallif)–o‘tmishdan kelajakka cho‘zilgan jarayonni o‘z ichiga oladi, bu biz o‘tmish va kelajaksiz abadiy, ko‘r kunga kirib borayotganimizni ko‘rsatadi.[3]

Bu insoniyatga taqdim etayotgan eng muhim o‘zgarish “aql” tushunchasida yotadi. Biz narsalar jonli va jonsiz o‘rtasida farqlanadigan davrlardan narsalarni aqlli va aqlsiz deb ajratadigan kunlarga o‘tmoqdamiz. Mashinalar harakatlanadigan va gaplashadigan dunyoda obyektlar tarmoq bilan ma’lumot almashishi mumkinligi biz uchun “aqlli” deb nomlanmaydigan narsalar hech qanday qiymatga ega bo‘lmay qoladi. Kundalik hayotning asosiy nuqtalaridan bo‘lgan uylar, ish joylari, ko‘chalar, savdo shoxobchalari kabi hududlarining aqlli obyektlardan iborat bo‘lishi inson turmush tarzini yanada qulaylashuviga va farovonlashuviga o‘z hissasini qo‘yshmoqda.

Agar odamlar o‘z ish joylarini robotlarga qoldirishlari hisobga olinsa, hech bo‘lmaganda, odamlarning ish vaqti bugungi sharoitga nisbatan sezilarli darajada kamayadi, ehtimol, odamlar to‘xtash va o‘ylash uchun ko‘proq bo‘sh vaqtga ega bo‘lishadi.

Falsafa tarixida mantiq fanining asoschisi sifatida qabul qilingan Aristoteldan tortib, to hozirgi kungacha tafakkurni mulohaza sifatida ta’riflash va uni ma’lum qoidalar bilan nazoratga bo‘ysundirish va ratsional dunyo uchun nazorat zarurligi faqat falsafiy muammo emas.

Dunyo aholisining ortib borayotgani va ekologik muammolarni hisobga oladigan bo‘lsak, irratsional tuzilma, ayniqsa, iqtisodiyot, siyosat va huquq sohalarida, sun’iy intellekt robotlarining dunyoni egallashi va insoniyatni yo‘q qilish ehtimolidan ko‘ra jiddiyroq muammo sifatida ko‘rilmoqda.

Sun’iy intellektga asoslangan so‘nggi ishlanmalar yaxshiroq yashashga yaroqli dunyoni taklif qilishi mumkin. Yashagan vaqt oralig‘idan chetda qolish, qandaydir chekinish o‘sha shaxs yoki jamiyatning mavjudligini qabul qilmaslik bilan tengdir.

Sun’iy intellekt va virtual olam kabi sun’iy intellekt dasturiy ta’minotiga ega bo‘lgan barcha texnologiyalar haqida o‘ylash va bu texnologiyalar tomonidan belgilanadigan yangi turmush tarzini tushunish, ehtimol, kelajakni shakllantirish katta ahamiyatga ega.

Shuni ta’kidlash kerakki, so‘nggi paytlarda sun’iy intellekt tadqiqotchilari orasida kompyuterlashtirish bilan bog‘liq qo‘rquv va ogohlantirishlar dolzarb bo‘lib qoldi. Ba’zi tadqiqotchilar sun’iy intellekt bu xavfli “troyan oti” bo‘lib, kelajakda odamlarni samarali va kamroq foyda keltiradigan “model” sifatida siqib chiqarishi mumkin degan, xulosaga kelishmoqda.[4]

---

[1] Н.Нильсон Принципы искусственного интеллекта. М., Книга по Требованию, 2021, с. 369.

[2] https://classics.nsu.ru/bibliotheca/plato01/gos07.htm

[3] https://www.litres.ru/kevin-kelli/neizbezhno/chitat-onlayn/page-2/

[4] Самохвалова В.И. Предполагает ли машинное творчество возможность машинного вдохновения? Москва,

Keng tarqalgan robotlashtirish va kompyuterlashtirish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar ham falsafada, ham fanning turli sohalarida tobora ommalashib borayotganiga olib keldi.

Umurzakov Uyg'un Abdutalipovich (Teacher of the Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, independent researcher of the National University of Uzbekistan; e-mail: Afm7787@mail.ru)

IDEOLOGICAL FACTORS OF ELIMINATING THREATS TO NATIONAL SPIRITUALITY

Annotatsiya. *Milliy ma'naviyatga qarshi qaratilgan tahdidlarni bartaraf etish omillaridan biri millatning o'zligini anglashidir. Bugungi kunga kelib, milliy o'zlikni anglashning rivojlanishiga bag'ishlangan bir qator monografiyalar, ilmiy maqolalar e'lon qilingan. Milliy ma'naviyat tushunchaga turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ularda milliy o'zlikni anglashning turli jihatlari ochib berilgan. Ammo hali bu tushunchalarning mazmun-mohiyati va funksiyalari to'la ochib berildi, degan xulosani chiqarib bo'lmaydi. Uni doimo takomillashtirish zarur bo'ladi. Chunki, bir tomondan, milliy taraqqiyot juda murakkab jarayon. Ushbu maqolada, milliy ma'naviyatga tahdidlarni bartaraf etishning mafkuraviy omillari haqida fikr va mulohazalar qilinadi.*

Аннотация. *Самосознание нации является одной из сил, противостоящих вызовам национальной духовности. На сегодняшний день написан ряд монографий и научных статей, посвященных формированию национального самосознания. Существуют различные точки зрения на тему национальной духовности, каждая из которых раскрывает различные аспекты видения национального "я". Однако все еще невозможно сказать, что суть и полезность этих принципов были полностью раскрыты. Важно будет улучшать его на регулярной основе. Потому что, с одной стороны, национальное развитие – это очень сложный процесс. В статье будут высказаны мнения и комментарии по поводу идеологических факторов устранения угроз национальной духовности.*

Annotation. *The awareness of the nation itself is one of the forces militating against challenges to national spirituality. A number of monographs and research articles have been written to date on the formation of national self-awareness. Different perspectives on the subject of national spirituality exist, each revealing different parts of the national self's vision. However, it is still impossible to say that the essence and usefulness of these principles have been fully revealed. It will be important to improve it on a regular basis. Because, on the one hand, national development is a very complex process. In this article, opinions and comments will be made on the ideological factors of eliminating threats to national spirituality.*

Kalit so'zlar*: milliy ma'naviyat, qadriyat, tahdid, mafkuraviy omillar, taraqqiyot, o'zlikni anglash, g'oyalar.*

Ключевые слова: *национальная духовность, ценность, угроза, идеологические факторы, развитие, самореализация, идеи.*

Keywords: *national spirituality, value, threat, ideological factors, development, self-realization, ideas.*

Introduction. As long as the nation exists, its aspiration to realize its own is also developing. Because the existence of the nation itself also means the existence of its "I". A nation that is deprived of its own right cannot be a nation. It assimilates (joins) to other people. Therefore, the need for a continuous analysis of the contradictions and processes at different stages of the development of the nation and its relations with the outside world, the changes that take place in the perception of its own, the various levels that occur, will also increase. In particular, the country's awareness of the identity of nations in the Polytechnic environment, the increase in the interests inherent in each of them, bringing them into mutual balance, the increase in various threats to national spirituality in the process of global outbreaks and the need to be aware of them, necessitates that the study of this issue will always be relevant.[1] Returning to the essence of the concept of national self-awareness, it can be specially noted that the authors with the

---

МИЭМ, 17–19 января, 2005.

[1]Atamuratov S. Globalism and nationality (political-philosophical analysis). Tashkent, generation of the New Century, 2008, T., p. 116.

above names gave a different definition to it. Based on these thoughts that are presented, we can say that when describing the concept of national self-awareness:

– to look from the point of view of time and space, to take into account the processes taking place in them;

– the relationship to the various threats to the spirituality of nations: sensitivity, awareness, foresight, passivity or inability to perceive cases;

– it will also be necessary to take into account reasons which will cause alienation of nationality from its own. Because when we say the development of national self-awareness, it is also implied that the nation is responsible for its bug and its prospects, consciously operating with the awareness of its interests. That is, national self-awareness is the practical activity of the representatives of the nation in protecting their interests and from various threats in order to strengthen their "self".[1]But still it cannot be concluded that the essence and functionality of these concepts are fully revealed. It will be necessary to constantly improve it.

Literature review. National self-awareness is formed along with the nation itself. Even in this sense, it does not suddenly occur in a revolutionary way, but is formed in an evolutionary way.[2] Setting the levels of awareness of its formation and its developed state in real practice is a very difficult task. At the moment, the processes of self-awareness of representatives of non-titular nations living in countries are also developing as if they were titular Nations. And the main factor of the stable course of this process is that the goals of understanding the identity of nations should be based on the principles of unity in the development of the country, its security and stability, taking into account each other's interests, prudence and mutual respect in all contentious issues. National self-awareness is an extremely powerful shield of preserving the nation, its spirituality. Without developing it, we cannot overcome the threats directed against our spirituality. It remains an urgent task to integrate this into the consciousness and outlook of all our nationalities.

Another important factor in preventing threats to national spirituality is National Education. as a national education, the representatives of the nation, especially its young people, are able to solve the tasks and problems facing the nation and the country, to preserve the nation, to master the material and spiritual heritage left by the ancestors, to bring it to the next generation, to form the National spirituality immunity in the influence of the ascent of the, they are told in their psyche that with their achievements in the field of Science, Technology and technology, it is worth to participate in World market a form of activity aimed at creating self-sacrifice in the creation of innovations and discoveries.[3]

Research Methodology. That has the following reasons: firstly, national sentiments are extremely sensitive, their sensitivity to any behavior that contradicts the interests of the nation is very strong, they are severe in terms of time (fast) and have the power to respond to them in a timely manner. Secondly, the nation manifests itself as a material force through people, therefore, the generalization of all inherent qualities, such values as pride, pride and or shame of the nation also finds its expression in the nation through the Union of people. These feelings make the nation feel, accept and respond to any aggression that occurs from the outside even faster than a person. The National idea also plays an important role in the Prevention of threats directed against national spirituality. In our opinion, the National idea is said to be a system of ideas that, in the process of formation and development of a nation, express its goals and provisions and embody the ideas that lead to their implementation. The National idea will always exist throughout the development of the nation.[4] But it is not a hardened idea, but rather a process that develops and improves throughout the nation's development. The National idea is also being improved due to the need to address the challenges and challenges that arise at every historical stage of the nation's development. It is worthwhile to note from these points of view that the National idea is one of the permanent factors that protect the National spirituality.

---

[1] Encyclopedic Dictionary of philosophy. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan, 2010, T., p. 191.

[2] Ram V.X. The problem of national self-awareness in the process of democratization of the national-political life of Uzbekistan (political-philosophical analysis): political science doctor. Tashkent, 2009, T., p. 12.

[3] Xonazarov Q. A critical look at the theory of nationality. National revival, 1998, 16-June.

[4] Atamuratov S. Feedback on the functions of national self-awareness. Socio-philosophical Sciences. Theory and practice, collection of scientific-methodical articles. It is dedicated to the 90th anniversary of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek and 30th anniversary of the Faculty of philosophy. Tashkent, publishing house of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2008, T., p. 21.

Analysis and results. The National idea retains its “national image” even at all stages of the development of the nation, and the new tasks that arise-it gives them “strength” in solving problems.[8] The need to address the new challenges and challenges that arise in the process of national development can bring about new ideas related to the activation, unification and orientation of the nation. In particular, today the transformation of our independence into a real material force means the implementation of the tasks assigned to it by the “idea of national independence”. Task has become a strategic task to raise the development of the nation and the country to a new level. In this sense, we also believe that the idea of national development can be introduced into scientific consumption as a theoretical basis of national development.

Conclusion/Recommendations. Taking into account this situation that has arisen, it is necessary to improve the National idea. In my opinions and suggestions, its improvement covers the following:

1) first of all, to determine the scope and the situation of the threats posed against our national spirituality and to determine what the objectives of eliminating threats are and the tools, factors and methods of their implementation;

2) secondly, taking into account the increasing threats to national spirituality and the new situation that has arisen in this regard, to find the main people in the general chain of the “National idea”, to raise it to a new level of enrichment of content;

3) today, due to the increasing threat to national spirituality, the National idea is not only to strengthen the power of the threat, but also to turn it into a leading ideological factor in the fight against the power of threats to national spirituality and it is like to enrich the National spirituality of the National idea with its content, to make wide use of its opportunities to quickly influence the National spirituality in reaching the consciousness, worldview and soul of the people of our country, especially its youth.

These tasks, which are presented, are associated with an increasing scale of real threats and the power to influence, which are incredibly complex and at the same time directed against national spirituality. Of course, they do not deny the role of the idea of national independence, which in the years of independence and its strengthening was a component of the National idea, in increasing the self-sacrifice of our nationalities and our people as a whole. Perhaps the conversation is about raising it to a new level, proceeding from the circumstances that are unfolding today.

TILSHUNOSLIK

Yigitaliyev Umidjon (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti dotsenti)

O‘ZBEK TILIDA “SHAXS” LISONIY ZARRASINING SEMANTIK-SINTAKTIK QURILMALARDA IFODALANISHI

Annotatsiya. *Maqolada bir bosh bo‘lakli gaplar semantik-sintaktik tabiati va unda “shaxs” lingvistik zarrasining ifodalanishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, bir bosh bo‘lakli gaplar semantikasida shaxsning voqelanishini tadqiq etishda uslub bilan bog‘liq jihatlari ham atroflicha yoritilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается семантико-синтаксическая природа однопредложных предложений и выражение языкового концепта “лицо”. Также подробно освещены аспекты, связанные со стилем при изучении вхождения концепта “личность” в семантику односоставных предложений.*

Annotation. *The article deals with the semantic-syntactic nature of single-prepositional sentences and the expression of the linguistic atom “face”. Aspects related tostyle in the study of the entry of personality into the semantics of one-component sentences are also covered in detail.*

Kalit so‘zlar: *zarra, “shaxs” lingvistik zarrasi, bir bosh bo‘lakli gaplar, shaxsi aniq gap, shaxsi noaniq gap, shaxsi umumlashgan gap, shaxsi topilmas gap, nominativ gap, pragmatik ma’no.*

Ключевые слова*: концепт, «лицо», языковой концепт, односоставные предложения, личное определенное предложение, личное неопределенное предложение, личное обобщенное предложение, личное неопределенное предложение, номинативное предложение, прагматическое значение.*

Keywords*: atom, “person”, linguistic atom, one part sentences, personal definite sentence, personal indefinite sentence, personal generalized sentence, personal indefinite sentence, nominative sentence, pragmatic meaning.*

Jahon tilshunosligida bir bosh bo‘lakli gaplar tadqiqi borasida bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, N.Arvat, S.Bereskov, V.Bogdanova, N.Gotovshikova, L.Ivanovskaya, I.Jakubovlarning ilmiy-stilistik aspektda qilingan ishlari diqqatga sazovar.[1] Bu borada L.P.Ivanovskayaning rus tilidagi bir bosh bo‘lakli gaplarning ilmiy-uslubiy jihati bo‘yicha tadqiqoti salmoqli o‘rin egallaydi. Olima o‘z maqolasida bir bosh bo‘lakli gaplarni rus tili materiallari misolida statistik tatbiq (usul)dan maqsadga muvofiq foydalana olish ko‘lamlarini tavsiya etadi.[2]

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir bosh bo‘lakli gaplarning an’anaviy-sintaktik masalasi I.Rasulovning monografiyasida keng va atroflicha yoritilgan.[3] Mazkur tadqiqotda bir bosh bo‘lakli gaplarning mantiqiy-grammatik va tasnifiy xususiyatlari ilmiy asoslangan. Shuningdek, tilshunos olim M.Mukarramovning o‘tgan asrning 80-yillarida ilmiy jamoatchilikka e’lon qilgan monografik tadqiqotida ham bir bosh bo‘lakli gaplarning ilmiy-uslubiy talqini xususida ham qimmatli fikrlar uchraydi.[4]

Biroq bir bosh bo‘lakli gaplarning semantik-sintaktik tabiati va unda “shaxs” lisoniy zarrasining ifodalanishi na jahon tilshunosligida, na o‘zbek tilshunosligida alohida tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. Mazkur ilmiy ehtiyojni nazarda tutib, maqolada o‘zbek tili manbalari misolida bir bosh bo‘lakli gaplar semantikasida bevosita yoki bilvosita “shaxs”ning ifodalanish ko‘lamlarini tahlilga tortamiz. Chunonchi, tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda bir bosh bo‘lakli gaplarning semantik guruhi quyidagicha tasniflanadi: shaxsi aniq gaplar, shaxsi noaniq gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar, shaxssiz gaplar va nominativ gaplar.

---

[1] Арват Н.Н. Об изучении односоставных предложений. “Русский язык в национальной школе”, 1977, № 4, с. 27–33; Бересков С.Д. Что такое научный функционально-речевой стиль? “Иностранный язык в школе”, 1961, № 6, с. 123–129; Богданова В.А. Об одном виде сказуемого в научном стиле. “Вопросы стилистики”, Саратов, 1969, вып. 3, с 78–83; Готовщикова Н.Э. Оценочные субстантивные предложения в современном русском языке. Автореферат дис... кандидата филологических наук, М., 2000, с. 24; Ивановская Л.П. Обобщенно-личные предложения в научном стиле речи. Русский язык: особенности стиля научной речи, Л., 1971, с. 85 – 91; Джакубов И. Основы синтаксиса простого предложения современного киргизского литературного языка. Дисс. …канд. филол. наук, Фрунзе, 1962.

[2] Ивановская Л.П. Указ. соч., с. 87.

[3] Rasulov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar. Toshkent, «Fan», 1975, 258-bet.

[4] Mukarramov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili. Toshkent, “Fan”, 1984, 120–126-betlar.

Biz yuqoridagi tadqiq obyekti sifatida tanlagan bir bosh bo‘lakli gaplarning barcha turlarida ilmiy-stilistik yondashuv asosida “shaxs” lisoniy zarrasining voqelanishini quyidagicha tahlil etishga harakat qildik.

Ma’lumki, shaxsi aniq gaplarning nutqda qo‘llanilishi ilmiy-stilistik funksiyalar bilan bog‘lanadi. Bunday gaplar uslubga bo‘yoqdor – his-hayajonli ma’no nozikligi (ottenka)ni beradi. Masalan, *So‘nggi kechasi uzoq-yaqindan eshitilgan bu ovozlarni vahima bilan tinglab, bolalarni bag‘riga bosib o‘tirib tong ottirdi.*[1]

Shaxsi aniq gaplar ilmiy uslubda asarning so‘z boshi va kirish qismlarida ishlatiladi. Ammo, so‘z boshi va kirish qismlarida uchragan shaxsi aniq gaplarning asosiy bosh bo‘lagi (kesimi) fe’lning birinchi shaxs ko‘plik buyruq-istak mayli shakli orqali ifodalanyapti: *Maqolalar bilan tanishib, qimmatli mulohaza, masalahatlarini aytgan hamkasb o‘rtoqlarga, xususan, nashriyot xodimlariga minnatdorchilik izhor qilamiz.*[2]

Shaxsi noaniq gaplar nutqda shaxsi aniq gaplarga nisbatan kam qo‘llanadi. Bu tip gaplar badiiy uslubda, badiiy asarning asosiy bosh qismlarida uslubiy vosita sifatida ishlatiladi. Ilmiy matnlarda, ish qog‘ozlarida shaxsi noaniq gaplar deyarli qo‘llanmaydi. Zero, ilmiy asarlari, ish qog‘ozarining tili, uslubi gapdagi bajaruvchi subyekt shaxsning aniq bo‘lishini talab qiladi.[3]

Shaxsi umumlashgan gaplar ilmiy-uslubiy jihatdan bir bosh bo‘lakli gaplarning eng ko‘p qo‘llanuvchi turlaridan hisoblanadi. Ilmiy uslubda qo‘llanuvchi shaxsi umumlashgan gaplar, materiallar, dalillarni misollar bilan tushuntirishda, matematika sohasida teoremalarni isbotlashda, kimyo, fizika sohasida masalalarni chizma, formulalar bilan yechishda ko‘p qo‘llanadi. Bu esa ilmiy bayonning sodda, tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi, o‘quvchi shaxsini ilmiy fikrlashga o‘rgatadi.

Shaxsi umumlashgan gap ilmiy uslubda, asosan, ikki vazifani bajaradi:

1. Biror-bir ish-harakatning bajarilishida tinglovchi adresantni ishtirok ettirish. 2. Biror-bir ish-harakatni va uning bajarilish jarayoni bo‘yicha yakuniy xulosaga kelish.[4]

Biror-bir ish-harakatning bajarilishida tinglovchi-adresant (shaxs–U.Y.)ni ishtirok ettirish ma’nosidagi shaxsi umumlashgan gapning kesimi fe’lning kelasi zamon shakli orqali ifodalanadi. Ilmiy uslubda shaxsi umumlashgan gapning kesimi [W+miz, - a(y)lik][5] qolipida ifodalanib, istak ifodasidagi pragmatik qiymatga ega bo‘ladi. Quyidagi misollarga e’tibor beraylik: *Struktur sinonim deganda, ikki so‘zning kelishik shakllari almashinishi tufayli gap o‘zgarishini va nozik ma’no ottenkasi bilan bir-biridan farqlanuvchi konstruksiyalarni tushunamiz.*[6]

Xulosa chiqarish, natija tarzidagi shaxsi umumlashgan gaplarda fe’l-kesimdan anglashilgan ish-harakatda umumzamonlik ma’nosi mavjud bo‘ladi, kesimi birinchi shaxs ko‘plik, shart mayli, o‘tgan zamon, hozirgi, kelasi zamon shakllarini olgan fe’llar bilan ifodalanadi: *Ikki turdagi bog‘lanishda ham ishtirok qilgan so‘zlarning o‘zaro shakllari sistemasi (paradigmasi)ning boshqa-boshqa bo‘lishini yuqorida aytdik.*[7]Yoki boshqa bir misolni olaylik: *Bog‘lovchilarning ta’sir doirasini ajratish uchun qavslardan foydalansak, murakkabroq gaplarni ham simvolik tarzda yozish imkoniga ega bo‘lamiz.*[8]

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, shaxsi umumlashgan gaplarning kesimi fe’lning hozirgi-kelasi zamon shakllari bilan ifodalanishini shart ergash gapli qo‘shma gaplarda ham uchratamiz. Shaxsi umumlashgan gaplarning shunday turi borki, unda fe’lning ikkinchi shaxs shakli bilan ifodalangan kesimdan anglashilgan harkat-holat muayyan bir shaxsga, ko‘pincha, so‘zlovchiga tegishli bo‘lishi ham mumkin. Bunda harkat-holat mazmunan so‘zlovchi (birinchi shaxs)ga qaratilgan bo‘lsa-da, bu mazmun boshqa shaxslarga ham ko‘chiriladi. Bu xil shaxsi umumlashgan gaplarning ilmiy nutqdan ko‘ra badiiy nutq ko‘rinishidagi sintaktik qurilmalarda ko‘p uchraydi. Masalan: *Necha ming yillik umring davomida doim itoatda, yuragingda ulug‘ alam bilan yashading. Shariatning, urf-odatning zanjirlari bilan bog‘lanib tashlangan sen notavonga qul deb, mashhur qizg‘onch hissi bilan qaradilar. Hayotni sen yaratding, seni undan mahrum etdilar. Qalbingni zaharladilar, sevgingdan, yorug‘likdan mahrum etdilar, tahqirladilar, tanlaringni momataloq qildilar, faryod ko‘targing kelganda, huquqsiz ekanligingni eslab, faryodingni*

[1] Asqad Muxtor. Opa-singillar. T., 1980, 32-bet.
[2] Shu manba. 36-bet.
[3] Rasulov I. Ko‘rsatilgan asar. 144-bet.
[4] Ивановская Л.П. Указ. соч., с. 88.
[5] Bu qolipda [W] belgisi muayyan atov birligini ifodalaydi.
[6] O‘zbek tili grammatikasi. II tom, T., “Fan”, 1976, 83-bet.
[7] Shu manba. 28-bet
[8] Matkarimov A. va boshq. Matematikadan qo‘llanma, I qism, T., 1979. 74-bet.

ichga yutding, qo‘rqding, o‘zingning inson ekanligingni ununtishga majbur bo‘lding. Aslida... Sen oliy insonsan, aziz onasan, sening hayotga mehr-muhabbat bilan to‘la pok qalbing bor, bu qalb alam-iztirob bilangina emas, tuganmas hayot chashmasiday ulug‘ baxt orzusi bilan yashaydi. Sening quyoshga tik qaraging, qah-qah urib kulging, ishlaging, erkin parvoz qilging keladi.[1]...

Shaxssiz gaplarda “shaxs” lisoniy zarrasining ifodalanish ko‘lami ham o‘ziga xos tabiatga ega. Chunonchi, ilmiy matnlarda shaxssiz gaplar faol ishlatiladi. Chunki ilmiy uslubda muayyan shaxslar ishtirok emaydi va nutqiy jarayonning o‘zi buni taqozo etmaydi, ilmiy bayon matnlarida narsa va hodisalar haqida aniq mantiqiy xulosalar bayon etilganligi tufayli shaxssiz gaplarga ehtiyoj ko‘p seziladi. Ish-harakat, holatni so‘zlovchi-subyekt, boshqacha aytganda, “shaxs” ishtirokisiz undan chetlashtirib ifoda qilish va uni ta’kidlashda shaxssiz gaplar eng qulay vositadir. Masalan: *Eski o‘zbek tilida ba’zan qaratqich kelishigidagi so‘zning kesim vazifasida qo‘llanganini ko‘rish mumkin.*[2]

Ilmiy matnlarda shaxssiz gaplarning ketma-ket qo‘llanishi ham kuzatiladi, badiiy, so‘zlashuv uslubiga xos matnlarda esa bunday xususiyat yo‘q. Ya’ni: *Hozirgi o‘zbek tilida “ekan” to‘liqsiz fe’lining qisqarishidan hosil bo‘lgan* ***-kan, -kin*** *shakli juda ko‘p uchraydi. Bulardan* ***-kan*** *shaklini “ekan”ning qisqarib qo‘llangani deb qarash mumkin. Lekin* ***-kin*** *elementi haqida boshqacharoq gapirishga to‘g‘ri keladi.*[3]

Bir bosh bo‘lakli gaplar tizimida grammatik asosga ega shaklidagi so‘zlar orqali ifodalanib, kesimsiz qo‘llanuvchi alohida turlar mavjudki, ularning amaliy ko‘lami turli uslublarga ko‘ra turlicha xoslangan bo‘ladi. Kesimsiz gaplarning asosini nominativ gaplar tashkil qiladi.[4] Bu tip gaplarning asosiy bosh bo‘lagi – grammatik asosi substantiv xarakterda bo‘lib, bosh kelishik shaklida keladi.

Nominativ gaplar, ko‘pincha, sarlavhalarda uchraydi, predmet-hodisalarning mavjudliginiilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Matnda sarlavhadagi gap haqida ilmiy fikr bayon etiladi. Masalan: *Gap bo‘laklarini ajratish usullari. Ajratilgan izohlarning sintaktik vazifasi. Qo‘shma gap sintaksisi* kabi. Bu esa ilmiy matndagi, boshqacha aytganda, ilmiy uslubdagi nominativ gaplarni badiiy uslubdagi nominativ gaplardan farqlaydi. Chunki nominativ gaplar badiiy adabiyotda kuchli uslubiy vositadir. Mazkur holatning o‘zi, ya’ni “kuchli uslubiy vosita” tushunchasi bevosita “shaxs” lisoniy zarrasi ta’sirida voqelanadi. Chunonchi, yozuvchilar predmet, voqea-hodisalarning nomini atab, bu predmet, voqea-hodisalarning mavjudligini tasdiqlash bilan o‘quvchini – shaxsni voqea rivoji sharoitiga kiritadi. Nominativ gapning qo‘llanishi ko‘pincha kishining affekt holatiga bog‘liq bo‘ladi. Kishi hayajonlanganda ko‘proq fikrni qisqa, lo‘nda ifoda qiladi. Nominativ gaplar fikrni qisqa ifoda qilish, joy va vaqtdan yutish maqsadida keng qo‘llaniladi. Bu, ayniqsa, reportaj, xotira daftarlari, sayohatchilarning yon daftarlarida keng qo‘llaniladi. Dramalarning butun-butun remarkalari, ko‘pincha, nominativ gaplardan iborat bo‘ladi. Masalan: *Mana o‘sha ko‘chaga qaragan ochiq ayvon. Mana o‘sha qizg‘ish tuvakdagi shapaloq gul. Sofiya Borisovna erining yoniga yangi kelgan kunlari posyolka bozorchasidan birinchi xarid qilgan narsasi shu gul bo‘lgan.*[5] Yana, shuningdek, quyidagi matnda ham uchraydi: *Aqlli, mard. U turmadan ham, surgundan ham, o‘limdan ham qo‘rqmaydi.*[6] Ko‘rinadiki, nominativ gaplarda “shaxs”ning ifodalanishi ilmiy matnlardan ko‘ra, badiiy uslubdagi matnlarda ko‘p uchraydi.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bir bosh bo‘lakli gaplarning barcha turlarida “shaxs”-ga xos ajablanish, shodlanish, orzu-istak, g‘azab, nafrat, mantiqiy fikrlash, ilmiy xulosalash va hokazo pragmatik ma’nolarni yuzaga chiqishiga zamin yaratadi.[7]

Xullas, bir bosh bo‘lakli gaplarning barcha turlari semantik-sintaktik funksional tomonida “shaxs” lisoniy zarrasi ba’zan bevosita, ba’zan bilvosita ifodalanish ko‘lamiga ega ekanligini tadqiq etish zamonaviy tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

---

[1] Asqad Muxtor. Ko‘rsatilgan asar. 71 – 72-betlar.
[2] O‘zbek tili grammatikasi. II tom, 132-bet.
[3] Shu manba. 52-bet.
[4] Rasulov I. Ko‘rsatilgan asar. 144-bet; Долин Ю.Т. К вопросу о синтаксической классификации главного члена односоставного предложения. “Русский язык и литература в таджикской школе”, 1994, №1, с. 2–7; Дрозд Н.В. Именительный темы как особая разновидность номинативных предложений. Дис.... кандидата филологически наук, Москва, 2006, с. 165; Кочанова Е.Н. Структура, семантика, функции номинативных предложений в поэтическом языке М.И.Цветаевой. Автореф. дис... канд. филологич. наук, М., 2009, с. 24.
[5] Asqad Muxtor. Ko‘rsatilgan asar. 55-bet.
[6] Shu manba. 26-bet.
[7] Мокроусова О.Ю. Номинативное предложение как единица текста: коммуникативно-прагматический аспект. Автореферат дис. ...кандидата филологических наук, М., 2001, с. 24.

Aqmanova Shahnoza Alimboyevna (UrDU katta o‘qituvchisi)

DISKURSIV BIBLIONIMLAR HAQIDA

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tili biblionimlarining diskurs jarayonida qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, biblionimlar yoki ularning ma’lum qismini ishlatish orqali mazmunni bo‘rttirish, kesatish, erkalash, ajablanish, minnatdorlik, xarakterni ko‘rsatish, ma’lum holatni ifodalash, kulgu qo‘zg‘atish, hazillashish kabi ma’nolar, shuningdek, nutq jarayonida hodisani tasvirlash, tushuntirish kuchli ifodalanilishi holatlari qiziqarli misollar asosida yoritib berilgan.*

Аннотация. *В статье говорится о специфических особенностях употребления узбекских библионимов в дискурсивном процессе, преувеличении содержания, резке, ласкании, удивлении, благодарности, характере за счет использования библионимов или их определенной части, вызывающих смех, шутки, а также случаи ярко выраженного описания и объяснения события в речевом процессе выделены на основе интересных примеров.*

Annotation. *In the article, the specific features of the use of biblionyms of the Uzbek language in the discourse process and conditions as exaggerating the content, allegorizing, cares-sing, surprising, gratitude, showing character, expressing a certain situation, causing laughter, joking are discussed, as well as the cases of strong expression of describing and explaining an event in the speech process are highlighted on the basis of interesting examples by using biblionyms or a certain part of them.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, atoqli ot, biblionim, badiiy asarlar nomi, diskurs va matn, diskursiv biblionimlar, onomastik metafora, pretsedent nomlar.*

Ключевые слова: *ономастика, существительное, библионим, название художественного произведения, дискурс и текст, дискурсивний библионим, ономастическая метафора, прецедентные имена.*

Keywords: *onomastics, noun, biblionym, name of works art, discourse and text, discursive biblionym, onomastic metaphor, precedent names.*

Yangi ilmiy antropotsentrik paradigma prizmasi orqali yangi tushuncha, ma’nolarning paydo bo‘lishi bilan ajralib turadigan zamonaviy tilshunoslik lingvistik hodisalarni o‘rganish tamoyillari va usullari, nutqiy-kognitiv so‘zlashuvchi shaxsning bilish va muloqot subyekti sifatidagi faoliyati asosiy tadqiqot obyektiga aylanadi. E.S.Kubryakovaning so‘zlariga ko‘ra, “inson ong tashuvchisi va madaniyatlar tarjimoni hisoblangan til” va tildagi barcha tushunchalarning o‘lchovi bo‘lgan “insondagi til” va madaniyati antropotsentrik tamoyili kabi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.[1] Shunga asosan, har bir tilga mansub bo‘lgan biblionimlar ushbu xalqning ongi, tafakkurining ifodasi bo‘lgan nutqda aks etib, turli ma’nolarni anglatishga ham xizmat qilishi mumkin ekanini ushbu maqolamizda ko‘rib chiqamiz.

Intertekstual biblionimlarni matn tarkibidagi biblionimlar va diskursiv biblionimlarga ajratib tahlil qilish o‘rinli.

“Matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan qo‘lanilsa, “diskurs” og‘zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatiladi. “Diskurs” so‘zi fransuzcha “nutq”, “so‘zlash” degan ma’nolarni bildiradi.[2]

Mikayel Stabbs: “Odamlar gaplar tasodifiy qatorini bog‘liq matndan farqlay oladilar, shuning uchun ham kogerentlikni ta’minlovchi tamoyillarni o‘rganish diskurs tahlilining mavzusidir”,[3] degan edi. Hozirda matnni turg‘un struktura sifatida og‘zaki nutq materialiga, diskursga qarama-qarshi qo‘yish harakati avj oldi.[4] H.Haberlandning qayd etishicha, “matndan cheklanmagan miqdorda foydalanish mumkin, uni bir joydan ikkinchisiga ko‘chirish imkoni bor, diskurs hozirgina kechayotgan jarayon, u har safar qayta yaratiladi”.[5]

---

[1] Кубрякова Е.С. Человеческий фактор в языке. Язык и порождение речи. АН СССР, Институт языкознания. М., “Наука”, 1991, с. 214.

[2] Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, 2010, 10-bet.

[3] Stubbs M. Discourse analysis. The sociolinguistic analysis of natural language. Oxford, Oxford Univ. Press, 1983, p. 15.

[4] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008, 223-бет.

[5] Haberland H. Text, discourse, discours: The latest report from the Terminology Vice Squad. Journal of Pragmatics, 1999, №.31, p. 914.

Nutq yaratilishi til unsurlaridan foydalanish jarayoni bo‘lishi bilan birga, muayyan til zaxiralarida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni yuzaga chiqaruvchi, binobarin, uning rivojlanishini ta’minlovchi hodisa hamdir.[1]

Ixchamlik, lo‘ndalik, oz jumla bilan ko‘p fikrni bayon etish kabi jihatlar kishilarning kundalik so‘zlashuv uslubiga xos. Bugungi kunda o‘zbek tilida mazmunni chuqurroq ifodalash uchun boshqa birliklar qatori mashhur biblionimlardan ham keng foydalaniladi. Suhbat jarayonida qo‘llaniluvchi bunday biblionimlarda mazmunni bo‘rttirish, kesatish, erkalash, ajablanish, minnatdorlik, xarakterni ko‘rsatish, ma’lum holatni ifodalash, kulgi qo‘zg‘atish, hazillashish kabi ma’nolar ifodalanadi. Diskursda qo‘llanilgan bibleonimlarda eksplanatorlik xususiyati mavjud bo‘lib, nutq jarayonida hodisani tasvirlash, tushuntirish kuchli ifodalaniladi. Struktur jihatdan diskursiv biblionimlar so‘z birikmasi va gap shaklida uchraydi.

Ramziy interpretatsiya real voqelik parchasini o‘xshatish asosida nomlash[2] bo‘lib, biblionimlarning nutq jarayonida qo‘llanilishi ushbu hodisani oydinlashtiradi. Kishilarning so‘zlashuv jarayonida biblionimlardan foyadalanishi kognitiv va psixolingvistik tamoyillar bilan bog‘liq amalga oshadi. Voqea-hodisani aynan qaysi biblionim bilan ifodalash nutq egasidan mahorat talab etadi. Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyalari, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi, “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi, Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi biblionimlari xalqimiz tafakkuri uchun juda yaqin va xalq turmush tarziga mos biblionimlar bo‘lganligi uchun asarlar mazmuni bilan so‘zlashuv jarayonidagi real voqelikka mos birliklar hisoblanadi.

Nutq jarayonida qo‘llanadigan biblionimlarga xos yana bir xususiyat borki, real voqelik bilan biblionim asosidagi badiiy asar mazmunining bevosiya bog‘lanmasligidir. Xususan, O‘tkir Hoshimovning *“*Ikki eshik orasi” romani, *“*Dunyoning ishlari” qissasi, Chingiz Aytmatovning *“*Asrga tatigulik kun” romani nomlari kishilar so‘zlashuv nutqida juda ko‘p qo‘llaniladi. Bunda aynan biblionimning o‘zida aks etgan mazmun birlamchi o‘ringa chiqadi. Biblionimlarning nutqiy kommunikatsiya ifodalashi, uni uzatish va qabul qilish murakkab jarayondir. Badiiy asar biblionimi ilmiy va rasmiy matnlar sarlavhalaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi.

Fransuz tadqiqotchisi Serl “inson aytmoqchi bo‘lgan har qanday fikrini aniq va to‘liq ifodalay olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak”ligini ta’kidlaydi.[3] Shuning uchun ham so‘zlashuvda fikrni o‘xsatish va qochirim semalari bilan ifodalashga uringan nutq egasi, albatta, shu biblionim haqida bilimga ega bo‘lishi zarur. Kommunikatsiyada biblionimlarni qo‘llashning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, biblionimda ifodalangan mazmun qanchalik yashirin bo‘lsa, u shunchalik ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Insoniyat hamisha yangi axborotni qabul qilishga va tagma’nolarni tahlil qilishga intilib keladi. Shuning uchun ham so‘z va jumlalarni biblionimlar vositasida ifodalagan nutq egasining fikrini tinglovchi, ayni vaqtda, tushunib olmasa-da, keyingi mulohazalardan anglashi mumkin. “Kampirlar o‘g‘illariga sim qoqdi, xayriyat ziyofat tugaydi, shekilli”. Lekin sim qoqish bilan ziyofat tugashining qanday aloqasi borligini kimdir tushunadi, kimdir tushunmaydi. Vaqt o‘tishi bilan nutq egasining konseptual fikrini anglab olishlari mumkin bo‘ladi. Bunda, albatta, tinglovchining yoshi, jinsi, qiziqishlari, bilimi, kayfiyati katta ahamiyatga ega. Tinglovchilar yuqoridagi biblionim ishtirok etgan gapni tushunishi uchun Abdulla Qahhorning *“*Kampirlar sim qoqdi” asari va uning mazmunidan xabardor bo‘lishi kerak. Chunki “olmosh va atoqli otlar narsa va hodisalarni bevosita nomlamaydi, ularga ishora qiladi. Ularning ma’nosi, birinchidan, nutq vaziyati bilan bog‘liq ravishda konkretlashadi. Ikkinchidan, ma’noning konkret ifodalanishi uchun so‘zlovchi va nutq ishtirokchilari aniq pragmatik bilimlarga ega bo‘lishi shart”.[4]

Z.Muqimova tomonidan tahlil qilingan quyidagi matnda Layli va Majnun pretsedent nomlar onomastik metafora bo‘lib, muallif badiiy maqsadini amalga oshirishda lingvopoetik vosita bo‘lgan. Menga qolganda Rais buva tag‘in bir otaliq qildi. Nargisxon ikkalamiz Layli-Majnun bo‘lib, yurganimizni tushunib, to‘yni yozda o‘tkazishimizga rozilik berdi (O‘.Hoshimov. Ikki karra ikki – besh).

Ma’lumki, Layli va Majnun Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” nomli dostonining bosh qahramonlari nomi. O‘zbek adabiyotida Layli va Majnun nomlari haqiqiy muhabbat egasi, vafodor oshiq-ma’shuqlar timsoli sifatida tilga olinadi. Shu sababli badiiy matnlarda Layli va Majnun nomi “suyukli yor, ideal oshiq-ma’shuqlar” ma’nosiga ishora qilib, lingvomadaniy vazifani bajaradi. Mazkur antropoetonim-

[1] Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent, “Fan”, 2013, 55-bet.
[2] Shu manba. 56-bet.
[3] Молчанова Г. Семантика художественного текста. Ташкент, 1998, с. 17.
[4] Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент, Академнашр, 2013, 53-бет.

lar “Ikki karra ikki – besh” qissasida onomastik metafora sifatida “sevishganlar” ma’nosida qo‘llanilgan.[1] Ayni bunday biblionimlar diskurs jarayonida ham faol qo‘llanayotganini ta’kidlaymiz.

Z.Muqimova: “Metaforik ma’noda qo‘llangan asar nomlari o‘quvchi diqqat-e’tiborini o‘ziga tez jalb qiladi. Masalan, o‘tkir so‘z ustasi O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor”, “Qalbning oppoq daftari”, “Ikki eshik orasi” asarlari biblionimlari fikrimiz isbotidir. Bu kabi xususiy onomastik metaforalari o‘zbekcha idrok, o‘zbekcha nigohning hosilasidir”,[2] deydi.

Nutqiy jarayonda qo‘llanadigan har qanday asar nomini biblionimdan so‘zlashuvga ko‘chgan birlik deya olmaymiz. Ijodkorlar ko‘pgina asarlarga xalq tiliga va tafakkuriga yaqin bo‘lishi uchun so‘zlashuv tilidan olib, biblionim tanlaydi. Masalan, Saida Zunnunova asarlaridan biriga “Bo‘ylaringdan o‘rgilay”, Odil Yoqubov “Er boshiga ish tushsa”, Tog‘ay Murod “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” deb nom tanlagan. Ushbu biblionimlar xalq so‘zlashuv nutqida juda ko‘p qo‘llanilsa-da, ularni, dastlab, biblionim bo‘lib, keyin kishilar nutqiga ko‘chgan. Bizningcha, yuqoridagi biblionimlarning hosil bo‘lishida, tilda avvaldan mavjud bo‘lgan xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, o‘xshatish va boshqa vositalar qatnashgan bo‘lishiga qaramay, ushbu so‘zlar biblionim sifatida faollashib, matn va diskursda turli vazifalarni bajarishga xizmat qilgan, deya olamiz.

Boshqa xalq adiblari qalamiga mansub asarlarning o‘zbekcha tarjimadagi nomi ham diskursiv biblionim sifatida qo‘llana oladi. Masalan, Bugun “Asrga tatigulik kun” bo‘ldi shaklidagi gap tarkibidagi biblionim ushbu kunning ko‘p muhim voqealarga boy tarzda, juda og‘ir, mashaqqatli ish kuni tarzida, esda qolar voqealarga boy tarzda va hokazo holatda vaqtning o‘tganini tasvirlash uchun qo‘llanadi.

Xalqning ko‘nglidan yaqin joy olgan badiiy film nomlarini ham diskursiv biblionimlar sifatida qo‘llanishi mumkin, chunki bunday kinoasarlar ma’lum ssenariy asosida suratga olinadi. Xalqimiz orasida “Chinor ostidagi duel” (Rihsivoy Muhammadjonov ssenariysi asosida suratga olingan), “Mahallada duv-duv gap” (A.Ramazonov va A.Qahhor ssenariysi asosida suratga olingan) filmlar nomi bilan bog‘liq. Bu voqea mahallada duv-duv gap bo‘lib yotibdi, shuningdek, hazil sifatidagi Sen bilan chinor tagida duelga chiqaman kabi diskursiv qo‘llanishlar juda ko‘p uchraydi. Shuningdek, diskurs jarayonida “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” (A.Navoiy dostonlari); “Shum bola” (G‘.G‘ulom, qissa), “Tilla baliqcha” (A.Oripov, she’r), “Kelinlar qo‘zg‘oloni” (Said Ahmad, pesa), “Farg‘ona tong otguncha” (M.Ismoiliy, roman; shu nomdagi musiqiy asar ham bor), “Poshshoyi ko‘ylagim” (Murodboy Nizonov, hikoya) “Hiylayi sha’riy” (G‘.G‘ulom, hikoya) “Temir xotin” (Sh.Boshbekov, tragikomediya), “Zumrad va Qimmat”, “Uchar gilam”, “Ochil dasturxon” (o‘zbek xalq ertaklari) kabi biblionimlar turli ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llanishi o‘zbek millati vakili uchun tushunarlidir.

Tahlillar natijasida ko‘rinadiki, diskursiv biblionimlar kishilar so‘zlashuv uslubida o‘ziga xos yangi usullarning yaratilishiga, nutqiy uslub jozibasini ta’minlashga xizmat qiladi. So‘zlovchi va tinglovchi lisoniy xotirada mavjud bo‘lgan zaxirani uddaburonlik bilan faollashtiradi. Bu esa kommunikatsiya ishtirokchilarining konseptual borliqdagi bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

Umuman, biz diskursiv biblionimlar nomi ostida o‘rganayotgan hodisani yozma matnda qo‘llanadigan biblionimlardan yuz foiz ajratish tarafdori emasmiz. Yozma nutqdagi biblionimlar, ya’ni, intertekstual biblionimlar matn mazmunidan kelib chiqib, kengoq miqyosda qo‘llanishi, unda ma’no tashuvchi asar nomlari hajmi ko‘p bo‘lishi mumkin. Bunday biblionimlar diskurs jarayonida ham qo‘llana olishi yoki diskurs jarayonida qo‘llangan biblionimlar muayyan ma’nolar ifodalashi uchun yozma matnlarda ham ishlatilishi mumkin. Lekin diskursiv biblionimlar ko‘pchilik kitobxonlarga tanish bo‘lgan asar nomlari bo‘lib, turli bilim, daraja, toifadagi shaxslar muloqotida tushunarli bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ba’zan ayrim toifadagi shaxslar, badiiy adabiyot bilan shug‘ullanuvchilar, shoir va yozuvchilar, qiziqchi va askiyachilar, adabiyotshunoslar, kitobsevarlar kabilarning o‘zaro muloqotida ko‘proq ishlatilish xususiyatiga ega. O‘zbek tilida diskursiv biblionimlarning ko‘pligi xalqimizning azaldan adabiyotga oshnoligi, boy badiiy asarlarga ega ekanligimiz, millatimizning kitobxonlik darajasi va madaniyatining yuqori darajada shakllanganligidan ham dalolat beradi.

[1] Муқимова З. “Ономастик метафора” термини хусусида. Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 86-bet.https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5469/5656.

[2] Shu manba.

Qodirova Mukaddas Tog‘ayevna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Avezova Yulduzxon Madamin qizi (Termiz davlat universiteti magistranti)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ANTROPONIMIKA VA UNING MIKROKO‘LAM TURLARI

Annotatsiya*. Mazkur maqola tilshunoslikda onomastik birliklar, jumladan, antroponimika tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda antroponimika haqida nazariy sharhlar keltiriladi va uning mikroko‘lam turlari misollar yordamida tahlillar bilan keng yoritiladi. Maqola antroponimika ko‘lamchalarini o‘zbek tili va ingliz tili tilshunosligidan olib, ularni bir-biri bilan chog‘ishtirilib, o‘xshashlik hamda farqli jihatlarni misollar yordamida yanada aniq ko‘rsatishga harakat qilingan.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению ономастических единиц в язикознании, в том числе и в антропонимике. Даются теоретические обьяснения явлений антропонимики, а ее микротипы подробно анализируются с помощью примеров. В статье берутся антропонимические словари из узбекской и английской лингвистики, сравниваются между собой и на примерах делается попытка более наглядно показать сходства и различия.*

Annotation. *This article includes onomastic units in linguistics and is devoted to the study of anthroponymy. It provides theoretical explanations of anthroponymy and its micro-scale types. Examples of anthroponymics are taken from Uzbek and English linguistics, compares them with each other and tries to show more clearly the similarities and differences with the help of examples.*

Kalit so‘zlar*: onomastika, antroponimika, ism, ota ismi, familya, laqab, taxallus, andronim, patronim, matronim.*

Ключевые слова: *ономастика, антропонимия, имя, фамилия, прозвище, андроним, отчество, матроним, патроним.*

Keywords*: onomastics, anthropnomy, name, surname, patronym, nickname, andronym, matronym.*

Tilshunoslikning onomastika sohasini rivojlantirish bo‘yicha o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab o‘zbek tili nomshunosligiga alohida e’tibor qaratilib, bu borada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, E.Begmatov, Y.Menajiyev, X.Azamatov, A.Irisov, D.Abdurahmonov[1] va boshqalarning ilmiy-nazariy risola, maqola, kitoblari dalil bo‘la oladi. Xususan, E.Begmatov o‘zbek tili antroponimikasi asoschisi hisoblanadi. Yuqorida nomlari qayd etilgan tilshunos olimlar onomastikani tilshunoslikning mustaqil bir sohasi sifatida qarab, ular o‘z ilmiy tadqiqotlarida chiqarilgan xulosalar bilan sohaga yangiliklar olib kirishdi. Masalan, o‘zbek ismlarining ma’nolariga doir ilk risolani Y.Menajiyev va X.Azamatovlar[2] tomonidan yozilgan, biroq ular o‘z ishlarida ismlarning ma’nosini tushunish va ism ma’nosiga asos bo‘lgan motivlarni ta’riflashda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. E.Begmatov va A.Irisov, D.Abdurahmonovlar esa ushbu maqolani o‘rganib, o‘z risolalarida yuqorida ta’kidlangan kamchiliklar bartaraf etishga e’tiborini qaratishdi.

Onomastika sohasi o‘rganadigan bir qancha lisoniy ya’ni onomastik birliklar mavjud. Ular jumlasiga antroponim, toponim, zoonim, fitonim, kosmonim, teonim va hokazolar kiradi. Antroponimikaning asosiy maqsadlaridan insonga berilgan nomlarni o‘rganishga qaratilgan nazariy xususiyatlar yechimini aniqlashdir. Antroponimika ham o‘z birliklariga ega. Unda kishi nomlarini o‘rganish jarayonida har biriga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Jumladan, ismlar, familya, laqab, ota ism, patronim, matronim, andronim, eponim, genonim, taxallus va boshqalar. N.V.Podolskaya “Словар русской ономастической терминологии” nomli kitobida antroponimika terminini izohlab uning tarkibiga quyidagilarni kiritgan: ism, otchestvo, familya, laqab, taxallus, kriptonim (ism, laqab, nom), andronim, ginekonim, patronim. Bular antroponimikaning mikroko‘lamini tashkil qilib, har biri o‘z leksik-semantik ma’nosiga ega.

Ism – insonga beriladigan nom. Insonga ism berilishi go‘daklik payti, har bir xalqning ma’naviyati, yashash tarzi, urf-odatlari, ota-onaning orzu-tilaklari, umidlaridan kelib chiqqan holda ro‘y beradi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, insonlarga qo‘yiladigan ismlar turli xil vazifalarni bajargan va chaqaloqning tug‘ilgan vaqti, holati, sog‘ligiga bog‘liq holda qo‘yilgan. Masalan, *Oltiboy, Norqul* chaqaloq badanidagi belgilariga ishora qiladi, *Qoraboy* go‘dakning yuzi, ko‘zi va sochiga xos xususiyatlarga ko‘ra nomlanuvchi bo‘lsa, *Ochilbek* esa chaqaloq tug‘ilganidan to 7 kunga qadar ko‘zi ochilmasa qo‘yilgan. Bir qancha ismlar chaqaloqning tug‘ilgan vaqtini ko‘rsatadi–*Jumaboy, Asad* ismlari chaqaloq tug‘ilgan oyiga, *Bahor*

[1] Begmatov E., Abdurahmonov D., Irisov A. Ismingizning ma’nosi nima? “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1965, 1-son.
[2] Menajiyev Y., Azamatov X. Ismingizning ma’nosi nima? Toshkent, “Fan”, 1964.

bola tug‘ilgan mavsumiga *Hayitgul* ismi esa bayram, marosim kunlari; bolaning o‘z uyida tug‘ilmaganligini anglatuvchi *Yo‘lchi;* chaqaloq dunyoga kelganda otasining yoshi nechchada bo‘lganiga ishora qiluvchi ismlarga *Saksonni* misol qilishimiz mumkin. *To‘xta, O‘g‘iloy* kabilar o‘g‘il yoki qiz ko‘rish orzusi bilan bog‘liqligi, *Yodgor* ismi chaqaloqning otasiz yoki onasiz qolganini, *Xursand, Quvondiq* ismlari esa ota-onaning emotsional holatini, baxtiyorligini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Hozirgi kunga kelib, ko‘p insonlar juda noodatiy, noyob, kam uchraydigan ism qo‘yishga harakat qiladilar. Shu bois ba’zi insonlar yangi tug‘ilgan go‘dakka ism qo‘yishda boshqa mamlakatlar madaniyati, qarashlari yoki mashhur insonlariga havas qilib, chet ellik fuqarolarga xos bo‘lgan ismlarni yurtimizda kamligi yoki umuman yo‘qligi uchun o‘z farzandlariga qo‘yishga harakat qilishadi. Masalan *Alina, Eliza, Emir, Milena* va hokazolar. Vafot etgan yaqinlarining, jumladan, bobo, buvi, aka, opalarining ismlarini unutib yubormaslik uchun chaqaloqlarga qo‘yish holatlari ham tez-tez uchrab turadi. *Shukurjon, Jumanazar* kabi ismlar misol bo‘la oladi. Aholi o‘rtasida yuqorida aytib o‘tilgan o‘zbekcha ismlardan foydalanish holatlari ancha kamaygan. Chet el fuqarolariga xos ismlarning yangi tug‘ilgan farzandlarga qo‘yilishi esa birmuncha ko‘paygan. Ismlarga asos odatda turdosh otlardan olinadi. Ota-ona tug‘ilgan farzandiga yaxshi nom har doim hamrohi bo‘lishi uchun iloji boricha ijobiy ma’noli ismlar qoyishga harakat qilishadi va bunda pozitiv ma’no beruvchi turdosh otlarning aynan o‘zidan ham foydalanadilar: *mamlakat-Mamlakat, umid-Umid va boshqalar.*

Inglizlarda yangi tug‘ilgan bolaga ism qo‘yish jamiyat va tilning ijtimoiy aspektlariga bog‘liq hodisadir. Ingliz shaxs nomlarini kelib chiqishining o‘ziga xos tarixi mavjud. Nomlarning tarixi atoqli otlar va turdosh otlarning bir-birlariga bog‘liqligi, bir-birlariga taqqoslab o‘rganilgan analizlariga bog‘liqdir. Ingliz tili ham boshqa xalqlar bilan madaniy, ijtimoiy aloqasi kuchliligi bois, tilning barcha sohalari jumladan, ingliz tili antroponimikasi ham vikinglar, skandinav, norveg, nemis, fransuz tillarining o‘ziga xos jihatlari bilan birgalikda rivojlana bordi. Qadimiy ingliz ismlarining ko‘pchiligi kelib chiqishi yuqorida aytib o‘tilgan tillarga borib taqaladi. Qadimgi hinduy-evropaliklarning ism berish usuli to‘g‘ridan to‘g‘ri dunyoning modeli va o‘y-fikrlariga bog‘liq bo‘lgan. Vaqt o‘tib, go‘dakka ism tug‘ilganida ota-onaning orzu-umid, xohishlariga ko‘ra beriladigan bo‘ldi. “Umumiy ro‘yxatga olish idorasi” qonunlariga ko‘ra Buyuk Britaniyada farzandlarini nomlashda salbiy ma’noli ismlardan boshqa barcha ismlarni qo‘yishi mukin, farzand nomlashda boshqa cheklovlar ko‘rsatilmagan.

Rus tilshunos olimlari N.N.Zerkina, O.V.Kisel, V.V.Mikhailov, O.A.Lukina ingliz ismlarini o‘rganib, izlanishlar olib borishgan va quyidagi xulosalarga kelishgan:inson ismlarining xarakterli sifatlariga ko‘ra turlari:[1] murakkab ismlar; maxsus qo‘shimchalar qo‘shish orqali yoxud murakkab ismlarni qisqartirish orqali kelib chiqqan ismlar; appelyativ ismlar (tarixiy davrlardan inson ismi sifatida ko‘chirilgan nomlar). Oldinlari Angliyada ko‘pchilik ismlarni ham ayollarga ham erkaklarga nisbatan ishlatishgan va bu odat ba’zi ismlarda hozirgacha saqlanib qolgan. *Bever, Billie, Carol, Chris* shular jumlasidandir. Ota-onalar asosan, yangi tug‘ilgan farzandiga jins tanlamaydigan ismlardan qo‘yishni afzal bilishgan. *Anne, Anthonia, Berly* bu ismlar ilgari erkaklar uchun ham ishlatilgan bo‘lsa, endilikda ular faqat ayollarga xosdir. Tabiiyki, chaqaloqqa ism qo‘yayotganda ota-onalar jins tanlaydigan va tanlamaydigan ismlarda adashishadi. Shu bois ba’zi ayollar va erkaklar ismlarini talaffuzidan tarkibidagi unlilar o‘zgarishidan farqlanadi. Quyidagi jadvalda farqlar misollarda ko‘rsatilgan.[2]

Erkaklar uchun	**Ayollar uchun**
Marion	*Marian*
Olave	*Olive*
Louis	*Louie*
Lesley	*Leslie*
Horatio	*Horatia*
Florance	*Florence*

Laqab ham atoqli otdir. Shu bois ham u antroponimika o‘rganadigan birliklardan biri hisoblanadi. Uni tilshunos olim E.Begmatov[3] o‘z lingvistik asarlarida “qo‘shimcha nominativ kategoriya” deb nomlagan. Uning ta’kidlashicha, shaxsni nomlashning asosiy vositasi ismdir, boshqa usullar esa antroponimik noinatsiyada uni to‘ldiruvchi qo‘shimcha vazifalarni o‘taydi”. Laqab insonlarga beriladigan norasmiy nomdir. U o‘sha insonning boshqa insonlardan ajralib turadigan biror-bir belgi, xususiyatlariga, ko‘ri-

[1] www.wikipedia.org
[2] www.cambridgescholars.com
[3] Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. “Fan”, Toshkent, 2013.

nishiga, xarakteriga, aqliy yoki ruhiy holatiga, odatlariga nisbatan beriladi. Bunday laqablarda ijobiy ma'nodan ko'ra ko'proq inson shaxsiyatiga tegadigan salbiy, kinoyali ma'nolar nazarda tutiladi. Masalan *Sobir kar, Abdul Soqir* kabilar. Ota-bobolarimiz davrida laqablar joyga yoki kasb-koriga nisbatan ham berilgan. Familya, ota ism urfga kirgunga qadar insonlarni farqlashda laqablardan keng foydalanilgan. Bu kabi laqablarda esa salbiy ma'no aks etmmagan. *Jumanazar Baxshi* kabi. Laqablar ma'lum bir doiradagi insonlarga tanish bo'ladi. Laqablar qadimiyidir, ular oldingi davrlarda ham ishlatilganligi bizga tarixdan ma'lum. Masalan, *Qosim qora, Qutlug' Temur*. Bizlarga ota-bobolarimzdan yetib kelgan ko'p yozma manbalarda laqablarni uchratishimiz mumkin: *Shayx Suhravardiy* (A.Navoiy. "Hayrat ul-abror"), *Mirzakarim qutidor* (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar").

Ism va laqab ikkalasi ham atoqli ot, antroponimika birliklaridan, ammo bir-biridan farq qiladigan jihatlari ham bor. Birinchidan, tabiiyki, har bir insonga go'dakligidan ism beriladi, ammo laqab qo'yilishining vaqti aniqmas. Ikkinchidan, har bir shaxsning ismi bo'lishi shart, lekin laqab shart emas, jamiyatimizda ismsiz insonlar yo'q, ammo laqabsiz insonlar bor. Uchinchidan, insonga bitta ism beriladi, laqab esa bir qancha bo'lishi mumkin. To'rtinchidan, ism orzu-umidlar asosida insonga beriladi, laqablar esa, asosan, insonning nuqson, kamchilikliklarini aytib insonni kamsitish, mazax qilish, ustidan kulish kabi salbiy niyat bilan beriladi.

Inglizlar ham kundalik turmush tarzida laqablardan, badiiy adabiyot, san'atda esa taxalluslardan foydalanishadi. Har bir insonda xuddi ismdek laqab mavjud emas, u ixtiyoriydir. Inglizlar o'zlarini tanishtirishganda laqablarini ya'ni insonlar shu kishini qanday atashlarini o'zi aytib o'tadi. Yoki endi tanishayotganda suhbat jarayonida "Insonlar sizni nima deb chaqirishadi?" "Do'stlariz sizni nima deb chaqirishadi?" "Sizning inglizcha ismingiz nima?" (bu savol chet ellardan kirib kelgan, ayni paytda, Angliyada yashayotgan shaxslarga nisbatan beriladi) deb so'rash mumkin. Ingliz laqablarida salbiy ma'nodan ko'ra ko'proq ismni kichraytirish, erkalash hazil ma'nolari kuchliroq. Laqablar yasashda 2 ta umumiy qoida bor: ismni qisqartirish, qisqartirilgan ismga -y, -ie yoki -i qo'shimchalarini qo'shish. Bu qoidalardan istisno holatlari ham mavjud. Hazil tariqasida ismlar ba'zi bir sifatlar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin: "Big Tom", "Little Jack".[1]

Familya – lotincha bo'lib, "familia", "oila" so'zidan kelib chiqqan, chaqaloq tug'ilganida, farzandlikka olinganda, oldingi familya o'zgartirilganda, nikohdan o'tganda, qabul qilinadigan va nasldan naslga o'tadigan oilaviy nom. Insonning ismi bilan birgalikda kelib, uning qaysi sulolaga mansubligi, kimlarning davomchilari ekanligini bildirib turadi. Qadimgi Rimda familia so'zi bir xo'jayinga tegishli qullarni, keyinchalik, xo'jayinning oilasi va qullarini, yana vaqtlar o'tib yanada kengroq tushunchaga aylangan, ya'ni oila boshlig'i, uning oilasi qarindoshlari, yaqinlari. Hozirgi tushunchadagi familiya so'zi X–XI asrlarda Shimoliy Italiyaning iqtisodiy rivojlangan viloyatlarida paydo bo'lgan. Keyinchalik, Yevropaning boshqa davlatlarida ham ommalashib ketgan. Rossiyada familya, dastlab, krepostnoy dehqonlar xo'jayinlarining familyalarini qabul qilish shaklida namoyon bo'lgan.

XIX asrga kelib esa rus tilida "familya" termini "nasl-nasabni ifodalovchi oilaviy nom" sifatida qo'llanila boshladi. Bu udum esa bizga ruslar bilan birgalikda kirib keldi. Sobiq Ittifoq davrigacha yurtimizda "familya" termini mavjud bo'lmagan, undan hech kim foydalanmagan. O'zbek tiliga rus tilidan familyadan qanday foydalanishsa, ya'ni -ov, -eva qo'shimchalari bilan birgalikda xuddi shu tartibda kirib keldi. Bu paytda **-iy** qo'shimchali familyalar *Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy,* ba'zan tarkibida **-zoda** so'zi mavjud bo'lgan familyalardan foydalanilgan: *Uyg'un Sharifzoda* singari. Ota-bobolarimiz ismlari tug'ilib o'sgan joy nomlari bilan, sulolasi nomlari bilan hamda kasblari bilan, laqab va unvonlar bilan birgalikda ishlatilgan va shu orqali insonlarni bir-biriga adashtirmay, farqlay olishgan: *Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Koshg'ariy* kabilar.

Barcha davlatlarda bo'lgani kabi Angliyada ham familyaga e'tibor katta. U insonni, ma'lum bir sulola vakili ajdodlar izdoshi ekanligini ko'rsatib, isbotlab beruvchi nomdir. Normandlar Angliyani istilo qilgan davridan boshlab familya tushunchasi inglizlarda ham qo'llanila boshlandi. Dastlabki ingliz familyalari insonning yashayotgan shahar, graflik yoki mulkidan kelib chiqqan holda qo'yilgan. Buyuk Britaniyadagi graflik nomlari, jumladan, *Cheshire, Kent, Devon*lar familya sifatida qo'llanilgan. Yana boshqa mahalliy familyalarga tepalik, o'rmon kabi tabiiy landshaftlar asos bo'lgan. Eng ko'p tarqalgan va mashhur familyalarga quyidagilarni aytishimiz mumkin*: "Smith"* – inglizcha, "temirchi" eski ingliz tilida bu familya kasbiy familya, bunday familyali inson jamiyatning obro'li shaxslaridan hisoblangan. *Jones* –uels tilidan olingan bo'lib, "xudo mehribon" degan ma'noni beradi. Bu familya John ismidan, bu esa o'z

[1] www.britannica.com

navbatida ibroniy tildagi Yochanan so‘zidan kelib chiqqan. *“Williams”*– inglizcha, “Williamning o‘g‘li degan ma’noni bildiradi. *Brown* – inglizcha, “jigar rang”, kimdir jigar rang sochli yoki tanasini rangi jigar rang bo‘lsa, ishlatilgan. *Davies* – inglizcha, uels, skotlandcha, “Davidning o‘g‘li”. *Thomas*–grekcha so‘z bo‘lib, “egizak” ma’nosini bildiradi.[1]

Ota ismi-ism, familya bilan birgalikda ishlatiladigan nom. Hozirgi kunda shaxsning ota ismini bildirish uchun o‘g‘li, qizi so‘zlaridan foydalanamiz. Barcha qonuniy-huquqiy hujjatlarda shu shaklda uchraydi. Ota-bobolarimiz davrida ota ismini ko‘rsatish uchun erkakalarga **bin, binni, ibn** so‘zlaridan, ayollarga esa **bint, banot** so‘zlari ishlatilgan. *Abu Ali ibn Sino, Sadr Muhammad bin Ahmad*, “**bin”, “binni”, “ibn”** hammasi arabcha so‘z bo‘lib, “o‘g‘li”, **“bint”, “banot”** so‘zlari arabchadan olingan bo‘lib, “qizi” degan ma’nolarni anglatadi: *Kumushbibi binti Mirzakarimboy*. Sobiq Ittifoq davriga kelib, bu so‘zlar o‘rniga **-evich, -yevich, -vna, -ovna** kabi qo‘shimchalar ota ismiga qo‘shiladigan bo‘ldi. Masalan, *Nazarov Sulton Muhammadiyevich, Abdullayeva Nigora Samadovna*. Ruslar istilosi davrida pasportlashtirish ishlarida aholi ommaviy ravishda ruslardan kirib kelgan familya va ota ism shakllarini qabul qilishdi va ularni o‘zgartira olishmagan. Bugungi kunga kelib yetarlicha asos bo‘lsa, ism, familya, ota ismlarini qonunda ko‘rsatilgan tartibda o‘zgartirishlari mumkin.

Patronim – so‘zi yunon tilidan *patros –ota, onyma–ism* so‘zlaridan kelib chiqqan va “ota ismi” ma’nosini bildiradi. Bu tushuncha ko‘proq roman-german til oilalarida uchraydi, o‘zbek tilida ota ismga muqobil variant bo‘la oladi. “Patronim” shakli ingliz tiliga ilk marotaba 1834-yilda fransuz tilidagi *patronyme*[2] (kelib chiqishi grekcha) so‘zini asos qilgan holda ishlatilgan. Dunyo bo‘ylab ko‘p tillarda patronim termini oldingi oila ismini ya’ni farzandning otasini ismini ko‘rsatish maqsadida beriladi. Masalan, o‘zbek tilida *Sobirov Jasur Ahmad o‘g‘li, Nazarov Umid Muhammad o‘g‘li*,ingliz tilida esa *John Wilson* (Williamning O‘gli), *Tom Fitzgerald* (Geraldning O‘gli) va hokazolar. O‘zbek tilida patronimni ko‘rsatish uchun o‘g‘li,qizi so‘zlarini ism,familya, ota ismlari bilan birgalikda ishlatamiz. Ingliz tilida esa **“son”,** ya’ni, “o‘g‘li” so‘zi familyaga **-son, -sen, -ez, -uez** tarzida qo‘shilib ketadi: *Johnson, Andersen, Fernandez, Rodriguez.*

Matronim qadimiy grek tilidan olingan bo‘lib, “meter” –‘ona” va ‘onoma”–“ism” ya’ni “ona ismi” degan ma’noni anglatadi. Matronim termini lingvistikada patronimga zid ma’nolidir. Matronim farzandga onasi yoki ona tomonidann buvi, momolarining familyasi berilishidir. Angliyada matronimlar odatda qonuniy nikohsiz tug‘ilgan farzandlarga beriladi. Shu qatorda oddiy oilalarda ham ota-ona kelishuvi asosida farzandga onaning familyasi berilishi mumkin. O‘rta asrlarda farzand tug‘ilishidan oldin otasi vafot etsa yoki otasi chet el fuqarosi bo‘lib, familyasi talaffuz qilishga qiyin bo‘lsa, matronimlardan foydalanishgan.[3]

Demak, antroponimika inson ismlarini o‘rganuvchi tilshunoslikning bir bo‘limidir. U ism, familya, ota ismi, laqab, taxallus, patronim, matronim, andronimlarni o‘z ichiga oladi.

[1] www.wikipedia.org
[2] www.wikipedia.org
[3] www.wikipedia.org

ADABIYOTSHUNOSLIK

Shamuratova Elza Saparbaevna (Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti katta o‘qituvchisi (PhD); eljamol1990@mail.ru), Sagidullaeva Shaxnoza Baxitjanovna (stajyor o‘qituvchi)

SHARQ VA G‘ARB OLIMLARINING ADABIYOT NAZARIYASI HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq va G‘arb olimlarining adabiyot nazariyasi haqidagi qarashlari, adabiyot nazariyasining eng muhim muammolari, adabiy matn tushunchasi borasidagi ilmiy bahslar, adabiyot nazariyasiga oid rang-barang qarashlar haqidagi fikrlar tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются взгляды восточных и западных ученых на теорию литературы, важнейшие проблемы теории литературы, научные споры о понятии художественный текст, взгляды на различные аспекты теории литературы.*

Annotation. *This article analyzes the views of Eastern and Western scientists on the theory of literature, the most important problems of the theory of literature, scientific disputes about the concept of artistic text, views on various aspects of the theory of literature.*

Kalit so‘zlar: *badiiy adabiyot, shoir, alloma, ijod, she’r, manba, g‘oya, poetika, tarjima.*

Ключевые слова: *художественная литература, поэт, ученый, творчество, поэма, источник, идея, поэтика, перевод.*

Keywords: *fiction, poet, scientist, creativity, poem, source, idea, poetics, translation.*

Adabiyot nazariyasining eng muhim muammolaridan biri “Adabiyot nima?” savoliga javob izlash bo‘lgan. Ammo zamonaviy G‘arb olimlarining ko‘pchiligi alohida holda adabiyot tushunchasini emas, balki til materialini ishlatish uslubi narratologiya tushunchasini o‘rganishga sa’y-harakat qilishadi. Shuning uchun nazariyachilar o‘rtasida adabiy matn tushunchasi borasidagi ilmiy bahslar hanuz davom etadi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot nazariyasiga oid rang-barang qarashlarni o‘zida mujassam etgan turli maktablar faoliyat ko‘rsatadi. Ular tadqiqot predmeti, uning obyekti, metodologiyasi va tadqiq etish metodlari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Ba’zi olimlar fikriga ko‘ra, badiiy adabiyotni bayon qilish uslubi, ya’ni, interpretatsiya bilan bog‘liq holdagina o‘rganish mumkin.

Qadimgi Xitoyda Lu Szining (261–303) “Ven Fu” (“Adabiyot haqida”) kitobi ilk poetikalardan biri hisoblanadi. Mazkur asar xitoy adabiyoti tarixida eng qadimiy adabiy-nazariy qarashlar majmuasi bo‘lib, uning so‘zma-so‘z tarjimasi “Nafis so‘z haqidagi madhiya” deyiladi. Shuningdek, Lu Szi she’rning parallel qurilishini joriy qilgan shoirdir. Lu Szining mazkur asari she’r, ya’ni, poetik so‘z aytish va ta’lif etish qonuniyatlarini o‘rgatuvchi manbalardan bo‘lib, manbaning o‘zi ham she’riy shaklda yozilgan hamda xitoy poetikasiga doir ilk manbadir. Kitobda ritm, qofiya tartibi, qofiyalangan proza talablari, poetik nutqning asosiy talablari kabi masalalar yuzasidan fikrlar bildirilgan. Mazkur kitob eramizning oltinchi asrigacha eng noyob manbalardan biri sifatida xizmat qilgan.[1]

Ma’lumki, “Aristotel poetikasini, dastavval, Abu Bashr Matta (vafoti 932) suryoniy tilidan arabiyga ag‘dargan, Yahyo ibn A’diy (vafoti 960) esa asarni yana suryoniydan tarjima qilgan. Ibn Sino ana shu ibn A’diy tarjimasi asosida unga sharhlar yozgan. Ibn Rushd ham ibn A’diy tarjimasini sharhlagan. XII asrda Toledoda ibn Rushd sharhini olmoniyalik Herman (vafoti 1256) lotin tiliga ag‘dargan”.[2]

“U mahallarda arab tili hali ilmiy til sifatida tanilmagan, ko‘p asarlarni, shular jumlasidan, ko‘p yunon mualliflarining ta’liflarini suryoniy tiliga tarjima qilish odat edi. ...Keyinchalik, o‘ninchi asrga kelib, “Poetika” suryoniy[3] tilidan arabchaga tarjima qilindi. Buning dastlabki tarjimonlaridan Is’hoq ibn Hunayn

[1] Liu Xie. Dragon-Carving and the Literary Mind. Translated into English by Yang Guobin. Beijing. Foreign Language Teaching and Research Press, 2003.

[2] Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1997, 233-bet.

[3] Izoh bizniki: Suryoniy tili eng qadimgi davrlardan eramizning IX asriga qadar muomalada bo‘lgan, hozirda o‘lik tillardan biri hisoblanadi. Ko‘proq Sharqiy O‘rta dengizi hududlarida amalda bo‘lgan. Suryoniy tilining tarixiy ahamiyati shundaki, qadimgi yunon ma’naviy-ilmiy va falsafiy qarashlari avval grek tilidan suryoniy tiliga tarjima qilingan. Mazkur tarjimalar so‘ng arab tiliga suryoniy tilidan tarjima bo‘lgan. Suryoniy tili qadimgi yunon-rim madaniyati durdonalarini zamonaviy davrlarga yetib kelishida ko‘prik rolini o‘ynagan. Suryoniy tilining asosida Edessa nomidagi shahar aholisining aramey dialekti turgan. Edessa eramizdan oldingi II asr oxiridan boshlab, asr o‘rtalariga qadar muhim savdo-sotiq va madaniyat, siyosiy markaz bo‘lgan. Suryoniy tiliga eramizning II asrida Injil tarjima qilinadi. Mana shu vaqtdan boshlab mazkur tilning ahamiyati yanada ortadi. Suryoniy tili bir necha asrlar davomida yozma til sifatida rol o‘ynagan hamda O‘rta dengizidan tortib, to Xitoy, Mo‘g‘ilistonlarga qadar tarqalgan. Sharqiy

(vafoti 911) bo‘lsa, boshqasi Matto ibn Yunus al-Qunnoyi (941-yilda hayot bo‘lgan) edi.[1] Matto ibn Yunus al-Qunnoyining “Poetika” tarjimasi bizning davrimizgacha yetib kelgan.

A.Irisovning fikriga ko‘ra, Aristotelning mazkur kitobi haqida arab faylasufi Abu Is’hoq al-Kindiy (801–866) ham qisqa bir kitob yozgan. Ingliz sharqshunos olimi David Samuil Margolius 1887-yilda Aristotel “Poetika”sining Matto ibn Yunus qilgan tarjimasini topib, uni Londonda bosmadan chiqaradi. Matto ibn Yunus amalga oshirgan “Poetika” tarjimasini o‘tgan asrning 1953-yilida arab olimi Abdurahmon Badaviy Qohirada nashr qiladi. Mazkur nashrda Aristotel “Poetika”siga yozilgan Forobiy, Ibn Sino, ibn Ro‘shdlar sharhlari ham qo‘shilgan holda chop etiladi.

Shu bilan bir qatorda, badiiy adabiyot va uning normalari to‘g‘risidagi fan sohasi hamda uning tarkibidagi she’r mohiyati to‘g‘risidagi fikrlar ham qadimgi grek zaminida, aniqrog‘i, Aristotelning “Poetika” asari bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelgan bo‘lsa, keyinchalik, Sharq davlatlarida qadimgi grek falsafiy fikrlariga yozilgan sharhlar orqali, masalan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino asarlari kitoblari orqali ijodiy o‘zlashtirilgan va mantiqan rivojlantirilgan.

Insoniyat madaniyati tarixida Aristotelning “Poetika” asari anchayin murakkab taqdirni boshidan o‘tkazib, movarounnahrlik qator olimlarning ilmiy qarashlari orqali saqlanib, G‘arb Renessansining muhim asoslaridan biri darajasiga ko‘tarilgan hamda eramizdan oldingi III asrdan bizning davrimizgacha saqlanib, omon yetib kelgan.[2] Ya’ni, eramizdan oldingi III asrda qadimgi Gretsiyada yaratilgan adabiyot haqidagi ilm, keyinchalik, O‘rta asrlarda musulmon madaniyati doirasida bizning zaminimizdan yetishib chiqqan bir qator olimlar tomonidan sharhlangan, poetik fikrga doir g‘oyalar ijodiy rivojlantirilgan, undan keyin esa Yevropa renessansi davridan boshlab, G‘arb davlatlari ilmiy tafakkuriga musulmon madaniyati orqali o‘tgan va saqlanib, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Binobarin, bizning buyuk ajdodlarimizning poetik tafakkuri o‘z davrida umumbashariy, xususan, G‘arb poetik tafakkurining shakllanishi uchun xizmat qilgan, dunyo miqyosidagi adabiy-poetik g‘oya va qarashlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

“Poeziya”, ya’ni, badiiy *adabiyot* so‘zining ilmiy muomalaga kiritilishi Aristotel nomi bilan bog‘lanadi. Aristotel o‘zining “Poetika” asarida badiiy adabiyotni shu nom bilan, ya’ni *poeziya* deb ataydi. Hozirgi zamon ilmida esa badiiy adabiyot tarkibidan faqat she’riyat poeziya nomi bilan ataladi. Ammo Aristotelning nima uchun badiiy adabiyotni poeziya deb ataganligida jon bor. Chunki Aristotel davridagi dastlabki adabiyot, ya’ni, epos va drama marosim xorlaridagi rivoyat va hajviy dialog asosida yozilgan she’riy asarlardan iborat bo‘lgan va ular kuylab ijro etilgan.

Aristotelning “Poetika” asari ikki qismdan iborat bo‘lgan, degan fikr ham mavjud. Ular: tragediya va komediyadir. Ammo bizning davrimizgacha faqat bir qism, ya’ni, tradegiya borasidagi qarashlar yetib kelgan, xolos. Aristotel fikriga ko‘ra, tragediya olti unsurdan iboratdir, ular: qurilish, xarakter, uslub, spektakl va lirikadir. Personajlar voqeani bayon etish uchun xizmat qiladi. Sujet tragediyaning bosh obyekti hisoblanadi. Tragediya sa’y-harakatlar, ya’ni faoliyat imitatsiyasi hisoblanadi. Tragediya, Aristotel fikriga ko‘ra, afsus, o‘kinch, qo‘rqinch hislarini uyg‘otib, emotsiyalarning kuchayishi va inson qalbining poklanishi uchun qo‘llaniladi.

Aristotelning “Poetika” asarining asli nomi “Poeziya san’ati to‘g‘risida” deb atalgan. Uning bosh maqsadi qadimgi grek adabiyotidagi rivojlanish jarayonlarini tanqidiy anglash va ular asosida alohida xulosalangan tizim yaratishdan iborat bo‘lgan. Olim qadimgi grek eposi va dramasi tarkibidagi umumiy, qonunlashgan holatlarni, ya’ni, adabiy tur elementlarini ilmiy aniqlashga, badiiy adabiyotni esa tur va xillarga bo‘linishiga asos solgan.

Demak, badiiy adabiyotni badiiylik hodisasi sifatida nazariy anglash Aristotel tomonidan boshlab berilgan bo‘lib, bu ta’limot, keyinchalik, bir qator qadimgi grek-rim madaniyatiga tegishli mualliflar (Neoptolem, Goratsiy) tomonidan tadrijiy rivojlantirilgan, mana shu nazariy qarashlar, so‘ngra, o‘zining so‘zsiz, ta’sirini ham G‘arb adabiyotiga, ham Sharq adabiyotiga o‘tkazgan.

Rim Imperiyasida esa suryoniy tili grek tilidan keyingi o‘ringa qo‘yilgan.

[1] Irisov A. Aristotel “Poetika”si va uning Sharqdagi izdoshlari. Aristotel. Poetika. Toshkent, 1980, 124–125-betlar.

[2] U.To‘ychiyev va M.Mahmudov tarjimasi. T., Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980, 150-bet.

Жепбарова Саят Курбанмиратовна (Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат университети)

МАХТУМҚУЛИ ИЖОДИ – ЎЗБЕК АДАБИЁТШУНОСЛАРИ НАЗАРИДА

Аннотация. *Мақолада XVIII аср туркман мумтоз шоири Махтумқули ижоди миллий истиқлол даври ўзбек адабиётшунослигида тадқиқ қилиниши назарий жиҳатдан умумлаштирилади. Унда илмий ва бадиий талқинда шоир шеърияти мақоми, туркман-ўзбек адабий алоқалари тадрижи, адабий меросни ўзбекча таржимада қайта тиклаш масалалари хусусида сўз боради. Муаллиф буюк мутафаккир ижодининг Ўзбекистонда шуҳрат қозониши ва кенг тарқалиши омилларини аниқлашга ҳаракат қилади ҳамда бу борада юзага келган ютуқ-камчиликлар ҳажмини адабий танқидчилик мезонлари асосида ҳаққоний баҳолайди.*

Аннотация*. В статье дано теоретическое обобщение исследования творчество великого туркменского поэта 18 в Махтумкули в узбекском литературоведении за годы независимости. Также рассматриваются вопросы художественного анализа лирики поэта, туркменско-узбекские взаимоотношения, задачи возрождения литературного наследия. На основе критерий литературной критики объективно оцениваются положительные стороны и недостатки в работе по изучению творчества Махтумкули.*

Annotation. *This article deals with the theoretical generalization of the investigation of the great Turkmen poet of 18 centuries in the Uzbek literary during the Independence years. It also studies the questions of literal analysis of lyric of poet, Turkmen and Uzbek relationship, tasks of renewal of literary heritage. On the basis of criteria of literal critic is evaluated the positive and negative sides of the works in investigating Mahtumkulu's works.*

Калит сўзлар: *адабий алоқалар, таржима, адабий таъсир, туркман мумтоз шеърияти.*

Ключевые слова: *литературные связи, перевод, литературное влияние, туркменская классическая поэзия.*

Keywords: *literal connections, translation, literal influence, famous Turkmen classic poetry.*

Адабиётшуносликка юкланган миссия орасида адабий алоқалар, маданий ҳамкорлик ҳамда бадиий таржима малакасини таҳлиллаш истиқболли йўналишларни белгилаб беради. Шуни ҳисобга олган ҳолда, биз жорий мақолада ўзбек-туркман адабий алоқаларида Махтумқули ижодининг ўрни, шоир меросининг Ўзбекистонда ўрганилганлик даражаси, ўзбек тилига ўгириш муаммолари ҳамда ўзбек адабиётшунослари назаридаги масалаларига эътибор қаратдик.

XVIII аср туркман мумтоз шоири Махтумқули адабий мероси нафақат туркман халқи, балки жаҳон маданиятида ўзига хос ҳалқани ташкил этади. Миллий тасвир ўлчамини умуминсоний қадрият даражасига кўтарган ижодкор адабий талқини ёш авлод дунёқарашига миллий ғурур, миллий ифтихор ва миллий ўзлик туйғуларини сингдириш, миллий мустақиллик маънавиятини мустаҳкамлаш, инсонийлик ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашга хизмат қилади. Шу ўринда, шоир шеърлари соддалиги ва равонлиги, теранлиги ва жозибалилиги билан ажралиб туришини таъкидлаш жоиз. «Фироғий тахаллуси билан халқона, бахшиёна оҳангда шеърлар ёзган Махтумқули бугунги кунда жаҳон адабиётида ўзининг муносиб ўрнига эга. Унинг дидактик шеърлари халқ дилига жуда яқин бўлиб, соф муҳаббат, вафодорлик, дўстлик, меҳр-оқибат, қадру қиммат, инсонийлик, мардлик, ватанпарварлик туйғуларини тараннум этувчи лирикаси ўзининг халқчиллиги билан алоҳида ажралиб туради».[1]

Жорий кунда Ўзбекистонда истиқомат қиладиган ўзбек, қорақалпоқ ва туркман миллатлари ўз она тилида ўқийдиган дарсликларда Махтумқули ҳаёти ва адабий фаолиятига кенг ўрин берилганлиги, Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат университети туркман филологияси бакалавр таълим йўналиши талабаларига «Махтумқулишунослик» фани махсус курс сифатида ўқитилиши, шоир ижоди қайта-қайта ўзбек тилига ўгирилиши, ижодкор поэтик меросининг адабий алоқалар аспектида тадқиқ қилиниши Махтумқули асарлари мағзи тўқлиги, фалсафий теранлигини далолатлайди. Ўз навбатида, мамлакатимизда шоир ижодини севиб ўқимайдиган ўқувчи топилмаса керак.

Шунинг баробарида, ўзбек адабиётшунослигида Махтумқули ҳаёти ва адабий мероси бўйича бир қатор илмий тадқиқотлар мавжуд. Бинобарин, академик Б.Назаров: «Махтумқули ижодини атрофлича, кенг ва чуқур тадқиқ этиб бориш биз, ўзбек адабиётшуносларининг ҳам олдимизда

[1] Жўраев М. Махтумқули шеърияти ва ўзбек халқ бахшилари ижоди. Махтумқули таваллудининг 290 йиллиқ юбилейининг Хивада ўтказилган халқаро анжумандаги маърузаси. Хива, 2013.

турган доимий вазифалардан бўлиб қолиши керак»,[2] дея эътироф этади. Бунинг амалий ифодаси сифатида ўзбек адабий танқидчилигида муайян тажриба тўпланган.

Назарий тадқикотларни махтумқулишунос олим уч йўналишга ажратади: «Биринчиси, шоир мероси адабий портрет шаклида, иккинчиси, Махтумкули лирикаси адабий алоқа ва таъсир аспектида тадқиқ этилмоқда. Махтумқули шеърларининг ўзбекча таржималари ҳақидаги илмий ишлар ўзбек махтумқулишунослигидаги учинчи йўналишдир. Уч илмий йўналиш ҳам кўпдан бери адабиётшунослигимизнинг муайян тармоғи сифатида ривожланиб келаяпти».[3] Дарҳақикат, етакчи мутахассис илмий қарашлари ва тадқиқотлар ҳажми мушоҳада тўғрилигини далолатлайди. Унга қўшимча сифатида фольклоршунослик йўналишини ҳам таъкидлаш жоиз.

Ўзбекистонда Махтумқулининг ҳаёти ва ижоди бўйича тадқиқотлар олиб боришда олим К. Қурамбоев хизматлари беқиёс. Бу хусусда унинг ўзи ҳам: "Махтумқули ва ўзбек адабиёти" деган биринчи мақолам бундан 45 йил олдин матбуотда босилгани ёдимда бор, ҳозирга қадар шу мавзуга доир 60 га яқин илмий мақолам Ўзбекистон, Туркманистон ва Қорақалпоғистон Республикаларининг марказий газета ва журналларида, илмий тўпламларида ўзбек, туркман, қорақалпоқ ва рус тилларида босилди", дея ёзади.

"Ўзбек – туркман адабий алоқалари" 1978, "Махтумқули шеърияти Ўзбекистонда" (1984), "Кўнгил бермиш сўзимга" (1991), "Адабий таъсирдан ижобий ўзига хосликка" (2007), "Адабий жараён, ижод масъулияти, адабий алоқалар" (2009), "Таржима ва таржимон масъулияти" (2007) каби асарлар К.Қурамбоевнинг Махтумқули ижоди ҳамда ўзбек адабиёти масалаларини яхлитликда ўрганишга қаратилган. Бу тадқиқотларда Махтумқулининг ҳаёти ва ижоди, шоир асарларининг ўзбек, қорақалпоқ тилларига таржимаси масалалари, ўзбек-туркман адабий алоқалари масалаларида Махтимқули ўрни ва хизмати каби муаммолар ўрганилади. Изланишлар орасида "Махтимқули – илҳом чашмаси" номли монографияда шоир ижоди ҳар хил мавзу катламларига бўлиб ўрганилади. Махтумқулининг ўзбек адабиётига бағишланган теран мушоҳадаси китобнинг "Ўзбек адабиётида Махтумқули анъаналари" фаслида ёритилиб, шоир ижоди адабий алоқалар ва ўзаро таъсир аспектида ўрганилади. Профессор К.Қурамбоевнинг "Махтимқули – илҳом чашмаси" номли монографияси ҳақида филология фанлари доктори Б.Каримов "Илҳом чашмаси мавжлари" ("Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, Тошкент, 2012) номли мақоласида жиддий кузатишларни келтиради ва бу тадқиқот ўзига хос хусусиятларидан бири "Таркибига кўра, бу китоб ўзбек, туркман, қорақалпоқ адабий алоқаларининг синкретик тадқиқига бағишланган ва шу жиҳати билан ўзига хослик касб этади", деб кўрсатади.

А.Фазилов ўзининг "Махтумқули ижоди ва адабий алоқалари ҳақида" ("Қарақалпақстан жаслари", Нукус, 2013) номли мақоласида "Махтумқули – илҳом чашмаси" китобининг ўзбек-қорақалпоқ адабий алоқалари тараққиётидаги ўрни ва аҳамияти илмий асосда ўрганилганлигини алоҳида таъкидлайди ва уни юксак баҳолайди.

Профессор К.Қурамбоевнинг зикр этилган китоби Туркманистонда ҳам юксак баҳоланади. Хусусан, таниқли туркман олими Аҳмед Маммедов 2014 йилда Туркманистон Фанлар академиясининг Миллий қўлёзмалар институти тарафидан Махтумқули ижодининг халқаро даражада ўрганилиши масалаларига бағишлаб тайёрланган "Махтумқули – илҳом чашмаси" номли материаллар тўпламида китобнинг муҳим жиҳатларини таъкидлаб ўтади.

Академик Б.Назаровнинг "Махтумқулининг замонавийлиги" (Ўзбек тили ва адабиёти", Тошкент, 2008) мақоласида Махтумқулининг нафақат туркман халқига, унинг мағзи мазмунга тўла асарлари бани башар учун маънавий озиқ бўла олиши илмий асосда тавсифланади.

Филология фанлари номзоди ва таржимон Эргаш Очилов Махтумқули шеърларини ўзбек тилига ўгириш масаласи билан узоқ йиллардан бери шуғулланади. Шунингдек, у шоир ҳақида бир қатор илмий портрет мақолаларини ҳам эълон қилди. Жумладан, унинг "Махтумқули ижоди Ўзбекистонда" номли мақоласи 2008 йили "Ўзбек тили ва адабиёти" журналида эълон қилинган. Мақолада муаллиф Махтумқули асарларининг Ўзбекистонда ўрганилиши ва таржима қилиниши масалалари ҳақида фикр юритиб, шоирнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида ҳам муҳим маълумотлар келтиради. Э.Очилов бу мақоласида Махтумқулининг 1724 йили Атрек дарёси бўйида Хожигавшон овулида туғилганлиги, энг биринчи устози Давлатмамат Озодий бўлганлиги, 6 ёшида овул мактабига бориб, Ниёз Солиҳдан билим олганлиги ҳақидаги расмий маълумотлари ўзбек ўқувчилари учун

[2] Назаров Б. Махтумқулининг замонавийлиги. "Ўзбек тили ва адабиёти", 5-сон, Тошкент, 2008.
[3] Қурамбоев К. Махтумқули – илҳом чашмаси. Тошкент, "Тафаккур", 2012, 183-бет.

ҳам янгилик! Шу кунга қадар Махтумқули туғилган санаси 1733 йил дея белгиланиб келган. Лекин энди Туркманистонда мустақиллик йилларида Фанлар академияси аъзоси Аннагурбан Ашировнинг изланишлари бўйича шоир 1724 йили туғилган, деган далил тасдиқланди.

Шу маълумотларни қиёсласак, унда Э.Очилов бошқа тадқиқотчиларга қараганда Махтимқули ҳаёти ҳақидаги янги маълумотлар билан таниш эканлиги кўзга ташланади, бироқ Э.Очилов Махтумқулининг отаси Махтумқули деб аталиши ҳақидаги маълумотларни келтиришда 1960-йилларда Бертельс асарларга асосланади ва шоир отаси Давлатмамад Озодий ҳақида ҳам қизиқарли маълумотлар беради. Э.Очиловнинг мақоласининг этиборли жиҳати, унда туркман олимларининг Махтумқули ҳаёти ва ижоди ҳақида билдирга фикирларини қиёсий ўрганиб уларга ўзининг тасаввуфий шеъриятга фаол ижодий муносабатини билдиради. Хусусан, Г.Крапов, П.Скосирев, А.Мулкаманов ва бошқалар.

Эргаш Очиловнинг Махтумқули тасаввуфий шеърлари ҳақида айтган мулоҳазалари туркман мутахассислари томонидан ҳам қўллаб-қувватланган.

Эргаш Очилов мақоласида Махтумқули ижоди ўзбек халқи орасида эълон қилиниши ва кенг тарқалиши бирмунча эртароқ бошлангани тўғрисида Ҳ.Абдуллаев, С.Мамажанов, С.Ғаниевалар қарашларини баён этади. Э.Очилов Махтумқули ижоди бўйича ўзбек олимлари асарларини қиёсий ўрганаркан, “Иброҳим Ҳаққулов, Ҳамидулла Ҳасанов, Воҳид Зоҳидов, Воҳид Абдуллаев, Натан Маллаев, Раҳмонқул Орзибеков, Қобил Тоҳиров, Раҳматулла Иноғомов, Бахтиёр Назаров, Нажмиддин Комиловлар шоир ижодини ўзбек-туркман адабий алоқалари нуқтаи назаридан ўрганган бўлсалар, Ғайбулла Саломов, Раҳматулла Баракаев, Машариф Сапаров ва М.Тайлақовалар шоир асарларининг ўзбекча таржималари юзасидан изланишлар олиб борганлиги, Охунжон Собиров, Маматқул Жўраевлар Махтумқули ва ўзбек фольклори муносабатларини тадқиқ этган бўлсалар, Иброҳим Ҳаққул Махтумқули шеъриятининг мавзу кўлами ва образлар оламини таҳлил қилади” дея эътироф этади.

Э.Очилов ўзи ҳам Махтумқули ижодининг моҳир таржимони сифатида намоён бўлади. Бу ҳақда муаллиф: «ўзимиз ҳам шоирнинг 45 та шеърини таржима қилиб, «Дунё ўтиб борадир» номи билан «Шарқ мумтоз шеърияти дурдоналари» рукнида эълон қилдик. Тўплам Ўзбекистондаги энг йирик ва нуфузли нашриёт – «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси томонидан 2007 йили беш минг нусхада нашр этилди. Биз ўз таржималаримизни давом эттириб, Махтумқулининг 700 дан зиёд шеърини таржима қилдик. Улардан гулдаста сифатида 150 та шеърдан иборат «Устозингдан айрилма» тўпламини чоп эттирдик (Тошкент, 2012). Шунингдек, мутафаккир шоирнинг одоб-ахлоқ йўналишидаги панд-насиҳатга йўғрилган шеър ва мисралари асосида илк марта унинг «Ҳикматлар» тўпламини нашр қилдирдик (Тошкент, 2013). Бизнинг таржимамизда таваллудининг 290 йиллиги муносабати билан унинг 400 га яқин шеърларини ўз ичига олган «Асарлар» тўплами ҳам босилиб чиқди (2013)» дея қайд қилади.[4]

Шунингдек, таржимон Махтумқули ўзбек элида шуҳрат қозонишида айрим бахши-ҳофизларнинг фаоллиги муҳим ўрин тутганини таъкидлаб, улардан Ислом шоир Назар ўғли, Эргаш Жуманбулбул ўғли, Фозил Йўлдош ўғли, Бола бахши Абдуллаев, Матназар Жабборов, Абдулла Матниёзов, Умар бахши Сафаров, Берди Авазов, Абдусаттор Шомуродов, Рўзимбек Муродов каби халқ бахшилари, Онажон халфа Собирова, Онабиби қори Отажонова (Ожиза), Момо халфа, Жамила халфа каби халфалар, Қутлимурод Ҳожиев, Бекжон Отажонов, Алижон Ҳасанов, Комилжон Отаниёзов, Мадраҳим Ёқубов (Шерозий), Ҳожихон Болтаев ва бошкаларни кўрсатади.

Мустақиллик даврида Махтумқули шеърияти янги таржималари юзага келди. Жумладан, Музаффар Аҳмад Махтумқули етмишга яқин шеърларини ўзбек тилига таржима қилиб, 1995 йили «Сайланма» номи билан, Олим Тўраев қирқ бешга яқин шеърлари «Ёр, жамолинг кўргали» номи билан нашрдан чиқаради. Бу хусусда Э.Очилов муҳим маьлумотларни келтиради.

Юқоридагиларни умумлаштириш асносида шуни айтиш жоиз, миллий истиқлол даврида Ўзбекистонда Махтумқули ҳаёти ва ижодини ўрганиш ҳамда оммалаштириш янги босқичга кўтарилди. Бу жараён ўзбек-туркман қардошлиги муносабатларида шоир адабий мероси салмоқли ўрин эгаллаши, икки халқ маданиятларини бир-бирига яқинлаштиришда бу солнома муайян вазифалар бажаришини далолатлайди ва жаҳон тамаддунида бадиий сўз санъатига эҳтиром амалий ифодаси сифатида тушуниш мумкин. Ўз навбатида, эл-юрт ғамини куйлаган, заҳматкаш халқ кўҳна дардларини тараннум этган шоир адабий мерос жорий кунда ҳам яшашда давом этади.

[4] Очилов Э. Махтумқули ижоди Ўзбекистонда. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2008.

Xudoyberdiyev Jasur (Toshkent Xalqaro Westminister universiteti
Global ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi)

AMERIKA MA'RIFATCHILIK DAVRI ADABIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Amerika ma'rifatchilik adabiyoti va uning jahon adabiyotiga ta'siri masalalri haqida so'z boradi. Amerika adabiyotining tarixiy taraqqiyotida ma'rifatchilk davrining o'rni beqiyosdir. Bu davr san'at va adabiyotda keskin burilishlar davri bo'ldi. Mustaqillik uchun bo'lgan kurash, ozodlik ruhini badiiy adabiyotda yoritilishi kabi masalalar eng dolzarb muammolardan biri bo'ldi. Ushbu maqolada aynan shu masalalr bo'yicha fikr yutitiladi.*

Аннотация. *В статье обсуждается литература Американского Просвещения и ее влияние на мировую литературу. Роль Просвещения в историческом развитии американской ли-тературы уникальна. Это был период драматических поворотов в искусстве и литературе. Та-кие вопросы, как борьба за независимость и освещение духа свободы в художественной литера-туре, стали одними из самых актуальных. В данной статье рассматриваются некоторые из этих вопросов.*

Annotation. *This article discusses American enlightenment literature and its impact on world literature. The role of the Enlightenment in the historical development of American literature is unique. It was a period of dramatic turning points in art and literature. Issues such as the struggle for independence and the coverage of the spirit of freedom in fiction have become one of the most pressing issues. This article addresses some of these issues.*

Kalit so'zlar*: ma'rifatchilik, rivojlanish, koloniya, demokratik, inqilob, ideal, mustamlakachi, qul-dorlik, konstitutsiyaviy.*

Ключевые слова: *просвещение, развитие, колония, демократия, революция, идеальное, коло-ниальное, рабство, конституционное.*

Keywords*: enlightenment, development, colony, democracy, revolution, ideal, colonial, slavery, constitutional.*

Amerika Qo'shma Shtatlarining davlat sifatidagi tarixiy rivojlanishi Yevropa mamlakatlari (jumladan, Buyuk Britaniya) qadim zamonlardan buyon bosib o'tgan yo'ldan sezilarli farq qiladi. Janubiy va Shimoliy Amerika hududida hind sivilizatsiyalari mavjud bo'lib, ular, keyinchalik, deyarli butunlay yo'q qilingan. XVII asr boshlarida Shimoliy Amerikaning Verjiniya shtatidagi Jeymstaunda dastlabki ingliz koloniyalari paydo bo'ldi. Ushbu koloniya birinchi ingliz aholi punktidan tashkil topgan edi. So'ngra diniy ta'qiblar tufayli Angliyani tark etgan birinchi "ziyoratchilar"dan iborat aholi Yangi Angliyadagi Plimutga joylashdilar. Mustamlakalar rivojlanib, ular Yevropa madaniyatiga asoslangan madaniyatni yaratdilar. XVIII asr oxirida aholi Buyuk Britaniyadan mustaqillikni talab qilib, mustaqillik uchun urush boshladilar (1775–1783). Natijada ushbu urush burjua inqilobiga aylanib ketdi. Keyinchalik, mamlakatning birinchi Prezident bo'lgan general Jorj Vashington (1732–1799) qo'mondonligi ostida amerikaliklarning g'alabasi boshidanoq burjua-demokratik respublikasi bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlarining tuzilishiga olib keldi.

Amerika ma'rifatchligi 18–19-asrlarda Amerika inqilobi va o'n uchta koloniyalaridan iborat Amerika Qo'shma Shtatlarining yaratilishiga olib kelgan intellektual yuksalish davri edi.[1] Amerika ma'rifatchiligi ilmiy fikrlashni siyosat, fan va dinga tatbiq etgan. U diniy bag'rikenglikni targ'ib qildi, adabiyot, san'at va musiqani kollejlarda o'qishga loyiq muhim fanlar sifatida tikladi. Ko'pgina kollej o'quv dasturlarida diniy bo'lmagan axloqiy falsafa ilohiyot o'rnini egalladi. Siyosiy jihatdan bu davr Amerika Qo'shma Shtatlari Mustaqillik Deklaratsiyasida aniq ifodalanganidek, iqtisodiy erkinlik, respublikachilik va diniy bag'rikenglikka urg'u berish bilan ajralib turadi. Ilm-fan va dinni uyg'unlashtirishga urinishlar bashorat, mo'jiza va vahiy dinning rad etilishiga olib keldi. Natijada davrning ba'zi yirik siyosiy rahbarlarida deizmga moyillik paydo bo'ldi.[2]

Amerika ma'rifatchiligining eng yirik vakillari orasida kollej prezidentlari, jumladan, puritan diniy yetakchilari Jonatan Edvards, Tomas Clap va Ezra Stiles hamda ingliz faylasuflari Samuel Jonson va Uilyam Smit bor edi. Yetakchi siyosiy mutafakkirlar Jon Adams, Jeyms Medison, Tomas Peyn, Jorj Meyson, Jeyms Uilson, Ethan Allen va Aleksandr Hamilton, polimatlar Benjamin Franklin va Tomas Jeffersonlar

[1] Burns, James MacGregor (2013). Fire and Light: How the Enlightenment Transformed Our World. Macmillan. p. 132.

[2] https://studme.org/216711/literatura/amerikanskaya_literatura

edi. Demak, “Amerika ma’rifati” atamasi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda paydo bo‘lgan va XVIII asrda ingliz tilida so‘zlashuvchilar “ma’rifatli” bo‘lish jarayoni haqida gap ketganda qo‘llashadigan atama edi.[1] Amerika ma’rifatchiligi bir tomondan, Montaigne, Jon Locke va Jan Jak Russo kabi yevropalik siyosiy mutafakkirlarning asarlaridan kelib chiqqan bo‘lib, ular o‘zlari demokratiya haqidagi g‘oyalarni yevropalik sayohatchilardan va “yangi dunyoga” olib kelingan Amerika hukumatidan olishgan.

XVIII asrda Amerika milliy adabiyotining shakllanishi boshlanadi. Dehqonlar, hunarmandlar va mayda burjuaziyaning ozodlik harakati, demokratlar, Amerika ma’rifatparvarligining taniqli namoyandalari Benjamin Franklin (1706–1790), Tomas Jefferson (1743–1826) va Tomas Peyn (1737–1809) inqilob natijasida yuzaga keldi. Urush (1776–1783) Shimoliy Amerika koloniyalarining metropoliya (Angliya) hokimiyatidan yakuniy ajralishi bilan yakunlandi.

Mustaqillik uchun kurash jarayonida amerikaliklarning o‘z-o‘zini anglashi kuchaydi, ijtimoiy tarkibi turlicha bo‘lgan yevropalik mustamlakachilar oqimi Amerika xalqi deb tan olindi, bu puritan dunyoqarashiga asoslangan yangi madaniyatning yaratilishi edi. Shimoliy Amerika qit’asi aholisi (mahalliy aholi – hindlar bilan munosabatlar muammosi, qullik muammosi, yerni tez o‘zlashtirish va qit’ada o‘z o‘rnini egallash zarurati, qaramlik, mustamlakachilikdan ozod qilish) kabi eng muhim milliy muammolarni hal qildi va bu maslalar ham adabiyotda ham o‘z aksini topdi.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalari birinchi navbatda amaliy siyosiy-ijtimoiy kurashda amalga oshirildi. Milliy ongning shakllantirish jarayoni yuzaga chiqdi. Amerika ma’rifatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari bilim, huquq, davlatning yangi nazariyalaridan amaliy foydalanishga yo‘naltirilganlik, shaxsga yangicha munosabatdan kelib chiqadi.[2]

Yevropaliklaridan farqli o‘laroq, amerikalik ma’rifatparvarlar nafaqat nazariyotchilar, balki burjua inqilobining amaliyotchilari ham edilar. Inson tabiatini bilish vazifasi amerikalik nima ekanligini bilish vazifasiga aylandi va “yangi odam” ideali va haqiqiy odamlar unga qanday mos kelishi haqida o‘ylash muayyan yo‘nalishga ega bo‘ldi bu ideallarni yangi jamiyatda qo‘llash mumkin edi. Shunday qilib, Amerika ma’rifati “tabiiy odam”ni amerikalik kashshof, ovchi, fermerda kashf atdi. Insonning “tabiiy qonuni” kontseptsiyasining rivojlanishi esa insonlarga nafaqat koloniyalarning metropoliyadan ajralishi qonuniyligini asoslashga yordam berdi, balki ularning aksariyatini quldorlikka muxolif etdi.

Amerikaning XVII–XVIII asrlardagi tarixiy taraqqiyotining o‘ziga xosligi Amerika adabiy an’anasining shakllanish jarayonida to‘liq aks etadi. Bu jarayonning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, Amerikada folklordan oldin yozma adabiy shakllar paydo bo‘lgan. Amerika folklori XVIII asrning oxiri–XIX asrning birinchi yarmida G‘arbda harakatlar rivojlangan va o‘zlashtirilmagan yerlar o‘rtasidagi mojarolar kuchaygan paytda shakllangan. Boshqa tomondan, XVIII asrning o‘rtalariga qadar mustamlakachilar har qanday siyosiy va mafkuraviy qarama-qarshiliklarga qaramay, o‘zlarini metropol tarixi, madaniyati, adabiyotidan alohida tasavvur qilmaganlar. Faqat XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, o‘z-o‘zini anglash mustaqil madaniy, xususan, adabiy an’ana yaratish zaruriyatini yuzaga chiqardi.

Ma’rifatchilik davrining eng nufuzli nashrlaridan biri “Ensiklopediya” edi. 1751–1772-yillarda o‘ttiz besh jildda nashr etilgan kitob Deni Didro, Jan le Rond d’Alember va boshqa 150 nafar ziyolilar guruhi tomonidan tuzilgan.

Ensiklopediya ma’rifatparvarlik g‘oyalarini butun Yevropa va undan tashqarida yoyishga yordam berdi. Garchi lug‘atlar va ensiklopediyalar, qadimgi davrlarda mavjud bo‘lsa-da, matnlar uzoq muddatli ro‘yxatlardagi so‘zlarni oddiygina aniqlashdan XVIII asr ensiklopedik lug‘atlarida bu so‘zlarni batafsilroq muhokama qilishga o‘zgardi.

Siyosiy sohada ma’rifatparvarlarning ta’siri katta edi. Rossiyalik Yekaterina II, avstriyalik Iosif II, Prussiya hukmdori Fridrix II kabi Yevropa hukmdorlari ma’rifiy absolutizm nomi bilan mashhur bo‘lgan diniy va siyosiy bag‘rikenglik haqidagi ma’rifatparvarlik g‘oyalarini qo‘llashga harakat qildilar.

Amerika inqilobi ortida turgan ko‘plab yirik siyosiy va intellektual arboblar ma’rifatparvarlik bilan chambarchas bog‘liq. Benjamin Franklin Yevropaga ko‘plab tashriflar qildi, u yerdagi ilmiy va siyosiy bahslarda faol qatnashdi va eng so‘nggi g‘oyalarni Filadelfiyaga olib keldi; Tomas Jefferson Yevropa g‘oyalarini yaqindan kuzatib bordi, keyinchalik, Mustaqillik Deklaratsiyasiga ba’zi ma’rifatparvarlik g‘oyalarini kiritdi va Jeyms Medison 1787-yilda uni ishlab chiqish paytida Amerika Qo‘shma Shtatlari Kons-

[1] Caroline Winterer, American Enlightenments: Pursuing Happiness in the Age of Reason, Yale University Press, 2016.

[2] American Literature. The Makers and the Making. Book A.Beginnings to 1826. Ed. by Cleanth Brooks, R.W.B. Lewis, Robert Penn Warren. N.Y.,St. Martin’s Press, 1974, p. 107.

titutsiyasiga ushbu ideallarni kiritdi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari 1789-yilda boshlangan fransuz inqilobining ilhomlanishida ham muhim rol o'ynadi.

Ma'rifatparvarlik davri qadimdan zamonaviy G'arb siyosiy va intellektual madaniyatining asosi hisoblangan. Ma'rifatparvarlik demokratik qadriyatlar va institutlarni joriy etish va zamonaviy liberal demokratiyalarni yaratish nuqtayi nazaridan G'arbga siyosiy modernizatsiya olib keldi. Ushbu tezis ingliz tilida so'zlashuvchi olimlar tomonidan keng qabul qilingan va Robert Darnton, Roy Porter va yaqinda Jonatan Izrail tomonidan keng ko'lamli tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan.

AQSHning ma'rifatparvarlik siyosiy falsafasi tamoyillariga muvofiq qurilgan birinchi davlat deyish mumkin. 1776-yil 4-iyulda qabul qilingan Amerika Qo'shma Shtatlari Mustaqillik Deklaratsiyasida shunday deyilgan: "...barcha insonlar teng yaratilgan va Yaratgan tomonidan ma'lum daxlsiz huquqlar, jumladan, hayot, erkinlik va baxtga intilish huquqi berilgan". Deklaratsiya muallifi Tomas Jefferson bo'lib, kichik tahrirlar Franklin va Adams tomonidan qilingan, ya'ni, bu to'g'ridan to'g'ri ma'rifatparvarlar tomonidan yaratilgan va ularning ijtimoiy va siyosiy qarashlarini aks ettiruvchi hujjatdir. Ta'lim bo'yicha ilohiyotchi Filip Moren Frenot Mustaqillik urushida ham publitsist, ham xususiy xodim sifatida qatnashgan. Keyin u do'stlari Madison va Jeffersonni qo'llab-quvvatlab, Respublika gazetasini tahrir qildi.

Frenoning she'r va poemalari: "Hind qabristoni", "Jasur amerikaliklar xotirasida", "Jorj Georgiy II ning monologi", "Amerika askari" va boshqalar, asosan, Britaniya taxtiga qarshi bo'lgan kurashga bag'ishlangan. Ular zolimlikni qoralaydi, "ingliz o'g'rilarini" masxara qiladi, oddiy askarlarni ulug'laydi. Yana bir doimiy mavzu – Amerika tabiatining ajoyib go'zalligi. Freno ham e'tiborini Amerikaning tub aholisiga qaratadi. Uning ijodida yuzlari bo'yalgan kiyiklarni mohirlik bilan ovlashgan kuchli va jasur hindular tasvirlangan. Ularning tabiiyligi ma'rifatli odamga ham zavq bag'ishlaydi va ibrat bo'ladi.[1]

Amerika qit'asidagi "olimlar respublikasi" vakillari Amerika inqilobi va mustaqillik uchun kurashni faol qo'llab-quvvatladilar va unga rahbarlik qildilar. Ulardan ba'zilari AQSHning asoschilariga aylandi (Adams, Franklin, Jefferson, Medison). Ma'rifatparvarlar o'z xalqining turmush sharoitini yaxshilash, davlat muassasalari faoliyatini qayta qurish imkoniga ega bo'ldilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amerika ma'rifatchiligi inson baxtining qadriga, aql va hissiyot dalillari bilan olingan bilimlarga intilish va erkinlik, taraqqiyot, bag'rikenglik, birodarlik, konstitutsiyaviy boshqaruv, cherkov va uni ajralib chiqishi kabi ideallarga qaratilgan bir qator g'oyalarni o'z ichiga olgan davlatdagi sodir bo'lagan jarayon bo'lib, bu, o'z navbatida, adabiyot bilan ham bog'liqdur.

Raxmatullayev Nodir Nuritdinovich (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi o'qituvchisi; raxmatullaevnodir@gmail.com)

VOZEH TAZKIRASI YARATILISH DAVRIDA BUXORO VA SAMARQANDDAGI ADABIY MUHIT

Annotatsiya. *XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida Buxoro O'rta Osiyoda dinning markazi bo'lib, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot ancha rivojlangan edi. Buxoro shahrida yashagan Mujrim Obid, Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, Mullo Qurbon Joniy, Shohin, Munzib, Abduqodirxo'ja Savdo, Pisandiy, Koshif, Miriy, Vola, Noqis, Toshxo'ja Asiriy, Ahmad Donish kabi Vozeh ham ikki tilda barakali ijod qilgan shoirlardan biridir. Mazkur maqolada Vozeh tazkirasi yaratilgan davrda Buxoro va Samarqanddagi adabiy muhit xususida so'z yuritiladi.*

Аннотация. *В конце XVIII начале XIX вв. Бухара была религиозным центром Средней Азии, процветала экономическая, политическая и культурная жизнь. Возех был таким же поэтом, как Муджрим Обид, Шавки Каттакургани, Мулло Курбон Джоний, Шахин, Мунзиб, Абдукодирходжа Савдо, Писанди, Кашиф, Мири, Вола, Накис, Ташходжа Асири, Ахмад Дониш, жившие в Бухаре, и творившие свои произведения на двух языках. В данной статье рассматривается литературная среда Бухары и Самарканда на момент появления на свет тазкиры Возеха.*

Annotation. *At the end of the eighteenth and beginning of the nineteenth centuries. Bukhara was the religious center of Central Asia, economic, political and cultural life flourished. Vozekh was the same poet as Mujrim Obid, Shavki Kattakurgani, Mullo Kurbon Joniy, Shahin, Munzib, Abdukodirkhoja Savdo, Pisandi, Kashif, Miri, Vola, Nakis, Tashkhoja Asiri, Ahmad Donish, who lived in Bukhara and created their works on two languages. This article discusses the literary environment of Bukhara and Samarkand at the time of the birth of the tazkira of Vozekh.*

[1] https://arzamas.academy/materials/1639

Kalit so‘zlar: *adabiy muhit, tazkira, qo‘lyozma, kotib, katalog, doston, majmua.*
Ключевые слова: *литературная среда, тазкира, рукопись, писец, каталог, эпос, комплекс.*
Key words: *literary environment, tazkira, manuscript, scribe, catalogue, epic, complex.*

O‘rta Osiyo tarixida XIX asrning ikkinchi yarimidan keyingi adabiy muhit muhim mavqega ega. Chunki bu davr adabiyoti Markaziy Osiyo xalqlarining Rossiya bilan hamkor bo‘layotgan davrlar mahsuli hisoblanadi. Bu muhim tarixiy dalil ushbu mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

XIX asr o‘rtalariga kelib esa Ahmad Donish (1827–1873), Hayrat (1878–1902) kabi ajoyib shoirlar guruhi yetishib chiqib, o‘z barkamol ijodlarini boshladilar. Natijada Buxoro xonligida adabiy muhit birmuncha jonlana bordi, turli xil qo‘lyozmalar ko‘chirildi, adabiy to‘plamlar tuzildi. Ikki tilda ijod etish har bir yirik madaniy markazdagi adabiy maktab shoirlari ijodiga xos xususiyat bo‘lib, Buxoro shoirlari bu sohada jiddiy muvaffaqiyatlarga erishdilar. Mujrim Obid, Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy, Mullo Qurbon Joniy, Shohin, Munzib, Abduqodirxo‘ja Savdo, Pisandiy, Koshif, Miriy, Vola, Noqis, Toshxo‘ja Asiriy, Ahmad Donish va biz o‘rganayotgan tazkira muallifi Vozeh kabi shoirlar ikki tilda barakali asarlar yaratib, o‘zbek va tojik adabiyotining ulkan namoyandalariga aylandilar.[1]

XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida Samarqandda Boqi Muhammad ibn Hofiziyor Samarqandiy (“Folnomai Jafr” asarining muallifi), mavlono Tursun Faroiziy Samarqandiy va boshqa olimlar yashadilar, ijod qildilar. Qori Rahmatulloh Vozeh ham o‘zining “Tuhfat ul-ahbob fi tazikirat il-ashob” (1288/1871–1872) asarida XVIII va XIX asrlarda Buxoro amirligi va Samarqanddagi adabiy hayot haqida hamda uning atrofidagi mintaqa adabiy muhitining ba’zi bir namoyandalari to‘g‘risida ma’lumotlar beradi.

Samarqandda bo‘lgan Junaydulloh Mahmud Hoziq taniqli shoir va olim edi. U o‘zining “Yusuf va Zulayho” asarida davlatning farovon bo‘lishi uchun adolatli podshoning o‘zigina yetarli emas, balki xalq to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladigan ma’rifatli vazirlar va amaldorlar ham bo‘lishi kerak, deb yozgan edi. XIX asrda Samarqandda yashagan quyidagi shoirlarning nomlari ham ma’lum: Abdulloh Jabbor Nayman (Abduxanifning “Al-fiqh ul-akbar” asarini ko‘chirgan), Abdulqayum (Sayfiddin Boxarziyning “Ruboiyoti shayx ul-olam” asarini ko‘chirgan), Mir Abdulhay (1825-yilda Alisher Navoiyning “Chor devon” kitobini ko‘chirgan), Muhammad Zamoni ibn Muhammad Rizoyi Falg‘oriy Potuxiy (XVIII–XIX asrlar), Muqimxon Samarqandiy (1850-yilda “Xamsa”ni ko‘chirgan) va boshqalar.[2]

Bu paytga kelib, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qattiq tanazzulga uchragan adabiyot Ahmad Donish, Shohin, Savdo, Vozeh va boshqa mashhur namoyandalar yuzaga keltirgan adabiy muhit bilan qayta kashf qilinganday bo‘ldi.

XIX asr adabiyoti tarixini o‘rganishdagi ilk qadam S.Ayniyning «Namunayi adabiyoti tojik» tazkirasidir.[3] Bu kitobning ikkinchi qismi Oktabr inqilobi davrigacha Buxoro va Qo‘qon xonligida amir Umarxon (1809–1822) va amir Haydar (1791–1828) hukmronligi davrida yashagan shoir va adabiyotshunoslarga bag‘ishlangan. Bu qismni tuzish uchun asosiy manba sifatida Vozehning «Tuhfat ul-ahbob» tazkirasi, Afzal va Muhtaramning tazkiralari hamda ko‘psonli qo‘lyozma va bayozlar xizmat qilgan.[4]

Keyingi tadqiqiy ishlar ichidan X.Mirzozodaning «Shamsiddin Shohinning she’riy ijodi» deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasini eslab o‘tish lozim. Muallif ko‘p sonli bayoz va tazkiralarda tarqalib ketgan Shohinning she’rlarini to‘plab, uning «Layli va Majnun» va «Tuhfayi do‘ston» dostonlari hamda «Badoe’ us-sanoe’» nasriy asarini tahlil qilib, Shohin ijodiga tavsif beradi. Muallifning asosiy yutug‘i – u adabiyotshunoslikda birinchi bo‘lib XIX asr ikkinchi yarmi adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakili bo‘lgan Shohin ijodi bilan shug‘ullanganligida.

Yozuvchi S.Ulug‘zodaning «Ahmadi Donish» deb nomlangan ilmiy ommabop kitobi XIX asr ikkinchi yarmi davridagi ijtimoiy fikrning mashhur vakili bo‘lgan Ahmad Donishning hayot va ijodiga bag‘ishlangan ilk alohida asar edi. Muallif Ahmad Donishning ko‘p qirrali faoliyatiga batafsil e’tibor bermasdan, umumiy chizgilarda, asosan, uning ikkita asari – «Navodir ul-vaqoe’» va «Risolayi tarixi amironi Buxoro» asosida Donishning hayotiy yo‘lini yoritib berdi.

---

[1] Ҳамидова М. Қўлёзма баёз – адабий манба. Т., “Фан”, 1981, 48-бет.
[2] Самарқанд тарихи (қадимги даврлардан то Улуғ Октябрь социалистик революциясигача). 2 томлик, Т., “Фан”, 1971, 294-бет.
[3] Айний С. Намунаи адабиёти тожик. М., 1926.
[4] Шу манба. 623–624-бетлар.

A.Bagoudinov va I.Mo‘minovning doktorlik dissertatsiyalari XIX asr oxiri va XX asr boshidagi o‘zbek va tojik xalqlarining ijtimoiy-falsafiy fikrini rivojiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu davrning adabiy hayotini kengroq yoritilishiga ko‘maklashdi.[1]

Z.Rajabovning ikkita kitobini aytib o‘tish lozim. Ularda XIX asr adabiyoti tarixi bo‘yicha ko‘plab qiziqarli dalillar mavjud. Bu kitoblardan birinchisi «XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asrning boshida tojik xalqi ijtimoiy fikrining rivojlanishi»,[2] ikkinchi kitob «O‘rta Osiyoning ilg‘or insonlari Rossiya va rus madaniyati haqida» deb nomlangan bo‘lib, O‘rta Osiyo xalqlarining, jumladan, o‘zbek va tojik xalqining ijtimoiy hayotiga ilg‘or rus madaniyatining ta’siriga bag‘ishlangan.[3]

B.G‘afurovning «Tojik xalqining tarixi», deb nomlangan kitobida A.Donish va uning izdoshlarining maorifiy harakatini to‘g‘ri tasnifi mavjud.[4] Bu masala bo‘yicha qisqa izohlar hamda XIX asr ikkinchi yarmidagi adabiy hayotning tavsifi I.Braginskiyning «Sadriddin Ayniy» monografiyasida[5] va «O‘zbekiston xalqlari tarixi»ning ikkinchi jildida mavjud.[6]

I.Braginskiy «Tojik she’riyati tazkirasi»ga yozgan so‘zboshida tojik mumtoz adabiyotining asosiy bosqichlarini umumiy tavsifi bilan bir qatorda, XIX asrning ikkinchi yarmidagi adabiy hayotni va A.Donish faoliyatining qisqa bahosi berilgan.

Ma’lumki, o‘rta asr fors-tojik adabiyotida yaratilgan tazkiralar adabiyot tarixida yagona asar va o‘ziga xos adabiyotshunoslik asarlari hisoblangan. Ulardan aksariyati nafaqat u yoki bu shoirlar ijodi bo‘yicha ma’lumotlar beradi, ular adabiyot tarixida unutilgan ko‘plab sahifalarni tiklashga yordam beradi. Masalan, Muhammad Avfiyning «Lubob ul-albob» deb nomlangan asari bo‘lmaganda, mo‘g‘ul bosqinchilik davridagi, ayniqsa, IX–X asrlar davridagi shoirlar haqida gapirish murakkab bo‘lar edi.[7] Maliho Samarqandiyning «Muzakkir ul-ashob» kabi asari bo‘lmaganida biz XVII asr adabiy hayoti haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lmas edik.[8]

XVI asrdagi adabiy hayotni o‘rganish uchun Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» va Mutribiyning tazkirasi tadqiqoti talab qilinishi tasodif emas.[9]

XIX asr adabiyot tarixini o‘rganganimizda, bizning e’tiborimizni XIX asrning oxiri –XX asrning boshida yozilgan tazkiralar jalb etadi.

XIX asr adabiyoti va shoirlarining tarjimayi holiga bag‘ishlangan ilk tazkira Qori Rahmatulloh Vozeh qalamiga mansub. U «Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat il-ashob» deb nomlangan bo‘lib, 1288/1871–1872-yilda tuzilgan. Muallifning asari nafaqat XIX asr, balki XVIII asrning oxiri, ya’ni amir Shohmurod hukmronligi davridan boshlab, ijod qilgan shoirlar tarjimai holini qamrab oladi. Bu asarning topilgan 15 ta qo‘lyozmasidan 10 tasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozma fondida, 3 tasi Tojikiston FA qo‘lyozma fondida, ikkitasi Rossiya FA Sharqshunoslik institutining sharqiy qo‘lyozmalar sektorida (Sankt-Peterburg shahri)da saqlanadi. Toshbosma nashr Toshkentda 1332/1913–1914-yilda chiqqan.

Xronologik ravishda ikkinchi tazkira «Tazkirat ush-shuaro»dir, uning muallifi Xo‘ja Azim Shar’iy (1313/1895–1896-yilda vafot etgan), undan alohida boblar O‘zFA ShIda 3396/III sonli raqami ostida saqlanadi.

O‘tgan asrning 90-yillarning boshida Mirsiddiq Hashmat uchinchi tazkirani tuzishga kirishdi. Bu asar XVI–XIX asrdagi Buxoro xonligi, Hindiston va Eron shoirlarining tarjimayi holiga bag‘ishlangan bo‘lib, XIX asrning ikkinchi yarmidagi adabiyot tarixi bo‘yicha ko‘plab qiziqarli materiallarga ega. Bu asarni muallif yakunlamagan. Mazkur tazkiraning ikki qismdan iborat qo‘lyozmasi O‘zPFA ShIda saqlanadi.

XX asrning boshida to‘rtta tazkira tuzilgan, ular asosan, Amir Abdulahad hukmronligi davridagi shoirlar hayotiga bag‘ishlangan. Ular ichida Muhtaramning «Tazkirat ush-shuaro» va Afzalning «Afzal

---

[1] Муминов И. Из истории общественной и философской мысли Узбекистана конца XIX и начала XX вв. Док. дисс., М., 1949.

[2] Раджабов З. Развитие общественной мысли таджикского народа во второй половине XIX в. и в начале XX в. с, 1951.

[3] Раджабов З. Одамони пешқадами Осиёи Миёна дар бораи Россия ва маданияти рус. С, 1952.

[4] Гафуров Б. История таджикского народа. Т. I, Д., “Ирфон”, 1989, с. 449–451.

[5] Брагинский И. Садриддин Айни. Очерк жизни и творчества. Труды, XXIV, Сталинабад, 1954, с. 15–20.

[6] История народов Узбекистана. Т. II, Т., 1950, с. 411 – 412.

[7] Muhammad Awfi. The Lubab-l’albab. Ed. by E.Browne and Qazwini. V. I–II, L., 1903, 1906.

[8] Собрание восточных рукописей. Т. I, Т., 1952, с. 133 – 134.

[9] Болдырев А.Н. Тазкира Хасана Нисори как новый источник для изучения культурной жизни Средней Азии XVI в. Труды. Т. III, с. 291 – 300.

ut-tazkor» tazkiralari Amir Abdulahadning buyrug‘i bilan tuzilgan edi. Muhtaram tazkirasining 1 ta qo‘lyozmasi O‘z FA ShIda boshqasi esa Tojikiston FA qo‘lyozma fondida saqlanadi. Afzal tazkirasining sakkizta qo‘lyozmalaridan yettitasi O‘z FA ShIda va bittasi Rossiya FA ShIning Sharqiy qo‘lyozmalar sektorida saqlanadi. Afzalning tazkirasi 1336/1918-yilda Toshkentda toshbosma shaklida nashr etilgan.

Eng kechki va oxirgi tazkiralar Abdiy tuzgan tazkira (1323/1906) va Sadr Ziyoning she’riy tazkirasi (1324–1328/1907–1910-yilda tuzilgan) hisoblanadi. Abdiyning tazkirasi XX asrning boshida tazkiralar orasida eng zaif va materiallari bo‘yicha qiymati pastdir. Uning yagona qo‘lyozmasi O‘zFA ShI fondida saqlanadi. Sadr Ziyoning tazkirasi XIX asrning ikkinchi yarmidagi shoirlar haqidagi berilgan ma’lumotlariga ko‘ra, tadqiqotchi uchun ahamiyatlidir. Mazkur tazkiraning qo‘lyozmasi O‘z FA ShIda va Tojikiston Respublikasi FA qo‘lyozma fondida saqlanadi.

Rossiyada ham o‘zbek, tojik va fors adabiyoti tarixi, hamda ularning alohida vakillari ijodini tadqiq etilgan. Monografiya va o‘quv qo‘llanmalarda alohida tazkiralar haqida qisqa ma’lumotlar berilgan. Masalan, akademik A.Krimskiy “Tazkirat ush-shuaro” deb nomlangan Davlatshohning asari (1487-yilda tuzilgan), Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Fahriy Sultonning Navoiy “Latoifnoma” tazkirasini tarjimasi haqida (1521-yilda tuzilgan), Som Mirzoning “Tuhfai Somiy” (1550-yilda tuzilgan), Amin Ahmad Roziyning “Haft iqlim” (1594-yilda tuzilgan), Tagiddin Qoshiyning “Xulosat ul-ash’or va zubdat ul-afkor” (1575-yilda tuzilgan) va ba’zi bir boshqa tazkiralar haqida ma’lumot beradi.[1] Muallifning ma’lumotlari tazkiraning qisqa tavsifi hamda uning tuzilish yili, davri, tazkirada ko‘rsatilgan davr va muallifi haqidagi ma’lumotlardan iboratdir.

Maliho Samarqandiyning “Muzakkir ul-ashob” tazkirasining Mirzoyev tomonidan tadqiq etilishi XVII asrning nafaqat adabiy, balki siyosiy va iqtisodiy hayotining yoritilishiga ko‘maklashdi. Bu tadqiqotlarning natijasi uchta maqola bo‘ldi. Ularning har birida Mirzoyev bu tazkirani XVII asr tarixi, iqtisodi va adabiyoti bo‘yicha manba sifatida baholaydi, uchinchisida esa muallifni feodal davrning adabiyotshunosi sifatida o‘rganadi.[2]

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”tazkirasiga hamda A.Navoiyning “Majolis un-nafois” deb nomlangan fors tarjimalari tazkirasi tavsifiga A.N.Boldirevning maxsus maqolalari bag‘ishlangan.

A.N.Boldirevning maqolasidan avval fors tilida Tehronda A.Navoiyning “Majolis un-nafois” nashr etilgan tazkirasiga professor A.K.Borovkovning taqrizi chop etilgan. A.K.Borovkovning ma’lumoti tazkira mazmunini bayon etishga, A.Hikmat foydalangan manbalar haqida ma’lumotga hamda nashr etuvchining matn ustida olib borgan ishlariga tegishli bo‘lgan tanqidiy qaydlardan iborat.

Xorijiy sharqshunoslikda tazkiralarga bag‘ishlangan katta yakunlangan ishlarni topish qiyin, tazkirani o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan ishlardan biri ingliz sharqshunosi N.Blendning tadqiqotidir. U o‘z asarida «Otashkada» va boshqa bir qator qadimgi tazkiralari tahliliga maxsus maqolalar bag‘ishlagan.

Avfiyning arab tilidagi tazkirasidan oldin, tazkiralar haqidagi ba’zi bir qiziqarli ma’lumotlarni «Fors adabiyoti tarixi» asarida E.Braun beradi. Bu asarda u Abu Mansur Abdulmalik as-Saolibiyning «Yatimat ud-dahr»i, al-Baxarzining «Dumyat ul-asr»i, Imomiddin Isfaxoniyning «Xarizat ul-asr»i kabi asarlar haqida ma’lumotlar beradi. Bundan tashqari, u Avfiyning «Lubob ul-albob» tazkirasi, Davlatshoxning “Tazkirat ush-shuaro”, Navoiyning “Majolis un-nafois” asari haqida ma’lum davrlar adabiyoti tarixi bo‘yicha manbalarni tavsiflash bilan bog‘liq ravishda beradi.

Eng qimmatli va original tazkiralarni tanqidiy matnlar nashrida ba’zi bir o‘zgarishlarni qayd etish lozim. XX asrning boshida Londonda bizgacha yetib kelgan eng qadigi Muhammad Avfiyning “Lubob ul-arbob” tazkirasining bu nashriga E.Braun va M.Qazviniy batafsil so‘zboshi yozdi va Avfiyning materiallari asosida muallifni tizimlashtirilgan tarjimayi holini beradi, o‘z so‘zboshisining yakunida Qazviniy Avfiy tili va uslubi haqida bir og‘iz so‘z yuritadi. Xuddi shu olimlar yana bir boshqa qadrli tazkira bo‘lgan Davlatshohning “Tazkirat ush-shuaro”sini nashr etishgan.

Eronda 1936-yili XVI asrga oid tazkira nashr etildi. Bu tazkira Safaviylar hukmronligi davrida paydo bo‘lgan bo‘lib, Som Mirzoning “Tuhfayi Somiy” (1550-yili tuzilgan) tazkirasidir. Tazkirani nashriyotchi Vohid Dastgirdiy qo‘lida bo‘lgan tazkiraning yagona nusxasi bo‘yicha nashr etdi.

Bu barcha tadqiqot va tanqidiy mulohazalar mavjud bo‘lgan tazkiralar soni va ularni tojik va fors adabiyotini tarixini o‘rganishdagi muhimligiga nisbatan juda ham ahamiyatsizdir. XIX asr tazkiralariga kelsak, ularni deyarli o‘rganilmagan, desak bo‘ladi. Bu asr adabiyoti tarixini o‘rganish uchun boshqa

[1] Крымский А. История Персии, ее литературы и дервишской теософии. Т. III, № 1–2, М., 1914–1917, с. 141–142.

[2] Мирзоев А. Муҳимтарин сарчашмаи тарихи адабиёти асри XVII. “Шарқи сурх”, 1940, № 5.

manbalar bilan bir qatorda tazkira ma’lumotlari ahamiyatini ta’kidlashning hojati yo‘q. Shubhasiz, ularning ishlovi bizga o‘rganilayotgan davr adabiyotida mazkur tazkiralarning nafaqat joyini aniqlashga, balki o‘sha davrning butun adabiy hayoti tavsifini berishga yordam beradi. O‘zbek tazkirashunosligida S. G‘aniyeva tomonidan amalga oshirilgan ko‘plab izlanishlar hozirgi o‘zbek yosh adabiy manbashunoslari uchun o‘rnak bo‘lsa, arzigulik holatdir.

Ishda qo‘lyozmalar matnidagi barcha farqlarni tahlil qilib, bayon etish maqsadi qo‘yilmagan. Ammo biz muallifning asl nusxasi matniga nisbatan har bir xattot kiritgan ba’zi bir muhim o‘zgarishlarni qayd etishni lozim deb topdik.

Tazkira mualliflari nuqtai nazaridan kelib chiqib hamda mazkur tazkiralarda mavjud bo‘lgan barcha faktlar asosida Vozeh tazkirasidan so‘ng yozilgan barcha tazkiralarni ikki guruhga ajratamiz.

Birinchi guruhga Hashmat, Sadr Ziyo va Shar’iyning tazkiralari kiritilgan; bu mualliflarning ma’rifatparvarligi ilg‘or shoirlar ijodini to‘g‘ri baholash va haqiqiy faktlarni u yoki bu darajada obyektiv baholashga ko‘maklashgan.

Ikkinchi guruhga Afzal, Abdi va Muhtaramning tazkiralari mansub. Bu mualliflar XX asr boshining eng taraqqiyparvar adabiyotshunoslaridir. Ular o‘sha davr taraqqiyparvar fikr vakillariga feodal diniy adabiyot tarafdorlarini dushmanona munosabatini aks ettirgan.

Vozeh tazkirasi XIX asrdagi birinchi tazkira sifatida namoyon bo‘ladi, keyingi barcha mualliflar u kabi ish tutganlar. Vozehning amalga oshirgan buyuk ishi, ya’ni, tazkiranavislik an’analarini qayta jonlantirgani adabiy hayotda katta ahamiyatga ega va uning “Tuhfat ul-ahbob” tazkirasi XVIII asr oxiri va XIX asr o‘zbek va tojik adabiyoti tarixini o‘rganishda foydali manba bo‘ladi, deb umid qilamiz.

Садуллаева Нодира Намозовна (Тошкент Давлат Шарқшунослик университети Мумтоз филология ва адабий манбашунослик кафедраси ўқитувчиси; e-mail: mumtoz1990@bk.ru)

«КИТОБ АЛ-ҚАНД» АСАРИ ИЖТИМОИЙ-ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА

***Аннотация**. Тафсир, фиқҳ, калом, тарих ва балоғат соҳаларида қалам тебратган Абу Ҳафс ан-Насафий замонасининг етук олимларидан бири бўлиб, бизгача ўзидан бой маънавий мерос қолдирган. Олимнинг бизгача етиб келган “Китоб ал-Қанд” асари Мовароуннаҳр ижтимоий ҳаёти ҳақида маълумот берувчи қимматли манбалардан биридир. Ушбу мақолада асарда асарнинг топилиши, унда Самарқанд ижтимоий-маънавий ҳаётининг ёритилиши масаласи хусусида сўз юритилади.*

***Аннотация**. Абу Хафс ан-Насафи, работавший в сфере юриспруденции и создавший много книг в этой области и истории, а также о науке балага, калам и тафсир, был одним из выдающихся ученых своего времени, оставил нам своё богатое духовное наследие. Книга учёного, дошедшая до нас «Китаб ал-Канд», является одним из ценных источников информации о социальной жизни Моваруннахра. В данной статье рассказывается об открытии этой работы и о социально-духовной жизни Самарканда того периода.*

***Annotation.** Abu Hafs al-Nasafi, who worked and wrote many books in the field of jurisprudence and history, as well as the science of balaga, kalam and tafsir, was one of the outstanding scientists of his time, and left us his rich spiritual heritage. The book “Kitab al-Kand”, which has come down to us, is one of the valuable sources of information about the social life of Movarunnahr. This article gives information about the discovery of this work and the social and spiritual life of Samarkand.*

***Калит сўзлар:** ҳадисшунослик, фиқҳ, муфассир, муҳаддис, мутакаллим, ижтимоий ҳаёт.*

***Ключевые слова:** хадис, юриспруденция, толкователь, мухаддис, мутакаллим, социальная жизнь.*

***Keywords:** hadis, jurisprudence, interpreter, muhaddis, mutakallim, social life.*

Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Китоб ал-Қанд” асари ижтимоий соҳа бўйича энг кўп маълумот берувчи асардир. Бу манба XX аср бошларига қадар йўқолган асарлар қаторида саналиб келинар эди. Унинг топилиши Ватанимиз тарихини, хусусан, Самарқанд ҳадис илми тарихини ёритишда катта янгилик бўлди.

“Китоб ал-Қанд” асарининг нодир қўлёзмаси 1967 йилда Истанбулнинг Сулаймония кутубхонасидан топилди. “Turhan Valde” фондида 70-рақам остида сақланаётган бу қўлёзмани Фуод Сезгин аввалига, Абул-Аббос Жафар ибн Муҳаммад ал-Мустағфирийнинг “Тарих Самарқанд” номли биографик қомусига ан-Насафий томонидан “Зайл” (давом, қўшимча) тарзида ёзилган “ал-

Қанд фи тарих уламо Самарқанд” номли асарининг нусхаси, деб тахмин қилди.[1] Аммо у ал-Мустағфирий асарининг зайли эмас эди. Бунга туртки бўлган важҳ шу эдики, “Китоб ал-Қанд” асарининг бу нусхасида 169 ерда ал-Мустағфирийдан маълумот келтирилади. Бундан маълум бўладики, аксинча, Абу Ҳафс ўз асарини ал-Мустағфирийга зайл тарзида ёзмаган, балки унинг асаридан манба сифатида фойдаланган.

Мазкур қўлёзма ҳақида 1986 йилда Дж.Уайнбергер мақола ёзди. У Париж ва Истанбул нусхаларини солиштириб, “XII аср Трансоксианга тегишли икки биографик луғатнинг авторлиги” номли мақоласини эълон қилди.[2] Тадқиқотчи Истамбул қўлёзмасини ўрганиб чиқиб, муаллиф манба сифатида нафақат ал-Мустағфирийдан (169 марта), балки Абу Сад ал-Идрисийдан (421 марта) ва бошқа биографик қомуслардан фойдаланганлигини аниқлади. Бу, ўз навбатида, Дж.Уайнбергерга мазкур қўлёзма бирор асарнинг давоми эмас, балки илк ислом давридан то XII асргача Самарқандда яшаб ижод этган муҳаддис олимлар таржимаи ҳолини ўзида жам этган бошқа бир асарнинг нотўлиқ нусхаси эканлиги ҳақида хулоса чиқаришга асос берди. Бу эса Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Китоб ал-Қанд фи ма’рифат уламо Самарқанд” асаридир.

2001 йилда “Китоб ал-Қанд” Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набихон ўғли томонидан ўзбек тилига қисқартирган ҳолда таржима қилиниб, оммабоп тарзда нашр этилди.[3] Натижада фақат ўзбек тилида ўқий оладиган кенг китобхонлар оммаси бу китоб билан қисман бўлса-да танишиш имкониятига эга бўлдилар. Аммо бу таржима “Китоб ал-Қанд” Туркия қўлёзмасининг Назар Муҳаммад ал-Форйобий томонидан амалга оширилган нашридан қилинган бўлиб, мазкур нашрда йўл қўйилган хатолар унда ҳам такрорланади. Боз устига таржимада илм учун ғоят зарур ҳадис *исноди*[4] ташлаб кетилган. Бу қабилдаги қисқартириш ўзбекча нашрнинг илмий аҳамиятини пасайтиради. Нашрда яна баъзи жузъий камчиликлар ҳам учрайди. Масалан, Аҳмад ибн Наср ал-Атакийнинг нисбаси “ал-Аткий” [2: 8] шаклида берилган ва бошқалар.[5]

Ўзбекистонлик тадқиқотчилар “Китоб ал-Қанд” асарини “Қанд”, “Қандийа” ёки “Қандийа-и хурд” (“Кичик қандийа”) номи билан маълум эканлигини таъкидладилар.[6]

“Китоб ал-Қанд” ҳадис илмининг илму-л-рижол[7] соҳасига тегишли тарихий-биографик жанрда яратилган асардир. Тарихий-биографик асарлар араб адабиётида жуда кенг тарқалган. Мусулмон жамиятининг ўрта асрлардаги диний маданияти тарихини ўраганишда улар катта аҳамиятга эга. Бу жанрдаги илк асарлар VIII аср охири – IX аср бошларида ёзила бошлади. Ибн Сад ўзининг асарида саҳобалар ва тобиинларнинг таржимаи ҳолларини батафсил баён қилган. Биографияларни тартибга солишда улардан исломни биринчи қабул қилганлар ва Пайғамбарга яқин бўлганларнинг номларини биринчи ўринга қўяди.

IX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб, тўплам шаклига келтирилган олти ҳадис мажмуалари яратилганидан сўнг, биографиячиларнинг эътиборлари кўпроқ бу тўпламларда учраган ровийларнинг номларини тўплаш, уларнинг тўғри ўқилишини таъминлаш ҳамда ишончли ва ишончсизга ажратиб, муҳаддислар ҳақидаги махсус биографик тўпламларни тузишга қаратилди. Бу олти тўпламнинг тузувчилари бу турдаги асарларнинг биринчи муаллифлари бўлиб қолдилар.[8] Бу ўринда мисол тариқасида Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорийнинг “Китоб ад-дуафо”, Аҳмад ибн Али ан-Насоийнинг “Китоб ал-куно”, Абу Бишр ад-Дулобийнинг “Китоб ал-асмо ва-л-куно” асарларини

---

[1] Sezgin F. Geschichte des Arabischen Schrifttums. T. I, Лейден, 1967, c. 353.

[2] Weinberger J. The Authorship of Two Twelfth Century Transoxanian Biografical Dictionaries. Arabica, 1986, T., p. 369 – 382.

[3] Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. Ал-Қанд фий зикри уламои Самарқанд. Арабчадан қисқартириб таржима қилувчилар: Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набихон ўғли. Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2001.

[4] Иснод – ҳадисни нақл қилган ривоятчилар занжири.

[5] Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. Ал-Қанд фий зикри уламои Самарқанд. Арабчадан қисқартириб таржима қилувчилар: Усмонхон Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набихон ўғли. Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2001.

[6] Уватов У. Самарқанд уламолари. Донолардан сабоқлар. Т., Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994, 62 – 65-бетлар.

[7] Илм ул-рижол – ҳадис илмининг ривоятчиларнинг биографиялари ҳақида хабар берувчи бир соҳаси.

[8] Шмидт А.Э. Рецензия на книгу: Ал-Хафиз Шемс ад-дин Мухаммед б. Ахмед аз-Захабий. Мизан ал-и‘тидал фи накд ар-риджал. Записки Восточного отделения Императорского Русского археологического общества. Т. XIX, СПб., 1909, с. 197.

келтириш мумкин. Ишга янгича ёндошув биографияларнинг жойлашув тартибини ўзгартиришни талаб этди. Масалан, Имом ал-Бухорий ўзининг “Китоб ат-тарих ал-кабир” асарида ҳадис ровийларининг таржимаи ҳолларини алифбо тартибида жойлаштирди.[1]

Мусулмон жамияти ҳаётида юз берган ўзгаришлар *табақот* жанридаги асарларнинг таркиб ва тузилишига таъсир кўрсатди. Халифалик таркибидаги шаҳарларда ҳадисга оид илмларнинг ривожланиши алоҳида шаҳар ва туман анъаначилари табақаларининг пайдо бўлишига олиб келди. Бундай рўйхатлар ўша шаҳарга тегишли саҳоба ва тобиинларнинг таржимаи ҳоллари билан бошланиб, ундан сўнг шу жойдан чиққан ҳадис ровийларининг таржимаи ҳоллари берилган. Муҳаммад ибн Ҳиббон ал-Бустийнинг “Китоб ат-табақот ал-исбаҳонийа”, Солиҳ ибн Аҳмад ал-Ҳамадонийнинг “Табақот ал-ҳамадонийин” асарлари шу тартибда тузилган. Кейинроқ ёзилган “шаҳарлар тарихи” жанридаги асарларнинг анчагина қисмини ҳадисшунос, илоҳиётчиларнинг таржимаи ҳоллари ташкил этади. Аммо бу жанрдаги ал-Хатиб ал-Бағдодийнинг “Тарих Бағдод”, Ибн Асокирнинг “Тарих Димашқ” ва бошқа асарларда бу шаҳарларнинг шарафини безаб турувчи машҳур кишиларнинг таржимаи ҳоллари фойдаланишга қулай бўлсин учун, алфавит тартибида жойлаштирилган.

Мовароуннаҳрда энг аввал яратилган машҳур тарихий-биографик асарлардан бири Абу Сад Абд ар-Раҳмон ибн Муҳаммад ал-Идрисийнинг “Китоб ал-камол фи марифат ар-рижол мин уламо Самарқанд” асаридир. Бу асар бизгача етиб келмаган ҳисобланади. Жафар ибн Муҳаммад ал-Мустағфирийнинг Насаф тарихи бўйича ёзган асари ҳам юқорида зикр этилган асар каби бизгача етиб келмаган.[2]

Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Китоб ал-Қанд” асарида ҳам уламоларнинг исмлари ўзига хос тарзда алифбо тартибида жойлаштирилган. Унда исмлар бош ҳарфига кўра гуруҳларга жамлаб, гуруҳлар алифбо бўйича тартибланган. Масалан, Холид, Халаф ва ҳ.к. каби исмлардан сўнг Довуд, Заквон исмлари келади. Аммо гуруҳлар ичидаги бир хил ҳарф билан бошланувчи исмлар ўзаро алифбо тартибида эмас, балки шахсларнинг ислом тарихида эгаллаган мавқеи даражаларига кўра, яшаб ўтган даври бўйича ёки мазкур шахсларга номдош бўлишига кўра тартибга солинган. Масалан, араб алифбосига кўра Қутайба ибн Муслим номи Қусам ибн ал-Аббос номидан олдин келиши керак эди, аммо асарда аксинча, Қутайбанинг таржимаи ҳоли тарихийликка кўра Қусамдан кейин келади. Бундан ташқари, Али исмли уламоларнинг номлари, илк халифаларнинг тарихига кўра, Умар ва Усмон исмли шахслардан кейин жойлаштирилган ва ҳ.к. Асарда тартиб исмлар бўйича бўлса-да, номдан аввал олимнинг лақаб ва кунйаси берилган.

“Китоб ал-Қанд”да нафақат Самарқанд шаҳрига алоқадор уламолар, балки Сўғд вилоятидаги қишлоқлар, кичик шаҳарлар, жумладан, Насафга тегишли бўлган уламолар ҳам ўрин олганлар. Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Абу Ҳафс ан-Насафий “Самарқанд” номи остида ўша даврдаги “Сўғди Самарқанд”ни назарда тутган.

“Китоб ал-Қанд” асарининг қимматли томонларидан бири шундаки, у бир қатор бизгача етиб келмаган манбаларда мавжуд бўлган маълумотларни беради. Масалан, Мовароуннаҳрда энг аввал яратилган машҳур тарихий-биографик асарлардан бири Абу Сад Абд ар-Раҳмон ибн Муҳаммад ал-Идрисийнинг “Китоб ал-камол фи марифат ар-рижол мин уламо Самарқанд” асаридир. Бу Самарқанд уламолари ҳақида ёзилган бебаҳо манба бизгача етиб келмаган бўлса-да, ундаги маълумотлар кейинги давр муаллифларининг асарларида, хусусан, Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Китоб ал-Қанд” асарида сақланиб қолган. Абу Ҳафс ўз асарида бу манбадан 421 жойда фойдаланган.[3] Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ал-Идрисий асарининг асосий қисми “Китоб ал-Қанд”да сақланиб қолган.

“Китоб ал-Қанд” асари бошқа манбаларни ўзида сақлаб қолиши билан бирга бошқа манбалар ҳам мазкур асарнинг йўқолган қисмларини ўзларида мужассам қилган. Масалан, Абу Бакр Аҳмад ибн Али ал-Хатиб ал-Бағдодий “Тарих Бағдод” китобини таълиф этишда Абу Сад ал-Идри-

[1] Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Китоб ат-та’рих ал-кабир. 9 жилдли. Байрут, Дор ал-кутуб ал-илмийа (йили кўрсатилмаган).

[2] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Бартольд В.В. Сочинения. Т. I, М., Издательство восточной литературы, 1963, с. 60 – 61.

[3] Weinberger J. The Authorship of Two Twelfth Century Transoxanian Biografical Dictionaries. Arabica, 1986, T., p. 371.

сийдан ал-Ҳусайн ибн Муҳаммад ал-Муаддиб орқали 38 ерда иқтибос келтирган.[1] Абу Ҳафс ан-Насафий ҳам айнан ал-Идрисийнинг асаридан фойдаланган. Шунинг учун “Тарих Бағдод”да мавжуд бўлган Самарқанд уламоларига тегишли маълумотлар “Китоб ал-Қанд”да ҳам мавжуд бўлган. Демак, ан-Насафий асарининг йўқолган қисмларини тиклашда ал-Бағдодийнинг китобидан ҳам фойдаланиш мумкин.

Бундан ташқари “Китоб ал-ансоб” асарининг муаллифи Абу Сад Абд ал-Карим ибн Муҳаммад ас-Самоний Абу Ҳафс ан-Насафийни ўз устозлари қаторида санаб, унинг “Китоб ал-Қанд” асаридан жуда кўп жойда фойдаланган. Ас-Самоний ўз асарида 27 жойда Абу Ҳафс ан-Насафий номини тилга олиб, у ҳақда маълумотлар беради. Шунинг учун ҳам “Китоб ал-ансоб” асари, шубҳасиз, “Китоб ал-Қанд” маълумотларини тўлдиришда асосий манбалардан биридир. Ибн ан-Наҗжор номи билан машҳур Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Маҳмуд ал-Бағдодий “Зайл Тарих Бағдод” асарида Абу Ҳафс ан-Насафийнинг шогирди ас-Самонийнинг маълумотларидан фойдаланади.[2] Ибн ан-Наҗжорнинг асари ҳам Самарқанддаги ҳадис илми тарихини тадқиқ этишда қўшимча манбалар қаторида туради.

Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Китоб ал-Қанд” ва “Мунтахаб” асарларида 1232 та мовароуннаҳр-лик уламонинг таржимаи ҳоли берилган.[3] Улар VIII–XII асрларда маънавиятнинг турли соҳаларида фаолият олиб боришган. Китобга, асосан, Самарқанд шаҳри билан боғлиқ бўлган – бу шаҳарда туғилган, яшаган, фаолият олиб борган, вафот этган ёки қайсидир жиҳатдан шаҳар маънавий ҳаётига таъсир кўрсатган уламоларнинг номлари киритилган. Аммо асарда Самарқанд шаҳридан ташқари Дабусийа, Кушонийа, Кеш ҳамда Насаф каби шаҳар ва қишлоқлар билан боғлиқ уламоларнинг таржимаи ҳоллари ҳам кўплаб учрайди. Чунки юқорида қайд этилганидек, муаллиф ўз олдига нафақат Самарқанд шаҳри, балки Сўғди Самарқанд вилояти муҳаддислари биографик луғатини тузиш вазифасини қўйган.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, мазкур асарда келтирилган 950 дан ортиқ ҳадис Самарқанд маънавий ҳаёти турли жабҳаларидаги муҳитни – илоҳиёт, ахлоқ, сиёсат, қонунчилик, қадриятлар соҳаларини акс эттиради.

“Китоб ал-Қанд” асари VIII–XII асрлардаги Мовароуннаҳр, хусусан, Самарқанд маънавий муҳитини, жумладан, ҳадис илми тараққиётини ўзида акс эттирган муҳим ва қимматбаҳо манбадир.

[1] Акрам Дийо’ ал-Умари. Маворид ал-Хатиб ал-Бағдодий фи-Та’рих Бағдод. Димашқ-Байрут, Дор ал-қалам, 1395/1975, 276-саҳифа.

[2] Ибн Наҗжор ал-Бағдодий. Тариху-л-Бағдод. Ж. 1, Байрут, Дор ул-кутуб ул-илмия, 1973, 100-саҳифа.

[3] Бу “Китоб ал-қанд” ва “Мунтахаб” асарларининг ҳозирда мавжуд қисмидаги таржимаи ҳолларнинг умумий сонидир.

PEDAGOGIKA

Azamov Jasurbek Murodovich (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi dotsenti v.b., yuridika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: jasurbekazamov@mail.ru)

JAHON AMALIYOTIDA OLIY O‘QUV YURTLARI FAOLIYATI TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada jahon amaliyotida oliy o‘quv yurtlari faoliyati tahlilidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarini boshqaruvdagi erkinlikning liberal va sentristik modellar orqali boshqarishga oid xulosalar berilgan.*

Аннотация. *В статье делаются выводы об управлении свободой в высшем образовании через либеральные и центристские модели, основанные на анализе деятельности высших учебных заведений в мировой практике.*

Annotation. *The article draws conclusions on the management of freedom in higher education through liberal and centrist models, based on the analysis of the activities of higher education institutions in world practice.*

Калит сўзлар: *либерал, центристик, маъмурий автономия, педагогик автономи, бозор модели, процессуал тартиб, маъмурий мослашувчанлик.*

Ключевые слова: *либеральный, центристский, административная автономия, педагогическая автономия, рыночная модель, процессуальный порядок, административная гибкость.*

Keywords: *liberal, centrist, administrative autonomy, pedagogical autonomy, market model, procedural order, administrative flexibility.*

Fransiya oliy ta’lim muassasalari mustaqil bo‘lib, ular bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar kelishilgan bitim asosida tartibga solib boriladi. Bu kelishuv bitimida OTM tomonidan oliy ta’limni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo‘yicha davlat oldidagi majburiyatlarini bajarish davlat tomonidan esa avtonomlashtirish va professor-o‘qituvchilar personalini kengaytirish majburiyatlari olinganligi qayd etiladi. Davlat ta’lim tizimi markazlashtirilgan va qabul qilingan qonun va turli yuqori tashkilotlar tomonidan berilgan instruksiyalar asosida boshqariladi. O‘quv rejalari oliy ta’lim vazirligi va oliy o‘quv yurtlari direksiyasi tomonidan boshqariladi.

O‘zbekistionda ham oliy ta’lim tizimi “Xalqaro ta’lim institutlari va ularning umumstandartlari” bilan o‘quv-uslubiy, ilmiy, amaliy va ularni malakalarini oshirish bo‘yicha aloqalarini kuchaytirish zarur.

Amerika Qo‘shma Shtatlarda oliy ta’lim muassasalarini protsessual tartibda tartibga solish mexanizmlari barcha shtatlarda, oliy ta’limning ham, davlat ham xususiy sektorlarida sezilarli darajada farq qiladi.[1]

Davlat sektori ichida Michigan universiteti ajralib turadi, u shtat qonunchiligi tomonidan qo‘llabquvvatlanadi va shtat konstitutsiyasi bo‘yicha avtonomiyaga ega, asosan, shtat tomonidan tartibga solinishdan mustaqildir. Nyu-York doirasidagi davlat OTMlarini markazlashgan Yevropa davlat tartibga solish tizimlari (Gretsiya, Avstriya) bilan taqqoslaganda, moliyaviy va kadrlar nazoratiga saqlanib qolgan. Protsessual tartibga solish sohasidagi tadqiqotlarda bunday protsessual tartibga solish misollari nafaqat Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, shuningdek, Kanada va Avstraliyada ham topilgan, deb ko‘rsatiladi.[2]

Boshqaruv sohasi ekspertlari fikricha, yuqori markazlashgan boshqaruv, odatda, OTMlar duch kelayotgan hozirgi tez o‘zgaruvchan raqobat muhitida samarasi yuqori bo‘lmaydi. Faqat bozorga moslashtirilgan va bozor tamoyillariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadigan OTMlar o‘z raqobatbardoshligini ta’minlash uchun qanday qadamlar qo‘yilishi kerakligi haqida yetarli ma’lumotga ega va buni o‘z vaqtida amalga oshiradilar.[3] Shunga qaramay, oliy ta’limda protsessual nazoratni kuchaytirish sohasidagi dastlabki tadqiqotlar natijalari noaniq bo‘ldi.[4] Olimlar “ma’muriy moslashuvchanlik” (ya’ni, kamroq protsessual

[1] Volkwein J.F., Malik S.M. State regulation and administrative flexibility at public universities. Research in Higher Education, 1997, 38 (1), p. 17 – 42.

[2] McDaniel O.C. The paradigms of governance in higher education system. Higher Education Policy. 1996, 9 (2), p. 137 – 158.

[3] Drucker P. Innovation and entrepreneurship: practice and principles. New York, Harper and Row, 1985.

[4] McDaniel O.C. The paradigms of governance in higher education system. Higher Education Policy. 1996, 9 (2), p. 137 – 158.

tartibga solish) va akademik avtoritet oliy o‘quv yurtlarining yuqori ishlash ko‘rsatkichlari o‘rtasida to‘g‘-ridan to‘g‘ri bog‘liqlik topa olmadilar.

Oliy o‘quv yurtlari faoliyatining jahon amaliyotining tahlilidan kelib chiqib, OTM boshqaruvidagi erkinlikning liberal va sentristik modellarga ajratish mumkin.

Liberal model – (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada) oliy o‘quv yurtlarining keng ko‘lamdagi avtonomiyasi bilan tavsiflanadi. Bunda ta’lim vazirliklari va hokimiyat organlarining roli strategik ustunlik va oliy ta’lim tizimini rivojlantirish parametrlarni shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Boshqaruv vakolatlarining asosiy qismi vositachi tashkilotlar qo‘lida to‘plangan bo‘lib, ular ta’lim dasturlarini litsenziyalashtirish va akkreditatsiyalash, ta’lim sifatini baholashni ta’minlash, moliyaviy resurslarni taqsimlash vazifasini bajarishga javob berishi mumkin.

AQSHda institutsional avtonomiya belgilari yetarli darajada aniq namoyon bo‘ladi, chunki bu yerda davlatning yetakchilik rolini pasaytiruvchi va Amerika universitetlarini ko‘pkanalli moliyalashtirishni ta’minlovchi bozor muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u davlat tomonidan qo‘llab-quvatlanishi bilan birga, turli grantlar, loyihalar va shartnomalardan, pulli ta’lim berishdan, xayriya fondlaridan, ilmiy ta’limiy xizmatlarini sotishdan ham daromad oladi. Vasiylar kengashlari universitet va jamiyat o‘rtasida vositachilik rolini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sentristik model doirasida (Fransiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina) oliy o‘quv yurtlari huquqiy nuqtayi nazardan o‘quv, ilmiy tadqiqot, ma’muriy va moliyaviy faoliyatda avtonom hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, universitetning davlat bilan munosabatlari qonunchilik aktlari, davlat boshqaruv organlarining buyruqlari va qo‘llanma (instruksiya)lari bilan boshqariladi.

Oliy o‘quv yurtlarining struktura va vazifalari, o‘quv rejalari va dasturlar, universitet avtonomiyasining yangilanganiga qaramay, ma’lum darajada davlat organlarining ta’limni boshqarishga oid qo‘llanmalari asosida belgilanadi va ular oliy o‘quv yurtlari faoliyatiga doir tezkor masalalarni hal qiladi.

Ochiq-ravshan ko‘rinib turibdiki, avtonomlashtirish tendensiyasi, avvalo, sentristik modulga ta’sir ko‘rsatdi va davlat OTMlari avtonomiyasi uch tomonida namoyon bo‘ladi: ma’muriy, moliyaviy, pedagogik.

Ma’muriy avtonomiya rektorni saylov yo‘li bilan tayinlashni, unga prorektorlarni tayinlash huquqini berishni, oliy o‘quv yurtlarining mustaqil ravishda shtat jadvalini tuzish va tasdiqlash huquqini berishni, boshqaruvning ichki strukturasi (tuzilish)ni shakllantirishni, struktura bo‘linmalarni tuzishni nazarda tutadi. Moliyaviy avtonomiya davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lardan, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining ixtiyoriga beriladigan boshqa xususiy va jamoat mablag‘laridan erkin foydalanish, pulli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, mustaqil faoliyatdan topilgan daromadlardan o‘z ixtiyori bo‘yicha foydalanish huquqini nazarda tutadi.

Pedagogik avtonomiya o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqishda, o‘qitish metodlari va ilmiy tadqiqotlar tematikasini tanlashda, bilimlarni tekshirish usullarini va yakuniy attestatsiyani tanlashda mustaqillikni nazarda tutadi.

Davlat bilan o‘zaro munosabatlar xarakteri va oliy o‘quv yurtlarini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bir qator mualliflar ikkita emas, uchta asosiy modellarni ajratib ko‘rsatadilar.

Bozor modeli oliy o‘quv yurtlari yuridik jihatdan avtonom va mustaqil (AQSH, Kanada, Avstraliya va Yaponiya) ekanini nazarda tutadi. Bozor modeliga ega bo‘lgan mamlakatlar ta’lim tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: boshqaruvda kuchli detsentralizatsiya (turli o‘quv muassasalari shtatlarning mahalliy, professional boshqaruv organlariga yoki qo‘mitalar va komissiyalariga bo‘ysunadilar).

O‘quv muassasalarini tashkil etishda pluralizm (o‘quv muassasalarini tashkil etishdi davlat monopoliyasining yo‘qligi); o‘quv muassasalari va ularning dasturlarini turli-tuman bo‘lishi. Masalan, Amerika oliy o‘quv yurtlarining boshqalardan farqli tomoni bir o‘quv muassasadan boshqasiga o‘tganda fanlar bo‘yicha o‘tilgan bilim hajmi bo‘yicha to‘plangan ballarni to‘liq e’tiborga olib, qabul qilish hisoblanadi.

Direktiv modeldan foydalanilganda oliy o‘quv yurtlari markaziy hukumat tomonidan boshqariladi (masalan, Janubiy Koreyada). Bunda ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy va tashkiliy-huquqiy boshqarish markazlashgan tartibda amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi avtoritar metodlar va konfutsiycha hayotiy tamoyillar yordamida amalga oshiriladi. Ta’limni boshqarish uchta ma’muriy darajada amalga oshiriladi: ta’lim vazirligi, provinsiya va munitsipalitetlar, uezd bo‘limlari.

Aralash modelli oliy o‘quv yurtlarini ma’lum darajada avtonomiyaga ega bo‘lgan, qonun doirasida cheklangan federativ tizim sifatida tavsiflash mumkin. Xitoy oliy ta’limini boshqarish davlat kengashi,

provinsiyalarning xalq hokimiyatlari, avtonom rayonlar, markazga bo‘ysunuvchi shaharlar tasarrufi ostida turadi. Ta’limning yangi strategiyasi uni milliy nazariyalar va jahon tajribasi asosida detsentralizatsiya qilish va xususiylashtirish, demokratizatsiyalash va gumanizatsiyalashni nazarda tutadi. U o‘z ichiga o‘rtacha masshtablarni, tizimni optimallashtirish va o‘quv muassasalarining har xil shakllarini, regional rivojlanishga e’tibor berishni, ta’lim tizimining ochiqliligini kiritadi.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi universitetlarning akademik erkinligi ularning ichki intellektual hayoti erkinligi, ularni liberal tamoyillar asosida boshqarishning kafolatlaydi va oliy o‘quv yurtlarini rivojlantirishning innovatsion xarakterini ta’minlaydi.

XX asrning 90-yillarda Yevropa ta’lim tizimi rivojlanishi uchun sifat kafolati va nazorati borgan sari muhimroq ahamiyat kasb eta boshladi, samaradorlik va moslashuvchanlikka esa raqobat muhitida yashab qolish uchun zarur bo‘lgan madaniy-axloqiy qadriyatlar sifatida qaralgan. Amerika oliy ta’lim tizimini tahlil qilgan P.Jamport uning ijtimoiy institut modelidan industriya modeli tomon siljiganini ta’kidladi.[1] Bunday dinamikaning belgilari orasida oliy ta’lim tizimida iste’molchi qiyofasining ahamiyati o‘sib borayotgani, akademik stratifikatsiyaning chuqurlashayotgani, OTMni boshqarishga e’tiborning ortib borayotgani, shuningdek, keng jamoatchilik uchun va ba’zi bozorlarda bilimlarning ayrim turlari uchun iste’mol qiymati oshayotgani haqida fikrlar bildirilgan edi. O‘tgan asr oxirlariga kelib, bunga o‘xshash jarayonlar oliy ta’limni xususiylashtirish degan nom olgan.

XXI asrning boshlariga kelib, butun dunyoda oliy ta’lim muassasalari yangicha qiyofa kasb eta boshladi va ularni boshqarish sekin-asta o‘zgarib bordi. Oliy o‘quv yurtlarining katta qismi fan va ta’lim vazirligi tasarrufiga o‘tdi. Bitiruvchilar sonining ko‘payishi oliy o‘quv yurtlarida shtatlarni kengaytirishni talab qildi. Bunda yangi lavozimlar, ko‘pincha, o‘quv jarayoni yoki tadqiqotlar olib borish bilan bog‘liq emas: xo‘jalik, marketing, moliyaviy va ma’muriy xizmatlar OTM hayotining nufuzli ishtirokchilariga aylanishadi. Oliy ta’lim ilm-fani va ta’lim ini tijoratlashtirishning bir necha jihatlarida namoyon bo‘ladi. Neoliberal burilishning boshlanishi bilan OTMlar maqsadli ijtimoiy siyosat obyektlaridan ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bozori agentlariga aylanishadi. Akademik amaliyotda qabul qilingan, konsensusga erishishga asoslangan qaror qabul qilishning kollegial usullari o‘rniga, korporativ tijorat-boshqaruv amaliyoti kirib keldiki, bunda qarorlarni tezkorlik bilan qabul qilish, bir-birining nuqtayi nazarini kelishib muvofiqlashtirishdan ko‘ra muhimroqdir. Avtonomiyaning ramziy ma’nosi o‘zgarmoqda: avtonomiya tamoyili – intellektual va ilmiy emas, xo‘jalikka oid – OTMlar borgan sayin ilmiy korxona sifatida qabul qilinmoqda, bu esa, o‘z navbatida, ularni xususiy korxonalarni boshqargandek boshqarishni taqozo qilmoqda.

O‘qish davrida ota-onalar tomonidan farzandlarni moddiy jihatdan ta’minlash nuqtayi nazaridan Yevropa mamlakatlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1) ota-onalarning farzandlarini oliy ta’lim olishi davrida moddiy jihatdan ta’minlash majburiyati qonun bilan belgilab qo‘yilmagan mamlakatlar (Skandinaviya mamlakatlari, Irlandiya, Gollandiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya), bu mamlakatlarda talabalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash katta ahamiyat kasb etadi, ammo ba’zi mamlakatlarda (Irlandiya, Gollandiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya) qisman yoki to‘liq ota-onalarning daromadlariga bog‘liqdir;

2) ota-onalarning farzandlarini ta’lim (shu jumladan, oliy ta’lim) olishi davrida moddiy jihatdan ta’minlash majburiyati qonun bilan belgilab qo‘yilgan mamlakatlar (Avstriya, Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya). Bu mamlakatlarda farzandlari oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ota-onalar uchun davlat moliyaviy imtiyozlar taqdim etadi, masalan, farzandlarga nafaqa berish va soliq imtiyozlari. Ota-onalar uchun beriladigan moliyaviy imtiyozlarga qo‘shimcha ravishda talabalar muhtojlar uchun beriladigan nafaqalar va qarz (zaym)lar so‘rab murojaat qilishlari mumkin.

Xorijda o‘qish uchun nafaqa olish imkoniyatlarini solishtirish mamlakatlar o‘rtasida bu sohada keskin farqlar mavjudligini yuzaga chiqardi. Xorijda o‘qish uchun milliy nafaqalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib borish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Skandinaviya mamlakatlari, Avstriya, Gretsiya va Gollandiyada xorijda daraja olish bo‘yicha to‘liq dasturni o‘qiyotganlar uchun talabalarga yordam tizimi joriy etildi yoki joriy etilmoqda. Finlandiyada e’tirof etilgan Gollandiya oliy ta’lim muassasalari tomonidan taklif etilayotgan dasturlar bo‘yicha va flamand oliy ta’lim muassasalarida mavjud bo‘lmagan dasturlar bo‘yicha davlat ko‘magini olish imkoniyati mavjud.

[1] Geiger R.L. (1987) Privatization of higher education. International trends&issues. Conference Report, International Council for Educational Development, Racine, Wisconsin, June 15–18.

Yevropa ta’limini isloh etish tizimida talabalarni xalqaro kasbga yo‘naltirish tizimi[1] alohida o‘ringa ega. Talabalar, universitetlar va ish beruvchilar oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining Yevropada ishga joylashish masalalariga katta e’tibor qaratishmoqda. Buning uchun xalqaro karyera imkoniyatlari va sharoitlariga alohida urg‘u berayotgan kasbga yo‘naltirishning milliy va xalqaro tizimlari ishlab chiqilmoqda.

Xulosa qilganda, bugungi globallashuv sharoitida ta’limda ham global o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ta’limni globallashuv jarayonlariga moslashtirish, unga innovatsion standartlarni joriy etish uchun innovatsion yondashuvlarni olib kirish bilan birga, boshqaruv tizimini ham isloh qilish, unga yangicha prinsiplarni joriy etish zarurati ham ortib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim boshqaruviga yangicha tamoyillar sifatida institutsional avtonomiyaning tarkibiy qismlari sifatida akademik va moliyaviy avtonomiya shakllanmoqda va samarador jihatlarini o‘zida namoyon qilmoqda. Shunday ekan, oliy ta’lim tizimini isloh qilishni maqsad qilgan har bir mamlakat o‘zining oliy ta’lim boshqaruviga mazkur tamoyillarni joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ishmuradova Gulbaxor Izmuradovna (Qarshi davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi; e-mail: ishmuradova67@mail.ru)

TEXNOLOGIK TA’LIM JARAYONINI INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. *Maqolada texnologik ta’lim jarayonini integratsiyalashgan yondashuv asosida takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari aks ettirilgan. Bunda texnologik ta’limning asosi integral yondashuvning ustunligi bilan turli xil yondashuvlarni sintez qilishdir. Texnologik ta’lim mazmunini to‘laqonli yetkazib berilishida: shaxsga yo‘naltirilgan, madaniyatli (kasbiy), aksiologik, gnoseologik, faoliyatli, kompetensiyaviy, refleksiv va STEAM yondashuvlardan o‘rinli foydalanish haqida tavsiyalar berilgan. Shuningdek, integratsiya so‘zining lug‘aviy mazmuni va unga berilgan ta’riflar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.*

Аннотация. *В статье обозначены основные направления совершенствования процесса технологического образования на основе комплексного подхода. В основе технологического образования лежит синтез различных подходов с преобладанием комплексного подхода. Даны рекомендации по целесообразному использованию личностно-ориентированного, культуроведческого (профессионального), аксиологического, гносеологического, деятельностного, компетентностного, рефлексивного и СИМ-подходов в доставке содержания технологического образования. Также кратко обсуждается лексическое значение слова “интеграция” и его определения.*

Annotation. *The article outlines the main directions to improve the process of technological education based on an integrated approach. Technological education is based on a synthesis of various approaches with a predominance of an integrated approach. Recommendations are given on the appropriate use of personality-oriented, cultural studies (professional), axiological, epistemological, activity, competence-based, reflective and SIM approaches in delivering the content of technological education. The lexical meaning of the word integration and its definitions are also briefly discussed.*

Kalit so‘zlar*: integratsiya, sintez, gnesiologik, faoliyatli, aksiologik, integratsiyalashgan ta’lim, texnologik ta’lim.*

Ключевые слова: *интеграция, синтез, гносеология, деятельность, аксиология, интегрированное обучение, технологическое образование.*

Keywords*: integration, synthesis, gnosiology, activity, axiology, integrated education, technological education.*

O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotan islohotlar oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv rejasidagi fanlar tuzilmasining tez-tez yangilanib borayotganligi, ta’lim mazmunining zamonaviy bilimlar bilan boyitilib muvofiqlashtirilishi, integratsiyalashuv jarayonini maqsadli va tizimli ravishda olib borishni talab etadi va pirovard natijada yuksak salohiyatga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratiladi. Bugungi maktab bitiruvchisi keng qamrovli bilimlarga ega bo‘lishi, za-

[1] Талабаларнинг Гетеборг декларацияси (Гетеборг, 22–25 март 2001). Student Goteborg Declaration. Goteborg, Sweden , March 25, 2001. Манба: http://www.esib.orgларнинг

monaviy xo‘jalik yuritish sharoitlariga tez moslasha oladigan, yangi texnika va texnologiyadan xabardor bo‘lishi va ijodkor va innovator sifatida shakllanishini ko‘zda tutadi.

Ma’lumki, keyingi yillarda maktabda Mehnat ta’limi predmetini Texnologiya deb o‘zgartirilishi bilan bog‘liq ta’lim mazmuni qator yangi o‘quv materiallari: texnik tizimlar, kompozit materiallar, polimer loydan suvener yasash, 3D ruchkada har xil uch o‘lchamli obyektlar yasash, gidravlik uzatmalar, mexatronika, rabototexnika kabi bilimlar bilan boyitildi.

Integratsiyalashgan ta’lim didaktik sintezga asoslangan bo‘lib, u texnologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarni buyum yasash texnologiyasi uchun talab qilinadigan rejalash, loyihalash, konstruktorlik, texnologik, muhandislikka xos hissiy va aqliy faoliyat birligini rivojlantirishda ta’lim va bilim salohiyatidan eng samarali foydalanishni, ularni o‘rab turgan atrof-muhit va dunyoning yaxlit bir butun, o‘zaro bog‘liqlikda va o‘zaro ta’sirida ekanligini hamda fundamental qonunlarni tushuntirishda yordam beradi.

Integratsiya juda keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, talabalar integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, tushunishi zarur. Avvalo, integratsiya o‘zi nima? Integratsiya – lotincha «integration» so‘zidan olingan bo‘lib, «integr» to‘liq yaxlit, bir butun degan ma’nolar anglatadi va quyidagi ma’nolarda ishlatiladi:

1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha;

2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi;

3) ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish (iqtisodiy integratsiya).

Integratsiya jarayonlari oldin bog‘lanmagan elementlarni biriktirish asosini hamda shakllangan sistemalarda ham yuz berib, natijada sistemani bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o‘rtasida aloqadorlikning murakkablashuviga olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo‘ladi.

Gerbert Spenser (1820–1903) falsafasida sochilgan, sezilmaydigan holatning ichki jarayonlarining sekinlashuvi natijasida zichlashishi va seziladigan darajaga o‘tishi tushunilsa, dezintegratsiya – buning aksi, ya’ni, zich joylashgan narsaning harakat tezlashishi natijasida sochilgan holatga o‘tishidir. Spenser “integratsiya” so‘zini, ko‘pincha, agregatsiya tushunchasi bilan teng ma’noda qo‘llaydi. Uning ta’limotiga ko‘ra, Quyosh sistemasi, sayyoralar, organizm, millat rivoji integratsiya va dezintegratsiyaning birin-ketin o‘rin almashinuvlari natijasidir.

Yyensh (1883–1940) psixologiyasida integratsiya deganda, ruhiy hayotning ayrim xususiyatlarini butun ma’naviy hayot majmuyiga ta’sir qilishi tushuniladi. Smendning davlat to‘g‘risidagi ta’limotida integratsiya deganda davlatning, uning faoliyati shakllarining o‘zaro ta’siri natijasida doimiy yangilanib turishi anglanadi.

Integratsiyalashgan ta’lim itegratsiyalashgan, shaxsga yo‘naltirilgan, gnesiologik, madaniyatli (kasbiy) aksiologik, kompetensiyaviy faoliyatga asoslangan, tizimli va boshqa yondashuvlarning chuqur kelib chiqishiga asoslanadi. Texnologik ta’limda integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish texnologik jarayonlar va buyum yasash ketma-ketligi bilan bog‘liq fanlararo aloqadorlik va bir-birini to‘ldiruvchi ta’lim sifatida e’tirof etiladi. Integratsiyalashgan ta’limga yuqorida aytib o‘tilgan barcha yondashuvlar zamonaviy ta’lim paradigmasi bilan belgilanadi, uning mohiyati shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasida ifodalanadi va quyidagilardan iborat:

–o‘quvchiga murakkab o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida qaraladi, har bir shaxsning o‘ziga xosligi va qaytarilmas alohida rivojlanish trayektoriyasi, o‘z qadr-qimmati tan olinadi;

– texnologik ta’limda metodologik asos o‘quvchini moddiy olamning yaxlitligi, nazariya va amaliyotning birligi, olam, jamiyat va tafakkurning o‘zgarishi va rivojlanishi, fanlar haqida axboratlarni berish emas, balki shaxsning rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlanishiga yordam berishga o‘tilishini nazarda tutadi (dunyoning ehtimoliy modeli nuqtayi nazaridan, uning rivojlanish darajasi uning tushunchasi bilan emas, balki tushunish bilan belgilanadi, ya’ni ma’nolarni o‘zlashtirish);

–talabaning ta’lim jarayonidagi mavqeyi o‘zgarib bormoqda, bu ehtiyojlar, qiziqishlar, imkoniyatlarga muvofiq kelishi va kognitiv faoliyatning shaxsiy ma’nosini ta’minlashi kerak.

Yangi ta’lim paradigmasida egiluvchanlik, innovatsion, mahsuldorlik ato etishi hamda amaliy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishi, o‘zgaruvchi mehnat bozori talablariga muvofiq kelishi kerak. Faqat ilmiy asoslangan, integratsiyalashgan ta’limgina insonning yaxlit va uyg‘un rivojlanishini ta’minlay oladi. U mamlakatimizning bo‘lajak olimlari, yangilik yaratuvchilari, ijodkorlarini tayyorlash va ma’naviy kamol topgan shaxsni shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi. Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan pa-

radigmasi texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalashga, shu jumladan, integratsiyalashgan ta'limga turli xil yondashuvlarda mujassam bo'lgan.

Shu munosabat bilan, biz texnologik ta'lim uchun integratsiyalashgan ta'limning konseptual asosini tashkil etadigan yondashuvlarning ikki guruhini sintez qilib, integral yondashuvni asosiy yondashuv sifatida ajratib ko'rsatamiz, bu ta'lim mazmunini shakllantirish va uning tartibga solish funksiyasini amalga oshirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqamiz. U yoki bu darajadagi barcha yondashuvlar ta'limni tashkil etishga kompleks yondashuvni boyitadi, uning mohiyati, bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ta'lim va rivojlanishning ma'lum maqsad va vazifalariga muvofiq pedagogik jarayonning har qanday tarkibiy qismlarida integral g'oyalarni amalga oshirishdir, bu esa ushbu pedagogik jarayonning yaxlitligi darajasini oshirishga olib keladi (V.S.Bezrukova, M.N.Berulava, V.A.Slastenin, Y.N.Tyunnikov, N.K.Chapayev va boshqalar).

Pedagogik jarayonning har qanday tarkibiy qismlarini integratsiya qilish mumkinligiga qaramay, ko'plab tadqiqotchilar birlashtirish uchun asos sifatida ta'lim mazmunini ilgari surishga moyildirlar. Ta'lim mazmuni masalalarini V.V.Krayevskiy, V.S.Ledniyev, I.Lerner, M.N.Skatkin va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rish mumkin. Ular ta'lim integratsiyasi o'quv jarayonini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini ta'kidladilar.

V.S.Bezrukova, V.P.Bespalko, I.D.Zverev, S.V.Illarionov, Y.P.Kabkova, O.A.Levchenko, V.N. Maksimova, Y.E.Shuvalova va boshqalarning fikricha, u ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni bo'lib, shaxsning yaxlit rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlanishini o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmuni pedagogik jarayonning eng harakatchan va o'zgaruvchan tarkibiy qismidir, chunki bu fanlarning rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Ta'lim jarayonining boshqa tarkibiy qismlari, albatta, u bilan bog'liq va ularni ham birlashtirish mumkin.

Texnologik ta'limda o'quvchilarni integratsiyalashgan ta'lim konsepsiyasining asosini tashkil etuvchi shaxsni rivojlantirish va tarbiyalashga yondashuvlarni, shartli ravishda, o'zaro bog'liq ikkita guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh shaxsiy, gnesiologik, madaniyatli, aksiologik, faoliyatli yondashuvlardan iborat.

Shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv texnologik ta'lim jarayonida o'quvchining bilim (tasavvur shaklida), ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishdan shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Texnologik ta'limning ustuvor vazifalari atrofdagi dunyo, faoliyat usullari, me'yorlar va qadriyatlar haqidagi g'oyalarni o'zlashtirishni emas, balki bitiruvchilarda texnik obyekt hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetensiyalarini shakllantirish muhim kuchlarini, uning intellektual va axloqiy salohiyatini, hayot sharoitlariga yo'naltirish qobiliyatini ochib berishni o'z ichiga oladi va o'z imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlar yaratiladi. Integratsiyalashgan texnologik ta'lim shaxsga yo'naltirilgan, chunki uning diqqat markazida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan rivojlantirishga va ta'lim vazifalarini hal qilishga yo'naltiradi. Texnologik ta'lim jarayonida integratsiyalashgan bilimlar berish doirasida o'quvchilarni shaxsga yo'naltirib o'qitishning asosiy yo'nalishlari dolzarbdir. O'quvchilar bilan aloqa shakllarini o'zgartirish (dominant munosabatlar – subyekt-subyektli), maqsadni belgilashni, darslarning shakli va mazmunini o'zgartirish, o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan mahalliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishish va boshqalar.

Madaniyatli (kasbiy) yondashuv ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasiga muvofiq rivojlanmoqda va o'quv jarayonida madaniyatli (kasbiy) shaxsni shakllantirishga yo'naltiriladi, o'quvchi atrof-muhitning to'liq mavjudligini tushuna oladigan madaniyat tashuvchisi sifatida shakllantirishdan iborat. (M.M.Baxtin, N.A.Berdyayev, V.S.Bibler, S.N.Bulgakov, L.S.Vigotskiy, N.F.Fedorov, P.A.Florenskiy, A.L.Chijevskiy va boshqalar).[1]

Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchida kasbiy madaniyatini rivojlantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'quvchida atrof-muhitni qadrlashga, milliy urf-odat va qadriyatlarni bilishi, xalq hunarmandchiligi asoslariga oid kompetensiyalarni shakllantirish, kasbiy madaniyatga xos faoliyat usullarini o'zlashtirish, o'quv ustaxonalarida hamkorlikda va jamoa bo'lib ishlash, jamoa mehnatini qadrlash, kasb egalariga nisbatan hurmat, kattalar va jamoa a'zolari bilan muloqot madaniyati me'yorlariga mos keladi-

[1] Лазарева М.В. Концепция интегрированнного обучения детей дошкольного возраста. Вестник ТГУ, выпуск 4 (60), 2008, с. 154 – 159.

gan shaxslararo munosabatlarni shakllantirish lozim bo‘ladi. Madaniyatni o‘zlashtirish nafaqat bilim va ko‘nikma, balki shaxsning fikri va qadriyatlarini bilishi bilan bog‘liq. Kasb madaniyati kishi umumiy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lsa-da, undan o‘ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Kasbiy madaniyat tushunchasi kishining kasbiy faoliyati borasida erishgan barcha yutuq va muvaffaqiyatlari, huquq va erkinligi, o‘qmishliligi, ma’rifatliligi, o‘z kasbining sir-asrorlari va kasbiy qadriyatlarni bilishi, kasbiy munosabatlarni mukammal egallashi, ijodkorligi, yaratuvchanligi, iqtidori hamda kasbiy layoqati va boshqa masalalarni qamrab oladi.[1]

Aksiologik yondashuv pedagogik qadriyatlar asosida amalga oshiriladi va texnologik ta’lim jarayonida o‘quvchining atrofidagi dunyoga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini shakllantirishdan iborat. Qiymat munosabati, asosan, uning psixologik holatini, hayotdan qoniqish va to‘liqligini, uning ma’nosini belgilaydi va qadriyatlar tizimi xulq-atvor va faoliyatni tartibga soladi, motivatsion va ehtiyoj sohasini, yo‘nalishini, o‘z faoliyatida ularni boshqarishga tayyorligini belgilaydi. Texnologik ta’limda o‘quvchi milliy urf-odatlarni qadriyat va munosabatlarni, qadriyat va me’yorlarni (xalq hunarmandchiligining turli yo‘nalishlari: quroqchilik, gilamchilik, savatchilik, kashtachilik va h.k. bo‘yicha san’at asarlari yaratiladi, milliy taomlar tayyorlanadi, milliy matolardan milliy liboslar tikiladi, dizayn ishlov beriladi), atrofdagi odamlarga, o‘ziga, turli xil faoliyat turlariga, kattalar ishiga va hokazolar rivojlantiriladi, qadriyatlar-fazilatlar (xayrixohlik, hamdardlik, intizom va boshqalar)ni anglay boshlaydi. Integratsiyalashgan ta’lim dunyoning yaxlit tasvirini tushunishga asoslanib, atrofdagi dunyoga qadriyat munosabatini shakllantirishga qaratilgan.

Faoliyatli yondashuv avvalgilar bilan organik ravishda bog‘langan va pedagogik o‘zaro ta’sirni intensiv, tobora ortib borayotgan faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirishni nazarda tutadi, chunki inson faqat o‘z faoliyati orqali fan va madaniyatni, dunyoni bilish va o‘zgartirish usullarini o‘rganadi, qimmatli shaxsiy fazilatlarni shakllantiradi va yaxshilaydi, dunyoga va o‘ziga bo‘lgan munosabatni qadrlaydi (L.S. Vigotskiy, A.N.Leontyev, G.N.Shukina va boshqalar). Integratsiyalashgan trening faoliyat yondashuvini hisobga olgan holda tashkil etiladi, bu quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Asosiy e’tibor o‘quvchilar faoliyatining har xil turlarini tashkil etishga qaratilgan. O‘qituvchi nafaqat ma’lum miqdordagi bilimlarning tarjimoni sifatida, balki pedagogik jarayonning tashkilotchisi sifatida ham ishlaydi. Kognitiv material o‘quv maqsadi sifatida emas, balki faoliyatni o‘zlashtirish vositasi sifatida ishlatiladi. Tadqiqotchilar o‘quvchining shaxsiyatini rivojlantirish mexanizmlarini tushunishda yetakchi faoliyat nazariyasining ahamiyatini anglagan holda, haqiqiy hayotda o‘quvchi bitta emas, balki yetarlicha ko‘p turli xil faoliyat turlarida qatnashishini ta’kidlashadi. Shuning uchun texnologik ta’lim didaktikasida faoliyat turlari bo‘yicha emas, balki o‘quvchi shaxsini to‘laqonli rivojlanishiga xizmat qiladigan faoliyat turlari bo‘yicha bahs yuritadi. Shu munosabat bilan, o‘quvchilar faoliyatining har xil turlari (ularning integratsiyasi) o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rnatish hozirgi vaqtda didaktikada istiqbolli deb tan olingan: kognitiv, affektiv, psixomotoik, ta’limiy, o‘yinli, mehnat (buyumlarni loyihalash, konstruksiyalash, texnik ijodkorlik, kreativlik, texnologik). Ko‘pgina psixologlar B.G.Ananyev, A.V.Zaporojets, S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin va boshqalar ularning o‘zaro aloqalarini amalga oshirish imkoniyatini ta’kidladi.

Gnesiologik yondashuv terminologik apparatni ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatdan to‘g‘ri ishlab chiqishni ta’minlaydi. O‘quvchining haqiqatga bo‘lgan bilish munosabati uning atrofidagi dunyo bilan munosabatlarining butun tizimining zaruriy jihati hisoblanadi. Shunday qilib, haqiqatni yetarli darajada ko‘paytirish imkoniyati dunyoqarash muammosi bo‘lib xizmat qiladi. Bilishni amaliy transformatsion faoliyatning ideal rejasining asosi sifatida tushunish bilish nazariyasining boshlang‘ich prinsipi bo‘lib, u bilish va haqiqat birligining mohiyatini ochib berishga imkon beradi. Bilimlarning ideal faoliyat rejasining asosi sifatida ishlashi, haqiqatdan, u haqidagi bilimlarga teskari aloqa qilish imkoniyatini beradi. Bunday aloqalarni amalga oshirish jarayonida insonning dunyo haqidagi bilimlari aniqlashtirilmoqda, qayta ko‘rib chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda. Shuning uchun bilim voqelikni passiv tafakkur mahsuli emas, balki faol amaliy faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi, ishlaydi va takomillashadi, faoliyat usullari esa nisbatan mustaqil bilim birliklari sifatida harakat qiladi. O‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ularning bilimlari ijtimoiy hayot obyektlari va hodisalarini bevosita idrok etish, kattalar faoliyatini kuzatish va boshqalar natijasida vakillik darajasida shakllanadi. (L.A.Venger, L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojets, A.M.Leushina, N.N.Poddyakov, A.P.Usova). Shunday qilib, integratsiyalashgan texnologik ta’lim gnesiologik yondashuvning quyidagi qoidalariga asoslanadi:

[1] Xolliyev I., Xusanov J. Kasb-hunar ta’limi. Texnologiya. Ma’naviyat. Mahorat. T., “O‘qituvchi”, 2003, 256-bet.

–dunyoga yaxlit qarashni shakllantirish (V.I.Loginova, Y.I.Tixeyeva, A.P.Usova va boshqalar);

–atrofdagi hayot haqidagi o‘zaro bog‘liq bilimlarni rivojlantirish orqali dunyoga va dunyoqarash asoslariga qadriyat munosabatini shakllantirish (Y.M.Kulikovskaya, I.A.Likova va boshqalar);

–atrof-muhit obyektlari va tabiat hodisalari haqidagi yaxlit g‘oyalarni shakllantirishda va ularni o‘rab turgan atrof-muhit, tabiat hodisalari haqidagi, predmetlar va ularning qismlari o‘rtasidagi vizual taqdim etilgan mantiqiy aloqalarni o‘zlashtirish jarayonida yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi (A.V.Zaporojets, N.N.Kondratiyeva, V.I.Loginova, N.N.Poddyakov, P.G.Samorukova, I. A.Xaydurova va boshqalar);

– atrof-muhit haqidagi bilim sifatini bevosita nazorat qilish va bilish faoliyatiga qo‘llashda (L.M. Volkov, L.A.Pniyevskaya, P.G.Samorukova, P.A.Usova, Y.A.Flerina va boshqalar);

– bilish faoliyatida tadqiqot usullaridan foydalanishni o‘rganish usuli sifatida (N.P.Sakulina, L.A. Paramonova, N.N.Poddyakov va boshqalar);

– o‘quvchining bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini uning imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq o‘zlashtirishning ijodiy asoslari (N.A.Vetlugina, T.G.Kazakova, T.S.Komarova, N.P.Sakulina, Y.A.Flerina va boshqalar). Yondashuvlarning ikkinchi guruhi uning qurilishining tarkibiy xususiyatlarini belgilaydi: tizimli va tarkibiy-funksional yondashuvlar.

Tizim yondashuv bilish obyektini boshqa obyektlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda yaxlit yagona tizim sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, obyekt birmuncha murakkab tizimning tarkibiy qismi komponentlari va uning bog‘lanishlari sifatida ishlaydi. Bunday bilimlar tizimi murakkab obyektlar, hodisalarning xususiyatlarini ularning munosabatlarini o‘zaro aloqadorlik orqali ochib beradigan oddiy tizimdan o‘tish sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, bilimlar tizimi tabiatan iyerarxikdir, ya’ni u avval murakkab bilimlar asosida joylashgan oddiy obyektlarning mohiyatini ochib beradi. Pedagogikada tizimli yondashuv tizim tahlili falsafasiga (tizimlarning umumiy nazariyasi) asoslanadi. “Integratsiya” tushunchasi ushbu fanning tezaurusiga kiritilgan va tizimning alohida tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqlik holatini va bunday holatni keltirib chiqaradigan jarayonni bildiradi (V.Belousov). Tizimlar nazariyasi o‘zini rivojlanishini integratsiya nazariyasi va aniq fanlarda, shu jumladan pedagogikada ham topdi. I S.Bezrukovaning fikricha, tizimlar nazariyasidan integratsiya o‘zi bilan “komponent”, “element”, “bog‘lanishlar”, “integratsiya shakllari”, “integratsiya turlari”, “integratsiya yo‘nalishlari” va boshqa ba’zi tushunchalarni olib kelgan. Y.P.Sokolnikov “tizim” tushunchasini bir-biri bilan muayyan munosabatlar va bog‘lanishlarda bo‘lgan komponentlar majmuyi sifatida talqin qilgan va o‘zaro ta’siri bu komponentlarga alohida xos bo‘lmagan yangi sifatlarni yuzaga keltiradi. Muallif pedagogikada tizimli yondashuv tamoyillarini ishlab chiqqan.

“Integratsiya” tushunchasi tizimli va integral yondashuvlar doirasida turlicha ishlaydi. Tizim yondashuvi doirasida, bizning fikrimizcha, integratsiya tizimni shakllantirishga, uning rivojlanishi va takomillashishiga olib keladigan boshqalar bilan bir qatorda, davom etadigan jarayon sifatida yanada torroq tushuniladi. Integratsiyalashgan yondashuv nuqtayi nazaridan integratsiya ikkinchisiga urg‘u berib, jarayon va natija sifatida talqin etiladi. Tizim yaxlitlikni rivojlantirishning eng yuqori darajasini aks ettirsada, torroq tushunchadir. “Tizim” va “integratsiya” tushunchalari o‘rtasidagi turli xil munosabatlar “integratsiya”tushunchasining ko‘p o‘lchovliligi bilan belgilanadi. Ushbu pozitsiyalardan tizimli yondashuv integral yondashuvga nisbatan alohida holat bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy didaktikada tizimli yondashuv asosida tarkibni ishlab chiqishda juda katta tajriba mavjud.

O‘quvchilarni ijtimoiy voqelik (V.I.Loginova, N.N.Poddyakov), tabiat dunyosi bilan tanishtirish (N.N.Kondratiyeva, L.Y.Musatova, S.N.Nikolayeva, P.G.Samorukova, I.A.Xaydurova va boshqalar), matematik bilimlar (A.M.Leushina va boshqalar.). Bir qator ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga olgan iyerarxik bilim tizimlarini yaratish (V.I.Loginov) integratsiyalashgan ta’lim tizimini qurish uchun muhimdir (Markaziy hodisani tanlashdan uning mohiyatini ochib beradigan konsepsiyaga, undan konsepsiya komponentining Markaziy aloqasini tanlashgacha va boshqalar).

Shunday qilib, integratsiyalashgan ta’lim maktab o‘quvchilari uchun tizimli yaxlit bilimlarni shakllantirish zarurati bo‘yicha tizimli yondashuv qoidalariga asoslanadi, faqat shu imkoniyat bilan ular shaxsan muhim xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchini rivojlantirish va tarbiyalashda samarali bo‘ladi.

Tizim yondashuvidan kelib chiqadigan tarkibiy-funksional yondashuv integral ta’limni bir butun sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, bunda har bir komponent muhim aloqalar va bog‘liqliklar orqali boshqasi bilan o‘zaro hamkorlikda funksional deb ta’riflanadi. Ushbu yondashuv nuqtayi nazaridan integratsiyalashgan ta’limni o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqadagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan, ularning har biri ma’lum funksiyalarni bajaradigan va nisbiy avtonomiyaga ega bo‘lgan pedagogik jarayon sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Kompetensiyaviy yondashuv uch jihatni o‘zida aks ettiradi: faoliyatga yo‘naltirilgan, kommunikativ va shaxsiy. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv bilim, ijodiy faoliyat usullari va vositalarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Kommunikativ jihat muloqotni amalga oshirishga doir ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shaxsiy jihat tafakkur yuritish, refleksiya, yo‘nalganlikni o‘zida aks ettiradi.[1] Texnologik ta’limda loyihalash, konstruktorlik, texnologik, kreativlik va tadqiq qilish kompetensiyalarini shakllantirishdir hamda o‘quvchilarning iqtidoriga qarab dizayn, rabototexnika, elektronika va muhandislikka oid masallarni yechishga o‘rgatish hisoblandi.

Refleksiv yondashuv samarali fikrlashning muhim mexanizmi sifatida yuz berayotgan hodisani baholash, vazifalarni hal qilish usullari va operatsiyalarini izlab topish; ijodiy vazifalarni hal qilish jarayonida o‘zini-o‘zi tahlil qilish, o‘z holati hamda xatti-harakatlarini faol o‘ylab ko‘rishiga imkon beradi. Shu sababli refleksiv yondashuv o‘z-o‘zini baholash va tashqi tomondan berilgan bahoni anglashni talab etadi.

STEAM yondashuvi loyihalash metodiga tayangan holda, uning asosida bilish va ijodiy (hamda badiiy) izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so‘ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya’ni, o‘yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo‘llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. STEAM yondashuv o‘quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi. Ma’lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog‘liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo‘llaniladi, muhandislik esa uylar, yo‘llar, ko‘priklar va mashina mexanizmlarda o‘z aksini topgan, biror-bir kasb, kundalik mashg‘ulotlarimiz ozmi-ko‘pmi matematika fani bilan ham bog‘langandir.

STEM atamasi ilk bor AQSHda maktab dasturiga kiritilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ilmiy-texnika yo‘nalishlarida kompitensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik, bu yo‘nalish kengaytirilib, atamaga qo‘shimcha harflar kiritildi. Jumladan: “R” – robotic – robototexnikani qo‘shib, STREM deb yoki “A” – art – san’atni qo‘shib, STEAM deb atala boshlandi. STEAM (S – fan, T – texnologiya, E – muhandislik, A – san’at, M – matematika) – ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

Shunday qilib, zamonaviy ta’lim tizimi texnologiya darslarida integrativ bilimga ega bo‘lishni talab etadi. Texnologiya darslarida yuqorida ko‘rsatilgan yondashuvlardan o‘z o‘rnida foydalanish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham samarali bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda kasbiy madaniyat, muhandislikka oid bilimlar, loyihalash, konstruktorlik, texnik ijodkorlik, kreativlik kompetensiyalari va ilmiy dunyoqarash shakllantiriladi.

Azizov Ravshan Komilovich (T.N.Qori Niyoziy nomidagi
O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti)

O‘ZBEK MILLIY QO‘SHIQCHILIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya*. Mazkur maqolada o‘zbek milliy musiqa madaniyatini rivojlanishi, shuningdek, estrada vokal san’atining o‘quvchi yoshlarimizning ongi, tafakkuri va ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi masalalar yoritilib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga metodik tavsiyalar berilgan.*

Аннотация*. В статье представлен анализ развития узбекской национальной музыкальной культуры, освещены вопросы формирования мышления и нравственных качеств у представителей молодёжного эстрадно-вокального искусства, даны рекомендации будущим учителям музыки.*

Annotation*. In this article an analysis of the development of the Uzbek national musical cultureas well as the role of the pop and vocal art in formation of consciousness, sipiritual and moral qualities of our young students are highlighted and methodical recommendation are given for future teachers.*

Kalit so‘zlar: *estrada, rep, pop, ommaviy madaniyat, musiqiy estrada, sof intonatsiya, qo‘shiqchiligi.*

Ключевые слова: *эстрада, реп, поп, общественная культура, музыкальная эстрада , чистая интонация, певец.*

Keywords: *stage, rap, pop, public culture, pure intonation, singer.*

[1]Begzod Xodjayev, Abdushukur Choriyev, Zuxra Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. T., 2018, 215-bet.

Mamlakatimizda estrada xonandaligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash masalasi bugungi kundagi eng muhim va dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Chunki mazkur masalaning dolzarbligini bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodning ongiga “omaviy madaniyat”ning kirib kelishi bilin bog‘lash o‘rinlidir. Chunki ommaviy madaniyatning eng asosiy targ‘ibot vositasi bu shubhasiz musiqa san’atidir. Shuning uchun ham bu o‘rinda estrada san’ati o‘zining bir necha zaruriyatli jihatlari bilan izohlanadi.

Haqiqatdan ham, e’tibor berilsa, bu muammo nafaqat estrada xonandaligi san’ati rivoji uchun, balki jamiyat musiqa san’ati darajasi uchun ham salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatdir. Shu ma’noda estrada xonandasi ijrochisi quyidagi talablarga javob berishini eslatib o‘tish tavsiya etiladi:

– estrada qo‘shig‘ining mazmuniga jiddiy e’tibor berish;

– matnga mos musiqani tanlay olish;

– milliy ohang, o‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lish;

– milliy, umuminsoniy qadriyatlar, an’ana va hayotiy turmush tarzini o‘zida aks ettirgan bo‘lishi;

– ijtimoiy va insoniy fazilarlarni namoyon etuvchi va h.k.

Mazkur talablardan farqli o‘laroq, bugungi kunda ayrim professional estrada ijrochisi kasbiy va noinsoniy kamchiliklariga ham yo‘l qo‘yish holatlari ko‘zga tashlanmoqda. Mazkur muammo nafaqat soha mutaxassislarini, balki hammani birday bezovta qilmoqda. Jumladan, dramaturg olim Sh.Rizayev “Musiqa qo‘shiq va vijdon bedorligi haqida” nomli maqolasida ushbu muammo to‘g‘risida batafsil fikr yuritgan. Misol uchun, yosh estrada xonandalarining quyidagi “qo‘shiq”lari matni o‘rinli va haqqoniy ravishda tanqid qilingan:

“*Maza – mazali,*
Shirin so‘zing mazali
Rosa – rosali,
Yoqimlisan rosali”

Yoki

“Zamonaviy sovchilar
Uyimizga har kun kelar
Yurak urar duk-duk,
Soat o‘tar tuk-tuk”

Mazkur “qo‘shiq”lar ma’nosiz va mazmunsizligi bilan bir qatorda, matnida ommaviy madaniyatning salbiy namunalarini targ‘ib qiluvchi ohang va ritmik illatlar ko‘zga yaqqol tashlanadi. Zero, mana shunday ijtimoiy illatlar milliy estrada xonandaligi san’atini professional kadrlar bilan ta’minlashni taqozo etadi. Bu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyundagi 272-sonli “Estrada qo‘shiqchilik san’atini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorida bu borada asosiy vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Har bir san’atkor o‘z davrining ilg‘or va faol a’zosidir. Uning paydo bo‘lishi uchun aynan o‘sha muhit, vaqt va u mansub bo‘lgan ijtimoiy qatlam zarur bo‘lgan. San’atkor har doim ham o‘zi guvohi bo‘lgan hayotni aks ettiradi. Yaratilganligiga bir necha asrlar bo‘lgan asarlarning aynan bir davrda ommaviylashib ketishining sababi turmush tarzi, ijtimoiy muhit shu asarni talab qilganligidadir. San’at har doim ham jamiyatning og‘ir davrlarida darmon bo‘lib kelgan. Bu davrlar esa aksariyat holatlarda ijtimoiy qatlamlar va guruhlar o‘rtasidagi nizolardan hosil bo‘lgan.

Ko‘pchiligimiz millatni yoki biror ijtimoiy qatlam va guruhni uning a’zolaridan bo‘lgan yozuvchi yoki shoir orqali taniymiz. Badiiy adabiyot o‘zida juda katta g‘oya, nafislik bilan birga yozuvchi mansub bo‘lgan ijtimoiy qatlam to‘g‘risida ham axborot beradi. San’atdan farqli o‘laroq, badiiy adabiyotning tarqalish imkoniyati kengroq. Lekin san’at ana o‘sha badiiy adabiyotni obrazlarda, ko‘zga ko‘rinarli va qabul qilish yengil, ta’sirchan shakllarda namoyon etadi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor “Adabiyot atomdan kuchli”, degan. Bu fikrga to‘laqonli qo‘shilgan holda, adabiyotning jonlanishi bo‘lgan san’at uning kuchini o‘n barobar oshirib yuborishini e’tirof etish mumkin.

Mashhur tarixchi Sharaffiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” kitobida Amir Temur davrida o‘tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to‘xtalib, “Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g‘azal-u naqsh aytur edilar. Turk-u, mo‘g‘il-u, xitoy-u, arab va ajamdin har kim o‘z rasmi bilan nag‘ma aytur erdi” degan ma’lumotlarni keltirardi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodlarimizning yuksak man’aviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda va shu o‘rinda aytish mumkinki, o‘tgan asrning boshlarida ilk namunalari paydo bo‘lgan o‘zbek estradasida istiqlol yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi. Shunday natijalarga erishishda O‘zbekiston Respublikasining rahbariyati tomonidan milliy va umumbashariy musiqa san’ati yu-

tuqlarini, jahon estradasining eng yaxshi namunalarini o‘rganish bo‘yicha katta imkoniyatlar ochilgani, bu soha rivojiga ko‘rsatilayotgan doimiy e’tibor, yosh iste’dodlarning o‘zini namoyon etishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar muhim rol o‘ynamoqda.

Biz estrada san’atining bugungi va ertangi rivoji haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalambor, “milliy estrada” degan iborani ma’no-mazmuniga alohida e’tibor berishimiz, uni har qanday begona ta’siridan, ayniqsa, “ommaviy madaniyat” ruhidagi oqimlar ta’siridan himoya qilishimiz, tabiiy. Bu haqda gapirganda, bir holatni afsus bilan aytish to‘g‘ri keladi. Ayrim yosh ijrochi va ijoddiy guruhlarning jamoatchilik e’tiboriga taqdim etayotgan “asarlari” san’atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu va musiqa, ijro usullari, balki sahna harakatlarida ham ochiqdan ochiq ajnabiy “yulduzlik” kasaliga chalinishi holatlari tez-tez uchrab turayotgani chinakkam san’at muxlislarini ranjitmasdan qolmaydi. Ayniqsa, bizning milliy an’analrimizga, axloq-odob qoidalariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so‘zlarni qolishtirib yoki talaffuzni ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ayrim yosh ijrochlar o‘zi uchun qandaydir yangicha uslub deb ijro etmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalar ifoda etiladi. Aytish mumkinki, o‘tgan asirning boshlarida ilk namunalar paydo bo‘lgan o‘zbek estradasida istiqlol yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi. Shunday natijalarga erishishda milliy va umumbashariy musiqa san’ati yutuqlarini, jahon estradasining eng yaxshi namunalarini o‘rganish bo‘yicha katta imkoniyatlar ochilgani, bu soha rivojiga ko‘rsatilayotgan doimiy e’tibor, yosh iste’dodlarning o‘zini namoyon etishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar muhim rol o‘ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. “Халқ сўзи”, 2017 йил 4 август.

2. Сирожиддинова Д.Ю. Эстрада санъатида сўз, мусиқа ва ижро уйғунлиги. Т., ЎзДСМИ, 2014, 101-бет.

3. Ҳайитова Л. Клипми ёки қилиқми? “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2008, 14 октябрь.

4. Муллажонов Д. Ўзбек миллий эстрадасида оҳанг масалалари. Т., “San’at”, 2018, 46, 59-бетлар.

5. Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Тошкент, “Фан”, 1993, 52-бет.

6. Ражабов И. Мақомлар. Тошкент, “San’at”, 2006, 259-бет.

7. Deanna Mc Broom. Empowering Musicians: Teaching, Performing, Living Why Should I Care About Vocal Health? Professional Resources Journal. october/november 2017, p. 32 – 35.

Jumamuratov Renat Esenbaevich (Navoiy davlat Konchilik instituti Nukus filiali Umumtexnika fakulteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi),
Xasanova Xurshida (Navoiy viloyat XTXQTMOHM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD)

KIMYO FANINI O‘QITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY KREATIV TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirishda o‘quvchilar bilimini baholash, o‘zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradigan zamonaviy kreativ topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan.*

Аннотация. *В данной статье обоснована важность использования современных креативных заданий, помогающих оценить знания учащихся, определить уровень их усвоения учебного материала, совершенствовать процесс преподавания химии.*

Annotation. *This article substantiates the importance of using modern creative tasks that help to evaluate students’ knowledge, determine the level of their assimilation, in improving the process of teaching chemistry.*

Kalit so‘zlar: *kreativ fikrlash, zamonaviy yondashuv, kompetensiya, tafakkur, mantiqiy fikrlash, loyihalash, baholash, o‘zlashtirish, tushuncha, taraqqiyot, natijaviylik, didaktik o‘yin, topshiriq.*

Ключевые слова: *креативное мышление, современный подход, компетентность, мышление, логическое мышление, проектирование, оценка, овладение, понимание, прогресс, результативность, дидактическая игра, задание.*

Keywords: *creative thinking, modern approach, competence, thinking, logical thinking, design, evaluation, mastery, understanding, progress, effectiveness, didactic game, task.*

Mamlakat taraqqiyotining yuksalishida turli sohalarda yangi bilim va yangicha yondashuvlarning vujudga kelishi va qo‘llanilishi ertangi istiqboldagi rejalarimizdan biridir. Barcha sohalar kabi kimyo fanini o‘qitishda mavjud bo‘lgan muammolarning bartaraf etilishi, ta’lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi hech kimga sir emas. Bu holat kelajakda o‘zining qadr-qimmatini anglagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalashga yordam beradi.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi sanalgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.[1] Fan-texnikaning rivojlanishi, kimyo sanoatining taraqqiyoti, sohaning hayotimizda tutgan o‘rni, bu fanning yanada rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Ta’limning ustuvor maqsadlaridan biri, o‘quvchilarning o‘quv muammolarini, yuzaga kelgan hayotiy vaziyatlarni ijodiy fikrlash orqali mustaqil yechish, o‘quv jarayonini nazorat qilish, olingan bilimlarni o‘zlashtirishning natijasini baholashga o‘rgatish kerak. Zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘quvchining bu jarayonda faol ishtiroki zarur sanaladi. Chunki bu kompetensiyalar o‘z tajribalarining tizimli ravishda darslarda qo‘llanib borilishi natijasida shakllanadi. Taraqqiyot bor joyda yangi bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj sezilishi, tabiiy. Shu bois kimyo fanini o‘qitishni ham zamon talabiga hamohang tashkil etish, mavjud muammolarni bartaraf etish ertangi istiqboldagi yutuqlarimizning kafolatidir.

So‘nggi yillarda pedagogik tadqiqotlari bilan o‘qitish jarayonini takomillashtirish borasida tadqiqot olib borgan I.Y.Aleksashina, A.A.Makareni, Y.V.Bondarevskiy, V.P.Solomina, A.V.Usova, G.I.Shukinalar, kimyogar-metodist olimlardan V.N.Verxovskiy, V.P.Garkunova, R.Gmocha, G.S.Kachalova, M.V. Zuyeva, R.G.Ivanova, P.A.Orjekovskiy, T.S.Nazarova, Y.Orliklarning tadqiqot ishlari diqqatga sazovor bo‘lib, ushbu mavzu yuzasidan juda ko‘p nazariy va amaliy xulosa va fikrlarni olish mumkin.

Barcha fanlar kabi, kimyo fanini o‘qitishni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va shu orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Agar o‘quvchi fanga qiziqmasa, o‘qish uning uchun mushkul vazifa bo‘ladi. Shuning uchun tabiiy fanlarda, jumladan, kimyo fanida o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchini qiziqtirish, ularni savol tuzish va ularga javob topishga o‘rgatish kerak.

O‘qituvchilar o‘quvchilarga kimyo fanidan quyidagilarni mukammal o‘rgatishga harakat qilishlari kerak:

1. O‘quvchilarning fanni ongli ravishda o‘zlashtirishiga erishishi.
2. Kimyo fanidan olgan bilim va ko‘nikmalarini hayot bilan bog‘lay olishlariga erishishi.
3. Turmushda ishlatiladigan turli xil kimyoviy moddalar, ularning xususiyatlari, formulalari haqida tushuncha berishlari kerak.
4. Kimyo fanidan olingan bilimlar asosida xalq xo‘jaligini kimyolashtirishning asosiy yo‘nalishlarini tushunishlari, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishi lozim.
5. Kimyo fanidan olingan nazariy bilimlar asosida amaliy mashg‘ulotlar va tajribalarni o‘tkaza olish, kimyo fanidan masalalar yecha olish ko‘nikmasini shakllantirish.

Kimyo darslarida yuqori natijalarga ega bo‘lishda didaktik kreativ ko‘rinishdagi topshiriqlardan foydalanish natijasida o‘quvchilar bilim olish bilan bir qatorda bu jarayondan zavq oladilar. Ko‘tarinki kayfiyat, faol muloqot jarayoni darsning sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limiy didaktik o‘yinlar o‘qituvchining dars vaqtidagi va darsdan tashqaridagi o‘rnini mustahkamlashda nihoyatda muhim sanaladi. Ta’limiy didaktik o‘yinlarni yaratar ekanmiz, unda nafaqat nazariy tushunchalar bo‘lishi, balki ko‘rgazmalilik va ilhomlantirish xususiyati bo‘lishi kerak.[2] Didaktik o‘yin tartibli tuzilgan bo‘lib, foydalanuvchi uchun qiziqarli va uning kayfiyatini ko‘taradigan darajada bo‘lishi lozim. Ta’limiy didaktik o‘yinlarni yaratishda eng muhimi o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish va foydalanuvchilarni o‘qitish va kayfiyatini ko‘tarish orasidagi masofani saqlab turishdir.[3]

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. T., “O‘zbekiston”, 2016, 56-bet.

[2] Rahmatullayev N.G‘., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma, T., “Iqtisod-moliya”, 2013.

[3] Sorokin V.V. va boshq. Kimyoni bilasizmi? T., “O‘qituvchi”, 1993.

Didaktik o‘yinlar bilimlarni ko‘paytirish uchun qo‘shimcha vosita bo‘lishi lozim, u o‘quvchilarning har tomonlama ijodiy sifatlarini rivojlantirishi, ijobiy hissiyotlar uyg‘otishi, qiziqarli tarkibi bilan jamoaning kayfiyatini ko‘tarishi lozim. Darslarni mustahkamlash qismida didaktik o‘yinlardan foydalana borish, olingan ma’lumotlarni turli xil shakl va ko‘rinishda takrorlash va buning natijasida samaraliroq o‘zlashtirishga imkon beradi.

Quyida aynan ana shu yuqoridagi fikrlarning amaliy natijasi sanalgan bir nechta didaktik topshiriqlardan namunalarni keltiramiz:

1-topshiriq. ”Umumiylikni aniqlang”. Ushbu topshiriqda o‘zaro umumiyligi bo‘lgan bir nechta moddalar keltiriladi. O‘quvchilar ana shu umuminlikni aniqlashlari zarur bo‘ladi. Bunda keltiriladigan moddalarning aynan turmushda ishlatiladigan bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi.

A. Ichimlik sodasi, osh tuzi, margansovka = tuzlar.

B. Sirka, oshqozon shirasi, akkumulator = kislota.

C. Mineral suv, nafas chiqarishdagi havo = karbonat angidrid.

D. Guruch, kartoshka tugunagi = kraxmal.

E. Qand lavlagi, yantoq = shaker.

F. “Quruq muz”, “Kuldiruvchi gaz”, “Tulki dumi” = oksidlar.

2-topshiriq. “Meni top”. Ushbu topshiriqda noma’lum kimyoviy tushuncha, atama yoki moddaga xos bo‘lgan jihatlar birin-ketin aytib o‘tiladi. Bunda eng uzoq tushunchadan eng yaqiniga tomon harakat qilinadi. Har bir bosqich uchun ball belgilanadi. O‘quvchilar ana shu belgilarga qarab baholanadilar. Topshiriqni yechish natijasida o‘quvchilar o‘z salohiyatlarini tekshirib ko‘ra oladilar. Bu metod o‘quvchining bilimini baholash maqsadida qo‘llaniladigan metoddir.

1-topshiriq. Quyidagi belgilar asosida noma’lum elementni aniqlang.

1-belgi (“5” baho). Zichligi 2,7 g/sm^3 bo‘lgan amfoter element.

2-belgi (“4” baho). Ushbu elementdan tayorlangan tarozi Buyuk Britaniyada davriy jadvalni kashf qilganligi uchun D.I.Mendeleyevga berilgan ekan.

3-belgi (“3” baho). Ushbu elementning 250 xil minerali bor. Uning tartib raqami 13, nisbiy atom massasi esa 27 ni tashkil qiladi.

Topshiriqning javobi aluminiy.

2-topshiriq. Quyidagi belgilar asosida noma’lum elementni aniqlang.

1-belgi (“5” baho). Ishlab chiqarishda, kimyo laboratoriyalarida ko‘p ishlatiladigan anorganik murakkab modda.

2-belgi (“4” baho). Qaynash temperaturasi 56 gradus, Tarkibida 2 ta pi va 6 ta sigma bog‘i bo‘ladi. Uni ishlab chiqarishda pirit moddasidan olish mumkin.

3-belgi (“3” baho). Uning nisbiy molekular massasi 98 ni tashkil qiladi.

3-topshiriq.“Olim Xalkdan savollar”. Ushbu didaktik o‘yin rolli o‘yinlarga mansub bo‘lib, unda “Qahramonlar” filmining bosh qahramoni Xalk bilan o‘quvchilar orasida uchrashuv uyushtiriladi. O‘zining bilim va salohiyati bilan ajralib turadigan olim.

Xalk o‘quvchilarga qator kimyo fani bo‘yicha qiziqarli savollarni beradi:

1. Har kuni iste’mol qilinadigan tovuq tuxumi bola miyasining rivojlanishiga yordam berishi aniqlangan. Tuxumga bunday ijobiy sifatlarni beradigan kimyoviy moddalarni bilasizmi? (mitsetin, xolin, xolesterin).

2. Ma’lumki, kartoshkaning 25%ni kraxmal tashkil qiladi. Unday qanday kimyoviy moddalarni ajratib olish mumkin? (etil spirit, butadiyen, butadiyen kauchugi).

3. Yerda ham, kosmosda ham uchramaydigan elementlar soni nechtaligini bilasizmi? (28 ta).

4. Yer sayyorasida o‘rtacha umr ko‘radigan odam o‘z hayoti davomida qancha suv iste’mol qilishini bilasizmi? (35 t).

“Bilish – tushunish – amaliyotda qo‘llash” ketma-ketligi uzviyligi asosida o‘qitishni tashkil qilish, darslarni qiziqarli tarzda olib borish va motivatsiyani rivojlantirish uchun o‘quvchi yoshi va qiziqishlariga mos tarzda tanlangan didaktik o‘yinlardan foydalanish sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ishlarda o‘z aksini topmoqda. Kimyo fanining ilmiy asoslarini chuqur o‘rgangan va mukammal biladigan avlodni tarbiyalash natijasida kelajakda ko‘plab ekologik, texnologik, oziq-ovqat va ishlab chiqarishning boshqa sohalaridagi qator muammolar o‘z yechimini topishiga olib keladi. Shunday ekan, o‘quv fanlarining integratsiyasiga asoslangan ta’limiy texnologiyalarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish jarayonini yaxshilash natijasida o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kimyo fanini o‘qitish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladigan eng asosiy muammolardan biridir.

Ibodullayeva Go‘zal Jo‘rayevna (TerDU katta o‘qituvchisi)

UNIVERSITETNING TA’LIM JARAYONIDA UMUMIY VAKOLATLARNI SHAKLLANTIRISHGA GENDER YONDASHUVI

Annotatsiya. *Ushbu maqola universitetdagi gender ta’limi tizimining muammolarini aks ettiradi, ularni hal qilish yo‘llari taklif etiladi. Ta’limda ta’lim tizimini o‘rganish yo‘nalishlari yoritib berilgan. Maqolada “universal vakolatlar” tushunchasini aniqlashga mavjud uslubiy yondashuvlar tahlili keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье раскрываются проблемы гендерной образовательной системы и пути её решения, также освещены направления системы обучения в образовании, приводится анализ существующих методических подходов в выявлении понятия «Универсальные полномочия».*

Annotation. *This article reflects the problems of the system of gender education at the university, offers solutions to them. The directions of studying the educational system in education are highlighted. The article presents an analysis of existing methodological approaches to the definition of the concept of “universal competencies”.*

Kalit so‘zlar: *ta’limni modernizatsiya qilish, universal vakolatlar, o‘quv faoliyati, gender yondashuv.*

Ключевые слова: *модернизация образования, универсальные полномочия, учебная деятельность, гендерный подход.*

Keywords: *modernization of education, universal competencies, educational activities, gender approach.*

Ta’lim tizimida shaxsning kasbiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlarini o‘z ichiga olgan murakkab jarayon sifatida gender jihatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Jins va genderning o‘ziga xosligi dunyoni idrok yetishga, xulq-atvorga, kelajakdagi psixolog va o‘qituvchini tayyorlashga bevosita ta’sir qiladi, ular uchun monogender va aralash jamoa bilan o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish katta ahamiyatga ega, shu munosabat bilan ta’lim tizimi zarur.

Metodologik yondashuvlar tahlili. Asosiy uslubiy yondashuvlar shaxsning ijtimoiy-madaniy xususiyati sifatida genderni o‘rganish to‘g‘risidagi qoidalar, gumanitar mutaxassis shaxsiyatining kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini kompleks rivojlantirish.[1] Ta’limda gender yondashuvi jamiyat va ta’lim tizimining ijtimoiy rivojlanishidagi gender manfaatlari va muammolarini hisobga olgan holda, ularni hal qilish yo‘llarini qidiradigan ta’lim modeli sifatida tavsiflanadi.

Universitetning o‘quv ishlarida gender yondashuvi ta’lim muassasasining barcha subyektlari va tuzilmalari tomonidan talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi doirasida, gender identifikatsiyasini hisobga olgan holda, qadriyatlarni, gender xulq-atvor normalarini, e’tiqodlarini shakllantirishga hissa qo‘shadigan maqsadli jarayonni amalga oshirish sifatida qaraladi. Ta’limda gender yondashuvining maqsadi insonning jinsiga qarab potensialini rivojlantirishning an’anaviy, madaniy cheklovlarni yo‘q qilish, o‘quv jarayoni subyektlarining qobiliyatlarini maksimal darajada anglash va ochib berish uchun sharoit yaratishdir. Gender ijtimoiy-madaniy kategoriya sifatida qaralgani uchun gender madaniyati, gender tizimi, gender o‘ziga xosligi haqida ma’lumotga yega bo‘lgan gender – barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. I.V.Brylina, I.A.Berdnikovaning so‘zlariga ko‘ra, ushbu bilim insonning ijtimoiy ongi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ta’minlashga imkon beradi. Bu shaxsning adolatga va faol hayotiy pozitsiyaga umumiy psixologik yo‘naltirilishida ifodalanadi. N.A.Suxorukovaning fikricha, hozirgi vaqtda universitetlarning o‘quv ishlarida gender yondashuvi fragmental ravishda qo‘llaniladi, bu yesa ta’lim makonida gender assimetriyasiga olib keladi, bu esa shaxsning kasbda ijtimoiylashishi va o‘zini-o‘zi anglashiga to‘sqinlik qiladi.

Ta’lim asosiy ijtimoiy institutlardan biri sifatida gender yo‘nalishidagi me’yorlar va qadriyatlar tizimini o‘zgartirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Gender yondashuvining ta’lim tizimiga qo‘shilishi gender tengligiga yerishishga imkon beradi, bu intellektual, qadriyat va xulq-atvor jihatlarining o‘zaro bog‘liqligida gender – vakolatli shaxsni rivojlantirish uchun sharoit yaratishni o‘z ichiga oladi. Bunday holda, tenglik ijtimoiy makonda jinslarning interaktiv o‘zaro ta’siri jarayonida teng munosabat sifatida

[1]Vvedenskiy V.N. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini modellashtirish. “Pedagogika”, 2003, 10-son, 51–55-betlar.

qaraladi. Gender tengligi, shuningdek, o‘z yoki boshqa jins vakillaridan o‘xshash yoki farq qilish, shu bilan birga, boshqalarga teng bo‘lish imkoniyatini nazarda tutadi.[1] Hozirgi vaqtda ta’lim predmetiga nafaqat kasbiy, balki universal vakolatlarni ham olishga, mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradigan bunday pedagogik sharoitlarni yaratish zarurati mavjud. I.V.Brılina, I.A.Berdnikovalarning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonining gender assimetriyasi umuminsoniy kompetensiyalarning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu masalani hal qilishning variantlaridan biri ta’limda gender nuqtayi nazaridan tizimli yondashuvga o‘tish bo‘lishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun modelni ishlab chiqish kerak, uni kiritish orqali talaba bir qator kasbiy ko‘nikmalarga, universal va tashkiliy vakolatlarga ega bo‘ladi.

Zamonaviy ta’limda universitetda shakllanishi kerak bo‘lgan universal vakolatlarni belgilash bo‘yicha tadbirlar faol ravishda amalga oshirilmoqda, ammo hozirda ularni yollash to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Universitetning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, ma’lum universal vakolatlar ajralib turadi.

G.M.Parnikova umumiy kompetensiyalarning uch turini tavsiflaydi:

1) instrumental kompetensiyalar: kognitiv jarayonlar va aqliy operatsiyalarni o‘z ichiga oladi; uslubiy qobiliyatlar, tashqi dunyo naqshlarini tushunish va atrof-muhitni boshqarish, o‘quv strategiyasini yaratish, qaror qabul qilish va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati, kompyuter qobiliyatlari va axborotni boshqarish qobiliyatlari, til qobiliyatlar;

2) shaxslararo o‘zaro ta’sir, hissiyotlarni yetarlicha ifoda etish qobiliyati, tanqidiy fikrlash va aks ettirish qobiliyati bilan bog‘liq kompetensiyalar bilan ifodalanadigan kommunikativ kompetensiyalar; hamkorlik bilan bog‘liq ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoada ishlash qobiliyati, boshqa sohalar mutaxassislari bilan muloqot qilish qobiliyati, o‘zaro munosabatlarni idrok yetish qobiliyati – madaniy farqlar;

3) tizim vakolatlari: tizimni takomillashtirish va yangi tizimlarni loyihalashtirish uchun o‘zgarishlarni rejalashtirish qobiliyati, xususan, bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyati, tadqiqot qobiliyatlari, doimiy o‘rganish qobiliyati, moslashish qobiliyati, yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati, tashabbuskorlik va tadbirkorlik qobiliyatlari, ambitsiya.[2]

Turli xil yondashuvlarni o‘rganish psixologiya fakulteti bitiruvchisini muvaffaqiyatli kasbiy va shaxsiy ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan asosiy universal vakolatlarni aniqlash muammosiga murojaat qilishga imkon beradi. Fakultet turli mutaxassisliklar va ta’lim sohalarida o‘quv dasturlarini amalga oshiradi. Ular o‘z tadqiqotlarida bitiruvchi tomonidan vaqt o‘tishi bilan egallanadigan asosiy ko‘nikma va ko‘nikmalarni ajratib ko‘rsatadilar. Asosiylariga, avvalambor, talabalarning shaxsiy fazilatlari, masalan, kirishimlilik, harakatchanlik, faol hayotiy pozitsiya, natijalarga erishish qobiliyati, mavjudlik, vaqt va bilimlardan, iloji boricha, samarali foydalanish qobiliyati kiradi. Vaqt o‘tishi bilan, olingan ko‘nikmalarga ular ta’lim, tajriba, malakani o‘z ichiga oladi. Mualliflarning ta’kidlashicha, ish beruvchilarning gumanitar fanlar bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarga qo‘yiladigan asosiy talablari bitiruvchi yuqori shaxsiy xususiyatlarga yega bo‘lishi va olingan ko‘nikma, bilim va tajribani muvaffaqiyatli amalga oshirishi kerak.[3]

Shunday qilib, zamonaviy ijtimoiy voqelikning o‘ziga xos xususiyatlari ta’lim maydonida aks yetadigan gender va gender farqlarini tekislashga olib keladi. Umumjahon mezonlar to‘plamida amalga oshiriladigan gender strategiyalari tizimi talabalarning to‘liq bo‘lmagan ijtimoiy moslashuviga olib keladi, bu yaxlit hayot strategiyasini shakllantirmaslikda ifodalanadi. Universitetda gender ta’limi talabalarning gender identifikatsiyasini ta’minlash uchun universitetning ta’lim makoniga gender yondashuvini integratsiyalashni, gender bo‘yicha cheklanmagan subyektning shaxsiy moyilligini shakllantirishni o‘z ichiga oladi, bu o‘qitishda gumanistik konsepsiya g‘oyalarini amalga oshirishga imkon beradi. Ta’lim doirasida gender madaniyati normalarini shakllantirish, gender – rol, xatti-harakatlarini tushunish, jinsni aniqlashni hisobga olgan holda boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlar ko‘nikmalarini egallash uchun motivatsiya tizimini yaratish kerak.

---

[1] Suxorukova N.A. Genderni amalga oshirish texnik universitetning o‘quv amaliyotida yondashuvi. “Fan, madaniyat, ta’lim dunyosi”, 2012, 2-son, 155 – 158-betlar.

[2] Parnikova G.M. Nazariy yondashuvlar bo‘lajak mutaxassislarning umumjahon kompetentsiyalarini shakllantirishga nazariy yondashuvlar boskichli oliy kasbiy ta’limga o‘tish sharoitida. M.K.Ammosov nomidagi Shimoli-Sharqiy Federal universiteti Axborotnomasi. 2008, 5-jild, 2-son, 55 – 60-betlar.

[3] Gilmanov A.Z., Muratov T.K. gumanitar yo‘nalish bitiruvchilari uchun ish beruvchilarning asaosiy talablari. Regionologiya. 2009, 3-son, 153–156-betlar.

Qulboyev Zohid Xo‘jamuradovich (JizPI o‘qituvchisi; qulboyev.zohid@bk.ru)

MEXANIKANING STATIKA BO‘LIMIGA OID MASALALAR YECHISH ORQALI O‘QUVCHILARNI FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORLASH METODIKASI

Annotatsiya. *Fizikaning mexanika qismiga tegishli bo‘lgan statika bo‘limi murakkab bo‘lim hisoblanadi. Ushbu maqolada mexanikaning statika bo‘limiga oid masalalarning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Ayrim murakkab masalalarning yechimi berilgan. Bu turdagi masalalarni yechish orqali o‘quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash metodikasi ko‘rsatib o‘tilgan.*

Аннотация. *Раздел статики, относящийся к механике физики, является комплексным разделом, в статье анализируется специфика задач, относящихся к разделу статики механики, показана методика подготовки учеников к предметной олимпиаде посредством решения трудных задач из этого раздела.*

Annotation. *The section on statics, which belongs to the mechanics of physics, is a complex section. This article analyzes the specifics of the problems related to the statics section of mechanics. Preparation methodology is shown.*

Kalit so‘zlar: *mexanika, fan olimpiadasi, inersiya, masala yechish usullari.*

Ключевые слова: *механика, предметная олимпиада, инерция, методы решения задач.*

Keywords: *mechanics, science olympiad, inertia, problem solving methods.*

Kirish. Fan va texnikaning hozirgi taraqqiyoti tabiiy va texnika sohalarida ko‘proq yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi. Buning uchun fizika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish shu kunning dolzarb muammolaridan biridir. Agar ta’lim dargohida to‘garaklar tashkil qilinsa, o‘quvchilar o‘rtasida fizik bellashuvlar o‘tkazilsa, fanlar bo‘yicha sirtqi olimpiadalarni o‘tkazish yo‘lga qo‘yilsa, o‘quvchilarning fanga qiziqishi oshadi, qobiliyati shakllanadi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi yanada yuksaladi.

Ma’lumki fizika fanini o‘qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning ahamiyati salmoqlidir. Masala yechish jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash orqali ularning tajriba-sinov ko‘nikmalari oshib boradi.[1] Fizikadan masalalar ishlash – o‘quv ishining zaruriy elementlaridan biri. Masala ishlash o‘quvchi va talabalarda fizik hodisalar orasidagi bog‘lanishlarni, qonunlarni chuqur o‘zlashtirishga, ularning mantiqiy fikrlashini hamda izlanuvchanlik qobilyatini yanada rivojlantirishga, maqsadga erishish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Olgan nazariy bilimlardan turli vaziyatlarda foydalanishga va nazariya bilan amaliyot orasida bog‘lanish o‘rnatishga o‘rgatadi. Masalalarning turlari va ishlash yo‘llari, ularning mazmuni va didaktik maqsadi bo‘yicha turlicha bo‘ladi. Ularni quyidagi belgilari bo‘yicha sinflarga ajaratish mumkin:

1. Masalada ma’lumotlarning berilishi bo‘yicha.
2. Masalaning mazmuni bo‘yicha.
3. Masalani ishlash yo‘li bo‘yicha va boshqalar.

O‘quvchilar tomonidan masalalarni yechish ko‘nikmasini o‘zlashtirilishini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Masala shartini tahlil qilish ko‘nikmasini hosil qilish.
2. Umumiy masala yechish amallarining alohida elementlarini bajara olish ko‘nikmasini hosil qilish.
3. Ma’lum mavzu bo‘yicha muayyan masalalarni yechish ko‘nikmasini hosil qilish.
4. Miqdoriy, mantiqiy va eksperimental masalalar yechish algoritmlarini tuza olish ko‘nikmasini hosil qilish.
5. Fizika masalalarini yechish bo‘yicha umumiy algoritmlar tuza olish ko‘nikmasini hosil qilish.

Bunday ko‘nikmalarni o‘quvchi va talabalarda shakllantirish juda murakkab jarayon hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Fizikaning har qanday mavzusini mukammal o‘zlashtirib olish o‘quvchilar uchun birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu muammoning yechimi esa, birinchi navbatda, amaliy mashg‘ulotlarda ko‘rishimiz mumkin. Ayni paytda, mexanika bo‘limi texnika va texnologiyalarning rivojlanishidagi muhim yo‘nalishlardan biri ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu mavzuning o‘qitilishi

[1] A.G.G‘aniyev, A.K.Avliyoqulov, G.A.Almardonov. Fizika. I qism, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik, “O‘qituvchi”, Toshkent, 2005.

ham muhim masala hisoblanadi. Mexanikaga doir masalalar yechishda o‘quvchilar matematika fanlaridan yetarlicha bilimga ega bo‘lishlari talab etiladi. Hozirgi vaqtda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan fizika va uning bo‘limlarida zamonaviy fizikadan masalalar birmuncha kam yechiladi. Shuning uchun buni metodik kamchilikni to‘ldirish uchun darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yoki fizikadan to‘garaklarda hamda o‘quvchilarni fan olimpiadalarga tayyorlashda masalalar tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki bunday masalalar yechish orqali o‘quvchilar fizik qonunlar bilan birgalikda matematika qonunlarini takrorlab olishga sharoit yaratiladi. Buning uchun iqtidorli o‘quvchilarni tanlab olib, yoshiga mos tarzda soddadan murakkab tomon zamonaviy masalalar tanlab yechish usullarini o‘rgatila borilsa, uning bilim saviyasi oshib boradi, albatta, fanga qiziqishi ortishi bilan birga, olimpiadalarda yuqori natijalar ko‘rsatadi. Quyida mexanikaga oid bir nechta masalaning o‘ziga xos yechilish usullarini ko‘rib chiqamiz.

1-masala. Idishning tekis, silliq bo‘lmagan tubida shar turibdi. Idishning tubi gorizontga nisbatan biror burchakka og‘gan. Shar idish tubiga parallel ip bilan muvozanatda ushlab turiladi (1-rasm). Shar muvozanatda qolishi uchun idish tubini qanday eng katta α burchakka og‘dirish mumkin? Ishqalanish koeffitsiyenti μ ga teng.



1-rasm.



2-rasm.

Yechilishi. Sharga ta’sir qiluvchi kuchlar 2-rasmda ko‘rsatilgan. Kuchlarning idish tubiga perpendikular yo‘nalishga proeksiyalari yig‘indisi nolga teng bo‘lishi kerak. Faqat og‘irlik kuchi mg va idish tubining reaksiyasi N bu yo‘nalishda proeksiyaga ega. Shunday qilib, $N = mgcos\alpha$. Binobarin, ishqalanish kuchi

$$F_{is} \leq \mu mgcos\alpha \quad (1)$$

Sharning muvozanati shu tengsizlikning bajarilishiga bog‘liq. Shuning uchun o‘qni shunday tanlaymizki, unga nisbatan kuchlar momentini aniqlaganda, ishqalanish kuchi momenti noldan farqli, taranglik kuchi T ning momenti esa nolga teng bo‘lsin. Bu shartni ip mahkamlangan A nuqta orqali o‘tgan va rasm tekisligiga perpendikular bo‘lgan o‘q qanoatlantiradi. Bu o‘qqa nisbatan ishqalanish kuchining yelkasi $2R$, og‘irlik kuchining yelkasi $l = Rsin \propto$, T va N kuchlarning yelkasi esa nolga teng. Muvozanat paytida kuchlar momentlarining yig‘indisi nolga teng, ya’ni

$$2RF_{ish} - mgRsin\alpha = 0$$

Bundan $F_{ish} = \frac{1}{2}mgsin\alpha$. (1) tengsizlikni hisobga olib, muvozanat vaziyatida $\mu mgcos\alpha \geq \frac{1}{2}mgsin\alpha$ ekanini topamiz. Binobarin, masalan, α burchak $tg \propto = 2\mu$ shartdan aniqlanadi.

2-masala. Radiusi $r < R/2$ bo‘lgan doira qirqib olingan R radiusli bir jinsli diskning og‘irlik markazini aniqlang (3-rasm). Qirqim markazi disk markazidan $\frac{R}{2}$ masofada joylashgan.



3-rasm.



4-rasm.

Yechilishi. Og‘irlik markazini aniqlashda diskning ustiga kattaligi qirqib olingan bo‘lakning massasiga teng manfiy $-m_2$ massaga ega bo‘lgan r radiusli disk qo‘yilgan m_1 massali yaxlit disk deb qarash mumkin. Simmetriya mulohazalaridan og‘irlik markazi (4-rasmdagi C nuqta) disk va qirqim markazlarini tutashtiruvchi OA to‘g‘ri chiziqning davomida yotishi ravshan. Musbat va manfiy massalar og‘irlik kuchlarining C nuqta orqali o‘tgan o‘qqa nisbatan momentlari tengligi izlanayotgan masofa x=OC ni aniqlovchi tenglamani beradi.

$$m_1 gx = m_2 g(x + \frac{R}{2})$$

$m_1 = \pi R^2 \sigma$ va $m_2 = \pi r^2 \sigma$ ni hisobga olsak, yuqoridagi tenglamadan:

$$x = \frac{r^2 R}{2(R^2 - r^2)}$$

ni topamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shu turdagi masalalardan darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanilsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1) o‘quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda foydalanish o‘quvchi va talabalarning fizikaga oid bilimlarini mustahkamlashda;

2) o‘quvchilarning fanga oid ko‘nikmalari hamda malakalarini shakllantirishda;

3) o‘quvchilarning o‘zlari ushbu qiyinchilikdagi masalalarni yecha olishida ham juda katta hissa qo‘shadi.

Aralov Muzaffar Muxammadiyevich (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi)

BO‘LAJAK MUHANDISLARGA KARTOGRAFIK CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA KENGAYTIRILGAN DIDAKTIK BIRLIKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI VA USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimining bo‘lajak muhandislarga kartografik chizmachilik fanini o‘qitishda kengaytirilgan didaktik birliklarning uslubiy xususiyatlari va usullari o‘qitishni takomillashtirishda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati muammolarini fan nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish ba-yon etilgan.*

Аннотация. *В данной статье описаны методические особенности и методы расширенных дидактических единиц в обучении картографическому черчению будущих инженеров системы высшего образования с научной точки зрения особенностей обучения в совершенствовании обучения.*

Annotation. *This paper describes the methodological features and methods of the extended didactic units in teaching cartographic drawing to future engineers of the higher education system from a scientific point of view of the problems of specificity of teaching in improving teaching.*

Kalit so‘zlar: *kartografiya, kartografik chizmachlik, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metodlari, diaktik birliklar, assimilatsiya, yer yuzi, shartli belgilar.*

Ключевые слова: *картография, картографический рисунок, педагогические технологии, методика обучения, диалектические единицы, усвоение, земля, символы.*

Keywords: *cartography, cartographic drawing, pedagogical technologies, teaching methods, dialectical units, assimilation, earth, symbols.*

Bo‘lajak muhandislarga kartografik chizmachilik fanini o‘qitish bo‘yicha tayyorlash mutaxassislikning aniq o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Muhandislik mutaxassisliklarini tayyorlash tizimida yetakchi o‘rinlardan birini “Kartografik chizmachilik” fani egallaydi. Bu kartografik chizmachilik faniga nisbatan keng ko‘rinishga ega. Bo‘lajak muhandisning rivojlanishini ta’minlashi va unga kasbiy faoliyatda qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan aniq bilimlarni berishi kerak.

Bu nafaqat tegishli asosiy tayyorgarlikni ta’minlash, balki kasbiy va pedagogik yukni ham olib kelishni maqsad qiladi (1-rasm). Shu bilan birga, asosiy ta’lim ikkita quyidagi komponentni o‘z ichiga olishi zarur:

♦fanni o‘zlashtirishda turli tasvirlash usullari va ularni nazariy asoslash haqidagi bilimlarni shakllantirish;

♦turli xil muammolarni hal qilish uchun ushbu usullarni qo‘llash qobiliyati. Kartografik chizmachilik fanini o‘rganishning kasbiy yo‘nalishi ushbu ikkala komponentda ham o‘z yechimini topadi.

Bulajak mutaxassislar kelajakda quyidagilar bilishi zarur:

♦kasbiy amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tasvirlash usullarini bilishi;

♦muayyan vaziyatda eng optimal usulni tanlash qobiliyatining shakllanishi;

♦ishlab chiqarish faoliyati davomida bajarilgan chizmadan foydalanish qobiliyati.

Oliy ta’lim muassasalarida kartografik chizmachilik fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati muammolarini fan nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishni talab qiladi (1-ilova), o‘rganilgan usullarni kosmik obyektlar va ularning kombinatsiyalarini tasvirlashda qo‘llash amaliyotda ko‘plab uchraydi.



1-rasm. Mutaxassislarning asosiy tayyorgarligi.

Kartografik chizmachilik fanini o‘rganishni tashkil qilishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan yana bir xususiyat uning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Xususan, tekislikda yer yuzasi tafsilotlarini hamda fazoviy obyektlarning tasvirlarini qurish usullarini ishlab chiqish, ularning ikki o‘lchovli tasviridan foydalangan holda fazoviy figuralar uchun masalalarni grafik hal qilish yo‘llarini ko‘rib chiqish va jismlarning geometrik xususiyatlarini ularning tasvirlaridan o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun kartografik chizmachilik fanini o‘rganish jarayonida talabalar yer yuzasida joylashgan xarakterli obyektlar xususiyatlarini aniqlash, farqlash va ularni taqqoslash zarurati bilan duch keladilar. O‘qitish 2D (ikki o‘lchovli) va 3D (uch o‘lchovli) obyektlar o‘rtasidagi munosabatni aks ettirishi kerak.

Bu, o‘z navbatida, tekislik va fazoviy obyektlarning tasvirlarini birgalikda o‘rganish, tegishli muammolarni hal qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday o‘rganish uchun asos tekis va fazoviy obyektlarning xossalarining oddiy o‘xshashligi bilan ham, kartografik chizmachilik fanidagi maxsus dasturlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan yaratiladi.

Fan tarkibning o‘ziga xosligi uni assimilatsiya qilishning muayyan xususiyatlarini belgilaydi. Bu tasvirlar nazariyasini o‘rgatishda uni to‘liq amalga oshirish uchun ishning o‘ziga xos mazmunini, umumiylikni aniqlashni talab qiladi. Biz ularning mohiyatini va o‘rganish mavzusiga yaxlit nuqtayi nazarni shakllantirishdagi rolini va umumiy vazifani aniqlaymiz hamda u bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun biz har bir materiyalning o‘quv jarayonini o‘zlashtirishga ta’sirini bildiramiz.[1]

Kartografik chizmachilik fanini o‘qitishda o‘quv materialiga kengaytirilgan yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha asosiy funksional yukni tegishli tarkib birliklarini o‘rganishning muvofiqligi va bir vaqtdaligi usuli bajaradi.

Ushbu didaktik birliklarni birlashtirish texnikasi talabalar tomonidan yaxlit bilimga erishish uchun kartografik chizmachilik tarkibining kengaytirilgan birligining o‘zaro bog‘langan elementlarini o‘rganishda konvergensiyaga (fazoviy va vaqtinchalik) qaratilgan bo‘lib, bu idrok qilinadigan, tushuniladigan va o‘zlashtiriladigan muhim aloqalar va munosabatlar sonining ko‘payishiga yordam beradi.

1-ilova

	O‘lcham ishlari bajarish uskunasi	

[1] Умшанов А.В. Укрупненные дидактические единицы как средство повышения учебно-познавательной активности студентов при обучении инженерной графике. Диссертация. 13.00.02. Т., 2007; Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологие обучения. М.,1995, с. 250; Берлиянт А.М. Картоведение. М., “ Аспект Пресс”, 2004, с.720.

	Chizma ustida ishlash uskunasi	
	O‘zgartirish uskunasi	
	Hudud chizmasi	
	Yer yuzasi tafsilotlarini relyflar orqali tasvirlsh	
ArcGIS dasturining Arcmap yordamchi ilovasida kartografik chizma ishlarini bajarish	**Standart menyusi**	
	Tahrir uskunasi	
	Vositalar	

	Fazoviy bog‘lash uskunasi	
	Qatlamlarni nashrga tayyorlasha	
	Arcmap yordamchi ilovasida rastrlar bilan ishlash	
	Qatlam shakli bo‘yicha hududni qirqib olish	

Ushbu texnikani amalga oshirish, kartografik chizmachilik fani mazmunining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq, turli xil tasvirlash usullarini o‘rganishda konvergensiyani, bir darsda geometrik obyektning tasvirini qurish uchun bir nechta algoritmlardan foydalanishni ta’minlaydi. Ya’ni, o‘quv materialidagi uslubiy bog‘lanishlarni tezroq va uzoqroq o‘zlashtirish uchun mazmunning tegishli birliklarini o‘rganish orasidagi umumiy vaqt oralig‘i minimal bo‘lishi kerak. Ma’lumotlarni fazoviy moslashtirish ma’lumotni umumiy ifodalash vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi, bu chiziqli taqdimotga qaraganda osonroq, uni idrok etish va o‘rganilayotgan mavzuning yaxlit ko‘rinishini shakllantirishni ta’minlaydi.[1]

[1]Safarov Y., Prenov Sh., Mo‘minov A. Topografiya va kartografiya, GAT texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma, T., “Sano-standart”, 2018; Aralov M.M., Berdiyev D.F., Abdiaziziov A.A. Uchuvchisiz uchish apparatlarini kartografiya sohasida qo‘llash tamoyillari. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal, 2021, aprel.

Talabalar kartografik chizmachilik qonun-qoidalarini mukammal bilishlari, unda qo‘llaniladigan asbob-uskunalarni, shartli belgilarni tushinishi, ularni ishlata olishi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olishi hamda o‘zlar mustaqil ravishda chiza olishi kerak. Kartografik chizmachilikni asosiy xususiyatlari shundaki, barcha bajariladigan chizmalar “qulda” qalam, pero, reysfedr, akvarel buyoqlari va boshqa asboblar yordamida bajariladi.

Kartografik chizmachilik fanining asosiy maqsadi–talabalarda fanning rivojlanish tarixi, topografik chizmachilikda qo‘yiladigan aniqlik darajasining shartlari chizmachilik asboblarini bilishi, qalam bilan ishlash, topografik shriftlar, shartli belgilarni chizish, akvarel bo‘yoqlarida ishlash, karta va planlarni asl nusxasini yaratish va kompyuter grafikasidan foydalangan holda bilimlarini shakllantirishdan iborat.

Amaliyotda bajariladigan topografo-geodezik va kartografik ishlar vazirlik va turli geodezik tashkilotlar tomonidan bajarilib, o‘ziga xos umumiy xususiyatga egadir.

Kartografik chizmachilik fanidan hozirgi kunda geodeziya, kartografiya va kadastr sohalarida keng miqyosda foydalaniladi. Kartografik chizmachilik fanining ishlab chiqarishdagi o‘rni dolzarb ekanligini hisobga olgan holda, ushbu fanni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan.

Talabalar kartografik chizmachilik fanini o‘zlashtirishlari uchun ta’lim jarayonining zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma va elektron matriallari qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Amaliy mashg‘ulotlarga mos ravishdagi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, kartografik chizmachilik fani nazariyasini o‘qitishda didaktik birliklarni birlashtirish jarayoni an’anaviy ravishda chiziqli ketma-ketlikda ko‘rib chiqiladigan tasvirlarning turli usullarini o‘rganishda konvergensiyani ta’minlaydi. Shu bilan birga, tasvir usullarining vaqtinchalik yaqinlashuvi deganda, qisqa muddatli xotirada mustahkam aloqalarni shakllantirishga yordam beradigan mavzu mazmunining tegishli birliklarini o‘rganishda minimal vaqt oralig‘i usuliga rioya qilish tushuniladi. O‘rganilayotgan materialni tushunish va yodlash uchun asos bo‘lib, bunday aloqalar uzoq muddatli xotiraga o‘tadi.

Ashirova Anorgul Ismoilovna (Axborot xavfsizligi va ta’lim texnologiyalari kafedrasi dotsenti; anorgul76@gmai.com), Allaberganova Muyassar Rimberganovna (TATU Urganch filiali o‘qituvchisi; amuyassar83@gmail.com), Ollaberganova Muyassar Davlatboy qizi (TATU Urganch filiali o‘quvchisi; olloberganovamuyassar@gmail.com), Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o‘g‘li (TATU Urganch filiali o‘quvchisi; ravshanqulovabbos3@gmail.com)

ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINI TAYYORLASHDA INFOGRAFIKANING ROLI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada elektron ta’lim resurslarinin yaratishda infografika, infografikani yaratish dasturlari, infografuka kategoriyalari, infografika yaratish tamoyillari haqida materiallar keltirilgan. Interaktiv infografika va undan pedagogik faoliyatda foydalanish ta’lim samaradorligi oshirish vositasi ekanligi isbotlangan.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрена инфографика, программы для создания инфографики, категории инфографики, принципы создания инфографики при создании электронных образовательных ресурсов. Интерактивная инфографика и ее использование в педагогической деятельности зарекомендовали себя как инструмент повышения эффективности образования.*

Annotation. *This article discusses infographics, programs for creating infographics, categories of infographics, principles for creating infographics when creating electronic educational resources. Interactive infographics and its use in teaching activities have been proven to be a tool to improve the effectiveness of education.*

Kalit so‘zlar: *infografika, tamoyil, kategoriya, interaktiv, pedagogik faoliyat.*

Ключевые слова: *инфографика, принципы, категории, интерактив, педагогическая деятельность.*

Keywords: *infographics, principles, categories, interactive, pedagogical activity.*

Kirish. Hozirgi vaqtda raqamlashtirish va robotlashtirish iqtisodiyot va ta’limning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatib, ta’lim makonini, ta’limning yangi shakllari va vositalarini tashkil etish, nazorat funksiyasini o‘quvchilarning bilim olishida teskari aloqa usuli sifatida o‘zgartirish va baholash jarayonlari uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Elektron resurs tushunchasi elektron qurilmalar yordamida axborotni qayta ishlab chiqarishni talab qiladigan har qanday ma'lumot sifatida belgilanishi mumkin. Elektron resurs konsepsiyasining ushbu ta'rifi bilan qayta ishlab chiqarilgan ma'lumotlarning turi yoki uning mazmuni haqida hech qanday ko'rsatma mavjud emas. Shubhasiz, har qanday ma'lumotni ta'lim uchun mo'ljallanmagan bo'lsa, o'quv jarayonida foydalanish mumkin emas. O'quv maqsadlaridagi ma'lumotlar, qoidaga ko'ra, materialni izchil va tizimli ravishda taqdim etish, ma'lum bir auditoriyaga e'tibor qaratish, oldindan belgilangan natijani olishga e'tibor berish va boshqa bir qator farqlovchi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.[1]

Elektron ta'lim resurslarni (ETR) tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud. ETR uchun, hatto fan, ta'lim yo'nalishlarining universal tasnifini aniqlash deyarli mumkin emas. Birinchi navbatda, turli ETRlar qamrab olgan tematik sohalarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Agar tasniflash nafaqat mavzuni, balki resurs texnologiyasini ham aks ettirishi kerakligini hisobga olsak, muammo umumiy holatda deyarli hal etilmaydi.

To'g'ridan to'g'ri tasniflashga o'tishdan oldin, tasniflash mezonlari uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan ETRni tavsiflovchi asosiy parametrlarni aniqlash kerak. O'quv jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan asosiy parametrlar:

♦elektron nashr (resurs) turi;

♦fan ta'lim yo'nalishi;

♦tavsiya etilgan ta'lim darajasi;

♦o'quv jarayonining tavsiya etilgan shakli;

♦auditoriyaning o'ziga xos xususiyatlari.

ETR yaratishda 55–60% matn ma'lumotlardan, 30–35% multimedia ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. ETR ko'rgazmaliligini yaxshilashda infografikaning roli katta.

Infografika – bu murakkab ma'lumotlarni tez va aniq yetkazishga qaratilgan axborot, ma'lumotlar va bilimlarni taqdim etishning grafik usuli.[2]

Infografika 25 yildan ko'proq vaqt oldin xorijiy ommaviy davriy nashrlar sahifalarida paydo bo'lgan. Axborotning haddan tashqari ko'pligi katta hajmdagi ma'lumotlarni eng qisqa va tezkor taqdim etishga ehtiyoj bor. Bunga zamonaviy insonga paydo bo'layotgan "ekran" madaniyati yordam berdi. Odatda, odamlar, imkon qadar, tezroq ma'lumot olishni xohlashadi va infografika bu ehtiyojning ajoyib yechimidir. Bizning miyamiz vizual ma'lumotni matndan 60 000 marta tezroq qayta ishlaydi.

♦miyaga uzatiladigan axborotning 90% visual (tasvir) yordamida;

♦sensor retseptorlaringizning 70% ko'zingizda;

♦miyangizning 50% vizual axborotni qayta ishlashda ishtirok etadi;

♦40% odamlar vizual effektga e'tibor qaratadi.

Infografikaning axborotni vizualizatsiya qilishning boshqa turlaridan farqi, uning metaforik tabiatidadir, ya'ni bu shunchaki katta hajmdagi ma'lumotlar asosida tuzilgan grafik yoki diagramma emas, balki u bilan bog'liq vizual ma'lumotlar kiritilgan grafikdir. Hayotdan aniq misollar, muhokama mavzulari shular jumlasidandir. Vizualizatsiya jarayoni aqliy tarkibni vizual tasvirga aylantirishdan iborat. Infografika axborotni loyihalash shaklidir[3].

Axborot dizayni – dizaynning bir bo'limi, ergonomikani, funksionallikni, ma'lumotni inson idrok etishining psixologik mezonlarini, axborotni taqdim etishning vizual shakllarining estetikasini va boshqa ba'zi omillarni hisobga olgan holda, turli xil ma'lumotlarni badiiy-texnik loyihalash va taqdim etish amaliyoti.

Axborot dizaynining asosiy maqsadi – aloqaning ravshanligi: xabar nafaqat jo'natuvchi tomonidan to'g'ri yetkazilishi, balki qabul qiluvchi tomonidan ham to'g'ri tushunilishi kerak. Garchi infografikani deyarli har qanday sohada qo'llash mumkin bo'lsa-da, ayrim toifalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Axborot taqdimoti turi bo'yicha:

♦rasmlardagi raqamlar: raqamli ma'lumotlarni yanada qulay qilish imkonini beradi;

---

[1]Кириллова Т.В. Электронный образовательный ресурс как средство реализации методики формирования методических умений у будущих учителей физики. "Современные наукоемкие технологии", 2019, № 10, с. 116 –120.

[2] Т.С.Масылюк. Инфографика как средство визуализации информации. Методические рекомендации, Добрянка, 2017.

[3] Некляев С.Э. Инфографика: принципы визуальной журналистики. Современное журналистское образование: технологии и особенности преподавания. Под ред. Е.Л.Вартановой. М., "Медиа-Мир", 2008, с. 248.

♦kengaytirilgan ro‘yxat: statistik ma’lumotlar, vaqt chizig‘i, shunchaki faktlar to‘plami;

♦jarayon va istiqbol: murakkab jarayonni tasavvur qilish yoki qandaydir istiqbolni taqdim etish uchun xizmat qiladi. Raqamli ma’lumotlar, umuman, bo‘lmasligi mumkin.

Ma’lumotni ko‘rsatish orqali:

♦statik, ko‘pincha, jonlantirilgan elementlarsiz bitta slayd. Infografikaning eng oddiy va keng tarqalgan turi.

Dinamik – jonlantirilgan elementlarga ega infografika. Quyidagilarga bo‘linadi:

♦interaktiv – jonlantirilgan elementlarni o‘z ichiga oladi, foydalanuvchilar (turli darajada) dinamik ma’lumotlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari mumkin. Ushbu turdagi infografika bir interfeysda ko‘proq ma’lumotni tasavvur qilish imkonini beradi;

♦videoinfografika – bu ma’lumotlar, illustratsiyalar va dinamik matnning vizual tasvirlarini birlashtirgan qisqa videoketma-ketlik.

Manba turiga ko‘ra, quyidagilar mavjud:

♦tahliliy infografika – tahliliy materiallar asosida tayyorlangan grafikalar;

♦yangiliklar infografikasi – aniq yangiliklar uchun onlayn tarzda tayyorlangan infografika;

♦qayta qurish infografikasi – voqea haqidagi ma’lumotlarga asoslangan, voqealar dinamikasini xronologik tartibda qayta yaratuvchi infografika.

Infografika ma’lumotlarning vizual tasviridir. Infografika murakkab ma’lumot yoki statistikani tez va samarali tushuntirish kerak bo‘lganda juda foydali. Infografikaning go‘zalligi shundaki, ular murakkab ma’lumotlarni tushunarli va qiziqarli qilishlari mumkin. Biroq infografikani yaratish juda qiyin, chunki siz ko‘p ma’lumot to‘plashingiz va uni yaxshi loyihalashingiz kerak. Infografikani yaratish tamoyillari:

1. Mavzuning dolzarbligi (infografika yaratilayotgan auditoriyaga qaratilgan).

2. Soddalik va ixchamlik (To‘plangan barcha ma’lumotlar tartiblangan bo‘lishi va faqat eng muhimlari qoldirilgan bo‘lishi kerak. Infografikaning asosiy maqsadi muayyan masala yoki muammoni yoritishdan iborat. Axborot va vizual elementlar miqdorini oshirmaslik kerak, juda ham ko‘p tafsilotlar infografikani tushunishni qiyinlashtirishi mumkin).

3. Tasvir va vizualizatsiya (Oddiy ma’lumotlar zerikarli va ba’zan tushunish qiyin. Geometrik shakllar, grafiklar, diagrammalar, piktogrammalar va belgilardan foydalanish uzatilayotgan axborotning tasvirini yaratishga va ma’lumotlarni vizuallashtirishga yordam beradi).

4. Ijodkorlik (Bu infografikani oddiy diagrammadan asosiy farqi. O‘z infografikangizni o‘z fikringizni bildirishingiz mumkin bo‘lgan plakat sifatida taqdim eting. Lekin, shu bilan birga, dizayn mos bo‘lishi va masalaning ochib berilishini aks ettirishi kerak).

5. Ma’lumotlarning to‘g‘riligi va tashkil etilishi (ma’lumotlar to‘g‘ri va tuzilgan, asosiy g‘oya aniq bo‘lishi kerak).

6. Estetik joziba (uyg‘unlik va mutanosiblik).

Infografika yaratish xizmatlari. Infografikani deyarli har qanday muharrirda yaratish mumkin – Ms Office Power Point, Ms Office Word, Paint va boshqalar. Lekin dizayn va infografika tamoyillari bilan tanish bo‘lmagan odamlar uchun bu juda qiyin bo‘lishi mumkin. Internetda har xil turdagi infografikalarni shablonlardan ham, noldan ham yaratish imkonini beruvchi ko‘plab xizmatlar mavjud. Ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqaylik:

♦molbert.ly – tayyor elementlar kutubxonasiga ega intuitiv infografik muharrir. Ularning har biri o‘zingiz uchun moslashtirilishi va tahrirlanishi mumkin.

♦Visual.lv – bir qator infografika yaratish imkonini beruvchi ajoyib vosita. Bu holda infografika deyarli butunlay Twitter yoki Facebook ma’lumotlari kabi ijtimoiy ko‘rsatkichlarga asoslanadi.

♦ Canva.com – bannerlar, tashrif qog‘ozlari, rasmlar va afishalar yaratish uchun eng yaxshi onlayn dizayner. Tayyor rasmni PNG yoki PDF formatida kompyuteringizga saqlash mumkin.

♦ Piktochart – ma’lumotni jozibali vizual hikoyalarga aylantiradi. Foydalanish juda oson.

♦Infogr.am hali ham nisbatan yangi xizmat bo‘lib, hali amalga oshirilayotgan ko‘plab funksiyalarga ega. Bepul interaktiv diagrammalar va infografika yaratish uchun foydali vosita.

♦ Creately professional diagrammalar va dinamik diagrammalar yaratishda yordam beruvchi qulay vositadir. Siz diagramma turlaridan birini tanlashingiz va o‘zingizning diagramma yoki grafikingizni yaratish uchun shunchaki ma’lumotlaringizni qo‘shishingiz mumkin.

♦ Tagxedo. Ushbu xizmat matnni (mashhur so‘zlar, yangiliklar, shiorlar, hatto sevgi e’tiroflari) ajoyib tarzda yaratilgan so‘z bulutlariga aylantiradi. So‘zlar matndagi eslatmalar chastotasiga qarab, hajmi ji-

hatidan farqlanadi. Siz bulutning istalgan shaklini tanlashingiz mumkin – qush, hayvon, yurak, turli xil narsalar, hatto inson yuzi shaklida.

Infografika yaratish texnologiyasi quyidagicha:

1-bosqich – infografika yordamida erishiladigan maqsad va vazifalarni aniqlash (mavzu sohasiga qarab). Shuni hisobga olish kerakki, “grafikada haqiqatda mavjud bo‘lgan narsalarni ko‘rsatish juda oson, mavhum tushunchalarni vizual ko‘rinishga o‘tkazish ancha qiyin va fikr va mulohazalarni bildirish deyarli mumkin emas”.

2-bosqich – ma’lumotlarni bo‘limlarga, qismlarga, paragraflarga ajratish. Har bir bo‘limni alohida rasm yoki grafik bilan taqdim etiladi.

3-qadam – fokusni yarating, ya’ni, infografika quriladigan asosiy vizual metaforani o‘ylab toping. Bu oddiy va hamma uchun ma’lum bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, elektron ta’lim resurslarini yaratishda katta hajmdagi ma’lumotlarni vizual tasvirlash va pedagogik faoliyatda infografikani qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshiradi.

Ataqulova Manzura Nematovna (Navoiy davlat Pedagogika instituti, p.f.f.d. (PhD); manzuraataqulova98@gmail.com)

BIOLOGIYA TA’LIMIDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA “KEYS-STADI TEXNOLOGIYASI”DAN FOYDALANISHNING AVZALLIKLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biologiya ta’limi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi haqida so‘z boradi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается эффективность использования кейс-технологии в развитии исследовательской деятельности студентов в процессе биологического образования.*

Annotation. *This article discusses the effectiveness of using case technology in the development of students' research activities in the process of biological education.*

Kalit so‘z: *biologiya, ilm ilm-fan, tadqiqot, “Keys-stadi”,texnologiya, faoliyat, pedagogika.*

Ключевые слова: *биология, наука, исследование, «Кейс-стади», технология, деятельность, педагогика.*

Keywords: *biology, science, research, “Case study”, technology, activity, pedagogy.*

Respublikamizda ilmiy ijod erkinligi, ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ilm-fan va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, “istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish” ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida biologiyadan olib boriladigan metodik va ilmiy tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlarini tizimli ravishda tahlil etishga yo‘naltirish, yosh olimlar va talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini yuritishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularga o‘qituvchilik faoliyatiga ijodiy yondashuvni tarkib toptirish, kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash imkoniyati ortadi.[1]

Biologiya darslarida obyektlar va jarayonlarning xilma-xilligi tadqiqotchilik faoliyati uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda talabalarning qoldirilgan darslarini qayta topshirishda berilgan mavzu asosida mustaqil tadqiqot olib borish, natijalarni qayd etish, shuningdek, talabalarga keys, muammoli, intellektual-xarita topshiriqlari tuzish, medialaboratoriya bazasida tadqiqot o‘tkazish va natijalarini himoya qilish mumkin.

Talabalarning fan asoslarini egallashga bo‘lgan qiziqishini ortilishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini va atrof-muhitning o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirish ta’lim oluvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qimmat tuyg‘usi, ma’-

[1] Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (biologiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi misolida). Dissertatsiya ishi, M.N.Ataqulova, Samarqand, 2021.

naviyat, ijtimoiy fikrlashni tarkib toptirish maqsadida biologiya fanlarini o‘qitishda ham yangicha yondashilmoqda.

Shu jihatdan, ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlarini o‘qitishda talabalarni tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda turli ta’lim texnologiyalardan foydalanish maqsadga muofiqdir. Umuman, biologik ta’lim jarayonida tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirishda juda ko‘plab interfaol metodlardan foydalaniladi. Masalan,“Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”,“Suhbat” va h.k.[1]

Talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini hamda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda “Keys-stadi” metodi mamlakatimizning oliy ta’lim muassasalari amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanib kelmoqda va bugungi kunda respublika oily ta’lim muassasalarida tobora ommalashib bormoqda. Jumladan, “Keys-stadi” usuli amaliy holatlarni o‘qitish ta’lim berish vaziyati bo‘lib, ta’lim oluvchilar yechilishi lozim bo‘lgan muammoning sabablarini aniqlab maqsadga muvofiqroq yechim topib, ma’lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat. Shu bilan birgalikda, keys qo‘shimcha axborotlarni, jumladan, audio, video va elektron yetkazuvchilar va o‘quv-uslubiy materiallarni ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, Keys natijasida ta’lim oluvchilar quyidagi natijalarga erishadilar:

♦ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonini yaratadilar va jarayonda haqiqiy fikr almashish holatlari namoyon bo‘ladi;

♦muammolarni tahlil qilish, tenglashtirish yo‘llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi.

♦aniq vaziyat ta’lim berishni haqiqiylikka bog‘laydi: keys ta’lim oluvchilarga vaziyatni tashxis qilish, muammolarni aniqlash, qo‘shimcha axborotlarni yig‘ish, farazlarni ifodalash, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish bo‘yicha aniq bosqichlarni loyihalashda amaliy faoliyatlarini modellash tirish imkonini beradi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, aniq vaziyatlarga asoslangan muammoli vaziyatlarni yechimini topish jarayonida amaliy vaziyatlarni tahlil qilish muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi.[2] Ular quyidagilar:

♦tahlil;
♦muammoni fodalash;
♦vaziyat ishtirokchilarini aniqlash;
♦hodisalar ketma-ketligini aniqlash;
♦konseptual jihatlarni aniqlash;
♦xulosalarni ishlab chiqish;
♦taqdimot (namoyish qilish).

Talabalar muammo yechimini topgandan so‘ng, xulosalarini umumlashtirib, talabalar e’tiboriga havola qiladi.

Bundan tashqari, biologiya darslarida talabalarning qoldirilgan darslarini qayta topshirishda berilgan mavzu asosida mustaqil tadqiqot olib borish, natijalarni qayd etish, shuningdek, talabalarga keys, muammoli, intellektual xarita topshiriqlari tuzish, medialaboratoriya bazasida tadqiqot o‘tkazish va natijalarini himoya qilishlari mumkin. Jumladan, Keys-stadi usuli – amaliy holatlarni o‘qitish, ta’lim berish vaziyati bo‘lib, ta’lim oluvchilar yechilishi lozim bo‘lgan muammoning sabablarini aniqlab maqsadga muvofiqroq yechim torib, ma’lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat. Shu bilan birgalikda, Keys qo‘shimcha axborotlarni, jumladan, audio, video va elektron yetkazuvchilar va o‘quv-uslubiy materiallarni ham o‘z ichiga oladi.[3]

Biologiya ta’limi jarayonida talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish maqsadida talabalar quyidagi interfaol metodlardan (keys-stadi metod) foydalanishlari mumkin (1-topshiriq).

---

[1] Tolipova J.O. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish yo‘llari. Pedagogika va psixologiya fanlari sohasidagi ilmiy ishlar tanlovi g‘oliblarining maqolalari to‘plami. Toshkent, 2003.

[2] Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (biologiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi misolida). Dissertatsiya ishi. M.N.Ataqulova, Samarqand, 2021.

[3] Ergasheva G.S. Biologiya ta’limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. P.f.d. diss., O‘zMU, T., 2018.

“Ochofat ninachilar” haqidagi keys. O‘tloq va suv bo‘yidagi qamishzorlarda tez uchib yuradigan chiroyli ninachilarni uchratamiz. Ular butun yoz bo‘yi “sayr” qilib yuradi. Ninachi soatiga 104 km tezlikda harakat qiladi, bu tezlik qanotlarini sekundiga 30 marta qoqishi bilan bog‘liq. Ninachi uchishi jarayonida murakkab harakatlar bajaradi – xuddi lochindek pastga sho‘ng‘iydi, havoda umbaloq oshadi. U barcha hasharotlar ichida eng “ochko‘zi” hisoblanadi. Ninachi 2 soatda 40 ta pashshani, chivinni iste’mol qiladi. U, hatto uchib yurgan vaqtda ham o‘ljasini tutib yeya oladi. Agar ninachini sherga qiyoslasak, sher bir ovqatlanganda bitta sigirni yeyishiga to‘g‘ri keladi. Endi kun bo‘yi uchib yuradigan ninachi qancha pashsha, chivinlarni iste’mol qiladi, buni tasavvur qilsa bo‘ladi. Ninachining bunchalik “Ochofat” bo‘lishiga sabab nima? Siz nima deb o‘ylaysiz?

Keysning topshirig‘i: 1. Manbani o‘qib, savollarga javob toping.

2. Keysning javobi yuzasidan o‘rtog‘ingiz bilan bir to‘xtamga keling va javobni bayon eting.

(O‘qituvchi yechimi).

1. Ninachilar turkumiga mansub.

2. Ninachi 2 soatda 40 ta hasharot iste’mol qilsa, yozgi kun uzunligini hisobga olgan holda, ninachi yozda kunduz kuni 15–16 soat uchib yuradi va bu vaqt davomida 300–320 ta hasharotni yeb bitiradi.

3. Foydali. U zararli hasharotlarni qirib, foyda keltiradi.

4. Yuqoridagi ma’lumotga asoslanadigan bo‘lsak, iste’mol qilgan ozuqasidan hosil bo‘lgan energiya qanotlarini qoqish vazifasini bajaradigan muskullarga sarf bo‘ladi.

(2-topshiriq).

Keys bayoni. II va IV qon guruhili ota-onadan I qon guruhiga ega bo‘lgan farzand tug‘ildi. Otasi bunday holatda turli gumonga borishga haqlimi? Farzandini tug‘ruqxonada almashtirib qo‘yishganmi?

Keys topshirig‘i. Mazkur holatning yechimini izohlab bering.

O‘qituvchining yechimi. Allel genlarning o‘zaro ta’siri (kodominantlik)ga ko‘ra, II va IV qon guruhiga ega bo‘lgan ota-onadan III va IV qon guruhili farzandlar tug‘iladi. Genotip – genlarning mexanik yig‘indisi emasligi inobatga olinadigan bo‘lsa, masalaning mohiyatini to‘liq anglab etish mumkin. Bunda retsessiv epistaz (“Bombey” fenomeni) yuzaga chiqadi. “Bombey” fenomeniga ega bo‘lgan odamlar gomozigota holatda (hh) qonda N-antigeni ishlab chiqilmaydi. N-antigenidan A va V agglutinogenlar shakllanadi. Mazkur vaziyatda ota-onalar N-antigeni bo‘yicha geterozigota bo‘lganliklari sababli oilada I qon guruhiga ega bo‘lgan farzand tug‘ilgan.[1]

(3-topshiriq).

Keys bayoni. Nima uchun suvarakning boshi tanasidan uzib tashlansa ham, bir necha kun (1–2 hafta)gacha yashovchanligini saqlay oladi, shu vaqt davomida suvaraklarda bosh vazivasini qaysi organi bajaradi?

Keys savoli. Suvaraklarning nafas olishi, qon aylanishi va nerv sistemasining tuzilishini ayting.

O‘qituvchining yechimi. Suvaraklarda nafas olish va qon aylanish sistemasi qorin qismida joylashgan, bosh miya vazifasini ham qorin qismida joylashgan ganglioz hujayralar bajaradi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining biologik ta’lim jarayonida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish mazmuni o‘quv-ijodiy tadqiqotchilik topshiriqlari (Keys-stadi) muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida shaxsiy intellektual sifatlarni shakllantirishga, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari (muammoli, loyihalash, intellektual-xarita) asosida o‘qitish talabalarda axborot ta’lim muhitida o‘z-o‘zini ijodiy, kreativ darajada rivojlantiradi. Natijada talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish metodikasining elektron ta’lim resurslari vositasida takomillashtirish imkoni yaratiladi.[2]

Shu tarzqa, talabalalarda mustaqil o‘quv va tadqiqotchilik faoliyati ko‘nikma hamda malakalarini egallashida o‘z faoliyatini tahlil qilish va loyihalash, mustaqil izlanish, kasbiy muammoli vaziyatlarni ijobiy hal etish malakalari ham shakllanib boradi va bu orqali mustaqil o‘quv va tadqiqotchilik faoliyati ko‘nikma hamda malakalarini egallashda o‘zini-o‘zi anglash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi boshqarishga kabi muhim xususiyatlari shakllanadi.

Shunday qilib, muammoli vazifani ishlab chiqishda ta’lim beruvchidan pedagogik mahorat va juda katta mas’uliyat talab etiladi. Shu bilan birgalikda, bunday vazifalar nazariyani, amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu ta’lim oluvchilarda xususiy va fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradi, kelajakda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishdagi malakalarini takomillashtiradi.

---

[1] http://omgpu.ru

[2] Ataqulova M.N. Talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy muammolari//Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendirio‘ ilmiy-metodikaliq jurnali, №4, Nukus, 2019, 38 – 42-betlar.

Sariyev Rabbim Shuhratovich (Toshkent Kimyo-texnalogiyalar inistituti Shahrisabz filiali o‘qituvchisi; sariyev rabbim@inbox.ru),
Kamolov Iftixor Baxtiyorovich (Qarshi davlat universiteti dotsenti; iftixor.kamolov@inbox.ru)

CHIZMACHILIK DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY LOYIHALASH G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *O‘quvchilarda chizmachilik fani yuzasidan ijodiy loyihalash go‘yalarini shakllantirish, bunda chizmachilik fanida o‘tiladigan har bitta mavzu va uning asosida bajariladigan grafik ishlarning nima maqsadda va qayerlarda qo‘llanilishini hamda ushbu chizmalarning texnika va texnalogiyalardagi tutgan o‘rni hamda avzalliklari borasidagi tushunchalarni to‘g‘ri shakllantirib, ularda hosil bo‘lgan grafikaviy bilimlar va tushunchalarning o‘z g‘oyalariga tatbiqini va qilingan g‘oyalarni takomillashtirish yuzasidan ijodiy loyihalashga yo‘naltirish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы развития у учащихся творческих проектных представлений в области рисования, включая каждую тему в область рисования, назначение и место использования основанных на ней графических произведений, а также роль и преимущества этих рисунков в технике и технологии. Формирование и направление графических знаний и концепций, сгенерированных в них, на собственные идеи и творческий замысел для улучшения сделанных идей.*

Annotation. *To develop students’ creative designing ideas in the field of drawing, including each topic in the field of drawing and the purpose and place of use of graphic works based on it, as well as the role and advantages of these drawings in engineering and technology. Formation and channeling of graphic knowledge and concepts generated in them and adopting it to their own ideas and creative intent to improve their ideas.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy loyihalash, ehtiyoj, handasa, tarh, tasavvur, idrok.*

Ключевые слова: *креативный дизайн, потребность, геометрия, история, воображение, восприятие.*

Keywords: *creative design, need, geometry, history, imagination, perception.*

Bugungi kun yoshlari kelajakda jamiyatning asosiy quruvchilari, yaratuvchilari hisoblanadilar. Kelajakni ko‘rish, yaratish uchun, albatta, ularga bilim kerak bo‘ladi. Zero, “bilim ijtimoiy-tarixiy, amaliyotda tekshirilgan, mantiqan tasdiqlangan, voqelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi”, shu voqelikni inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, muhokama va nazariyalar orqali ifodalangan intiqosi, kishilarning tabiat va jamiyat haqida hosil qilgan ma’lumotlarini, voqelikning inson tafakkurida aks etishidir. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan hodisa va voqealar (qoidalar)ga zid kelmasa, bunday ishonch bilim hisoblanadi.

Bilim vositasida voqelikni inson ongida tasavvurlar tarzida ifodalanishi tizimida fazoviy tasavvurlar inson ilmiy dunyoqarashining asosini tashkil etadi. Chunonchi, tabiat va jamiyatdagi har qanday hodisa, narsa yoxud jismning rasmini aniq o‘lchamlarini, qismlarini hamda uning fazoda tutgan o‘rnini fikran qayta tiklashga fazoviy tasavvur deyiladi. Inson o‘z kelajagini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, ma’naviy-madaniy hayotni ma’rifiy-siyosiy yuksalishni davlat tasavvur qiladi, so‘ngra uni haqiqatga aylantirishga harakat qiladi. Shu tariqa, o‘zi ham yuksaladi, jamiyatni ham rivojlantiradi.

Barkamol, komil inson tarbiyasida umumiy o‘rta maktabning o‘quv rejasidan o‘rin olgan filologiya, ijtimoiy, aniq, tabiiy va iqtisodiy, amaliy fanlar muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Amaliy yo‘nalishda chizmachilik fani yosh avlodda tadbirkorlik, ishbilarmonlik, bunyodkorlik, yaratuvchilik fazilatlarini rasmlantiruvchi, rivojlantiruvchi fan hisoblanadi.

Zero, bu fan geometrik obrazlar, xayoliy tasavvurlardan bilish faoliyati to‘g‘risida tushunchalarni bayon etib, yoshlarning tafakkuri, tasavvurlarini rivojlantiradi. Ma’lumki, har qanday yaratuvchilik insondan o‘zining xayoliy tasavvuriga suyangan holda ijodiy yondashishni yo‘lga qo‘ya oladi. Bunday ijodkorlikni rivojlantirishda chizmalarni chizish, ularning ko‘rinishlarini xayoliy tasavvur qilish ulkan ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu to‘g‘risida faqatgina chizmachilik fani ko‘proq ma’lumot berishga qodir.[1]

[1]E.I.Ro‘ziyev, A.O.Ashurboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2010, 86-bet.

Chizmachilik fanining amaliy ahamiyati hamda texnik yo‘nalishini inobatga olib, 1932-yildan boshlab ushbu fan maktabning o‘quv rejasiga kiritilgan. Shunga qadar bu fan mehnat, rasm, matematika va boshqa fanlar mazmuniga kiritilib o‘tilgan. 1932-yilda chizmachilik mustaqil fan sifatida maktab o‘quv rejasiga kiritilgan bo‘lsa-da, uni o‘qitish matematika fani bilan, albatta, aloqada bo‘lishi nazarda tutilgan.

Chizmachilikdan yetuklik attestatiga baho qo‘yishga faqat 1957-yilda ruxsat etilgan. Bular, chizmachilik fanining o‘quv dasturi, adabiyoti hamda uni o‘qitishni takomillashtirishga, albatta, o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. 1953-yildan boshlab foydalanishga tavsiya etilgan chizmachilik o‘quv dasturlarining mazmun va mohiyatini inobatga olib, uning tahlilini to‘rt davrga ajratib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Birinchi davr 1953-yildan boshlangan bo‘lib, u maktab ishini politexnik ta’lim vazifalari asosida qayta tuzish bilan izohlanadi. Shu yillarda tuzilgan dastur 1968-yilgacha amal qilgan.

Ikkinchi davr 1970-yillar sobiq Ittifoqda ta’limning mazmunini qayta tuzishga, ya’ni, maktablarda yangi dastur va darsliklar bo‘yicha ishlash davriga to‘g‘ri keladi.

Uchinchi davr 1980-yildan boshlanib, u mehnat ta’limiga e’tiborni kuchaytirish, o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash maqsadida narsa va hodisalarning modellari, chizmalarini tasvirlovchi o‘quv predmeti sifatida o‘qitilgan.

To‘rtinchi davr 1991-yildan boshlanib, u yangi ijtimoiy sharoitda, Mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ta’lim tizimini va mazmunini yangilash talablari asosida chizmachilik dasturi va darsligini qayta qurish bilan xarakterlidir.

Shu o‘rinda qayd etib o‘tish joizki, 1953–1968-yillarda nashr qilingan darsliklarda keltirilgan amaliy va grafik topshiriqlarning umumiy soni 300 ga yaqin bo‘lib, ularning ko‘pchiligi reproduktiv faoliyat bilan bog‘liq. Chunki o‘sha davrda chizmachilik o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilar tomonidan chizish texnikasini egallashga qaratilgan edi. Keyinchalik, chizmachilikdan nashr etilgan adabiyotlarda tasvirlarni tahlil qilish, almashtirish kabi o‘quvchilarning grafik faoliyatini rivojlantiruvchi ta’lim g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, maktab chizmachilik darsligida sifat o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Yechilishi reproduktiv faoliyat bilan bog‘liq masalalarning soni darslikda birmuncha kamaygan.[1]

Xo‘sh, nimaga asoslanib, bunday deyiladi, nimaga deganda, aynan o‘sha davrda yashagan odamlar butun tirik mavjudodlarga xos bo‘lgan hisni, ya’ni ehtiyojni his qilishadi. Jumladan, qorni och qorinni to‘ydirishga bo‘lgan ehtiyojni, har xil yovoyi hayvonlarni hujumidan saqlanish uchun uyga bo‘lgan ehtiyojni, sovuqdan saqlanish uchun kiyimga bo‘lgan ehtiyojni va h.k. Shunga o‘xshash bir qancha ehtiyojlarga ko‘ra o‘zlariga ehtiyojlarini qondira oladigan narsalarni yaratishlari zamirida ushbu chizmachilik fani vujudga kela boshlagan. Keyingi yillarda o‘qitish tizimiga ko‘pgina yangiliklar kiritildi. Shu munosabat bilan, ilg‘or o‘qituvchi va metodistlarning faoliyatlari chizmachilik o‘qitishning sifati va samaradorligini oshirish yo‘llarini qidirishga qaratilmoqda. Ammo bu faoliyatlar turlicha. Shunga binoan, bu davrda chizmachilik fani bo‘yicha masalalar to‘plamini yaratishga ham ma’lum darajada e’tibor qaratilgan.

Chizmachilik asta-sekinlik bilan o‘z davrlarida turlicha nomlar bilan, handasa, tarh kabi nomlar bilan nomlanib, o‘sha davr talablari va ehtiyojlarini qondirishda va insonlarda paydo bo‘layotgan g‘oyalani ma’lum tartib va normalarga solib turuvchi fan sifatida xizmat qila boshlagan. Har bir davir davomida ushbu fanni o‘sha davrning tafakkuri keng, ilmiy nuqtayi nazari teran bo‘lgan shaxslari o‘zlarining va xalqning turmushini yengillashtirish maqsadida turli shakil va maqsadlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan moslamalar, kashfiyorlar, qurulmalar, uskunalar, uy-ro‘zg‘or buyum va jihozlarini yaratishgan. O‘zlari tomonidan bajarilgan va yaratilgan narsalari keying avlod uchun yetkazish maqsadida chizmalar ko‘rinishida yaratilgan buyum loyiha chizmasini vujudga keltirishgan.[2]

Demak, tarixdan ayonki, chizmachilik fani bu xalqning, insonlarning turmish ehtiyojlarini, ularning yashash sharoitlarini, albatta, jamiyatning rivojini ta’minlash bilan birgalikda, insonlardagi ongning yuksalishida va tafakkur va tasavvur qilish kabi bir qancha psixik jarayonlarning rivojlanishida hamda taraqiyyotni vujudga keltiruvchi fan sifatida e’tirof etiladi. Qaysi rivojlangan mamlakatni olmaylik, uning rivojlanishi, taraqqiy etishi texnika texnologiyalar bilan bog‘liq, shunday ekan, biz bugungi kunda qaysi soha yoki kasb egashi bo‘lishidan qat’iy nazar, bugungi kun o‘quvchilarini chizmachilik fanidan o‘z g‘oya va istaklarini amalga oshirishga qodir bo‘lgan yoshlarni tayyorlashimiz lozim.

---

[1] A.O.Ashirboyev, E.I.Ro‘ziyev, N.E.Tashimov. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. “Nodirabegim”, 2020, 103-bet.

[2] X.Rixsibayeva, M.Xalimov, U.Rixsiboyev, Ch.Shokirova. Muhandislik va kompyuter grafikasi. T., 2021, 65-bet.

Buning uchun esa ta’limimizning asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chizmachilik darsalarida o‘quvchilarda kerakli grafik bilimlarni shakllantirgan holda, ularga erkin ijodiy loyihalash borasidagi tushuncha va g‘oyalarni ham shakllantirishimiz lozim sanaladi.

Maktab chizmachilk darslarida loyihalash bo‘yicha mavzular bor, ammo juda kam soat berilgan, buning asosiy sabablaridan biri maktablarda chizmachilk fan soatlarining kamligida. Biz yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarni fanni shunchaki ulug‘vorlik darajasini ko‘rsatish maqsadida aytmadik, balki aniq bo‘lgan faktlar keltirib o‘tildi, qarang, biz chizmachilk fanini tilda barcha kasblar uchun o‘ta muhm fan deb aytyapmiz-u, amalda uning aksi bo‘lyapti, nimaga biz rivojlangan mamlakatlar qatorida bo‘lishga intilamizu, amalda esa hali ham berilgan chizmani ko‘chirib chizib berish bilan kifoyalanyapmiz. Chizmachilik fanidan beriladigan vazifalar va grafik topshiriqlar qatoriga ijodiy loyihalash bandini kiritgan holda o‘quvchilarning chizmachilik fanidan olgan bilimlarini o‘zlari qiziqan g‘oyalarini ijodiy loyihalashga yo‘naltirishimiz o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni va e’tiborni kuchaytiradi.[1]

Ijodiy loyihalashni har bitta chizmachilik mavzusida yoki topshiriqlarda qo‘llasak, ayni mudao bo‘lardi. Masalan, birgina chizmachilik fanida tutashmalar mavzusi misolida o‘quvchilarga aylana bilan to‘g‘ri chiziqni, ikkita aylanani uchunchi aylana yoyi yordamida ichki va tashqi tutashuvi va hokazolar bo‘yicha kerakli grafikaviy bilimlarni bergan holda, vazifa sifatida esa o‘zlari tasavvuri orqali tutashuv elemenlari qatnashgan yangi loyiha yaratishni vazifa sifatida berish. Boshqa mavzularga ham xuddi shu tarzda vazifalar berish orqali biz o‘quvchini ham tasavvur, tafakkurini, albatta, faolligini oshira olishimiz mumkin. Albatta, bularning barchasi o‘quvchilarga davlat ta’lim standarti (DTS)lar bo‘yicha qilinishi borasidagi bilimlarni chuqur o‘rgatilgan holda amalga oshirish lozim bo‘ladi.[2]

Chizmachilk fani mavzulari doirasida ijodiy loyihalash tushunchalarini o‘quvchilar ongida to‘g‘ri tatbiq eta olinsa, nafaqat chizmachilk fani bo‘yicha o‘quvchilarning bilimini oshirgan, balki ularni ijodkorlikka, psixologik jihatdan aqlan va ma’nan yetuklikka yetaklay olamiz, faqatgina barchasini to‘g‘ri va sidqidildan bajarish lozim.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, fazoviy tasavvur, bu fazoning idrok qilishini, kishining o‘zini o‘rab turgan muhitni chamalashining muqarrar shartlaridan bo‘lib, uning ushbu muhit bilan o‘zaro birgalikdagi harakatida katta rol o‘ynaydi. U obyektiv ravishda mavjud bo‘gan fazoning aksini ifoda etadi va obyektlarning rasmi, hajmi va o‘zaro birgalikda joylashuvining idrok etilishini o‘z ichiga oladi. Narsalarning rasmini, o‘lchamini narsalarga nisbatan holatini tahlil qilish kishining faoliyati jarayonida yuz beradi va fazodagi tahlil deb ataluvchi analitik-sintetik faoliyatining alohida yuksak darajada namoyon bo‘lishdan iborat bo‘ladi.

Mirzayeva Gulmera Maxmanazar qizi
(Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; Mirzayeva2094@mail.ru)

TEXNOLOGIYA TA’LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanining o‘rni va ahamiyati, mashg‘ulotlar jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘ladigan kompetensiyalar, texnologiya va texnologik kompetensiya tushunchalariga ta’rif berilgan hamda shakllantirilishi lozim bo‘ladigan kompetensiyalar ro‘yxati ko‘rsatib berilgan.*

Аннотация*. В данной статье описаны роль и значение предмета народных промыслов и художественного проектирования в подготовке учителей технологии, компетенции которые необходимо сформировать в процессе обучения, перечень компетенций, которые необходимо сформировать и определить в понятиях технологии и технологической компетентности.*

Annotation*. This article describes the role and importance of the subject of folk crafts and artistic design in the training of technology teachers, the competencies that need to be formed in the learning process, the list of competencies that need to be formed and defined in terms of technology and technological competence.*

[1] I.B.Kamolov. Some Stages Associated with Artistic and Creative Activity of Future Jeweler. Eastern European Scientific Journal, 2017.

[2] I.B.Kamolov.Vocational education of jewelry art students: theoretical foundations. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol.2, Issue 1.5, Pedagogical sciences.

Kalit so‘zlar*: texnologiya, metod, vosita, shakl, texnologik kompetensiya, xalq hunarmandchiligi, texnologiya o‘qituvchisi.*

Ключевые слова*: технология, метод, инструмент, форма, технологическая компетентность, народные промыслы, учитель технологии.*

Keywords*: technology, method, tool, form, technological competence, folk crafts, technology teacher.*

Oliy ta’lim muassasalarida texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ixtisoslikka oid kompetensiyalarni shakllantirishda xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanining o‘rni ma’lum ahamiyatga ega. Chunki texnologik ta’lim o‘qituvchisi bo‘lish uchun nafaqat pedagogik-psixologik ma’lumot, g‘oyaviy etuk inson bo‘lish, balki amaliy mashg‘ulotlarni loyihalash, amalga oshirish va nazorat qilish bilan bog‘liq keng qamrovli bilim, ko‘nikma va malakalar talab etiladi. Zero, umumiy o‘rta ta’lim maktabi Texnologiya ta’limining yangi ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari ham shuni taqozo etmoqdi. Texnologiya o‘qituvchisi o‘z faoliyati davomida pedagogik jarayonni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq pedagogik texnologiyalar haqidagi ma’lumotlarga va buyum ishlab chiqarish texnologiyasiga oid bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun, avvalo, ta’limda texnologik yondashuv va texnologik kompetensiyalar nima ekanligini tushunib olishimiz lozim bo‘ladi.

Texnologik yondashuv va texnologiya atamasining ta’lim sohasiga tatbiq etilishi mamlakatimizdagi ijtimoiy voqelik uchun dolzarb hodisa hisoblanadi. Rus pedagogikasida texnologik yondashuv masalalari bilan V.P.Bespalko, V.I.Bogolyubov, T.A.Ilyina, M.V.Klarina, A.Y.Saveliyev, G.K.Selevko, o‘zbek olimlaridan M.Ochilov, N.A.Muslimov, O‘.Q.Tolipov, N.Sayidahmedovning ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rish mumkin. Pedagogik texnologiyaning o‘ziga xosligi shundan iboratki, undagi ta’lim jarayoni belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlashi, shuningdek, natijalarni bashorat qilish va pedagogik jarayonlarni boshqarish uchun yanada aniqroq bo‘lishi kerak. Texnologik vositalar yordamida mustahkam ta’lim natijalariga erishgan o‘qituvchi haqiqiy pedagogik ijodkorlikka, o‘quvchilarning rivojlanishiga ko‘proq e’tibor bera oladi.[1]

Dastlab, “texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan – “texnos” (Techne) – san’at, hunar va “logos” (1ogos) – fan so‘zlaridan tashkil topib, “hunar fani” ma’nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallar (operatsiyalar)ni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi. “Texnologiya” atamasi pedagogika fani tomonidan ishlab chiqarish sohasidan o‘zlashtirilganki, bunda “yuqori asosli psixologiya-pedagogik muhandisligi maydoniga o‘zgaradi”. Texnologiya mohiyati va vazifasi bo‘yicha insonshunosiylik, ham ishlab chiqarish, ham ijtimoiy bor narsalarni mavjud bo‘lishidek qabul qilish kerak”.

Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini o‘qitishda buyum ishlab chiqarish jarayoniga tegishli texnologik kompetensiyalarni shakllantirish zarur. Buning uchun, dastlab, buyum ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq tushunchalarni tahlil qilib chiqamiz.

Ishlab chiqarishda “texnologiya” atamasining mazmun mohiyatini anglatuvchi quyidagi tushunchalar mavjud. Texnologik jarayon – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisi. Texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan yakuniga yetkaziladigan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi. Texnologik xarita–ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarining ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat. Texnologik rejim – texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, sharoitlarini belgilaydi. Umuman, ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli xomashyo materiallariga ishlov berish operatsiyalari yuqori darajali kasb ustalari tomonidan bajarilsagina mahsulot sifati kafolatlanadi.[2]

«Texnologiya» materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandir.

Ta’limni texnologiyalashtirish bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib

[1]Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. В 2 т, М., НИИ школьных технологий, 2006, с. 816.

[2] Шаропова З.Ф. Таълим технологиялари. Т., «Navro‘z», 2019, 340-bet.

beruvchi pedagogik yo‘nalishdir. Ta’lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta ’lim maqsadiga erishishni ta ’minlashdan iborat.

Zamonaviy pedagogika va metodikaga oid adabiyotlarda texnologik kompetensiya tushunchasi qo‘yidagicha talqin etiladi. Texnologik kompetentlik – kasbiy pedagogikni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Texnologik kompetensiya o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, nafaqat bilim, ko‘nikma, me’yor va qadriyatlar tizimi, balki kelajakdagi texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun texnologik vositalarning imkoniyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Loyiha mavzusi bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish, shuningdek, texnologik kompetensiya darajasi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

1. Maqsadga muvofiqlik (yo‘nalish bo‘yicha), shu jumladan, aniqlik va mukammallik.
2. Ijodkorlik (faoliyat mazmuniga ko‘ra).
3. Ishlab chiqarish qobiliyati (pedagogik texnologiya darajasiga ko‘ra).
4. Optimallik (samarali vositalarni tanlash orqali).
5. Hosildorlik (natija bo‘yicha).

“O‘qituvchining texnologik kompetensiyasi” tushunchasining mohiyati va mazmunini aniqlashga yondashuvlar tahlili o‘qituvchining texnologik samaradorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning mahorat darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanining zamonaviy dasturini tahlil qiladigan bo‘lsak, talabalar nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari jarayonida naqsh solish, kompozitsiya tuzish, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik va kulolchilik, zargarlik buyumlariga badiiy ishlov berish, pichoqchilik san’ati, kashtachilik va zardo‘zlik mahsulotlarini ishlab chiqarish, do‘ppichilik va quroqchilik san’ati, o‘zbek miniatura san’ati, gilamchilik, savat to‘qish texnologiyasiga oid kompetensiyalar shakllantirilishi kerak bo‘ladi.

1-jadval

Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash darslarida shakllantirilishi lozim bo‘ladigan texnologiya o‘qituvchisining ixtisosligiga oid texnologik kompetensiyalar

№	Xalq hunarmandchiligining asosiy yo‘nalishlari	Shakllantiriladigan kompetensiyalar	Faoliyat turi
1.	Naqqoshlik san’ati	Naqsh solish texnologiyasi. Naqqoshlikda simmetriya-asimmetriya, ritm, mutanosiblik va oltin kesim qonuni, naqsh turlari. Naqqoshlikda ishlatiladigan o‘lchov asboblari uskunalarni ishlata bilish. Pardoz berish usullari.	Naqsh soluvchi usta
2.	Ganchkorlik hamda kulolchilik san’ati	Ganch o‘ymakorlikda ishlatiladigan mahsulotlar turlarini farqlay olish, materiallari va asbob-uskunalarni ishlata bilish. Naqsh namunalari va kompoziyiza tuzishni bilishi. Pardozlash bosqichlari bilishi.	Canch o‘ymakor usta
3.	Yog‘och o‘ymakorligi san’ati	Yo‘g‘ochga naqsh solish texnologiyasi haqida. Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan asboblari, uskunalar va o‘lchov asboblarini ishlata bilishi. Pardoz berish va uning turlari haqida.	Yog‘och o‘ymakor usta
4.	Kulolchilik san’ati	Kulolchilik mahsulotlari turlari ajrata bilishi, materiallari va asbob-uskunalarni ishlata bilishi. Pardozlash san’ati haqida.	Kulol
5.	Zargarlik san’ati	Zargarlik buyumlari, zargarlikda ishlatiladigan materiallar va asboblar, zargarlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. Pardoz berish usullari.	Zargar
6.	Kandakorlik san’ati	Kandakorlik mahsulotlari turlari va uni tayyorlashda ishlatiladigan hom-ashyo, jihoz va moslamalar. Mis buyumlarining turlari, badiiy bezak turlari. Pardozlash bosqichlari.	Misgar usta

7.	Me'morchilik san'ati	Mahsulot turlari. Xomashyo va materiallar	Arxitektor
8.	Pichoqchilik san'ati	Mahsulot turlari. Xomashyo va materiallar. Pardoz berish usullari.	Pichoqchi usta
9.	Miniatura san'ati	Zamonaviy miniatyura san'ati va uning amaliy bezak. san'atida tutgan o'rni. Xattotlik san'ati haqidqa Pardozlash uslublari.	Devor va har xil idishlarga rasm solish
10.	Kashtachilik san'ati	Qolda va mashinada kashta tikish. Qo'lda kashta tikishda kashtado'zning ish o'rnini tashkil etish. Kerakli jihoz va moslamalar. Kashtado'zlikda qo'llaniladigan choklarni tikish usullari. Kashta tikish uchun tanlangan nusxani asos (gazlama)ga ko'chirish usullari (ko'chirgich qog'ozdan foydalanish, tasvir konturi bo'ylab qaviq tortish, qaviq konturi bo'ylab teshiklar hosil qilish, va u orqali kukun izi tushirish, yorug'-lik nusxa ko'chirish).	Kiyimlarni, har xil mahsulotlarni kashta bilan bezash
11.	Zardo'zlik san'ati	Tikuv buyumlarini zardo'zlik usuli bilan bezash. Zardo'zlik mahsulot turlari. Zardo'zlikda qo'llaniladigan jihoz va moslamalar. Zardo'zlikda ishlatiladigan chok turlari	Kiyimlarni, har xil mahsulotlarni zardo'zlik bilan bezash
12.	Do'ppi tikish tex-nologiyasi	Do'ppi tikishda ishlatiladigan materiallar va bezak element-lar. Do'ppi uchun asos, material shakli tanlash va o'lchov olish. Do'ppini bichib tayyorlash, tikish va bezatish.	Bosh kiyimlarni tikish
13.	Quroqchilik texnikasi	Quroq tikish usullari. Gazlama qoldiqlarini quroq yikishga tayyorlash. Kompozitsiyia tuzish. Taxlama va yassi quroq tikish.	Dasturxon, so'mka, ko'rpachalarni tikuvchi
14.	Gilam va savat to'-qish san'ati	Gilam mahsulotlari turlari va uni tayyorlashda ishlatiladigan xomashyo, jihoz va moslamalar. Gilam to'qish va kigiz bosish san'ati.	Gilam va savat to'quvchi
15.	To'qimachilik va kashtachilik san'ati.	To'qimachilik. Kashtachilik mahsulotlari turlari va uni tayyorlashda ishlati-ladigan jihoz va moslamalar. Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlarning ramziy ma'no-lari, mahsulotlarni bezash yo'llari.	Mato va gilam to'quvchi

Yuqorida biz texnologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirilishiga xizmat qiladigan fanga oid texnologik kompetensiyalar ro'yxatini keltirib o'tdik. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, mashg'ulotlarni an'anaviy tarzda tashkil qilish bilan davlat ta'lim standartlarida belgilangan maqsad va vazifalarni, qolaversa, texnologiya o'qituvchisining fanga oid texnologik kompetensiyalarini shakllantirish ancha qiyinchilik tug'diradi. Bu muammo mashg'ulotlarda pedagogik va axborat texnologiyalarni o'rinli qo'llash bilan hal qilinadi. Mashg'ulotlarda mavzuga mos keladigan interfaol metodlar, innovatsion ta'lim vositalari va ta'limning tashkiliy shakllarini tanlash, darslarni tashkil qilish, o'tkazish va o'zlashtirishni baholashda baholash mezonlarini avvaldan ishlab chiqish, darslarda motivatsion bosqichni, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni, kutilayotgan natijalarni belgilab olish, interfaol metodlarni qo'llash qoidalarini o'zlashtira olish kompetensiyalarini shakllantirish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida texnologiya o'qituvchilarini samarali tayyorlash uchun mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga oid va pedagogik texnologiyalarga oid kompetensiyalarni aniqlab olish, shakllantirish, keyinchalik, takomillashtirish talab etiladi.

Mirzayev Elnur Maxmanazar o‘g‘li (Qarshi davlat universiteti Pedagogika instituti o‘qituvchisi)

NUQTANING CHORAK VA OKTANTLARDAGI PROYEKSIYALARINI YASASHGA O‘RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada chizma geometriya fanidan nuqtaning chorak va oktantlardagi proyeksiyalarini yasashga o‘rgatish chizmalar yordamida bosqichma-bosqich ko‘rsatib berilgan va amaliy ahamiyati bayon qilingan.*

Аннотация. *В статье дается поэтапное руководство по изучению геометрии чертежа для выполнения проекций точки в четвертях и октантах, а также описывается ее практическое значение.*

Annotation. *This article provides a step-by-step guide to studying the geometry of a drawing for performing point projections in quarters and octants, and also describes its practical significance.*

Kalit so‘zlar: *oktant, nuqta, tekislik, chorak, gorizontal, vertikal, parallel, perpindikular, V-frontal, H-gorizontal va W-profil.*

Ключевые слова: *октант, точка, плоскость, четверть, горизонталь, вертикаль, параллель, перпендикуляр, V-фронт, H-горизонт и W-профиль.*

Key words*: octant, point, plane, quarter, horizontal, vertical, parallel, perpendicular, V-front, H-horizon and W-profile.*

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida chizma geometriya fanidan nuqtaning turli oktantlardagi proyeksiyalarini aniqlashni bilish fazoviy tafakkurlari qanchalik kengligini ko‘rsatib, muhandislik kompetensiyalarini shakllantiriadi. Talabalar sakkizta chorakda ham nuqtaning proyeksiyalarini aniqlay olishni bexato bajarishni o‘rgansalar, keyingi mavzular bo‘yicha beriladigan topshiriqlarni aniq va tushunarli o‘zlashtiradilar. Adabiyotlar tahlilidan shu narsa ko‘rinadiki, ko‘pincha, nuqtaning turli oktantlardagi proyeksiyalarini aniqlash to‘rtta yoki ikkita oktantda ko‘rsatilib, qolgan oktantlardagi proyeksiyalarni aniqlash ustida barafsil to‘xtalib o‘tilmaydi.[1] Natijada talabalar tomonidan ushbu mavzu hamma vaqt ham to‘laqonli o‘zlashtirilmaydi. Quyida nuqtaning chorak va oktantlardagi proyeksiyalarini aniqlash ustida batafsil to‘xtalamiz.

O‘zaro perpendikular bo‘lgan uchta proyeksiya tekisligi kesishib, fazoni 8 qismga bo‘lib (1-rasm), oktantlarni hosil qiladi. Okto – lotincha so‘z bo‘lib, «sakkiz» demakdir.[2] Tekislikning kesishuvidan hosil bo‘lgan chiziqlar koordinata o‘qlari deyiladi. Oktantlarda 8 ta chorak bo‘lib, ularning har birida uchta tekislik mavjud, ular V-frontal, H-gorizontal va W-profil proyeksiyalar tekisliklari deb yuritiladi.



1-rasm.

[1] B.B.Qulnazarov. Chizma geometriya. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2006, 144-bet; Ismatullayev R. Chizma geometriya. Toshkent, 2003, 111-bet; Xorunov R. Chizma geometriya kursi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995, 230-bet; Мурадов Ш.К. ва бошқалар, Чизма геометрия. Олий ўқув юртлари учун дарслик, “Иқтисод-молия”, Тошкент, 2008.

[2] B.B.Qulnazarov. Chizma geometriya. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2006, 11-bet.

Tekisliklar o‘zaro kesishishi natijasida hosil bo‘lgan to‘g‘ri chiziqlar proyeksiyalar yoki koordinata o‘qilari deb ataladi va Ox, Oy, Oz harflari bilan belgilanadi. Proyeksiyalar o‘qlarini tashkil qiluvchi Ox – abssissalar o‘qi, Oy – ordinatalar o‘qi, Oz – applikatlar o‘qi deb ataladi. Buni H, V va W proyeksiyalar teskisliklari sistemasi deb yuritiladi. Ushbu uchta tekisliklar o‘zaro kesishgan nuqtasi O koordinatalar boshi hisoblanadi.

Bu sistemada musbat miqdor Ox o‘qiga (1-rasm) koordinatalar boshi O dan chapga, Oy o‘qiga kuzatuvchi tomonga va Oz o‘qi yuqoriga qaratib qo‘yiladi. Bu o‘qlarning qarama-qarshi tomonlari manfiy miqdorlar yo‘nalishi hisoblanadi.



a) rasm.



b) rasm.



c) rasm

2-rasm.

Proyeksiyalar tekisliklarida geometrik shakllarning ortogonal proyeksiyalarini yasashni osonlashtirish uchun, odatda, bu tekisliklarning bir tekislikka jipslashtirilgan tekis tasviridan foydalaniladi. Shu maqsadda H tekislikni Ox o‘qi atrofida pastga 90°ga va W tekislikni Oz o‘qi atrofida o‘ngga 90°ga aylantirib, V tekislikka jipslashtiriladi (2-rasm b). Bunda Ox va Oz proyeksiyalar o‘qlarining vaziyati o‘zgarmay qoladi (2-rasm c). H tekislik V tekislikka jipslashtirilganda Oy o‘qining musbat yo‘nalishi Oz o‘qining manfiy yo‘nalishi bilan, Oy o‘qining manfiy yo‘nalishi esa Oz o‘qining musbat yo‘nalishiga ustma–

ust tushadi. Shuningdek, profil proyeksiyalar tekisligi W frontal proyeksiyalar tekisligi V bilan jipslashtirilganda Oy o‘qining musbat yo‘nalishi Ox o‘qining manfiy yo‘nalishi bilan, uning manfiy yo‘nalishi Ox o‘qining musbat yo‘nalishi bilan ustma-ust joylashadi.

Birinchi oktantda joylashgan nuqtaning chizmasi



3-rasm.

Fazoda I oktantda joylashgan A nuqtaning V, H va W proyeksiyalarini aniqlash uchun, dastlab, ushbu tekisliklarga A nuqtadan har bir tekislikga nisbatan perpendikularlar o‘tkazamiz. O‘tkazilgan perpendikular V tekislikni A'' nuqtada kesib, A nuqtaning frontal proyeksiyalar tekisligidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Aniqlangan A'' nuqtadan Ox o‘qiga perpendikular tushiramiz va Oy o‘qiga nisbatan parallel yurib, A nuqtadan tushirilgan perpendikular bilan kesishgan nuqtani A' deb belgilaymiz, bu A nuqtaning gorizontaldagi o‘rni hisoblanadi. A' nuqtadan Oy o‘qiga va A'' nuqtadan Oz o‘qiga nisbatan perpendikular o‘tkazib, Oz o‘qiga o‘tkazgan perpendikularimizni Oy o‘qiga nisbatan parallel davom ettiramiz, Oy o‘qiga o‘tkazgan perpendikularimizni Oz ga nisbatan parallel yurib, ikkala chiziq kesishgan nuqtani A''' deb belgilaymiz. Shu tarzda fazoda joylashgan A nuqtaning V, H va W proyeksiyalari aniqlanadi (3-rasm).



4-rasm.

Yuqorida keltirilgan chizmada epyurni hosil qilish va nuqtaning proyeksiyalanishi ko‘rsatib o‘tilgan (4-rasm).

Yuqorida berilgan ma’lumotlarga asosan, bir nechta oktantda nuqtaning proyeksiyalarini aniqlashni ko‘rib chiqamiz. Bunda berilgan koordinatalarga asosan, A nuqtaning ixtiyoriy chorakda proyeksiyasini aniqlash uchun, dastlab, A' va A'' nuqtalar joylashgan tekislik, berilgan koordinatalar asosida aniqlanib olinadi. Aniqlangan ikkita nuqta orqali uchinchi A''' nuqtani aniqlash uchun, dastlab, A''' nuqta joylashgan tekislik aniqlanadi va A' nuqtaning masofasi qoyilib, perpendikular ravishda A'' nuqta yotgan chiziqqa olib tushib, ikki chiziq kesishib, hosil qilgan nuqtani A''' deb belgilaymiz (4-rasm).

Nuqtaning III oktantdagi chizmasi



5-rasm.

Nuqtaning VI oktandagi chizmasi



6-rasm.

Nuqtaning VII oktandagi chizmasi



7-rasm.

Nuqtaning VIII oktandagi chizmasi



8-rasm.

Chizma geometriya fanidan nuqtani oktantlarning sakkizta choragida berilgan kordinatalar asosida uchinchi proyeksiyasini aniqlash jarayonini o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yuqorida keltirgan chizmalar va usul (kompyuter grafikasi) yordamida tushuntirish, talabalarning fazoviy tafakkurini yanada rivojlantiradi hamda fanga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni yuqori darajada o‘zlashtirishlariga va kelajakda o‘z muhandislik faoliyatlarida qo‘llashlariga yordam beradi.

Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining o‘qituvchisi; e-mail: nazokatxaitbayeva@bk.ru)

“AKADEMIK YOZUV” FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada e’tibor ta’lim sifatini oshiruvchi samarali metodlarni qo‘llash orqali talabalarni “Akademik yozuv” fanining maqsad va vazifalari bilan tanishtirish masalalariga qaratilgan. Bugungi kunda talabalarning og‘zaki hamda yozma nutqini takomillashtirishda, ularni fanlarga jalb qilishda “Akademik yozuv”fanining o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, ta’lim jarayoni sifatli va mazmunli qilish, talabalarning bilim qobiliyatini o‘stiruvchi asosiy omillar haqida ma’lumot berilgan.*

Аннотация. *Данная статья посвящена ознакомлению учащихся с целями и задачами академического письма посредством использования эффективных методов повышения качества образования. Сегодня роль академического письма неоценима в улучшении устного и письменного общения студентов и вовлечении их в науку. Также, представлена информация об основных факторах, делающих образовательный процесс качественным и содержательным, а также развития познавательных способностей учащихся.*

Annotation. *This article focuses on introducing students to the goals and objectives of Academic Writing through the use of effective methods to improve the quality of education. Today, the role of Academic Writing is invaluable to improve students’ oral and written communication and engage them in science. It also provides information on the main factors that make the educational process qualitative and meaningful, as well as the development of students’ cognitive abilities.*

Kalit so‘zlar: *faoliyat, nutqiy faoliyat, til va nutq, texnika, mexanizm, og‘zaki nutq, yozma nutq, tafakkur, so‘zlovchi va tinglovchi, nutqni anglash.*

Ключевые слова: *деятельность, речевая деятельность, язык и речь, техника, механизм, устная речь, письменная речь, мышление, говорящий и слушающий, понимание речи.*

Keywords: *activity, speech activity, language and speech, technique, mechanism, oral speech, written speech, thinking speaker and listener, speech comprehension.*

Til qonunlarning ta’limga tatbiqi munosabati bilan, talabalarni har bir fanning yetuk mutaxassisi qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. “Akademik yozuv” fani ushbu masalalarni hal qilishda yaqindan yordam beradi. Fanning asosoy maqsadi – talabalarda og‘zaki hamda yozma nutqni rivojlantirish, nutqni to‘g‘ri qo‘llash, ilmiy uslub janrlarini chuqur bilish orqali xatosiz yozish malakasini shakllantirish (ko‘rgazmalilik, tarqatib berilgan topshiriqli qog‘ozlar bilan ishlash yo‘llarini bilish) usullari takomillashtiriladi. Har bir inson yoshligidan fikrlash qobiliyatini, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqini shakllantirib boradi. Bu jarayonda inson o‘z imkoniyatlari doirasida katta va mashaqqatli mehnat qiladi.

Ta’limiy maqsad asosida talabalarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy

maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Yozuv jarayoni, albatta, turli sharoitlarda butunlay boshqa kortikal mexanizmlardan foydalanishi mumkin bo'lgan odatiy harakatli psixofiziologik jarayon hisoblanadi.

Talabalarlarning bilish faoliyatlarining o'ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Yozma nutqni o'zlashtirishning birinchi bosqichida asosiy e'tibor mavzusi va intellektual tahlil bu yozish va o'qishning texnik operatsiyalari; bolada o'qish paytida yozish qobiliyati va "kuzatuvchi" qarash qobiliyatlari rivojlanadi. "Yozishni o'rgangan bola, dastlab, fikrlar bilan emas, balki ularni tashqi ifodalash vositalari, tovushlar, harflar va so'zlarni belgilash usullari bilan ishlaydi. Yozma nutqni o'zlashtirish va amalga oshirishning murakkabligi uning tabiatiga bog'liq: agar og'zaki nutq, asosan, so'zlash-eshitish va so'zlarni harakatlantirish analizatorlari faoliyati bilan amalga oshirilsa, yozma nutq ko'rish-eshitish va harakatlantirish analizatorlari faoliyatidan tarkib topadi. Ijodiy ishlarni (ekspozitsiyalar, insholar) yozishni o'rganish, ayniqsa, dolzarb bo'lib qolmoqda. O'qituvchi o'quvchiga yozma matnni yaratishda "Hayotiy ehtiyoj"ni his qiladigan sharoitlarni yaratishi kerak. Buni, masalan, yozuv janrlarini tanlash orqali amalga oshirish mumkin (masalan, boshlang'ich va o'rta maktablarda siz bolalarni ertak yozishga taklif qilishingiz mumkin). Nutq faolligi talabalarda so'zlarni yozishda, shuningdek, o'qituvchi matnni ovoz chiqarib o'qiyotganda ortadi. Birinchi holda, bu artikulyar apparatlar, yozuv qo'li va miyaning nutq markazlari o'rtasida aloqani o'rnatishga yordam beradi. Bu ulanish uning rivojlanishini dastlabki bosqichlarida ichki nazorat va xatni tuzatish funksiyasini bajaradi. O'qish paytida o'qituvchining orqasida joylashgan matnning takrorlanishi kinestetik boshqaruv ulanishi bilan aloqa mexanizmlarini faollashtiradi va kuchaytiradi, chunki eshitish paytida odamning ichki nutq-motor faoliyati harakatda bo'ladi. Bularning barchasi, bir tamondan, o'qilayotgan matnni yanada muvafaqqiyatli idrok etishga, ikkinchi tomondan, o'quvchining ortopedik saviyasini oshirishga yordam beradi.

Ontogenezda yozma nutqni rivojlantirishning asoslari haqida suhbatni yakunlab, nutqni shakllantirish, nutq faoliyatining turli xil shakllarini o'rgatayotganligini ta'kidlash kerak. Tilni to'liq egallash nafaqat yozuvchi, balki o'quvchi uchun ham ma'ruzachi va tinglovchilarning kommunikativ rollarini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Yozma nutq faoliyati subyekti inson ongida voqelikni bir qismning aqliy aksi ekanligiga asoslanib, yozma nutq faoliyatining asosiy maqsadi fikrlarni shakllantirish, rivojlantirish va axboratni uzatish, saqlash kabi kommunikativ vazifalarni bajarishdir.

Demak, yozma nutqni takomillashtirish, albatta, bola tafakkurining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Aytib o'tilganidek, og'zaki va yozma nutq bevosita jonli muloqot jarayonida yuzaga keladi, tilning tuzilish qoidalari, uning tovush tarkibi bola maktabda til grammatikasi va nutq fonetikasini o'rgana boshlagunga qadar anglanmaganligicha qoladi. Aksincha, yozma nutqning tuzilish usullari boshidanoq anglangan harakatlar tarzida kechadi va asta-sekin ravon kechuvchi malakaga aylanadi, avtomatlashadi. Ma'lumki, yozma nutq o'quvchining avvaldan uni aloqa vositasi sifatida ishlatishi bilan boshlanmaydi. Boshlang'ich savod o'rgatishning birinchi davri o'quvchining hali juda uzoq vaqt o'z diqqatini yozuvning texnik shart-sharoitlari – so'zni tovushlarga ajratish va harflar bilan yozish yo'llarini o'zlashtirishga bag'ishlashga majbur bo'lishi bilan xarakterlanadi. Faqat 1.5–2 yil shunday mashg'ulotlardan so'ng yozuv asta-sekin muloqot vositasiga aylana boshlaydi, yozuv malakasi haqiqiy yozma nutqqa o'ta boshlaydi. Bundan tashqari, yozuvdagi dastlabki mashg'ulotlar og'zaki nutqqa nisbatan munosabatda juda jiddiy o'zgarishni o'z ichiga oladi.[1]

Yozma nutq – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozma nutq o'quvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Bundan tashqari, yozma nutq orqali yozma munosabatlarini kengaytirishlari hamda mustaqil yozish ko'nikmalarini rivojlantirib boradi. Ma'lumki, so'zni yozishda tovushlar izchilligiga amal qilish dastlabki yozuv malakasi rivojlanishida jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Nutqdan tovushlarni yaxshi ajratib oluvchi bola hali yana uzoq vaqt davomida yoziladigan so'zning to-

[1] Левина Р.Е. Нарушения речи и письма у детей. Избранные труды. Ред.сост. Г.В.Чиркина, П.Б.Шошин. М., АРКТИ, 2005, с. 224.

vushlar izchilligini tahlil qilish va saqlab qolishda qiyinchilik sezadi. Shuning uchun ham birinchi sinf o‘quvchilari yozuvida, ko‘pincha, tovushlarni, ba’zan butun bir bo‘g‘inni tushirib qoldirish, harflar o‘rnini almashtirib qo‘yish holatlari uchraydi.[1]

Innovatsiya va texnologik yondashuvlar asosida ta‘lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob‘ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro ta‘sirini inobatga olib, ta‘lim maqsadlarini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirish jarayonlarini hamda o‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o‘quvchilarning kuchiga, o‘zlashtirish xususiyatlariga moslab shakli, hajmini o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasiga daxldor. Yozma nutqni shakllantirishning yana bir usuli “Imlo lug‘ati” bilan ishlashdir. “Imlo lugat‘i” bilan ishlash o‘quvchilarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatishning muhim vositalaridan hisoblanadi.

Nihoyat, o‘rganilayotgan nutqiy faoliyatning qonuniyatlari juda murakkab bo‘lgani uchun turli variantlardagi eksperimentlarni o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Akademik yozuv” fanining maqsad va vazifalarini talaba-yoshlar ongiga singdirishda barcha qoidalarga amal qilish orqali fanni yanada chuqur bilishga o ‘rgatish eng kata vazifalarimizdan biuridir.

O‘qituvchi va talabalar hamkorligida zamonaviy usullarni qo‘llab, darslarning sifatini oshirishga e’tobor berilmoqda. Bugungi kun o‘quvchilariga birgina an’anaviy ma’ruza yoki savol-javob usuli bilan dars o‘tib bo‘lmaydi. Shunday ekan, bugungi kun pedagog-o‘qituvchilari zamon bilan hamnafas bo‘lishi, har bir darsni innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda olib borishi shart. Shunda iqtidorli, bilimdon, zukko talaba-yoshlar soni oshib boradi.

Xudoynazarova Gullola Mirhojiddinovna, Nurmatov Baxromjon Bektemirovich
(Qo‘qon davlat Pedagogika instituti o‘qituvchilari)

JISMONIY TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA XALQ MILLIY AN’ANALARI

Annotatsiya. *Maqolada xalq milliy o‘yinlari ommaviy sog‘lomlashtirish vazifasini bajaradi deb qat’iy ravishda aytish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan. «Navro‘z»da faqatgina xalq milliy o‘yinlarigina emas, balki zamonaviy sport turlari (futbol, akrobatika, boks, qilichbozlik va h.k.), shuningdek, sharqona yakka bellashuv sport turlari ham keng qo‘llaniladi. Ularni tashkil qilish va o‘tkazish uchun maxsus dasturlar (ssenariy) asosida tayyorgarlik ko‘riladi. Sport tashkilotlari, jamoatchi tashkilotlar, uyushmalar rahbarligida yetakchi trenerlar va sportchilar tanlanadi. Ularga maxsus topshiriq va ko‘rsatmalar avvaldan berib borilishi xususida fikrlar yuritilgan.*

Аннотация. *Статья научно обосновывает утверждение о том, что народные игры играют роль в оздоровлении населения. В дни празднования Навруза широко проводятся не только национальные игры, но и современные виды спорта (футбол, акробатика, бокс, фехтование и др.), а также восточная борьба. Для их организации и реализации готовятся специальные программы (сценарии). Под руководством спортивных организаций, общественных организаций, объединений отбираются ведущие тренеры и спортсмены, которые заранее получают соответствующие инструкции по организации и проведению игр.*

Annotation. *The article is scientifically substantiated by the assertion that folk games play a role in improving the health of the population. Navruz is widely used not only for national games, but also for modern sports (football, acrobatics, boxing, fencing, etc.), as well as oriental wrestling. Special programs (scenarios) are being prepared for their organization and implementation. Under the leadership of sports organizations, public organizations, associations, leading coaches and athletes will be selected. They were told that they would be given special assignments and instructions in advance.*

Kalit so‘zlar: *milliy o‘yinlar, uloq, poyga, dorboz, tosh ko‘tarish, bilak kuchini sinash, arqon tortish, to‘qqiz tosh.*

Ключевые слова: *национальные игры, козерог, гонка, дорбоз, подъем камней, тест на запястье, перетягивание каната, девять камней.*

Keywords: *national games, capricorn, race, dorboz, rock climbing, wrist test, tug of war, nine stones.*

Ma’lumki, o‘zbek xalqi boy milliy an’analarga ega. Ana shu an’analardan biri «Navro‘z» bayrami eng qadimgi ajdodlarimizdan qolgan ulug‘ bir meros sifatida ommaviy milliy an’anaga aylangan. O‘zbe-

[1] А.Р.Лурия. Письмо и речь: нейролингвистические исследования. Москва, “Academiya”, 2002, с. 57.

kistonning mustaqilligi sharofati bilan Respublikaning barcha hududlarida, hatto eng chekka qishloqlarida ham «Navro‘z» zo‘r tantana va ko‘p qirrali udumlar bilan o‘tkazilmoqda.

«Navro‘z» viloyat, tuman markazlarida ommaviy sayl sifatida tashkil qilinib, unda barcha tadbirlar qatorida kurash, ko‘pkari (uloq), poyga, dorboz, tosh ko‘tarish, bilak kuchini sinash, arqon tortish, to‘qqiz tosh (qizlar o‘yini), yelka urishtirish kabi milliy o‘yinlari o‘rin olgan. Bu o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, bayram kunlari deyarlik ko‘pchilik ishtirokchilar, hatto oddiy tomoshabinlar ham o‘yinlarda faol ishtirok etadi. Shu sababli xalq milliy o‘yinlari ommaviy sog‘lomlashtirish vazifasini bajaradi deb qat’iy ravishda aytish mumkin. «Navro‘z»da faqatgina xalq milliy o‘yinlarigina emas, balki zamonaviy sport turlari (futbol, akrobatika, boks, qilichbozlik va h.k.), shuningdek, sharqona yakka bellashuv sport turlari ham keng qo‘llaniladi. Ularni tashkil qilish va o‘tkazish uchun maxsus dasturlar (ssenariy) asosida tayyorgarlik ko‘riladi. Sport tashkilotlari, jamoatchi tashkilotlar, uyushmalar rahbarligida yetakchi trenerlar va sportchilar tanlanadi. Ularga maxsus topshiriq va ko‘rsatmalar avvaldan berib boriladi.

«Navro‘z»dagi ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar, sport turlari, ayniqsa, xalq milliy o‘yinlarining tashkil qilinishi, asosan, ommaning hordiq chiqarishi, milliy an’analarni e’zozlashi va qadrlashiga qaratilgan umumiy targ‘ibot desa ham bo‘ladi. Shu sababli jismoniy madaniyat fakultetlarida ta’lim jarayonini tashkil etishda O‘zbekistonda an’anaga aylangan barcha ommaviy bayramlarning mazmuni, uni tashkil qilish yo‘llarini o‘rgatishga alohida o‘rin berilishi zarurdir.

Yuqorida qayd etilganidek, respublika miqyosida va uning hududlarida «Hosil bayrami», «Mehnat bayrami», «Mustaqillik kuni» bayrami va boshqa sanalarga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlar ham mazmun va shakl jihatdan to‘la an’anaga aylanganligining shohidimiz.

«Mustaqillik kuni» bayramida sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo, madaniyat, fan, texnika va boshqa sohalarda erishilgan ulkan natijalar ramziy shakl va dalillar asosida namoyish etiladi.[1] Sho‘x qo‘shiq, raqslar qatorida taniqli sportchilar, trenerlar, o‘qituvchilarning erishgan yutuqlari ham barcha namoyishchilarni xushnud etadi. Ayniqsa, yosh futbolchilar, gimnastikachi, akrobatlar, kurashchilar, chavandozlarning ommaviy sport namoyishlari milliy bayramlarimizning mazmunini boyitadi. Bu esa milliy qadriyatlarimizning naqadar ko‘rkam, ulug‘vor ekanligini isbotidir.

Zamonaviy milliy an’analarimiz qatoridan haqli ravishda o‘rin olgan eng yirik va muhim tadbirlardan biri ilk bahorda futbol mavsumining ochilishiga bag‘ishlab o‘tkazilib kelinayotgan bayramdir.

Respublika hukumatining rahbarligida futbol musobaqalari faqat shaharlar va tuman markazlaridagina emas, balki har bir jamoada, ayniqsa, qishloq maktablarida ham zo‘r tantanaga aylanmoqda. Ana shularni e’tiborga olgan holda, jismoniy madaniyat fakultetlarida talabalarga nazariy bilim va amaliy malakalarni chuqur singdirish kerak bo‘ladi. Bunda quyidagi yo‘nalishlarga e’tiborni jalb etish muhim:

♦Respublika rahbariyati tomonidan jismoniy madaniyatni rivojlantirishga doir chiqarilgan farmonlar, buyruqlar va qarorlarni izchil o‘rgatish.

♦Milliy an’alarning mazmuni va mohiyatini boyitishda xalq milliy o‘yinlari va ommaviy sog‘lomlashtirish, jismoniy madaniyat hamda sportdan foydalanish uslublari hamda amaliy malakalarni berish.

♦Bayramlari va boshqa ommaviy sport tadbirlarida milliy an’analarni tashkil qilish, uning dasturlarini tuzishni o‘rganish.

♦Bahorda futbol mavsumi ochilishi va tennis musobaqalarining ommaviy sog‘lomlashtirishdagi mohiyatlari hamda iqtidorli sportchilarni tanlash, shuningdek, ularning sport mahoratlarini oshirishdagi maqsad va vazifalar bilan tanishtirib borish.

♦O‘quvchi-yoshlarni jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda, darsda, darsdan tashqari faoliyatlarida milliy an’analar, milliy o‘yinlardan foydalanish, ularni tashkil qilish va qo‘llay olishni talabalarga o‘rgatish.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy an’analarida botirlik, pahlavonlik, jasurlik, mardlik kabi fazilatlar yuqori darajada o‘rin olganligi hammaga ma’lum.

Milliy an’analardan foydalanish, asosan, quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

♦jismoniy ta’lim jarayonida tarbiyaviy tadbirlarda xalq o‘yinlaridan foydalanish;

♦murabbiylarning shaxsiy namunasi asosida o‘rganish; mashq qildirish.

O‘yinlardan jismoniy ta’lim jarayonida hamda tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishda foydalaniladi. Bular jumlasiga «tortishmachoq», «oq terakmi ko‘k terak», «kim chaqqon», «chillak», «pir etdi», «asir tushdi», «karnaymi-surnay», «podachilar», «cho‘pon», «suv» o‘yinlari, «otish», «arg‘imchoq», «bekinmachoq»,

[1] Усмонхужаев Т.С. Научно-педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью. Авторефер. дис. док. пед. наук, Т., 1995, с. 38.

«dorga minish» va shu kabi juda ko‘p boshqa o‘yinlar bo‘lib, bular bolalarning yoshi va jismoniy qudratiga qarab o‘ynaladi.

O‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular yil fasllariga qarab o‘zgarib turadi, marosimlarga moslashtiriladi. O‘yin qurollari bolalarning o‘zi tomonidan tayyorlanadi, o‘yinlarning ochiq havoda o‘tkazilishi bolalarning jismoniy chiniqish, ma’lum maqsadga intilish, g‘ayrat shijoat ko‘rsatishga undaydi. Lekin sport o‘yinlari katta iroda hamda uzluksiz mashq qilishni talab etadi. Ayniqsa, harbiy-jismoniy tarbiyada bu metodlar muhim sanaladi. Qadim-qadimdan yoshlar mohir va jasur harbiylar, tajribali keksalardan ot chopish, kamonbozlik, qilichbozlik kabi o‘yinlarni o‘rgangan.

O‘zbekiston sharoitida ot o‘yinlari xilma-xil bo‘lib, bularning ichida eng ko‘p tarqalgani ko‘pkari (uloq) hisoblanadi. Ko‘pkari deganda, asosan, toyponlar (tog‘ ustidagi pasttekislik), keng dala yoki adirlar hamda maxsus tayyorlangan otchoparlarda ko‘pchilik bo‘lib so‘yilgan uloqni (taka, serka, buzoq) otda tortishib o‘ynash, poyga to‘dadan uloqni olib chiqish (solim) kabi harakatlar tushiniladi.

Ot o‘yinlari faqat O‘rta Osiyodagina emas, balki Kavkaz, Arab mamlakatlarida ham qadimdan mavjud bo‘lib kelgan. Ot o‘yinlaridagi epchillik, polvonlik, chidamlilik, merganlik kabi murakkab jismoniy sifatlar, otlarning uchqurligi, chopqirligi, egasiga bo‘lgan mehribonligi haqida o‘nlab dostonlarda madh etilgan. Birgina «Go‘ro‘g‘li» dostonlari turkumiga kirgan «Avazxon», «Rustam», «Ravshan» va shu kabi xalq dostonlarida faqat janglardagi g‘oliblikningina emas, balki poygalar, ot ustida kurashish (ag‘darish), kamondan o‘q otish, qilichbozlik ham tasvirlangan. Surxon vodiysida qadimgi ot poygasi, ot ustida bir-birini tortib, ag‘darish «Alpomish» dostonida ko‘tarinkilik ruhida tasvirlangan. Unda «Boychibor», «Ko‘k kaptar», «Chambil bel» kabi qanotli otlarning dovrug‘i, ucharligi haqida afsonalar yaratilgan.

Qoraqalpoq xalqining «Qirq qiz» dostonida qizlarning yigitlar bilan birgalikda ot ustida qilichbozlik mashqlarini bajarishlari, uzoq masofalarga ot choptirishlari alohida hikoya qilinadi.

Ot o‘yinlari faqat dostonlarda emas, tarixiy asarlarda, ulug‘ allomalarning yozib qoldirgan buyuk asarlarida ham bayon qilinadi. Mahmud Koshg‘ariyning «Devon-u lug‘otit turk», Abdulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari», Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», buyuk sarkarda Amir Temurning «Temur tuzuklari», akademik B.Ahmedovning «Amir Temur» romani, V.Bereznikovning «Buyuk Temur» romani va shunga o‘xshash juda ko‘p asarlarda qilichbozlik, nayza uloqtirish, kamonda o‘q otish, otdan ag‘darish, poyga kabi xalq o‘yinlari otda bajarilgani tasvirlangan. Bularning barchasi ajdodlarimizning milliy an’analaridan namuna va meros sifatida bizgacha yetib kelganligi muhim ahamiyatga egadir.

«Alpomish» dostonida shunday milliy an’analar uchraydi: «Barchin aytadi:

♦Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi, deb men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi, otini o‘zdirgan oladi… Mening to‘rt shartim bor, shul to‘rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xoh Alpomish qilib olsin, xoh qalmoqlarning biri qilib olsin, shul so‘zimni xon to‘ramga aytib bor», deb Qorajonga keskin javob beradi. Bu, albatta, qadimgi ajlodlarimizning urug‘chilik davridagi an’anasi bo‘lgan eng buyuk marosim, desa bo‘ladi. Bunda adolatlilik, o‘z kuchiga ishonish, mehnat sarf qilib, uning samaralarini ko‘rish, qolaversa, insonlar o‘rtasida do‘stlik, hamjihatlik, kamsitilmaslik kabi ma’naviy-axloqiy tamoyillar yotadi.

«Go‘ro‘g‘li» dostoni turkumiga kiruvchi «Avazxon», «Ravshan», «Rustam» va boshqa o‘nlab xalq og‘zaki ijodi durdonalarida ham Markaziy Osiyo xalqlarining turli an’aviy udumlari, urf-otadlari, marosimlari zo‘r ko‘tarinkilik ruhi bilan madh etilgan.

I.F.Bobilevning «Konnoye igri» kitobida tasvirlanishicha, ko‘pkari (qirg‘izlarda «ko‘k pari»), tojiklarda «buzkashi» deyiladi. Qozoqlarda «ko‘k bar» deyiladi, ya’ni «ko‘k bo‘ri» ma’nosini bildiradi. Qadim zamonlarda ko‘chmanchi qozoq va qirg‘izlar bo‘rilarni to holdan toyib, yarim o‘lik bo‘lgunicha otda quvganlar. Bu hol, o‘z-o‘zidan ma’lumki, ko‘pchilikni talab etgan. Qir-adir, to‘siqlardan otni choptirib o‘tish, noma’lum tomonlarni chamalay bilish, ot ustida turli xil murakkab harakatlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari orasida ko‘pkari o‘z mazmuni va qiziqarliligi bilan ommani jalb etadi. Bu, asosan, O‘zbekistonning tog‘ yonbag‘irlari va qishloqlarining katta-katta dalalarida o‘tkaziladigan to‘ylar, turli zamonaviy bayramlar: Navro‘z, Mustaqillik kuni bayramlari va shunga o‘xshash xalq sayllarida ot o‘yini sifatida o‘tkaziladi.

E’tirof etish kerakki, viloyatlarning ko‘pgina tumanlarida sunnat to‘ylari, ba’zi milliy bayramlar ko‘pkarisiz o‘tmaydi. Bunday ko‘pkarilarda sovringa gilam, ho‘kiz, qo‘chqor, ot, biya, televizor, hatto avtomashinalar ham qo‘yiladi. Ya’ni, ko‘pkari va poygada g‘olib chiqqanlarga bu buyumlar mukofot tarikasida beriladi. Bu qadim zamonlardan qolgan urf-odat va udumlar asosida hozirgi davrga moslashtirib olib borilayotgan milliy an’analarning eng kattasi deyish mumkin.

Milliy urf-odatlarimizning yana bir ijobiy xususiyati shundaki, katta to‘ylardan bir-ikki kun avval uzoqdan kelgan otliqlar, to‘y egasi yoki uning qarindosh-urug‘lari, qo‘shnilarinikida mehmon qilinadi. Buni qo‘noq deyiladi. Izzatli mehmonlarni uy egalari mehmon qilishadi. Kechalari bazm paytida ko‘pkari haqida bahslar, qizg‘in suhbatlar o‘tkaziladi. Bunday paytlarda tajribakor chavandozlar, ot egalari, keksalar, otlar, chavandozlar, solimlar haqida hikoya qilishadi. Ba’zan ot o‘yini qoidalari, unga rioya qilish usullari haqida izohlar beriladi. Shuning uchun ham yoshlari bunday tadbirlarga ko‘proq jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Fermerlar, ilg‘or dehqonlarning o‘z xo‘jaliklarida otlarni ko‘paytirish, ulardan foydalanish hamda ko‘pkarilarga tayyorlash kabi fidoyilik ishlari boshlandi. Jizzax, Qashqadaryo viloyatlarida otlarni ko‘paytirish, ularning zotlarini yaxshilashga doir maxsus zavodlar bor, ular xayrli ishlarni amalga oshirmoqdalar. Lekin davlat, xo‘jalik jamoalarida otlarning zotlarini saqlash, parvarishlash, maxsus otboqarlar saqlash, yemish bilan ta’minlash masalalarida ancha faoliyatsizlik mavjud.

Xalqimiz orasida «Chavandoz bo‘lish uchun ot bilan birga turib, birga yurish kerak» degan naql bor. Masalan, sportchilar mamlakatimiz yoki jahon miqiyosidagi musobaqalarda qatnashish va g‘oliblikni qo‘lga kiritish uchun yillab mashg‘ul bo‘ladi. Har kuni 2–3 marotaba 2–3 soatlab mashq qilishadi, ularga har tomonlama imtiyozlar beriladi, madaniy hordiq chiqaradilar. Chavandozlar-chi? Bular ot boqishda ham, o‘zlarini chiniqtirishda ham o‘z bilganlaricha u yer-bu yerda eshitganlariga amal qilganlaricha faoliyat ko‘rsatadilar. Shu sababdan ot o‘yinlarini o‘tkazish, otlarni parvarishlash, chavandozlarni tayyorlash yoki maxsus chavandozlarni tayyorlaydigan yoshlar maktablari yoki maxsus klublarni tashkil qilish zarurdir. Bir qator shaharlarda zamonaviy otchoparlar (ippodrom) qurilgan. Lekin bunday joylarda zamonaviy ot sport mashg‘ulotlari, musobaqalar, shuningdek, qurultoy, hosil bayramiga bag‘ishlangan ot o‘yinlari ahyon-ahyonda o‘tkazilib turiladi.[1]Bu borada Jizzax otchoparida 2002-yildan an’anaviy ravishda viloyat hokimining sovrini uchun o‘tkaziladigan xalqaro ko‘pkari musobaqasi alohida o‘rin tutadi.

Ko‘pgina tumanlarning markazlarida dehqon va jamoa xo‘jaliklarida doimiy ravishda ko‘pkari o‘tkaziladigan tekisliklar, bedapoyalar bor. Tog‘li va tog‘ oldi qishloqlarida esa to‘y egasi uyiga yaqin joylardagi past-baland, g‘adir-budir joylarda ham ko‘pkari o‘tkazishaveradi. Bu hollar ba’zan otning hurkishi, yiqilishi natijasida chavandozlarning jarohatlanishi va ko‘ngilsiz hollar yuz berishiga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi paytlarda esa joylarning kichikligi tufayli tomoshabinlarning ot to‘dalari ichida qolib ketishi, jarohatlanishi hollari ham yuz bermoqda. Bunday hollar bo‘lmasligi uchun maxsus otchoparlarni ajratish va sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir. To‘ylarda, ayniqsa, ko‘pkari paytlarida «Tez yordam» xizmatlarini tashkil qilish muhim.

Ma’lumki, O‘zbekistonda dorboz, polvonlik o‘yinlari (kurash, tosh ko‘tarish, bilak kuch sinash va h.k), turli xil milliy harakatli o‘yinlar, piyoda poyga va shunga o‘xshash qiziqarli o‘yinlar juda ko‘p. Ularni yozib olish, videofilmlarga tushirish, to‘ylar, bayramlar, turli marosimlarda ularni namoyish qilish zarur, chunki o‘yinlarni yoshlar hayotiga singdirib borish milliy an’analarni o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada professor T.S.Usmonxo‘jayev tomonidan olib borilgan ishlar o‘z ahamiyatiga ega. Biroq bu ishlarni yanada kengroq targ‘ib qilish zarur.

Umuman olganda, o‘tkazib kelinayotgan milliy an’analar Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlar tarkibiga kiritildi. Shu asosda «Alpomish o‘yinlari» (Termiz–1998, Farg‘ona–2000, Guliston–2002), «To‘maris o‘yinlari» (Jizzax–1999, Shahrisabz–2001, Namangan–2003), “Boysun bahori” (Terimz–2010…2018) respublika festivallari an’anaga aylandi.

Shernafasova Husniyo Ravshanbekovna (Urganch davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi)

OLIY TA’LIM MUASSASASI O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA INTERNET TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Bugungi kunda ta’lim tizimida ta’limning maqsadi va vazifalarini amalga oshirishga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Buning isbotini esa biz ta’lim sohasida olib borilayotgan yangi islohotlar va o‘zgarishlar orqali ko‘rishimiz mumkin. Mazkur maqolamizda oliy ta’lim muassasalarida o‘qituv-*

[1] Қосимова Г. Халқ ўйинлари ва миллий спорт турлари. “Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг роли”. Республика илмий-амалий анжумани тезислар тўплами. Бухоро, 2002, 127 – 128-бетлар.

chilar pedagogik faoliyatida internet texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati xususida bayon etiladi.

Аннотация. *Сегодня система образования уделяет особое внимание реализации целей и задач образования. Доказательство тому можно увидеть в новых реформах и изменениях в сфере образования. В данной статье рассматривается важность использования интернет-технологий в педагогической работе преподавателей высших учебных заведений.*

Annotation. *Today, special attention is paid to the implementation of the goals and objectives of education in the education system. Proof of this can be seen in the new reforms and changes in education. This article discusses the importance of using Internet technologies in the pedagogical work of teachers in higher education.*

Kalit so‘zlar*: axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompyuterli o‘qitish texnologiyalari, interfaol forma, masofaviy o‘qitish, videokonferensiya, internet texnologiyalari.*

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, инновационные педагогические технологии, компьютерные технологии обучения, интерактивные формы, дистанционное обучение, видеоконференцсвязь, интернет-технологии.*

Keywords: *information and communication technologies, innovative pedagogical technologies, computer-assisted learning technologies, interactive forms, distance learning, video conferencing, Internet technologies.*

Ta’lim jarayoniga ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish talabalar va o‘qituvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim vazifasidir. Shu bois ta’lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning kirib kelishi yangi o‘zgarishlardan foydalanishni taqozo etadi. Ta’lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish zarurdir. Zamonaviy jamiyat axborot uzatish hajmi va tezligi jihatidan chegaralanmagan butun jahon axborot tarmog‘idan faol foydalanishi bilan harakatlanadi. Multimedia va internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi va keng tarqalishi axborot texnologiyalarni muloqot, tarbiya, jahon hamjamiyatiga kirib borish vositasida ishlatish imkonini beradi.[1]

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarida o‘qituvchining internet texnologiyalaridan foydalanishi talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni tez, mukammal o‘zlashtirishlarida, faol qatnashishlarida, samarali va yuqori natijalarni beradi:

♦agar oliy ta’lim muassasalarining dars jarayonlarida internet texnologiyalaridan foydalanilgan holda tashkil qilinib, pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish uchun seminar-treninglar tizimli tashkil qilinsa;

♦ta’lim jarayoni innovatsion texnologiyalardan foydalanishda amaliy faoliyat bilan integratsiyalashgan holda olib borilsa;

♦o‘qituvchilarni dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga jalb qilinsa, oliy ta’lim muassasalari talabalari faoliyatida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishga erishish mumkin.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya vositalaridan, o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Kompyuterli o‘qitish texnologiyalari. Kompyuter texnologiyalari o‘qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan o‘quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, o‘qitishning yangi shakllariga, bir so‘z bilan aytganda, ko‘proq ijodiy ishga o‘tishga imkon beradi.

Kompyuter bizni quyidagilar bilan ta’minlaydi:

–interfaollik;

–multimedia;

–kommunikativlik;

–unumdorlik.

O‘quv jarayonida, bir vaqtning o‘zida, pedagog va kompyuterning ishtiroki ta’lim sifatini ancha oshiradi. Taklif qilingan metodikadan foydalanish dars berish jarayonini faollashtiradi, o‘quvchining o‘qi-

[1] Djurayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. Toshkent, “Sano-Standart” MCHJ, 2010.

tilayotgan fanga qiziqishlarini orttiradi va o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirishga imkon beradi. Kompyuter va pedagog hamkorligi, bir tomondan, turli toifadagi talabalarga o‘quv materialini yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi. Boshqa tomondan, u o‘qituvchi malakasi va tayyorgarlik darajasiga ancha yuqori talablar qo‘yadi.[1]

Videokonferensiya va uni o‘quv jarayonida qo‘llash shunday kompyuter texnologiyasiki, undan foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda eshitadi, ko‘radi va ma’lumotlar bilan almashishadi. Videokonferensiya o‘tkazishda ikkita shartni bajarish muhim: videokonferensiyadan foydalanish uchun zarur bo‘lgan kompyuter (texnik) qurilmalari; videokonferensiyani o‘tkazish talablariga javob beruvchi aloqa amallaridan foydalangan tartibda, muloqotga chiquvchilar bilan bog‘lanish. Masofadan turib videokonferensiya tizimidan foydalangan holda, interaktiv o‘quv darslarini olib borish imkoniyati yaratiladi, ya’ni, interfaol usulda ma’ruzalarni o‘qish, seminar darslarni tashkil etish, savollarga javoblar olish va boshqalar.

Hozirgi kundalik faoliyatimizda multimedia so‘zi juda ko‘p ishlatilmoqda. Ta’limda multimedia texnologiyalarini tatbiq etish uchun, dastlab, “Multimedia nima o‘zi?” degan savolga javob beraylik. Turli kasb mutaxassislari bu atamani turli xil izohlamoqdalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib, multimediaga shunday ta’rif berish mumkin. Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida o‘quv materiallarini tinglovchilarga to‘liq yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishi. Ta’lim sohasida multimedia vositalari yordamida tinglovchilarga bilim berish afzalliklari quyidagilardan iborat:

–ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

–ta’limning turli shakllaridan bir vaqtning o‘zida foydalanish imkoniyatining paydo bo‘lishi;

–boshqa fan sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining yanada oshishi;

–dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘linishi;

–olingan bilimlarni kishi xotirasida uzoq muddat saqlab qolish va uni amaliyotda qo‘llash imkoniyati.

Multimediali o‘quv materiallarini ishlab chiqishda hozir respublika ilmiy metodik markazlarida uni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha tadqiqot ishlari boshlab yuborilgan. Bunga yetakchi mutaxassislar jalb qilingan va ta’lim o‘quv materiallari yo‘nalishlari bo‘yicha yaratilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda ta’lim muassasalari butun jahon resurslari tarmoqlaridan foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o‘zgarmay kelgan holatlarni o‘zgartirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo‘ldi. Endilikda esa ta’lim tizimida ta’lim olishning an’anaviy shakllari o‘rniga masofaviy ta’lim elementlari kirib keldi. Masofaviy ta’lim (MT) – bu o‘qituvchi hamda talaba bir-biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan holda axborot texnologiyalardan foydalanilgan ta’lim turi.

Nima uchun masofaviy ta’lim kerak bo‘lib qoldi? degan savol tug‘ilishi, tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

–ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog‘liqmasligi va boshqalar);

–ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi;

–ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi;

–sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.[2]

Ta’lim tizimida o‘quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi axborot texnologiyalariga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta’lim tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Masofaviy ta’lim (MT) – bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalari internet, elektron pochta, videokonferensiya, audio, videoma’lumotlar va multimedia o‘quv qo‘llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o‘qitish, o‘rgatish usuli. MTda talabadan doimiy faoliyat interaktiv o‘qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini sifat xususiyatlarini oshiradi. Masofali o‘qitishda o‘qituvchi va talaba bir-biridan ancha uzoqda joylashgan holda ishlaydi. Masofaviy o‘qi-

[1] Muslimov N.A., Usmonboyeva M.X,., Sayfurov D.M., Turayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. T., “Sano-standart”, 2015.

[2] http://www.ziyonet.uz.

tish barcha xohlovchilarga o‘zlarining individual xususiyatlariga muvofiq professional darajalarini oshirish imkoniyatini beradi.

Masofaviy o‘qitishning quyidagi afzalliklari ajralib turadi:

♦tinglovchilar sonining oshishi;

♦fan sohalaridagi ilg‘or o‘qituvchilar, olimlarning ma’ruza ishlariga jalb etilishi;

♦turli davlatlardagi tinglovchilar va o‘qituvchilarning birlashuvi;

♦o‘quv jarayonining faol o‘qitish usullari va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda tashkil etilishi;

♦tinglovchilarning bevosita kommunikatsiya yangiliklarini o‘zlashtirishi va boshqalar.

Pedagogika fanlarini o‘qitishda internet texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o‘rganish muhim ilmiy pedagogik muammo bo‘lib, uni o‘rganish natijasida o‘qituvchilar faoliyatini ma’lum darajada ijobiy tomonga yo‘naltirish, o‘qituvchi mehnatini tashkil etishda ma’lum darajada ilmiy bo‘lishi imkoniyati yaratiladi.

Pedagogika fanlarini o‘qitishda internet texnologiyalardan foydalanish zarurdir:

–o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati asosida kasbiy ehtiyojini kuchaytiradi;

–kasbiy faoliyatga chinakam qiziqish namunalarini rivojlantiradi;

–pedagogik mahorat asoslarini egallashda bir maqsad sari intiluvchanlikni shakllantiradi.

Abdurakhmanova Nigora Sultanbayevna
(English Teacher Tashkent state technical university named after I.A.Karimov)

ACTIVITIES TO ENHANCE STUDENTS’ WRITING SKILL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarga yozuvni o‘rgatishda duch keladigan qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Muallif yozish malakalarini o‘rgatish bo‘yicha mashqlarni (aqliy hujum, qisqa rejalash, gaplarni qayta yozish) batafsil tasvirlab beradi. Aqliy hujum usullariga misollar keltirilgan. Maqola EFL va ESL sohasida ishlaydigan o‘ituvchilarni ta’lim muassasalarida yozuvni o‘qitish darslarida xizmat qiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются трудности, с которыми сталкиваются студенты при обучении письму. Автор подробно описывает действия (мозговой штурм, наброски, переписывание предложений) для обучения навыкам письма. Проиллюстрированы примеры методов мозгового штурма. Статья дает рекомендации учителям при обучении письму в EFL и ESL.*

Annotation. *This article discusses the difficulties students encounter while learning to write in English. The author details activities (brainstorming, outlining, rewriting sentences) to teach writing skill. Examples of brainstorming techniques are illustrated. The article serves to support writing teachers in the EFL and ESL with insightful ideas in their writing classes in any education institution.*

Kalit so‘zlar: *yozma nutq, mashqlar, qisqa reja, aqliy hujum.*

Ключевые слова: *письмо, задачи, изложение, мозговой штурм.*

Keywords: *writing, activities, outlining, brainstorming.*

Douglas Magrath in the article (2015) “ELL writing skills: why they matter” talks about tasks which must be realistic. By this, the author explains that tasks should be meaningful, course content related, matches the instructions and materials given during the lessons. This simultaneously has to do with validity and reliability. He points out that writing is a survival skill, meaning that a writer should work non-stop on improving it, for example, asking questions before writing on any topic can be a good strategy. The following questions (Trappe T.&Tullis G. 2005), any writer can ask themselves:

- What is the target audience of the writing?
- What is the style/register of the language (formal, familiar)?
- The purpose and the topic of the writing.
- What is my position on the topic? What I want to teach or argue about?

Magrath (2015) strongly believes that teachers should teach students to develop their writing behavior. Some examples may include: *prewriting, brainstorming, choosing a topic, narrowing a topic, outlining the essay, reading articles* on the essay question, *collecting ideas*, topic vocabulary, linking devices, academic words from articles, multiple drafting, *reviewing* and *revising*, and *rewriting* after tea-

cher feedback and peer editing. these writing behaviors can be encouraged so students will automatically accomplish them whatever writing they are doing.

In my writing classes, students are encouraged to read much on the essay question they choose. The process can be, first, students select an essay question, then find articles with the help of a teacher, while reading, they should collect all necessary materials to write their own essay, like topic vocabulary, examples, details, formal expressions. The reason for asking them to read as much as possible is to show how these materials are used in the authentic text. They will read the article not because the teacher asked them to do it, but they read to learn to write academically.

According to Magrath (2015), writing is a surviving skill, so teachers need to consider feedback sessions. He believes that spoken and written corrective feedback should be applied because research indicates that students improved their writing accuracy with written feedback. If only oral feedback is given, then students only listen to teachers, but they are unlikely to remediate their errors. From my experience, students do not carefully listen to teachers' oral feedback, and even they do not take notes. Therefore, it is recommended to provide them with corrective written feedback.

As many writing teachers state, teaching this skill is not an easy process. It needs careful planning, constructive materials and proper implementation skills. Most importantly, students should not be discouraged from writing. Thus, what to do to help them to overcome difficulties in writing. A "topical-interactive approach" (Magrath, 2015) is just what writing teachers should adopt into their writing classroom. By this approach, a teacher combines two distinct activities: "guided and free composition". What is guided composition – writing while complying with the guidelines, meaning following rules, criteria established by a writing teacher. Free writing – students write as they wish, on the topic they are interested in, do not care about linguistic and grammatic errors, what matters is the meaning and the meaningful content. In this way, we can help students with their creativeness, innovation and thinking skills development. Now let us look at three basic activities to help students enhance their writing.

Activity 1. Brainstorming. In this activity, students think of as many ideas as they can about a particular topic. Image it is raining. When it rains thousands of drops fall over the ground. The same happens with ideas onto your paper. There are three types of brainstorming techniques: free writing, mapping, making a list. The other techniques can be T-chart, a table, etc. When student free write, they do not draw attention on grammar, cohesion, coherence, spelling, punctuation, they just write non-stop. Then, they reread it, make some remediations. Mapping – drawing lines with topics, subtopics, examples, details, which are related to each other. It is like a tree with many branches. Making a list – writing what comes to your mind in the way as if you are listing one after another (see Figure 1)



There are ~~too~~ so many subjects to study at university, it is difficult to choose one for my major. I've always made good grades in math, but I don't like it very much. I don't like ~~physical~~ physics or any science very much. Writing—I've always liked writing. Would journalism be a good course to take? Newspapers have pictures, too, so maybe photography would be good. I'm ~~maybe~~ definitely looking forward to meeting new friends at university. And what about reading? Reading is a part of any course, but literature includes a lot of reading and it probably includes a lot of writing, too.



Figure 1. Screenshots of making a list, free writing and mapping. ***Adopted from College Writing from paragraph to essay, Dorothy E Zemach & Lisa A Rumisek, 2003***

Activity 2. Outlining. Outlining – a list of information, a skeleton, a foundation. Imagine a building which stands still in the center of the city. Ask questions: how does it stand still? What keeps it firm from falling over? What is behind the walls which allows to keep it stand upright? The answer is simple – the foundation. The same thinking applies to an essay, a composition or any kind of writing. For instance, an essay consists of thesis statement – main idea of the whole essay; topic sentences – main ideas of body paragraphs, supporting sentences – examples, details, explanation. These are the most important pieces of information which make up a whole essay. Without them, the essay is not an essay. It is like a building without foundation will fall over. Thus, a writing teacher can show easily how an essay is build with thesis statement, topics sentences, supporting sentences in an outline (see Figure 2).



Don't Support Nuclear Energy!

I. Nuclear power is not a good energy source for the world.

II. Very expensive
- A. Nuclear fuel is expensive
- B. Nuclear power plants are expensive to build and operate
  1. Cost of construction
  2. Cost of training workers
  3. Cost of safety features

III. Nuclear materials are not safe
- A. Nuclear fuels are dangerous
  1. Mining fuels produces radioactive gas
  2. Working with radioactive fuels can harm workers
- B. Nuclear waste products are dangerous
  1. Very radioactive
  2. Difficult to dispose of or store safely

IV. There is a great possibility of accidents
- A. Nuclear power plants can fail
  1. Three Mile Island, U.S.A. (1979)
  2. Tarapur, India (1992)
  3. Darlington, Canada (1992)
- B. Workers can make mistakes
  1. Chernobyl, U.S.S.R. (1986)
  2. Kola, Russia (1991)
  3. Tokaimura, Japan (1999)
- C. Natural disasters can occur
  1. Earthquake: Kozloduy, Bulgaria (1977)
  2. Tornado: Moruroa, the Pacific (1981)

V. Because of the cost and the danger, the world should develop different types of energy to replace nuclear power.

Figure 2. A sample outline. Adopted from ***Adopted from College Writing from paragraph to essay, Dorothy E Zemach & Lisa A Rumisek, 2003***

Activity 3. Rewriting sentences using adverb clauses. For this activity, adverbs of time, reason and concession must be taught. Students need to be able to understand them, use them and distinguish them in a sentence. Some examples of adverbs: although, because, as if, since, when, while, etc. Two simple sentences will be provided and students have to use adverbs to combine sentences. Some changes can be made to create a grammatical correct sentence. For instance:

–He has recently failed an exam. He worked very hard day and night to pass the exam.

Although he work hard day and night to pass the exam, he failed.

–She did not come to classes this week. She was ill.

She could not come to classes this week because she was ill.

These activities can be adapted to the writing classes in all educational levels. We hope that this paper inspires English language teachers to transform their traditional writing classes into more creative and meaningful classroom.

Reference:

1. Magrath D. (2015, July 15). ELL writing skills: Why they matter. http://exclusive. multibriefs. com/content/ell-writing-skills-why-they-matter/education

2. Zemach E.D.&Rumisek A.L. (2003). College Writing from paragraph to essay. Macmillan ELT.

3. Trappe T.&Tullis G. (2005). Intelligent Business Style guide. Pearson Longman.

Anvarov Alisher Abdulatifovich (Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi; alisher1972hoji@gmail.com)

KRIPTOGRAFIYADA AXBOROT MADANIYATINING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada qadim zamonlardan beri inson ongini tashvishga solayotgan axborotni himoya qilish muammosi tahlil qilinib, unda ruxsat etilmagan shaxs tomonidan tahdidi ko‘zda tutilgan. Kriptografiya tarixi inson tilining tarixi bilan bir xil.*

Аннотация*. В статье проанализирована проблема защиты информации путем ее преобразования, исключающего ее прочтение посторонним лицом. Данная проблема волновала человеческий ум с давних времен. История криптографии ровесница истории человеческого языка.*

Annotation*. The article analyzes the problem of protecting information by transforming it, excluding its reading by an outsider, which has made the human mind worry for a long time. The History of cryptography is the same age as the history of human language.*

Kalit so‘zlar: *axborot madaniyati*, *kriptografiya*, *axborot, Sharq allomalari.*

Ключевые слова: *информационная культура*, *криптография*, *информация, ученые Востока.*

Keywords: *information culture*, *cryptography*, *information, Eastern scholars.*

Axborot madaniyati – jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyoj mahsuli, ijtimoiy hayotning eng muhim jabhalaridan biri. Madaniyatsiz jamiyat bo‘lmaganidek, axborot madaniyati ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘lmaydi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida axborot madaniyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u insoniyatning bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi va doimiy boyitib boradi.

Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisligi, qadriyatlarini to‘plash va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarni ifodalaydi. Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida madaniyatning jamiyatda tutgan o‘rni, jamiyatning mazmuni va tahlil qilinayotgan ijtimoiy borliqning xususiyatlarga bog‘liqdir. Ijtimoiy jarayon, kishilarning xatti-harakati, ya’ni, sotsial faoliyati madaniy ideallarni, qadriyatlarni, normalarning qator toptirilishi yoki barham berilishida vosita vazifasini, shuningdek, kishilarning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining shaxslararo va guruhlararo aloqalari shakli vazifasini ham bajaradi.

Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib, boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta’siri mukammallashib, nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, antik jamiyat allaqachon o‘tmish, tarixga aylangan bo‘lishiga qaramasdan, o‘sha davrdagi axborot madaniyati hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Masalan, salomlashish, munosabat bildirish kabilar. Uning insoniyat va jamiyat taraqqiyotiga saboq beradigan jihatlari beqiyosdir. Shu tufayli ham biz bu davr madaniyatini mukammalroq bilishga intilamiz.

Demak, madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat uslubi sifatida qaralsa-da, ayni paytda, har bir jamiyatni u yoki bu konkret madaniyatning shakllanish manbayi tarzida e’tirof etish mumkin. Ijtimoiy taraqqiyot faoliyat va madaniyatning o‘zaro munosabatlarida o‘zgarishlarga olib keladi. Jamiyatda axborot faoliyati mustaqil sohani tashkil etgan bo‘lsa, «axborot asri inqilobi» sharoitida yangi texnologiyalar yara-

tish alohida turdagi faoliyat sifatida shakllandi, axborot qimmatbaho tovarga aylandi, axborot madaniyati faoliyatidagi bilimlar tizimidagi murakkab o‘zgarishlar qaror topgan muhim g‘oyalar va qadriyatlarga ta’-sir etdi.

Ma’naviy madaniyat axborot zaxiralari to‘planishi natijasida sivilizatsiya taraqqiyotida tashkilotchi va harakatga keltiruvchi faktorga aylandi. Buning natijasida faoliyat va madaniyatning o‘zaro munosabatlarida o‘zgarishlar boshlandi. Agarda, dastlab, madaniyat faoliyatning mazmuniga to‘liq bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, sivilizatsiya jarayonlari ta’sirida faoliyatning ko‘proq madaniyat ishtirokida shakllanishi kuzatilmoqda.

Kriptografiya – tilsimlar haqidagi fan bo‘lib, uzoq vaqt davomida maxfiy hisoblangan. Bu yaqin davrlargacha kriptografiya faqat davlat ahamiyatidagi va harbiy sirlarni himoya qilish uchun qo‘llanilgani bilan bog‘liq. Hozirgi paytda esa kriptografik usul va vositalar nafaqat davlat, balki oddiy shaxs va tashkilotlarning axborot xavfsizligini hamda axborot madaniyatini ta’minlashga ham xizmat qilmoqda. Gap faqat axborotning maxfiyligida emas. Hozirda turli xil mazmundagi ma’lumotlar raqam holida dunyoni “kezib” yuribdi. Ushbu ma’lumotlar bilan g‘arazli maqsadda tanishib chiqish, yig‘ish, almashtirish, qalbakilashtirish va h.k. xavflar mavjud. Xavflardan himoyalanishning eng mustahkam usullarini esa kriptografiya taklif etadi.

Tilsimlash ochiq ko‘rinishdagi ma’lumotga tilsimni qo‘llab, ushbu tilsimdagi qoidalarga asoslangan holda, ma’lumotni shakl almashtirish jarayonidir. Deshifrlash (tilsimni ochish) tilsimlashga teskari, ya’ni, tilsimlangan ma’lumotning asl ko‘rinishini hosil qilish jarayoni. Kriptografiya bevosita tilsimlash bilan shug‘ullansa, tilsimni ochish yana bir fan tarmog‘i kriptoanaliz masalasidir. Kriptografiya va kriptoanaliz birgalikda kriptologiya deb nomlanuvchi fanni tashkil etib, axborot madaniyatiga rioya etgan holda haqiqiy kuchli va mustahkam axborot himoyasini hosil qiladi.

Kriptografiyaning tug‘ilishi qator fanlar: axborot madaniyati, lingvistika, statistika va matematika taraqqiyotini taqozo etadi. Abbosiylar davrida Bag‘dodda Ma’mun tomonidan tashkil qilingan Bayt ul-Hikmat kriptografiya sohasiga doyalik qildi. Chunki o‘sha davrda yunon olimlarining asarlari arab tiliga tarjima qilinar, matematika sohasida esa Al-Xorazmiy, Beruniy kabi olimlar misli ko‘rilmagan natijalarga erishgan edilar. Axborot madaniyatidek yuksak tushunchaga qat’iy rioya etganlar. Aniq falardagi murakkab asarlarga sharhlar bitilgan ham, har bir olimning og‘zakimi, yozma manbasi bo‘ladimi barchasiga o‘ta axboriy madaniyat bilan yondashishgan.

Juda ko‘p sohalarda asarlar qoldirgan Bayt ul-hikmatda ishlagan mashhur olim Al-Kindiy (801 – 873) kriptoanalizga IX asrda asos soladi. Uning tilsim ochish usullari haqida yozgan kitobi ham tarixda tilsimshunoslik haqidagi ilk asar sanaladi. Al-Kindiy “Tilsimlangan xabarni ochish haqida risola”sida tilsimli matnni o‘qish borasida keltirib o‘tgan eng sodda usullardan birini quyidagicha tushuntiradi: “Agar axborot madaniyatiga rioya etgan holda tilsimlangan matn tilini bilsak, o‘sha tilda yozilgan boshqa tilsimlanmagan matndagi harflarni eng ko‘p ishlatilish tartibiga ko‘ra tasniflaymiz. Xuddi shu ishni tilsimlangan matn uchun ham bajaramiz. Endi ularning o‘rnini almashtirish kifoya”.

Tilsimlarning harbiy sohada ishlatilishi to‘g‘risidagi dastlabki tarixiy ma’lumotlar spartalik harbiy qo‘mondon Lisandr nomi bilan bog‘liq. Yuliy Sezar o‘zining xatlarida tarixga “Sezar tilsimi” nomi bilan kirgan tilsimni qo‘llagan. Sezar medaloni uzoq yillar o‘ziga mukammal shifrovka qilish vositasi sifatida ishlatilgan. Buni o‘sha davrda maxsus yasalgan bo‘lib, unda roman alfavitida 25 ta harf bitta aylanuvchi ichki, qo‘zg‘almas tashqi halqaga yozib chiqilgan bo‘lgan. Katta va kichik halqadagi harflar bir xil. Matnni maxfiylashtirish axborot madaniyati rioyasini qilish uchun, ichki halqa 1, 2 yoki bir necha harfga surilgan. Unga to‘g‘ri kelgan harfni almashtirib yozilgan. Tushunarsiz harflar ketma-ketligi yuzaga kelgandan so‘ng, uni choparga berib yoki kaptarlar orqali xabar jo‘natilgan. Chopar qo‘lga tushsa ham, kaptarlar tutib olinsa ham, maxfiy yozuvni o‘qiy olishmagan. Faqatgina ichki halqa nechta harfga surilganligini xatni buklanish sonlaridan aniqlashgan. Yuliy Sezarning ishongan odamlarigina buni o‘qiy olishgan.

Qadimgi Yunonistonda, keyinchalik, “Polibiy kvadrati” nomi bilan atala boshlangan tilsim ixtiro qilingan. G‘arbda kriptografiya bo‘yicha dastlabki asarlardan birini Germaniyada yashab o‘tgan I.Triteliy (1462–1516) yozgan. 1566-yilda mashhur matematik D.Kardano o‘zi ixtiro etgan tilsimlash tizimi (“Kardano panjarasi”)ni tavsiflovchi ishini nashr etgan. 16-asrda Fransiyada Genrix IV va Rishele tilsimlari paydo bo‘ldi. Keyinchalik, Rossiyada ham Petr I ixtiro qilgan 1700-yildagi “raqamli yozuv” va boshqa tilsimlar yuzaga kelgan.

Asrlar davomida olim va mutaxassislar o‘rtasida mutlaqo mustahkam tilsim tuzish borasidagi bahs davom etmoqda. Lekin hozircha bunday tilsimni tuzishning iloji bo‘lmayapti.

Xulosa shuki, juda ko‘p sohalarda asarlar qoldirgan Bayt ul-Hikmatda ishlagan mashhur olim Al-Kindiy (801–873) hamda qator islom dunyosi olimlari kriptoanalizga 9-asrda asos solishgan. Shu o‘rinda aniq fanlar rivojiga katta hissa qo‘shgan Umar Xayyom harzratlarini e’tirof etishni lozim topdik. Olim matematik tahlillarga asoslangan qisqa ko‘paytirish formulalarida sonlar yig‘indisini darajaga ko‘tarishni o‘z paytidayoq kashf etib bo‘lgan edi. Afsuski, uning bu kashfiyoti keng ommaga yoyilmagan, o‘rganilmagan. Keyinchalik, Isaak Nyuton Umar Xayyomning ilmiy ijodi bilan tanishib, “Matematik fizikaning natural asoslari” kitobida yig‘indini darajaga ko‘tarish formulasini Nyuton Binomi deb atagan. Shu-shu bu kashfiyot uning nomi bilan bog‘lanib qolgan. Aslida, bir necha asr oldin Umar Xayyom hazratlari asarlarida yoritib bo‘lingan edi.

Shu sababli aynan o‘lkamizdan yetishib chiqqan olim-u fuzalolarimizning ilmiy-ma’naviy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-ma’naviy merosi, jahon ilm-fani, sivilizatsiya rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasi jahon hamjamiyati tomonidan hamisha yuksak e’tirof etiladi.

O‘zbek zaminida esa Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi yuzlab allomalarimizni nafaqat biz faxr bilan tilga olamiz, balki xalqaro jamoatchilik, xususan, jahon ilm-fan doiralari vakillari ham yuksak qadrlaydi. Bugun biz ana shunday buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishni maqsad qilganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Anvarov. Role of the international cooperation in high education development. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences 1 (№ 1–2 2015), p. 72–74.

2. A.Anvarov. Learning Resources and Professional Development at Namangan Engineering Pedagogical Institute, Young Scientist USA 3 (ISBN 978-1-329-40658-2), p. 54–56.

3. A.Anvarov. CREATION OF EDUCATION NETWORK AMONG THE INSTITUTIONS OF THE FERGHANA VALLEY”, CHINA SHANGHAI university scientific journal 1 (10), p. 37–38.

4. Anvarov A.A, Recommendations on self-cognition and self-development for ensuring spiritual development of students University, Austrian Journal of Humanities and Social Sciences 2015 January-February 1.

5. Anvarov A. Role of the MATCHES project in NamEPI. «Молодой ученый», 8 (9), p. 874–876.

Ubaydova Vazira Erkinovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti Tikuvchilik sanoatida innovatsion texnologiyalar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi; e-mail: amikomjon@mail.ru)

OLIY TA’LIM SOHASIDA YENGIL SANOAT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA NAQSHBANDIYA TA’LIMOTIDAGI VAQTNI QADRLASH G‘OYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda eksportbop yengil sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarishda Bahouddin Naqshband, Xodjayi Buzurg nomlari bilan mashhur bo‘lgan Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (1318–1389) tomonidan asoslangan jahonshumul kamolot yo‘liga aylangan naqshbandiya ta’limotining o‘ziga xos bo‘lgan “Vuqufi zamoni”–“Vaqtdan ogohlik”, “Vaqtni asrash”, “Vaqtni behuda o‘tkazmaslik”g‘oyasi tahlil etilgan va ularni qo‘llashning uslubiy asoslari dalillangan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности учения Накшбанди, ставшего всемирно известным путем создания учения усовершенствования, основанного Мухаммадом ибн Мухаммадом аль-Бухари (1318–1389), известным как Бахауддин Накшбанд, Ходжай Бузург, роль некоторых положений данного учения в производстве экспортной продукции легкой промышленности Узбекистана. В конкретном случае раскрывается ценность времени в любрм деле. Проанализированы такие понятия учения, как «экономии времени» и «не терять времени даром» и обоснована методологическая основа их применения.*

Annotation. *The article discusses the features of the Naqshbandi doctrine, which has become a world-famous way of improvement, founded by Muhammad ibn Muhammad al-Bukhari (1318–1389), known as Bahauddin Naqshband, Khojai Buzurg, in the production of export products of the light industry of Uzbekistan. The concept of “saving time” and “not wasting time” is analyzed and the methodological basis for their application is substantiated.*

Kalit so‘zlar: *mahorat darsi, trening, ta’limot, o‘quv jarayoni, Bahouddin Naqshband, vaqt, naqshbandiya, nafas, vuqufi zamoni.*

Ключевые слова: *мастер-класс, тренинг, обучение, учебный процесс, Бахоуддин Накшбанд, время, накшбандия, дыхание, время вукуфи.*

Keywords: *master class, training, education, educational process, Bahouddin Naqshband, time, naqshbandiya, breathing, vukufi time.*

Kirish. Vaqt eng qimmatbaho boylikdir. Vaqtni qadrlashni o‘rganish inson kamolotining asosiy vositalaridan biri bo‘lib, hozirgi globallashuv davrida yoshlarimiz salohiyatini yuksaltirish, O‘zbekistonda eksportbop yengil sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun vaqtni qadrlash masalasiga e’tibor berish lozim. Bu muammoni yechishda Bahouddin Naqshband, Xojayi Buzurg nomlari mashhur, jahonshumul naqshbandiya ta’limotining asoschisi Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy tamoyil sifatida kiritgan “Vuqufi zamoniy”–“Vaqtdan ogoh bo‘lish”g‘oyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga kiritishning ahamiyati katta.

Bahouddin Naqshbandning tasavvuf ta’limotidagi eng asosiy tarixiy xizmatlaridan biri vaqt haqidagi ilmni inson kamolotining asosida qo‘yishi va “Vuqufi zamoniy”–“Zamon, vaqtdan ogohlik” rashha hayotbaxsh o‘gitlarini naqshbandiya ta’limotining asosiy tamoyili sifatida kiritganligi bilan muhimdir. Vuqufi zamoni – inson o‘zi yashayotgan davr, zamon qanday kechayotganligidan ogoh bo‘lishi, umr bir bor berilishi va inson uni xayrli, ezgu ishlarga sarf etishi lozim, g‘aflatda qolmasligi, loqayd bo‘lmasligi, ogoh, hushyor, daxldor bo‘lishi kerak degan mazmun-mohiyatni anglatadi.[1]

Ana shu g‘oyalarni talabalarning ongiga singdirish uchun mahorat darsi va trening uslublaridan foydalanishning ahamiti dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda eksportbop yengil sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun o‘rganish obyekti bo‘lgan naqshbandiya ta’limotini har tomonlama o‘rganishdan iborat.[2] Nashbandiya ta’limoti haqida maqomot, manoqib, risola hamda tazkiralarda ma’lumotlar saqlangan. Bahouddin Naqshbandning o‘z ta’limotiga kiritgan o‘n bir tamoyilning “Vuqufi zamoni”, ya’ni vaqtdan ogoh bo‘lish haqidagi g‘oyalari naqshbandiya ta’limotining asoschisi qalamiga mansub “Avrod” risolasi bo‘lib, tadqiqotimiz uchun zarur ta’limotning asosiy manbayi hisoblanadi. Vuqufi zamoni tamoyili “Avrod” risolasi hamda Qudsiy kalomlari keltirilgan manbalarda yoritilgan. Naqshbandiya ta’limoti va uning asoschisi Bahouddin Naqshband haqida mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarda bu ta’limotning mohiyati yoritilgan. Mavzuga oid pedagogik olima G.K.Zaripovaning “Naqshbandiya ta’limotining inson kamolotiga ijobiy ta’sirining o‘ziga xos pedagogik usullari va hozirgi zamon” monografiyasida naqshbandiyaga xos bo‘lgan ustoz va shogirdlik hamda o‘n bir tamoyil qisqacha tahlil etilgan. Vuqufi zamoni tamoyili tilga olingan bo‘lsa-da, uning mazmun-mohiyati va qo‘llash uslublari yoritilmagan.[3]

Professor N.A.Avliyoqulov naqshbandiya ta’limotini jahon sivilizatsiyasi rivojlanishidagi ahamiyatini pedagogik nuqtayi nazaridan va Ubaydullo Qosimov psixologik jthatidan tahlil etganlar.[4] Ammo ularning asarlarida ham yengil sanoat sohasidagi xalqaro andozalarga muvofiq mutaxassislarni tayyorlashga bu g‘oyalarni qo‘llash uslublariga maxsus e’tibor qaratilmagan. Biz tadqiqotimizda aynan naqshbandiya ta’limotining O‘zbekistonda eksportbop yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini tashkil eta oladigan va shu jarayonda vaqtni qadriyat deb biladigan mutaxassislarni tayyorlash masalalariga e’tiborimizni qaratganmiz.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistonda eksportbop yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida naqshbandiya ta’limotiga xos bo‘lgan va oliy ta’lim tizimida xalqaro andozalarga munosib kadrlarni tayyorlashga foydalaniladigan asosiy g‘oyalar va tamoyillarni germenevtika uslubi asosida tushunib, anglab, tanlab oldik va bu tayanch g‘oyalarni tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash uslublari asosida hozirgi kunga mos bo‘lgan innovatsion ta’lim uslubiyotini ishlab chiqishga harakat qildik.

---

[1]Bahouddin Naqshband (manbalar tahlili). To‘plab nashrga tayyorlovchi maqola izoh va sharhlar muallifi. G.N. Navro‘zova. Toshkent, “Sano-standart”, 2019, 256-bet.

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-sonli qarori.

[3]Zaripova G.K. Naqshbandiya ta’limotining inson kamolotiga ijobiy ta’sirining o‘ziga xos pedagogik usullari va hozirgi zamon. Monografiya, Buxoro, “Durdona”, 2014, 36-bet.

[4]Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. T., “Fan va texnologiyalar”, 2008, 111-bet.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’limdagi yengil sanoat texnologiyalari mutaxassisliklariga birinchi bosqichdan boshlab shu sohaga qiziqish va muhabbatni oshirish, mustahkamlash maqsadida bu kasbning piri Bahouddin Naqshband, Xojayi Buzurg nomlari bilan mashhur bo‘lgan Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (1318–1389) ekanligi va u kishi tomonidan aytilgan hikmatli so‘zlarning mazmun-mohiyatini singdirishning ahamiyati kattadir.[1] Shu maqsadda tashkil etiladigan mahorat darsi innovatsion uslublardan foydalanish ijobiy natija beradi. Demak, mahorat darsi vositasida naqshbandiya ta’limotining bilimdoni, yetuk mutaxassisni tarbiyalab, fan o‘qituvchisi bilan birgalikda naqshbandiya ta’limotining tamoyillari tushuntiriladi, tamoyillar sohaga bog‘lab talabalar ongiga singdiradi va mustahkamlanadi.

Mahorat darsi uslubidagi ma’ruzada talabalarni vaqtni qadrlash, vaqtdan unumli foydalanish ruhida tarbiyalash maqsadida naqshbandiya ta’limoti sohasidagi mutaxassis quyidagi “Vuqufi zamoni” tamoyiliga doir ma’lumotlarni aytib beradi.

Bahouddin Naqshbandning “Vuqufi zamoni” tamoyili nafsni jilovlash uchun juda katta ahamiyatga ega. “Bu qoidaga asosan, banda hamisha o‘z ahvolidan voqif bo‘lmog‘i lozim, toki har bir sifat o‘zgarish-(zamoni)da bandaning holi qanday kechadi, mavjibi shukr bo‘ladimi yoki mavjibi uzrmi. Bu degan gap, solik (Haq yo‘lidan borayotgan kishi) o‘z umridagi har bir daqiqani, yaxshilik (xayr) bilan o‘tdimi yoki yomonlik (sharr) bilan o‘tdimi, buni doimo hisob-kitob qilib yashamog‘i darkor”. Demak, “Vuqufi zamoni”ga asosan, Haq yo‘lidan borayotgan shaxs o‘z ahvolini nazorat qilishi, to‘g‘ri ish qilgan bo‘lsa, shukr qilishi, gunoh qilgan bo‘lsa, istig‘for aytib, Ollohdan mag‘firat so‘rashi lozim.[2]

Vaqtni saqlash, asrash uchun bu ta’limot kunduzlari – ro‘zador, kechalari bedor bo‘lishni talab etadi. Ya’ni, vaqtni yeyish va uxlashga sarflamasdan, me’yorida yeyish va uxlash kerak, deydi. Qalbni beqarorlikdan, Ollohdan o‘zgaga bog‘lanishlardan himoya etish, tilini quruq so‘zdan, ko‘zini foydasiz narsaga boqmoqdan, quloqlarni keraksiz va gunohkor ovozlardan, oyoqlarini behuda yerga, gunohga botgan joylarga borishdan muhofaza eta olishi kerak. Harom va shubhali narsalarni yeyishdan juda ham saqlanishi kerak.[3] Axloqi zamimani to‘laligicha tark etishi, bu moddiy dunyodagi taalluqotlarini uzishi lozim. Dangasalikdan juda saqlanish kerak.[4]

Bahouddin Naqshband vaqt mohiyatini ochib aytadiki, “Har kim o‘z vaqtida vazifasini ado etish bilan mashg‘ul bo‘lsa, uni “sohib-ul vaqt” (vaqt egasi) deydilar. Bu darajaga yetishganlar vaqtni abadiyatga bog‘laydilar. Bunday vaqt sohibi vaqtning tasarrufidan xalos bo‘lgan, balki vaqt va nafaslarni o‘z tasarrufiga olgan bo‘ladi. Uni “ab-ul vaqt”–“vaqt otasi” deydilar.[5] Shuningdek, talabalarda Bahouddin Naqshbandning Vuqufi zamoni haqidagi g‘oyalarni singdirishda mavzuni mustahkamlash jarayonida bahs-munozara, suhbat, davra suhbati, mentoring uslublardan foydalanish mumkin.

Suhbat o‘qitish va o‘qishning dialogik, savol-javob metodi. Bu metodning yetakchi funksiyasi motivatsiya qilish: aniq maqsadni ko‘zda tutadigan va mohirona qo‘yilgan savollar yordamida siz ta’lim oluvchilarni o‘z bilimlarini berilgan mavzu bo‘yicha esga olish va bayon etishga, sizning rahbarligingizda boshqa ta’lim oluvchilar bilan muhokama qilishga undaysiz.

Ta’lim oluvchilar, siz bilan birga, qadamma-qadam yangi bilimlarni mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, yakunlash va umumlashtirish yo‘li bilan o‘zlashtiradilar va tushunadilar.

Fan o‘qituvchisi, naqshbandiya ta’limotining mutaxassisi hamda talabalar bilan birgalikda Bahouddin Naqshband “Vuqufi zamoniy” tamoyilining mazmun-mohiyati asosida vaqtni tasavvufiy tushunishni quyidagi talqinlarini xulosa sifatida chiqaradilar:

Fanning birinchi mashg‘ulotida o‘qituvchi tomonidan topshiriq sifatida har kunning ma’lum bir vaqtini mutaxassilikka oid adabiyotlarni o‘qib tahlil qilib borish vazifa qilib beriladi. Oxirgi mashg‘ulotida talaba tomonidan berilgan vazifalarni bajarganlik to‘g‘risidagi ishlarini taqdim qiladi. Taqdimot yuzasidan savollarga javob beriladi, mavzu mustahkamlanib, talabalar baholanadi.

---

[1]Bahouddin Naqshband Buxoriy. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi Yo‘ldosh Eshbek. Q., “Nasaf”, 2010, 240-bet.

[2]Bahouddin Naqshband. Avrod (to‘ldirilgan qayta nashr). Maqola, izoh va sharhlar muallifi va tarjimon G.N. Navro‘zova. Toshkent, “Sano-standart”, 2019, 112-bet.

[3] Buxoriy S.S. Hazrat Bahouddin Naqshband (dilda yor) T., Buxoro, ”O‘qtuvchi”, 2007, 120-bet.

[4]Ubaydova V.E. (2021). Bahauddin nakshband symbol of honesty. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), p. 1193 – 1197.

[5]Убайдова В.Э. (2020). Ценность времени в учении накшбандия при воспитании совершенного человека. Современное образование: актуальные вопросы, достижения и инновации сборник статей XXXVII международной научно-практической конференции, состоявшейся 25 ноября 2020 г. в г. Пенза (pp. 79–81).

Xulosa va takliflar. Naqshbandiya ta’limotidagi halol luqmaga amal qilish tamoyilini O‘zbekistonda eksportbop yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga kiritish bo‘yicha tavsiyalar.

O‘zbekistonda eksportbop yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda naqshbandiya ta’limotining halol luqmaga amal qilish tamoyilini ta’lim va tarbiya jarayoniga kiritishning quyidagi ahamiyati bor:

1. Halol luqma haqidagi naqshbandiyona talab halol mehnat jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Bu xomashyo va tabiiy resurslardan oqilona foydalanib, jahon andozalarga mos eksportbop yengil sanoat mahsulotlarni tayyorlashga asos bo‘la oladi.

2. “Dast ba kor-u, dil ba Yor” – “Qo‘l ishda va qalb Ollohda” naqshbandiyona shior asosida tarbiyalangan talabalar mehnatsevar, harakatchan va iymon-e’tiqodli bo‘ladilar. Mehnatsevarlik jamiyat iqtisodini ko‘tarishga yordam bersa, iymonlilik ma’naviy boy bo‘lishga asos bo‘ladi.

3. Naqshbandiyaga xos halol luqmaga rioya qilish tamoyilining halol, harom, mehnatsevarlik, baraka, xolis yaxshilik qilish kabi asosiy tushunchalarini singdirishda aqliy hujum, klaster, T-sxema, BBB innovatsion uslublardan foydalanishning ahamiyati katta.

Sapayev Umidbek Abdullaevich (UrDU mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: umidbek.sapayev@inbox,ru)

TALABALARNIG INNOVATSION FAOLIYAT MADANIYATIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlari talabalarining innovatsion faoliyat madaniyatini rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirish natijasida talabalarning innovatsion ilmiy salohiyatini oshirish yo‘llari o‘rganilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются факторы, способствующие развитию культуры инновационной активности студентов высших учебных заведений. Были также изучены пу-*

ти повышения инновационного научного потенциала студентов в результате создания инновационной среды в высших учебных заведениях.

Annotation. *This article analyzes the factors that contribute to the development of a culture of innovative activity of higher education students. Moreover, ways to increase the innovative scientific potential of students as a result of creating an innovative environment in higher education institutions have also been explored.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, o‘quv jarayoni, ilmiy salohiyat, innovatsion muhit, infratuzulma, integratsiyasi.*

Ключевые слова: *инновации, образовательный процесс, научный потенциал, инновационная среда, инфраструктура, интеграция.*

Keywords: *innovation, educational process, scientific potential, innovative environment, infrastructure, integration.*

Ta’lim jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan ijtimoiy institut bo‘lib, jamiyatning taraqqiyoti uchun zarur hisoblanadi. Lekin tez o‘zgaruvchan va globallashgan dunyoning oldindan aytib bo‘lmaydigan tahdidlarini an’anaviy ta’lim tizimi asosida doimiy ravishda hal qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ta’lim tizimiga yangi innovatsion ta’lim metodlarini va texnologiyalarini kiritish, shuningdek, yetishib chiqayotgan barcha mutaxassislarni davrning har qanday talablariga javob beradigan innovatsion intellektga ega kadrlar qilib tayyorlashga imkon beruvchi innovatsion ta’lim muhitlarini yaratish hamda talabalarning innovatsion faoliyat madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash zarur hisoblanadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarini va metodlarining ta’lim jarayoniga tatbiq qilinishi, talabalarda fanlarga bo‘lgan qiziqishlarning yanada kuchayishiga va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining keskin oshishiga olib keladi. Chunki an’anaviy ta’lim jarayonida oldindan tayyorlangan fanlar bo‘yicha barcha ma’lumotlarni xuddi o‘ziday qilib o‘zlashtirish va yod olish talab qilingan bo‘lsa, yangi innovatsion ta’lim jarayonida talabalar erkin fikr yuritish, fan va soha doirasida ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, fanlar doirasidagi ma’lumotlarni mustaqil tahlil qilish, o‘zlashtirilgan bilimlarni o‘zaro muhokama qilish va yakuniy xulosalarni chiqarishga imkoniyatlar mavjudligi bilan keskin farqlanadi. Bunday innovatsion ta’lim jarayoni natijasida oliy ta’lim muassasalarida etishib chiqayotgan kadrlarning asosiy sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan innovatsion salohiyatini shakllanishiga va rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.[1]

Innovatsiyalarni paydo bo‘lishi va ro‘yobga chiqish jarayonlari ko‘p tarkibiy qismlarga, ularning o‘zaro uzviyligiga va ketma-ketligiga bog‘liqdir.[2] Insonlarning innovatsion qobiliyatlari oilada, ijtimoiy muhitda, ta’lim olish jarayonida va ishlash sharoitlarida doimiy ravishda shakllanib boradi.[3] Lekin bu bosqichlarning ichida shaxsning innovatsion qobiliyatlarining shakllanishiga va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi bosqich, bu ta’lim olish jarayoni hisoblanadi. Inson ta’lim olish jarayonida ma’lum bir sohaga yo‘naltirilgan bilimlarni o‘zlashtirishga va shaxsiy malakalarini shakllantirishga intiladi. Ammo shaxslarning sohaga yo‘naltirilgan uzluksiz ta’lim olish texnologisi va har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlariga qarab sohalarga yo‘naltirish mexanizmlarining yo‘qligi innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarning etishib chiqishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatyapti.

Insonning innovatsion fikrlash jarayoni natijasida yangi turdagi mahsulot yoki xizmatlar turi poydo bo‘lishi mumkun, lekin uning miyyasida paydo bo‘lgan dastlabki innovatsion fikrlar uchqunini alangaga aylantiraoladigan sharoit ya’ni, innovatsion fikrni rivojlantirishga imkon beradigan innovatsion muxit bo‘lmas ekan, har qanday yangi fikrlar o‘z-o‘zidan so‘nib ketishi mumkun.[4]

Innovatsiyalarni yaratish va ularni amalga oshirish jarayonida ko‘plab shaxs va tashkilotlarning tizimli ishtiroki talab etiladi. Bunday jarayonda akademiklar, professor-o‘qituvchilar, talabalar, menejerlar, investorlar, soha bo‘yicha sheriklar, ilmiy xodimlar, ishlab chiqaruvchi korxonalar va boshqalar qatnashishi mumkun. Lekin har bir qatnashuvchining innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishdan manfaatdorligi to‘laqonli ta’minlangan bo‘lishi kerak. Har bir shaxs o‘zining o‘ziga xos fikrlash tizimiga ega, u o‘zi-

[1]У.А.Сапаев, Хасанов Т.М., Машарипов Р. Техника йўналишидаги олий таълим муассасалари талабаларининг инновацион фикрлаш қобилиятларини шакллантириш методикаси. “НамДУ илмий ахборотномаси”, “Научный вестник НамГУ”, 2021, 6-сон, 626 – 630-betlar.

[2]Amabile T.M., R.Conti, H.Coon, J.Lazenby and M.Herron. 1996. Assessing the work environment for creativity. Academy of Management Journal 39(5), p. 1154 – 1185.

[3] Shavinina V. S. 2003. Understanding innovation. Some important issues. London, Elsevier Science.

[4] Engeström J. 2005. Why some social network services work and others don’t – or: the case for objectcantered sociality. http://zengestrom.com/blog/2005/ 04/why_some_social.html (Accessed 20 October 2008).

ning innovatsion qirralarini va imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantiririshda oliy ta’lim muassasalarining roli va ahamiyati juda katta hisoblanadi.[1]

Mutaxassislarning innovatsion salohiyatini doimo oshirishga yordam beradigan omil bu ijtimoiy xabardorlik hisoblanadi.[2] Buning uchun mutaxassis o‘zining sohasini kamchilik va yutuqlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lishidan tashqari, jamiyatning talab va takliflarini, kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, yangi innovatsiyalarning yo‘nalishlarini belgilashga, yangi mahsulot yoki xizmat turlarini yaratishga, sog‘lom ijtimoiy sohalarning vujudga kelishiga, yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni yaratishga, ish sharoitlarini innovatsion elementlar bilan yaxshilashga va doimiy ilmiy va texnologik kashfiyotlar tomon yo‘naltirilgan innovatsion tarmoqlarni yaratishga imkon beradi.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagi xulosa va takliflarimizni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

– o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va intilishlarini hisobga olib, ularga mos oliy ta’lim muassasalariga yo‘naltirishni amalga oshiruvi mexanizmni joriy etish;

– texnika oliy ta’lim muassasalari bilan ishlab chiqarish sohalarining integratsiyasini uzluksiz yo‘lga qo‘yish;

– tajriba va amaliy mashg‘ulotlarning bevosita ishlab chiqarish muhitida o‘tkazilishini uzluksiz amalga oshiruvchi mexanizmlarini ishlab chiqish;

– soha mutaxassislari bilan hamkorlikda sohalarga mos yo‘nalish talabalariga ishlab chiqarish tarmoqlaridagi muammolar haqida ma’lumotlarni to‘laqonli yetkazib berish va ularning innovatsion yechimlarini topish imkoniyatini paydo qiluvchi yangi innovatsion ta’lim texnologiyalarini yaratish;

– oliy ta’lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari hamkorligi asosida yaratilgan innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqarishga tatbiq qilish mexanizmlarini yaratish;

– innovatsion g‘oyalarni yaratish jarayonida ishtirok qilganlarni rag‘batlantirish va ularning faoliyatlarini yanada rivojlantirishga imkon beruvchi innovatsion muhitni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni joriy qilish;

–shaxsning indiviudual innovatsion qobiliyatlarini shakllantirishga imkoniyat beradigan innovatsion ta’lim muhitini yaratish;

–talabalarda yangi innovatsion fikrlarning paydo bo‘lishiga imkon beroladigan innovatsion ta’lim jarayonlarini va yetarli darajada shart-sharoitlarni yaratish;

–talabalarning mustaqil o‘z ustilarida ishlashlariga va innovatsion qobiliyatlarining shakllanishiga yordam beruvchi zamonaviy elektron ma’lumotlar bazalarini tizmli yaratish;

–fanlar kesimida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yangi bosqichga ko‘tarishga imkon beruvchi elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish;

–talabalarning fanlar kesimidagi mavzularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat qilishning va baholashning elektron tizimini joriy etish.

Bularni amalga oshirish natijasida har qanday ishlab chiqarishning nafaqat bu kungi muammolarining innovatsion yechimlarini taklif qiloladigan, balki kelgusida qanday tartibda ish olib borish mumkinligi va yuqori darajada samaradorlikga erishtiruvchi texnologiyalarni aniqlab beroladigan, yangi texnika va texnologiyalarni yarata olish qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarini shakllanishiga zamin yaratilgan bo‘lar edi.

Мадрахимова Феруза (Тошкент Давлат Педагогика университети проректори; e-mail:fmr88@mail.ru)

ТАЛАБАЛАРДА МЕДИАСАВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ – ДОЛЗАРБ ПЕДАГОГИК МУАММО

Аннотация. *Олий таълим ташкилотларининг талабалари ўртасида медиасаводхонликни шакллантириш ва ривожлантириш асослари келтирилган.*

Аннотация. *В статье представлены основы формирования и развития медиаграмотности у студен-тов высших учебных заведений.*

[1] Laursen K. and A.Salter. 2006. Open for innovation: The role of openness in explaining innovation performance among UK manufacturing firms. Strategic Management Journal 27(2), p. 131–150.

[2]Sapaev Umidbek Abdullaevich. “Mechanisms of cultural innovation activity of students in higher educational institutions” Research Article September 2021, p. 1857–8179.

Annotation. *The basics of the formation and development of media literacy among students of higher education institutions are presented.*

Калит сўзлар: *медиа, талаба, медиамаданият, медисаводхонлик, оммавий ахборот воситалари, маданият.*

Ключевые слова: *медиа, студент, медиакультура, медиаграмотность, средства массовой информации, культура.*

Keywords: *media, student, media culture, media literacy, mass media, culture.*

Бугун медиа оламида янги телеканаллар, даврий нашрлар, интернет сайтларининг кўпайиши давом этмоқда. Оммавий ахборот воситалари маълумотларни танлаб олувчи, тузувчи ва шарҳловчи фильтр вазифасини ўтайди. Шу билан бирга, таълим-тарбиявий, маърифий вазифаларни ўз зиммасига олади, ёш авлод учун ўзига хос “параллел мактаб” ҳисобланади. Инсон, бир қарашда, жуда осон бошқарадиган маълумотларнинг кўриниб турган соддалиги ва фойдаланиш имкониятига қарамай, баъзида буни сезмасдан, у ахборот оламининг таъсир объектига айланади.

Бу борада Президентимиз Ш.М.Мирзиёев: “Биз бошимиздан кечираётган ҳозирги глобаллашув даври даври ўта шиддат билан ўзгараётгани ва турли таҳдидлар кўплиги билан олдимизга ҳал этишни кечиктириб бўлмайдиган ғоят мураккаб вазифаларни қўймоқда. ...ахборот-коммуникация тизимларининг кенг қўлланиши, давлат бошқарувининг электрон шаклда ташкил этилаётгани, бу яхши, албатта, ўз навбатида, ахборот хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ қўшимча чора-тадбирлар кўришни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. ...«оммавий маданият» балоси кўплаб ёшларни ўз домига тортиб, миллат ва юрт учун бутунлай бегона бўлган анъаналар кириб келишига сабаб бўлмокда”,[1]деган эди. Дарҳақиқат, бугунги кунда ахборот-коммуникация технологияари ва медиа орқали кириб келадиган мафкуравий таҳдидларни ўз вақтида пайқаш ва уларнинг олдини олиш давр талаби ҳисобланади.

Инсон медиалар билан ишлаши жараёнида зиддиятли ахборотга дуч келади. Бундай ҳолатларда фойдаланувчи турли манбалардан ахборотни излаш кўникмасини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, бугунги кунда ёшлар хусусан, олий таълим ташкилотларида таҳсил олаётган талабаларда медиа билан ишлаш жараёнларини шакллантириш зарур. Бу эса янги ахборотларни мавжуд билимлар асосида баҳолаш ҳамда тегишли нуқтаи назарни шакллантиришга замин яратади.

Ҳар қандай давр ўз тараққиёти даврида маданиятнинг турли шаклларини яратади. Ушбу шакллар муайян маънода инсоннинг хоҳиш, эҳтиёжларини қондира олади. Биз бугунги кунда оммавий алоқалар тизими кенгаяётган ахборот даврида яшар эканмиз, бунда чексизликдан иборат медиадунёси муҳим ўрин эгалламоқда.

Г.В.Грачев ва И.К.Мельникнинг фикрича, «ахборот таъсирининг асосий ва марказий мақсади инсон, унинг руҳиятидир. Шу билан бирга, алоҳида жамоалар ва ижтимоий ташкилотларнинг кичик гуруҳдан тортиб, мамлакат, давлат, бутун жамият аҳолиси даражасигача бўлган нормал фаолият кўрсатиши алоҳида шахсларга, уларнинг муносабатлари ва муносабатларига боғлиқдир”.[2]

Интернет ва оммавий ахборот воситалари орқали узатилаётган ахборот замонавий шароитда онг саноатининг “маҳсулоти”га айланади. Лекин, шу билан бирга, у ҳеч қачон ҳар томонлама ва ишончли бўлавермайди. Бу борада бир томонлама ёки бузиб кўрсатилган маълумотлар эътиборга олиниши керак.

Глобал ва интерактив коммуникация тизимининг пайдо бўлиши, оммавий ахборот воситаларининг жамиятнинг кўплаб қатламлари ҳаётига кенг кириб бориши таълимда мустақил, танқидий фикрлашни ривожлантиришга қаратилган янги муаммоларни таҳлил этишга зарурат туғдиради. Жумладан, ОАВ маълумотларини таҳлил қилиш ва баҳолаш, оммавий ахборот воситаларига, унинг мумкин бўлган манипуляцион таъсирига қарши курашиш қобилиятини шакллантиришга қаратилган. Айниқса, ОТТлари талабаларини ахборотни мустақил, танқидий таҳлил қилиш учун зарур бўлган услубий воситалар билан таъминлаш керак. Замонавий педагогик таълим олдида тала-

[1] Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т., “Ўзбекистон”, 2018, 44-бет.

[2] Грачев Г.В., Мельник И.К. Манипулирование личностью: организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия (издание 3-е, исправленное и дополненное). М., изд-во “Эксмо”, 2003, с. 8.

баларни қабул қилинаётган ахборот матнларини таҳлил қилишга ўргатиш, уларнинг таъсир қилиш механизмлари ва унинг тингловчиларга таъсири оқибатлари ҳақида тасаввурга эга бўлиш каби муҳим вазифа турибди.

Бу борада педагогиканинг махсус йўналишларидан бири – медиатаълимга чуқурроқ эътибор қаратиш муҳим. Зеро, бугунги кунда олий таълим ташкилотларида таҳсил олаётган талабаларда қабул қилинадиган ҳар бир ахборотни ўрганишни қўллаб-қувватлайдиган, танқидий фикрлашни ривожлантириш, хабарнинг яширин маъносини тушуниш қобилиятини шакллантириш зарурати юқори.

XX асрда оммавий ахборот воситаларининг шиддатли ривожланиши маданиятнинг ўзгаришига, янги виртуал алоқа дунёсининг шаклланишига олиб келди. Бунда ахборотнинг икки усули, яъни инсонга йўналтирилган усул ва медиага йўналтирилган усуллари пайдо бўлди. Инсонга йўналтирилган усулда инсонлар оммавий ахборот воситаларини ўз шахсий эҳтиёжларига қараб мослаштирадилар. Бу инсонларнинг маълумотларни танлаб, қандай қабул қилишларидан келиб чиқади. Улар ўзларининг фикрларига мос келадиган маълумотларни танлаб оладилар, тўғри келмайдиган маълумотларни эса ҳисобга олмайдилар. Медиага йўналтирилган усул эса инсоннинг оммавий ахборот воситалари таъсирига бўйсунишига асосланган. Бу инсон онгига гиёҳванд моддадек таъсир ўтказади, унга қарши боришнинг эса имкони йўқ.

Медиамуҳитдаги барча маълумотлар ҳам ижобий самара беравермайди. Бугунги глобаллашув даврида турли мафкуравий таҳдидларнинг кириб келишида муҳитнинг таркибий қисмига кирувчи техник ва электрон воситалар асосий восита бўлиб хизмат қилмоқда. Жамиятда менталитет ва миллатидан қатъий назар, инсонларни умумий боғлайдиган макон (инфасфера)га кириш натижасида инсон унинг таъсирига тушиб қолади ва ўз миллий қадриятларидан узоқлашади. Глобал медиамуҳитнинг яратилиши маълумотлар ҳажмининг чексиз ўсиши, реалликни бузувчи зарарли медиавирусларнинг пайдо бўлиши инсониятга катта хавф туғдиради. У нафақат медианинг жамият устидан бўлган ҳокимиятини англатади, балки кибермакон (автоматлашган муҳит)да миллий қадрият ва маданиятнинг тақдири ҳақида ҳам ўйлашга мажбур этади.

Медиа бошданоқ истеъмолчи онгини эгаллаб олиб, уни хаёллар дунёсига ғарқ қилади. Бунинг таъсири эса жиддий салбий ҳолатларга олиб келиши мумкин. Натижада медиа ривожланиб боришининг сўнггида инсон онгида тўлиқ ампутатция (кесилиш) содир бўлади. Медиамаҳсулотининг истеъмол қилиниш жараёнида шахснинг инсоний маҳоратлари ўз чегарасидан чиқиб кетади ва шахс ўзининг онгидан “бегоналашган мантиқ”қа эга бўлади. Бундай вазиятда инсон маънавий жиҳатдан жуда ҳам нимжон мавжудотга айланиб қолади. Ушбу жараёнда шахс онгида кечаётган жараёнларни тўлиқ англамаган ҳолда ўзини-ўзи алдайди. Яъни, инсон технология унга бераётган чексиз имкониятлардан сармаст бўлиб юради. Бунда у худди оптимистик равишда сувда ўз аксини кўрган наргис гули сифатида ўзини-ўзи йўқотади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда илм-фан, таълим соҳасида ҳам кўпгина ўзгаришлар юз бермоқда. Бунда, албатта, медиамуҳитнинг роли кўпгина ижтимоий жараёнларда муҳим восита сифатида ўсиб борди. Бу ҳолат давлатнинг сиёсий ва иқтисодий ривожланишига таъсир кўрсатди, натижада жамият медиалаштирилди ҳамда янги медиамуҳит шаклланди. Ушбу ҳолат очиқ ва демократик кўринишда бўлиб, дунёнинг кенг ахборот муҳитига эшиклар очилди. Ўтган йиллар мобайнида мамлакатимизда олий таълим тизимида ахборот-коммуникация технологиялари жорий этилди. Фан ва таълим соҳасида умумлашган ва рухсат этилган маълумотлар базаси пайдо бўлди ва мамлакат ҳудудида маданият, ахборот марказларининг кенг тармоқлари пайдо бўлди.

Мамлакатимизда шаклланган медиамуҳитдан самарали фойдаланиш билан бирга, эҳтиёткор муносабатда бўлиш асосий вазифа ҳисобланади. Медиамакон таъсирини инсонлар онгига ўз ҳолича ташлаб қўйиб бўлмайди. Чунки медиамакон мафкуравий таҳдидларнинг кириб келишида етакчи ўринларда турувчи восита саналади. Ҳозирги глобаллашган, медиамуҳит ва медиамакон тараққий этган замонда яшаётган эканмиз, ушбу жараёнда кириб келаётган мафкуравий таҳдидлардан ҳимояланиш зарур. Медиамакондан фойдаланаётган инсонлар турли ижобий ёки салбий ахборотларни тўғридан-тўғри қабул қилавермасликлари учун, аввало, уларда медиамаданият ва медиасаводхонликни шакллантириш лозим.

Шахс ижтимоий онги ва унинг ижтимоийлашувини шакллантирувчи, маданий тарихий ривожланишда инсоният томонидан ишлаб чиқилган ахборот воситаларининг йиғиндиси медиамаданият ҳисобланади. Медиамаданият ўзининг шаклланиб бориши жараёнида ахборотни қабул қилиш

ва тақдим этиш функцияларини бажаради. Медиамаданият жамият билан бирга унинг ижтимоий-маданий жиҳатдан замонавийлашишида муҳим динамик ҳолат ҳисобланади.

Медиамуҳитнинг миллий маданият ва санъатга таъсири кучли. Бу ҳол миллий санъат асарларида аслликнинг барбод бўлиши ва йўқолишига олиб келиши мумкин. Яъни, замонавий санъатда техник нусха олишнинг чексиз имкониятлари кўпайиши билан бирга, асллик ва нусха ўртасидаги онтологик ҳамда ижтимоий чегараларнинг йўқ бўлишига олиб келади. Бунинг натижасида санъатнинг сири ва қадри каби тушунчалар ўз аҳамиятини йўқотади. Бундан ташқари, нусха кўпайтиришнинг анъанавий ноёб техникаси ўрнини оммавий нусхалаш эгаллайди. Бунда якка истеъмолчининг ўрни замонавий оммавий истеъмолчилар маданияти билан алмашади.[1]

Бугунги XXI аср ахборот технологиялари асрида ушбу жараёнларга қай даражада қарши турилмасин, медиамуҳит орқали ҳам ижобий, ҳам салбий ахборотлар кириб келаверади. Бу жараёнга барча инсонлар, хусусан, ёшлар ҳам аста-секинлик билан кўникиб бормоқда. Ушбу ҳолатнинг давом этиши, ёшларда маънавий онг ва инсоний ғоялар йўқолиб кетишига олиб келади. Айниқса, бу борада олий таълим ташкилотларининг талаба ёшларида миллий ўзликни йўқолиб кетмаслигини олдини олишга эътибор қаратиш лозим. Бу борада жамиятга зиёлиларни, ОТТларининг профессор-ўқитувчиларини кўпроқ жалб қилиш, уларни фикрларини эшитиш ва тарғиботини кучайтириш лозим. Таълим тизимида, айниқса, олий таълим тизимидаги талабаларда медиасаводхонликни шакллантириш, медиатаълимни тизимли йўлга қўйиш лозим.

Шу билан бирга, ушбу жараёнда нафақат жамият, балки медиаоламида (айниқса, телевидение, радио ва интернет ижтимоий тармоқлари) ҳам ҳар бир зиёлининг фаол бўлиши мақсадга мувофиқ. Чунки бугунги кунда асосий вазифалардан бири – ёшларнинг маънавий онгини юксалтиришдан иборат экан, уларга медиамуҳитда ҳам ахлоқ нормаларига риоя қилган ҳолда зиёлилардан ибрат олувчи макон яратиб бериш лозим.

Шу ўринда, талаба-ёшларда медиамаданиятни шакллантириш, яъни, телевидение, интернетдан фойдаланаётганларида маънавий онги учун фойдали бўлган маълумотлардан кенгроқ фойдаланишларига ихтиёрий ундаш лозим. Ушбу жараёнда талаба ёшларнинг асл маданият намуналари ва “сохта” маданият ҳамда маънавиятни емиришга хизмат қилувчи мафкуравий таҳдидлар ўртасидаги фарқни англаб етишлари муҳим аҳамият касб этади.

Сўнгги йилларда ахборот оқимининг бир неча баробар тезлашиши, ижобий маълумотлар билан бир қаторда, салбий характердаги ахборотнинг кўпайиши медиасаводхонликка эга бўлиш заруратини қўйди. Анъанавий тарзда медиасаводхонлик шахснинг адабий асарларни таҳлил эта олиш ва сифатли матнларни яратишдан иборат бўлган. Бугун медиасаводхонлик – бу ахборотнинг нега ва нима учун узатилаётганлигини билиш демак.

Медиасаводхонлик тушунчаси борасида олимларнинг турли фикрлари мавжуд бўлиб, Лондоннинг Қироллик университети профессори С.Файрстоуннинг фикрига кўра, медиасаводхонлик бу ҳаракат бўлиб, унинг асосий вазифаси инсонларни аудиовизуал ва босма матнларнинг маданий аҳамиятини тушуниш, яратиш ва баҳолашга ундашдан иборат.[2] Инглиз сиёсатшуноси Р.Кибей эса медиасаводхонликни турли хил шаклларда маълумотларни узатиш, уларни таҳлил этиш ва баҳолаш деб тушунади. М.Гуэттерз эса мультимедиасаводхонлиги ўз ичига мультимедиа ҳужжатларини шакллантиришга қаратилган тилларни билиш, ахборотни қайта ишлашга қаратилган қурилма ва усуллардан фойдалана олиш, янги мультимедиа технологияларини билиш ва уларни баҳолай олиш, медиаматнларни танқидий қабул қилишни ўз ичига олади, дейди

Фикримизча, медиасаводхонлик инсон жамиятда фуқаролик масъулиятини ҳис қилган ҳолда, медиамаҳсулотларни қабул қила олиши, яратиши, таҳлил эта олиши ва баҳолаши, замонавий медианинг ижтимоий-маданий ва сиёсий мазмунини тушуна олишидир. Қолаверса, медиасаводхонлик ҳар бир узатилаётган ахборотларга рационал ёндашиш ва холис қараш ҳамда интернет орқали узатиладиган салбий ғояларини ўзида ифода этувчи ахборотларни моҳиятини тушунган ҳолда таҳлил қила олишдир.

Медиамаданият ва медиасаводхонлик бир-бирига узвий ҳолда акс этади, ривожланади. Бугунги кунда мадиамаданият, медиасаводхонлик, медиатаълим каби йўналишларни яна-да такомиллаштирилиши ҳамда бунга турли ижтимоий институтлар ва тизимларнинг таъсир даражасини чуқурроқ таҳлил этиш муҳим саналади. Шу билан бирга, медиамаданият ва медиасаводхонлик ро-

[1] Harris M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. Scarecrow, 2011, p. 41.
[2] Harris M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. Scarecrow, 2011, p. 38.

лининг ўсиши (мамлакат ва минтақа, ҳукумат ва жамият, жамият ва шахс ўртасида боғловчи восита сифатида), медиамуҳитда содир бўлаётган ўзгаришлар характери ҳамда унга таъсир қилувчи ижтимоий маданий омилларнинг сабабларини аниқлаш бугунги давр нуқтаи назаридан муҳим ҳисобланади.

Шахс ва маданиятнинг ўзгариши талаба-ёшларнинг жиддий муаммоларга дуч келишига сабаб бўлмоқда. Бундай ўзгаришлар, асосан, оммавий ахборот воситаларининг таъсири остида цивилизациянинг тараққий этиши билан боғлиқ ҳолда содир бўлмоқда. ОАВлари мамлакат ва дунёдаги янгилик ва хабарларни узатиш орқали шахснинг дунёқараши ва билимини оширишга хизмат қилади. ОАВ орқали талаба-ёшларнинг билими, дунёқараши ва яшаш тарзига таъсир этиш жараёни бутун ҳаёт давомида узлуксиз тарзда ҳар куни амалга ошмоқда. Кундалик ҳаётида интернет технологиялари ва мобил телефонлардан фаол фойдаланаётган талаба-ёшлар учун эса мазкур жараёнлар яна-да фаолроқ рўй бермоқда.

Шундай экан, олий таълим ташкилотларида дарс машғулотларида айнан телевизион маҳсулотлар, видеолавҳалар, матбуот нашрлари материаллари, интернет саҳифаларида эълон қилинган материаллардан унумли фойдаланиш кенг оммалашаётганини эътиборга олсак, медиатаълим асосида медиамаданият ва медиасаводхонлик ёшлар турмуш тарзининг муҳим қисмларидан бирига айланиб бораётганини кузатиш қийин эмас.

Бугунги кунда медиатаълим, медиасаводхонлик, медиамаданиятни ўрганишга бўлган интилишнинг асосий мақсади мафкуравий таҳдидларни ўзида акс эттирган ахборотларнинг яратилиши, унинг тарқалиш сабабларини тушуниб етиш, тижорат, сиёсий, иқтисодий, маънавий ва маданий мақсадларда тарқатилаётган бундай салбий ахборотларнинг асл мақсадини тўғри англаган ҳолда, уни баҳолай олишдан иборатдир.

Шунингдек, талаба-ёшларни ахборот билан ишлаши, ахборот қидириши, зарурларни ажрата билиши, қайта ишлаши, тартибга келтириши, ахборот мазмунини тушуниш мантиқий яқинларини ажратиши муҳим масалалар сирасига киради. Чунки шулар асосида талабаларда ахборот истеъмол маданияти шаклланади. Шунинг баробарида, ахборот-коммуникация воситалари талаба-ёшлар таълим жараёнининг муҳим қисмига айланар экан, турли оммавий ахборот воситалари материаллари, хусусан, халқаро ҳаёт, бошқа давлатлар аҳолисининг яшаш тарзи ҳақидаги таҳлилий ахборот материаллари, халқаро характердаги рекламаларни узатишда уларнинг давлатимиз ёшлари дунёқарашига қандай таъсир этиши мумкинлигини ҳисобга олиш зарур.

Талаба-ёшларнинг интернет тармоғига кўп ташриф буюришини эътиборга олиб, тармоқда миллий ахборот тизими ва манбаларини яна-да бойитишга ҳаракат қилиш керак. ОТТларидаги талаба ёшларнинг интернетдаги ахборот хуружларидан ҳимоялашда шу даврга глобал маконда миллий ахборот манбаларини кучайтириш тажрибаларини ўрганган ҳолда, ўзбек тилидаги фойдали сайтлар мазмунини бойитишга интилиш зарур бўлади. Зеро, замонавий жамиятда ижтимоий модернизация жараёни, фуқаролик жамиятининг шаклланиш жараёнлари, албатта, XXI асрда яшовчи шахснинг медиамаданияти ва медиасаводхонлиги билан узвий боғлиқ.

Baydjanova Iroda Abdullaevna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi; irodabdullayevna@gmail.com)

OTA-ONALARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI PEDAGOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNI USLUBIY TA’MINLASH YO‘LLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, maktab yangi avlod tarbiyasi sohasidagi barcha muammolarni ota-onalar ishtirokisiz hal qila olmasligi, o‘quvchilarning “o‘quv muvaffaqiyati” va ota-onalarning pedagogik bilimlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi hamda ota-onalarning pedagogik bilimini oshirish maqsadida maktablarda ota-onalar bilan turli pedagogik tadbirlar olib borilishi lozimligi borasida fikr yuritiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается неспособность школы решить все задачи в области воспитания подрастающего поколения без участия родителей, прямая связь «успеваемости» учащихся с педагогическими знаниями родителей, и роль педагогических мероприятий, в которых родителям нужно принимать участия.*

Annotation. *This article discusses the inability of schools to solve all problems in the field of upbringing of the new generation without parental involvement, the direct link between students ”academic*

success" and parents' pedagogical knowledge, and the need for parents to pedagogical measures which should be taken.

Kalit so'zlar: *jamoaviy, individual, jamoaviy aloqa shakllari, sinfda ota-onalar yig'ilishi, maslahat soatlari, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar konferensiyasi, tematik maslahatlar, individual aloqa, pedagogik savodxonlik.*

Ключевые слова: *коллектив, личность, формы коллективного общения, классные родительские собрания, часы консультаций, день открытых дверей, родительское собрание, тематическое консультирование, индивидуальное общение, педагогическая грамотность.*

Keywords: *collective, individual, forms of collective communication, classroom parent meetings, counseling hours, open house, parent conference, thematic counselling, individual communication, pedagogical literacy.*

Ma'lumki, maktab yangi avlod tarbiyasi sohasidagi barcha muammolarni ota-onalar ishtirokisiz hal qila olmaydi. O'quvchilarning "o'quv muvaffaqiyati" va ota-onalarning pedagogik bilimlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Qoida tariqasida, to'g'ri oilada tarbiyalangan bolalarning ta'lim muvaffaqiyati ham yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham Sh.S.Shodmonova "Axloq kishilarning bir-biriga, jamiyatga, Vatanga, oilaga, tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan ma'naviy asoslangan, adolat mezonlariga tayangan o'zaro munosabatlarning muayyan tizimini ifodalaydi", deb ta'kidlaydi.[1]

Biroq oila tarbiyasida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan oilalar ko'p. Buning asosiy sabablaridan biri ota-onalarning pedagogik bilimga ega emasligidir. Ota-onalarning pedagogik bilimini oshirish maqsadida maktablarda ota-onalar bilan turli pedagogik tadbirlar olib boriladi. Bu ish jamoaviy va individualdir.

I. Jamoaviy aloqa shakllariga quyidagilar kiradi:

♦sinfda ota-onalar yig'ilishi;

♦ota-onalar uchun maslahat soatlari;

♦ota-onalar uchun ochiq eshiklar kuni;

♦ota-onalar konferensiyasi;

♦turli sinflarga ega ota-onalar uchun tematik maslahatlar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;

♦doimiy pedagogik suhbatlar.

II. Individual aloqa shakllariga quyidagilar kiradi:

♦sinf rahbari u yoki bu o'quvchining oilasiga tashrif buyuradi;

♦ota-onalarni maktabga taklif qilish va hokazo.

III. Guruh aloqa shakllariga quyidagilar kiradi:

♦intizomni tez-tez buzadigan va pedagogik ta'sirlardan xulosa chiqarmaydigan ikki yoki undan ortiq o'quvchilarning ota-onalari darsga chaqiriladi;

♦pedagogik va psixologik ta'limga muhtoj sinfning ota-onalari uchun pedagogik ma'ruzalar.

O'qituvchi o'quvchilarga ko'rsatilgan shakllarning har biri haqida ma'lumot berishi kerak. Buni tushuntirgandan so'ng, u uchun quyidagi masalalarni hal qilish muhimdir. Ota-onalar bilan olib boriladigan pedagogik, nazariy va uslubiy ishlarning aksariyati (ayniqsa, pedagogik savodxonlikni oshirish uchun zarur bo'lgan ishlar) jamoaviy xarakterga ega.

Ma'ruza va suhbat mazmunini tushunish uchun hamma tinglovchilar ham bir xil imkoniyatga ega emas. Shu munosabat bilan, ma'ruzalar, suhbatlar, bahs-munozaralar, bahslar har doim ham pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq natijalarni bermaydi. Kerakli pedagogik natijalarga erishish uchun ota-onalar bilan individual ishlash kerak.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, differentsial yondashuv yanada samarali natijalarga erishish uchun sharoit yaratadi. Pedagogik bilimlarni targ'ib qilishga differensial yondashish deganda har qanday mezonlar asosida aniqlangan ota-onalar guruhlari bilan maqsadli va rejali nazariy va uslubiy ish olib borilishi tushuniladi.

Bunda o'qituvchi turli vaziyatlarda har bir guruh uchun eng samarali vosita va usullardan foydalanadi. Ota-onalar bilan ishlash maqsadiga qarab, farqlash mezonlari boshqacha bo'lishi mumkin: "Ota-onalarning maktabga munosabati", "Oila tuzilishi", "Ota-onalarning pedagogik tayyorgarlik darajasi" va

[1]Shodmonova Sh.S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari. Ped. fanlari nomzodi....dis., Nizomiy nomidagi Toshkent davlat ped. un-ti, Toshkent, 2001, 20-bet.

boshqalar. Pedagogik savodxonlik darajasiga ko‘ra ota-onalarni uch guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Bu guruhlar quyidagicha:

Birinchi guruhga kelayotgan ota-onalar o‘zlarining yuqori pedagogik savodxonligi va farzand tarbiyasiga qiziqishi va ishtiyoqi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday ota-onalar doimiy ravishda yangi adabiyotlarni izlaydilar va pedagogik bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib boradilar. Ularning aksariyati ota-onalar qo‘mitasi a’zosi bo‘lib, maktab tomonidan berilgan vazifalarni mas’uliyat bilan bajaradi.

Ikkinchi guruhdagi ota-onalar farzandlari tarbiyasiga juda qiziqadi. Biroq ularda pedagogik tayyorgarlik yetarli emas. Shu sababdan ham ular har doim ham farzandlarini tarbiyalashda muvaffaqiyat qozona olmaydi. Ba’zida ular va bolalar o‘rtasida qisqa muddatli nizolar mavjud. Bunday hollarda ular sinf rahbari bilan maslahatlashadilar. Ular maktabda o‘tkaziladigan turli tadbirlarda ham faol ishtirok etib, farzandlarining yaxshi o‘qishi uchun bor kuchlarini sarflaydilar.

Uchinchi guruhdagi ota-onalarning pedagogik savodxonligi pastligi sababli farzandlarini tarbiyalashga qiziqmaydi. Bunday oilalarda, ko‘pincha, bolalar va ota-onalar o‘rtasida nizolar bo‘ladi. «Bunday muhit qurboniga aylangan bolalarning ba’zilari jangari, hammadan yotsiraydigan, janjalkash bo‘lsa, ayrimlari mutlaqo teskarisi–yuvosh, tortinchoq odamovi, zard-hasratli bo‘ladi. Bundan qat’iy nazar, bolaning xulq-atvori, fe’lidagi nuqsonlar ko‘ngli o‘ksiklikdan, asabiylashganlikdan, o‘zidan norozilikdan boshlanadi. Demak, bola tarbiyasida unga mehr-shafqat ko‘rsatish o‘ta ortiq ham, kam ham bo‘lishi yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi».[1]

Birinchi guruhdagi ota-onalar bilan ishlashda birinchi navbatda ularning pedagogik mahorati va tajribasiga tayanib, ularga uslubiy topshiriqlar berish kerak. Ikkinchi va uchinchi guruh ota-onalari uchun turli yig‘ilishlar, ilmiy-metodik konferensiyalarda ma’ruzalar, suhbatlar tashkil etish, turli sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda qatnashish maqsadga muvofiqdir. Bu ota-onalarni eng yangi pedagogik adabiyotlar bilan tanishtirish, ularning pedagogik mahoratini oshirish haqida g‘amxo‘rlik qilish zarur.

Maktab ikkinchi guruh ota-onalarning nazariy bilimlarini oshirishga harakat qilishi kerak. Shu maqsadda o‘nlab “bolaning bo‘sh vaqtini tashkil etish”, “Madaniy xulq-atvor qoidalari” va boshqalar. Muammolarni hal qiladigan suhbatlar foydali bo‘lishi mumkin. Bu ota-onalar, ko‘pincha, illustratsiyalar asosida misollar keltirishi va muayyan vaziyatda nima uchun buni qilish kerakligini tushuntirishi kerak. Bunday vazifalarni hal etish, bir tomondan, ota-onalarning nazariy bilimlarini oshirsa, ikkinchi tomondan, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, ushbu guruh ota-onalari turli vaziyatlarda qanday harakat qilishlarini o‘rganishlari va xatolarini muhokama qilishlari foydali bo‘ladi. Muntazam tematik uchrashuvlar ham alohida ahamiyatga ega.

Uchinchi guruhdagi ota-onalar bilan ko‘proq individual suhbatlar kerak. Ushbu suhbatlarda ota-onalarning xatolarini tushuntirish muhimdir. Muntazam individual suhbatlar birmuncha vaqt o‘tgach, bu ota-onalar bilan guruh sifatida ishlash mumkin bo‘lganda, ularga muqobil vazifalar taklif qilinishi mumkin.

Ushbu turdagi faoliyat ota-onalarga har qanday vaziyatda o‘z munosabatini va xatolarini o‘rganish imkonini beradi. Keyin xatolar muhokama qilinadi va o‘qituvchilar asta-sekin bu ota-onalarga tushuntirish topshiriqlarini berishlari mumkin. Bunday topshiriqlar ota-onalarga erkin fikrlash imkonini beradi. Suhbatlar, mavzuli uchrashuvlar, savol-javob kechalari va h.k. asta-sekin meva beradi.

Shunday qilib, ota-onalar bilan muloqot oilaviy tarbiyaning ijobiy an’analariga asoslangan tizimli, maqsadli, rejali bo‘lishi kerak. Sinf rahbarining oilalar bilan ish olib borishidan asosiy maqsad o‘quvchilarni tarbiyalashda umumiy talablarni aniqlashdan iborat. Sinf rahbari tomonidan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning samaradorligi maktab va oila oldida turgan turli shakl va usullarning muvofiqlashtirilganlik darajasiga, ishning mazmuniga bog‘liq.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda, sivilizatsiyalashgan jamiyatlarda ota-onalar hech qanday bosimsiz, o‘z ixtiyori bilan maktabga moddiy yordam ko‘rsatadi. Ular ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni mukammal tashkil etish, moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Chunki ular uchun maktab ibodatxona hisoblanadi. Ularning fikricha, maktab farzandlarini tarbiyalaydi va o‘qitadi. Shu munosabat bilan, ular maktab uchun fidoyilik ko‘rsatishga intiladi. Zero, ta’lim sohamizdagi eng katta tajribalardan biri maktab – oila – mahalla hamkorligini samarali tashkil etish bo‘ldi. O‘z vaqtida juda ko‘p izlanishlar olib borildi, dissertatsiyalar yozildi, “Ta’lim nafaqat davlat ishi, balki umumxalq ishi, umumxalq ishi” kabi shiorlar ilgari surildi. Balki, yuqori texnologiya jonli inson muloqotidan ustun kela-

[1] Karimova V. Yaxshilikning chek-chngarasi yo‘q. “Xalq so‘zi”, 2004, 26 mart.

di, virtuallik bunga sharoit yaratadi. Faqat o‘quvchi qadrini o‘rganish, maktabga qabul qilish onlayn tarzda amalga oshiriladi, shuning uchun ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida tafovut bor.

“Maktab uchburchagi” – maktab, oila va jamiyat tushunchasi pedagogik adabiyot va ommaviy axborot vositalarida eng ko‘p qo‘llanilgan iboralardan biri bo‘lgan. Bu esa o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muvaffaqiyat va yutuqlarga olib keladi. Agar mavjud bo‘lsa, har ikki tomonda jiddiy kamchilik bo‘lsa, keyin jamiyat, oila va maktab muammolarga duch keladi, bu esa noxush oqibatlarga olib keladi. Axir maktab va pedagogik muhit ta’limning birinchi manbayi bo‘lib, bu yerda hamma narsa to‘g‘ri boshqaruvga bog‘liq.

Bola shaxsini shakllantirishda oilaning o‘rni beqiyos. Yosh avlod tarbiyasi oilaning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, ota-onaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, oilada ota-onaning ezgu tilaklaridan qat’iy nazar, yaxshi va yomon farzandlar yetishib chiqishi mumkin. Buni qanday tushuntirish mumkin? Oilada yaxshi yoki yomon bola qanday sharoitda shakllanadi? Yosh avlod tarbiyasida ota-onalar nimalarga alohida e’tibor berishlari kerak? Hech bir oilada bola o‘z-o‘zidan tarbiyalanmaydi. Har bir ota-ona o‘z farzandlarini tarbiyalashda ma’lum bir pedagogik maqsadni boshqaradi. Bu maqsad qay darajada haqiqat yoki yolg‘on? Ota-onalar o‘z maqsadlariga qanday erishadilar? Ba’zi ota-onalarning pedagogik maqsadlari, ko‘pincha, noaniq. Bu esa oilada farzand tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, ota-onalarning mutlaq ko‘pchiligi tomonidan qo‘yilgan pedagogik maqsadlar o‘zining aniqligi bilan ajralib turadi.

Shaxsning shakllanishi bevosita jamoatchilik bilan aloqalar tizimi bilan bog‘liq. Keng ma’noda tarbiyaning bu jihati ijtimoiy munosabatlar tizimining, jumladan, oilaviy munosabatlarning bola shaxsiga ta’siridir.

Jumamuratov Renat Esenbaevich (Navoiy davlat Konchilik instituti Nukus filiali Umumtexnika fakulteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi; email: zhumamuratov82@inbox.ru),
Kaipbergenov Atabek Tulepbergenovich (texnika fanlari doktorı, dotsent),
Abdirazakov Islam Ayniyaz o‘g‘li (Navoiy davlat Konchilik instituti Nukus filiali 3-bosqich talabasi),
Aynazarova Svetlana Sarsenovna (Kegeyli tumani 1-maktabi o‘qituvchisi)

KIMYO DARSLARIDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya*. Maqola kimyo darslarida kompyuter texnologiyasidan foydalanish yangi materialning idrokini kuchaytiradi, kimyoga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.*

Аннотация*. Статья посвящена вопросам использования компьютерных технологий на уроках химии, способствующих развитию восприятия нового материала, повышению интереса к изучению химии.*

Annotation. *The use of computer technologies in chemistry lessons strengthens the perception of new material, contributes to increase interest in chemistry.*

Kalit so‘zlar: *kompyuterda kimyoviy jarayonlar, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, modellashtirish, maktab laboratoriyasida namoyish etilmaydigan hodisalar, tajribalarni o‘rganish.*

Ключевые слова: *изучение химических процессов на компьютере, использование цифровых образовательных ресурсов, моделирование, изучение явлений, экспериментов, которые не могут быть продемонстрированы в школьной лаборатории.*

Keywords: *the study of chemical processes on a computer, the use of digital educational resources, modeling, the study of phenomena, experiments that cannot be demonstrated in a school laboratory.*

Kimyo fanini o‘qitishda, eng tabiiy narsa – kimyo fanining xususiyatlariga asoslangan kompyuterdan foydalanish. Kompyuter, birinchi navbatda, kimyoviy jarayonlar va hodisalarni modellashtirish, interfeys rejimida laboratoriya ishlatish, yangi materiallarni taqdim etish jarayonini kompyuter yordamida qo‘llab-quvvatlash va uning assimilatsiyasini nazorat qilish uchun zarurdir. Kompyuterda kimyoviy jarayonlar va hodisalarni modellashtirish, birinchi navbatda, maktab laboratoriyasida namoyish etilmaydigan hodisalar va tajribalarni o‘rganish uchun kerak, ammo ular kompyuter yordamida ko‘rsatilishi mumkin. Kompyuter modellaridan foydalanish o‘rganilayotgan obyektning muhim aloqalarini ochib beradi, bu esa materialning yaxshi assimilatsiyasiga olib keladi. Talaba bu hodisani o‘rganishi, parametrlarini o‘zgartirishi, olingan natijalarni taqqoslashi, ularni tahlil qilishi, xulosalar chiqarishi mumkin. Misol uchun, reaktiv moddalar konsentratsiyasining turli qiymatlarini belgilash (kimyoviy reaksiya tezligini turli omil-

larga bog‘liqligini modellashtirish dasturida), talaba chiqadigan gaz hajmining o‘zgarishini kuzatishi mumkin va hokazo.[1]

Kimyo fanini o‘qitishda kompyuterdan foydalanishning ikkinchi yo‘nalishi kimyoviy eksperiment ma’lumotlarini nazorat qilish va qayta ishlash hisoblanadi.

Talabalar «virtual ta’lim laboratoriyasi» bilan ishlashdan juda mamnun. Qo‘llanma fizik va kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, metallar va metallmasllar, ularning birikmalarini olish va ulardan foydalanish bo‘yicha ishlarni taqdim etadi. Oddiy va murakkab moddalar, minerallar va rudalar namunalari bilan tanishish, ularning ayrimlarining fizik va kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tajribalar taklif etiladi.

Amaliy ishlarda «kimyo bo‘yicha virtual laboratoriya»dan foydalanamiz. Hech qanday sinov naychasi, bitta kimyoviy moddasi bo‘lmasa, uning dasturi doirasida tajriba qilishingiz mumkin. Tajribada yuz beradigan o‘zgarishlarni juda yaxshi ko‘rsatib turibdi, ular virtual ravishda suratga olinishi va ish daftarida saqlanishi mumkin. Kimyoviy tajribalar virtual laboratoriyada amalga oshiriladi, bu kimyoviy uskunalar va kimyoviy reaktivlarni o‘z ichiga oladi. Har bir laboratoriya ishi davomida talaba eksperimentlar natijalarini kuzatish, qayta ishlash va umumlashtiradi.[2]

AKTdan foydalanishning uchinchi yo‘nalishi kursni dasturiy qo‘llab-quvvatlashdir. Kimyo fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘quv maqsadlarining dasturiy vositalarining mazmuni darsning maqsadlari, o‘quv materiallarining mazmuni va ketma-ketligi bilan belgilanadi.

Kimyo darslarida kompyuter texnologiyasidan foydalanish yangi materialning idrokini kuchaytiradi, uni assimilatsiya qilish va yodlashni osonlashtiradi, o‘quvchining bir nechta axborot kanallariga ta’sir qiladi, kimyoga bo‘lgan bilim qiziqishini oshirishga, o‘rganish istagi va qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, treningda individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, trenajyorlar, laboratoriya seminarlari, bilimlarni test qilish tizimlari, multimedia texnologiyalari asosida tizimlar bo‘lgan kompyuter dasturlari va ta’lim tizimlaridan foydalanib, kimyo darslarida axborot texnologiyalarini qo‘llash mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchi darsni tashkil etishda, asl didaktik materiallarini ishlab chiqishda ijodiy yondashuvni namoyish etish imkoniyatiga ega. O‘qituvchi tayyor ta’lim resurslaridan foydalanishi mumkin va mustaqil ravishda, masalan, «1C:ta’lim» platformasi yoki boshqa dasturlarga asoslangan holda yaratilishi mumkin.[3]

Raqamli ta’lim resurslari – bu foydalanish uchun juda oson va tanish resurslari. Ular an’anaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalariga qo‘shimcha sifatida yaratilgan. Raqamli ta’lim resurslari to‘plamlari an’anaviy sinf-o‘quv jarayoniga og‘riqsiz mos keladi, chunki ular taniqli darsliklarga «bog‘langan». Shu bilan birga, ular o‘qituvchilikning eng keng qatlamlariga darslarini yorqinroq, dinamik, zamonaviy qilish imkonini beradi.

Kimyoni o‘qitishning asosiy shakli sifatida elektron o‘quv modullaridan foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Sayt LearningApps.org. interaktiv modul yordamida o‘qitish va o‘qitish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Mavjud modullar to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’lim mazmuniga kiritilishi mumkin va ular o‘zgarishi yoki operativ rejimda yaratilishi mumkin. Ularning ba’zilari mazmuni kimyo fanini asosiy darajada, shuningdek, umumta’lim muassasalari uchun texnik va tabiiy fanlar bo‘yicha yuqori darajada o‘qitish imkonini beradi. Odatda, har bir dars uchta moduldan iborat: axborot, amaliy, diagnostika moduli va nazorat.

Axborot va amaliy modullar darsda, yangi materialni o‘rganishda va uni o‘rnatishda ham qo‘llanilishi mumkin. Nazorat moduli yangi materialni takrorlashda, shuningdek, umumlashtiruvchi darslarda bilim va ko‘nikmalarni nazorat qilishda foydalanish tavsiya etiladi.

Kimyo bo‘yicha mavjud elektron qo‘llanmalarda ishlatiladigan an’anaviy chizmalar, video va animatsiya qismlari bilan bir qatorda, qo‘llanmaning axborot moduli interaktiv vazifalarni (dinamik sxemalar, chizmalar va elektron modellar) o‘z ichiga oladi. Ular kimyoviy jarayonlarning rivojlanishini sxematik tarzda ko‘rsatishga, alohida qismlarning tasvirini kengaytirishga imkon beradi. Surat va videofilmlarni turli xil sxematik tasvirlar bilan birlashtirgan illustrativ bloklar, ayniqsa, samarali.[4]

---

[1] Jumamuratov R.E., Kaipbergenov A.T. Kompyuter texnologiyaları járdeminde ximiya pániniń tiykarǵı túsinikleri. “Ilim hám jámiyet”, 2019, №4, 26 – 27-betlar.

[2] Калмыкова З.И. Продуктивное мышление как основа обучаемости. М., 1981.

[3] Тарасова С.А. Компьютерное обучение химии: состояние и перспективы. М., Учпедгиз, 2001.

[4] Jumamuratov R.E., Kaipbergenov A.T. Kompyuter texnologiyaları járdeminde ximiya pániniń tiykarǵı túsinikleri. “Ilim hám jámiyet”, 2019, №4, 26 – 27-betlar.

Kimyo fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini beradi:

●to‘g‘ridan to‘g‘ri kuzatuvdan yashirilgan, o‘rganilgan jarayonlarni tasavvur qilish, bir vaqtning o‘zida, takroriy takrorlash imkoniyatini berish;

●materiallarni o‘zlashtirishning individual tezligi bilan o‘rganish imkoniyati bilan o‘quv jarayonini individuallashtirish va farqlash;

●xatolarni tashxislash va ta’lim faoliyati natijalarini baholash bilan teskari aloqa nazoratini amalga oshirish;

●o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini tuzatish;

●o‘quv materiallarini o‘zlashtirish va o‘quvchilarni o‘z-o‘zini tayyorlash jarayonida treningni amalga oshirish;

●bolalar ijodini namoyish etishga ko‘maklashish;

●bo‘lajak mutaxassislarning axborot madaniyati asoslarini shakllantirishga ko‘maklashish.

Shuni ta’kidlash kerakki, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish har bir o‘quvchining rivojlanishiga e’tiborni jalb qilish imkonini beradi. Oddiy bilimdan ta’lim olish uchun ta’lim olish va natijada o‘quvchining asosiy qobiliyatini shakllantirish – o‘z-o‘zini o‘rganish, hayot davomida o‘rganish qobiliyati. Bularning barchasi darsning maqsadlari va maqsadlariga muvofiq raqamli ta’lim resurslarini ehtiyotkorlik bilan tanlab olish va sinfda va uyda bir yoki bir nechta kompyuterda ishlashni to‘g‘ri tashkil etish sharti bilan amalga oshirilishi mumkin.

Har bir muayyan vaziyatda turli o‘qituvchilar turli kontingentlar bilan ishlashda farq qilishi kerak bo‘lgan texnikani diqqat bilan tekshirish lozim. An’anaviy darslarda bo‘lgani kabi, bir vaqtning o‘zida, universal va samarali narsalarni taklif qilish mumkin emas.

Afsuski, o‘qituvchilar tomonidan interaktiv imtiyozlardan foydalanish bo‘yicha ogohlantirishlar mavjud. Bunday imtiyozlarni ishlab chiquvchilar, o‘z navbatida, o‘qituvchilarni har bir darsda axborot, nazorat va amaliy modul bilan bir vaqtning o‘zida ishlashning maqsadga muvofiq emasligi haqida ogohlantiradilar. Eng yaxshi variant – bu darsda emas, balki uyda, o‘z-o‘zini tayyorlash va o‘tgan materialni takrorlash jarayonida modulli o‘quvchilarning ishi.[1]

Kimyo fanini o‘rganishda kompyuter prezentatsiyalaridan foydalanish. Har qanday ta’lim darajasida samarali ta’lim olish uchun turli darajadagi murakkablikning ko‘rgazmali qo‘llanmalari – mulaj va plakatlardan multimedia loyihalariga qadar katta ahamiyatga ega. Bu o‘rganilayotgan materialni assimilatsiya qilish jarayonida majoziy xotiraning asosiy roli bilan bog‘liq. Kompyuter taqdimoti multimedia loyihalarining turlaridan biri hisoblanadi. Ko‘pincha, konferensiyalarda va uchrashuvlarda, turli ko‘rgazmalarda, reklama paytida ishlatiladi.

Elektron prezentatsiyalarni o‘qitishning didaktik vositasi sifatida ko‘rish mumkin, multimediali proektor yoki interfaol taxta – sinfda taqdimotni namoyish etish imkonini beruvchi texnik vositalar. Kimyoviy eksperimentdan tashqari, deyarli barcha ta’lim vositalari taqdimot slaydlarini almashtirishi mumkin. Biroq, ijobiy ta’sir faqat taqdimot bir marta emas, balki muntazam ravishda qo‘llanilsa bo‘ladi.

Mavjud ta’lim vositalariga nisbatan prezentatsiyalarni qo‘llashda ijobiy va salbiy tomonlar mavjud.

Videofilm mustaqil ta’lim vositasi va taqdimotning bir qismi sifatida ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, elektron taqdimotda kichik videofilmlardan foydalanish qulayroq (4–5 daqiqadan oshmasligi kerak). Jadvallar va diagrammalar plakatlar shaklida, agar ular bitta yoki o‘z miqdorida ishlatilsa, afzalroq bo‘lishi mumkin, chunki o‘quvchilarning e’tiborini ushbu obyektga qaratadi. Agar siz uch yoki undan ortiq afishani ko‘rsatmoqchi bo‘lsangiz, ularning o‘zgarishi va osib qo‘yish qiyinligi kamchiliklarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu holda taqdimotga ustunlik berilishi mumkin.

Darslarda ko‘plab kimyo o‘qituvchilari, ko‘pincha, vazifalar bilan kartalarni tarqatadilar. Bunday oldindan tayyorlangan tarqatma materiallar slaydda taqdim etilgan vazifalardan ko‘ra yaxshiroqdir, chunki talaba individual karta bilan ishlaydi, daftardan ekranga qarashni majburlamaydi, vazifani yaxshiroq bajarishi mumkin. Shunday qilib, shartni loyihalashtirish maqsadga muvofiq emas, lekin muammoni hal qilish yoki loyihalashtirish namunasini ko‘rsatish juda mantiqiy. Bilimlarning test nazoratini amalga oshirishda interaktiv doska ekranida test topshirig‘ini loyihalashtirish faqat talabalar tomonidan ovoz berish uchun masofadan turib foydalanish nazarda tutilgan taqdirda oqlanadi. Boshqa barcha hollarda, qog‘oz yoki monitor ekranida test bilan individual ish tashkil etiladi.[2]

---

[1] Тарасова С.А. Компьютерное обучение химии: состояние и перспективы. М., Учпедгиз, 2001.

[2] Jumamuratov R.E., Kaipbergenov A.T. Kompyuter texnologiyaları járdeminde ximiya pániniń tiykarǵı túsinikleri. “Ilim hám jámiyet”, 2019, №4, 26 – 27-betlar.

O‘qituvchi multimedia yaratishda quyidagi prinsiplarga rioya qilish kerak. Butun dars taqdimotda «bog‘langan» bo‘lmasligi kerak. Taqdimot slaydlari darsda muammoli vaziyatni tushuntirish, mustahkamlash yoki yaratish vaqtida ishlatilishi mumkin. Texnikani o‘rnatish kerak, shuning uchun u talabalar va o‘qituvchilarning erkin harakatiga to‘sqinlik qilmaydi va klassik kengash bilan ishlash imkoniyatini istisno qilmaydi.

Taqdimot uchun materialni tanlash ilmiy, mavjudlik, ravshanlik tamoyillariga mos kelishi kerak.

Maktab darsida taqdimot maqsadi bo‘lishi mumkin:

- bilimlarni yangilash;
- yangi material o‘qituvchisi tomonidan tushuntirishni qo‘llab-quvvatlash;
- dastlabki bilimlarni mustahkamlash;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish.

Darsda barcha tushuntirishlar taqdimot slaydlarini namoyish qilish bilan birga bo‘lishi shart emas. O‘qituvchi tajriba va yozuvlarni (ayniqsa, talabalar o‘zlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lsa) va modellarni ko‘rsatishni o‘z ichiga olishi mumkin. Uzoq muddatli tushuntirish bilan, ayniqsa, diqqat bilan zaiflashgan sinfda, musiqa bilan birga dam olish uchun videofragmentni (1 daqiqadan oshmasligi kerak) yoqishingiz mumkin. Bu juda muhim kimyoviy ma’lumotlarga ega bo‘lmasligi mumkin, ammo dars mavzusi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Kimyo darslarida prezentatsiyalarni tayyorlash va qo‘llash bo‘yicha ba’zi tajribalarni umumlashtirib, bir qator xatolar va muvaffaqiyatsizliklarga olib kelishi mumkin bo‘lgan tavsiyalarni taklif qilishingiz mumkin.

♦Animatsiya juda faol bo‘lmasligi kerak.

♦Kimyoviy reaksiyalar tenglamalari, ayniqsa, yangi material taqdim etilganda taqdimotda yomon ko‘rinadi. Takroriy va umumlashtirilganda reaksiya tenglamalarini yozish juda mantiqiy.

♦Formulalar yozilgan to‘ldirishning zaharli yashil rangi formulalarni o‘zidan chalg‘itadi. Faol naqshni o‘z ichiga olgan quyuq fon va orqa qismlar yomon ko‘rinadi.

♦Ovozli musiqa mutlaqo keraksiz, hatto jim fon musiqasi bo‘lsa ham, ortiqcha shovqin hosil qiladi va o‘qituvchining tushuntirishiga to‘sqinlik qiladi. Istisnolar o‘qituvchi ko‘rib chiqayotganda izoh berishni nazarda tutmaydigan videografikalar. Musiqiy fon o‘quvchilar uchun amaliy mashg‘ulotlar davomida yaxshi ishlaydi, lekin bu yerda ovozning qaysi manbadan kelib chiqishi, ehtimol, bu holda magnitafon afzalroq bo‘lishi muhim emas.

Talabalar tomonidan elektron prezentatsiyalar yaratish – uy vazifalaridan biri. O‘qituvchining topshirig‘iga binoan, talabalar har bir slaydga tegishli izohlar bilan muayyan mavzu bo‘yicha 7–10 slayddan taqdimot yaratadilar. Taqdimot yaratish bo‘yicha bolalarni birgalikdagi ijodga faol jalb qilish ularning bilim, axborot-kommunikativ va refleksiv faoliyatini ta'minlaydi va rivojlantiradi. Bunday ijodkorlik «o‘qituvchi – talaba – ota-ona» tizimida shaxslararo hamkorlikning yangi darajasiga erishishga imkon beradi. Kompyuter taqdimotidan foydalanish shakllari va usullarining xilma-xilligi maktab o‘quvchilarining kimyo bo‘yicha barqaror qiziqishini saqlab qolish, o‘quv materiallarini mustahkam va to‘liq o‘zlashtirish, o‘zaro aloqalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalar va darsdan tashqari faoliyatlar uchun turli xil ish shakllari tashkil etilishi mumkin. Asosiy vakolatlarni shakllantirish loyiha faoliyatidan foydalanmasdan tasavvur ham qila olmaydi.

Tadqiqotni o‘tkazishning turli bosqichlarida talabalar Global Internet tarmog‘ida ishlashadi. Telekommunikatsiya texnologiyalari nafaqat axborotning asosiy manbayi, balki o‘xshash odamlar, rahbarlar bilan muloqot qilish va tarmoq loyihalarida ishtirok etish vositasi sifatida ham ko‘rib chiqiladi.

Yakuniy bosqichda mahsulot taqdimoti bo‘lib o‘tadi. Bundan tashqari, elektron pochta va www (internet-saytlar tarmog‘i) kabi kompyuter vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan telekommunikatsiya loyihalarining afzalliklarini alohida ta‘kidlashni istardim. Bunday loyihalar har doim yuqori darajada. Telekommunikatsiya loyihalarining muammolari va mazmuni, ularning bajarilishi tabiiy ravishda kompyuter telekommunikatsiya vositalarini jalb qilishni talab qiladi. Telekommunikatsiya loyihalari nafaqat qiziqarli dinamik loyiha, balki iqtidorli bolalar bilan ishlashda bebaho yordam beradigan o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun jiddiy axborot resursidir. Turli darajadagi olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rish uchun mediakutubxonasi resurslari qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytmoqchimizki, o‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish nafaqat talabalar, balki o‘qituvchilar faoliyati samaradorligini oshiradi, o‘qituvchilar va talabalarning ufqlarini kengaytirishga yordam beradi, hamkasblar bilan fikr va tajriba almashishga yordam beradi.

Джуракулов Хусан Анварович (Шароф Рашидов номидаги Самарқанд Давлат университети; e-mail: djurakulov-84@mail.ru)

ЎЗБЕКИСТОНДА ЗАМОНАВИЙ ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ

Аннотация. *Ушбу мақолада мамлакатимиз экотуризмини ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари ва уни такомиллаштириш масалалари, уни ривожлантиришнинг устувор стратегик вазифалари ва йўналишларини таҳлил қилишдан иборат. Зеро, экотуризмни ривожлантириш дунё мамлакатлари, хусусан, мамлакатимиз олдида турган долзарб ижтимоий-иқтисодий масалалар сифатида уни ривожлантириш истиқболларини белгилаб берувчи чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ҳар қачонгиданда заруриятга айланиб бормоқда.*

Аннотация. *В данной статье анализируется правовая база развития экотуризма в стране и вопросы ее совершенствования, приоритеты и направления ее развития. Действительно, в мире все большее значение приобретает развитие экотуризма, в частности, разработка мер по определению перспектив его развития как актуальной социально-экономической проблемы, стоящей перед нашей страной.*

Annotation. *This article analyzes the legal framework for the development of ecotourism in the country and the issues of its improvement, the priorities and directions of its development. Indeed, the development of ecotourism is becoming increasingly important in the world, in particular, the develop-ment of measures to determine the prospects for its development as an urgent socio-economic problem facing our country.*

Калит сўзлар: *туризм, экотуризм, замонавий экотуризм, табиий қонуниятлар, атроф-муҳит, экология экологик ҳуқуқий онг.*

Ключевые слова: *туризм, экотуризм, современный экотуризм, законы природы, окружающая среда, экология, экологическое правосознание.*

Keywords: *tourism, ecotourism, modern ecotourism, laws of nature, environment, ecology, environmental legal awareness.*

Барчамизга маълумки, дунёда энг йирик ва тез ривожланаётган соҳалардан бири бугунги кунда туризм бўлиб, даромад топишнинг муҳим манбаи сифатида ўз имкониятларини сафарбар қилиб мамлакатлар иқтисодиётининг ривожланишида асосий ўринни эгаллаб келмоқда. Бутунжаҳон Туризм Ташкилоти (БТТ) маълумотларига кўра, "Туризм ер юзи ишлаб чиқариш–хизмат кўрсатиш бозори маблағ айланмасининг 10%ни таъминлайди. Тахминан 6% жаҳон ялпи миллий маҳсулоти, жаҳон инвестициясининг 7%, жаҳон истеъмоли харажатининг 11%, барча солиқ тушумларининг 5%, ҳар 16 ишчи ўрнининг бири туризм соҳаси ҳиссасига тўғри келади. Бутунжаҳон Туризм Ташкилоти (БТТ) маълумотига кўра, ҳар йили ер юзи аҳолисининг 1/3 қисми сафарга чиқади, халқаро туризмнинг йиллик ўсиши 4%ни ташкил этади".[1]

Мамлакатимизда ҳам туризм соҳасини ривожлантириш давлат сиёсатининг асосий устувор йўналишларидан бирига айланди. Бу борада давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев, "Бугунги кунда ушбу соҳада олиб борилаётган давлат сиёсати – истиқболда ҳудудлар ва уларнинг инфратузилмасини комплекс жадал ривожлантириш, долзарб ижтимоий-иқтисодий вазифаларни ечиш, иш ўринларини кўпайтириш, ҳудудлар диверсификацияси ва ривожланишини таъминлаш, аҳолининг даромадлари, яшаш даражаси ва сифатини ошириш ҳамда мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлиги ва имиджини яхшилашга қаратилган. Туризмни иқтисодиётнинг стратегик тармоғига айлантириш биз учун устувор вазифа бўлиб қолади. Ҳукумат олдидаги энг муҳим вазифалардан бири–яқин йилларда юртимизга келадиган туристлар сонини 10 миллионга етказишдан иборатлигини[2] таъкидлайди. Бунда, албатта, саёҳатчиларга ҳар томонлама қулайлик бўлиши учун туризм инфратузилмасини такомиллаштириш зарурлигини тақозо этади. Яъни, туризм инфратузилмаси деганда – туристларнинг туризм захиралардан бемалол фойдаланишини таъминловчи бинолар тизими, муҳандислик ва коммуникация тармоқлари, шу жумладан, йўллар, туризмнинг хилма-хил кор-

[1] Жаҳон туризм ташкилоти //www.unwto.org/ru

[2] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, «Ўзбекистон», 2021, 173 – 174-бетлар.

хоналари ва уларнинг фаолияти, шунинг билан бирга, ушбу фаолиятни таъминловчи бошқа тизимлар тушунилади. Булар қаторида авто йўл, темир йўл, ҳаво йўллари, денгиз ва дарё йўллари ҳаракатини тартибга солувчи тизимлар, иссиқлик, электр ва телефон алоқаларини санаб ўтиш мумкин.[1]

Маълумотларга эътибор қаратадиган бўлсак, айни пайтда, Ўзбекистонда 800 га яқин туризм фаолиятини кўрсатувчи туроператорлик фирмалари, 600 га яқин меҳмонхоналар, 30 дан ортиқ муҳофазага олинган ҳудуд (қўриқхона, миллий боғ, нодир табиат ёдгорликлари ва ҳ.к.)лар, 60 та ўрмон хўжаликлари, фаолият кўрсатмоқда, шунингдек, Ўзбекистонда 400 дан ортиқ табиатнинг ноёб ёдгорликлари мавжуд.[2]

Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар бевосита туризм соҳасини ҳам қамраб олар экан, бу борада давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев "Янги Ўзбекистон стратегияси" китобида "Туризм – Ўзбекистон иқтисодиётининг драйвери" эканлигини таъкидлаб ўтади. Дарҳақиқат, бугунги янги Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш асосий устувор вазифалардан бири сифатида қаралмоқда ва бунга етарлича асослар бор.

Мамлакатимизда туризмга бўлган эътибор натижасида хорижлик туристлар оқими ошиб бормоқда. Хусусан, 2016 – 2019 йиллар давомида мамлакатга келган чет элликлар сони 4 баробар, "туризм" ("саёҳат") мақсадида келганлар сони эса 6 баробар ошди. Сўнгги уч йилда мамлакатимизга келувчи хорижлик сайёҳлар сони 4 баробар ошди.[3]

Айни вақтда, мамлакатимиз туризм соҳасида тарихий, маданий, тиббиёт, зиёрат, маърифий, этнографик ва гастрономик туризмини ривожлантириш билан бир қаторда, экологик туризм (экотуризм)ни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, "Экологик туризм Ўзбекистонда ривожланаётган ва истиқболли тармоқ ҳисобланади. Экологик туризм катта иқтисодий даромад келтиришга қодир"[4] бўлган манба сифатида мамлакат иқтисодиёти таркибида ривожланиб бораётган туризмнинг муҳим йўналишларидан биридир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги ПФ-4861-сонли "Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони мамлакатимизда туризм соҳаси, хусусан, туризмнинг янги йўналишларидан бири бўлган экотуризмнинг янги босқичда ривожланишида мустаҳкам пойдевор бўлди. Ушбу фармонда давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, "мамлакатда туризмни жадал ривожлантириш, мавжуд улкан туризм салоҳиятидан яна-да тўлиқ ва самарали фойдаланиш, анъанавий маданий-тарихий туризм билан биргаликда туризмнинг бошқа салоҳиятли турларини – зиёрат қилиш, экологик, маърифий, этнографик, гастрономик, спорт, даволаш-соғломлаштириш, қишлоқ, саноат, ишбилармонлик туризми ва бошқа турларини жадал ривожлантириш, болалар, ўсмирлар ва ёшлар туризмини, оилавий туризмни, кексалар учун ижтимоий туризмни ривожлантириш ҳисобига туризмнинг ижтимоий аҳамиятини кучайтириш, ҳудудларда янги туризм йўналишларини ташкил этиш, уларни паспортлаштириш, туризм йўналишлари ва туризм объектлари бўйича ягона миллий реестрларни шакллантиришга йўналтирилган ички, кириш ва чиқиш туризмини комплекс ривожлантиришнинг миллий ва ҳудудий дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш"[5] каби масалалар давлат сиёсатининг асосий устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланди. Бу эса туризм индустриясида бошқа туризм йўналишлари билан биргаликда экотуризмни яна-да ривожлантиришга ва унинг имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилади.

Бугунги кунда мамлакатимизда замонавий экотуризм инфраструктурасини ривожлантириш масалаларига катта эътибор қаратилмоқда. Экотуризмнинг асосий объекти бўлган табиат ва унинг компонентларини ҳимоя қилиш, табиий атроф-муҳит мусаффолигини сақлаш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан бирига айланди. Зеро, республикамизда алоҳида муҳофаза этилаётган табиий ҳудудлардан майдони 2164 км квадратни ташкил этган 9 та давлат қўриқхонаси, 6061 км квадрат майдондаги 2 та миллий боғ, ноёб турларга кирувчи ҳайвонларни кўпайтириш республика

[1] Жуманиязова Ш.Р. Туризм инфратузилмасини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари. "Iqtisodiyit va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. Т., 2021, №3, 378 – 385-бетлар.

[2] https://m.kun.uz/news/2017/03/08/uzbekistonda-ekoturizmni-rivozlantiris-imkoniatlari-kandaj

[3] Манба: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/8193/

[4] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, "O'zbekiston", 2021, 398-бет.

[5] Мирзиёев Ш.М. "Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони. 2016 йил 2 декабрь, ПФ-4861-сонли https://lex.uz/docs/3077025.

жайрон экомаркази, 12186 км квадрат майдонда 11 та давлат буюртма қўриқхоналари мавжуд. Буларнинг ҳаммаси 20520 кв. км. ёки Ўзбекистоннинг 5,2% ҳудудини ташкил этади.[1]

Олиб борилган изланишлар шуни кўрсатдики, бугунги кунда умумий туризм тизимида экотуризмни ривожлантиришнинг аниқ йўналтирилган моделларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, экотуризмнинг ички имкониятларини синтез қилувчи миллий моделни ишлаб чиқиш ва уни ҳаётга татбиқ этиш объектив заруриятга айланиб бормоқда. Ушбу моделда қуйидаги йўналишларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

– экологик туризмни ривожлантириш усул-воситаларининг (экотуристик тарғибот-ташвиқот, тарбия ва таълим) мазмуни ва уларни амалга ошириш мақсади, вазифалари ҳамда ташкилий–ҳуқуқий механизмларининг моҳиятини белгилаб берувчи нормалар ўз ифодасини топиши;

–экотуризмни тарғибот-ташвиқот қилувчи, таълим ва тарбиянинг узлуксиз жараёнини таъминловчи мукаммал давлат ва нодавлат органлари тизими фаолиятини кенгайтириш;

–атроф-табиий муҳит мусаффолигини сақлаш, табиат ресурсларидан оқилона фойдаланиш масалаларини барча даражадаги таълим муассасаларининг ўқув режалари ва дастурларига киритиш масаласи;

–экологик туризм тарғибот фаолиятининг ижтимоий-гуманитар жиҳатлари;

–бевосита экологик туризм фаолияти билан шуғулланувчи кадрлар тайёрлаш масалалари;

–экотуризмни ривожлантириш соҳасида амалга ошираётган муассасаларнинг фаолиятини давлат томонидан доимий равишда қўллаб-қувватлаш тартиблари;

–ҳар бир шахсда экологик туризм билан боғлиқ ахборотларни етказишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш ва уларни таъминлашга оид қоидалар;

–ҳудудларнинг экотуристик имкониятларини ўрганиб бориш ва кенг жамоатчиликка етказиш механизмини такомиллаштириш масалалари;

–экотуризм соҳасига ихтисослашган ҳудудларнинг йўл-қурилиш, техник-комуникацион ҳолатини яхшилаш масалалари;

–ҳар бир шахснинг табиий атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиат ресурсларидан оқилона фойдаланиш билан боғлиқ ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳамда тегишли жавобгарлик чораларини қўллаш тартиблари ва ҳ.к.

Бунда экотуризмни ривожлантиришнинг асосий вазифаларини белгилаб олиш мақсадга мувофиқ бўлади. О.Пардаев ва А.Аблаизов каби олимлар мамлакатимизда экотуризмни ривожлантиришнинг муҳим вазифалари сифатида қуйидагиларни санаб ўтадилар:

– Ўзбекистонда экотуризм бўйича мутахассислар тайёрлашни тизимли равишда йўлга қўйиш;

– экотуризмлар бўйича ички ва ташқи туризм бозори учун табиат минтақалари бўйича рақобатбардош турмаҳсулотлар ва турдастурлар ишлаб чиқиш;

– Ўзбекистон экотуризмини табиат минтақаларидаги экотуристик ресурслар бўйича халқаро экотуризм бозорига ҳаракатини босқичма-босқич таъминлаб бориш;

– экотуризмни ривожлантиришда табиат минтақаларидаги экотуристик ресурсларнинг жойлашиши ва улардан фойдаланиш бўйича ишончли баҳо сиёсатини шакллантириш ва жорий қилиш;

– экотуризмни ривожлантиришда табиат минтақаларидаги экотуристик ресурсларда тадбиркорликни, ташаббускорликни давлат имтиёзлари асосида қўллаб-қувватлаш, ташкил қилиш ва ривожлантириш;

– экотуризмнинг табиат минтақаларидаги экотуристик ресурслар бўйича мукаммал ахборот рекламаларини яратиш ва туризм бозорига чиқариш.[2]

Албатта, юқорида келтирилган вазифаларнинг бажарилиши билан биргаликда, экотуризмни ривожлантириш имкониятларидан самарали фойдаланиш бўйича қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

Биринчидан, “табиат-шахс-инсон-жамият” муносабатларини илмий тушуниш асосида шахс экологик ҳуқуқий онгининг вужудга келиш генезисини ва ривожланиш моҳиятини аниқлаш, таъ-

[1] eco. Uz/uz/kutubkhona/ foydali-adabiyotlar/346-ekoturizm-va-O‘zbekistonda-uning-kelajak-istiqbollari.

[2]Пардаев О.М., Аблаизов А.А. Ўзбекистоннинг табиат минтақаларида экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлантириш стратегияси. “Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантиришда табиий ва этнографик ресурслардан самарали фойдаланиш муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. 2019 йил 13–14 ноябрь, Самарқанд, 2019, 101-бет.

лим-тарбия мажмуасининг усул-воситаларини такомиллаштириш орқали экотуризмни ривожлантириш.

Иккинчидан, экотуризм барқарорлигини таъминлашда экологик ҳуқуқий таълим ва тарбиянинг потенциал имкониятларидан оқилона фойдаланиш.

Учинчидан, экотуризмни ривожлантиришда ҳудудларнинг ички имкониятлари, ментал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, экотуризмнинг турларини кўпайтириш.

Тўртинчидан, ҳар бир шахсда экологик билимларни шаклланиши, кўникма ҳосил қилиши ва ҳаёт тарзининг мазмунига айланишида “оила-маҳалла-мактаб” тизими фаоллигини ошириб бориш. Бунда ахлоқий, эстетик, ҳуқуқий, экологик қарашлар шахс эътиқодига, масъулиятига айлансагина, экотуризм самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Бешинчидан, саёҳатчилар сони ҳудуднинг экологик имкониятларидан, ижтимоий-маданий хусусиятларидан келиб чиқиб, белгиланган ҳудуд сиғимидан ортиб кетмаслигини таъминлаш.

Олтинчидан, мустақил йўналиш сифатида ривожланаётган экотуризмнинг яна-да такомиллашувида сифатли кадрларга бўлган эҳтиёжни доимий равишда ўрганиб бориш ва малакали кадрлар билан таъминлаш ишларини яна ҳам такомиллаштириш ва ҳ.к.

Рузиқулов Абдулла Алиқулович (Навоий Давлат Педагогика институти мустақил тадқиқотчиси; abu.x2012@mail.ru; abu.x2014@umail.uz)

ОИЛАВИЙ МУҲИТНИНГ СИЁСИЙ ОНГГА ТАЪСИРИ

Аннотация. *Мақолада оила муҳитининг сиёсий онгга таъсири, унинг унинг ижобий ва салбий оқибатлари, шунингдек, нохолис ахборотларнинг инсон хулқ-атворига ва сиёсий онгига таъсири, унинг салбий оқибатларининг олдини олишда нималарга эътибор қаратиш лозим деган саволлар атрофлича кўриб чиқилган.*

Аннотация. *В статъе подробно рассматривается влияние семейного окружения на политическое сознание, его положителъные и отрицателъные последствия, а также влияние необъективной информации на поведение и политическое сознание человека, на что следует обратитъ внимание в предотвращении ее негативных последствий.*

Annotation. *The article examines the influence of the family environment on the political consciousness, its positive and negative consequences, as well as the influence of biased information on the behavior and political consciousness of a person, which should be paid attention in order to prevent its negative consequences.*

Калит сўзлар: *оилавий муҳит, сиёсий онг, хулқ-атвор, ахборот алмашинуви.*

Ключевые слова: *семейная среда, политическое сознание, поведение, информационный обмен.*

Keywords: *family environment, political consciousness, behavior, information exchange.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligi barchamizga ma’lum, shunday ekan, oilada jamiyatning tub mohiyati o‘z aksini topadi va shu ma’noda, oilani kichik jamiyat desak, xato bo‘lmaydi.

Har bir oila o‘z oldiga barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash muqaddas burch etib oilaning mustahkamligi jamiyatning barqarorligi va qudratining muhim sharti hisoblanadi. Shu boisdan ham davlat oilani o‘z himoyasiga oladi. Jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lomligi, ko‘p jihatdan, oilaviy madaniyatga bog‘liq. Oila qanday bo‘lsa, jamiyat ham shunday bo‘ladi.

Asosiy qism. Siyosiy ongga turli hil omillar o‘z ta’sirini o‘tkazishi va buning natijasida uning idrok etish va siyosiy borliqni idrok xususiyati namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolamizda siyosiy ongga oilaviy muhitning va muloqotning ta’sirini ko‘rib chiqamiz. Qolaversa, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining va siyosiy ongning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar ham mavjuddir.

Insonning ma’naviy qiyofasi, uning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, xulq-atvori muloqot madaniyatida ifodalanadi. U o‘zining his-tuyg‘usini, ichki tug‘yonini, orzu-umidlarini muloqot jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning har tomonlama shakllanishi, ularning bir-birlari bilan bo‘ladigan o‘zaro muloqotisiz, hamkorligisiz, o‘zaro ta’sirisiz vujudga kelmaydi. Kishilik hamjamiyatida inson hayoti odamlar o‘rtasidagi turli xildagi ijtimoiy munosabatlar majmuasidan tashkil topadi. Munosabat muloqotlardan boshlanadi.

L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, D.B.Elkonin, A.V.Zaporojes, M.I.Lisina tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri – bu muloqotga nisbatan ehtiyoj. A.V. Zaporojes va M.I.Lisinalar tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

1) e’tibor va xayrixohlikka ehtiyoj paydo bo‘ladi;

2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug‘iladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug‘iladi;

4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.[1]

Muloqot – kishining ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi o‘zaro munosabatlarning muhim shakli. Muloqot jarayonida kishi o‘zining tashqi olami, turmush tarzi, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayoti haqidagi qarashlari, tasavvurlari va hissiyotini ifodalaydi. Jamiyat a’zolarining bir-birlari bilan o‘zaro muloqotlari shu jamiyatning har tomonlama taraqqiyotiga zamin bo‘ladi. Har bir davrning o‘ziga xos muomala madaniyati, qonun-qoidalari, mezonlari mavjud.

Mulkdorlar va mulksizlar, erkaklar va ayollar, kattalar va kichiklar, ota-onalar va farzandlar, yigitlar va qizlar hamda boshqalar o‘rtasidagi muloqot madaniyati vujudga kelgan. Bu muloqot madaniyati, dastlab, oilada shakllangan. Bu ishlar har bir oila a’zosining yashayotgan kichik muhitida tutgan o‘rni va unda erishgan mavqeyi, yangi va yosh oilalarda hamda tajribali oilalarda er-xotin munosabatlari, ota-onalarning o‘zaro muloqoti, farzandlarning ota-onaga munosabati, ularning keksa avlodga munosabati, mazkur oilaning kelinlarga munosabati, kelinning yangi sharoitga ko‘nikishi, oila a’zolarining begona kishilar bilan muloqotga kirishishi xususiyatlari, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro yordam va birdamlik xususiyatlarining rivojlanishi, oila a’zolari o‘rtasida hordiq chiqarish erki va unga kafolat, oila a’zolarida muloqot ko‘lamining kengayishi kabi shaxslararo munosabatlarni o‘zida ifodalaydi. Oilaviy munosabatlar ijtimoiy hayotning rivojlanishi mahsuli bo‘lib, munosabatlarning maxsus o‘ziga xos turidir. U ijtimoiy hayotning turli jihatlarini ifodalaydi.[2]

Bevosita munosabatlar, ya’ni, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar insoning siyosiy ongining shakllanishiga va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni baholash hamda idrok etish ko‘nikmalarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, shahsning siyosiy ongining shakllanishiga poydevor yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir jamiyatda fuqarolarning siyosiy ongiga turli omillar ta’sir etadi, ammo hech bir omil oila kabi ta’sir eta olmaydi. Zero, siyosiy ong aniq tarixiy shart-sharoitning, muayyan omillar ta’sirining mahsuli.

Uning shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi manbalar asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchi manba – insonning oilaviy muhiti. Siyosiy g‘oyalar va hissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Bunga to‘g‘ri keluvchi ijtimoiy-ruhiy qarashlar siyosiy ongning poydevorini barpo etadi. Uning negizida esa fuqaro shaxsi shakllanadi.

Ikkinchi manba – bu keng ma’nodagi axborot. U insonga ham muomala, ham muloqot ham ommaviy axborot vositalari (televideniya, radio, matbuot) orqali kirib boradi.

Uchinchi manba – individning shaxsiy tajribasi. Bu shaxsiy tajriba olingan bilimni ag‘dar-to‘ntar qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq u har qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta’sir ko‘rsatadi.[3]

Yuqorida qayd etilgan manbalar insonga siyosat dunyosini tahlil etishga va unga nisbatan munosabatini belgilab olishga imkon beruvchi bilimlar yig‘indisini tashkil etadi. Bunda oilada olingan bilimlar turli avlodlar tomonidan to‘plangan tajriba sifatida, shu bilan birga, xurofot ham bo‘lishi mumkin. Axborot ham rost yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin. Insonning hayotiy tajribasi ham tipik bo‘la olmasligi va siyosiy voqelikni aks ettira olmasligi mumkin.[4]

Davlat va jamiyat e’tiboridan chetda qolgan ma’lum bir guruhlarning va oilalarning tarbiyasini olgan farzandlar kelgusida borliqni idrok etish va baholashda noto‘g‘ri yo‘nalishga tushib qolishiga hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmasligiga sabab bo‘ladi. Natijada ijtimoiy-siyosiy va boshqa nizolar yuzaga kela boshlaydi. Aksariyat hollarda, jinoyat sodir etgan jinoyatchining, xotini yoki ota-onalari o‘z farzand-

[1] https://uz.denemetr.com/docs/768/index-93638-1.html

[2] Муаллифлар жамоаси. Жамият қурилиши ва ижтимоий бошқарув. Тошкент, 2007, “Академия”, 170-бет.

[3] Юсупова Г.Х., Жабборов Х.Ж., Қосимова Х.Х. Сиёсат назарияси. Т., ЎзМУ, 2002.

[4] Муаллифлар жамоаси. Ўзбекистон: сиёсий ислоҳотлар стратегияси, эришилган натижалар ва истиқболлар. Тошкент, 2009, “Академия”, 133-бет.

lariga otasining qilmishlarini oshkor qilmaslikka harakat qiladi, ko‘p hollarda, sud qarorlari noto‘g‘ri degan fikrni singdirish orqali ota obrazini yahshilashga harakat qilinadi. Bu holat esa oiladagi sog‘lom muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan har bir jamiyat yoki davlat o‘z hududidagi barcha oilalarni e’tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qiladi.

Ongli yashaydigan har bir odam yaxshi anglaydiki, bu yorug‘ olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, hayot abadiyligi, bebaho ne’mat bo‘lmish farzand bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha kelajagini o‘ylab, ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Xulosa va takliflar. Oiladagi muhit, uning vakillarining siyosiy-huquqiy bilimlari va qarashlari yoshlarga doimiy o‘z ta’sirini ko‘rsatish bilan birga, jamiyatdagi o‘zgarishlarga ham ma’lum darajada ta’sir etib kelgan. Umuman olganda, insonlar siyosiy ongiga ilk ta’sirini ko‘rsatuvchi oila doimiy ravishda davlat e’tiborida bo‘lgan. Shunday ekan, muntazam ravishda oilani jamiyatning eng asosiy bo‘g‘uni sifatida e’tibordan chetda qoldirmaslik lozimdir.

Маннанова Нилуфар Ходжакбаровна
(Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD); nilufar2627@mail.ru)

МОВАРОУННАҲРДАГИ ИЖТИМОИЙ ЖАРАЁНДА ИСЛОМ ДИНИНИНГ ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИ

Аннотация. *Ушбу мақолада VII асрдан XIX аср бошларига қадар Мовароуннаҳрдаги таълим тизимининг ижтимоий жараёнга таъсири қисқача таҳлил қилинган. Бу даврлардаги таълимнинг амал қилишида ислом маданиятининг таъсирига эътибор қаратилган.*

Аннотация. *В данной статье кратко анализируется влияние системы образования на социальный процесс в Мовераунахре с VII и до начала XIX века. Также подчеркивается влияние в этот период исламской культуры на образование.*

Annotation. *This article briefly highlights the influence of the education system on the social process in Moverounnaxre from the 7th to the beginning of the 19th century. Also, emphasized the influence of Islamic culture on education during this period.*

Калит сўзлар: *таълим, ижтимоий жараён, ислом маданияти, Мусулмон Ренессанси, мадраса.*

Ключевые слова: *образование, социальный процесс, исламская культура, Мусульманское Возрождение, медресе.*

Key words: *education, social process, Islamic culture, Muslim Renaissance, madrasa.*

Илм-маърифат, таълим ислоҳотларисиз ижтимоий тараққиётни тасаввур этиб бўлмайди. Шу сабабли жаҳондаги ривожланган мамлакатларнинг бугунги мавқеи ортида улардаги ўз вақтида таълимга берилган катта эътибор ва имкониятлар ётади. Жамиятдаги ижтимоий жараёнларнинг ижобий тус олиши, жумладан, халқ фаровонлиги, адолат мезонларининг амал қилиши, ижтимоий тараққиёт таълимдаги ўзгариш ва янгиланишлар асосида содир бўлади.

Тарихдан маълумки, мамлакатимиз ҳудудида кўпгина тарихий босқичларда таълимга эътибор кучли бўлган. Бундай эътибор ва ислоҳотлар нафақат шу давлат ва жамият ҳаётига ўзининг ижобий самарасини берган, балки ренессанс даражасига кўтарилиб, дунё илм-маърифатининг юксалишига хизмат қилган. Албатта, турли даврларда амал қилган ҳукмрон сиёсат, маданиятлар таълимга ўз таъсирини кўрсатган.

Бу ўринда, биргина ислом маданиятининг юртимиз ҳудуддига кириб келиши, мусулмон маънавияти ва маърифатининг ижтимоий жараёнларга, хусусан, таълим жараёнига таъсирини таҳлил этиб кўрайлик. VII–VIII асрларда арабларнинг Мовароуннаҳрга юриши ва уни босиб олиши оқибатида маҳаллий халқнинг урф-одати, дини ва эътиқоди, қадимдан ривожланиб келаётган маданий мероси йўқ қилиниши ёхуд ўзгартирилиши натижасида унинг маънавий-маърифий маданий ҳаёти янгиланиш содир бўлади. Араблар Ўрта Осиёни босиб олгач, маҳаллий сўғд ёзувида битилган диний ва маърифий китоблар, илмий асарлар, ҳужжатлар ҳамда санамларни ёқиб юборадилар. Натижада Мовароуннаҳр халқи тарихий вазият туфайли узоқ давр мобайнида бесавод бўлиб қолади. Бу ҳақда Беруний шундай ёзганди: «Қутайба эса Хоразм хатини яхши биладиган, уларнинг хабар ва ривоятларини ўрганган ва (билимини) бошқаларга ўргатадиган кишиларни ҳалок этиб, буткул йўқ қилиб юборган эди. Шунинг учун у (хабар ва ривоятлар) ислом давридан кейин ҳақиқатни билиб бўлмайдиган даражада яширин қолди...».

«Кейин Қутайба ибн Муслим ал-Воҳиший хоразмликлар котибларини ҳалок этиб, билимдонларини ўлдириб, китоб ва дафтарларини куйдиргани сабабли улар саводсиз қолиб, ўз эҳтиёжларида ёдлаш қувватига таянадиган бўлдилар».[1] Шунингдек, Наршахий ҳам аҳолини исломлаштиришга оид хатти-ҳаракатларни баён этаркан, ушбу жумлаларни келтиради: «Қутайба масжидлар бино қилди, кофирлик ва оташпарастлик асарларини йўқотди. У кўп жидду жаҳд қилиб, кимда шариат ҳукмларини бажаришда камчилик содир бўлса, уни жазолар эди. У масжиди жоме бино қилди ва одамларга жума намозини ўқишга буйруқ берди».[2]

Бу даврда Мовароуннаҳрда бошқа истило этилган давлатлар қаторида ислом дини билан бирга мазкур динининг муқаддас китоби «Қуръон»нинг тили, араб тилини ўрганиш жорий этилди. Бу китобни бошқа тилларга таржима қилиш тақиқланди.

Мусулмон мактабларида араб тили муҳим фан сифатида ўқитиларди, билим шу тилда ўрганилар эди. Мовароуннаҳрда барча масжидлар ҳузурида мактаблар очилди ва ўғил болаларга шу мактабларда Қуръон ўқишни ўргатишга фармон берилди. Болаларни шу масжид имоми ўқитар эди. «Тарихий манбаларда Туркистондаги биринчи ибтидоий мактаб ҳижрий 94 йили (милодий 713 йил) Қутайба ибн Муслим Бахилий томонидан Бухоро аркида, зардуштийлар эҳроми ўрнида бунёд этилган, дейилади».[3]

Маълумки, етук инсон, аввало, ўзининг илмлилиги билан намоён бўлади. Инсон шахси ўлароқ, жамият илм билан камолга етади, тараққий этади. Ислом мусулмонларни тараққиёт сари ундайди, инсонларни илм олишга йўллайди.

Ислом одамларни яхшиликка даъват этади, ёмонликдан қайтаради. Инсонпарварликни тарғиб этиб, разолатни қоралайди, одоб-ахлоқ, руҳий-маънавий поклик ва етукликка, меҳнат қилишга ҳамда ер юзини обод ва гўзал этишга ундайди. Адолат, тинчлик, тенглик, эркни тараннум этади.

Араблар Ўрта Осиёни босиб олгандан сўнг, мавжуд фан ва маданият ўчоқларини йўқотган бўлсалар-да, кўп ўтмай, илм-фан ривожланиб, бу заминдан унинг етук сиймолари етишиб чиқа бошлайди. Натижада Шарқда бир бутун маданият таркиб топади ва ривожлана бошлайди.

Адам Мец томонидан «Мусулмон Ренессанси» деб аталган бу ҳодиса сиёсий муҳитнинг яратилиши, Хорун ар-Рашид, айниқса, унинг вориси Ал-Маъмун номи билан, фандаги уйғониш эса Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий каби Мовароуннаҳр олимлари номи билан бевосита боғланади. «Мусулмон ренессанси» Ал-Маъмун академиясидан бошланиб, Улуғбек академияси билан тугайдиган етти асрлик даврни ўзида қамрайди.[4]

Халифа Хорун ар-Рашид (786–833) ва унинг ўғли Маъмун даврида Бағдодда «Байт ул-ҳикма» (Донишмандлик уйи) ташкил этилади. Мазкур Академия барча илм соҳиблари тўпланган марказга айланади. Унинг қошида жаҳон кутубхонаси, расадхона ҳам бўлган, кейинчалик, янги кутубхона қурилган.

Халифа ал-Маъмун илм-фанни жуда қадрлаган. У IX аср бошларида халифаликнинг Хуросондаги ноиби бўлган вақтида ҳам Мовароуннаҳр ва Хуросондаги олимларни тўплаб, уларнинг илмий ижодига шароит яратиб берган. Улар орасида Ал-Хоразмий, Ал-Мажусий, Исмоил Жавҳарий, Ал-Фарғоний, Ал-Марвазий каби ватандош олимларимиз ҳам бўлган. Ал-Маъмун халифалик тахтига ўтиргач, олимларнинг барчасини Бағдодга чақириб олади.

Халифалик ҳукмронлиги тугаб, мустақил сомонийлар давлатининг қарор топиши билан маданий ҳаётнинг жонланиши учун кенг йўл очилади.

Бу даврда араб тили илм ва алоқа тили эди. Мактабларда дарслар араб тилида олиб борилар эди. Бухоро ва бошқа марказий шаҳарларда ислом дини таълимотининг асосий манбалари ва шариат билимларини ўқитиш учун мадрасалар очилган эди. Бундай илмгоҳда етишиб чиқадиган илм аҳлининг ҳаммаси ҳам қози, имом бўлавермай, улар орасидан дунёвий илмлар: табобат, ҳандаса, математика, кимё, фалсафа, мантиқ, тарих ва бошқа соҳалар бўйича пухтагина билим орттирган олимлар ҳам етишиб чиқар эди. Бундай билим эгалари халқ ўртасида обрўли бўлиб, улар атрофида, шубҳасиз, шогирдлар тўпланар эди.

XI асрда Хоразмда илм-фан, айниқса, тараққий этади. Хоразм шоҳи Маъмун ўз саройига энг забардаст олимларни таклиф этади. У ташкил этган «Байт ул-ҳикма» – «Донишмандлик уйи»да қо-

[1] Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. I том, Т., «Фан», 1968.
[2] Абу Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи. Т., «Фан», 1966, 47-бет.
[3] Солижонова Г. Қадимги мактабларнинг ўзига хосликлари». «Маърифат», 10 ноябрь.
[4] «Заковат силсиласи». «Тафаккур», 2001, 1-сон, 40-бет.

мусий олимлар – Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, тарихчи Мискавайх, риёзиётчи Абу Наср ибн Ироқ каби олимлар илмий ижод билан шуғулланганлар, лекин тожу тахт учун кураш натижасида бу илм даргоҳи ўз фаолиятини тўхтатади.

XI асрда, Низом ул-Мулкнинг ҳам маорифни ривожлантиришдаги хизматлари беқиёс бўлди. У 1067 йилда Бағдодда ўзининг шахсий жамғармасига ўша даврнинг энг машҳур ўқув юрти – «Низомийя» мадрасасини қурдиради. У олимлар, дин пешволари, сўфийларга катта эътибор бериб, уларга ҳомийлик қилади.

Шарқ Уйғониш даври таълим-тарбиясида инсонпарварлик ғоясини амалга оширишнинг асосий воситалари сифатида юксак ахлоқий одатлар, инсоний муносабатлар ва хислатларни қарор топтириш муҳим масала қилиб қўйилган эди. Таълим, тарбия, ахлоқ масаласи файласуфларнинг, буюк мутафаккирларнинг, тарихчию шоир ва адибларнинг ҳам бирдек диққат марказида бўлди.

Жумладан, Форобийнинг «Фозил одамлар шаҳри», Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг», Саъдийнинг «Гулистон» ва «Бўстон», Навоийнинг «Маҳбуб ул-қулуб» каби кўплаб алломаларнинг таълимий-ахлоқий асарлари инсонпарварлик тамойилларини қарор топтириш, инсон шахсини маънавий-ахлоқий жиҳатдан шакллантириш муаммосини ҳал этишда муҳим аҳамиятга эга бўлган мукаммал асарлар ҳисобланади.

Уйғониш даври таълим-тарбиясида ҳунар ўрганиш илм ўрганиш билан баб-баравар талаб этилган. Ҳар бир ёш йигит у қайси табақа фарзанди бўлмасин, касб-ҳунар ўрганиши зарур бўлган.

XIV асрнинг иккинчи ярми ва XV аср маданияти ўз тамойиллари, йўналиши, иқтисодий асоси ва маърифий аҳамияти жиҳатидан IX–XII аср маданиятининг давоми саналиб Шарқ Уйғониш даврининг иккинчи босқичи, деб аталди.

Соҳибқирон Темур ва дастлабки темурийлар ҳукмронлик қилган давр Мовароуннаҳрнинг мусулмон маданияти таълими тарихида алоҳида ўрин эгаллади. Марказлашган Амир Темур давлатининг барпо этилиши билан Мовароуннаҳрда фан, маданият ва маориф қайтадан равнақ топа бошлади.

Темур ва темурийлар давридаги таълим тизими, тарбия жараёни ҳақида биз Темурнинг ўзи ҳақида ёзган сатрларидан айрим маълумотларни олишимиз мумкин: «Етти ёшга тўлганимда мени мадрасага олиб боришди ва қўлимга сўзлар жадвалини беришди. Мен ўқий бошладим ва эришган муваффақиятларимдан беҳад хурсанд бўлдим».[1] Бу келтирилган жумлалардан кўринадики, Темур мадрасага келганида, ҳарф танийдиган бўлган. Шунинг учун ҳам жадвалдаги сўзларни ўқий билган. Мовароуннаҳр ва Хуросон мадрасаларидаги эски одат бўйича болани ўқишга ўргатишда қоғоз ё терига осон сўзларни жадвал тарзида жойлаштирганлар. Темур ҳам болалигида ана шундай жадваллардан ўқиган кўринади.

Амир Темур давлатида «таълим-тарбия ишлари ҳам Нақшбандий ғояларини ифода этувчи мафкура асосида олиб борилди... Масжид ва мадрасаларда талабалар онгига Аллоҳга яқин бўлишнинг тўғри ва самарали йўли таркидунёчилик эмас, балки жамият саодати учун яшаш, бунёдкорлик, савоб ишлар ва меҳнатни қадрлаш, илм ва билим олиш, мукаммал ахлоққа эришиш, хуллас, жамият ҳаётида фаол иштирок этишни тақозо этадиган хулқ-атворни, саъй-ҳаракатни ўзида мужассам этадиган мафкура изчил равишда сингдирилди».[2]

Амир Темур ҳукмронлиги даврида жаҳоннинг кўплаб шаҳарларидан Самарқандга ҳунармандлар, олиму фозиллар, санъаткорлар, муҳандислар олиб келинди ва уларнинг бой тажрибалари, ижодий маҳоратларидан илм-маърифат, маданият, қурилиш жабҳаларида кенг фойдаланилди. Кутубхона, расадхона ва кўплаб мадрасалар қурилди. Тиббиёт, риёзиёт, фалакиёт, жуғрофия, тарих, адабиёт, фалсафа, тарбияшуносликка оид етук асарлар яратилди. Форобий, Ибн Сино, Беруний каби мутафаккирларнинг маданий меросини ўрганишга ҳавас кучайди.

Улуғбек замонига келиб мамлакатда илм-маърифат яна-да ривож топди. Мирзо Улуғбек, аввало, ёш авлоднинг ақлий ва маърифий тарбиясига эътибор бериб, уларни дунёвий билимларни эгаллашга даъват этди, фақат ривожланган фан ва маданият инсон тафаккурининг камол топишини таъминлашига ишонди.

Улуғбек Мовароуннаҳр шаҳарларини, хусусан, Самарқанд ва Бухорони илму маърифат даргоҳига айлантиришга интилди. Унинг фармони билан 1417 йилда Бухорода, 1417–1420 йилларда Самарқандда ва 1433 йилда Ғиждувонда мадрасалар бунёд этилди. Ҳатто, Бухоро мадрасасининг

[1] Аҳмедов А. Амир Темур ҳақида ҳақиқат. «Сомон йўли», Адабий-тарихий мажмуа. Т., «Камалак», 1992.
[2] Ғоипов Н. Амир Темур даври маънавияти. Бадиа. Т., 2001, 19-бет.

дарвозасига «Билимга интилиш ҳар бир муслим ва муслима учун фарздир» деган ёзув ўйиб ёзиб қўйилди. Мовароуннаҳрнинг бу учта қадимий шаҳарларида барпо этилган илмгоҳлар, хусусан, Самарқанд мадрасаси замонасининг дорилфунуни эди. Ушбу мадрасаларда илоҳиёт илмлари: Қуръон, ҳадис, тафсир, фиқҳ (дин ва шариат қонун ва қоидалари) билан бир қаторда, риёзиёт (математика), ҳандаса (геометрия), илми ҳайъат (астрономия), тиббиёт, тарих, география, илму аруз (поэтика), араб тили ва унинг морфологияси каби дунёвий илмлар ўқитиларди.

Улуғбекнинг Самарқанддаги мадрасаси икки қаватли бўлиб, эллик ҳужрадан ташкил топган. Ҳар бир ҳужра уч хонага: қазноқ (омборхона), ётоқхона ва дарсхоналарга бўлинган. Тарихий манбалардаги маълумотларга кўра, мадрасада юздан ортиқ талаба истиқомат қилган ва таълим олган.

Улуғбек таълим тизимида мударрислар масаласига алоҳида аҳамият беради. Улуғбекнинг мударрисларга бўлган талабчанлигини қуйидаги биргина мисолда ҳам кўришимиз мумкин. У Самарқандда бунёд этган мадрасасида мударрисликка даъвогар бўлган Муҳаммад Ҳавофийни тўқсон нафар донишманд-олимлар иштирокида имтиҳон қилган. Барча жавобларга тўғри жавоб олгандан сўнггина уни мударрис этиб тайинлаган.

Мадрасада ўша замоннинг иқтидорли олимларидан мавлоно Шамсиддин Муҳаммад Ҳавофий етакчи мударрис бўлган. Ўрта асрларнинг машҳур олимлари Қозизода Румий (Афлотуни замон), Ғиёсиддин Жамшид Кошоний, Мирзо Улуғбек ва унинг шогирди Алоуддин Али Қушчилар турли фанлардан дарс берганлар. XVI асрнинг машҳур адиби Зайниддин Восифийнинг ёзишича, 1420 йилда мадраса очилган куни биринчи дарсни Шамсиддин Муҳаммад Ҳавофий ўқиган экан. Дарсда толиби илмлардан тўқсон нафари қатнашган, лекин дарснинг маъносига Улуғбек Мирзо билан Қозизода Румийдан бошқа ҳеч ким тушунмаган. Айрим маълумотларга қараганда, мадрасада илми ҳайъат (астрономия)дан дарсни Қозизода Румий берган.[1]

Мадрасада камида 15–16 йил таҳсил кўриб, унинг дастури бўйича фанларни тўла ўзлаштирган ва имтиҳонли сабоқларда ўз билимини намойиш қила олган толиби илмларга «санад» – шаҳодатнома ёзиб берилган.

Улуғбек Самарқандда ўз атрофида тўпланган олимларнинг бевосита иштироки ва ёрдамида 1424–1428 йилларда шаҳар яқинида Обираҳмат анҳори бўйида расадхона қурдирди. Доира шаклида бино қилинган бу улкан иморатнинг айланаси 47 метр, баландлиги 31 метр эди. Бобурнинг ёзишича, у уч қаватли бўлган. Бинонинг сирти кошин ва сирли парчинлар билан қопланган. Бинонинг ички саҳни судси фахрий (секстант) ва коридорлар билан тўрт қисмга ажратилган. Расадхона ички деворларида коиноту Ер шарининг умумий манзараси тасвирланган бўлиб, шу туфайли бу мавзу аҳоли ўртасида «Нақши жаҳон» деган ном билан шуҳрат топади.

Расадхона қурилишида самовий ёриткичларни кузатиш ва ўрганиш борасида хизмат қилувчи унинг марказий қисми – судси фахрий (секстант) қурилмаси ва уни махсус ўлчов асбоб-ускуналари билан жиҳозлашга алоҳида эътибор берилади. Ғиёсиддин Жамшид бошчилигида расадхонанинг асосий ўлчов асбоб-ускунаси – улкан секстант ўрнатилади. Самарқанд секстанти ўша даврда Шарқда маълум бўлган секстантларнинг энг каттаси ҳисобланган.

Улуғбек расадхона қошида замонасининг бой кутубхонасини ҳам ташкил этади. Бу кутубхонада фаннинг деярли ҳамма соҳаларига тегишли қарийб ўн беш минг жилд китоб сақланган.

Улуғбек мактаб ва мадрасаларда берилган назарий билимларни амалиётга татбиқ этиш мақсадида мударрислардан ўқувчилар билан расадхонада амалий машғулотлар ўтказишни талаб этди, бунга ўзи раҳбарлик қилди.

Расадхона негизида Самарқандда астрономия мактаби вужудга келди. Мактаб ўз даврининг академияси («Дорул-илм») бўлган ва ўрта асрлар Шарқи астрономиясининг ривожига катта таъсир қилган.

Улуғбек ўз ҳаётини илм-фаннинг равнақ топишига, ёшларни тарбиялашга бағишлади, ёшлар тақдири ҳақида қайғуриб, мактаблар очиб, болаларни ўқитди, таълимни ривожлантиришга, бу жараёнда инсонпарварлик ғояларини таркиб топтиришга интилди, муаллимларга нисбатан эҳтиромли бўлиб, уларни моддий ва маънавий томондан қўллаб турди.

XVI асрда ҳам илм-фан, маданият тараққиётида муҳим ўзгаришлар рўй берди. Бу даврда Мовароуннаҳр тахтига Шайбонийхон эгалик қилди. Шайбонийхон давлатни идора қилар экан, бир қанча ислоҳотлар ўтказди. Унинг ана шу ислоҳотларидан бири таълим соҳасидаги ислоҳотдир. Унга кўра, кўп босқичли ўқитиш тизими жорий этилди. Таълимнинг қуйи босқичи мактаб ҳисоб-

[1] Хўжаев Н. ва бошқ. Педагогика. Тошкент, ТДИУ, 2007, 38 – 44-бетлар.

ланди ва болага 6 ёшдан таълим бериладиган бўлди. Мактабда икки йил ўқигач, ўқувчилар мадрасага ўтказиларди. Мадрасада уч босқичли таълим жорий этилган бўлиб, унинг ҳар бир босқичида 8 йилдан ўқиларди. Шундай қилиб, ўқиш 26 йил давом этарди. Ўқувчилар илоҳиёт илмидан, ҳисоб-китобдан, математикадан, шеър ёзиш санъатидан илм олардилар. Албатта, 26 йиллик таълим олишга ҳамманинг ҳам имкони бўлмас эди.

Бу даврда хусусий мактаблар юзага келди, муаллим ёллаб болаларни уйда ўқитиш тадбирлари одат тусига кирди.

XVI асрда бир қатор илм масканлари бунёд этилди. Жумладан, Шайбонийхон мадрасаси, Мирараб мадрасаси, Масжиди Калон каби иншоотларнинг қурилиши таълим-тарбия жараёнида муҳим босқич бўлди.

Шайбонийлар даврида ривож топган фан ва маданият аштархонийлар даврида ҳам давом этди. XVII асрда ижод қилган илм аҳли, шоирлар ва тарихчилар сони илгаридан кам бўлмади. 1692 йилда Муҳаммад Бадиъ Самарқандий томонидан битилган тазкирада шу асрда яшаган 165 нафар ижодкорнинг номи тилга олинганлиги бу фикрнинг исботидир. Бундан ташқари, хонликда бир юз элликдан ортиқ мадраса бўлган.

Аштархонийлар замонасида диний мутаассиблик авж ола бошлаган эди. Бу даврда ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларида диний мафкура ҳукмрон эди. Турмушда, оилада, ҳар бир киши ахлоқида, хулқ-атворида диний талабларга риоя этилар, мадрасаларда, асосан, илоҳий таълим асослари ўргатилар эди. Оқибатда бу даврда дунёвий фанларни ўқитиш иккинчи ўринга тушиб қолди.

XVIII асрда мактаб ва мадрасаларда грамматика, ҳандаса, мантиқ, қироат, тафсир, шариат, ҳикмат, ислом тарихи ва ақидаларига оид илмий-назарий билимлар, иш юритиш, ҳуқуқшуносликка, савдо-сотиқ ишларига оид мерос ва бойлик, тақсимот ва шу каби бошқа ўнлаб илмий билимлар, дунёвий ҳамда диний фанлар ўқитилар эди. Барча мадрасаларда мажбурий фан сифатида «Қуръон», «Тафсир», «Одоб ас-солиҳин», «Маслак ул-муттакин», «Сабот ул-ожизин», «Кимёи саодат», «Ҳадис» кабилар ўқитилган. Ўқиш муддати 15–20 йилни ташкил этган. Масжид ёнидаги мактабда болаларга 7 йил алифбе, абжад, Қуръон, фарзи айн, чор китоб, Хожа Ҳофиз, «Маслак ул-муттақин», Бедил асарлари билан савод ўргатилган. Масалан, Сўфи Оллоҳёрнинг форсча «Маслак ул-муттақин» асари қадимдан халқимиз орасида машҳур асар бўлиб, мадрасаларда махсус дарслик сифатида ўқитилиб келган. Ушбу асар бугунги кунда ҳам талабаларга фиқҳ, ақида ва одоб-ахлоқдан сабоқ берувчи муҳим манба ҳисобланади. Мазкур китобда юздан ортиқ фатво китобларидан фойдаланилган бўлиб, унда шариат аҳкомлари, фиқҳий масалаларнинг тақво ва одоб жиҳатлари ўрин олган. Барча мактабларда талабаларнинг саводи чиқарилгандан сўнг Сўфи Оллоҳёр ўқитилган.

Мазкур даврда луғатшунослик, тарихнавислик фанлари ривожланди, шеърият равнақ топди. Кўплаб асарлар араб, форс, тожик ва бошқа тиллардан таржима қилинди, халқ оғзаки ижодига катта эътибор берилди. Халқ оғзаки ижоди орқали ёшларга қаҳрамонлик, меҳнатсеварлик, садоқат каби инсоний, ахлоқий фазилатлар тарғиб қилинди.

Таълим-тарбия жараёнида хотин-қизларга, аёллар тарбиясига катта эътибор берилди. Ўқимишли, маърифатли аёллар томонидан кўплаб мактаблар ташкил этилди ва у отинлар мактаби деб номланди.

Кўриниб турибдики, IX асрдан XIX аср ўрталаригача бўлган давр юртимиздаги таълим жараёнининг мусулмон маданияти билан узвийлиги, унинг шаклланиши ва тараққиёт йўналишлари, ижтимоий жараёнга таъсирини ўрганишда муҳим тарихий босқич саналади. IX асрдан XIX аср ўрталаригача бўлган давр мобайнида Ўзбекистон ҳудудида амал қилган таълим тизимининг ижтимоий жараёнга таъсири ислом дини, ислом мафкураси асосида йўлга қўйилди. Яъни, Ўзбекистонда мактаб ва олий мадраса таълими айнан мана шу давр, мана шу муҳитда шаклланди.

Sanakulov Jahongir (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Roman-german filologiyasi kafedrasi tayanch doktoranti; e-mail: jsanakulov@gmail.com)

MULTIMADANIYAT FENOMENIGA SEMIOTIK YONDASHUVDA TILNING O‘RNI

Annotatsiya. *Oxirgi yillarda multimadaniyat termini nafaqat tarjimashunoslikda, balki siyosat olamida hamda arxitektura sohasida ham keng qo‘llanilib kelmoqda. Har qaysi soha rivojini til ishtirokisiz tavassur qilib bo‘lmaydi. Tarjimon ma’lum bir asar tarjimasiga kirishar ekan, albatta, asarga taalluqli xalq madaniyatiga, uni ifodalayotgan lisoniy birliklar majmuasiga duch keladi. Mutarjim bu o‘rinda*

o‘sha xalq madaniyatini, har bir lisoniy birlik ifodalayotgan ma’nolarni ilg‘ab olmog‘i zarur, yo‘qsa xatoga yo‘l qo‘yishi, tabiiy.

Аннотация. *В последние годы термин мультикультурализм стал широко использоваться не только в переводе, но и в политике и архитектуре. Развитие любой области невозможно представить без участия языка. Когда переводчик берется за перевод того или иного произведения, он, безусловно, сталкивается с фольклорной культурой произведения, с набором языковых единиц, его выражающих. Переводчик должен понимать культуру народа, значения каждой языковой единицы, иначе он совершит ошибку.*

Annotation. *In recent years, the term multiculturalism has been widely used not only in translation studies, but also in politics and architecture. The development of any field cannot be imagined without the participation of language. When a translator enters into the translation of a particular work, of course, he encounters the folk culture of the work, the set of linguistic units that express it. The translator must understand the culture of the people, the meanings of each linguistic unit, otherwise he will make a mistake.*

Kalit so‘zlar: *semiotika, multimadaniyat, tarjima, madaniyat, til, madaniy aloqa, milliy ruh, semantika, leksema, ifodalovchi, ifodalanuvchi.*

Ключевые слова: *семиотика, мультикультурализм, перевод, культура, язык, культурная связь, национальный дух, семантика, лексема, значение, означаемый.*

Keywords: *semiotics, multiculturalism, translation, culture, language, cultural communication, national spirit, semantics, lexeme, signifier, signified.*

Kirish. XX asrining ikkinchi yarmida tarjima faniga butun dunyo miqyosida juda katta e’tibor qaratila boshlandi. Bir asarning dunyoga tanilishiga bir necha yuz yillar talab qilingan bo‘lsa, endilikda bu jarayon ancha jadallashib ketdi. Dunyoning bir burchida yaratilgan shoh asar nari borsa bir-ikki yilda butun dunyoga tarjima asosida keng yoyilib bormoqda hamda kitobxonlarning sevimli kitoblari qatoridan joy olmoqda. Lekin tarjima qilingan hamma asar xususida bunday fikrga borib bo‘lmaydi, chunki bunda tarjimaning asliyatga nechog‘lik muqobil ekanligi, qolaversa, milliy ruh, kolorit, madaniy aloqalar, semantik muqobilliligi qay darajada berilganligiga ham bog‘likdek, nazarimizda. Shunday ekan, tarjimada madaniyatlar to‘qnashuvi necha ming yillar davomida duch kelingan bo‘lsa, bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotganicha yo‘q.

Har qanday madaniy to‘qnashuvlarni tilning ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Til – bu barcha madaniy hodisalar o‘zining bevosita aksini topadigan belgilar tizimi. Til, aslida, madaniyat tanasidir, chunki madaniy muhitni belgilaydigan tushunchalar o‘zlarining lingvistik timsolidan tashqarida mavjud bo‘lolmaydi. Tilning eng muhim vazifalaridan biri bu faqatgina ifodalash tizimidir. “Tilning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular o‘z vazifasini anglatuvchi narsaga moddiy aloqasi bo‘lmagan belgilar tizimidir”. Dunyoda til paydo bo‘lganidan boshlab, til va madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotlar bir on bo‘lsinki, to‘xtaganicha yo‘q, aksincha, bir-birini to‘ldirib, boyib bormoqda. Masalaning ikkinchi jihati ham borki, bugungi globallashuv jarayonida bir madaniyatning ikkinchi madaniyatni to‘liq qamrab olishi va biroz vaqt o‘tishi bilan, uni to‘liq mahv etish holatlari uchramoqda.

Bevosita tilning semiotik jihati haqida gapirar ekanmiz, bu sohaning eng buyuk olimlari F.de Sossyur, L.Yelmslev, A.Greymas, R.Bart singari tilshunoslarning xizmalarini tilga olib o‘tish ayni muddaodir. Sossyur ta’limotida til belgisi ikki jihatga – ifodalovchi va ifodalanuvchi jihatlariga ega ekanligi alohida uqdiriladi.[1] F.de Sossyur “Cours de linguistique générale” asarida, jumladan, quyidagi fikrni o‘rtaga tashlaydi: “Nous proposons de conserver le mot *signe* pour désigner le total, et de remplacer *concept* et *image acoustique* respectivement *signifié* et *signifiant;* ces derniers termes ont l’avantage de marquer l’opposition qui les sépare soit entre eux, soit du total dont ils font partie.” Shunday ekan, tarjimon tarjima jarayonida tilning manashu ikki jihatini doimo yodda tutmog‘i kerak.

Zamonaviy dunyo, ko‘p jihatdan, turfa sohalarda o‘zaro bog‘langan madaniyatlar tizimi, ta’bir joiz bo‘lsa, serjilo mozaikadir. Zamonaviylikning nihoyatda tez va dinamik jarayonlari doirasidagi madaniyatlarning bunday o‘zaro ta’siri, kezi kelganda, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmoqda, o‘tmishdagidek assimilatsiyasi sodisasi sodir bo‘lmayotgandek, nazarimizda.

[1]Turniyozov N.Q. Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalari. Samarqand, pedagogik-metodik qo‘llanma, Samarqand davlat chet tillar instituti nashri, 2007, 8-bet.

Tadqiqot metodlari. Jahonda mavjud har bir tilning o‘ziga xos shakl va mazmun xususiyatlariga ega. Bu xususda Yakobson «les langues diffèrent essentiellement par ce qu’elles *doivent* exprimer, et non par ce qu’elles *peuvent* exprimer». deya ta’kidlar ekan, har bir til bir xil ma’nolarni ifodalashga imkoniyatiga ega, ammo lisoniy imkoniyatlar turfa xildir. Faqat tarjima orqaligina bunday lisoniy muammolar yanada tiniqlashadi. Tilning sistema ekanligi va u belgilar majmuasidan iborat ekanligi hech kimga sir emas. Buyuk tilshunos Martine «en principe, les signes de chaque langue forment une structure *sui generis*, c’est-à-dire qu’ils s’opposent les uns aux autres de façon particulière, de telle sorte qu’il n’y a pas de correspondance sémantique exacte d’une langue à une autre», deya ta’kidlaydi. Tilning shunday jihatlari borki, bevosita semantika bilan bog‘lanadi. Ingliz tilidagi *hot-dog* jumlasini fransuz tiliga *chien-chaud* yoki o‘zbek tiliga *issiq it* deya tarjimada bera olmaymiz. Bunday so‘z birikmalari bevosita madaniy hayotga bog‘liq bo‘lib, u bus-butunligicha ajnabiy tildan transliteratsiya yo‘li oraqli ona tilida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, bir xalqning sevimli milliy taomi bir madaniyatdan ikkinchi madaniyatga kirib, transmadaniy holatni taqozo etadi.

Kelib chiqishi viyetnamlik fransuzzabon olim Danh Thanh Do-Hurinville viyetnam tilini o‘zgarmas tillar oilasiga mansubligi tarjima asnosida ko‘plab qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi deya ta’kidlaydi va bu tilni fransuz tili imkoniyatlari bilan solishtirar ekan quyidagi juda qiziqarli misolni keltirib o‘tadi:

Vỏ quít dầy, móng tay nhọn.
peau mandarine ê. épais ongle main ê. tranchant
«À la peau épaisse de la mandarine, des ongles tranchants».[1]

Demak, viyetnam tilida, hatto jumlalar tarkibidagi so‘zlar hech qanday predlog yoki kelishiklar orqali bog‘lanmasligini ko‘rishimiz mumkin, buni, har holda, keltirilgan misolda ham ko‘rib turibmiz. Bunda semiotik yondashuv, ya’ni, til belgilari anglatayotgan ma’no juda katta rol o‘ynaydi hamda til talaffuzidagi ohangni ham yoddan chiqarmasligimiz darkor. Tarjimon bunday holatlarda juda katta bilim va o‘sha xalq madaniyatini chugur o‘rgangan bo‘lmog‘i zarur.

«Tarjima qilish uchun so‘zlarning asosiy lug‘aviy mazmuni-yu, tilning grammatik qoidalarini bilishning o‘zi kifoya emas. Buning uchun tilni his etish lozim», deya ta’kidlar ekan, tarjimon shunday yetuk ilmlardan tashqari, muallif o‘z asarida nimaga urg‘u berayotganini ham anglab olmog‘i zarur.

Bugungi globallashuv jarayonida har bir xalq o‘z tilini sof saqlash hamda tilni har qanday tahdidlardan, imkon qadar, asrash, ayni vaqtda, uni boyitib borishdek mas’uliyatli mehnatni taqozo etadi. «Qaysi bir millatning ona tili o‘z hojatini o‘tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag‘lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko‘p uzoqlamayoq, insoniy huquqlaridan ajragan holda, hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi, shubhasiz. Unday millatlar yolg‘izgina Vatanlaridan emas, balki butun borlig‘i bilan tarix yuzidan yo‘qolishga majbur bo‘ladilar», deya ayni haqiqatni ta’kidlagan edilar.

Natijalar. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, tarjima jarayonida nafqat tilning jozibadorligi balki uning semiotik jihatlari ham muhim rol o‘ynashini ko‘rib o‘tdik. Bir til=bitta madaniyat=bitta mamlakat tenglamasi ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Garchi globallashuv jarayonida bunday tenglamaga mos va xos bo‘lgan davlat yoyinki jamiyatni topish amri maholdir. Adabiyot bor ekan, til barhayotdir, til bir adabiyotdan ikkinchi bir adabiyotga kirib boradi, ehtimol, keyinchalik, bu leksema o‘sha millat lug‘at fondidan joy olishi ham mumkin.

Shu o‘rinda, asli, misrlik yozuvchi Jilber Sinuening buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodi haqida qiziqarli “Avicenne ou la Route d’Ispahan” – “Avitsenna yoxud Isfahon yo‘li” nomli romanini keng farangiyzabon kitob ixlosmandlariga taqdim qildi. Asar Ibn Sino shogirdi al Juzjoniy tilidan hikoya tarzida yozilgan bo‘lib, qiziqarli ma’lumotlar berib o‘tilgan: «Depuis, les vérités de sa foi devinrent comme le vent de *shamal* qui souffle sur les pistes mais qu’on ne voit jamais; car il y a trop souffert de l’intolérance des hommes, et de la sienne. Bu o‘rinda fransuzzabon kitobxonda *shamal* leksemasi biroz tushunarsiz bo‘lishi, tabiiy, ammo o‘zbek tarjimonidan esa ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki *le vent* o‘zbek tiliga *shamol* deya tarjima qilinadi, *le vent de shamal* esa *shamol shamoli* deya tarjima qilinsa, jumla juda g‘aliz va tushunarsiz bo‘lib qoladi. Demak, mutarjim bu o‘rinda juda zakiy bo‘lmog‘i va leksema ifodalayotgan semiotik ma’noni nazardan chetda qoldirmasligi lozim.

Asli kelib chiqishi afg‘onistonlik bo‘lgan frangiyzabon yozuvchi Ortiq Rahimi, garchi o‘z ona yurtida sodir bo‘layotgan voqealar sabab, bu yurtni tark etgan bo‘lsalar-da, o‘zing “*Syngué sabour*” asarida jafokash afg‘on xalqi va ayolini, afg‘on madaniyatini baralla kuylaydi. G‘arb olamida bu xalq xususida

[1]Do-Hurinville D.T. Traduction et apprentissage des langues: entre médiation et remédiation, Paris, INALCO-PLIDAM, 2013, p. 109.

yanada kengroq ma’lumot olishga undaydi, bu yurtdagi sodir bo‘layotgan voqealarga ham urg‘u berib o‘tadi. Asar sarlavhasi ham kishini chuqur mulohaza qilishga chorlaydi, afg‘on hayoti, madaniyati, turmush tarzi bilan yanqindan tanish bo‘lmagan inson bu asar mazmun mohiyatini anglab yetishi biroz qiyindek nazarimizda, jumladan, asarda quyidagi satrlarga ko‘zimiz tushadi:

La chambre s’assombrit.

«Maman, j’ai peur. Il fait tout noir». La voix de l’une des filles geint dans le couloir, derrière la porte. La femme se lève pour quitter la pièce.

«N’aie pas peur, ma fille. Je suis là.

–Pourquoi tu cris ? Ça me fait peur, maman», pleure l’enfant. «Je ne criais pas. Je parlais avec ton père», rassure la mère. Elles s’éloignent de la porte. «Pourquoi tu appelles mon père *Al-Qahhar?* Il est fâché?

–Non, il sera fâché si on le dérange».

Asarda turli vaziyatlar bilan birgalikda *Al-Qahhar* leksemasi diqqatimizni tortishi aniq, mutarjim tarjima jarayonida bu leksemani chuqur anglab yetishi va nutq jarayonida qo‘llanilayotgan semiotik ma’noni ilg‘ab olmog‘i darkor, yo‘qsa xatoga yo‘l qo‘yishi, tabiiy. Ya’ni, bu nutq jarayonidagi *fâché* va *Al-Qahhar* leksemalari bir ma’no doirasida shakllanmoqda. Muallif ham asarda bu leksemalardan juda o‘rinli tarzda qo‘llagan bo‘lsa-da, albatta, u ishora qilayotgan semiotik ma’noni nazardan chetda qoldirmasligimiz, birgina shu leskema sabab mutarjim diniy bilimlar borasida ham bilimga ega bo‘lmog‘i zarur.

Muhokama va xulosalar. Hozirgi globallashuv jarayonida badiiy tarjima va til dunyosiga bunday sayohat badiiy tarjima, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning murakkabligini aniqlashga imkon beradi. Uchalasining hech biri barqaror yoki qat’iy tushuncha emas, balki bir-birini birlashtirgan va o‘zaro ta’sir qiladigan doimiy harakatdagi voqelikni ifodalaydi. Bizni ming yillar davomida qanoatlantirib kelgan bu ongli yanqinlashtirish, badiiy tarjima san’ati o‘zi bilan bizning bilimlarimiz, e’tiqodlarimiz va tasavvurlarimizni shakllantirishga beminnat xizmat qilib kelmoqda. Zero, badiiy tarjimada tillar, madaniyatlar va tasavvurlar birlashadi, bir-birini boyitadi, rang-barang shaklga, ya’ni multimadaniyatga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni anglab yetish kerakki, til orqali ifodalanayotgan har qanday ma’noni tarjima jarayonida ko‘zdan qochirmasligimiz lozim. Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, garchi leksema orqali ifodalanayotgan ma’nodan tashqari, yashirin ma’nolari ham bo‘lishi, ehtimol, muallif kitobxonni shu tarzda o‘ziga jalb qilayotgandek, kitobxon bilan shu zaylda muloqot o‘rnatayotgandek manzara kasb etadi. Qolaversa, so‘z orqali ifodalanayotgan ma’noni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimada bera olmasligimiz mumkin (hot-dog). Martine yoki Sossyur ta’limotlarida ketirilgan ko‘rsatmalar barchamiz uchun xizmat qilajagi, ayni haqiqatdir.

Til va semiotika doimiy ravishda bir-birini taqozo qiladi, ularni ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tarjima esa ular uchun bir janggoh vazifasini o‘taydi. Globallashuv ostonasida ularning qay biri mustahkam bo‘lsa, yanada rivojlanib, mustahkamlanib boraveradi. Bu jarayonda tilning xizmati beqiyos, albatta. Demak, jonajon tilimizni bunday tahdidlardan himoya qilsak, madaniyatimizni himoya qilgan bo‘lamiz. Tilga rag‘bat ko‘rsatsak, madaniyatimizni yuksaltirgan bo‘lamiz, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy bejiz: “Tilga e’tibor – elga e’tibor”, deya ta’kidlamagan edi. Bu shior barchamizga bu yo‘lda kamarbasta bo‘lsin.

G‘ulomova Shohidaxon Inomiddin qizi (Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi;
shoxidaxonbaratova@gmail.com)

KICHIK MAROSIMLARDA O‘ZBEK XALQIGA XOS MEHMONDO‘STLIK AN’ANALARINING NUTQIY NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. *Ushbu taqdim qilinayotgan maqola o‘zbek xalqining qadimiy an’ana, urf-odat, udumlari, ularning hozirgi kundagi ahamiyati, mehmondo‘stlik tushunchasi, undagi mavjud nutqiy birliklar, ifodalar misollar orqali yoritilgan, mehmondo‘stlik odatlarining tarixiy kelib chiqishi, rivojlanishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, sovchilik marosimining paydo bo‘lish tarixi, ushbu jarayonda ifodalanuvchi nutqiy ifodalar, ularning ma’nolari ham berib o‘tilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются древние традиции, обряды, обычаи узбекского народа, их современное значение, понятие гостеприимства, существующие единицы речи, выражения, исторические истоки обычаев гостеприимства, а также история церемонии сватовствия, словесные выражения, также приведены их значения.*

Annotation. *This article covers the ancient traditions, customs, customs of the Uzbek people, their current significance, the concept of hospitality, the existing units of speech, expressions, the historical origins of the customs of hospitality, as well as the history of the matchmaking ceremony, verbal expressions, their meanings are also given.*

Kalit so‘zlar: *mehmondo‘stlik, nutqiy ifodalar, marosim, udum, atlas, baxmal, sovchilik, mehmondo‘stlik xislatlari, ma’naviy element, milliylik.*

Ключевые слова: *гостеприимство, словесные выражения, обряд, атлас, бахмал, сватовство, качества гостеприимства, духовный элемент.*

Keywords*: hospitality, verbal expressions, ritual, atlas, satin, velvet, matchmaking, hospitality features, spiritual element.*

O‘zbek xalqi uzoq tarixiy an’ana va urf-odatlarga boydir. Mana shu an’analar, marosimlar, urf-odatlar asrlar osha o‘zining tarixiy va milliy ahamiyatini yo‘qotmagan holda, xalqimiz hayotida o‘z aksini topib, elimizning mehmondo‘stlik xislatlari, fazilatlari muijassamlashgan bu yurtning boshqa yurtlardan ajralib turuvchi jihati sifatida e’zozlanib keladi. Yildan yilga bu an’ana va marosimlar xalq orasida sayqallanib, ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelmoqda. Milliy, tarixiy urf-odat, an’ana va marosimlarimiz nafaqat shod-xurramlik, quvonch hamda baxtni ifodalaydi, balki ma’lum bir maqsadni o‘zida mujassam qilgan holda, yillar osha amalga oshirilib kelayotgan diniy udumlardan hisoblanadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ushbu udum, marosimlar, davrlar mobaynida qisman o‘zgarib, boyib borishi natijasida turli hududlarda turfa xil, o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib bormoqda. Shunday bo‘lsa-da, barcha o‘zbek marosim, urf-odatlar zamirida ezgulik, halollik, mehr-oqibat, mehmondo‘stlik kabi ijobiy fazilatlar o‘z ifodasini topgan. Bularning barchasi yangi o‘sib kelayotgan yosh avlodning davomiyligini ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbek xalqining urf-odatlari ko‘p asrlar davomida o‘zbeklarning etnogenezida qatnashgan barcha qabila, elatlarning madaniy mahorat va an’analarini birlashtirishning murakkab jarayoni natijasida rivojlanib bordi. Ular noyob, rang-barang, xilma-xildir, patriarxal oila va qabila munosabatlariga borib taqaladi. Ko‘plab urf-odatlar oilaviy hayotga hamroh bo‘ladi, bu esa bolalarning tug‘ilishi va tarbiyasi, to‘ylar, dafn marosimlari bilan bog‘liq. Bolalarning tug‘ilishi va tarbiyasi (beshik toji, xatna qilish) va nikoh (fotiha toji, to‘y) bilan bog‘liq urf-odatlar alohida o‘rin tutadi. Ko‘pincha, ular islomiy marosimlarning sehrli amaliyotlariga bog‘liq bo‘lgan eski shakllar bilan birlashishini anglatadi. Islomni qabul qilish bilan ko‘plab oilaviy urf-odatlar din ta’sirida bo‘lib, o‘zbeklar hayotiga musulmonlarning diniy urf-odatlari kirib keldi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxona, bozorlarda va faqat erkak aholi ishtirok etadigan jamiyat hayotida saqlanib qoldi.[1]

Mehmondo‘stlik barcha Sharq xalqlarining hayotiy tamoyili va O‘zbekiston xalqiga xos xususiyatlardan biridir. Bugungi kunda mehmondo‘stlik qonunlari kundalik hayotda juda ko‘p yordam beradigan ijobiy odatga aylandi. Qadimgi davrlarda Sharq xalqlarida mehmondo‘stlik hayot qoidasi va axloqiy qonun hisoblangan. Bu esa har doim Sharqning ko‘plab xalqlariga xos bo‘lgan. Hatto Chingizxonning Yasa (kodeks)iga ko‘ra ham eng katta va kechirib bo‘lmaydigan jinoyat – ishongan odamlarni aldash va mehmonni o‘ldirish bo‘lgan.

Mehmon, o‘zbek bo‘lishi shart emas, hech qanday sababsiz, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi mumkin. Ammo shunda ham unlarni iliq kayfiyatda kutib olish maqsadga muvofiqdir. Mehmonlar qayerda va kim bo‘lishidan qat’iy nazar, birgalikda ovqatlanish – bu uchrashuvning asosiy yadrosi. Tashrif buyurgan mehmonlar uyga taklif qilinadi, dasturxonning eng sharafli joyiga – uyning tepa qismiga o‘tkiziladi. Qadimgi odatga ko‘ra, erkaklar va ayollar turli stollarda, alohida o‘tirishlari kerak bo‘lgan, lekin hozirgi kunga kelib, bu holat faqat qishloq joylarda to‘liq saqlanib qolgan. Oila boshlig‘ining o‘zi mehmonlar bilan birga o‘tiradi va eng hurmatli, yoshi ulug‘ odamlarga kirish joyidan uzoqroq bo‘lgan dasturxonning yuqori qismidan joy beriladi.

O‘zbek milliy taomlar haqida ko‘plab kitoblar muallifi, falsafa fanlar nomzodi, dotsent, Karim Mahmudov aytganidek: “Daraxt bor unga qush qo‘nadi, uy borki, demak, unga, albatta, mehmon keladi. Mehmondo‘stlik nainki insoniylik bog‘idir, balki shu bog‘ning eng shirin mevasidir”.[2]Haqiqatan ham, o‘zbeklar mehmondo‘st xalq bo‘lganligi bois, azal-azaldan xalq orasida “Bir oshlik masalliqni miltiqning

[1]Jo‘raboyev B. O‘zbekiston madaniyat va urf-odatlari. Academic research in educational sciences. №2, 1510-bet.
[2] Mahmudov K. Mehmonnoma. “Yosh gvardiya”, 1989, 45-bet.

o‘qiday ehtiyot qilib qo‘ygin. Eshikli uy, mehmon kelsa, dog‘da qolmaysan!” degan gaplar bejiz tarqalmagan. Bunga misol tariqasida ko‘plab maqollarni keltirishimiz mumkin:

♦*Yo‘lli kishining mehmoni bir kelar.*
♦*Kelguncha mehmon uyalar,*
Kelgandan so‘ng mezbon uyalar.
♦*Kelish mehmondan, ketish mezbondan.*
♦*Mehmon – aziz, mezbon – laziz.*
♦*Mehmon – atoyi Xudo.*
♦*Mehmon kelar eshikdan,*
Rizqi kelar teshikdan.
♦*Mehmon kelgan uy – barakali.*
♦*Mehmon kelsa choptirar,*
Bor yo‘g‘ini toptirar.
♦*Mehmonning itini tur dema.*
♦*Mehmonning ketishini so‘rama,*
Kelishini so‘ra.
♦*Mehmonning oldida mushugingni pisht dema.*[1]

Yuqorida keltirilgan jumlalardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek xonadoniga har qanday holatda mehmon kelishi mumkin va mana shu vaziyatda uy egalari o‘zlarini noqulay holatda qolmasliklari uchun, tashrif buyurganlarni yaxshi mehmon qilishlari uchun oldindan tayyorgarlik qilib qo‘yishi ham bu xalqning ezgu fazilatini namoyon qiladi.

Xalqimizning milliy taomlari juda ham ko‘p va xilma-xildir. Mana shu taomlar orasida eng ko‘p quvvatga boy va foydali hisoblangani osh, ya’ni palovdir. Shu sababli ham, mehmonlar tashrifida mana shu taom dasturxonga tortiladi. Xalq orasida eng suyukli taom osh, boshqacha qilib aytganda palov bo‘lganligi bois ham uni ko‘pchilik “palovxonto‘ra” deb atashgan. Bir tovoqda jamlangan holda oshni qo‘lda iste’mol qilishlari insonlarni hamjihatlikka, birdamlikka chorlovchi taom sifatida e’zozlanadi. Shu bois, ko‘pchilik qariyalar *“*O‘ldirsa ham osh o‘ldirsin!” deya palovxonto‘rani ko‘p iste’mol qiladilar. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ertalabki palov marosimi to‘y (sunnat to‘yi yoki nikoh) paytida va xotira marosimida (vafot etgan kundan boshlab 20 kun va bir yil) o‘tkaziladi. To‘y tashkilotchilari ertalabki palovning kuni va vaqtini mahalla jamoatchiligi bilan kelishib, oldindan belgilab beradi. Shu kuni qarindoshlar, qo‘shnilar va tanishlarga taklifnomalar yuboriladi. Kechqurun “sabzi to‘g‘rar” marosimi o‘tkaziladi, ya’ni sabzi maydalash, odatda, qo‘shnilar va yaqin qarindoshlar qatnashadilar. “Sabzi to‘g‘rar” tugagandan so‘ng barcha ishtirokchilar dasturxonga taklif qilinadi. Bomdod palovi bomdod namozining oxirigacha tayyor bo‘lishi kerak. Bomdod namozi tugagach, karnay, surnay va daf sadolari bomdod palovi boshlanganidan xabar beradi. Mehmonlar dasturxonga o‘tirib, fotiha (istak) qilganlaridan so‘ng choy tortiladi. Shundan keyingina palov har bir mehmon dasturxoniga tortiladi. Ovqatdan so‘ng, mehmonlar yana fotiha qilishadi va uy egasiga minnatdorchilik bildirib, ketishadi. Ertalabki palov, odatda, bir yarim-ikki soatdan oshmaydi. Bu vaqt davomida taklif etilgan san’atkorlar qo‘shiqlar ijro etishadi. Ertalabki palov tugagandan so‘ng, faxriy mehmonlarga sovg‘alar (choponlar – erkaklar milliy libosi) taqdim etiladi. Dafn palovining bayram palovidan farqi shundaki, mehmonlar dasturxon atrofida o‘tirib, Qur’on suralarini o‘qib, marhumni xotirlaydilar. Ovqatlanish ham Qur’on suralarini o‘qish bilan yakunlanadi. Dafn palovida san’atkorlar chaqirilmaydi, dasturxonlar bayramona palovdan ko‘ra oddiyroq tuziladi. Aytish joizki, bayram palovi va janoza palovi faqat erkaklar tomonidan tortiladi.

Palov haqida o‘zbek xalq maqollari ham mavjud. Jumladan, “Mehmonga osh qo‘y, Ikki qo‘lini bo‘sh qo‘y”, “Osh mehmon bilan aziz”, “Yo‘qcha guruch osh bo‘ladi, Mehmon ko‘ngli shod bo‘ladi”, “Mehmon kelsa, pastga tush, Palov bermoq ahdga tush”[2] va shu kabilar o‘zbek xalqining mehmondorchilik marosimlari, shuningdek, har qanday mehmon kelganda yoziladigan dasturxon milliy taom hisoblanmish palovsiz o‘tmasligini ko‘rsatib beradi.

O‘zbeklar qadim zamonlardan mehmondo‘stlik ruhida tarbiyalanib borar ekan, har qanday marosim-u yo‘riqlarni ko‘tarinki ruhda o‘tkazish uchun mehmonlar ko‘nglini shod qiladilar. Mezbonlar mehmonlar uchun barcha imkoniyatlardan foydalangan holda, ularga qo‘ldan kelgancha xizmat qiladilar, yo‘qdan bor qilib, mehmonlar hojatini chiqaradilar va bu orqali jamiyatdagi birdamlik, ahllikni ta’minlay-

[1] O‘zbek xalq maqollari.
[2] Shu manba.

dilar. Mana shu xislatlar tarixan shakllanib kelganligi bois ham ajdodlarimiz uylarini, xonadonlarini ko‘p tokcha va taxmonli qilib qurdirgan. Tokchalari turli xildagi idishlar bilan to‘ldirilgan, taxmonlariga esa sandiq joylab ustiga atlas va baxmal ko‘rpalar, to‘shaklar joylangan. Buning asosiy sababi shuki, o‘zbek xonadoniga ko‘p sonli mehmonlar tashrif buyursalar ham, uy egalari shoshib qolmaydilar. Qancha vaqt o‘sha honadonda qolsalar-da, ularga malol kelmaydilar. Shuning uchun elimiz mehmondo‘stligi tufayli marosimlarimiz ko‘pchilik mehmonlarsiz o‘tmaydi. Xuddi mana shu odatlar necha yildirki, yo‘q bo‘lmay, bugungi yosh avlodga yetib kelgan. Bo‘lajak kuyov bo‘lmishning ota-onasi yosh oila uchun ko‘p xonali, mehmon kuzatish uchun qulay boladigan fayzli uy qilib beradilar, kelinning buvi, oyi va momolari esa kelinga, uning uyiga mehmon bo‘lib boruvchilarni yaxshi kayfiyatda, qulay sharoitda kutib olishlari uchun baxmal, atlaslardan bir nechta to‘shak, ko‘rpa, yostiqlarni kelin sarpo sifatida tayyorlab berishadi. Mana shularni to‘y kunlari yaxshi niyyat bilan tashrif buyurgan mehmonlarga ishlatadilar, mehmonlar hojatini chiqaradilar.

Eshik ostonasiga kirib kelgan har qanday mehmon shirinso‘z va samimiyat ila “Assalom-u alaykum, xush kelibsiz, koshonamizga”, deya kutib olinishi tashrif buyuruvchilarning hurmatga loyiq insonligini belgilab beradi. Shu o‘rinda “Assalom-u alaykum” so‘zning lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tish joiz, ya’ni, “salom yo‘llov”, “qutlov shakli” hisoblangan ushbu jumla “Sizga sog‘lik tilayman, salomatlik tilayman” ma’nosini anglatadi.[1]Bu kabi mehmondo‘stlikni ifodalovchi nutqiy na’munalarni juda ko‘p uchratishimiz mumkin. Misol uchun, “Vaalaykum assalom”, “Xush kelibsiz”, “Xushvaqt bo‘ling”, “Uydagilar yaxshimi?” “Ishlaringiz yaxshimi?”, “Ovvora bo‘libsizlar”, “Hijolat bo‘lmang”, “Hechqisi yo‘q”, “Sizlarga katta rahmat” va boshqalar shular jumlasidandir.

Ushbu maqolamizda, asosan, kichik marosimlarda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik an’analarining nutqimizda namoyon bo‘lish jihatlarini ko‘rib chiqishga harakat qildik.

Xalqimizning eng ko‘zga ko‘ringan milliy marosimlardan biri bu, albatta, ikki yoshning yangi hayot ostonasiga qadam qo‘yishlari uchun sabab bo‘luvchi “Sovchilik” udumidir. “Sovchilik” so‘zi, avvalo, mehmondo‘stlikni ifodalovchi atama sifatida talqin qilinib, qiz ko‘rish va qiz tomon roziligini so‘rash maqsadida birovning xonadoniga borish; sovchi bo‘lish demakdir.[2] Shu o‘rinda “Sovchilik” atamasining kelib chiqishi tarixiga to‘xtalish joizdir. Milliy marosimlarimizdan biri nikoh to‘yi hisoblanib, mana shu marosimni dastlabki jarayoni sovchilik bo‘lib, sovchilar to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlarni VII-VIII asrga oid O‘rxun-Enasoy bitiklarida uchratamiz. Buyuk davlat arbobi To‘nyuquq (VII asr) bitiktoshida “Sov” – kalimasi sab – so‘z, gap ma’nosida ishlatilgan. Irq bitigi (fol kitobi)da esa “sab”–so‘z, “Sabchi” – “xabarchi”, “so‘z keltiruvchi” ma’nosida ishlatilgan. O‘rta asrlar mashhur tilshunosi Mahmud Koshg‘ariy bu xususda “sovchi – kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar yetkazuvchi”, deb yozadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yangi oilaning paydo bo‘lishidagi sovchilik udumi uzoq o‘tmishda ham mavjud bo‘lgan.[3]

Sovchilik marosimi o‘zning boy tarixiga ega va o‘zbek an’analari ichida sayqallanib yo‘q bo‘lmay kelayotgan udumlardandir. Qiz ko‘rish, ya’ni sovchilikka borgan o‘zbek ayollari eshikni taqillatgan holda “Kim bor?” deb murojaat qilishi, uy egalarini esa “Labbay, hozir” deya kutib olishga shoshilishlari, sovchilar esa “Eshigingiz supurgani keldik, o‘rgilay” deya o‘zlarining tashrifidan maqsadlarini bayon qilishlari ham mehmondo‘stlikni ifodalovchi nutqiy birikma yoki ifodalardan sanaladi. Shu o‘rinda turli o‘zbek asarlarida ham keltirib o‘tilgan ana shu birikmalarni taqdim qilishni joiz deb bildik:

“G‘ulomjon turgan yerida labbay! Deb javob berdi-da, tashqariga qarab yugurdi” (Farg‘ona tong otguncha. M.Ismoiliy).

“Goh telefonga quloq solib, goh o‘tirganlarga qarab turgan sekretar labbay dedi-yu, trubkani qo‘yib, qog‘ozlarni titkilay boshladi” (Mushtum).

“Dunyoda kampirlarning duolarini olaylik-da, labbay?”(Javohirlar sandig‘i. Shukrullo).

“Handalak o‘g‘irlashdagi tajribalardan foydalanib, bu yerdagi o‘g‘rilarni tutibdilar-da, labbay?”, (Er boshiga ish tushsa. O.Yoqubov).

Shuni ham ta’kidlash joizki, mezbonlar kelgan mehmonlar uchun atalgan baxmal to‘shaklar solidilar va uyning to‘risiga taklif qilinadi. Dasturxon atrofida o‘tirgan mehmonlar qo‘llarini yuvishlari uchun uy egalari tomonidan suv beriladi. Mehmonlarning qo‘llariga uch marotaba suv quyilar ekan, har birida duo qilib, “Baxtingizni bersin”, “Uvali-juvali bo‘ling”, “Qo‘shganingiz bilan qo‘sha qaring”, “Etagingiz

[1] A.Madvaliyev tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.
[2] Shu manba.
[3] Saydullayeva X., Ochilov A. O‘zbekistonda to‘y an’analari tarixi va buguni. Academic research in educational sciences. № 2, 1239-bet.

farzandlarga to‘lsin”, deya samimiy va iliq duolar qiladilar. Bu esa o‘zbeklarda “mehmondo‘stlik” tushunchasining qay darajada yuksakligini namoyon qiladi.

Sovchilik marosimi jarayonida mehmondo‘stlikni talqin qiluvchi yuqorida keltirilgan namulardan tashqari ko‘plab nutqiy birliklar mavjud. Jumladan, “Xush kelibsiz”, “Xushvaqt bo‘ling” kabi jumlalar tashrif boshida va oxirida duodan so‘ng aytiluvchi nutqiy ifoda sifatida qaraladi. Mana shu ifodalar mezbonning mehmonlar tashrifidan mamnunligini, mehmonlar ham mezbonlarga o‘zlarining minnatdorchiligini shu tarzda ifodalashini anglatadi. Suhbat davomida esa mezbon tomonidan “Olib o‘tiringlar”, “Dasturxonga qaranglar” kabi ifodalar keltiriladi. Bu kabi nutqiy birikmalardan ko‘zlangan asosiy maqsad – marosim davomida har ikki tarafning ham uyalish hislaridan yiroqlashgan holda o‘zlarini qulay his qilishlari mumkinligini ifodalab keladi. “Olib o‘tiringlar” jumlasining ma’nosi dasturxonga qo‘yilgan noz-ne’matlardan bahramand bo‘linglar degan ma’nosini ifodalasa, “Dasturxonga qaranglar” deyish orqali suhbat davomida uzoq to‘xtalib qolishning oldini olish yoki taom kelganida, taomdan olinglar ma’nolarini ifodalab keladi.

Sovchilik marosimida har ikki taraf ham kamtarlikka xos jihatlarini namoyon qilishlari mehmondo‘stlik an’analarining bir ko‘rinishidir. Shu jarayonda kelin bo‘lguvchi qiz – gulga, yigit esa bulbulga qiyoslanib kelingan. Dasturxon atrofida o‘tirgan mehmonlarni hurmat qilgan holda, mezbon bo‘lmish ayol “Qanday choy ichasiz?” “Ko‘k choymi yoki qora choy?” deya mehmonlarni istagini bilgan holda kelin bo‘lmishga choy damlab kirishini aytadi. Qiz kalomi ehtirom bilan sovchi bo‘lib kelgan mehmonlarga issiq choy olib kiradi. Choyni mehmonlarga uzatishidan oldin piyolaga “Bismillah” deya o‘ng qo‘lda quyiladi va yana choynakka qayta quyib qo‘yiladi. Mezbon mehmonlarga piyolada ozgina choy quyib berish jarayonida, mehmondo‘stlikning an’anaviy elementi – oz miqdorda quyilgan choy mehmon qanchalik hurmatli bo‘lsa, uning kosasi shunchalik kam bo‘ladi. Bu odat quyidagicha izohlanadi: mehmon qo‘shimcha qilish uchun uy egasiga qanchalik ko‘p murojaat qilsa, shuncha yaxshi bo‘ladi. Mana shu holat uch marotaba takrorlanadi. Boshqa xalqlardan farqli ravishda, o‘zbeklar har bir kelgan mehmonga o‘rnidan turgan holda chap qo‘li ko‘ksida, o‘ng qo‘lida esa piyolada choyni uzatadilar. Bu ham o‘ziga xos bir an’ana sifatida qaraluvchi odatlardan biridir.

Sovchilik marosimining eng asosiy qismi bu yigit va qiz haqida ma’lumotlar almashish, har ikki taraf ham kelishish maqsadida o‘zlarining to‘y marosimini o‘tkazish uchun rejalarini bayon etadilar. Bir necha yillar ilgari sovchi bo‘lib kelgan mehmonlar uy egalarining hovli, oshxona, tandirxona, hojatxonalarini ko‘zdan kechirgan. Bundan ko‘zlangan maqsad ana shu oilaning uy-ro‘zg‘or tutumini, pokizaligini, bir so‘z bilan aytganda, oilaviy hayot tarzini ko‘rib bilish bo‘lgan. Biroq hozirgi kunda sovchilar bu odatlarga amal qilmaydi, yoshlarning uchrashuvi, bir-birlarini tushunib, kelisha olishlari, yangi hayotni birga barpo qila olishlariga ko‘proq e’tibor qaratadilar. Sovchilik marosimi bir martagina amalga oshirilmaydi. Qiz ma’qul kelgan oilaga kuyov bo‘lmishning oila a’zolari ko‘p marotaba tashrif buyuradilar. Qiz tomonga ham mana shu mehmonlar ma’qul kelsa, qizning barcha qarindoshlariga: amma, xola, tog‘alariga xabar bergan holda, kattalar maslahat qiladilar va kuyov bo‘lmish yigitni, oilasini, yetti ajdodini surishtiradilar. Sababi, ajdodida, oilasida nosog‘lom inson bormi yoki yo‘qligi, shuningdek, kelin bo‘lib boradigan xonadonning turmush tarzi, oilaviy muhitini o‘rganib chiqadilar. Shu taraflama ham ma’qul kelsa kuyov oila a’zolari savatda qand-qurs, patir nonlar qilib olib keladilar. Shundan so‘ng ikkala taraf ham rozi bo‘lganlaridan so‘ng har ikkala tomonning ham kattalari yaxshi niyat ila duo qilib, patir nonni juft qilgan holda “Yoshlarimiz baxtli-saodatli bo‘lib, qo‘sha qarisinlar”, deya sindiradilar. Shundan so‘ng qiz va yigit unashtirilgan hisoblanadi va kelinning qaynonasi kelinga atab olib kelgan uzugini ezgu niyyat ila qo‘liga taqib qo‘yadi.

“Fotiha toj” bayrami to‘y kunini belgilash bilan yakunlanadi. Vositachilarning har biriga ikkita yassi non va shirinliklar bilan dasturxon beriladi. Bundan tashqari, kuyovga va uning ota-onasiga sovg‘alar beriladi. Mehmonlar kuyovning uyiga qaytib kelgandan so‘ng, sovg‘alar ularning qo‘llaridan olinadi va “sarpo ko‘rar” odati boshlanadi. Olib kelingan dasturxonni, odatda, ko‘p bolali ayol ochadi. Yig‘ilganlarning barchasi kelinning uyidan olib kelingan pishiriqlar va shirinliklarni birga baham ko‘radilar. Ushbu marosim nishonlash marosimini yakunlaydi. “Fotiha toj” nishonlangan paytdan boshlab va haqiqiy to‘ygacha kelin-kuyovning ota-onalari mahr masalalari va to‘yni nishonlash bilan bog‘liq tashkiliy masalalar bilan shug‘ullanadilar.[1] Mana shu jarayon o‘zbek xalqining eng unutilmas, milliy marosimi hisoblanadi.

E’tibor berish joizki, o‘zbeklar azaliy odatlarni saqlagan holda sovchilik orqali kattalar duosi ostida yangi hayotga qadam qo‘ysalar, xorijiy davlatlarda esa sovchilik masalasiga ko‘p ham e’tibor berilmay,

[1] Jo‘raboyev B. O‘zbekiston madaniyat va urf-odatlari. Academic research in educational sciences. № 2, 1512-bet.

ikki yosh o‘zlari qaror qabul qilgan holda hayot boshlaydilar. Misol uchun, britaniyaliklar kishining ma’-lum vaqt davomida, bir vaqtning o‘zida, bir nechta odamlar bilan tanishishi, do‘st bo‘lib yurishlari odatiy holdir. Agar ma’lum bir odam uchun his-tuyg‘ular paydo bo‘lsa, ular, odatda, yangi do‘stlar bilan uchrashishni yoki boshqalar bilan ko‘rishishni to‘xtatadilar. Buning o‘rniga, ular, odatda, o‘ziga ma’qul kelgan insonni rozi bo‘lmaguniga qadar, yaxshi munosabatda bo‘lishadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqi o‘zining tarixiy va milliy an’analariga boy xalqligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Mana necha yildirki, bizning xalqimiz har bir urf-odat va an’analarini ko‘pchilik bilan hamjihatlikda ko‘tarinki ruhda o‘tkazib keladilar, mana shu an’ana va udumlar o‘zbek xalqiga faqatgina yuqori kayfiyat, quvonch baxsh etadi. Milliy udumlar, urf-odatlarimizning ko‘pchilik qismi diniy shaklda bo‘lib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tib, hozirgi kunimizgacha yetib kelgan va istiqbolda ham ma’naviy qadriyatlarimiz tarkibida mustahkam saqlanib keladigan noyob hayotiy marosimlar majmuyidir.

Boymuratova Nazokat Komiljonovna (UrDU mustaqil tadqiqotchisi)

ABULG‘OZI BAHODIRXON TARIXIY ASARLARI FONETIKASIDAN KUZATISHLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarida hayotning barcha sohalarini aks ettiradigan ayrim so‘zlardagi unlilar izohi, unlilar sistemasini eski o‘zbek tilida ijod qilgan boshqa adiblar tiliga solishtirish, xonliklar davrida o‘zbek adabiy tilining fonetik sistemasida qanday o‘ziga xosliklar haqida so‘z boradi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема пояснения некоторых гласных в словах, обозначающих жизненные реалии, в произведениях Абулгази Бахадырхана. Делается попытка сопоставительного изучения системы гласных с языком других писателей, творивших на староузбекском языке, освещаются особенности фонетической системы узбекского литературного языка периода ханств.*

Annotation. *This article deals with the problem of explaining some vowels in words denoting life realities in the works of Abulgazi Bahadyrkhan. An attempt is made to study the system of vowels comparatively with the language of other writers who wrote in the Old Uzbek language, highlights the features of the phonetic system of the Uzbek literary language of the period of the khanates.*

Kalit so‘zlar: *vokalizm, cho‘ziq unli, qisqa unli, fonema, eski o‘zbek tilida unlilar sistemasi.*

Ключевые слова: *вокализм, долгая гласная, краткая гласная, фонема, система гласных в староузбекском языке.*

Key words: *vocalism, long vowel, short vowel, phoneme, vowel system in the Old Uzbek language.*

Bugun eski o‘zbek tilida manbalardagi unlilar sistemasi haqida ma’lum bir to‘xtamga kelinmaganligining asosiy sabablaridan biri, arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida barcha unli tovushlarni ifodalash uchun atigi uchta harf ishlatilganidir. Bundan tashqari, unlilarni ifodalash uchun ma’lum bir me’yoriy qoidalar ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham eski o‘zbek tilidagi unlilar haqida shu kungacha aniq bir ilmiy xulosa qilish mushkul. Bu borada turkologlarimizning bildirgan fikrlari va keltirgan dalillari bir-birini inkor etadi.

Masalan, professor A.K.Borovkov Alisher Navoiy asarlari tilida 8 unli fonema mavjudligini ko‘rsatadi.[1] Professor X.Doniyorov asarlarida eski o‘zbek tilida, jumladan, Alisher Navoiy asarlari tilida 11 unli bo‘lib, shulardan, 9 tasi fonema xususiyatiga ega, deb ta’kidlanadi. E.Umarov esa Alisher Navoiy asarlari tilida unli fonemalar miqdorini 9 ta ekanligini ta’kidlagan xolda, “Mukokamat ul-lug‘atayn”da aks etgan unlilar asosida hamda ushbu asarda keltirilgan nazariy ma’lumotlarga asoslanib, 13 ta deb ko‘rsatadi.[2] Akademik Alibek Rustamov o‘zining Alisher Navoiy tili muammolariga bag‘ishlangan asarlarida eski o‘zbek tilida 9 ta unli fonema mavjud bo‘lganini yozadi.[3]

Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima» asarlari tilida unlilar sistemasini tadqiq etish jarayonida ularni Navoiy asarlari tilining vokalizmi, shuningdek, Alisher Navoiyning turkiy tildagi (eski o‘zbek tilidagi) unlilar haqida bergan nazariy ma’lumotlari bilan qiyoslab borish maq-

[1] Боровков А.К. Навои как основоположник узбекского литературного языка. Т., 1976, с. 64.
[2] Умаров Э. “Муҳокамат ул-луғатайн”да акс этган унлилар. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1994, 4, 26 – 8-бетлар.
[3] Рустамов А. XV аср тили вокализми. “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари”, 1968, 6-сон; Навоий тилининг фонетик хусусиятлари. Т., “Фан”, 1963.

sadga muvofiqdir. Chunki Alisher Navoiyning bu haqidagi ma'lumotlarining ahamiyati shundaki, u turkiy tildagi tovushlar sistemasini ushbu tilni ona tili sifatida biluvchi xalqning zabardast ziyolisi sifatida ham, amaliy xarakterda ham, nazariy xarakterda ham puxta bilgan. Bundan tashqari Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima» asarlari tilida unlilar sistemasini eski o'zbek tilida ijod qilgan boshqa adiblar tiliga solishtirish xonliklar davrida o'zbek adabiy tilining fonetik sistemasida qanday o'ziga xosliklar vujudga kelganini yaqqolroq namoyon qiladi.

Alisher Navoiy asarlarida, xususan, "Muhokamat ul-lug'atayn"da eski o'zbek tilidagi unlilar haqida noyob ma'lumotlar saqlangan. Ularni yig'ib, tartibga keltirish natijasida XV asr vokalizimi haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, shoir "a" unlisining sifat xususiyatlari haqida quyidagilarni yozadi: "Ul jumladin biri alif bila xo orasida munosabat va mushorakat beribdurlarki, bir lafzni oxiri alif bilan qofiya qilsa bo'lur, andoqki, aro ارا lafzini sara سره va dara (kir)بر ه bila qofiya qilsa bo'lur.[1] Yuqoridagi misoldan shoir eski o'zbek tilida ikkita a unlisi mavjudligini ma'lum qiladi va nihoyat, shoir asarlarida uchrovchi, jumladan, Alisher Navoiyning Tehrondagi "Saltanat" kutubxonasida saqlanayotgan shoir dastxatidagi so'zboshida keluvchi "alifi mamduda" (آ) cho'ziq a bilan yozilgan; ag'uluq غر لوق atsaاتما ا, ãlmishtur االمثتور so'zlarini hisobga olsak, XV asrda uch xil "a" unlisi mavjud bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

Cho'ziq ã, qisqa ä, oddiy a. XV asrda cho'ziq ã mavjud bo'lganligi Mahdixon, shuningdek, Markaziy Osiyo hududida tuzilgan forsiy farhanglar ham tasdiqlaydi. So'z o'rtasidagi cho'ziq ã ni Mahdixon shaklida, ya'ni cho'zilgan atamasi orqali ko'rsatadi. Forsiy farhanglarda turkiy so'zlardagi cho'ziq **a** ikkita alif bilan ko'rsatilgan. Bulardan alif belgisi bilan ifodalangan so'zlar ma'no ajratish xususiyatiga ega bo'lgani uchun mustaqil fonema sanaladi, qolgan ikkisi: so'z boshida keluvchi – maddali alif va so'z oxirida keluvchi "hoyi havvaz" orqali ko'rsatiluvchi qisqa **ä** fonema variantlari hisoblanadi.

Abo'lg'ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima» asarlaridan keltiriladigan quyidagi parchalar orqali xonliklar davri adabiy tilida mavjud **a** unlisi va uning fonema variantlari haqida ma'lumot olishimiz va ularni eski o'zbek tilining boshqa obidalari, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilining vokalizmi bilan taqqoslashimiz mumkin: "Otasidin sungra tamom elga podshoh bo'ldi. Ar tog'i va Kar tog'i, bu zamonda ani Ulug' tog' va Kichik tog' tey tururlar, ani yoylar erdi. Qish bo'lg'anda Qora qum va Sir suvining yoqasini qishlar erdi. Qoraxon zamonida el andog' kofir bo'lib erdilarkim, ichlarinda bir musulmon qolmay erdi".

Yuqorida keltirilgan parchada **a** unli qo'llangan o'rinlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, Abolg'ozi Bahodirxon asarlarida ham eski o'zbek tilining barcha etaplariga xos fonetik sistema mavjudligini ko'ramiz. Xususan, bunda Alisher Navoiy qayd etgan **a** unlining uchtasini ham uchratamiz:

1. So'z boshida maddali alif bilan ifodalanuvchi ã. Bu unli tovush eski o'zbek tilida unlilar tasnifiga ko'ra, til orqa, quyi keng, lablanmagan unli tovush. Bu tovush o'zlashma so'zlarga nisbatan asl turkiy so'zlarda ko'proq uchraydi. Yuqoridagi matnda "ata" tarzida berilgan so'zdagi har ikkala unli ham, aslida, til orqa, quyi keng, lablanmagan unli, ya'ni **ã** dir. Bu so'z hozirgi kunda ham Xorazm shevalarida shu tarzda talaffuz qilinadi. Shuningdek, parchadagi quyidagi so'zlarda ham ushbu til orqa, quyi keng, lablanmagan unli ishlatilgan: **Ota, Ar tog'i, Kar tog'i, ani, Ulug' tog', Kichik tog', tururlar, ani, yoylar, bo'lganda, Qora qum, yoqasi, qishlar, Qoraxon, andog', qolmay.**

Shoir labangan unli haqida yozar ekan, XV asr o'zbek tilida to'rtta mustaqil lablangan fonema bo'lganligini ta'kidlab, quyidagi misollarni keltiradi: to'rki, domdur, yana to'rki, andin daqiqroqdurki, qush o'ltutur yig'ochdur va to'rki andin daqiqroqdur – uyning to'ridur va to'rki, barchadin ariqdur: to'rlug'ni yo eshikni turmak uydur.[2] Bu misollardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy eski o'zbek tilida bir-biridan uzun-qisqalikda farqlanuvchi to'rtta mustaqil fonema borligini ta'kidlamoqda. Ulardan birinchisi oddiy cho'ziqlikka ega "o'" (dom), ikkinchisi – qush o'tiradigan yog'och, birinchisidan qisqaroq bo'lgani uchun birinchi darajali qisqa o', uchinchisi uyning to'ri, ikkinchisidan qisqaroq bo'lgani uchun ikkinchi darajali qisqa o', to'rtinchisi to'rlug' (eshikning to'ri) uchinchisidan qisqaroq bo'lgani uchun uchinchi darajali qisqa o'.

Abo'lg'ozi Bahodirxonning asarlari tilida ham lablangan unlilar soni to'rtta bo'lib, ular quyidagilardir:

1. u – til orqa, yuqori tor, lablangan unli.
2. ü – til oldi, yuqori tor, lablangan unli.

[1] Алишер Навоий. Асарлар. 14-том, Т., 1966, 114-бет.
[2] Shu manba.

3. o – til orqa, o‘rta keng, lablangan unli.

4 . ɵ – til oldi, o‘rta keng, lablangan unli.

Abulg‘ozi asarlarida lablangan unlilar haqida ma’lum bir to‘xtamga kelish uchun uning asarlaridan olingan quyidagi parchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: Eslining Shaban otli og‘li bor erdi, ani xon qildilar. Ul taqi otalari yurgan yo‘ldin yurub, yaxshiga yaxshi va yamang‘a yaman bo‘lub, yigirmi yil otasi taxtinda o‘lturub, ulug‘ otalarining ko‘chining yerina tushub, ko‘chib ketdi yoki... To‘lixon Nishopurni xarob qilg‘andin song Hirot ustigä yurudi. Hirotg‘a yaqin yetgandin song Zanbur atlig‘ navkarini elchi qilib, Hirotning akobir va ashrofiga aytib yubordikim, to o‘zingiz o‘lub, og‘lon-ushoqlaringiz asir bo‘lmag‘ay.

Mikromantnni tahlil qilar ekanmiz, ularda quyidagi o‘rinlarda lablangan unlilar ishtirok etganligini ko‘ramiz: o‘g‘li, ul, yurgan, yo‘ldin, yurub, bo‘lub, o‘lturub, ulug‘, ko‘ch, tushub, ko‘chib, To‘lixon, Nishopur, so‘ng, yurudi, Zanbur, yubordi, o‘zingiz, o‘lub, o‘g‘lon-ushoq, bo‘lmag‘ay.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida nazariy jihatdan 6 ta unli bor deyilsa ham, lablangan unlilarning bugungi kunda ham ma’no farqlash xususiyati mavjud. Yuqoridagi parchadaga e’tibor qaratsak, olmak (bo‘lmoq fe’lining shakli) – ɵlmaq (o‘lmoq, vafot etmoq), bolmak (bo‘lmoq fe’li, bog‘lama vazifasini ham bajaradi) – bɵlmaq (bo‘lmoq, ajratmoq), tush (uyqudagi tush) – tüsh (tushmoq fe’lining o‘zagi) kabi so‘zlarda lablangan unlilar ma’no farqlashi mumkinligini ko‘ramiz. Lablangan unlilarning soni va sifati xususida akademiklar G‘anijon Abdurahmonov va Alibek Rustamovlarning fikrlari juda muhimdir. Bu ikki olimning fikricha, “o” va “ɵ” fonemalari hozirgi o‘zbek adabiy tili va singormonizmsiz o‘zbek lahja va shevalarida “o” ning oldiga siljishi natijasida konvergensiyaga uchrab, bir fonemaga aylangan. Ammo boshqa turkiy tillarda, shuningdek, singormonizmsiz o‘zbek lahja va shevalarida o bilan ɵ mustaqil fonemalardir. Qadimgi turkiy tildagi “u” va “ü”ning holati hozirgi o‘zbek tilidagi “u” va “ü” kabidir. Qadimgi turkiy tilda ham “u” va “ÿ” mustaqil fonemalardir. Masalan, uch (tugash joyi) – üch (3 soni).[1]

Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna (Guliston davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent; e-mail: fayzullayeva2016@yandex.ru)

USMON AZIM SHE’RIY TURKUMLARI POETIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqola Usmon Azim she’riyatidagi poetik shakllar, xususan, she’riy turkumlarning badiiy xususiyatlari haqida bo‘lib, unda ushbu turkumlarga xos jihatlar, ularda lirik qahramon kechinmalarining o‘rni, turkumlarda poetik mushohadakorlik va obrazlilik kabi jihatlar tadqiq etilgan. Lirik turkumlar yaratishda poetik tafakkur tarzi va badiiy niyatning amalga oshishi jarayonida shoir uslubi va mahorati masalasi ham o‘rganilgan. Shuningdek, Usmon Azim she’riy turkumlaridagi tasavvufiy talqinlar ifodasidagi individuallik va ijtimoiy muammolar talqinidagi xos xususiyatlar masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan.*

Аннотация. *В данной статье речь идет о поэтических формах поэзии Османа Азима, в частности, о художественных особенностях поэтических циклов, в которых исследуется специфика этих циклов, роль в них переживаний лирического героя, поэтическое наблюдение и образность.. Также исследуется стиль мышления поэта и процесс реализации художественного замысла в создании лирического цикла. Особое внимание также уделено вопросу индивидуальности в выражении мистических интерпретаций Османа Азима и особенностям трактовки социальных проблем.*

Annotation. *This article is about the poetic cycles in Osman Azim’s poetry, in particular, the artistic features of the poetic series, which explore aspects of these series, such as the role of lyrical hero experiences, poetic observation and imagery in the series. The poet's style of thinking and the process of realization of artistic intent in the creation of lyrical cycles are also studied. Special attention is also paid to the issue of individuality in the expression of mystical interpretations in the poetic cycles of Osman Azim and the peculiarities of the interpretation of social problems.*

Kalit so‘zlar: *poetik shakllar, she’riy turkumlar, ijodiy izlanishlar, badiiy tafakkur ko‘rinishlari, adabiy-tarixiy jarayon, badiiy idrok, ifoda usuli, tasavvufiy talqin, lirik qahramon va boshqalar.*

Ключевые слова: *поэтические формы, поэтический цикл, творческие поиски, формы художественного мышления, литературно-исторический процесс, художественное восприятие, способ выражения, мистическая интерпретация, лирический герой и др.*

[1]Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т., “Ўқитувчи”, 1982, 8-бет.

Keywords: *poetic forms, poetic cycles, creative research, forms of artistic thinking, literary-historical process, artistic perception, method of expression, mystical interpretation, lyrical hero, etc.*

Bizga ma'lumki, lirik asarlardagi sifat o'zgarishlari shoirning badiiy mahorati, lirik qahramon kechinmalarining ko'lami tufayli yuzaga keladi. She'riyatdagi turfa mavzularni, hayot muammolarni badiiy idrok va ifoda etishdagi xilma-xil uslubiy izlanishlar hamda obrazli ifodalar poetik tafakkur imkoniyatlarining nechog'lik keng ekanligini dalolatlaydi. Poetik shakllarning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri – bu she'riy turkumlardir. Ularning tadrijiy taraqqiyoti shu kungacha yaratilgan shu turdagi asarlarning kompozitsion strukturasi, badiiy xususiyatlaridagi o'zgarishlarda ham ko'rinadi. She'riy turkumlarning mavzusi va unda aks ettirilayotgan shoirning g'oyaviy niyati turkumlardagi umumbashariy va umuminsoniy g'oyalarning ifodalanishi kabi jihatlar undagi badiiy idrok va ifoda usuliga ta'sir ko'rsatadi.

She'riy turkumlilikning shakllanishi uzoq o'tmish bilan bog'liq bo'lsa-da, uning o'rganilishi XX asrga to'g'ri keldi. Bugungi kun o'zbek adabiyotshunosligida ushbu masala atroflicha o'rganilmagan. Lekin jahon adabiyotshunosligida, xususan, rus adabiyotshunosligida masala atroflicha o'rganilgan va bu mavzuga daxldor aksar badiiy asarlar tadqiq etilgan. Xususan, XX asrning 2-yarmi adabiyotida turkumlilik hodisasi, asosan, nasriy asarlarda kuzatilgan va tadqiqot obyektlari ham aynan aksar holatda nasriy asarlar ekanligi kuzatilgan (V.Shukshin, A.Bitov, F.Iskander, V.Astafiyev, V.Belov, L.Petrushevskayalar tadqiqotlari shular jumlasidan).

O'zbek adabiyotshunosligida "Go'ro'g'li" eposi silsila dostonlar jamlanmasi ekanligi, ya'ni turkumlilik xalq og'zaki ijodidanoq boshlanganligi haqidagi fikrlar professor va yirik folklorshunos olim To'ra Mirzayev tadqiqotlarida mavjud.[1] Yana bir folklorshunos olima Salimaxon Mirzayeva o'z monografik tadqiqotida o'zbek xalq eposlarida ularning spetsifik xususiyatlariga ko'ra tadrijiylik va izchillik kabi jihatlar mavjud ekanligi xususida fikr yuritadi.[2] Liro-epik janr namunalari bo'lgan she'riy dostonlarda ham turkum asarlar tajribasini kuzatish mumkinligi haqidagi mulohazalar adabiyotshunos olim, professor No'mon Rahimjonov tadqiqotlarida uchraydi. Mumtoz ijodkorlardan bo'lgan Usmonxo'ja Zoriy ijodida she'riy turkumlar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar Dildoraxon Abdullayeva tadqiqotlarida uchraydi. Adabiyotshunos Hamid Mirzayev o'zbek adabiyotida sonetlar turkumi haqida fikr yuritib, turkumda mavzuning yangi qirralari ochila boradi, lirik kechinmalar esa ana shu turkumning yadrosi [1, 65] ekanligi haqidagi fikrlarini o'z tadqiqida aks ettiradi.

Mazkur maqolada she'riy turkumlar qiyosiy tipologik va badiiy tahlil usullaridan foydalangan holda tadqiq etildi.

She'riy turkum namunalari she'riyatimiz tarixida muhim o'rin tutadi. Turfa poetik shakllar, she'riy turkumlar bo'yicha olib borilgan ijodiy izlanishlar, badiiy tafakkur ko'rinishlari adabiy-tarixiy jarayonda muhim o'rin tutishiga, yetakchi taraqqiyot tendensiyalarini belgilab berishiga ko'ra ham muhimdir.

"Adabiy asarlar o'rtasidagi chegaralarni yo'q qilishning eng muhim shakli ularning turkumlanishisidir. Shoirning she'rlarini turkumlarga birlashtirishi (XV–XVI asrlarda keng tarqalgan), ko'pincha, ilgari yaratilgan narsalarni birlashtirirish oqibatida yangi asar yaratilishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, she'rlarning turkumlari, go'yo mustaqil asarga aylanadi".[3]

O'zbek she'riyatida ham turkumlilik qadimdan shakllanib kelgan. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devon"idan boshlangan bu an'ana asrlar sisilasidan o'tib, XX asrda eng yuqori cho'qqilarni zabt etdi. Bu davrda ijod qilgan deyarli barcha shoirlar ijodida she'riy turkumlar mavjud. She'riy turkumning poemadan asosiy farqi uning tarkibidagi she'rlar mustaqil holatda ham alohida asar sanalishida. Poema esa bir butun yaxlitlik. Lekin she'riy turkum tarkibidagi she'rlarni yagona g'oya, yagona mavzu, yagona asos birlashtirib turadi.

Shunday turkumlar xalqimizning sevimli shoiri Usmon Azim ijodida ham mavjud. Xususan, uning "Turmush suratlari", "Tazarrau bog'lari", "Bolalikdan ikki xotira", "Sevgi haqida", "Yana sevgi haqida she'rlar", "Chapani yoki jaydari she'rlar", "Xamsa"ga tatabbu","Ko'ngil", "Erk haqida she'rlar" kabi turkumlari shular jumlasidan.

Shoirning "Turmush suratlari" deb nomlangan turkumi tarkibiga 12 ta mustaqil she'rlar jamlangan bo'lib, ular raqamlar bilan ajratilgan. Birinchi she'r er-xotinning loydan paxsa urayotganлиги va ularga o'z sevgilari tarixi haqida savol berilganda hech narsani eslay olmasliklari tasviri bilan boshlangan, 2-

[1] Mirzayev T. Silsila dostonlar ("O'zbek xalq dostonlari" kitobiga so'zboshi). T., "Sharq",, 2006, 6-bet.
[2] Mirzayeva Salimaxon. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. T., "Fan", 2004, 246-bet.
[3] Usmon Azim. Saylanma. T., "Sharq", 1995, 96-bet.

she’rda qabristondagi mitti qabrlar haqida bo‘lsa, 3-she’r erk tushunchasi haqida bo‘lib, unda tirikchilik uchun o‘z xohishi bilan qul bo‘lish xususida so‘z boradi. 4-she’rda ro‘zg‘orga puli yetmayotgan farzandlari ehtiyojini qondira olmayotgan oila xususida, 5-she’rda Mastura degan ayolning bolalariga botinka olishga puli yetmasligiga narx-navoning osmonga chiqqanligi sabab qilib ko‘rsatiladi. 6-she’rda esa shoir insonning ichkilik ichishga sabablari va oqibatlari xususida so‘zlaydi. 7-she’rda yaktagi yamoq cholning turmush tashvishlaridan o‘zligini-da unutganligi haqidagi cholning fikri orqali ko‘rsatilgan. 8-she’rda bir xonada 10 ta bolaning uxlab yotganligi, kir yostiqda tentirayotgan bit, katagida bir o‘zi uxlayotgan it, o‘ziga-o‘zi o‘t qo‘ygan oyday kelin kabilar bilan parallel ravishda tasvirlanishi orqali ularning og‘ir turmush tarzi va bu holatga qarshi Yaratgannning улarni isyon qilishga da’vati bilan yakunlanadi. 9-she’r ikkita tolga bog‘langan belanchak va unda yotgan Yodgor ismli bolaning paxta yetishtirish azoblari tufayli bevaqt vafot etgan boshqa bolalarning fojeasini eslatuvchi guvoh ekanligi tasviri bilan davom etgan.

10-she’r haykallarga qarsakbozlik va quruq deklamatsiyalar zamoni haqida. 11-she’rda xalqning haddan tashqari rivojlanishdan orqada qolayotganligi, bu har jihatdan, ya’ni osmondan yiroqlashish – iymonsizlashish va sivilizatsiyadan ham orqada bo‘lish kabilar bilan izohlangan. So‘nggi 12-she’rda soxta dohiyning – haykalning ko‘rsatgan yo‘li besamar ekanligi, bu yo‘l orqali hech narsaga erishib bo‘lmasligi xususidagi fikr ifodasi bilan sobiq totalitar tuzumning keltirib chiqargan oqibatlari bayoniga yakun yasalgan. Ya’ni, ushbu turkum turg‘unlik davridagi o‘zbek xalqining og‘ir turmush tarzi va undan kelib chiqqan yo‘qotishlar, fojiali oqibatlar ifodasi haqidagi kichik she’rlar jamlanmasi ekanligi ayonlashadi.

Usmon Azimning yana bir yirik turkumi “Tazarru bog‘lari” deya nomlanadi. Ushbu turkum 7 ta katta qismlardan iborat bo‘lib, ular ham o‘z navbatida mayda bo‘limlarni o‘z ichiga olgan. “Muqaddima” turkumning 1-bo‘limi bo‘lib, unda turkum uchun asos vazifasini o‘tagan asosiy tushuncha – bog‘ xususida so‘z boradi. Bunda saratonning ketish vaqtidagi bog‘ning holati “Otashin taxtidan qular saraton, Samoda titranar hazin tiniqlik”, deya ta’riflanishi orqali inson umrining ham zavolga sayin enishi, o‘z kuziga tomon qadam qo‘yishi holati aks ettiriladi. Shuning uchun ham shoir:

Tunlar zavol bilan quraman suhbat,
Xuddi hayot bilan gaplashgan kabi.[1]

deyish orqali ushbu holatga izoh beradi. Muqaddimaning 2-she’rida lirik qahramon bo‘lgan so‘fiy shoirning insonning Yaratgan egam oldidagi tavba-tazarrularining mohiyati xususidagi fikrlari bayoni aks ettirlgan:

O‘zni tanish fursati – uzoq,
Qanday qiyin yonadi gunoh...
Sen o‘zingni taniganиg chog‘,
Jamolingni ko‘rsatar Olloh...[2]

Turkumning 2-bo‘limi “Qishki bog‘” deb nomlanadi. Ushbu bo‘lim to‘qqiz qismdan iborat bo‘lib, undagi kuzdan qishga o‘tish tasviri insonning gunohlarga botgan holatiga mengzaladi va inson tazarru onlaridagi o‘zidagi gunohlarni his etish chog‘ida qanday tushkunlikka, ezginlikka tushsa, o‘sha holat shoir tomonidan ifoda etib beriladi.

Tong otmadi – zabt etdi armon
Miyamning qat-qatlarigacha.[3]

Turkumdagi yana bir she’r “Sevgi – xatda naqadar go‘zal!” deb boshlanadi. Bundagi sevgining qalbga beradigan og‘riqlari-yu iztiroblari, insonni betoqat va behol qilar darajadagi kuchi shoir tomonidan to‘g‘ri ifodalab berilgan. 4-she’r “Asablaring buzilyapti – Noaniqlik – bedavo qayg‘u”, deya boshlanadi va insonlarning Olloh oshig‘i sifatidagi holatiga izoh sifatida aks ettiriladi va “Sevilganning xudosi bordir, Sevilmagan xudosiz, jonim” kabi xulosa bilan yakunlanadi. 5-qismda qorning pag‘-pag‘a yog‘ishi g‘ozning patlari to‘zg‘ishiga mengzaladi va cheksiz bir kuch tomonidan yerga tomon otilgan g‘ozning “O, bir kuni shomning yuziga Shafaq bo‘lib qoni oqadir”, deya tashbehlanadi, ya’ni shafaqda quyoshning qizarib botishi yerga otilgan g‘ozning qoni ufq bo‘ylab sochilgan kabi tasavvur uyg‘otilmoqda. She’rning nihoyasida

O‘yna, jonim! Qor otib o‘yna!
Sayr aylagin – g‘amingni unut.

[1] Rahmonova S.R. O‘zbek sonetlari: poetik struktura va badiiy obraz. Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoreferati, T., 2010, 351-bet.
[2] Shu manba. 352-bet.
[3] Shu manba. 353-bet.

Bechora g‘oz parchalarida
Men ovchini turibman kutib...[1]

Bunda shoir ovchi deganda ham qalb ovchisini, ham go‘zallikni parchalab yerga sochgan buyuk qudratni nazarda tutmoqda. 6-qismdagi she’rda qabrlar to‘ntarilgan qayiqqa o‘xshatilishi orqali tirikchilik ko‘yida hayot ummonida suzgan insonlar oxir-oqibat qayig‘i halokatga uchrab, mana shu to‘ntarilgan qayiqlar diyoridan joy olishiga ishora qiladi. Shuningdek, she’r nihoyasida kunlik hayot tarziga kirishayotgan inson dorbozga ham o‘xshatiladi va uning navbatdagi yo‘lga qadam qo‘yishi dorbozning chayqalayotgan dunyoga qadam qo‘yishiga tenglashtiriladi. Turkumdagi 7-she’r o‘ziga xos oksimoron tasvirdan boshlanadi:

Samovotda muz gulxan yondi,
Havolarda uchqun otdi qor.
Qahratonning o‘tiga soldi,
Yer yuzini gumbazi davvor.[2]

Qahraton qishdagi qattiq sovuq, aslida, oshiq so‘fiy qalbidagi hijron holati, ya’ni, yor vaslidan umidsizlik, qalbning iztirobdan o‘rtanishi va azoblanishi holatiga sabab bo‘lgan holat muzlar gulxaniga o‘xshatilmoqda.

Turkumdagi 8-she’r odamning kun ko‘rishi va umr o‘tgani sari o‘z dildoshlaridan ayrila borishi holati aks ettirilgan. Umrning tinimsiz o‘tishi “Tashqarida yog‘ar edi qor” degan ifodaning har bir band so‘ngida takrorlanishi orqali aks ettilgan. Bu bo‘limdagi to‘rt qatorlik 9-she’r hikmat sifatida ifodalanadi va “G‘amu shodlik o‘rtasida ko‘z yoshi ham ozodmas” misrasi bilan yakunlanadi, bundagi asosiy mazmun hayot faqat g‘am-anduhdangina iborat emasligiga ishorani esalatadi.

Turkumning keyingi bo‘limi “Bahorgi bog‘” deb nomlanadi. Bu turkum ham 8 qismdan tashkil topgan. 1-qism bahorning kelishi qishi bilan ohu fig‘on chekkan oshiq so‘fiyning shu holatlariga mukofot sifatida berilganligiga ishorasi sifatida aks ettiriladi:

O! Olamdan to‘kildi gunoh!
Oralagan bog‘larga sanmi –
Gullaysanmi shunaqa, Olloh,
Olloh, shunday ko‘karasanmi?[3]

Ya’ni bahordagi har bir o‘zgarish, xususan, bog‘larning yashillanishi, daraxtlarning kurtak yozib, ko‘karib, gullashi kabi tabiiy holatdan Ollohning mo‘jizalari va uning nuri tajallisi sifatida oshiq tomonidan qabul qilinishi holati sifatida baholanishi mumkin.

Ushbu turkumdagi 2-she’rda lirik qahramon o‘zini bir giyoh sifat tasavvur qilib, tuproqdan unib chiqishi, ko‘kka bo‘y cho‘zishi bir mo‘jiza ekanligini ta’kidlaydi, bahor gullari, teraklar, bulutlarning boshga urilishi, novdalarning barg ochishi, yerning ona bag‘riday yumshashi kabi holatlar shoirona tashbehlarda ifoda etilgan.

Sochil, Hayot! – davroning keldi.
O, bahor ham olqish – tangridan –
Ko‘karguvchi zamoning keldi.
Telbalik qil, barq ur, yashildan,
Gulla! – nuru bo‘yga qorishib.[4]

Ya’ni ko‘klamda barcha mavjudot uyg‘onishi, barq urishi, gullab-yashnashi faqat Tangridan insoniyat uchun in’om ekanligi xususida so‘zlangan.

Ikkinchi va uchinchi bandlarda ham ushbu mazmunning davomi “Ko‘z yoshning ta’birin savolga yashir” va “Rostni ildizdagi kamolga yashir” kabi tushunchalar bilan berilishi orqali ko‘z yosh to‘kishdan ko‘ra buning sababini ilm yo‘li bilan anglash zarurati va rost so‘zlarni unib kelayotgan avlod – kelajak yoki kamol uchun yashirish – uni yer yuzasidagi shaytonsifat odamlar qo‘lida xor qilgandan afzal ekanligini aytmoqchi bo‘ladi.

Keyingi bandda islom olamidagi bahor fasli Payg‘ambarimizga tashbehlanadi va o‘sha bog‘dagi nihollar hadislardan oziqlanishi lozimligi “Bir hadis topsang gar niholga yashir” misrasi bilan sharhlanadi.

[1] Shu manba. 356-bet.
[2] Shu manba. 358-bet.
[3] Shu manba. 361-bet.
[4] Shu manba. 362-bet.

So‘nggi bandda hayotning beshafqatligi yana bir bor eslanadi. Chunki she’r “Hayotning ma’nosin zavolga yashir” misrasi bilan yakunlanadi. Ya’ni, har narsaning zavoli bu dunyo o‘tkinchiligidan darak berishi haqida fikr bayon qilinadi.

Turkumning 8-she’ri lirik qahramonning tasavvuroti mahsuli bo‘lgan bog‘da yakka kezinayotgani unga hamdard va hammaslak yo‘qligi, uning anglamlar olamini biror inson anglamasligidan iztirobi aks ettirilgan.

To‘p-to‘p yashamoqda – sokin kamoldir,
Yolg‘iz yashamoqda – bepoyon to‘zim.
Hamma daraxtlarga bitta shamoldir,
Hamma shamollarga bitta men o‘zim.[1]

Usmon Azimning “Yozgi bog‘” deb nomlangan turkumi tarkibida ham 8 ta she’r bor. Undagi ilk she’rda lirik qahramon Ollohning vasli orzusini jannatmakon bog‘ metaforasi bilan ifodalaydi. She’rdagi tasvirga ko‘ra cheksiz sahroda saratonda ketayotgan qahramon olov taft, sahro yo‘li, ilonlar o‘rmalagan qum, saksovullar bukchaygan barxan, lorsillagan quyosh kabi epitetlardan foydalanib, yo‘lovchi-so‘fiyning azoblarini ifodalaydi va uning o‘ylaridagi yashil bog‘ haqidagi sarob uni umidlantirishi orqali she’r nihoyalanadi.

“Tazarru bog‘lari” turkumining navbatdgi qismi “Kuzgi bog‘” bo‘lib, bu turkumning o‘zi 3 qismdan iborat. “Kuzgi bog‘ I” deb nomlangan qismda saratonning noxos cho‘kkanligi holati aks ettiriladi. 2-she’r qirq yil yashagan lirik qahramonning umrning yana bir kuzini yig‘lab qarshi olishi va ularning dardiga dardmand sifatida qahramonning ham ular izidan borishga shoshilishi holati aks ettirilgan. 3-she’rda umrning kuzi xususidagi shoir mulohazalari turfa xil holatlar va tashbehlar ifodalari orqali aks ettirilgan. Shoir, asosan, hayotdagi iz qoldirmaslik, yashashning asl mohiyatini anglamaslik, umrni faqat beshik va qabr orasi deb bilish kabi falsafalarga ishonib yashash fojeasi kabi jihatlarga urg‘u beradi. Kuz fasli esa kishining aynan shunday jiddiy masalalar xususida mushohada qilishga chorlaydigan fasl ekanligiga urg‘u beradi.

She’r nihoyasida shoir:
Kuz ko‘ksimga yurakni mixlar –
Yurak – Iso payg‘ambar kabi,
deya tugatish orqali asl tuyg‘ular uyg‘onishiga ishora qiladi.

Turkumning “Kuzgi bog‘ III” nomli to‘plamida o‘n bitta she’r o‘rin olgan bo‘lib, ularda ham kuzning yurakni og‘irlashtirishi va so‘ngida insonning o‘z yuragidan yengilishi xususida so‘zlaydi. Lirik qahramon o‘zligini yo‘qotib, qaro yerga singgani va lekin bir nido bilan bosh ko‘tarib, o‘zi mavjud ekanligini nido berib eslatganligini ko‘rish mumkin. So‘nggi 11-she’r “So‘nggi so‘z”da esa:

Hayotdan hech qachon qilmaymiz gina,
Savol bersak hamki, kajraftor jimdir.
Ukajon, aslida o‘lim-ku NIMA,
Ammo bevaqt o‘lim hamisha KIMDIR.[2]

Ya’ni, bevaqt o‘lim topgan insonga befarq bo‘lmaslik insonlar tabiatida bor, shu ma’noda kimningdir bevaqt o‘lim topishi unga nisbatan insonlarda hamdardlik hissini uyg‘otadi. She’rning “Xotima” qismida:

Bog‘im ketdi – qolgan ko‘nglim yoboni,
Oldida qum, ortidadir dovoni,
Kelayotgan o‘zgalarning davroni –
To‘xta-ya, to‘xtagin, umrim karvoni.[3]

She’rdagi bog‘ tasvirining yobonga tenglashtirilishi, lirik qahramon qalbidagi tubsiz bo‘shliqni anglatadi. Uning qalbi yor hajrida yobon kabi cheksiz bo‘lganidan oldida qum, ortida esa bosib o‘tgan dovonlari ko‘rinadi. Kelajak avlod esa undan keyin keladigan karvon sifatida o‘z tanlagan yo‘llaridan davom o‘tishi tabiiy hol. O‘z davrini o‘tab bo‘lgan karvon esa oxirgi manzilda to‘xtashi ham odatdagi holatlardan biri sifatida baholanadi.

O, bekor sha’n o‘ylar surib boryapsan.
Bilmaysan, qaylarga yurib boryapsan,

[1] Shu manba. 370-bet.
[2] Shu manba. 402-bet.
[3] Shu manba. 403-bet.

Boryapsan – tuproqqa kirib boryapsan –
To‘xta-ya, to‘xtagin, umrim karvoni.[1]

Lekin inson ko‘ngli hamisha o‘z orzulari ro‘yobini orzulashda, shirin xayollarga berilishdan to‘xtamaydi. Xayollar og‘ushida qayerga ketayotganini bilmaslik, o‘z hayoti yakunini ko‘rmaslik ham insonlarga xos xususiyat. Shu ma’noda shoirning insonda hamisha muvozanat va me’yor bo‘lishi masalasi bo‘yicha bildirgan fikrlar, xususan, o‘z vaqtida to‘xtash haqidagi chaqirig‘i o‘rinli. Tasavvufiy ma’noga ko‘ra esa umr kavonining to‘xtalishi Ollohga ro‘para bo‘lishni, uning vaslidan bahramand bo‘lishga intilishni ham anglatadi. Shu ma’noda turkumlarning xulosasida berilayotgan mazmun aynan shu jihatga qaratilgan bo‘lishi, tabiiy.

Xulosa qilib aytilganda, Usmon Azim she’riy turkumlari ijtimoiy hayot muammolari tavsifidan tashqari tasavvuf g‘oyalari talqiniga bag‘ishlanganligi bilan ham ajralib turadi. Turkumlardagi she’rlar shoirning g‘oyaviy niyatiga bo‘ysundirilgan holda yagona mavzu va yagona asos atrofida birlashtirilganligi, biri ikkinchisining mantiqiy davomi sifatida shakllantirilganligi, ular garchi alohida she’r sifatida bu maqomga ega bo‘lsalar-da, lekin o‘zini alohida shaklda tashqariga chiqarilsa, umumiy mazmunga putur yetkazishi mumkinligidan ularni shakllantirilishida shoirdan alohida mahorat talab etilishini ham anglash mumkin. Turkumlar tarkibidagi barcha she’rlarda yagona lirik qahramon bo’lishi ham uning yaxlit konstruksiya ekanligini izohlaydi.

Usmon Azim she’riy turkumlari badiiy xususiyatlari yuqoriligi va turkumlilik mezonlari darajasida shakllantirilganligi bilan ham o‘zbek she’riyatida o‘z o‘rniga ega she’rlar sifatida e’tirof etiladi.

Xadjiyeva Nigora Anvarnovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi; e-mail: ninishka12@gmail.com)

QADIMGI TURKIY TILDA SIFATLARNING YASALISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadimgi turkiy tilda sifatlarning yasalishi haqida so‘z boradi. Qadimgi turkiy tilida sifat uslubiyati va unga doir tadqiqotlarning kamyobligi, bu turkum so‘zlarning badiiy matnning lingopoetik xususiyatlariga daxldorligi ushbu magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligini belgilab beradi. Maqolada sifatlarning qadimgi turkiy tilda yasalish hodisasi haqida batafsil tasniflarning har biriga alohida to‘xtalib o‘tib, misollar orqali chuqur yoritgan.*

Аннотация. *В данной статье идёт речь об образовании прилагательных в древнетюркском языке. Научных исследований, посвященных этому вопросу, недостаточно. Поэтические особенности слов данного пласта в художественном тексте обусловила актуальность темы магистрской диссертации. В статье дается подробный описательный анализ словообразований прилагательных в древнетюркском языке, приведены примеры***.**

Annotation. *This article deals with the formation of adjectives in Old Turkic. The relevance of this master’s dissertation is determined by the quality methodology in the ancient Turkic language and the rarity of research related to it, the relevance of this group of words to the lingopoetic features of the artistic text. This article provodes a detailed descriptive analysis of word formations of adjectives in the Old Turkic language, examples are given.*

Kalit so‘zlar: *sifat, turkiy til, tub va yasama sifatlar, sodda sifat, affiks, abstrakt.*

Ключевые слова: *прилагательные, тюркский язык, исконные и прилагательные образованные словообразовательными способами, простые прилагательные, аффикс, абстрактный.*

Keywords: *quality, Turkic language, root and derivative adjectives, simple adjectives, affix, abstract.*

Sodda sifatlar ikki turga, tub va yasama sifatlarga bo‘linadi. Tub sifatlar tom ma’nosi bilan belgi tushunchasini ifodalaydi. Belgi kishining sezgi a’zolari orqali sezilgan, fahm-idroki bilan tasavvur etilgan konkret va abstrakt elementlardir. Tub sifatlarda turli grammatik, semantik va stilistik imkoniyatlar qo‘shma va juft sifatlarga qaqganda kengroq, ya’ni, daraja ko‘rsatkichlari, ko‘pincha, tub sifatlarga qo‘shiladi. Juft va takroriy sifat komponentlari tub sifatlardan bo‘ladi.

Yasama sifatlar turli yo‘llar bilan yasaladi:

1. Affiksatsiya (morfologik) usul bilan.

[1] Shu manba. 404-bet.

2. Kompozitsiya usuli bilan so‘zlarni bir-biriga qo‘shish, juftlashtirish, takrorlash yo‘llari orqali sifat hosil qilinadi. Bunday yasalishni sintaktik usul deb ham ataladi.

Affiksatsiya usuli. Qadimgi turkiy tilda boshqa so‘z turkumlaridagi kabi sifat turumida ham affiksatsiya usuli bilan so‘z yasash keng tarqalgan. Sifat yasovchi affikslarga juda o‘xshab ketadi.

Affikslar vositasida turli so‘z turkumlaridan (ot, sifat, olmosh, fe’l va taqlidiy-tasviriy so‘zlar) sifat yasaladi. Bulardan eng ko‘p taraqqiy qilgani ot va fe’ldan sifat yasalishidir.

-li affiksi qadimgi turkiy tilida juda sermahsul, faol yasovchi hisoblanadi. Ko‘pincha, ot va sifatdoshlardan sifat yasaydi.

-li affiksi orqali yasalgan sodda sifatlar quyidagi ma’nolarni anglatadi:

a) so‘z o‘zagidan anglashilgan ma’noga (predmet, hodisa va sh.k.lar) egalikni yoxud sha ma’noli narsa, hodisaning mavjudligini, borligini bildiradi: mevli daraxt, vijdonli kishi;

b) -li affiksi o‘zakdan anglashilgan ma’noga egalikni bildirish bilan birga, ortiqlik, katta yoki yirik ma’nolarini beradi.

Ädgü bilgä kisig, ädgü alp kisig yorïtmas ärmis. Bir kisi yaŋïlsar, oğusï? Bidunï, äbi äsükiŋä tägi qïdmas ärmiš. Süčig sabïŋa, yïmsäq ağïsïŋa arturup öküš türük bodun ölüg. Türük bodun üläsikiŋ, biryä Čuğay yïš Tög ältün yazï qonayïn tisär, tutuk bodun üläsikig anta aňïğ kisi anča bošgurur ärmis.

Mazmuni: Yaxshi, dono kishini, yaxshi, baxodir kishini tini qo‘ymas ekan. Biror kishi adashsa, urug‘i, xalqi, uyi-yopinchig‘igacha qo‘ymas ekan. Shirin so‘ziga, nafis shoyisiga aldanib, ko‘k turk xalqi o‘lding. Turk xalqi, Chug‘ay yish, To‘g altun dashtiga manzil qilay desa, turk xalqining ayrimini u yerda yovuz kishi shunday pishiqlar ekan.

Ushbu misolda insonning xarakter-xususiyatini tasvirlashda bir qancha sifatlar ketma-ketligi qo‘llanilgan. *Kisig* so’ziga *ädgü, bilgä, alp* sifat leksemalari badiiy tasvirni yanada kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, *Ädgü bilgä kisig, ädgü alp kisig yorïtmas ärmis* gapidagi sifatlar tizimi ohangdorlikka o‘zgacha bo‘yoqdorlik bera olgan;

d) -li affiksi orqali (biror narsaga, faxr yoki in’omga, sevgiga) “sazovar”, “munosib”, “loyiq” ma’nolarini ifodalash mumkin: *sevikli;*

e) -li affiksi ifodalaydigan ma’no ba’zan -digan qo‘shimchasi ma’nosiga teng keladi;

f) qiyomatli so‘zidagi -li qisman -gacha affiksi ma’nosiga to‘g‘ri keladi;

g) shaxsning biror joy yoki geografik muhitga taalluqli ekanini ham -li affiksi vositasida berish mumkin: *tog‘li*.

2. -li affiksi qo‘shma, juft so‘zlarga qo‘shilib kelib, qo‘shma sifat yasaydi va turli ma’nolarni anglatadi:

a) har ikkala komponentga qo‘shiladi: *qo‘lli-oyoqli;*

b) -li affiksi qo‘shma so‘zlarning bir komponentiga qo‘shilib, idomatik iboralar, ko‘chgan ma’nodagi sifatlar hosil qiladi: og‘ir oyoq og‘ir oyoqli;

-lik (-liq) affiksi bilan yasalgan sifatlar:

a) holat bildiradi. Masalan. *Uch tomoni jarlik yerga kelib qoldim;*

b) biror davr bilan bog‘liqlikni bildiradi: *bolalik, go‘daklik;*

d) xususiyat, xossa bildiradi: *arzirlik;*

e) aloqadorlik, mansublikni bildiradi: *temirchilik.*

Bulardan tashqari, -lik affiksi turli fe’l formalariga sifatdosh, ish otlariga qo‘shilib xarakter-xususiyat, xossa bildiruvchi sifatlar yasaydi. Masalan. *arzigulik.*

-lik va -li affikslarining vazifadosh o‘rinlari bor, ya’ni ayrim sifatlar -li qo‘shilgan formada qo‘llanganda ham, -lik qo‘shilgan formada qo‘llanganda ham ma’noga xalal yetmaydi. Masalan. aqlli aqllik.

Ba’zan sifatlarning esa -li olgan formalari bilan -lik olgan formalari grammatikada boshqa-boshqa ma’no va boshqa-boshqa vazifa uchun ishlatiladi. Bolali (xotin).

Yozma yodgorliklar tilida morfologik usulda sifatlar otlar va fe’llardan yasalgan:

1) otdan sifat yasovchi qo‘shimchalar: *-lïq, -lïğ, -lik, -lig /-luq, -luğ, -lük, -lüg* affiksi.

Xuast.da: *adaqlïğ* – oyoqli, *ayïğ qïlïnčlïğ* – gunohkor, *ağuluğ* – og‘uli, zaharlangan, zaharli, *äksüklüg* – gunohkor, aybdor, nuqsonli, *butluğ* – butli, oyoqli, oyoqli, *küclüg* – kuchli; QBда: *yarağlïğ* – yaroqli, *owutluğ* – andishali, *uqušluğ* – zakovatli, *biliglig* – bilimli, *erklig* – erkli, erkin, *türlüg* – turli, har xil, *ünlüg* – mashhur, taniqli.

Oltin tusli yorug‘da: *Ol antağ osuğluğ čoğluğ yalïŋlïğ küclüg küsünlüg elig xannïŋ uluği xatunïnta toğmiš körgäli sewiglig, körklüg meŋizlig üč oğlanï erti.*[1]

Mazmuni. O‘sha *tadbirli-cho‘g‘li, shon-shavkatli* elig xonning katta xotinidan tug‘ilgan **ko‘rkli-***suyukli, istarasi issiq* uch o‘g‘loni bor edi.

Bundan sifatlar sinonimiyasidan foydalanishda muallif matnga badiiy obrazlilikni yaqqol tasvirlab bergan. Bundan tashqari, matnga o‘zgacha ohangdorlikni ham keltirib chiqargan.

Bišinč biš türlüg tïnl(ï)ğqa: bir y(ä)mä iki ***adaql(ï)ğ*** *kišikä ikinti tört* ***butluğ*** *tïnl(ï)ğqa: üčünč učuğma tïnl(ï)ğqa: törtünč suw ičräki tïnl(ï)ğqa: bišinč yirdäki bağrïn yorïğma tïnl(ï)ğqa: suyda baru t(ä)ŋrim bu biš türlüg tïnl(ï)ğağ tural(ï)ğağ uluğqa kičigkä tägi näčä qorqïtd(ï)m(i)z. Ürkitd(i)m(i)z ärsär: näčä urtumuz yontumuz ärsär: näčä ačïtd(ï)m(ï)z ağrïtd(ï)m(ï)z ärsär: näčä ölürdümüz ärsär: munča tïnl(ï)ğqa tural(ï)ğqa öz ötägči boltumuz*[2].

Mazmuni. Beshinchi (bo‘lim). Besh xil jonzodga birinchidan, yana ikki oyoqli insonga, ikkinchidan, to‘rt oyoqli hayvonga, uchinchidan, uchuvchi jonzodlar jonzodlarga, to‘rtinchidan, suv ichidagi jonzodlarga, beshinchidan, yerdagi sudralib yuruvchi jonzodlarga ozor yetkazib, tangrim, bu besh xil mavjudotni, ulug‘idan kichigiga qadar qancha qo‘rqitib hurkitgan bo‘lsak, qancha urib azoblangan bo‘lsak, qancha ranjitgan bo‘lsak, qancha o‘ldirgan bo‘lsak, shuncha jonzodga qarzdor bo‘ldik.

Kün ay t(ä)ŋrikä: ***küčlüg*** *t(ä)ŋrikä: burxanlarqa: ïnant(ï)m(i)z tayant(ï)m(i)z n(i)ğošak boltumuz.*

Mazmuni: Kun-oy tangriga, kuchli tangriga, urxonlarga inondik, tayandik, nig‘ o‘shak bo‘ldik.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, matndagi ot asosidan anglashilgan narsaga egalik belgisini anglatib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, matnga o‘zgacha ohangdorlik va badiiy jilov berish uchun xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, bitiglardagi matnlarda tangri ya’ni, ilohning oldida o‘zni kuchsizlantirish maqtov epiteti sifatida küčlüg sifatidan keng foydalanilgan.

-sïz, -siz/-suz, -süz **affiksi.** Bo‘lishsizlik ma’nosini beruvchi bu affiks sifat yasashda faol qo‘llanadi. -siz affiksi ishtirokida, ko‘pincha, otlardan xarakter-xususiyat, xossa, holat bildiruvchi sifatlar yasaladi:

-sïz,-siz yasovchisi orqali yasalgan sifatlarni anglatgan ma’nolariga ko‘ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

a) so‘z o‘zagidan yanglashilgan ma’noga (predmet, hodisa, holat va h.k.) ega emaslikni, undan mahrumlikni, narsa, hodisa va hokazolarning mavjud emasligini yoki inkor ma’nolarni bildiradi: yersiz, kimsasiz;

b) biror predmet, holat yoki imkoniyatga ega emaslik, undan mahrumlikni ifodalaydi: huquqsiz, kuchsiz;

d) salbiy xarakter-xususiyat yoki holat anglatadi: uyatsiz;

e) ijobiy holat, xossa anglatishi ham mumkin: g‘uborsiz, tashvishsiz.

-sïz, -siz affiksi mantiqan *-li* affiksining antonimidir. Lekin hamma holatda ham -li bilan yasalgan sifatlarning zidligini, inkorini yoxud antonimini siz bo‘lishsizlik bilan yasalgan sifatning bo‘lishli formasini yasash uchun -li qo‘llanmaydi. Ularning antonim ma’nolari boshqa turli affikslar, zid ma’nolik so‘zlar yoki izohlash yo‘llari orqali ifodalanadi.

Ba’zi sifatlarning bo‘lishli ma’nolarini, antonimlarini hosil qilish uchun ularni yasovchi affikslarisiz, negiz holida qo‘llash kifoya: to‘liqsiz-to‘liq.

-li orqali yasalgan qo‘shma, juft, birikmali sifatlar deyarli hech qachon -siz affiksi bilan bo‘lishsizlik hosil qilmaydi. Tishli-tirnoqli.

QBda: *yaraqsïz* – yaroqsiz, *tubsuz* – tubsiz; KTT da: *atsïz* – otsiz, *tewäsiz* – tuyasiz, *ešäksiz* – eshaksiz, *susïz* – suvsiz, *malsïz* –molsiz, *saqalsïz* – soqolsiz, *etmäksiz* – nonsiz.

“Oltin tusli yorug’”dan: *Men amtï tolp sansartaqï tïnlïğlar üčün* ***üzäliksiz*** *üstünki yig burxan qutï küsüšin,* ***tebränčsiz yayïlmaqsïz*** *uluğ yarlïqančučï köŋül turğurup, bu meniŋ sewär amraq et-özümin titärmen, ïdalayur-men.* ***Bozulmaqsïz čolmaqsïz*** *burxan qutïn tiläyür-men, kim qamağ bilgälärkä sewgülük taplağuluq. Üč oğuš yirtinčüdäki emgäklig taluytaqï tïnlïğlarïğ rü tartïp ozğurup, inč meŋilig qïlayïn, – tep tedi. Ol ödün tigin munča saw sözläp, ol ač bars üskintä suna yatdï*[3].

Mazmuni. Men almisoqdan beri bu chirik, sassiq qonli, yiringli, mehrsiz, mardud, jirkanch jasadga shuchalik inondim. Osh-ichgu, kiyim-kechak, o‘rin-to‘shak, otu-fil, aravayu ulov, duru javohir, mol-mulkka topindim.

---

[1] Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. T., 2009, 332-bet.

[2] O‘sha kitob. 334-bet.

[3] Shu manba. 341-bet.

-qï, -ki affiksi. Otlarga qshilib, tegishlilik, qarashilik ma'nosidagi sifat yasaydi. MKda: *ozaqï bilgälär* –burungi donishmandlar, *qutqï er* – xushmuomala kishi, *ewdäki taqağu* – uydagi tovuq;

-čïl, -čil affiksi. MKda: *yamğurčïl yer* – yong'irchil yer, *tüpčil yer* – sershamol yer, *igčil* (*ig* – "kasal" so'zidan) – kasalmand;

-saq, -säk affiksi. QBda: *bağïrsaq* (*bağïr* – "bag'ir, yurak" so'zidan) – mehribon, *uluğsaq* – ulug'vor;

-sïğ, -sig affiksi. QBda: *qulsïğ* – qulsifat, *begsig* – beksifat, *ersig* – javonmard.

Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar:

-qïr, -ğïr / -qur, -ğur, -kir, -gir/-kür, -gür affiksi: uyğur (*uy* – "bir, ittifoq" so'zidan;

-ğ / -q, -g / -k affiksi. QB da: *quruğ* – qurug', bosh, qurug', bo'sh, *uδuğ* – uyg'oq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, turkiy tilda sifatlar yasalishiga ko'ra tub va yasama sifatlar kabi guruhlarga bo'linadi. Qadimgi turkiy tilda bitilgan asarlardi turli qo'shimchalar orqali yasalgan sifatlar uchraydi.

Abduvaliyev Abdulhamid Abdumo'minovich (Jizzax davlat Pedagogika instituti katta o'qituvchisi)

FORSCHA SO'ZLAR TARKIBIDA QO'LLANILGAN -AK AFFIKSI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilining izohli lug'atida keltirilgan so'zlar tarkibidagi kichiklikni, pastlikni, pakanalikni, kamlikni ifodalovchi -ak affiksining qo'llanilish holatlari xususida batafsil ma'lumot berilgan.*

Аннотация. *В статье представлена подробная информация об использовании аффикса лексики узбекского языка -ак, означающего малость, неполноценность, недостаточность.*

Annotation. *This article provides detailed information on the use of the affix -ak, meaning smallness, inferiority, deficiency in the Uzbek language vocabulary.*

Kalit so'zlar: *leksema, o'zak, so'z yasovchi affiks, affiksatsiya, ot, sifat, fe'l, negiz, so'z yasalishi.*

Ключевые слова: *лексема, основа, словообразовательный аффикс, аффиксирование, существительное, прилагательное, глагол, основа, словообразование.*

Keywords: *lexeme, stem, derivational affix, affixing, noun, adjective, verb, stem, word formation.*

Kirish. O'zbek tilining besh tomlik izohli lug'atida jami 234 ta forscha -ak qo'shimchasi yordamida yasalgan forscha-tojikcha so'z mavjud. Bu qo'shimcha o'zbekcha so'zlarda, asosan, ot so'z turkimiga tegishli so'zlarga qo'shiladi. Forscha so'zlarda -ak qo'shimchasi forscha fe'llarga ham qo'shilib kelgan. Bunday so'zlar, ya'ni forscha fe'llarga qo'shilgan so'zlar 50 dan ortiq so'zni tashkil etadi. Shuningdek, lug'atda *bodbezak* (294), *bodparrak* (295), *bodrezak*, *bodbarak* (297) kabi so'zlar ham uchraydi. Shundan *bodbezak* (bod+bez+ak) shaklida hosil qilingan bo'lib, so'zi *bezidan* "esmoq" va -ak qo'shimchasi orqali yasalgan bo'lib, "kuchsiz shamol esishi' ma'nosini ifodalaydi. *bodparrak* esa "shamol yordamda aylanadigan kichik parrak yoki ventilator" ma'nosida ishlatiladi. *Bodrezak* so'zida esa bod –"shamol", rez esa "to'kmoq" ma'nosidagi rextan fe'li yordamida hosil qilingan bo'lib, "shamol yordamida to'kiladigan" ma'nolarida qo'llangan.

Asosiy qism. O'zbek tilining izohli lug'atida tarkibida -ak affiksi qatnashgan quyidagi so'zlar berilgan:

a) otdan kichraytirish va o'xshatish ma'nosini ifodalovchi ot yasaydi: *bargak, ichak, yo'lak*;

b) otlardan o'xshatish, holat, tur bildiruvchi sifatlar yasaydi.: *murg'ak (bola), qirmizak (olma), g'alvirak (yong'oq)*;

d) yakka yoki takrorlangan taqlidiy so'zlardan ot yasaydi: *varrak, guldurak, qarsak, bizbizak, davdarak* kabilar.

Yuqorida so'zlarning qaysi ma'noda kelishi haqida to'g'ri ma'lumot berilgan. O'zbekcha so'zlar bilan kelganda yuqoridagi fikrlarga qo'shilishimiz mumkin. Ammo o'zbek tilining izohli lug'atida o'zbekcha so'zlardan tashqari forscha -ak qo'shimchasi bilan kelgan so'zlar mavjud. Chunki fors tilida -ak qo'shimchasi faqat otlarga qo'shilibgina qolmay, balki fe'l, sifat, hatto ayrim sifatdoshlarga qo'shilib, kichraytirish, "o'xshatish, kichiklik, kamlik, yetishmaslik, pakanalik" kabi ma'nolarni anglatuvchi ot va sifatlarga doir so'zlar yasaydi.

Lug'atda *puxtan-* "pishmoq", "pishirmoq" fe'lining hozirga zamon shakliga -ak qo'shimchasi qo'shilib "oldin pishar, hammadan oldin pishuvchi, bir yoki ikki meva pishishi" haqida ma'lumot beruvchi

so‘z sifatida ishlatilgan. Masalan: *jabazak* ayni *javpazak* yoki *jo‘vpazak* so‘zlaridagi *javpaz-ak* “arpa+pishmoq+kamlik, ozlik ma’nosidagi qo‘shimcha” sxemasida hosil qilingan bo‘lib, “arpa pishig‘ida pishadigan birinchi meva” ma’nosini ifodalaydi. Chunki qolgan mevalar bug‘doy pishganda pishadi. Arpa pishganda pishadigan yagona meva o‘rikdir.

Izohli lug‘atda forscha *pechidan*- “o‘ramoq, chirmamoq” ma’nosidagi so‘zlarining hozirgi zamon shakli *pech* so‘zi “o‘rash, chirmash” ma’nolarida bir necha so‘z tarkibida ishtirok etgan. Lekin fe’l turkumiga tegishli so‘z bilan kelgan -ak affiksi ot turkimiga tegishli so‘z bilan “meva, o‘t, o‘simliklar” ma’nosini ifodalab keladi. Lug‘ atda *zarpechak*, *pechak*, *pechakgul*, hatto tarkibida o‘zbekcha so‘zlar ham ishtirok etgan *sutpechak* kabi so‘zlar mavjud. Bularning barchasi “chirmashib, o‘raydigan o‘simlik”ka doir so‘zlar bo‘lib, ingichka va boshqa o‘simliklarga o‘rashib o‘sganligi uchun ham “pechak–o‘raydigancha, chirmashgan ma’nolarida qo‘llaniladi. *Zarpechak* buralib, chirmashib o‘sadigan sarg‘ ish o‘simlik, *pechak* “o‘simlik tanasiga chirmashib o‘sadigan o‘simlik” ma’nosida, *pechak* “o‘ram, koptok, g‘altak, pechak, handalak” ma’nosida, *pechakgul* “karnaygullar oilasi-ga mansub o‘simlik ma’nosida, *sutpechak* “poyasi chirmashib o‘sadigan barglari yuraksimon o‘t” ma’nosida, *qo‘ypechak* pechakgullarga mansub, sug‘oriladigan yerlarda, adirlarda o‘sadigan, qo‘y-mol yeydigan bir yillik yovvoyi chirmovuq o‘t” ma’nosida qo‘llangan. Yuqoridagi so‘zlardan ma’lum bo‘ladiki, *pechak* so‘zi forscha, o‘zbekcha so‘zlar bilan kelgan ot turkimuga oid o‘zbekcha *chirmovuq* ma’nosiga to‘g‘ri keladi.

Lug‘ atda fe’l turkimiga oid *parridan* – “uchmoq” so‘zining hozirgi zamon shakli “*parr*” so‘zi sermahsul qo‘llangan. “*Par*” so‘zi *bod* va *shamol* so‘zlariga qo‘shilib kelgan. Aslida, *bod* so‘zi o‘zbek tilidagi *yel* va *shamol*ga to‘g‘ri keladi, lekin *bodparrak* bu “shamolda aylanadigan parrak”, *shamolparrak*ni esa lug‘ atlarda *ventilator* deb berilgan. Aslida, *bodparrak* va *shamolparrak* so‘zlari sinonim hisoblanadi.

Paridan- so‘ziga tegishli bo‘lgan *shabparrak* (shapalak), *ko‘rshabparrak* (ko‘rshapalak) so‘zlari ishtirok etgan. Shabparrak – “shaparak” kechasi uchadigan qushcha, ko‘rshabparrak –“ko‘rshapalak” esa “ko‘zi ko‘r, kechasi uchadigan qushcha” degan ma’noni anglatadi. Garchand so‘zda uchmoq fe’li ishtirok etgan bo‘lsa-da, ot turkimiga oid qushcha ma’nosida qatnashgan.

Lug‘atda *chin*-, y’ani, “ter-” felining hozirgi zamon shakli *chin* so‘ziga -ak affiksi qo‘shilib, *chinak* hosil bo‘lgan. Shuningdek, *mo‘ychinak, xazonchinak* kabi so‘zlar *chin*dan so‘zidan olingan. *Chin* so‘zi omonim so‘z bo‘lib, *Chin* – “Xitoy”, *chin*- “haqiqat” (o‘zbekcha), *chin*- termoq ma’nosida har ikki tilda ham qo‘llanadi. Ozroq narsani tersa, chinak ma’nosida keladi. Lug‘ atda ikki qo‘shma so‘z, o‘zbekcha *xazonak qilmoq* hamda forscha *xazonchinak* so‘zlari bir ma’noda qo‘llangan. *Xazonchinak*ni lug‘atda “xazon teruvchi”, xazonak qilmoqni “kuzda yig‘ ishtirib olingan hosil qoldig‘ini qidirib topib, terib olish” ma’nosida keltirilgan. Aslida, *xazonakchinak* so‘zi ham mana shu ma’noda ishlatiladi. *Mo‘ychinak* esa “kichkinagina soch, qosh tuklarini terish uchun ishlatiladigan qisqich” hisoblanadi. Yuqoridagi fe’l turkumiga tegishli forscha so‘zlarning barchasi o‘zbek tilida ot vazifasida keladi. Bundan boshqa kichiklik ma’nosini bildiruvchi quyidagi fe’l turkumiga doir forscha so‘zlar ham o‘zbek tilida qo‘llaniladi. Masalan: *koftan* – “kovlamoq, qazimoq” so‘zining hozirgi zamon shakli *kov*dan – *kovak* (419), *xo‘rdan* –“yemoq, ichmoq” fe’lining hozirgi zamon negizi *xo‘r* – o‘zagiga boshqa so‘z qo‘shish yordamida *maza-xo‘rak*, *moyxo‘rak*, *loyxo‘rak*, *no‘xatxo‘rak*, *oshxo‘rak* kabi so‘zlar hosil qilingan.

Gazidan – “tishlamoq, chaqmoq” fe’lining hozirgi zamon shakliga kichiklik ma’nosidagi -ak qo‘shimchasi qo‘shilganda *gazak*, ya’ni, “sharob ichuvchilarning gazagi (tishlagichcha), ruschada – zakuska” yoki “inson organizmidagi yaraning gazak olishi (shamollashi)” ma’nolarida, *xafagazak* – “yallig‘lanish, gazak olish (yaraning gazak otishi)” tarzida keladi.

Bundan tashqari, -ak qo‘shimchasini olgan yuzdan ortiq ot turkumiga oid so‘zlar mavjud. Bulardan ham -ak qo‘shimchasi quyidagicha berilgan. Forscha *bulbulak*, *varrak*, *vahmak*, *katak*, *kashak*, *kurtak*, *laxtak*, *maymunchak*, *mardumak* kabi juda ko‘p so‘zlar qo‘llangan. Bu qo‘shimchalarning barchasi o‘zbekcha -cha, ya’ni, kichiklik, pakanalik ma’nolarini anglatuvchi qo‘shimcha bilan sinonim qo‘shimcha sifatida kelganligini ayrim ot turkumiga doir *-ak* qo‘shimchasini olgan so‘z bir, ikki yoki undan ham ko‘proq ma’nolarni bildirishi mumkin. Masalan: *xar+ak=xarak* so‘zi “eshakcha” degan ma’noni anglatishi bilan birga “taglik poya, ya’ni, dutor, tanbur kabi cholg‘ u asboblarining ipi yoki simlarini ko‘tarib turish uchun ishlatiladigan tirgak, eshakcha” ma’nosida qo‘llanadi.

Biz yana sinonim ma’noda qo‘llaniladigan *tuxmak* so‘zini ma’nosiga to‘xtalsak, bu so‘z “nasl, avlod, urug‘, urug‘ don yoki eng kichik tuxumcha” ma’nosida qo‘llanilishi mumkin.

Yana *-ak* qo‘shimchasi orqali bog‘langan so‘zlarning aksariyati meva, sabzavot, asosan, o‘simliklarning nomini bildiruvchi so‘zlardir. Masalan: *maymunchak* so‘ziga o‘zbek tili izohli lug‘atida quyida-

gicha ta’rif berilgan. *Xo‘jag‘at* (maymunjon) “tanasi tikanak bilan qoplangan, yerda cho‘zilib o‘sadigan nordon, qoramtir-qizil, g‘ uch mevali ko‘p yillik o‘simlik”dir.

Ot turkumiga tegishli forscha so‘zlarni bir necha guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

a) insonlarning kichiklik sifatiga egaligi ma’nosini ifodalovchi so‘zlar. Bunday so‘zlarda insonlarning kichiklik, pakanalik, pastlik, maydalik belgisini bildiruvchi -ak qo‘shimchasi bilan yasalgan quyidagi so‘zlar: *javak* (67) – “isirg‘ aning quyi qismi”; *jamalak* so‘zi esa 1) qiz bolaning hali uncha o‘smagan, yoyilib ketmaslik uchun paxta-pilik qo‘shib o‘rilgan sochlari; 2) soxta kokil ma’nosida. Shuningdek, *jevak* (79) “xotin-qizlarning bo‘yniga taqadigan ziynat buyumi” ma’nosida; *kanizak* – “yosh cho‘ri, yosh oqsoch”. Bunday so‘zlar anchagina uchraydi;

b) daraxtlarlarning hajm belgisi bildiruvchi so‘zlar: *kundak* (430), *kurtak* (436), *kamxastak* (312), *kaltak* (299), *tirmizak* (46) va boshqalar.

Xulosa. Lug‘ atda sifat turkumiga doir -ak affiksli forscha so‘zlar ishlatilgan. Bunday so‘zlar ham turli ma’nolarda qo‘llanganligini ko‘ramiz. O‘zbekcha so‘zlarda otdan kichraytirish va o‘xshatish ma’nosini ifodalovchi, otlardan o‘xshatish, holat bildiruvchi sifatlar yasaydi: *murg‘ak*, *qirmizak* kabi. Lekin forscha so‘zlarda sifatga doir so‘zlardan ham sifat turkumiga oid ma’nolarni ifodalovchi sifatlar yasaydi. Masalan: *sho‘rak – sho‘rtak*, *tursh – turshak*, *puch – puchak*, *shirin – shirinak*, *xom – xomak*, *past – pastak* va boshqalar. Chunonchi, *turshak* haqida o‘zbek tilining izohli lug‘ atida “danagi bilan quritilgan o‘rik” ma’nosida keltirilgan, lekin fors tilida ma’no jihatdan biroz farq qiladi, chunki danagi bilan quritilgan o‘rikni “qoq” yoki “o‘rik qoq” deb aytiladi. *Tursh* so‘zi nordon, achqimtir bo‘lganligi uchun hali pishishiga biroz vaqtdan oldin yerga tushgan, chala pishgan o‘rikka *turshak* deb ataladi. *Xomak* so‘zi esa hali pishmagan *qovun*ga nisbatan ishlatiladi, o‘zbek tilida *sapcha* ham deyiladi.

Shunday qilib, hozirgi o‘zbek lug‘atlarida va so‘zlashuv nutqida o‘zbekcha -ak qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘z bilan bir qatorda, forscha so‘zlar bilan kelgan -ak qo‘shimchalari ham qo‘llangan. Biz bu ishda -ak yordamida yasalgan so‘zlarning ma’nolariga e’tibor berganimizda, har ikki tilda qo‘llangan so‘zlar ma’no jihatdan ko‘p farq qilmaganini ko‘ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Древнетюркский словарь. Л., “Наука”, 1969.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 1-жилд, 2006; 2-жилд, 2007; 3-жилд, 2007; 4-жилд, 2008; 5-жилд, 2008.
3. Фарҳанги забони точики. I, M., “Советская энциклопедия”, 1969, с. 540.
4. Фарҳанги забони точики. II, M., “Советская энциклопедия”, 1969, с. 774.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 1-jild, T., “Mumtoz so‘z”, 2010.

Baxriddinova Dildora Oktamovna (Jizzax davlat Pedagogika instituti Chet tillar fakulteti Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi o‘qituvchisi; dildora.bahriddinova86@gmail.com)

TABU KLASSIFIKATSIYASIGA OID ILMIY QARASHLAR

Annotatsiya. *Maqolada tilda muhim ahamiyat kasb etuvchi “tabu”ning tasniflanishi haqida fikr yuritilib, ingliz va o‘zbek olimlari tomonidan keltirilgan tasniflar haqida mulohazalar yuritilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается классификация табу, что важно в языке, и комментируются классификации, сделанные английскими и узбекскими учёными.*

Annotation. *The article discusses the classification of “taboo”, which is important in the language, and comments on the classifications made by English and Uzbek scholars.*

Kalit so‘zlar: *tabu, “taqiqlangan so‘zlar”, voqelik, voqelik obyekti, sotsial yoki etnografik tabu, lingvistik tabu.*

Ключевые слова: *табу, «запретные слова», реальность, объект действительности, социальное или этнографическое табу, языковое табу.*

Keywords: *taboo, “forbidden words”, reality, object of reality, social or ethnographic taboo, linguistic taboo.*

Tabu har bir jamiyatda har doim mavjud bo‘lib turadigan dinamik til birligi sifatida tilshunoslarning doimiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Ammo nima uchun biz “tabu”ga muhtojmiz? Uning nutqda ishlatilish omili nimadan iborat?

“Professional nutq evfemikasi” risolasida tabuning yuzaga kelishi quyidagi uch, ba’zan ikki uzviy holat bilan chambarchas ekanligi qayd etilgan:

●voqelik (masalan, ko‘knor yeyish, aroq ichish, o‘g‘irlik qilish odati);

●voqelik nomi – subyekti (ko‘knor, aroq, o‘g‘ri)ni ochiq aytishni man etish;

●evfema qo‘llash zarurati.[1]

Aynan mana shu holatlar har bir jamiyatda tabu konseptining yaralish asosi hisoblanadi. Tabu borasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar uning tasnifi bo‘yicha ham turli qarashlarga egadir.

Jumladan, ingliz tilidagi “Taqiqlangan so‘zlar” (Forbidden words) asarida esa “Tabu”ga mualliflar tomonidan quyidagicha ta’rif berib, “Tabu – kundalik hayotga salbiy ta’sir o‘tkazuvchi xatti-harakatlarni taqiqlashdir”, ularni quyidagicha tasniflagan:

♦inson tanasi va u bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarga oid tabular;

♦jinsiy a’zolar va u bilan bog‘liq holatlar bilan bog‘liq tabular;

♦kasallik, o‘lim va o‘ldirish bilan aloqador bo‘lgan tabular;

♦shaxs va muqaddas narsalarni atash; mavjudotlar va narsa-joylarga nom berish, ularga murojaat qilish, ularga teginish va ko‘rish bilan bog‘liq tabular;

♦oziq-ovqat to‘plash, tayyorlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq tabular.[2]

“Sotsiolingvistikaga kirish” kitobi muallifi Ronald Uordhau tabularni quyidagi guruhlarga kiritgan:

●qaynonaga oid bo‘lgan tabular;

● hayvonlarga oid bo‘lgan tabular;

● erkak va ayol munosabatlariga oid bo‘lgan tabular;

● o‘lim bilan bog‘liq tabular;

● inson tanasi bilan bog‘liq holatlarga oid tabular;

● tana vazifalari bilan bog‘liq tabular;

● diniy tabular.[3]

Xitoyning Chanchun universiteti olimasi Chanming Gao o‘zining “Ingliz Tabu tilining sotsiolingvistik o‘rganilishi” (A sociolinguistic study of English Taboo Language[4]) maqolasida ingliz tilidagi tabularni quyidagicha tasniflaydi:

1. Tanadan ajralib chiquvchi ajralmalar bilan bog‘liq tabular (Bodily excretions) – barcha tillarda ham tanadan ajralib chiquvchi ajralmalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘zlashuvda foydalanish madaniyatdan emas, deb hisoblanadi. Shu boisdan ingliz tilida – move the bowels, answer the call of nature, do one’s needs; o‘zbek tilida esa shamollab kelish, ochiq havoga chiqish, ehtiyojini qondirib kelish kabi evfemistik frazalar qo‘llaniladi.

2. O‘lim va kasallikka oid tabular (Death and disease) – insoniyatning o‘limdan qo‘rquvi natijasida “o‘lim” konseptining nutqda taqiqlanishi tufayli tadqiq qilinayotgan har ikkala tillarda quyidagi evfemistik frazalar “o‘lim”ning o‘rnida ishlatiladi: ingliz tilida – If anything should happen to me, pass away, deceased, departed; o‘zbek tilida – Agar menga biror narsa sodir bo‘lsa, olamdan o‘tmoq, joni uzilmoq, ajralmoq.[5]

3. Jinsiy aloqaga oid bo‘lgan tabular (Sex) – Bu borada G‘arb va Sharq yozuvchilarining o‘z fikrlari bayonotida keskin farqni ilg‘ashimiz mumkin. 19-asrgacha bo‘lgan davrda ingliz tilida ham ushbu mavzuning “chiroyli” tarzda yoritilganligini ko‘rsak, aksincha, 1960-yildan boshlab, G‘arb hayotidagi demokratik yondashuv bu mavzu doirasida to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘zlarning qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi (going to bed, to make love). Sharq davlatlarida azal-azaldan sharm-u hayo dastlabki o‘rinlarda bo‘lib, bu holat hozirgi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan (bir kecha yotmoq, vasliga yetmoq).[6]

4. To‘rt harfli va qo‘pol so‘zlar (Four letter and swear words – Har ikki tilda ham so‘kish va qo‘pol so‘zlari jinsiy holat bilan bog‘liq.

---

[1] A.J.Omonturdiyev. Professional nutq evfemikasi. Toshkent, “Fan”, 2006, 16-bet.

[2] Keith Allan and Kate Burridge. Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. Cambridge, 2006, p. 1, 314 pages.

[3] Ronald Wardhaugh. An Introduction to Sociolinguistics (Fifth edition). Oxford: Blackwell Publishers Ltd, p. 238.

[4]Chunming Gao-School of Foreign Languages, Changchun University of Science and Technology, China. ISSN 1799–2591. Theory and Practice in Language Studies, Vol. 3, №12, pp. 2310–2314; December 2013.© 2013 ACADEMY PUBLISHER Manufactured in Finland.doi:10.4304/tpls.3.12.2310-2314

[5] THE ART OF USING WORDS IN SPEECH CULTURE”. D.O.Bakhriddinova. Journal of Hunan University Natural Sciences), Vol. 48, № 8, August 2021, China, p. 201.

[6] A.Omonturdiyev. O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati. Toshkent, “Fan”, 2006, 31-bet.

5. Shaxsiy hayot (Privacy) – inglizlar shaxsiy daxlsizligini barcha narsalardan ustun qo‘yadi. O‘zlarining ruxsatisiz o‘z xonadonlariga kimningdir kirishini xohlashmaydi. Shuningdek, yosh, din, oila, xarajatlar borasidagi savollar berilishi ular uchun madaniyatsizlik belgisi sifatida baholanadi. O‘zbeklarning bu boradagi tabulashgan mavzusi ancha torroq: biz doimo kutilmagan mehmonlarni xush ko‘ramiz, odamiylik oliy o‘rin sanaladi, har qanday savol, faqatgina daromad bilan bog‘liq savoldan tashqari oddiy qiziqish doirasi deb baholanadi.

O‘zbek tilshunos olimi A.J.Omonturdiyev “Professional nutq evfemikasi” kitobida tabuning ko‘rinishlarini ifoda obyektiga ko‘ra ikki guruhga bo‘ladi:

A) Sotsial yoki etnografik tabu.

B) Lingvistik tabu.

Birinchi guruhga, uzoq tarixga ega bo‘lib, odatiy holatga aylangan, ammo ma’lum sabablar tufayli, keyinchalik, man’ qilingan ijtimoiy holat, xatti-harakat, odat anglashiniladi. Har bir etnik guruhning irimga asoslangan taqiqlari ushbu guruhga kiritilib, quyidagi misollar bilan izohlanadi (supurgini tik qo‘ymaslik, axlatdan hatlamaslik, otashkurakni oyoq ostida qoldirmaslik). Shuningdek, muallif diniy taqiqlarni ham ushbu guruhga kiritadi (qiblaga qarab oyoq uzatmaslik; islom dinida taqiqlangan amallar cho‘chqa go‘shti yeyish, aroq ichish). Bu guruhga kiruvchi evfemizmlar ko‘proq tarixchi va etnograflar uchun o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Olim ikkinchi guruhni “lingvistik tabu” deb nomlab, lug‘aviy birlikning yo xalq tomonidan amal qilib kelinadigan irim-sirimlar yuzasidan, yo nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri atash man’ etilgan taqiqlardir, deya izoh berib o‘tgan. Jumladan, “cho‘chqa” so‘zining o‘rnida – oq qo‘y, qora kiyik; “aroq” so‘zining o‘rnida – oq, haligi kabi misollar keltirilgan.[1]

Tabu aslida etnografik konsept bo‘lsa-da, vaqt o‘tib lingvistik atama sifatida ham ishlatilgan. Etnografik tabu hodisasining zamirida etnografik hodisalar hamda lingvistik tabular asosida har bir xalqning mentaliteti mujassamdir. Etnografik tabu, lingvistik tabu va evfemeologiya birlashuvidan 18-asrda etnolingvistika fani yuzaga kelib, 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida alohida fan sifatida shakllandi. Bu fan haqida, dastlab, 18-asrda I.T.Gerder, 19-asrda V.Gumboldt o‘z qarashlarini bildirgan bo‘lsa, keyinchalik, amerikalik etnograf olim F.Boas, lingvist etnograf E.Sepir va ularning izdoshlari B.Uorf hamda rossiyalik N.I.Tolstoylarning etnolingvistikaga oid ilmiy izlanishlari ahamiyatga molikdir.[2]

“Turk tilida tabu va evfemizmlarning qo‘llanish xususiyatlari” mavzusidagi magistirlik akademik darajasini olish uchun N.Kochkarova tomonidan yozilgan dissertatsiyada tabuning klassifikatsiyasi borasida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan:

Tabuning lingvistik ko‘rinishini L.Blumfild yozgan va uning uchta muhitini belgilagan:

1. Diniiy atamalar.
2. Beodob so‘zlar.
3. Ba’zi mudhish kasallik yoki xavfli so‘zlar bilan bog‘liq tabu.

Tabu zamonga boqliq bo‘lib, ikkiga bo‘linadi:

1. “Davomiy” tabu – rohiblar, xo‘jayinlar, o‘liklar va bularga bog‘liq hamma narsa “davomiy” tabuga kiradi.

2. “Kechuvchi” tabu – ayollarning fiziologik davrlari, homilalik davri, urushga otlanayotgan jangchining urush oldi va urushdan keyingi holati, ovchining ov oldi, ov payti va oxiri kabi holatlar bilan bog‘liq tabular “kechuvchi” tabuga misol bo‘ladi.[3]

Tabu borasida fikrlarimizni umumiylashtirib shuni aytishimiz mumkinki, bu kabi taqiqlangan xatti-harakatlar, so‘zlar har bir jamiyatga xos va mos bo‘lgan odatlar va qarashlarni bildiradi. Tabuning yaralishida, dastlab, diniy motivlar – qo‘rquv tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik, axloqiy motivlar – ma’lum bir so‘zlarning nutqda qo‘llanilishi uyat, haqorat, noo‘rin deb topilganligi sababli qo‘llanilmasligini kuzatashimiz mumkin. Jamiyat rivojlanar ekan, til ham hamohang ravishda rivojlanib boradi. Yuqorida qayd etilgan ta’qiqlar esa insoniyatning bir-biri bilan muloqotga kirishishida, o‘zaro hurmat va samimiylikni tutib turishga xizmat qiladi.

[1] A.J.Omonturdiyev. Professional nutq evfemikasi. Toshkent, “Fan”, 2006, 14-bet.

[2] A.J.Omonturdiyev. 17-bet.

[3] N.E.Kochkarova. Turk tilida tabu va evfemizmlarning qo‘llanish xususiyatlari. Magistirlik akademik darajasini olishi uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, 2014, 26-bet.

Atadjanova Marxabo Ilxamovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti magistranti)

O‘ZBEK BADIIY MATNIDA METAFORANING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek tili badiiy adabiyotida metaforaning ifodalanishini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Asosiy e’tibor metaforaning nutq jarayonidagi vazifasi, metaforalardagi originallik va individuallikning badiiy nutq nuqtayi nazaridan tahliliga qaratilgan.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу выражения метафоры в узбекской литературе. Основное внимание уделено анализу функции метафоры в речи, своеобразию и индивидуальности метафоры с точки зрения художественной речи.*

Annotation. *The following article is dedicated to the analysis of the expression of metaphor in Uzbek literature. The main attention is paid to the analysis of the function of metaphor in speech, the originality and the individuality of metaphors in terms of artistic speech.*

Kalit so‘zlar: *metafora, o‘xshatish, badiiy nutq, badiiy obrazlilik.*

Ключевые слова: *метафора, подобие, художественная речь, художественный образ.*

Keywords: *metaphor, likeness, artistic speech, artistic image.*

Metafora tasviriy vositalarning juda qadimiy ko‘rinishlaridan biridir. Antik ritoriklardan boshlab, nutqning bezagi sifatida keng o‘rganilib kelingan metaforaning nutq jarayonidagi, xususan, nasriy nutqdagi vazifasi xilma-xil bo‘lib, bu metaforaga muhim tasviriy vosita sifatida yondashishga olib kelgan. Shu boisdan ham nasriy matn tahlili haqida fikr yuritilganda, metaforani, uning nutqiy xususiyatlarini nazardan chetda qoldirish mumkin emas.

Metaforaning badiiy nutqda badiiy obrazlilikni kuchaytiruvchi tub mohiyati shundan iboratki, metafora mavjud matnlarda boshqa vosita bilan fikrni metafora orqali ifodalagandek ifodalash imkoni bo‘lmaydi. Metaforaning boshqa lingvistik vositalardan farqli ravishda, ma’noni yashirin tarzda ifodalashi, narsa-hodisani xarakterlashda taqqoslash, chog‘ishtirish kabi holatlarning mavjudligi bu vosita orqali takrorlanmas fikr ifodalash uchun sharoit yaratadi. Metaforaning nutq jarayonidagi qimmati, uning takrorlanmasligi ekanligi haqidagi bunday fikrlar ko‘pgina filologlar, jumladan, B.V.Tomashevskiy[1] hamda K.A.Dolininlar[2] tomonidan ham qayd qilingan. Chunonchi, B.V.Tomashevskiy fikrni o‘xshatish, metafora va sifatlash orqali ifodalash haqida so‘z yuritar ekan, shunday yozadi: “Alohida ajratib ko‘rsatish lozim bo‘lgan narsaning belgisini oddiy ifodalash hamma vaqt ham ta’sirchanlik talablariga javob bera olmaydi. Kishida hissiyot uyg‘otish uchun belgi haqida aniq tasavvur hosil qilish kerak, qachonki, shu belgi esda qolsin yoki diqqatni jalb etsin. Shuning uchun ba’zan narsaning belgisi boshqa narsa yoki hodisaning xuddi shunday belgisi bilan taqqoslanadi”.[3] Ana shunday taqqoslanish asosida metafora, o‘xshatish kabi badiiy vositalar vujudga keladi va fikrni yorqin, obrazli, ta’sirchan ifodalash imkoniyati tug‘iladi.

Metafora umumnutq hodisasi. Shu jihatdan yondashilganda, metafora ham boshqa tasviriy vositalar singari keng vazifali vositadir. Biroq metafora nutqning boshqa turlarida badiiy nutqdagidek keng ko‘-lamda qo‘llanilmaydi. Metafora filologik manbalarda o‘xshatishning bir turi sifatida talqin qilib kelingan. Chunonchi, qadimgi grek faylasufi Aristotel metaforaga o‘xshatishning bir turi sifatida qaragan.[4] Metafora xususida fikr yuritilgan aksariyat ishlarda metafora o‘xshatishning yashirin turi sifatida talqin etiladi.[5]A.T.Rubaylo o‘xshatish metaforaning birinchi formasi ekanligini metaforaning asosida o‘xshatish yotishini e’tirof etadi.[6] O‘zbek tilshunosligida ham xuddi shunday fikrlar mavjud. “O‘zbek tili” darsligida metafora shunday ta’riflanadi: “Predmetlar, hodisalar orasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo‘lgan so‘zni ikkinchisini ifodalash uchun ishlatish metafora deyiladi”.[7]R.Qo‘ng‘urov metaforani istiora degan ma’noni anglatishini qayd qilish bilan bir qatorda, uni oddiy qiyosdan farqlanishini ham ta’kidlaydi.[8]

---

[1] Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. Учеб. пособие, М., “Аспект Пресс”, 1996, с. 201.

[2] Долинин К.А. Стилистика французского языка. Л., 1978, с. 135 – 136.

[3] O‘sha manba. 201-bet.

[4] Античные теории языка и стиля. М., 1936, с. 219.

[5] Арнольд И.В. Стилистика современного английского зыка. Л., 1973, с. 196; Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. М., 1960, с. 155.

[6] Рубайло А.Т. Художественное средство языка. М., 1961, с. 37.

[7] Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. Т., 1978, 21-бет.

[8] Қўнғуров Р. Ўзбек тилинниг тасвирий воситалари. Т., 1977, 15-бет.

O‘zbek tilshunosligida metaforani maxsus o‘rgangan G.Qobuljonova uning mohiyati haqida mavjud bo‘lgan nom so‘zlovchi nuqtayi nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta’minlay olmay qolganda yuzaga chiqishini ta’kidlar ekan, metaforaning vazifasi nutqni qisqa, ta’sirchan, lo‘nda qilish, nutqni aniqlashtirish ekanligini ko‘rsatadi.[1]

M.Mirtojiyev til hodisasi va nutq hodisasi bo‘lgan metaforalar haqida fikr yuritib, nutq hodisasi bo‘lgan metaforalarni uslubiy xususiyatga egaligini e’tirof etadi.[2] Sh.Maxmaraimova metaforani badiiy obrazlarning va yangi ma’nolarning hosil bo‘lishidagi asosiy yo‘l ekanligini, bir qator nutqiy vazifalarni bajarishini qayd etadi.[3]

Darhaqiqat, metafora o‘xshatishning bir turi bo‘lib, o‘xshatishdan quyidagicha farqlanadi:

a) o‘xshatishda qiyoslanuvchi narsa yoki hodisa ifodalanayotgan so‘z to‘g‘ri ma’noda qo‘llaniladi, metaforada esa ko‘chma ma’noga ega;

b) o‘xshatish to‘rt komponentdan – o‘xshatish obyekti, o‘xshatma belgi va o‘xshatuvchi obraz va o‘xshatish vositasidan tashkil topadi, metafora esa bir komponentdan – o‘xshatilgan narsadangina iborat bo‘ladi.[4]

Bu farqli jihatlar o‘xshatish va metaforani, garchand, bir asosda vujudga kelsa-da, o‘ziga xos ikki hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Funksional jihatdan esa bu ikki hodisa yana birlashadi, ya’ni nutqning ta’sirchan-obrazliligini ta’minlash vazifasini bajaradi.

Metaforaning nutqda qay darajada vazifa bajarishi shu ko‘chim uchun asos bo‘ladigan o‘xshashlikning mohiyati bilan bog‘liq. Metaforalar ochiq o‘xshashlik asosida vujudga kelsa, u, asosan, nominativ vazifa bajaradi. Buning yorqin dalili lingvistik metaforalardir.

Badiiy metaforalarga xoslik, dastlab, originallik va individuallik bilan belgilanadi, toki bu xususiyatlar badiiy metaforaning nutqiy vazifasini namoyon etuvchi jihatlardir. Badiiy metafora nutqda tayyor obrazli ifodasi bo‘lmagan fikrni individual ifodalash vositasi ekanligi uchun ham kuchli uslubiy buyoqqa ega bo‘lgan, emotsional-ekspressiv vositalardan hisoblanadi. Badiiy metaforada ko‘chma ma’no hosil qiladigan so‘z shunchaki predmetni nomini olib qolmaydi, balki predmetning obrazli atamasi ham bo‘ladi. Shu boisdan badiiy metaforalar badiiy matn uchun muhim tasviriy vositalardan sanaladi.

Badiiy metafora – obrazli, ifodali va ta’sirchan vosita. Shu asosda uning badiiy nutqdagi vazifasi ham obrazlilik, tasviriylik va ta’sirchanlikni ta’minlashdir. Odatda, metafora predmetlar orasidagi biror belgiga asoslanishi natijasida vujudga keladi. Metaforaning badiiy qimmati ana shu belgining yashirin yoki ochiqligi bilan ham bog‘liq. Belgining ochiqligi metaforani oddiylashtiradi, qo‘llanilish doirasining kengayishi, uning ta’sir kuchining susayishiga olib keladi. Bunday metaforalarga “muhabbat” ma’nosidagi – o‘t, “xayolga ketdi” ma’nosidagi – xayol olib qochdi, xayoli uchdi, “qaradi” ma’nosidagi – bosh suqdi, “yomon” ma’nosidagi – ishi xurjun kabi ifodalar misol bo‘la oladi. Bu xildagi metaforik hodisani turli ijodkorlar asarlarida, turli badiiy matnlarda uchratish mumkin. Shuning uchun badiiy asarlarda uchraydigan metaforalar qo‘llanilishi jihatidan ikkiga bo‘lish mumkin: a) an’anaviy metaforalar; b) individual metaforalar.

An’anaviy metaforalarning badiiy adabiyotda eng ko‘p uchraydigan turi yomon kishilarga nisbatan “bo‘ri, quzg‘un, yirtqich” va boshqa so‘zlarni metaforik ma’noda qo‘llash hisoblanadi.

Individual metaforalar badiiy nutq, uchun muhim, badiiy fikrni oldin ifodalanmagan shaklda ifodalash usuli bo‘lib, fikrning badiiy obrazliligini kuchaytiruvchi samarali lug‘aviy birliklar hisoblanadi. Shu boisdan badiiy matnlarda uchraydigan individual metaforalar, ularning nutqiy vazifasi tahlili badiiy nutqqa lingvistik baho berish uchun zarurdir. Badiiy nutqdagi ko‘chma ma’noli vositalarning, ko‘pincha, shtamp xarakteriga ega ekanligidan kelib chiqib, V.P.Grigorev individual metaforalarni semantik so‘z yasalishining eng muhim vositasi deb hisoblaydi.[5]

Xarakterlisi shundaki, bir tushuncha, hatto bir ijodkor tomonidan bir necha individual metaforalar orqali ifodalanganini kuzatish mumkin. Bunday metaforalar orasida o‘zaro sinonimik xususiyatlar mavjud bo‘ladi. Masalan, P.Qodirovning “Uch ildiz” romanidan keltirilgan quyidagi matnlardagi “ajib muzi-

[1] Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз., дисс., автореферати, Т., 2000, 10-бет.

[2] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Т., 2010, 96-бет.

[3] Мамараимова Ш. Лингвокультурология. Т., 2017, 120-бет.

[4] Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Т., 1976, 10–11-бетлар; Қўнғуров Р. Ўзбек тилинниг тасвирий воситалари. Т., 1977, 16-бет.

[5] Григорьев В.П. Поэт и слово. М., 1973, с. 66.

ka, qalb muzikasi, mislsiz muzika, jo‘shqin tuyg‘u” kabi birikmalar “sevgi, muhabbat” ma’nosida qo‘llanilgan individual metaforalardir.

Mahkam buning hammasini qalbida chalinayotgan o‘sha ajib muzika sadolari ostida ko‘rar, soat tili “7”ga yaqinlashgan sari qalb muzikasi yuqori pardalarga chiqib borardi. Shundan keyin ko‘nglining tubida yana o‘sha mislsiz muzika asta eshitila boshladi. Hozir u jo‘shqin tuyg‘ular haroratiga har qachongidan ham kuchliroq ehtiyoj sezar edi (P.Qodirov).

Garchand, “sevgi, muhabbat” ma’nosidagi individual metaforalarning uchtasi asos bo‘lgan so‘z “muzika” so‘zi bo‘lsa, u “ajib, qalb, mislsiz” sifatlovchi so‘zlari orqali yangilanib turadi va ushbu metaforalarga indviduallik kasb etadi.

Predmet yoki hodisani bu xilda yangicha nomlash, ayniqsa, badiiy nutq uchun juda zarur bo‘lib, badiiy-obrazlilikni kuchaytiradi. Umuman, badiiy nutqda uchraydigan individual metaforalarni metafora hosil bo‘lishi uchun asos bo‘ladigan o‘xshashlilikning xarakteriga ko‘ra asosan: a) umumiy; b) obrazli o‘xshashlik asosida hosil bo‘luvchi metaforalarga ajratish mumkin. Masalan, “Tomir, qon” so‘zlari o‘zbek adabiyotida predmetlar orasidagi umumiy o‘xshashlik asosida metaforik ma’noda qo‘llanilishi jihatidan ancha faol. Shu xususiyatga ko‘ra, bu so‘zlarning metaforik ma’noda qo‘llanilishini an’anaviy deyish mumkin. Biroq bu so‘zlar yordamida turli ijodkorlar tomonidan turlicha metaforik ma’no ifodalanganki, bu hol ushbu metaforik ma’nolarning individual ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, “Bu o‘lkaning odamlari yerning qon tomirlari–ariqlarni azalgi tajriba...”(Oybek). Bu gapdagi “qon tomirlar” metaforik birikmasi “ariqlar” ma’nosida qo‘llanilgan. Qon tomir va ariqlar o‘rtasida shaklan va mazmunan umumiy o‘xshashlik mavjud. Shu boisdan bu metaforik birikma umumiy o‘xshashlik asosida vujudga kelgan yoki “Elektrik tomiridan oqqan qonlardan” (H.Olimjon) misrasidagi “tomir, qon” so‘zlari ham metaforik ma’no hosil qilish uchun asos bo‘lgan. Yuqoridagi gapda qon tomirlari birikma holda metaforik ma’noda qo‘llanilgan bo‘lsa, bu misrada har bir so‘z alohida metaforik ma’no ifodalagan, ya’ni, tomir – “elektr simi”, qon – “elektr toki” ma’nolarida ishlatilganki, bu lug‘aviy vositalar yordamida turli ma’no ifodalanishi individuallik kasb etgan. Shuningdek, qon so‘zining “nur” ma’nosida qo‘llanilganligini kuzatish ham mumkinki, bu hol so‘zning metaforik ma’no ifodalash imkoniyatining naqadar cheksiz ekanligini kursatadi. “Turli-tuman navlar qonib quyosh qonini emadigan behad, shakar yig‘adigan...” (Oybek). Bu gapda “quyosh nuri” qon so‘zi orqali ifodalangan bo‘lsa, xuddi shu tushunchani ifodalashda Oybek boshqa ko‘chma ma’no ifodolovchi vositalardan ham foydalangan.

Obrazli o‘xshashlikka asoslanilgan metaforalarda o‘xshashlik predmetlar uchun umumiy va konkret belgiga asoslanmaydi. Shu boisdan ham bunday metaforalar, ko‘pincha, yashirin o‘xshashlik asosida vujudga keladi va obrazlilikni kuchaytirish vositasiga aylanadi. Masalan, “Zerokim, Movarounnahr elini chulg‘agan bu zulmat qanchalik cho‘zilmasin, bir kun emas, bir kun qora bulut tarqab, oftob chiqajakdur (O.Yoqubov). Bu gapda uchta metaforik ifoda mavjud. Ma’lumki, “zulmat” so‘zining asl ma’nosi “qorong‘ilik”. Ushbu gapda “zulmat” so‘zi orqali ifodalanayotgan metaforik ma’no “qora kunlar, yomon kunlar” bilan shu so‘zning asl ma’nosi orasida muayyan bog‘liqlik mavjud bo‘lsa ham, metaforik ma’no obrazli o‘xshashlik asosida vujudga kelgan. Chunki, metaforik ma’no hosil qiluvchi so‘zning asl – “qorong‘ilik” ma’nosi “qora kunlar”ga qiyos qilinganki, bu qiyosda umumiy o‘xshashlikka emas, balki obrazli o‘xshashlikka asoslanilgan. Ushbu gapdagi ikkinchi metaforik birikma “qora bulut”,asosan, “urush”, “yomon kunlar” ma’nolarini ifodalagan, shu ma’noda bu metaforik birikmani individual metaforik birikma deb bo‘lmaydi. Masalan, “Shahar osmonida aylangan qora bulutlar tarqab, quyosh chiqadi” (Sh.Xolmirzayev) gapidagi “qora bulut” metaforik birikmasi orqali ham “urush” ma’nosi ifodalangan. Biroq yuqoridagi gapdagi “oftob chiqajak” hamda ushbu gapdagi “quyosh chiqadi” metaforik birikmalari “yaxshi kun” ma’nolarini ifodalovchi aynan bir xil ma’noli vositalar bo‘lsa ham, individual so‘z qo‘llanilishini ko‘rish mumkin. Zero, birinchi gapda quyosh so‘zining og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan oftob sinonimining ishlatilishi individuallik kasb eta oladi. Shuningdek, “qora bulut” metaforik birikmasi “yomon niyatli kishilar” ma’nosini ifodalagan hollar ham mavjudki, bu metafora ham obrazli o‘xshatish asosida vujudga kelgan individual metaforadir. “Bu qora bulutlar uning atrofiga qayoqdan keldi? Yasoq. – deb sichsirayotgan har darg‘azab bek Boburdan quyoshni to‘sib olgan bir qora bulutga o‘xshaydi. Boburni chirmab aylantirayotgan dahshatli quyun mana shu qora bulutlarning shamoli emasmikan?” (P.Qodirov). Matnda “qora bulut” birikmasi uch o‘rinda ishlatilgan va har uch o‘rinda ham yozuvchi Bobur atrofidagi beklarni ifodalashda “qora bulut” birikmasini qo‘llaydi. Faqat bir o‘rinda beklar qora bulutga o‘xshatilgan. Qolgan ikki o‘rinda birikma ma’nosi ko‘chgan va Bobur atrofidagi qora niyatli kishilarni ifodalagan.

Ayniqsa, badiiy adabiyotda salbiy xarakterdagi kishilarni ifodalashda turli salbiy emotsional bo‘yoqdor so‘zlar metaforik ma’noda qo‘llanilgan hollar ham uchraydi. Quyidagi misollar buning yorqin da-

lilidir. “Lekin Bobur yirtqichlar orasida kiyik bo‘lib kun ko‘rolmasligini ich-ichidan his qilar, shuning uchun atrofini qurshab kelayotgan bo‘rilar bilan sher bo‘lib olishishni istar edi” (P.Qodirov) gapidagi “yirtqichlar, bo‘rilar” so‘zlari metaforik ma’noda “yomonlar”ni ifodalasa, quyidagi gaplarda xuddi shu tushuncha “quzg‘unlar, to‘nkalar, suv ilonlar” kabi lug‘aviy vositalar orqali ifodalangan. Kolxoz qishlog‘ida quzg‘unlarning qag‘illashiga yo‘l qo‘ymaymiz (Oybek).–Mana shu ildizlarimizning quloch otishiga xalaqit beradigan eski to‘nkalar bor (P.Qodirov), ...bu yoqqa kelishda, mabodo, orqangizda ayg‘oqchi bo‘lmadimikan? Hozir “suv ilonlar” ko‘payib ketgan (Mirmuhsin).

Birdan ortiq lug‘aviy vosita bilan bir metaforik tushuncha ifodalash huddi ma’noni turli darajada ifodalovchi sinonimlarga o‘xshaydi. Jumladan, yuqoridagi “yirtqichlar, bo‘rilar, quzg‘unlar, to‘nkalar, suv ilonlar” kabi so‘zlar va so‘z birikmasi yordamida “yomon kishilar” tushunchasi ifodalangan bo‘lsa ham, “yirtqich” va “bo‘rilar” metaforasi “yovuz kishilar”, “quzg‘unlar” so‘zi orqali “g‘iybatchi kishilar”, “to‘nkalar” so‘zi orqali “hissiz kishilar”, “suv ilonlar” metaforasi esa “ayg‘oqchilar” kabi ma’nolar ifodalangan.

Umuman, badiiy nasrning ta’sirchan obrazliligini kuchaytiruvchi vositalardan biri bo‘lgan individual metaforalar fikr ifodalashdagi takrorlanmasligi bilan xarakterlanadi. Quyidagi individual metaforalarda ham shu holatni ko‘rish mumkin: quyosh oltini – “quyosh nuri” (Kechqurungi quyosh oltinida tovlangan ko‘m-ko‘k maydonchada ...Oybek), qunduzlatgan – “xursand qilgan” (Qalbini qunduzlatgan zavq ... Oybek), “peshanasi yiltiradi, quloqlari qizardi”–“uyaldi” (Sukut qilib o‘tirgan Bo‘taboyning peshonasi yiltiradi, quloqlari qizardi (A.Qahhor), “vulqon” – “urush” (Ko‘ktoshda ko‘tarilayotgan vulqon Boysunga yaqinlashib kelmoqda Sh.Xolmirzayev), “havo qovog‘ini solib”–“bulut bo‘lib” (Ertalab ham havo qovog‘ini solib turgan edi (S.Ahmad), “egovlamoq” – “urishmoq” (...kelinini hovlida egovlamoqda ekan... (Oybek) va boshqalar.

Xullas, individual metaforalarning badiiy obrazliligi uning mazmuniga daxldor bo‘lib, so‘z yoki so‘z birikmasi matnda mazmunan poetiklashadi. Shu boisdan ham so‘zning metaforik ma’no ifodalashi uchun matn (kontekst) muhim. Zero, matndan tashqarida so‘z metaforik ma’nosini yo‘qotib, asl lug‘aviy ma’nosida qoladi.

Safarmaxmatova Zarrina Narzullayevna (Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi, erkin tadqiqotchi)

MEDIA TILINING ZAMONAVIY PARADIGMASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy lingvistika paradigmasida media nutqining o‘rni, media madaniyat, ommaviy axborot kommunikatsiyalarning va shunga mos ravishda media madaniyati va media voqeligini o‘rganishdagi markaziy tushunchalari, ommaviy kommunikatsiyaning komponenti, haqida so‘z yuritiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль медиа речи в современной лингвистической парадигме, медиа культуре, медиа коммуникациях и соответственно, центральные понятия в изучении медиа культуры и медиа реальности, составляющей массовую коммуникацию.*

Annotation. *This article discusses the role of media speech in the modern linguistic paradigm, mediaculture, media communications and, accordingly, central concepts in the study of mediaculture and media reality, a component of mass communication.*

Kalit so‘zlar: *ommaviy kommunikatsiya, maqol, media madaniyat, paremiya, ibora, paremiologik birlik, gazeta uslubi.*

Ключевые слова: *массовая коммуникация, пословица, медиа культура, паремия, фраза, паремиологическая единица.*

Keywords: *Mass communication, proverb, media culture, paremia, phrase, paremiological unit.*

Hozirgi paytda bosma ommaviy axborot vositalarining tili xususida shuni ta’kidlash joizki, so‘nggi o‘n yilliklarda sodir bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar, jamiyatning ijtimoiy-inqilobiy munosabatlari kabilarni nuqtayi nazarining o‘zgarishi ommaviy axborot vositalari tilini demokratlashtirishiga olib keldi.

Ma’lumki, ommaviy axborot vositalari (bundan keyin OAV) zamonaviy jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti, ta’limi, siyosiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo‘shishi bilan birga madaniy, ma’naviy, axloqiy, estetik halokatga sabab bo‘ladigan tahdidli va buzg‘unchi salohiyatga ham ega.“OAV sun’iy ravishda yaratilgan madaniy dunyo, bugungi kunda global kollektiv ijod mahsuli sifatida keladi”.[4]

Darhaqiqat, zamonaviy lingvistika paradigmasida media nutqi tadqiqiga qiziqish ustunlik qilmoqdaki, bu, xususan, globallashuv jarayonlari tufayli zamonaviy inson ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga

aylanganligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, media lingvistika diqqat markazida davlatlar va xalqlarning axborot makonini birlashtirish xususiyatiga ega hamda siyosiy, ijtimoiy va boshqa jihatlarida voqelik (axborot maqomi) haqidagi tasavvurini til orqali shakllantir masalasi turadi. Zero, "...media matnlar zamonaviy til mavjudligining eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, ularning umumiy uzunligi inson faoliyatining boshqa sohalaridagi nutqning umumiy hajmidan ancha yuqoriligi bilan belgilanadi".[1]

Media madaniyat mahsulotlarini yaratish OAV (media) orqali amalga oshiriladi. Media (lotincha "media, medium"–vositachi) dastlabki talqinda ommaviy madaniyatning sinonimi bo'lib, zamonaviy sharoitda yangi semantik yuklamaga ega bo'lib, madaniy kodlar ishlab chiqariladigan va translatsiya qilinadigan muhit sifatida ko'rib chiqiladi.

Keyingi yillarda OAVning o'ziga xos qiymati zamonaviy jamiyatning medialashtirilishi barcha sohalarda – iqtisodiyot, siyosat, bilim, madaniyat, fan va texnika va h.k axborot oqimining misli ko'rilmagan darajada ortishi bilan bog'liq bo'ladi. Axborot – ommaviy axborot kommunikatsiyalar (bundan keyin OK)ning va shunga mos ravishda media madaniyati va media voqeligini o'rganishdagi markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, insonlar oladigan axborotlarning turlari ham bizni o'rab olgan olam kabi xilma-xildir. Inson oddiy, kundalik turmush axborotidan tashqari, ma'lum tartibga solingan axborotlar orqali ham ish ko'radi. Bularga ta'lim-tarbiyaviy axborotlar, kasbiy axborotlar, ilmiy axborotlar, iqtisodiy axborotlar, badiiy-estetik axborotlar va boshqalar kiradi.

Axborot, keng ma'noda, umumiy ilmiy tushuncha sifatida insonlar o'rtasida axborot almashishi, o'simlik (nabotot olamida) va jonli olamda signal almashishi, belgilarning organizmdan organizmga o'tishi, tor ma'noda esa bu atama ma'lum aloqa vositalari orqali uzatiladigan ma'lumotlarga nisbatan qo'llanililadi.

OAV tili, birinchidan, ommaviy axborot vositalari tomonidan ishlab chiqarilgan va tarqatiladigan matnlarning butun majmuasi bo'lib, ushbu til lingvostilistik xususiyatlar va belgilarning ma'lum bir to'plami bilan tavsiflangan barqaror introlingvistik tizim sifatida qaraladi va bosma nashr radio, televizor, internet kabi OAVning har biriga xos bo'lgan verbal va noverbal audiovizual komponentlarning ma'lum nisbati bo'lib keladi .

Media tilini o'rganishda, xususan, yozma, og'zaki hamda audivizual daraja darajani ajratishda ko'rindi. OAV tilini yozma va audiovizual kodlarini o'zida mujassam etgan "aralash turdagi belgilar tizimi sifatida ko'rib chiqish, o'z navbatida, tilining o'ziga xosligini aniqroq aniqlash imkonini beradi".

Darhaqiqat, har qanday zamonaviy aloqa sohasida ma'lumot uzatish ijtimoiy-madaniy jarayonlar, madaniyatlar dialogi, akseologik ma'nolar bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida zamonaviy jamiyat mentalitetiga tobora sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ommaviy kommunikatsiya – ommaviy kommunikatsiyalar vositasi yordamida son jihatdan katta va mayda guruhlarga bo'lingan auditoriyalarga xabarlar (axborotlar)ni sistemali tarzda tarqatish, ma'naviy qadriyatlarni ma'lum qilish, tasdiqlash va insonlarning fikrlariga, his-tuyg'ulariga g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy bosim (ta'sir) o'tkazishdir. Ommaviy kommunikatsiyaning mazmunli komponenti deganda ifodaning lingvistik va ramziy shakllari, texnik kanallar va axborotni aniqlash, qayta ishlash, saqlash va tarqatishning zamonaviy, doimiy modernizatsiya qilinadigan vositalari bilan birga keladigan axborot oqimi tushuniladi.

Albatta, media tilining, shuningdek, bosma media tilining turli jihatlarini o'rganishda, uning shakllanishining asosiy qonuniyatlari va muhim tendensiyalarini aniqlashga hissa qo'shishda tilshunoslikda aynan media lingvistik tadqiqotlar muhim rol o'ynaydi. Zero, F.Mo'minov ta'biri bilan aytilganda, «til biz tahlil etayotgan «kommunikatsiya», «publitsistika», «jurnalistika» kabi tushunchalarning bosh negizi, asosi hisoblanadi». «Tilning boshqa muloqot vositalari ustidan g'alabasi uzatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar miqdorining ortib borayotganligi bilan ham shartlangandir».[3]

Darhaqiqat, media makon ramziy makonlardan biri, ammo u yagona emas. Ramziy makonlarda o'zgaruvchanlik nuqtayi nazaridan ham, makonning o'zining paydo bo'lishi va yo'qolishi nuqtayi nazaridan ham yuqori dinamikaga ega.

Til muammolari bilan bog'liq bo'lgan deyarli hamma narsa fenomen, favqulodda hodisa sifatida ommaviy axborot vositalari tilida eng to'liq va o'tkir shaklda aks ettirilgan. Bosma media tilining o'ziga xosligi og'zaki (verbal) va grafik komponentlarning o'zaro ta'sirida ko'rinadi. Shriftning turi va hajmi, illustratsiyalarning mavjudligi, ranglardan foydalanish, qog'oz sifati, bosma varaq qatoridagi materiallarning joylashishi – bularning barchasi so'z qatori bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yagona bir butun – matbuotning sintetik tilini hosil qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, OAV orasida gazetaning o‘rni beqiyos. Gazeta matnlari, albatta, nutq qoidalariga binoan yaratiladi. Albatta, bunda OAV nutqi ortida idiologik g‘oya yotganini ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan tan olinadi. Zero, “OAV ichida gazeta – yangi so‘z, ibora, birikmalarning eng sezgir ko‘zgusi. U jamiyat hayotining barcha sohalarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni boshqa har qanday vositalardan tezroq aks ettiradi ...gazeta jamoatchilik uchun qiziqarli bo‘lgan va tarbiyaviy ahamiyatga ega barcha mavzular haqida yozadi.

Biz bu o‘rinda gazeta publitsistik uslubi borasida ba’zi bir fikrlarni keltirishni joyiz deb topamiz. Gazeta publitsistik uslubi bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Gazeta uslublari xizmat qiladigan jamoat faoliyati sohasi jamoatchilik munosabatlarining siyosiy va mafkuraviy sohasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dobrosklonskaya T.G. Ommaviy axborot vositalari tili. O‘quv qo‘llanma, MGU, 2008, 5-bet.

2. Kirillova N.B. Media madaniyat: nazariya, tarix, amaliyot. Darslik, M., “Madaniyat”, 2008, 11-bet.

3. Mo‘minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. T., “Universitet”, 1998, 8-bet.

4. Chelesheva I.V. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-madaniy sohasi: voqelik, aloqa, shaxs. M., «Axborot hamma uchun», 2016. 178-bet.

Козиева Иқбола Комилжоновна (Бухоро Давлат университети)

ЎЗБЕК ТИЛИДА НОМ ҚЎЙИШ

Аннотация. *Ушбу мақолада ономастика соҳасининг антропонимика тармоғи билан боғлиқ масалалар ёритилган. Антропоним тушунчаси, унинг қамрови, антропонимнинг турлари, исм ва унинг маъноси масаласи баён этилган. Мақолада асосий эътибор ўзбек халқининг исм танлашдаги ўзига хослиги, миллий урф-одат ва қадриятлари хусусида сўз юритилган.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с антропонимической сетью области ономастики. Описано понятие антропонима, его объем, виды антропонима, имя и его значение. В статье акцентируется внимание на своеобразии выбора узбекским народом имени, национальных традициях и ценностях.*

Annotation. *This article addresses issues related to the anthroponymic network of the field of onomastics. The concept of anthroponym, its scope, types of anthroponym, name and its meaning are described. The article focuses on the uniqueness of the Uzbek people’s choice of name, national traditions and values.*

Калит сўзлар: *ономастика, антропоним, антропонимия, антропонимика, исм, фамилия, тахаллус, лақаб, маъно, тасвирий исм, эзгулик, ном танлаш, исм қўйиш.*

Ключевые слова: *ономастика, антропоним, антропонимия, антропонимика, имя, фамилия, псевдоним, прозвище, значение, образное имя, доброта, выбор имени, дать имя.*

Keywords: *onomastics, anthroponymy, anthroponymy, anthroponymy, name, surname, nickname, meaning, figurative name, kindness, name choice, naming.*

Ўзбек тили тадқиқида ономастика ўзига хос ўрин эгаллайди. Ономастик бирликларнинг ўрганилиши, нафақат тилшуносликнинг, балки тарих, география, этнография каби соҳаларнинг ҳам ривожланишига олиб келади. Ўзбек тили ономастикасида кишини номлашга хизмат қиладиган бирликлар антропонимлар деб юритилади. Антропонимлар кундалик турмушда марказий ўрин тутадиган лексик қатлам саналади. Уларни ўрганиш, исм, фамилия, тахаллус, лақаб кабиларнинг ўзига хосликларини аниқлаш, кундалик турмушда, бадиий адабиётда қўлланиш ҳолатларини ойдинлаштириш бугунги кун тилшунослиги учун долзарбдир. Антропонимларда ўзига хос лингвопоэтик, лингвокультурологик, социолингвистик жиҳатлар борки, уларни турли йўналишда, хусусан, тарихий-қиёсий, лексик-семантик, этимологик нуқтаи назардан ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, антропонимик бирликларнинг турли қардош ва ноқардош тилларнинг материаллари асосида қиёсий ўрганиш, пайдо бўлиш ҳолатларини ойдинлаштириш, қиёсланаётган тилларнинг ҳар бирига тегишли хусусиятларни белгилаш тилимизнинг бой материалини тадқиқ этиш билан бирга, унинг тарихий ривожланиш босқичларига тегишли томонларни очиб беради.

Ономастика соҳасида ўнлаб атамалар борки, улар исмлар билан турли даражада алоқадордир. Булар сирасига антропотопоним, антропогидроним, антропоэтноним ва ҳ.к.

Антропонимларни тадқиқ этишда айрим бир атамаларга қисқача шарҳ бериш ўринли деб ҳисоблаймиз. Зеро, тилшунос олим Н.Маҳмудовнинг қайд этишича, “Ҳар қандай фанни ўрганиш, ўзлаштириш учун унинг алифбосидан – терминологиясидан хабардорлик зарур бўлади”[1] Дарҳақиқат, ҳар бир соҳа тадқиқотчиси ўзи ўрганаётган йўналишдаги атамаларни билиши, уларнинг ҳар бирига хос жиҳатларни фарқлай олиши, энг асосийси, улардан тўғри фойдаланиши талаб этилади. Шу қарашлардан келиб чиқиб, биз ҳам киши исмларини ўрганувчи соҳага оид айрим асосий атамалар изоҳига тўхталамиз. Киши исмларини ўрганиш соҳасида антропоним, антропонимия, антропонимика каби атамалар асосий ўринни эгаллайди.

Антропоним (юн. antropos – антропос+onoma – атоқли от) – киши атоқли оти (исм, фамилия, лақаб, тахаллус, патроним ва ҳ.к.); антропонимика – номшуносликнинг киши атоқли отлари (антропонимларнинг пайдо бўлиши, ривожи ва вазифавий хусусиятлари)ни ўрганувчи бўлими; антропонимия эса бирор тилда мавжуд бўлган киши атоқли отлари мажмуи, фонди.[2] Антропонимлар, яъни киши исмлари атоқли отнинг бошқа турларидан ўзининг индивидуал табиати билан ажралиб туради. Ҳар бир номланиш объекти, яъни инсон ўз номи (антропоними)га эга.[3] Ҳар бир антропоним ўзича алоҳидалик ҳисобланади. Антропонимлар сони чекланган. Шунинг учун ҳам бир ном ўнлаб, юзлаб, ҳатто минглаб кишиларга нисбатан қўлланиши мумкин. Баъзан исмларнинг таркибида турли қўшимча бирликлар – индикаторлар қўлланади.

Ўзбек антропонимлари ўзининг маъноси, қўлланиш ҳолатлари, таркиби нуқтаи назаридан ранг-барангдир. Ўзбек исмларида халқнинг узоқ йиллик тарихий шаклланиш жараёнлари, урф-одат ва дунёқараши, анъаналари, хуллас, бутун ижтимоий-маиший, иқтисодий-сиёсий ҳаёти ўз аксини топган. Ўзбек антропонимларини кузатар эканмиз, уларнинг ҳар бири маълум асосга эга эканлигига амин бўлмиз. Чунончи, ўзбек исмлари ижобий ҳис-туйғу билан алоқадор тушунчалар, гуллар, айрим жониворлар, осмон жисмлари, маънавият ва бошқалар асосида яратилган. Масалан, *гўзал, доно, гул, шер, қалдирғоч, ой* кабилар билан боғлиқ минглаб исмлар мавжуд.

Эркакларга нисбатан қўлланадиган исмларда мардлик, жасорат, бардош, комиллик, қаҳрамонлик кабилар акс этса (Акмал, Камол, Баҳодир, Ботир, Жасур, Қаҳрамон), аёлларга хос исмларда эса нафосат, майинлик, гўзаллик, иффат, ҳаё, оқилалик каби сифатлар асосий саналади (Гўзал, Нозик, Нафиса, Иффат, Оқила).

Умуман олганда, ўзбек исмларида етакчи ўринни эгаллайдиган бир қанча мавзу йўналишлари борки, биз қуйида шулар ҳақида ўз таҳлилларимизни келтирамиз.

Антропоним исмларнинг умумий номи ҳисобланади. Исм, лақаб, фамилия ва бошқаларнинг барчаси умумлаштирилиб, антропоним деб номланади. Бу ўринда антропоним гипероним сифатида намоён бўлган. Исм, фамилия, ота исми, лақаб, тахаллус, патроним, матроним кабилар эса гипонимлар саналади. Ўзбек тилида гипонимия – тур-жинс ҳодисасининг лисоний хусусиятлари Р.Сафарова[4] ва О.Бозоровнинг[5] ишларида тадқиқ этилган. Антропоним гиперонимида барча гипонимларни акс эттириш хусусияти мавжуд бўлиб, у ҳар бир гипонимни матнда алмаштира олади. Лекин кундалик сўзлашувда кишилар исм, фамилия, лақаб кабиларнинг ўзини қўллайдилар. Антропоним атама сифатида фақат лингвистик адабиётларда ҳамда мутахассислар нутқида қўлланади. Антропонимда гипероним-гипонимларнинг намоён бўлишини қуйидагича шарҳлаш мумкин:

Исм – арабча: ном, киши оти. Шахсий ном.[6] Исм сўзи ўзбек тилида “якка шахсни ўзгалардан, оилада (авлодда, умуман, жамиятда) фарқлаш учун унга гўдаклик даврида бериладиган атоқли от” маъносида қўлланади.[7] Исм сўзи форс-тожик тилида икки маънода қўлланади. 1. Гуноҳ, айб; хато. 2. Ном.[8] Иккинчи маънода исм сўзи ҳам ном (антропоним), ҳам мустақил сўзларнинг умумий номи сифатида қўлланди. Форс-тожик тилида *исм* сўзининг маъноси *ном* сўзи билан берилади. Ном – кишини аниқлаш учун ишлатиладиган сўз.

---

[1] Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Т., “Фан”, 2013, 5-сон, 3-бет.
[2] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006, 13–15-бетлар.
[3] Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н.Ярцева. М., 1990, с. 36 – 37.
[4] Сафарова Р. Ўзбек тилида гипонимия. Номз. диссер. автореф., Т., 1987, 21-бет.
[5] Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Т., 1995.
[6] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдли, 2-жилд, Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти. 2006, 232-бет.
[7] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006, 35-бет.
[8] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикї (иборат аз 2 ҷилд). Ҷилди 1, Душанбе, 2008, 950 с.

Антропонимлар ономастик тизимда ўзига хос ўрин эгаллайди. А.Авлақулов ўзининг тадқиқотида антропоним – шахс (инсон)нинг атоқли отидир. Антропонимия бирор тилдаги шахс атоқли отларининг мажмуидир, антропонимияга реал, яъни, ҳаётий шахслар атоқли оти, образларнинг тўқима атоқли оти, афсонавий (мифологик) шахслар атоқли оти киради, дея қайд этган.[1] У антропонимларни қандай манбада учрашига ва муҳитда қўлланишига кўра умумтил (умумадабий антропонимлари), диалектал антропонимлар, фольклор антропонимлари, бадиий антропонимлар кабиларни ажратган.

Антропонимлар турли сабаблар ва асослар билан юзага келади. Антропонимларнинг пайдо бўлишига муайян эҳтиёж ва қонуниятлар асос бўлади. Номлаш жараёни икки босқичдан иборат: 1-босқич: номлаш эҳтиёжи – боланинг туғилиши ва уни ўзгалардан фарқлаш лозимлиги; 2-босқич – шахс исмига фамилия ва ота исмини қўшиш.

Тадқиқотчи С.Кенжаеванинг қайд этишича, барча исмларнинг берилишида сўз сеҳри, сўзнинг сеҳрли кучга эгалиги (магия) тушунчаси ётади. Масалан, чақалоққа туғилиш жараёни ва баъзи белги-хусусиятларига мос ном бериш, болага исм орқали турли истак ва орзуларнинг изҳор қилиниши, бола исмини яширин тутиш, исми болага оғирлик қилмоқда деб бошқа исм билан алмаштириш, болага номуносиб характерли кишилар исмини қўймаслик, исм учун кексалар номини танлаш, буюк тарихий шахслар исмига тақлид қилиб, болани Аллоҳ, пайғамбар, авлиёлар, машҳур дин намояндалари, ўтган аждодлар номи билан аташ, улар руҳи болани қўллайди деб билиш ва бошқалар бунинг исботидир.[2]

Антропонимларда асровчи исм, ҳимояловчи исм, тасвирий исм, бағишлов исм каби атамалар қўлланади. Буларнинг ҳар бирида маълум бир мотив, асос борлиги, табиий.

Биз қуйида антропонимларда салмоқли ўрин эгаллайдиган тасвирий исмлар ҳақида фикр юритамиз.

Қадимги давр кишилари ўз атрофидаги ҳар бир ҳодисада илоҳий кучларнинг ўрни борлиги, қандайдир тушунарсиз қудрат доимо ўзини намоён этишига ишонч билан яшаган. Бу ҳолат кундалик турмушдаги фарзанднинг дунёга келиши, унинг яшаб кетиши, соғлом бўлиши ёки бирор касалликка чалинишида ҳам кузатилади. Боланинг дунёга келиши, унинг ўғил ёки қиз бола эканлиги, уни номлаш турли қарашлар, урф-одатлар билан чамбарчас боғланиб кетган. Боланинг туғилиши ва унинг кейинги ҳаёти, тақдири ғойибдан белгиланиши ҳамда бу билан боғлиқ ҳолатлар бугунги кунгача етиб келди.

Бола танасидаги айрим белгилар – нор, чандиқ, ўсимта кабилар ғайритабиий кучларнинг, илоҳий қудратнинг хоҳиш-иродаси деб ҳисобланган. Бу белгилардан кимлардир яхшиликка йўйилган илоҳий ишорани англатган бўлса, кимлардир қандайдир нохушлик белгиси сифатида баҳолаган. Шу нарсани ҳам қайд этиш керакки, нори борлиги учун боланинг исми билан параллел тарзда *Норбой, Норбўта, Нормуҳаммад, Норжон, Норгул* деб аташ ўз самарасини ҳам берган. Маълум муддат ўтиб, қайдайдир сабаблар ушбу нор кичрайиши ёки, умуман, йўқолиши ҳам кузатилган.

Кишилар бола танасидаги турли аломатлар, чандиқ, ўсимта кабиларнинг салбий таъсири камайтириш, имкон даражасида, умуман, йўқотиш мақсадида тасвирий исмларни ўйлаб чиқарганлар. Бундай исмлар ўзбек антропонимлари орасида салмоқли миқдорга эга.

Болага исм бериш ўта масъулиятли иш бўлиб, унга жуда эҳтиётқорлик билан муносабатда бўлганлар. “Исмлар осмондан тушади” ақидасига таяниб, боланинг дунёга келишига илоҳий кучлар сабабчи саналган ҳамда номлар шу асосда танланган:

– боланинг туғилишини илоҳий қудратнинг иродаси натижаси сифатида қабул қилиб, *Бахшулла, Иноят* номлари берилган;

– болани туҳфа, инъом деб қабул қилиш: *Туҳфа (хон) Худойберди;*

–боланинг туғилиш вақтига асосланган номлар: *Ашур, Рамазон, Сунбула, Баҳора, Баҳорниёз, Жумагул, Душан*, *Субҳида, Намоз;*

–бола туғилиши пайтида бирор табиат ҳодисаси содир бўлиши инобатга олинган номлар: *Бўрон, Ёмғирбой, Ойтўлди, Қорёғди;*

---

[1]Авлақулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи. Филол.фан.номз ...дисс.автореф., Т., 2012, 9-бет.

[2] Кенжаева С.Э. Ўзбек антропонимларининг семантик ва социолингвистик тадқиқи. Ф.ф.ф.д (PhD) диссер. автореф., Т., 2011, 15 – 16-бетлар.

–туғилган боланинг нечанчи фарзанд эканлигини кўрсатувчи номлар: *Тўнғич, Кенжа, Кичиктой, Бешбой, Бешқул, Панжи, Олтибой*;

–бола туғилган жойга ишора қилувчи номлар: *Ёбонбой, Далабой, Йўлчи*;

–боланинг чиройли, гўзал бўлиши истаги билан танланган номлар: *Барно, Гўзал, Сулув, Ҳусния*;

– боланинг ҳаёти нурли, мунаввар бўлиши тиланган номлар: *Анвар, Равшан, Нурюз;*

– қадрли бўлиши тиланган номлар: *Гавҳар, Кумуш, Олтиной, Олмос;*

– болага пари, ҳур каби мавжудотлардек гўзал бўлиши тиланган номлар: *Паризод, Парирўҳ, Ҳуринисо, Ҳурия;*

– боланинг гул каби чиройли бўлиши тиланган номлар: *Бинафша, Лола, Наргиза, Райҳон;*

– дарахтни ифодаловчи сўз асосида боланинг узоқ умр кўриши тиланган номлар: *Чинорбой*;

– дарахтни ифодаловчи сўз асосида қадди-қомати келишган бўлиши тиланган номлар: *Саврбек, Сарви, Санобар*;

–ҳайвонни ифодаловчи сўздан боланинг бақувват бўлиши тиланган номлар: *Шербек, Шерзод;*

–ҳайвонни ифодаловчи сўздан боланинг чиройли **бўлиши** тиланган номлар: *Қундуз, Ғазола*;

–қушлар номидан олинган исмлар: *Қалдирғоч, Тўти* ва ҳ.к.

Хуллас, айтиш мумкинки, ўзбек тилида қўлланадиган антропонимлар турли мотивлар асосида шаклланган. Уларнинг пайдо бўлиши халқнинг узоқ ўтмиш, тарихий тараққиёти, маданияти ва маънавияти билан узвий боғлиқдир. Халқимиз исм танлашда гўзалликка, чиройлиликка, соғлиқомонликка, умуман олганда, яхшилик, эзгуликка асосланган.

Каллибекова Гулнара Палбековна (Бердақ номидаги
Қорақалпоқ Давлат университети ассистент-ўқитувчиси)

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРМОҚ ГАЗЕТАЛАРИ ТИЛИДА ИНСОН ФАКТОРИ БИЛАН АЛОҚАДОР ЖАРАЁНЛАР

Аннотация. *Мақолада неологизмлар, фразеологизмлар, перифразалар, аффикслар, рус тили ва бошқа тиллардан кириб келаётган сўзларнинг услубий хусусиятлари Қорақалпоғистон тармоқ газеталари мисолида ўрганилган. Қорақалпоғистон тармоқ газеталари тилида инсон фактори билан алоқадар жараёнлар очиб берилган. Ахборий жанрлар таркибидаги расмий хабар жанри, уларда тил бирликларининг ўзига хос ифодаланиши, мавзуни баён этиш услуби тадқиқ этилган.*

Аннотация. *В статье рассматриваются неологизмы, фразеологизмы, перифразы, аффиксы, стилистические особенности слов, заимствованных из русского языка и других языков, на примере Каракалпакстанских отраслевых газет. Процессы, связанные с человеческим фактором, раскрываются на примере языка отраслевых газет Каракалпакстана. В структуре информационных жанров исследуется жанр официального общения, специфика выражения в них языковых единиц и стиль изложения темы.*

Annotation. *The article examines neologisms, phraseological units, periphrases, affixes, stylistic features of words borrowed from the Russian language and other languages on the example of Karakalpakstan branch newspapers. Processes related to the human factor are revealed in the language of Karakalpakstan branch newspapers. In the structure of information genres, the genre of official communication, the specific expression of linguistic units in them, and the style of presentation of the topic are investigated.*

Калит сўзлар: *давлат тили, тармоқ газеталар тили, услуб, расмий хабар жанри, фразеологизм, перифраза, инсон фактори, неологизм, адабий тил.*

Ключевые слова: *государственный язык, язык отраслевой газеты, стиль, жанр официального общения, фразеология, перифраза, человеческий фактор, неологизм, литературный язык.*

Keywords: *state language, language of branch newspapers, style, genre of official communication, phraseology, periphrasis, human factor, neologism, literary language.*

Тил миллатнинг кўзгусидир. Она тилимизнинг ички ва ташқи имкониятлари чексиз. Бу жараённи биз глобаллашув жараёни мисолида ҳам кўришимиз мумкин. XXI асрда қорақалпоқ адабий тили яна ҳам такомиллашиб бормоқда. Демак, тилнинг ҳар бир жабҳаси инсон фактори билан чамбарчас боғлиқ.

Қорақалпоқ адабий тилини яна-да такомиллаштиришда соҳага ихтисослашган газеталар тилининг имкониятларидан ҳам ўринли фойдаланиш мумкин. Чунки мазкур газеталарда ҳар бир тармоқ ҳаёти кенг сўз юритилади.

Ўзбекистон тараққиётининг бугунги янги босқичи – миллий юксалиш даври талабларидан келиб чиқиб, она тилимизнинг жамиятдаги ўрни ва нуфузини ошириш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, сўнгги йилларда Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат Ўзбек тили ва адабиёти университетининг ташкил этилгани она тилимизнинг тарихий илдизларини чуқур ўрганиш, уни илмий асосда ҳар томонлама ривожлантириш ва қўлланиш доирасини кенгайтириш, филолог кадрлар тайёрлаш борасидаги ишларни янги поғонага кўтаради. Ҳудудларда атоқли аллома ва адибларимиз номлари билан аталган ижод мактабларининг барпо этилиши бу йўлдаги яна бир муҳим қадам бўлди.

Давлат тили ва давлат тилини яна-да ривожлантириш бўйича қатор фармонлар, қарорлар имзоланди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сонли Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисидаги қарори, 2020 йил 3 ноябрдаги «Қорақалпоқ тилининг давлат тили сифатидаги мавқеи ва ўрнини яна-да ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» ва 2021 йил 16 июндаги «Қорақалпоқ тилини яна-да ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорлари қабул қилинди.

Ўзбек тилшунослигида матбуот тили қатор тадқиқотчиларнинг ишларида мунтазам ўрганилмоқда. Феруза Мусаеванинг «Публицистик услубнинг айрим белгилари»,[1]Икромжон Ҳабибжоновнинг «Солиқ-божхона терминологиясида метафора ва кўп маънолилик»,[2] Акмал Саиднўъмоновнинг «Ўзбек тили тиббиёт терминларининг лексикографик талқини»,[3] шунингдек, соҳа терминлари ва сўз маноларининг кенгайиши, ҳар бир сўзнинг кенг қамровли маъно-моҳиятга эга эканлиги ҳам ўрганилмоқда. Абдулҳай Собировнинг «Миллий тикланишдан миллий юксалишга ўтишда давлат тилининг ўрни»,[4] Шуҳрат Кўчимовнинг «Маъмурий суд ҳужжатлари тилининг юрислингвистик тадқиқи»,[5] Абдуваҳоб Мадвалиев, Неъмат Маҳкамовнинг «Халқаро терминэлементлар ва термин ижодкорлиги»,[6] Дармон Ўраева, Нигина Ҳикматова «Бозор» сўзи иштирокида шаклланган ясама сўз, бирикма ва иборалар»,[7] Азизахон Расулованинг «Тил сатҳида майдонлараро боғланиш»[8] сингари мақолаларда кенг тадқиқ этилмоқда.

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Президумининг «Қорақалпоқ тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чоралари ҳақида»ги қарори ушбу йўналишда амалга оширилаётган ишларни яна-да юқори босқичқа олиб чиқиш, давлат тилини яна ҳам ривожлантиришда катта аҳамиятга эга. Қарорга мувофиқ, 2021–2030-йилларда қорақалпоқ тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тасдиқланди. Концепцияда элимизнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётининг барча жабҳаларида давлат тили имкониятларидан тўлиқ ва тўғри фойдаланишга эришиш, таълим муассасаларида давлат тилини ўқитиш тизимини яна ҳам такомиллаштириш, унинг илм-фан тили сифатидаги обрўсини орттириш, қорақалпоқ тилининг тозалигини сақлаш, уни бойитиб бориш ва халқнинг нутқ маданиятини орттириш, қорақалпоқ тилининг замонавий ахборот технологиялари ва коммуникацияларига фаол интеграциялашувини таъминлаш, қорақалпоқ тилининг халқаро миқёсдаги ўрни ва обрўсини орттириш, бу йўналишда чет давлатлари билан бирга ишлашишни ривожлантириш, элимизда яшайдиган барча миллат ва элат-

[1] Мусаева Ф. Публицистик услубнинг айрим белгилари. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2017, 3-сон, 85–90-бетлар.
[2]Ҳабибжонов И. Солиқ-божхона терминологиясида метафора ва кўп маънолилик. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2021, 3-son, 100–103-betlar.
[3] Саиднўъмонов А. Ўзбек тили тиббиёт терминларининг лексикографик талқини. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2021, 3-son, 115–117-betlar.
[4]Собиров А. Миллий тикланишдан миллий юксалишга ўтишда давлат тилининг ўрни. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2021, 2-son 3 – 8-betlar.
[5] Кўчимов Ш. Маъмурий суд ҳужжатлари тилининг юрислингвистик тадқиқи. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2021, 2-son, 8 – 14-betlar.
[6] Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Халқаро терминэлементлар ва термин ижодкорлиги. “O‘zbek tili va adabiyoti‘, 2021, 2-son, 14 – 20-betlar.
[7] Ўраева Д., Ҳикматова Н. «Бозор» сўзи иштирокида шаклланган ясама сўз, бирикма ва иборалар. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2021, 2-son, 119–122-betlar.
[8] Расулова А. Тил сатҳида майдонлараро боғланиш. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2021, 2-son, 122–126-betlar.

ларнинг тилларини ривожлантириш мақсадида кенг ва тенг имкониятлар, шунингдек, уларга давлат тилини ўргатиш учун қулай шароитлар яратиш сингари давлат тилини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари белгилаб берилди.

Мазкур қарор доирасида оммавий ахборот воситалари ходимларининг фаолияти бўйича ҳам чора-тадбирлар белгиланган. Таъкидлаб айтганда, телерадиоканалларда бошловчи-журналистларнинг қорақалпоқ адабий тилида нутқ маданиятини ривожлантиришга йўналтирилган курсларда ўқитиш тизимини йўлга қўйиш ва қамраб олишни 2030 йилга қадар 100 фоизга етказиш белгиланган ва қорақалпоқ тилида иш олиб борадиган митақавий телерадиоканаллар ошиш тартиби ҳам белгилаб кўрсатилган.

Демак, оммавий ахборот воситалари, яъни газета, радио, телевидение ва интернетнинг жамиятда тутган ўрни беқиёс. Уларнинг мавзу танлаш маҳорати, фактлардан фойдаланиш услуби, лексик хусусиятлари доимо эътиборни жалб қилиб келмоқда. Айниқса, соҳага йўналтирилган газеталар тилининг имкониятларини таъкидлаб кўрсатиш ўринли. Чунки мазкур газеталарда тармоқлардаги барча жараёнлар, яъни янгиланишлар, ижтимоий-сиёсий воқеа-ҳодисалар, ютуқлар ва муаммолар кенг ёритилади. Газета материалларининг тилига эътибор берадиган бўлсак, янги терминлар, сўз маноларининг кенгайиш ҳолатлари, соҳа терминлари, ўзлашма сўзларни кўплаб учратишимиз.

Шу боис оммавий ахборот воситалари тизимида аҳамиятли ўрнига эга бўлган тармоқ газеталари ахборот муҳитида ўз даражасини сақлаб қолмоқда. Газета саҳифаларида бутун жаҳонда ва мамлакатимизда юз бераётган ижтимоий-сиёсий жараёнлар мунтазам ёритилади. Бу жарёнларни тўлиқ, аниқ, таъсирчан ва бадиий тил билан етказиш асосий талабларидан бири. Чунки мазкур газеталар ахборот етказувчи манба сифатида қорақалпоқ тилининг имкониятларини, гўзаллигини, луғавий бойлигини ўзида акс эттиради.

Бугунги кунда, дунё тилшунослигида газета тили ва услубини, унинг жанрларни, лексик ва грамматик хусусиятларини аниқлашда, мавзу ва фактлардан фойдаланиш маҳоратини ўрганишга доир самарали тадқиқотлар олиб борилган. Бу борада махсус таснифлар амалиётга татбиқ этилган бўлиб, газета тилига хос бўлган штамплар, клишелар аниқлаштирилган. Газета тилида журналистлар, публицистлар томонидан ишлатилаётган лексик бирликлар билан алоқадор луғатлар тузилган. Шу билан бирга, илмий тадқиқотлар газета тилининг жонли тил билан чамбарчас боғлиқ эканлигини ҳам кўрсатиб бермоқда. Газета тилининг таъсиршанлиги унинг воқеа ва ҳодисаларни тасвирлашида, асосан, лексик, грамматик ва имловий қоидалардан тўғри фойдалана олишида кўзга ташланади.

Қорақалпоғистон тармоқ газеталари ҳам хилма-хил мавзуларни ёритади. Хусусан, «Қарақалпақ әдебияты», «Салық жаңалығы», «Устаз жолы», «Шыпакер», «Тынышлық сақшысы», «Гүлайым», «Ғәрезсизлик ҳәм нызам», «Қарақалпақ университети», «Қарақалпақстан мәденияты», «Қарақалпақстан спорты» сингари газеталарда расмий хабарлардан ташқари, соҳа мутахассисларининг ҳам ижодий ишлари, мақолалари ва ҳисоботларини мунтазам ёритиб келмоқда.

Тармоқ газеталари тилида фаол қўлланилаётган неологизмларни таъкидлаб кўрсатишимиз мумкин. Мазкур газеталар тилида оммавий ахборот воситалари фаолиятига оид неологизмларни кўплаб учратамиз. Масалан, *медиамәкән, медиабазар, медиамаркетинг, медиатур, медиафорум, медиатәлим, медиасаўатханлық, медиатехнология, медиаорай, медиачекинг*. «*Медиафорумның* ҳәр бир күнинде елимиз журналистикасында узақ жыллар мийнет етип, турмыслық тәжирийбеге ийе болған белгили журналистлердиң баянатлары тыңланды»; «*Медиафорум* қатнасыўшылары илаждың жуўмақлаўшы күнинде Ферғана қаласы бойлап саяхат етип, мәдений орынларды да тамашаладық, естелик ушын сүўретлерге түстик»; «Соның менен бирге «Ферғана ҳақыйқаты» ҳәм «Ферганская правда» газеталары редакция тәрепинен шөлкемлестирилген *медиа-тур* барысында газеталар турмысы, редакцияның жумыс ислеў тәртиби, газетаға жазылыўшыларды көбейтиў бойынша алып барылған тәжирийбелери менен ортақласып, хызметкерлер ушын жаратылған шараятлар менен жақыннан таныстық» («Qaraqalpaqstan mádeniyati», 2022-жыл 29-март, № 14–15). Демак, биз янги сўзларни фақат интернет тилида эмас, балки тармоқ газеталари тилида ҳам мунтазам кузатишимиз мумкин. Интернет сайтларидаги расмий хабарлар тилида янги терминлар, қисқартма отлар фаол қўлланилганлигини кўришимиз мумкин.

Демак, интернет тилида янги сўзлар кўплаб ишлатилади. Аммо расмий хабарлар интернет тилида ҳам, газеталар тилида ҳам, телерадиоканаллар тилида ҳам бирдек шаклда ёритилади. Масалан: «Давлат тили ҳақида»ги қонун қабул қилинганининг ўттиз йиллиги муносабати билан барча мобил

компаниялар абонентларига «21 октябрь куни ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганига ўттиз йил тўлди» табрик матнлари битилган *СМС хабарномалар* юборишни ташкил қилиш; *СМС хабарлар* матнларини тайёрлаш ва тасдиқлаш; «Тил бор экан, миллат барҳаёт» мавзусида она тилимизни улуғловчи тасвирий тарғибот материаллари, ихчам *видеороликлар* тайёрлаб, уларни республикамизнинг барча марказий кўчаларидаги *панноларга* жойлаштириш ҳамда *LED экранлар* орқали намойиш қилиш; Ўзбекистон электрон оммавий ахборот воситалари миллий ассоциацияси *(Ўз ЭОАВМА); МТРК,* Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, *ЎзА, ЭОАВМА, «Дунё» АА, «UzReport» АА,* Ташқи ишлар вазирлиги (lex.uz сайти).

Тармоқ газеталардаги расмий хабарларда газета фразеологизмлари, перифразалар фаол қўлланилган. Масалан, «Мен биринши мәрте келгенимде «*мәденият Мойнақтан басланады*» деген едим. Сондай болып атыр. Мине усы аэропорт да бир мысал»; «Ҳәммемизге белгили, Мойнақ *мәмлекетимиздиң алыс аймақларынан бири*. *Ең жақын қала* Қоңыратқа шекем 100*, Қарақалпақстан орайы* – Нөкиске шекем 200 километр аралық бар»; «Бул «*ҳаўа порты*» 1947-жылы қурылған болып, алдын киши самолётларды қабыл еткен» («Qaraqalpaqstan mádeniyati» 2022-жыл 26-февраль, № 9–10). Гапдаги «*мәденият Мойнақтан басланады*» сўзи газета фразеологизми бўлиб такомиллашди, бу жумлаларни барча газеталарда кузатамиз. *Мәмлекетимиздиң алыс аймақларынан бири*, *ең жақын қала, Қарақалпақстан орайы,* «*ҳаўа порты*» сингари перифразалар газета тилида сўзни такрор-такрор қўлланишнинг олдини олишда ишлатилади. Шунингдек, бу каби перифразалар газетхонни ақлий музокара қилишга чақиради ва тасирчанликни таъминлашга хизмат қилади.

Тармоқ газеталари тилида фаол ишлатилаётган сифатларни атаб кўрсатишимизга бўлади. Масалан, *мәнзилли, мақсетли*, *миллий, жасыл, санлы, ақыллы, ашық, көшпели, турақлы (жумыс), дөретиўшилик (ушырасыў, жумыслар).* «Бул аймақты раўажландырыў бойынша еки қарар қабыл етилип, *мәнзилли* бағдарламалар әмелге асырылған»; «Усы жылы 100 мың гектар майданда «*жасыл* қаплама» қурыў режелестирилген»; «Аралбойының флора ҳәм фаунасын жақсылаў бойынша 5 жыллық *миллий* бағдарлама ислеп шығыў ўазыйпасы қойылды»; «Бул кәрхана халықты, әсиресе, ҳаял-қызларды *турақлы* жумыс пенен тәмийинлеўде әҳмийетли роль атқарды»; «Нөкис қаласындағы Президент мектебинде 22-февраль күни Өзбекстан ҳәм Қарақалпақстан Жазыўшылар аўқамлары жәмәәти менен *дөретиўшилик* ушырасыў болып өтти» («Qaraqalpaqstan mádeniyati», 2022-жыл 26-февраль, № 9–10). «Әлбетте, *миллий* ырғаққа бай йошлы қосықлар, рәңбәрең ойынлар мудамы адамлар қәлбине жақсылық нурларын таратып келген» («Qaraqalpaqstan mádeniyati», 2022-жыл 18-март, № 13). Қатор мисолларда келтириб ўтилганидек, сифат сўзлар сўнгги йилларда газета тилида фаол фойдаланилмоқда. Бу жараёнларда, энг аввало, инсон фактори унинг манфаатлари, кадри биринчи ўринда турганлигини кўрсатишимиз мумкин.

Тармоқ газеталари тилида фаол ишлатилаётган аффикслар қорақалпоқ адабий тилида оммалашди. *-хана, -зар, -ция, -нама* аффикси билан боғланиб келган сўзлар газета матнларида кўп ишлатилмоқда. Масалан, *-хана аффикси* билан алоқадар бўлган сўзлар: *шаштәрезхана, ыссыхана, нәлхана, китапхана.* «Сондай-ақ, 100 гектар майданда *нәлхана* шөлкемлестирилмекте»; «Аэропортта 50 жолаўшыға мөлшерленген жаңа терминал қурылған, ушыў-қоныў жолы ҳам майданшалар оңланған. Комплекс тирапы *көклемзарластырылған*»; *-зар аффикси* билан алоқадар бўлган сўзлар: *тоғайзар, көклемзарластырыў, шеңгелзар, гүлзар.* «Өткен жыллары теңиздиң суўы қурыған бөлиминде 1 миллион 524 мың гектар *тоғайзар* қурылған»; *-ция аффикси* билан алоқадар бўлган сўзлар: *делегация, декорация, коллекция, экспозиция*. «Ушырасыўда бул ўәлаят исбилерменлери тәрепинен Мойнақта әмелге асырылатуғын жумыслар ҳаққында халық ўәкиллери алдында *презентация* өткерилди»; «Егер пуқта етип, үнемлеп пайдаланылса, суў жетеди. Оның ушын аўыл хожалығы мәдениятын арттырыў, *инновациялық* технологияларды енгизиў керек, деди Президент»; «Шоманай районына бириктирилген Хорезм ўәлаяты исбилерменлериниң *инвестиция* жойбарларының *презентациясы* да өткерилди»; «Бул жерде Саудия Арабстанының «ACWA Power» компаниясы менен биргеликте самал электр *станциясы* қурылысы режелестирилген»; «Сонлықтан жеңил *конструкциядан* тоқымашылық кәрханасы шөлкемлестирилди» («Qaraqalpaqstan mádeniyati», 2022-жыл 26-февраль, № 9–10).

Тармоқ газеталари тилида рус тили ва бошқа тиллардан кириб келаётган сўзлар фаол қўлланилмоқда. Мазкур лексик бирликларнинг ишлатиши жараёнларига эътибор қаратганимизда, уларнинг мавзулари хилма-хил. Айниқса, халқнинг ижтимоий ҳолати, яъни яшаш тарзи, интилиш-

лари, иш жараёнлари ҳақида сўз юритилмоқда. Масалан, «Кекселер *санаторий*, балалар дем алыў орынларына жибериледи»; «Пуқаралар жыйыны уйымы, мәденият орайы, шыпакерлик пункти, мектепке шекемги билимлердириў мәкемеси *капитал* оңланды. Монша қурылды»; «Кейинги жыллары Қарақалпақстанға айрықша итибар берип, үлкен күш ҳәм *ресурсларды* тартқанымыз нәтийжесин берип атыр»; «*Кластердиң* 743 гектар жери *лазер* арқалы тегисленген»; «Бул жерде социаллық *инфраструктураны* жақсылаў мәселеси актуал болып барды. Ҳәм аймақ жақында «Абат мәҳәлле» бағдарламасы шеңберинде абаданластырылды. Көшелер оңланып, пиядалар *тротуары* қурылды»; «*Трансформатор* ҳәм бағаналар орнатылып, электр тармақлары тартылды»; «Президент Шавкат Мирзиёев Нөкис қаласында жумыс баслаған *пластикалық* есик ҳәм *рамлар* кәрханасын барып көрди»; «Кәрхана жәми 270 мың квадрат метр есик ҳәм айна *рамаларын* таярлаў қуўатлылығына ийе»; «Б.Айтмуратов өз *картиналары* менен Ташкент, Самарқанд, Махачқала, Москва, Австралия (Сидней) т.б. көплеген республикалық ҳәм халықаралық көргизбелерге қатнасқан» («Qaraqalpaqstan mádeniyati», 2022-жыл 26-февраль, № 9–10). Мазкур лексик бирликлар айрим жумлаларда тўғри ишлатилса, айрим контекстларда нотўғри фойдаланилган. Бу жараёнларнинг барчасини рус тили ёки бошқа тиллардан кириб келган сўзлар деб олиб қараш нотўғри бўлади. Қорақалпоқ тилида эквиваленти бор бўлган сўзларни ўз ўрнида ишлатиш керак.

Хулоса қилиб айтганда, давлатимиз тараққиётининг бугунги янги босқичи – миллий юксалиш даври талабларидан келиб чиқиб, она тилимизнинг жамиятдаги ўрни ва нуфузини ошириш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Бу жараёнларни биз Қорақалпоғистон тармоқ газеталари мисолида тадқиқ этдик. Қорақалпоғистон тармоқ газеталари тилида инсон фактори билан алоқадор жараёнларни кузатиш мумкин. Оммавий ахборот воситалари, энг аввало, ахборот етказувчи манба. Шунинг билан бирга, жамиятга, ёшларга билим беради, нутқ маданиятни ривожлантиради, маънавий дунёқарашини кенгайтиради. Қорақалпоқ адабий тилининг ўзига хос гўзалликлари мазкур газеталар тили орқали яна-да оммалашиб боради. Чунки ушбу газеталар тили орқали қатор тармоқлар фаолияти, янгиликлар ва воқеа-ҳодисалар ўз аксини топади. Газеталар тилининг аниқ, ихчам, мазмун жиҳатдан теран ва жуда бой эканлигини қуйидаги жараёнлар мисолида атаб кўрсатишимизга бўлади:

♦тармоқ газеталари тили орқали қатор неологизмлар кириб келмоқда ва қорақалпоқ адабий тилида фаол фойдаланилмоқда;

♦тармоқ газеталардаги расмий хабарларда газета фразеологизмлари такомиллашган, хилмахил мавзуга хос перифразалар қўлланилган;

♦тармоқ газеталарда ахборий ва таҳлилий жанрлар тилида от ва сифат сўзлардан ясалган икки компонентли лексик бирликлар фаоллиги ортган, сўз маънолари кенгайиш ҳолатларини ҳам таъкидлаб кўрсатишимиз мумкин;

♦тармоқ газеталари жанрларининг тилида *-хана, -зар, -ция, -нама* сингари аффикслар унумли ишлатилган, рус тили ва бошқа тиллардан кириб келаётган сўзларни оммалаштиришга ҳам хизмат қилмоқда.

Жўраев Шохрух-Мирзо Темур ўғли (ТДШУ Мумтоз филология ва адабий манбашунослик кафедраси стажёр-ўқитувчиси; e-mail: shoxrux-mirzo@mail.ru)

“ҚУТАДҒУ БИЛИГ” АСАРИ МУҚАДДИМАСИДА ИСЛОМ РУҲИ

Аннотация. *Ушбу мақолада, Юсуф Хос Ҳожиб ўзининг “Қутадғу билиг” асарини панд-насиҳат, комиллик ҳамда тасаввуфий руҳда яратганлиги. Шунингдек, асар муқаддимаси ҳамд (яъни Оллоҳни мадҳ этиш) ва наът (яъни пайғамбарларга олқиш) билан бошланиши асар ибтидосида ҳам интиҳосида ҳам ислом руҳи сингдирилгани тўғрисида ва “Қутадғу билиг”да илоҳиёт билан боғ-лиқ атамалар ҳам бир қатор қўлланганлигини исботловчи асосли фикрлар билан танишамиз.*

Аннотация.*В данной статье рассматривается произведение Юсуфа Хас Хаджиба «Кутадгу билиг», созданное в духе наставления, совершенства и мистицизма. Нас также знакомят с тем, что предисловие произведения начинается с восхваления (т.е. восхваления Аллаха) и наат (т.е.рукоплескания пророкам), что начало и конец произведения пронизаны исламским духом, и что в «Кутадгу билиг» используется ряд богословских терминов.*

Annotation. *In this article, Yusuf Khas Hajib writing his work “Kutadgu bilig” in the spirit of admonition, perfection and mysticism is discussed. In this article the preface of the work which begins with*

praise (ie, praising Allah) and naat (ie, applause to the prophets), infusion of the Islamic spirit at the beginning and end of the work, and a number of theological terms used in "Kutadgu bilig" are given.

Калит сўзлар: *Аллоҳ, худо, яқинлик, маъбуд, илоҳ, баят, тангри, иди, бир, ягона яратувчи, зоҳид, обидб, илоҳиёт, бисмиллоҳ, раҳмонлиқ, раҳимлиқ, эрклиг баят, тузук.*

Ключевые слова: *Аллах, бог, близость, идол, баят, всевышний, один, единый создатель, подвижник, благочестивый, бисмиллах, милосердие, баят, уложение.*

Keywords: *Allah, god, close, idol, Almighty, bayat, ascetic, pious, only creator, the one, Bismillah, mercy.*

Туркий адабиётда ҳозиргача энг қадимги йирик манзума бўлган "Қутадғу билиг" том моҳияти билан маърифий (ирфоний, орифона) асар бўлиб, рамзлар тизими – "тимсоллар тимсоли"[1] воситасида тасаввуфнинг инсоний камолот, комил инсон ҳақидаги ғояларни бадиий шаклда ифода ва тарғиб қилади. Бу асар яратилган давр – XI аср ўрталари ўлкамизда тасаввуфнинг маънавий-ахлоқий таълимот ва ҳаёт тарзи сифатида тугал шаклланиши, унда ҳали бир-бирига зид йўналишнинг ўзаро кескин баҳсу мунозаралари замони эди. Шунга қарамай, Юсуф Хос Ҳожиб ўзининг "Қутадғу билиг" асарини панд-насиҳат, комиллик, шунингдек, тасаввуфий руҳда яратди. Шунингдек, асар муқаддимаси ҳамд (яъни Оллоҳни мадҳ этиш) ва наът (яъни пайғамбарларга олқиш) билан бошланиши асар ибтидосида ҳам интиҳосида ҳам ислом руҳи сингдирилганини пайқаш мумкин.

"Қутадғу билиг" қорахонийлар давридан мерос қолган, ўша даврнинг тарихда ва инсоният тамаддуни равнақида тутган аҳамиятини ҳамиша ёдимизга соладиган, фақат буюк салтанатлар даврида яратилиши мумкин бўлган асар сифатида ҳам қимматли. Ҳомер юнонларнинг зафарли юришларини боқий достонларида куйлаганидек, Юсуф Хос Ҳожиб ўз асарида туркий халқларга хос донишмандлик хислатларини акс эттиради. Тафаккурга ихлосманд халқлар хос мушоҳадагўйлик қон-қонимизга сингиб кетгани айни шоҳона асар мазмун-моҳиятида ўз ифодасини топган.

Қорахонийлар салтанати дунёнинг ярмини эгаллаши баробарида, "инсон қандай муносиб ҳаёт кечириши керак?" "Бу борада қандай тамойилларга амал қилиши лозим?" "Башарий саодат негизи қандай қоидаларга бориб тақалади?" "Адолатли салтанат қоидаси борми?" сингари жаҳоншумул масалалар устида ҳам баҳс-мунозаралар юритганига "Қутадғу билиг" мисолида ишонч ҳосил қиламиз. Умуман, Юсуф Хос Ҳожиб феноменини Ҳомер, Фирдавсий, Данте, Навоий, Шекспир, Гёте, Толстой сингари даҳоларга нисбатан ўрганиш зарур.

Муаллиф тенглик, адолат тўғрисидаги қарашларини Кунтуғди тилидан беради. Унинг уқдиришича, тўғрилик (адолат) олдида ҳамма баробар. Кунтуғди хоқон тилидан буни шундай таърифлайди:

Кўнилик узала кесан-мен ишиг,
Адирмас-ма бегсиг йа қулсиг кишиг.
(Шиорим адолат, кўнглинг бўлсин тўқ,
Шоҳ билан гадо мен учун фарқи йўқ.)

Адиб сиёсатни, давлат қонунларини юқори тутади. Қонун ва интизом остида мамлакат обод, халқ эмин-эркин яшайди, деган ғояни қўллаб-қувватлайди. У ўтмиш адиб ва мутафаккирлари орасида биринчилардан бўлиб давлат ва жамият бошқарувининг демократик асосларини, тенглик принципларини ишлаб чиқди, ўз даври давлат бошқарувининг йўл-йўриқларини, тўру тузукларини яратди. Бинобарин, "Қудатғу билиг" давлат низоми даражасига кўтарилган асар эди.

Ҳолбуки, бу дунёдаги жамиятни яратувчи омил – инсониятнинг ахлоқ-одоби, кишиларнинг ва миллатларнинг ўзаро муомала, алоқа маданияти.

"Қутадғу билиг"да илоҳиёт билан боғлиқ атамалар ҳам бир қатор қўлланган ўринлар мавжуд. Бу шундан далолат берадики, асар яратилган даврда илоҳ тушунчаси тўлиқлигича яхши англанган. Адиб асарда кўп соҳалар билан бирга диний-илоҳий, ирфоний билимларнинг юксак эгаси эканлигини кўрсатади. Бу ҳақда сўз юритилаётганининг сабаби асарда диний атамаларни кўришимиз мумкин. Бу даврда туркий халқлар ислом динини қабул қилиб, арабий сўзларнинг кенг қўлланишига қарамай Юсуф Хос Ҳожиб асарида дин билан боғлиқ арабча ва форсча атамалар ўрнига туркий муқобилини қўллайди.

Ўша давр удумига кўра, асар "бисмиллоҳ" билан бошланар эди. Юсуф Хос Ҳожиб ҳам асарнинг ҳамд қисмини арабий басмала билан бошлаган. Ёлғиз шу ўринда арабча "Аллоҳ" атамасини

[1] Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб, Тошкент, "Ёзувчи", 1996, 272-бет.

ишлатилганини кўрамиз. Алишер Навоий “Муножот” асарида “Аллоҳ” атамаси тўғрисида: *Исм – сенинг исминг ва раҳмонлиқ ва раҳимлиқ сенинг қисминг* деб таъкидлайди. “Аллоҳ” исми ёлғиз худонинг отидир. У Аллоҳнинг улуғлиги ва ягоналигини ифодалайди. Раҳмонлиқ ва раҳимлиқ аллоҳнинг сифатидир.

“Юсуф Хос Ҳожиб асарда “Аллоҳ” атамаси ўрнида чин туркий “баят”, “тангри”, “иди” синга-ри сўзларни қўллайди. “Қутадғу билиг”нинг *“Ети кавакиб он ики бурж”* (Етти сайёра ва ўн икки бурж ҳақида) бўлими *баят ати бирла сўзук башладим* мисраси билан бошланган. Мазкур қаторда адибнинг тил билими етакчиси эканлигини кўришимиз мумкин. Биринчи арабча “бисмиллоҳ”ни соф туркий тилда баён этган.[1]

Шуни таъкидлаш керакки, асарда, аксарият ҳолларда, “Аллоҳ” атамаси ўрнида “баят” сўзи ишлатилган. Шунингдек, атаманинг қўлланиш жараёнида икки ҳолат кузатилади. Биринчиси, у Аллоҳнинг сифат исмлари билан биргаликда қўлланилган: *эрклиг баят* (эркли қодир худо), *этигли баят* (яшнатувчи худо), *уған бир баят* (қодир ва бир худо), *эркли уған менгу мунгсуз баят* (эркли, қодир, мангу, мунгсиз худо). Иккинчисида араб ва туркий изофанинг белгисиз шаклини ишлатгани кўринади: *баят раҳмати* (Аллоҳнинг раҳмати), *баят оқ* (Аллоҳнинг ўзи).

Тангри атамаси *уған тангри* (қодир худо) *тангри азза ва жалла* (энг азаиз ва улуғ тангри) бирикмалари билан қўлланган.

Иди сўзи, асли, туркийдир. У асарда Аллоҳ атамаси ўрнида ишлатилган. Юсуф Хос Ҳожиб *иди* сўзини *тўруткан иди* (яратган эгам), *игитган иди* (парваришлаган эгам), *кечурган иди* (кечирувчи раҳмдил эгам), *бағирсақ иди* (меҳрибон эга, раҳмон) кўринишида қўллаган.

Иди атамаси луғавий жиҳатдан “эга соҳиб” маъноларини беради. Адиб бу сўзни луғавий маънода ҳам ишлатган: *Э ҳиммат идиси ажун қултағу* (эй ҳиммат, хайр-саховат эгаси, соҳиби ҳақиқий дунёни иста). *Ая тил идиси кўдазгил басиғ* (эй тил эгаси, бошингни асрагин).[2]

Навоий ҳазратлари “Хамса”ни икки йилда ёзиб тугатиш учун неча йил тайёргарлик кўргани, хусусан, давлат аробоби сифатида ҳам самарали фаолият юритганини инобатга олганда, Юсуф Хос Ҳожиб асарни яратишдан олдин қандай ижтимоий фаолият билан шуғулланганини аниқ тасаввур қилиш мумкин. Ҳазрат сингари “Қутадғу билиг” муаллифи ҳам аслзодалар тоифасидан экани, шубҳасиз. Унинг исмига нисбатан тахминий қиёфасини ҳам гавдалантириш мумкин. Бинобарин, Шарқда инсоннинг исми жисмига монанд бўлиши азалдан одат тусини олган.

Достоннинг ўта самимийлик билан яратилганига ҳам алоҳида эътибор қаратишни истардим. Муаллиф суврати ва сийратининг уйғунлиги асарнинг айни хусусиятида яққол намоён бўлган.

Умуман, буюк ижодкор, аллома Юсуф Хос Ҳожиб диний атамаларни қўллашда ва атама ижодкорлиги борасида ҳам ўз давридан анчайин илгарилаб кетганини кўрамиз. Унинг атамани ўз ўрнида моҳирона қўллаши ва сўз ясаш билан боғлиқ ихтироларининг қадрига ўзбек филологияси тушуниб етмоғи ва ўқувчига содда тилда етказмоғи керак.

Асар тавҳид ёки ягона Аллоҳ ҳамди билан бошланади. 32 байтли бу бобда исломнинг бош тушунчаси ҳар тарафлама тавсифлаб берилган. “Қутадғу билиг”да кўп ўринларда “илоҳ” атамаси ҳам қўлланган. “Илоҳ” Аллоҳнинг умумий исм ва сифатларини акс эттиради. У асарда “худо”ни билдириб, луғавий жиҳатдан “яқинлик”, “маъбуд” маъноларига эга. Араб тилида “ал” аниқлик артикили “илоҳ” атамасига қўшилиб, “Аллоҳ” атамасини ясаган. “Аллоҳ” атамаси луғавий жиҳатдан “бир, ягона яратувчи” деган маънони билдириб, Аллоҳнинг зот исмини билдиради. Бу исмда улуғлик акс этганини гувоҳи бўламиз.

Хуллас, туркий тилда яратилган бу буюк асар минтақа адабиёти ривожининг биринчи босқичи учун маълум маънода якунловчи асар бўлди.

Murodova Durdona Boxodir qizi (Toshkent Sharqshunoslik universiteti Koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail:durdona_murodova@tsuos.uz)

PAK VANSO IJODIY MEROSI

Annotatsiya. *Bugungi kunda zamonaviy koreys adabiyoti rivojiga erkak yozuvchilar bilan bir qatorda, ayol yozuvchilar ham ulkan hissa qo‘shib kelmoqda. Tarixiy manbalar guvohlik berishicha, koreys*

[1] Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. Тошкент, 2006.

[2] Юлдашев Т. Филология янги юз йилликда: фаннинг тугун ва ечимлари мавзуидаги илмий конференция материаллари. Тошкент, 2003, 142-бет.

adabiyoti olamiga ayol yozuvchilar XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida kirib kelishdi. 1960-yillarga kelib esa adibalar safi birmuncha kengaydi va ularning ijodiga bo'lgan qiziqish ham ortdi. 1990-yillari tanqidchilar tomonidan adabiyot olamiga ayol yozuvchilarning kirib kelishi shiddatli tus olgani tanqid qilindi. Aslida, bu boshqa sohalar qatori, adabiyot sohasida ham ayollar faolligining ortganligi hamda uzoq davom etgan erkak ijodkorlarning yakka hukmdorligi tugatilganligidan dalolat beradi.

Аннотация. *Сегодня, наряду с писателями-мужчинами, значительный вклад в развитие современной корейской литературы вносят писательницы-женщины. Исторические источники свидетельствуют, что писательницы вошли в мир корейской литературы в конце 19 - начале 20 веков. Однако к 1960-м годам ряды писателей расширились, и интерес к их творчеству вырос. В 1990-е годы критики критиковали приток писательниц в литературный мир. Фактически это свидетельствует о росте женской активности в области литературы, как и в других областях, и об окончании многолетней монополии художников-мужчин.*

Annotation. *Today, along with male writers, female writers are making a significant contribution to the development of modern Korean literature. Historical sources testify that female writers entered the world of Korean literature in the late 19th and early 20th centuries. By the 1960s, however, the ranks of writers had expanded, and interest in their work had grown. In the 1990s, critics criticized the influx of women writers into the world of literature. In fact, this indicates the increase in women's activism in the field of literature, as well as in other areas, and the end of the long-standing monopoly of male artists.*

Kalit so'zlar: *Sinche, Pak Vanso, Pak Kyonni, O Chonkhi va Chxve Mongxi, Ishonchsiz kun" (살아 있는 날의 소망), "Qora beva" (흑과부), "Juftli juftsizlar"(결혼 한), "Fotoapparat va ish oyoq kiyimi" (카메라와 워커), "Shuncha shingani kim yegan?" (그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까), "Budda qirolligida" (부처님 근처), "Tog' chindan ham o'sha yerda bo'lganmi?" (그 산이 정말 거기 있었을까).*

Ключевые слова: *Синче, Пак Вансо, Пак Кённи, О Чонхи и Чхве Монси, "Невероятный день», «Черная вдова», «Пара пар», «Камера и работа» ,"Обувь», «Кто съел столько черепицы?», «В царстве Будды», «Была ли гора действительно там?»*

Keywords: *Sinche, Pak Vanso, Pak Kyonni, O Chonkhi and Chhve Mongxi, "Unbelievable Day"," Black Widow", "Couple of Couples" ("Camera and Work Shoes", "Who ate so many shingles?", "In the Kingdom of the Buddha", "Was the mountain really there?"*

Feodal qoloqlik davrida koreys ayoli har tomonlama erkaklarga bo'ysungan. Ayol qadri uning axloqi bilan baholangan. Choson sulolasi davriga qadar ayollar oilada norasmiy ta'lim olishgan. Choson sulolasi davrida barcha sohalarda asosiy mafkura sifatida konfutsiychilik yetakchilik qilgan, ayollar uchun oshxona madaniyati asosiy ta'lim yo'nalishi sanalgan. Choson sulolasi davrida "Soxe qirolichasi darslari" va "Samgang Xongsildo" kitoblari asosiy darslik sifatida qo'llanilgan, ayollarga donolik, bolalar tarbiyasi va ro'zg'or tebratish sirlaridan saboqlar berilgan. Choson sulolasida ayollar ta'limining birinchi davrida yuqori darajani saqlab qolgan Yolnyoga urg'u berilgan.

1970-yillarga kelib, koreys adabiyotida badiiy nashrlar hajmining ortishi kitobxonlar o'rtasida uzun sosol (romanlar)ga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga sabab bo'ldi. Bu davrga kelib, ijod olamiga Pak Vanso, Xvan Sok Yong, Li Mun Ku, Cho Se Xun va Choi Inxo kabi qalami o'tkir ijodkorlar kirib kelishdi. Mazkur yozuvchilarning ijodi zamonaviy koreys adabiyotida roman janri taraqqiy etishiga turtki bo'ldi.

Janubiy Koreya mamlakatining hayoti va milliy madaniyatida muhim o'rin egallagan konfutsiychilik me'yorlariga ko'ra, ayollar asrlar davomida jamoatchilik faoliyatida ishtirok eta olmadilar. Patriatxal tuzumda istiqomat qilib kelgan xalq uchun ayol yozuvchilarning paydo bo'lishi mamlakatda ro'y bergan muhim voqea va o'zgarishlardan biri bo'ldi. Adabiyot olamiga ayol yozuvchilar kirib kelishida Sinche, Pak Vanso, Pak Kyonni, O Chonkhi va Chxve Mongxilarning qo'shgan hissalari beqiyos.

Pak Vanso 1931-yili Kyongi provinsiyasining shimolida joylashgan Pakchokkol qishlog'ida dunyoga keldi. Oilada to'ng'ich o'g'il farzandning qizi bo'lgan Pak Vanso uch yoshga to'lganida otasidan erta yetim qoldi. Otasi o'limidan so'ng onasi avlod davomchisi katta nabirani olib, Seulga ketdi. Qizaloq yetti yoshga to'lguncha buvasi va buvisining qo'lida tarbiya topdi.

O'zining "Adabiyot va vatan haqidagi tushunchalarim" ocherki hamda "Shuncha shingani kim yegan?" avtobiografik romanida adiba kichik vatani, uning odamlari, tabiati, tengdosh o'rtoqlari haqida batafsil bayon qiladi.

Adiba yetti yoshga to‘lganida onasi uni ham Seulga olib ketdi. Shahar chekkasidagi hayot Pak Vansoning dunyo haqidagi qarashlarini o‘zgartirib yubordi. Boshlang‘ich maktabga o‘qishga borgan adiba tasavvurida maktab “bolaligini o‘g‘irlagan hamda unga ruhiy zarba yetkazgan maskan” tarzida yodida saqlanib qoldi:

“어느 날 어떤 아이가 나보고 “시골때기 꼴때기”라 고 놀리자 다른 아이들도 일제히 따라서 같은 소리를합창했다. 나는 그 애들이 나를 놀릴 수 있는 근거가 되는 시골이란 데와 그 애들이 현재 살고 있는 형편을 비교하면서 참 별꼴 다 본다고 가소롭게 생각했다. 나 도 어느 틈에 엄마의 속 들여다보이는 교만을 그대로 닮아가고 있었다. 그러나 그 애들 앞에서 울긴 싫었댜”[1].

“*Bir kuni bir bola menga qarab “qishloqi”, deya ustimdan kulgach, boshqalar ham baravariga ergashib, shu gapga jo‘r bo‘lishdi. O‘sha bolalarning ustimdan kulishiga sabab bo‘ladigan qishloq bilan ularning hozir yashayotgan ahvolini taqqoslaganda, g‘alati manzaraga guvoh bo‘lish mumkin... Biroq o‘sha bolalar oldida yig‘lashni istamadim...*”.

1944-yil Pak Vanso qizlar oliy maktabiga o‘qishga kirdi, 1945-yili adiba oilasi Keson shahriga ko‘chib o‘tdi. Koreya yapon anneksiyasidan ozod bo‘lgach, 1950-yili Seul milliy universitetining koreys tili va adabiyoti bo‘limiga o‘qishga kirdi, lekin Koreya urushi tufayli o‘qishni davom ettira olmadi. Urush davrida yaralangan akasi hamda “yapon ayg‘oqchisi” tamg‘asi ostida amakisi halok bo‘lishdi. Shu sabab bo‘lajak yozuvchi oilani boqish uchun Amerika qo‘shini harbiy qismiga tegishli katta savdo markaziga ishga kirishga majbur bo‘ldi. 1953-yili turmushga chiqqan Pak Vanso to‘rt qiz va bir o‘g‘il farzandni dunyoga keltirdi.

Tanqidiy va tijoriy jihatdan qator muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritgan Pak Vanso ijod sahnasiga boshqa adibalardan farqli o‘laroq, qirq bahorni qarshilaganda ilk qadamini qo‘ydi. Ilk asari 1970-yili 40 yoshni qarshilagan chog‘ida chop ettirildi, bu debyut “Donga ayollar kitobi” (동아일보사)ga kiritildi hamda nashr qilindi. Shu qadar samimiy va soddalikka yo‘g‘rilgan roman yozuvchining yoshligi haqida bayon qiladi. Bugungi kunda u yoshlar orasida juda mashhur asarlardan biriga aylandi. Pak Vanso hayotini besh nafar farzandining tarbiyasiga, turmush o‘rtog‘ining yoshi ulug‘ ota-onasiga g‘amxo‘rlik qilishga sarflagan namunali uy bekasi edi. XX asrning oxirida Koreya jamiyati qiyofasini adibaning mashhur asarlarida, jumladan, “Ishonchsiz kun” (살아 있는 날의 소망), “Qora beva” (흑과부), “Juftli juftsizlar”(결혼 한), “Fotoapparat va ish oyoq kiyimi” (카메라와 워커), “Shuncha shingani kim yegan?” (그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까), “Budda qirolligida” (부처님 근처), “Tog‘ chindan ham o‘sha yerda bo‘lganmi?” (그 산이 정말 거기 있었을까) kabi hikoya va romanlarida kuzatish mumkin. Pak Vanso o‘z asarlarida koreys jamiyati va xotin-qizlar hayotida mavjud muammolarni yoritishga harakat qildi. Adibaning har bir asari koreys kitobxonini o‘z tarixini yaxshi bilishga va dahshatli oqibatlarga sabab bo‘lgan fuqarolar urushining bugungi kunda ham ko‘rsatayotgan ta’sirini tushunishga undaydi.

1970-yili “Yalang‘och daraxt” (나목) romani “Yoson tona” (여성동아) ayollar jurnalida chop etildi va shu yili mazkur jurnal tomonidan e’lon qilingan adabiy mukofotni qo‘lga kiritdi. Asta-sekin adabiy doiralarda Pak Vanso ismi yangray boshladi.

1988-yil adiba avval erini, keyin o‘g‘lini yo‘qotdi. Adabiy ijod hamda ijtimoiy faoliyat Pak Vansoni fojialardan chiqish yo‘liga aylandi. Ijodiy faoliyati bilan bog‘liq holda, qator mamlakatlarga safarga borgan adiba sayohat taassurotlarini yo‘l qaydlarida aks ettirdi.

13 tomli roman va 5 tomdan iborat hikoyalar to‘plami muallifi sifatida mashhur Pak Vansoning avtobiografik ruhdagi ko‘plab asarlari ham nashr etildi. Pak Vanso patriarxal jamiyatda ayollarning qiyinchiliklarini ta’riflashda o‘z tajribasiga tayanadi. U ayollarning bir-biriga bo‘lgan hamda erkaklarning ayollarga nisbatan shafqatsiz munosabatlariga tanqidiy nazar bilan qaraydi. Ana shu tanqidiy qarashlarni o‘zida aks ettirgan asarlari bilan Pak Vanso koreys jamiyatida sevimli yozuvchilardan biriga aylandi.

Adiba qalamiga mansub hikoyalarda ayollarning yangi qiyofasi paydo bo‘ldi: urush bevasi (urush sabab bo‘linish oqibatida ikki mamlakatda qolib ketgan er-xotinlar), oila boshlig‘i (mamlakatda yuzaga kelgan ishsizlik muammosini yengib o‘tishda ayollar faollikni o‘z qo‘llariga olishdi), boquvchi (urush

[1] 박완서. 그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까.(주)도서출판 세계사, 2012. 110-111.쪽.

davrida erkaklarning barchasi urush maydoniga jalb etilgani sabab oilani asrash va boqish ayollar zimmasiga tushdi) va h.k.

Mamlakatda amalga oshirilgan sanoatlashtirish davrida esa yana yangi ayol obrazlari shakllandi: qishloq ayollari, xizmatkorlar va qaynonalar. Demokratiyalashtirish davrida esa zamonaviy bilimni egallagan, ishbilarmon ayollar obrazi kirib keldi. Bunday ijtimoiy hayot keltirgan zulm va tashvish ayollarni mazlum nikoh hayotidan bezdirib qo‘ydi, endi ular tashabbuskorlikni qo‘lga oldilar, mustaqil hayot kechirishga intilib yashay boshladilar. Shu sabab mazkur davr muhitidan bayon qiluvchi hikoyalarda ziyoli ayol obrazlari safidan ajrashgan, qayta turmush qurgan, yolg‘iz ayol obrazlari o‘rin egalladi.

Adiba yaratgan qator hikoyalarda sanoatlashtirish davrida o‘rta sinf vakillari turmush tarzi hamda ular ongida kechayotgan “begonalashuv” masalalari yoritilgan. O‘rta toifali ayollarning kundalik hayotiga e’tibor qaratgan muallif bunday ayollarning moddiy farovonlikka erishish yo‘lidagi noto‘g‘ri xatti-harakatlarini tanqid qiladi. Bu toifaga mansub ayollar moddiy boylikdan zavqlana ham olmaydilar (“Qora beva”, 흑과부”), ruhiy inqirozga uchraydilar (“Juftli juftsizlar, 결혼 한”), “begonalashuv” hissini tuyadilar (“Ular naqadar ko‘p, 저렇게 많이”) va h.k.

“Ular naqadar ko‘p” (“저렇게 많이, 1975) hikoyasi zamonaviy jamiyatda shaxs ma’naviy qadr-qimmatining yo‘qolishi, pul muhim ahamiyat kasb etishi kabi muammolarni o‘zida namoyon etdi. Mazkur asarda Tomas Steriv Eliotning (1888–1965) “Hosilsiz yer”[1] she’ri motiv sifatida qo‘llanilgan. Asarning nomi ham she’rdan epilog sifatida olingan va asarning sujeti asosiga aylangan: “Inson qalbida xudoning o‘lishi – jamiyatning ruhiy o‘limi demak”.[2] Hikoya bosh qahramoni universitetda ta’lim olishni yakunlab, maktabda ingliz tilidan saboq beradi. 30 bahorni qarshilagan ayol turmush qurmaganligi bois haftada 1 marotaba o‘zi uchun “ziyofat” tashkil etadi. Eng hashamatli kiyimlarini kiyib, pardoz qilgancha yolg‘iz sayr qilar ekan, hayotidan mamnun zodagon ayoldek ko‘rinishga intiladi. Sobiq mahbubi Xan bilan uchrashib qolgunicha hayoti shu tarzda davom etadi. Sevishgan yoshlar o‘z moliyaviy holatlarini yaxshilash maqsadida o‘ziga to‘q insonlar bilan turmush qurishni istashadi. Aynan shu sababli munosabatlariga nuqta qo‘yishadi. Yillar o‘tib, taqdir ularni, tasodifan, qayta uchrashtirganida yigit shomon qiz bilan turmush qurganligini, hozirda ayolining iqtidori tufayli yo‘qchillik nimaligini bilmay, baxtli hayot kechirayotganligini aytib maqtanadi. Mazkur uchrashuv va sobiq sevgilisining so‘zlari ayolga og‘ir botadi. Uyga qaytar ekan, atrofdagi insonlar uning ustidan kulayotgandek, uni mazax qilayotgandek tuyuladi. Ayol bunga chiday olmay, o‘ziga shikast yetkazadi. Ammo atrofda hech kim unga e’tibor bermay, o‘z yo‘lida davom etadi. Adibaning mazkur hikoyasida koreys xalqi ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatayotgan g‘arb madaniyaning salbiy oqibatlari namoyon bo‘ladi.

Pak Vanso ayollarning kundalik turmushi va ichki ruhiyatini ijtimoiy hayot fonida real aks ettira olgan rassom sifatida baholangan ayol yozuvchilardan biridir. O‘zi yaratgan hikoya va romanlari orqali Koreya urushi, sanoatlashtirish, demokratlashtirish va globallashuv davrida ayollar hayotini tasvirladi, har bir asarida ayollarni bosh qahramon sifatida tanlab oldi. U o‘z tajribalariga sodiq qolgan yozuvchi sifatida tanildi, asosan, urush jarohatlari va o‘rta sinf vakillarining “hayot qonuni” haqidagi salbiy fikr-mulohazalari, ular ongida kechayotgan “hayot falsafasi” haqida yozdi. Turmushning turli chorrahalarida ayollar duch kelgan muammolari fonida Koreya jamiyatining yuzini ifodalovchi ayol obrazlari galereyasini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. U yaratgan ayol obrazlari nafaqat kitobxon, balki tanqidchilar tomonidan ham yuksak baholandi.

“Qora beva” (“흑과부”, 1977) hikoyasida moddiy boylikka intilish insoniy fazilatlarning yo‘qolishi, bu esa, o‘z navbatida, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning darz ketishiga olib kelishi bayon qilina-

[1] Shoir, dramaturg va adabiy tanqidchi, she’riyatda modernizm oqimining yirik vakillaridan birir. 1922-yili Eliotning Injil va Danteona ruhdagi satrlari jamlangan, urushdan keyingi yillarning “Yo‘qotilgan avlod” qarashlarini mujassam etgan “Hosilsiz yer” poemasini e’lon qildi.

[2] Hosilsiz yer – XX asrning eng muhim she’rlaridan biri va modern she’riyatdagi asosiy asarlardan hisoblangan. Eliotning she’ri. ilk marotaba 1922-yili Britaniyaning “The Criterion” jurnali oktabr oyi sonida va Amerikaning “The Dial” jurnalining noyabr oyi sonida, 1922-yil dekabr oyida esa kitob shaklida nashr etildi. She’r 5 qismdan iborat. Birinchi qism olamdan o‘tgan insonlarning dafn marosimlari bilan bog‘liq umidsizlik haqida bo‘lsa, ikkinchi qism “Shaxmat o‘yini” bo‘lib, qator qahramonlarning hayotiy tajribalaridan qisqa epizodlari kiritilgan. Uchinchi “O‘tkir va’z”da Avrelyus Avgustin va Sharq xalqlari e’tiqodi ta’siri ostida o‘lim va o‘zlikni inkor etish masalalari falsafiy nuqtayi nazardan yoritilgan. To‘rtinchi “Suvdan o‘lim” qismida lirik chekinish, beshinchi “Momaqaldiroq nima deydi” qismida esa qoralash tasviri berilgan.

di. Hikoyaning bosh qahramoni obrazida pul fazrandlarining kelajagini yaxshilashi mumkin yagona vositaligini anglab yetgan tom ma'noda "yangi ayol" timsolini ko'rish mumkin. Bosh qahramonining hayot mazmuni pul topishdan iborat. Ayol moliyaviy barqarorlikka erishish orqali jamiyatning quyi qatlamidan chiqib, farzandlari jamiyatda yuqori mavqelarga erisha olishlarini umid qiladi. Bu maqsadga erishish uchun "qora beva" nafaqat o'z hayotini, balki turmush o'rtog'ini ham qurbon qiladi. Adiba hikoya qahramoni "qora beva"ni shu qadar mahorat bilan tasvirlaydiki, kitobxon, bir vaqtning o'zida, pul ketidan quvgan, o'z maqsadiga erishish yo'lida hech nimadan tap tortmagan qahramonga nisbatan nafrat hissini; ikkinchi tomondan esa onalik mehri jo'sh urib turgan, farzandlari uchun o'z jonidan ham kechishga tayyor ayolga nisbatan achinish hissini tuyadi.

"Juftli juftsizlar" ("결혼 한",1977) hikoyasida pul hokimiyati muammosi ko'tariladi. Asar qahramoni yosh ayol hayoti misolida zamonaviy jamiyatda insonlarning moddiy boylikka intilishlari, pul yordamida o'z qobiqlaridan chiqishga harakat qilayotganliklari o'z aksini topgan. Hikoya kontrast asosida qurilgan, ya'ni qahramonning "shaxsiy hayoti" uni o'rab turgan "tashqi hayotga" qarama-qarshi qo'yiladi. Qahramonning shaxsiy hayotida pul muhim ahamiyat kasb etib, insonlar o'z asl yuzlarini niqoblar ortiga yashirishsa, qahramonni o'rab turgan hayotdagi insonlar samimiy hissiyotlarini namoyon etib, pul hukmidan xoli bo'lgan oddiy hayot kechiradilar.

Adiba Pak Vanso boylikka o'ch inson qalbini yolg'izlikka duchor etishini to'g'ridan to'g'ri ifoda etmay, turli ramzlar orqali juda ta'sirli bayon etadi (qahramonning qorong'i, rangsiz, sovuq uyi va muhabbat, iliqlik, ranglarga to'la tashqi olam kabi turli ramzlar keng qo'llanilgan).

Pak Vanso zamonaviy koreys oilalarida muhim deb bilgan katta va kichik avlod o'rtasidagi munosabatni, katta hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarning mustaqil qaror qabul qila olmasliklari kabi muammolarni "Qo'g'irchoqning tushi" ("꼭두각시의 꿈", 1977) hikoyasida yoritib berdi. Zamonaviy jamiyatda insonlar o'rtasidagi munosabatning soxtaligi, ta'lim tizimi tang ahvolda ekanligi kabi fikrlarini an'anaviy buddaviylik motivi "tush" orqali ifoda etadi. Bosh qahramon o'z erkidan mahrum, o'zga insonlar tomonidan boshqariladigan bir "qo'g'irchoq"qa aylanib qolgan. Qahramon tahsil olishi uchun kelgan oliy bilim yurtida uning e'tiborini yo'l yuzida yaxlab yotgan o'quvchilarning quruq suyaklarini eslatuvchi daraxtlar o'ziga tortdi. Qahramon ham boshqa o'quvchilar singari ta'lim olish uchun ana shu yo'lni bosib o'tishi kerak. Pak Vanso o'z qahramonlarini muzlagan tushlar olamida qoldirmaydi, asarini kelajakka umid bilan yakunlashda adiba bahor va iliqlik ramzi harakatdan to'xtagan yoshlarni uyqudan uyg'otadigan ayol obrazidan foydalanadi.

"Ko'rgan kechirganlar haqida qisqa hikoyalar" ("경험에 관한 짧은 이야기",1977) hikoyasi kitobxon va tanqidchilar e'tiborini tortgan asarlardan biridir. Hikoyada 1970-yillar politsiya va sud tizimi tasvirlanadi. Hikoya ichida hikoya adibaning hayoti bilan bog'liq. Hikoya badiiy asardan ko'ra ko'proq huquq sohasidagi korrupsiyani fosh etuvchi maqolani eslatadi. Boshqa hikoyalaridan farqli o'laroq, mazkur hikoyada jamiyatning holati qahramonlar va ularning xatti-harakatlari orqali emas, balki muallif tomonidan bildirilgan tanqidiy fikrlar orqali ochib beriladi. Hikoyada haqiqiy hayotdan olingan "fotosuratlar" uni boshqa hikoyalardan ajratib turadi.

An'anaviy koreys xalqi hayot tarziga zid ishbilarmon ayol obrazi "Oilani men boshqarishim qanday oqibatlarga olib keldi" ("가족을 경영 한 결과는 무엇입니까", 1978) hikoyasida tasvirlanadi. Hikoyada bir oila "ichki" va "tashqi" tomondan tahlil qilinadi. Tashqaridan qaraganda, oila a'zolari o'zaro ahil, inoq, o'z o'rni va vazifasini biladigandek tuyuladi, ammo oilaning asl ichki tomoni uy boshqaruvchisi erkakning yo'qligida, oilani ayol boshqarganda yuzaga chiqadi. Ayol eri tomonidan o'rnatilgan tartibga rioya etishni istamaydi. Qahramon ayol an'anaviy oila tartib qoidalarini o'zgartiradi. "Hayot ta'mi"-ni his etgan ayol uyga qaytgan turmush o'rtog'ini yangi o'zgarishlarni qabul qilishga undaydi. Adibaning boshqa asarlari singari mazkur hikoyada ham muallifning fikrlari ramziy timsollari orqali namoyon etiladi. Xususan, oilada parvarish qilinayotgan mitti qarag'ay oila a'zolari o'rtasida o'rnatilgan "sun'iy" munosabatlarning timsolidir. Adiba oila a'zolarining o'zaro munosabatlari va undagi ayol kishining rolini bayon etishda ayollarning patriarxal jamiyat tartiblarini chetlab o'ta boshlaganliklariga urg'u berib o'tadi.

"Jannat bolalari" ("낙토의 아이들", 1978) hikoyasi insonlar o'rtasidagi iliq munosabatlarning yo'qolishiga sabab bo'layotgan pul hokimiyati haqida bayon qiladi. Hikoya ramzlarga boy. Hikoyada xitoycha "ulin", baxtli insonlar o'z mehnatlari mevasini is'temol qilib yashaydigan hudud "murin" tarzida beriladi. Uzoq sharq mamlakatlari adabiyotida "ulin" – "jannat yerlari" ramziga aylangan. Pak Vansoning

mazkur hikoyasi qahramonlari pul ketidan quvib yashaydigan insonlar obrazida namoyon bo‘ladi. Hikoyada pul hayot mazmuniga aylangan insonlarni tush ko‘rayotganliklari, pul hayotning asl mazmuni emasligi, tezroq “uyg‘onish” kerakligi haqida so‘z boradi. Pak Vanso mazkur hikoyani tushdan uyg‘onishning imkoniyati mavjud, degan fikr bilan yakunlaydi.

Feodal qoloqlik hamda yapon anneksiyasi davrida ayollar oilada uy bekasi edilar, xolos. Fuqarolar urushi davrida esa yuzaga kelgan tarixiy vaziyat sabab ayollar oldida “yangi imkoniyat” eshiklari ochildi. Urush ko‘plab oilalarning tinchligini buzdi va jamiyatda ayollarni harakat qilishga majbur qildi. Ayollar ro‘zg‘ori tebrata boshlashdi, erkak va ayol rolini o‘z zimmalariga olishdi, bir vaqtning o‘zida uy xizmatchisi rolini ham bajarishdi. Ayollar bunday ijtimoiy harakati fonida shaxs sifatida shakllana boshlashdi.

“Urushda qurbon bo‘lgan kunlar” (“전쟁 희생자들의 시대”, 1977) hikoyasida Koreya urushi paytida sodir bo‘lgan voqealar tasvirlangan. Hikoya ikkita alohida hikoyadan iborat. Mazkur hikoyalarning bosh qahramoni sifatida rahm-shafqat hissiyotlarini yo‘qotmagan va boshqalarni qutqarish uchun o‘zlarini qurbon qilishga tayyor katta yoshdagi ayollar beriladi. Pak Vanso mazkur hikoyasi bilan kitobxonlarni axloqiy qadriyatlarni moddiy qadriyatlar bilan almashtirish xavfi haqida ogohlantiradi, bu esa odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda uyg‘unlikning buzilishiga olib keladi.

Mazkur hikoya fuqarolar urushi bilan uzviy bog‘liq. Ammo hikoyada fuqarolar urushi tasvirlangan bo‘lsa-da, urush hikoya yoritib beruvchi bir fon vazifasini o‘taydi, xolos. Hikoyada murakkab vaziyatda ham o‘zida insoniylikni saqlab qolgan va boshqalar uchun o‘zini qurbon qilishga tayyor ayollar haqida hikoya qilinadi.

“Onaning tayanchi” (“엄마의 말뚝”,1981) romani uchun Li San nomidagi mukofotga sazovor bo‘lgan adiba romanda ona taqdiri haqida hikoya qiladi. Shimol va Janub o‘rtasida yuzaga kelgan urush onani vatanidan judo qildi. Ona o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona qishlog‘iga qaytgisi keladi, ammo bu hudud endi Shimoliy Koreyaga qarashli. Ona umrining so‘ngi kuni, so‘nggi nafasiga qadar qishlog‘iga ketish orzusida yashadi, ammo bu kun kelmadi. Aynan mana shu sujet urush haqida asarlar yaratgan Chxve Inxunning “Daydi o‘q” hikoyasida ham mavjud. Hikoyada ona nima sabab o‘ziga tegishli yerlarni shimolliklar tortib olgani, boshqa hududga ko‘chib o‘tishgani sababini anglaymay, ruhiy kasallika chalinadi.

Pak Vanso haqiqiy koreys adabiyoti klassigi hisoblanadi. Uning qator asarlari, jumladan, “O‘sha ayol oilasi” (그 여자네 집) hikoyasi maktab dasturiga kiritilgan. 2000-yili Pak Vanso ijodiga bag‘ishlangan esse va tanqidiy maqolalar to‘plami “Adiba olami” (작가세계) nomi ostida chop etildi.

Koreya urushini o‘z boshidan kechirgan va urush og‘riqlarini davolash maqsadida qo‘liga qalam olgan Pak Vanso o‘zining qator hikoyalari, keyinchalik, avtobiografik romanlarida “urush”ni asosiy mavzu sifatida kiritdi. Shu sababli adiba romanlari ijtimoiy-madaniy, tarixiy ahamiyat kasb etdi. Xususan, adiba ijodi urush sabab ayollar hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlarni ular xarakteriga singdira olgan yangi yo‘nalish yozuvchisi sifatida baholandi. Darhaqiqat, Pak Vansoning barcha asarlarida ayollar kundalik hayot fonida yoritiladi hamda ularning haqiqiy qiyofasi tabiiy ravishda ochib beriladi. Bugungi kunda tadqiqotchilarni adibaning “zamonaviy ayol” qiyofasidagi o‘zgarishlar qiziqtiradi hamda bu tahlil doirasiga tortishda muhim masala hisoblanadi.

1950–1980-yillar Koreyada yuz bergan ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlar, burilishlar ayollar hayotida ham tubdan yangilanish yasagan davr hisoblanadi. Globallashuv jarayonida ayollar hayoti, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va roli masalalari dolzarblik kasb etdi hamda bu Pak Vanso asarlarining asosiy obrazi timsoliga aylandi.

Samarali ijodkor sifatida Pak Vanso o‘z hikoyalarida mavzular doirasini kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Yuqorida keltirib o‘tilgan adiba qalamiga mansub hikoyalarda ayol obrazlarini xususiyatlari bo‘yicha uchta toifaga bo‘lish mumkin: birinchi toifaga mansub ayol obrazlarida mavqe va ziddiyatli masalalar namoyon bo‘ladi; ikkinchidan, ayol obrazlarida yangi ayol qiyofasi kuzatiladi; uchinchidan, davr kishisi munosabatlarida ayol shaxsi shakllanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Adiba yaratgan ayol obrazlarini bunday toifalarga ajratib tahlil qilish Pak Vanso ijodiy olamini tushunishda muhim aspekt hisoblanadi. Hikoya va romanlaridagi ayol obrazlarini ijtimoiy-tarixiy fonda ko‘rib chiqish madaniy o‘zgarishlar davrida ayollarning “yangi qiyofasi”ni anglash imkoniyatini beradi.

Pak Vanso yaratgan asarlarda chuqur hayotiy mazmun, mukammal zamonaviy tartib yoki ajoyib sivilizatsiya hayotiylik va haqiqatga ulanib ketadi. Muallif asarlarida insonning hayotga bo‘lgan tashnaligi bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Pak Vansaning dastlabki yaratgan hikoyalarida tanqid yoki satira yashirin berilgan. Mamlakatda modernizatsiya, urbanizatsiya va sanoatlashtirishning jadal rivoji davrida insonlar o‘r-

tasida yuzaga kelgan ziddiyatli to‘qnashuvlar aynan ayollar obrazida ochib berilgan. Bu davrga kelib ko‘plab adibalar kundalik hayotni badiiylashtirishga harakat qilishdi (Yan Kvi Ja “양귀자”), ammo Pak Vanso kundalik hayotda ayollar rolining oshib borayotganiga e’tibor qaratdi.

Pak Vanso hikoya va romanlarida ayollarni muammolar girdobiga qo‘yib, bundan chiqish yo‘lida u qo‘ygan xatolarni ko‘rsatish va ularga yechim topishga harakat qilmaydi. Ayrim tanqidchilar fikriga ko‘ra, adiba xuddi kundalik hayotda ayolga yetkazilgan zulm va huquqsizlik masalalarini qoralayotgandek tuyuladi, aslida, adiba erkaklar “qurbon” bo‘lgan davrda ayol va onaning, beka va yanganing, qiz va kelinchakning “himoyachi”si yo‘qligiga e’tibor qaratadi.

Pak Vanso asarlaridagi ayol obrazi ma’lum bir davr ijtimoiy fonida yaratilgan. Xususan, sanoatlashtirish davri ayollar obrazi ijtimoiy o‘zgarishlar va muallifning shaxsiy voqealarga munosabati tarzida shakllangan. Bunday ayol obrazlarida erkaklar bilan hamjihatlikka intilayotgan ayol qiyofasi kuzatiladi. Chunki bu davrda qator oilalarda erkaklarning yo‘qligi, muhojirlarning ko‘payganligi, ishsizlik sabab oilada ayolning “boquvchi”ga aylanganligiga e’tibor qaratish kerak.

Urush manzaralari tasviri, bu davrda yashagan kishilarning ruhiy olamini, hissiyotini badiiy talqin etishda bevosita urush davrida yashab ijod qilgan adiblarnikidan fuqarolar urushi boshlanganida ijod olamiga endigina qadam qo‘ya boshlgan yoxud bolaligi urush davriga to‘g‘ri kelgan adiblar tayanadigan estetik tamoyillar birmuncha farq qiladi. Urush davrida yashab ijod qilgan yozuvchilar uchun urush muammosi, u bilan bog‘liq kundalik dolzarb masalalar muhim bo‘lsa, bu haqida bolalik yoki o‘smirlik xotiralariga suyanib asar yozgan adiblar uchun urush o‘ziga xos ma’naviy mezon, insonning insoniyligini o‘lchaydigan, uni sinovdan o‘tkazadigan axloqiy tarozi, deyish mumkin.

Urush haqida mazkur davrda ham, urush tugagandan keyin ham asar bitgan adiblar bu davr ruhini chuqur aks ettira olganliklarini alohida qayd etish lozim. Bunday yozuvchilar zamonaviy koreys adabiyotida butun boshli silsilani tashkil etadi. Jumladan, Li Bom Su “Daydi o‘q” (이 봄 선 “오발탄”) hikoyasida bir oilaning kundalik tashvishi misolida urush oqibatlariga urg‘u bersa, Chxve Inxun (최인훈)o‘zining “Maydon” (광장) romanida fuqarolar urushining xalq turmush tarziga nafaqat jismoniy, balki ruhiy salbiy ta’sirini qog‘ozga tushirdi.

Koreys adabiyoti olamida fuqarolar urushi nasri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mashhur adiba Pak Vanso (박완서)ning bu boradagi xizmatlari tahsinga loyiq. U o‘zining o‘nlab hikoya va romanlarida fuqarolar urushi davri bilan bog‘liq voqealarga turli munosabatlar bilan murojaat qilgan. Bu asarlarining bosh qahramonlarini ayol obrazlari tashkil etadi.

Pak Vanso o‘z ijodining bu yo‘nalishi bo‘lgan harbiy nasrda urushning inson uchun naqadar og‘ir qismat ekanligini bugungi kun kitobxoni uchun his qildiradigan, badiiy yuksak asarlari bilan koreys nasri fondini yanada boyitdi. Fuqarolar urushi davri voqealari Pak Vanso ijodining muhim bir yo‘nalishini tashkil etadi. Shu yo‘nalish bo‘yicha kuzatishlarning o‘zi ham yozuvchi ijodining keyingi bosqichlaridagi izlanish va tajribaning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Urush davri haqidagi asarlar bosh qahramonlari ayol obrazlarida “urush” va “bo‘linish” kabi masalalar ayol olamining ichki ruhiyati orqali bayon qilinadi. Adibaning urush xotiralari va kechinmalari ayniqsa, yanga va ona obrazida qayta-qayta aks etadi. Patriarxal tartibdan yiroq qiz va opa-singillar kutilmagan hayot zarbasi oldida fojia bilan yuzma-yuz keldi. Koreya urushi davrini boshdan kechirgan Pak Vanso avlodi vakillari – ayollar shafqatsiz va tartibsizliklar oldida o‘zlarida yashashga kuch topa olishdi, kurashishdi. Ammo urush jarohatlari ularning qalbida chandiq bo‘lib qoldi. Bu haqida adibaning o‘zi shunday yozadi:

“죽이지 않으면 죽게 돼 있는 전쟁을 동족끼리 한다는 것은 끔찍한 일 이었다. 적은 피부색이나 언어가 다른 이민족이 아니 라 그냥 공산당이었다. 국군과 함께 적의 수중에서 우리를 구해준 UN군도 고마웠지만 독립된 정부가 있음 으로써 그런 도움을 받을 수가 있었으니 나라 있음이 야말로 얼마나 감격스러운 일인지 몰랐다”.[1]

“*O‘ldirmasang, seni o‘ldiradigan urush bir millat o‘rtasida bo‘lishi dahshat edi. Dushman irqi yoki tili boshqa bo‘lgan begona millat emas, shunchaki kommunistik partiya edi. Milliy qo‘shin bilan bir-*

[1] 박완서. 그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까.(주)도서출판 세계사, 2012. 365-366.쪽.

ga bizni dushman qo‘lidan qutqargan BMT qo‘shiniga ham rahmat, ammo mustaqil mamlakatga ega ekanligimiz bois shunday yordam oldik”.

Bosh personaj uyi tintuv qilindi, Kelinoyisi ko‘zi yorigani, onasi qariligi sabab uni qamoqqa olib ketishdi. Qamoqxonada cheksiz haqoratlar, tazyiq va mazaxlar evaziga qamalmadi. Ammo ular “kommunist qiz”ni hasharot kabi ermak qilishdi, vaqt o‘tib, bosh personaj xotirasida qamoqxona xodimlari hasharot kabi gavdalana boshladi. Bu nafaqat jismoniy, balki ruhiy zo‘riqish natijasi edi.

Mahmudov Alisher Yo‘ldoshevich (Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD;
e-mail: alischer-2473@mail.ru)

G.E.LESSING IJODIDA INSONPARVARLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARI TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada XVIII asrda nemis ma’rifatparvari G.E.Lessing ijodida insonparvarlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyalarining axloqiy va didaktik uslubda yoritilishi ko‘rib chiqildi. Yozuvchi asarlaridagi matnlarni tadqiq qilish orqali sharqona mavzularga yoki sayohatnoma tarzida turli intellektual, diniy, individual, psixologik, biografik talablar hamda motivlar o‘rganib chiqildi va tahlil qilindi. Lessingning “Donishmand Natan” dramasida insonparvarlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyalari tahlilida hukmdorning ideal qiyofasi sharqona obraz tomonidan tasvirlangani ko‘rinib turadi. Ma’rifatparvarlik g‘oyalari ifodalangan kontekstda sharqona tasvir va tahlillardan millatlaroaro totuvlik va diniy bag‘rikenglik tushunchalarini anglash mumkin.*

Аннотация. *В статье рассматривается нравственно-дидактическое освещение идей гуманизма и веротерпимости в творчестве немецкого просветителя Г.Э.Лессинга в XVIII веке. Путем изучения текстов в произведениях автора изучались и анализировались различные интеллектуальные, религиозные, индивидуальные, психологические, биографические потребности и мотивы на восточные темы или в форме травелогов. В пьесе Лессинга «Мудрый Натан» анализ представлений о человеколюбии и веротерпимости показывает, что идеальный образ правителя изображает восточный образ. В контексте, в котором выражаются идеи Просвещения, понятия межэтнического согласия и веротерпимости могут быть поняты из восточных образов и анализов.*

Annotation. *The article deals with the moral and didactic coverage of the ideas of humanism and religious tolerance in the work of the German writer G.E.Lessing in the 18th century. By studying the texts in the author’s works, various intellectual, religious, individual, psychological, biographical needs and motives on oriental themes or in the form of travelogues were studied and analyzed. In Lessing‘s play “The Wise Nathan”, an analysis of ideas about philanthropy and religious tolerance shows that the ideal image of a ruler depicts an oriental image. In the context in which the ideas of the Enlightenment are expressed, the concepts of inter-ethnic harmony and religious tolerance can be understood from Eastern images and analyses.*

Kalit so‘zlar: *insonparvarlik, diniy bag‘rikenglik, axloqiy va didaktik uslublar, sharqona mavzu, sayohatnoma, intellektual, diniy, individual, psixologik, biografik talablar, millatlararo totuvlik.*

Ключевые слова: *гуманность, веротерпимость, нравственно-дидактические приемы, ориентальная тематика, путешествия, интеллектуальные, религиозные, индивидуальные, психологические, биографические потребности, межнациональное согласие.*

Keywords: *humanity, religious tolerance, moral and didactic techniques, oriental themes, travel, intellectual, religious, individual, psychological, biographical needs, interethnic harmony.*

Lessing diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini ko‘pgina Sharqqa oid tarixiy manbalardan o‘rgandi. Shulardan biri Volter asarlarida yoritilgan din haqidagi tarixiy voqelik va sulton Salohiddin siymosidir. Volterning o‘z asarlarida tarixiy va tabaqaviy ifodasi kitobxonlarga Sharq madaniyatining qadr-qimmati va Muhammad payg‘ambar haqidagi ma’lumotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu haqda Kushel shun-

day yozadi: “Bu yerda payg‘ambar shaxsiga va erishgan yutuqlariga alohida baho berilgan va shu bilan birga, Volterning tanqidiy qarashlariga loyiq e’tiroz bor”.[1]

Volter o‘zining “Salib yurishlari tarixi” nomli essesida musulmonlarga nisbatan nasroniylarni taqqoslab, quyidagilarni yozadi: Salohiddin o‘z diniga e’tiqodi sodiqligidan qat’iy nazar, sharqdagi nasroniylarga o‘z cherkovlarini qaytarib berdi. Agar bu borada nasroniylar Quddusni ishg‘ol qilganlarida, afsuski, buning teskarisini ko‘rish mumkin edi,[2] ya’ni, nasroniylar musulmonlarni boshiga ne-ne kulfatlarni solishi turgan gap edi. Aytish mumkinki, nasroniylar ommasi 1099-yilda musulmon ahlining bir qismini qirib tashlagan edi.[3]

Lessing qay bir din ustunligi borasidagi kurash – “Salib yurishi tarixi” asari haqida to‘xtalib o‘tgan. 1171-yildan 1193-yilgacha Sulton Salohiddin hukmronligi ostidagi salib yurishi tarixini Lessing to‘liq o‘rganib chiqadi.[4]

Lessingning 1750–1751-yillarda “Qur’on”, “Muhammad” tragediyasi va “Salib yurishlari tarixi” nomli esselari haqidagi tarixiy manbalarning tarjimasi orqali Volter o‘zining islom madaniyati haiqda salbiy fikr bildirganligi va u bu borada nohaq ekanligini ilk marta ochiq-oydin tan oladi.[5] Diniy bag‘rikenglik g‘oyalariga salbiy qarashlarni bartaraf etish uchun ommaga, ayniqsa, nemis dramaturgi Lessingga islom madaniyati haqidagi ijobiy holatni ko‘rsatish uchun u (Volter – A.M.) islom madaniyati va Muhammad payg‘ambarga o‘zining fikr va qarashlarini ifodalagan: “Uni ajablantirgan kishi bosh rohib, qozi (qonun chiqaruvchi) va mustabid monarx edi. Bu unga hech qachon tobe bo‘lmagan va bo‘ysunmagan Yaqin va O‘rta Sharq hamda Eron mamlakatlaridagi Rim imperiyasiga birinchilardan bo‘lib ta’sir o‘tkazgan Sharq millatiga mansub kishi edi. Men uning o‘z yurtida tinchlik saqlab turganiga qoyil qolganman. U Yevropaning bir qismi, Osiyoning yarmi va Afrikaning deyarli barcha qismidagi vaziyatni keskin o‘zgartirib yubordi. Lekin bu bilan dunyo uning zulmi ostida qolib ketdi degani emas edi”.[6]

Sharqona voqelikni Lessing “Donishmand Natan” dramasida ta’kidlaydi va sulton Salohiddinning diniy bag‘rikenglikka oid qarashlarini dramada e’tirof etadi:[7]

”Ein junger Tampler, der (...) Saladin begnadigt hatte”.

“Yosh rohib (…) Salohiddinni afv etgan” (tarjima bizniki – M.A.).

Bu yerda Lessing qarashlari – Salohiddinning islom dini himoyachisi sifatida insonparvarlik va diniy bag‘rikenglik tushunchalarini ilgari surgani holda, Gvido Lusignanga qarshi kurashi nafaqat nasroniy din vakillari uchun, balki butun Yevropa madaniyati rivoji uchun xizmat qilishini nazarda tutgan edi. Shu bilan birga, Salohiddinning haqiqiy musulmonga xos ko‘rinishi va nasroniylarning ruhiy kechinmalari hech mubolag‘asiz holatda tasvirlangan.[8]

Maqolamizda XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmi o‘rtalarida tolerantlik g‘oyasining axloqiy va didaktik uslubda yoritilishini ma’rifiy asarlardagi matnlarni tadqiq qilish, dastlab, sharqiy mavzularga yoki sayohatnoma tarzida turli intellektual, diniy, individual, psixologik, biografik talablar hamda motivlarni o‘rganib chiqiladi va tahlil qilinadi. Ba’zi hollarda, hatto sharqona she’riyat paydo bo‘lgan siyosiy fon ham katta ahamiyatga ega. Masalan, Gotthold Efraim Lessingning “Donishmand Natan” dramasida insonparvarlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyalari tahlili Sharqqa qaratilganda yoki Kristof Martin Vilandning “Oltin ko‘zgu” asaridagi hukmdorning ideal qiyofasi sharqona obraz tomonidan tasvirlanganida, bu yaqqol ko‘rinib turadi. Ma’rifatparvarlik g‘oyalaridan kelib chiqqan holda, ikkala muallif ham o‘zlarining davlat va ijtimoiy muhitni bilvosita tanqid qilishadi. Sharqning hududiy va masofaviy uzoqligi, despotizm va murosasizlikni tanqid qilish imkonini berdi. O‘sha davrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari ifodalangan kontekstda sharqona tasvir va tahlillarga e’tibor qaratilsa, millatlaroaro totuvlik va diniy bag‘rikenglik tushunchalarini anglash mumkin. Adabiy asarlar va tarjimalarda ko‘pincha mustaqil,

---

[1] Kuschel Karl-Josef. Vom Streit zum Wettstreit der Religionen. Lessing und die Herausforderung des Islam. Düsseldorf , 1998, s. 86.

[2] Mayer H.E. Geschichte der Kreuzzüge. Stuttgart, 2000, s. 79.

[3] Lessing. Nathan der Weise. Ein dramatisches Gedicht, mit Erläuterungen. München, 1997, s. 198.

[4] Siegfried Seidel. Gotthold Ephraim Lessing. Eine Einführung in sein Leben 1729–1781. Berlin, 1963, s. 130.

[5] G.E.Lessing. Übersetzungen aus dem Französischen Friedrichs des Großen und Voltaires. Hrsg. v. E.Schmidt. Berlin, 1882, s. 173 – 205.

[6] G.E.Lessing. Übersetzungen aus dem Französischen Friedrichs des Großen und Voltaires. Hrsg. v. E. Schmidt. Berlin, 1882, s. 133.

[7] Jager Ludwig. Gotthold Ephraim Lessing, Nathan der Weise’. Salzburg, 1984, s. 79.

[8] Mahmudov A. G.E.Lessing ijodida Sharq va G‘arb voqeligining tavsifi (qiyos va tarjima). f.f.f.d.diss., Buxoro, 2020, 36-bet.

poetik jihatdan mukammal Sharq tasvirlangan bo‘lsa, nazariy asoslarda Sharq mavzularining o‘zlashtirilishi ko‘proq seziladi va Sharq Yevropaga nisbatan intellektual jihatdan ustunligi tasvirlangan. Lessingning diniy-tanqidiy qo‘lyozmalari ham xuddi Viyeland Agatonning asarlari kabi nashr qilinishi senzura bilan taqiqlangan edi.[1]

Dunyo adabiyotining xilma-xilligi yuksak madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va adabiy aloqalar asrlar davomida davom etib kelgan. O‘sha davr Sharq huquqshunoslari va dinshunoslari boshqa dunyo madaniyatlariga ta’sir ko‘rsatishda juda katta rol o‘ynagan. Musulmonlar, dinlararo bag‘rikenglik masalasi mavjud ekanligi boshqalar – nasroniylar va yahudiylar bilan Quddusni bosib olgandan keyin (1187) Sulton Salohiddinning harakatlari va fikrlarida aniq aks etgan. Allaqachon islomda bag‘rikenglik tamoyili tufayli u turli dinlarga mansub odamlarga birlashgan, birga totuv yashashga kirishgan. Bu sharqona munosabat XVIII asrda G‘arbiy Yevropa ma’rifatparvarlik adabiyotida bag‘rikenglik tamoyiliga mezon sifatida ishlatiladi. Nemis ma’rifatparvari G.E.Lessing madaniy va diniy muloqot masalalari hamda diniy bag‘rikenglik masalalari bilan shug‘ullanadigan ko‘pchilik uchun vositachiga aylandi. Lessingning islom tamadduni xususida shakllangan qarashlari, keyinchalik, adabiyot fani sohasida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning diniy bag‘rikenglik borasidagi qarashlari, yozgan asarlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Germaniyalik olim Tomas Dresler bunday yozadi: “Shuni tan olib aytish kerakki, men bu mavzu ustida birinchi bor shug‘ullanar ekanman, mavzuga oid ko‘p ilmiy va badiiy asarlarni o‘rganib chiqdim. Shunday ekan, Lessingning yahudiylik, nasroniylik va islom dinlariga munosabatlari haqida ilmiy tahlil va tadqiqotlar bo‘yicha “Insonparvar dramaturgiya” (“Dramaturgie der Menschheit”) nomli kitob yozdim”.[2] “Lessing va Islom” mavzusi ustida xolisona bahs yuritayotgan paytda olim o‘zining nasroniylik va yahudiylikka doir adabiy va diniy qarashlarini bayon qiladi. Shu bilan birga, muallif bu kitobida Lessingning dinlar haqqoniyligi haqidagi fikrlari bilan yaqindan tanishtiradi.

“Donishmand Natan” dramasida oliyjanoblik xislatiga ega bo‘lgan islom dini vakili – sulton Salohiddin, Zitta, Al-G‘ofiydan ko‘ra ko‘proq yahudiy Natan haqida bayon etilgan. Adabiyotshunos olimlar va teatrshunoslar Lessingning yahudiy, nasroniy va islom dinlariga bo‘lgan munosabatlaridagi haqiqatni yoritmaslikka harakat qildilar. Ular ilmiy tahlil va talqinlari orqali kitobxon va tomoshabinlarga taxminlar sifatida uqdirib kelishdi. Bu drama voqealari Quddus shahrida salib yurishlari davrida sodir bo‘lib o‘tgani, musulmonlarning sulton Salohiddin dono va adolatli kishi sifatida gavdalanganiga ular kam e’tibor berishgan. Bunda Natan siymosi nafaqat yahudiy, balki islom diniga bo‘lgan salbiy munosabatni ham anglatadi deb kitobxon va adabiyot ixlosmandlariga noto‘g‘ri ma’lumot berishgan.

Xulosa qilib aytganda, Lessingning tolerantlik g‘oyasiga munosabati asosida madaniyatlar tarixini o‘rganish masalasi yotadi. Lessing badiiy ijodining mazmun va mohiyati haqqoniylikka qaratilgan. Adib ijodi nafaqat Germaniya, balki jahon adabiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Lessing ma’rifatparvarlik va tolerantlik masalalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun hamda dinlar o‘rtasidagi munosabatlar – yahudiylik, nasroniylik va islom dinlarini o‘zaro yaqinlashtiruvchi ma’rifatparvarlik g‘oyalari va tamoyillarini kashf etdi. Lessingning tolerantlik g‘oyasiga munosabati asosida madaniyatlar tarixini o‘rganish masalasi yotadi. Lessing badiiy ijodining mazmun va mohiyati haqqoniylikka qaratilgan. Adib ijodi nafaqat Germaniya, balki jahon adabiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Рўзимбоев Беҳзод Сафарбоевич (Урганч Давлат университети)

ОГАҲИЙ ТАРЖИМАСИДАГИ “ГУЛИСТОН” АСАРИДА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ИСТИЛОҲЛАР ТАРЖИМАСИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ

Аннотация. *Мақолада Муҳаммад Ризо Огаҳий таржимасидаги “Гулистон”да ижтимоий-сиёсий истилоҳлар таржимасидаги ўзига хосликлар подшоҳ тушунчасини англатувчи айрим сўзлар мисолида аслият тили билан қиёсланган ҳолда очиб берилган.*

Аннотация. *В статье раскрываются особенности перевода социально-политических терминов в переводе «Гюлистан» Мухаммада Ризы Огахи на примере некоторых слов, означающих царя, по сравнению с языком оригинала.*

[1] Metzler J.B. Deutsche Literaturgeschichte. Von den Anfängen bis zur Gegenwart. 2013, s. 118.
[2] Dressler Thomas. Dramaturgie der Menschheit – Lessing. Stuttgart. Metzler, 1996, p. 39.

Annotation. *The article reveals the peculiarities of the translation of socio-political terms in "Gulistan" translated by Muhammad Riza Ogahi on the example of some words meaning the king, compared with the original language.*

Калит сўзлар: *таржима, аслият, ижтимоий-сиёсий лексика, истилоҳлар таржимаси.*

Ключевые слова: *перевод, оригинальность, общественно-политическая лексика, перевод терминов.*

Key words: *translation, originality, socio-political vocabulary, translation of terms.*

Шайх Саъдий Шерозийнинг "Гулистон" асарининг Огаҳий таржимаси қанчалик фазилатларга эга эканлигини англаш, ўзига хосликлари илғаш, лисоний характерини яна ҳам чуқурроқ билиш учун унинг дунё тилларига таржималари ҳақида ҳам маълумот бериб ўтиш лозим. Жумладан, усмонийлар даврида "Гулистон"нинг камида таржимаси 7 марта амалга оширилган бўлиб, уларнинг энг қадимийси 1391 ҳижрий йилга тўғри келади.[1] Асарнинг усмонли турк тилига таржималарини алоҳида мавзу сифатида ўрганиш эса мақсадга мувофиқ саналади. Ушбу мақоланинг мақсади "Гулистон" асарининг эски ўзбек тилига Огаҳий томонидан қилинган таржимасини ўрганиш ҳисобланади.

Форс адабиёти намуналарини эски ўзбек тилига таржима қилишда ҳар иккала тилда ҳам бир хил шакл ва деярли бир хил маънога эга бўлган бирликларнинг бир қисмини ижтимоий-сиёсий истилоҳлар ташкил қилади. Чунки ҳар иккала тилдан бир-бирига ўзлашган жуда кўплаб ижтимоий-сиёсий терминлар мавжудлигини эътироз қила олмаймиз. Илмий адабиётларда, асосан, форс тилидан ўзбек тилига ўзлашган сўзлардан баҳс кетган бўлса ҳам, ўзбек тилидан форс тилига ўзлашган сўзлар миқдори ва салмоғи ҳам кам эмас.[2] Жиддийроқ эътибор бериладиган бўлса, иккинчи томондан ҳар иккала тилга ҳам араб тили сезиларли таъсир ўтказганлиги маълум бўлади. Шу омил орқали ҳам ҳар иккала тилда бир хил шакл ва яқин маъноли қатор истилоҳлар пайдо бўлган. Шу ўринда, ўз навбатида, араб тилига ҳам туркий сўзлар катта миқдор ва салмоқда ўзлашганини қайд этиш лозим.

Ўзбек тили лексикасига араб тилининг таъсири, хусусан, арабий ўзлашмалар борасида қилинган ишлар анча. Бу мавзудаги илмий ва илмий-оммабоп ишлар, шунингдек, тилшуносликдан бошқа соҳадаги ишларда айрим терминлар шарҳи муносабати билан айтиб ўтилган фикрлар кўлами ниҳоятда катталаги ва мутахассисларга яхши маълумлиги боис махсус тўхталиб ўтишга эҳтиёж йўқ, деб ҳисоблаймиз.

Араб тилида туркий сўзлар масаласи ўзбек олимларидан Э.Талабовнинг айрим ишларида кўзга ташланса, турк олимларидан Атеш Аҳмед, Айташ Бедриттин, Муҳаммед Бен Женеб, Муҳаммед Аҳмед Дуҳман, Аҳмед Фуад Мутавелли каби олимларнинг тадқиқотларида махсус ўрганилган.[3] Турк олими Закий Кайнак бу борада олиб борилган тадқиқотлар натижасини умумлаштириб, араб тилига туркийдан ўтган арабча кўплик шаклларга солинган ҳолатда қўлланувчи сўзларни "Араб тили тарихий лексикасидаги туркий сўзлар" ва "Бугунги араб тилидаги туркий сўзлар" тарзида икки гуруҳга ажратган ҳолда алифбо (араб тили алифбоси) сирасида беради.[4]

---

[1] https://tarjomic.com/blog/2020/04/20;
https://www.aftabir.com/articles/view/art_culture/literature_verse/c5c1240310521_sadi_p1.php/

[2] Ахмедов Б., Мукминова Р. Тюрко-монгольские заимствования персоязычных хроник XV–XVIII вв. "Советская тюркология", 1987, №6, с. 37 – 45; Умаров Э. Тюркская лексика в персидских фархангах. "Советская тюркология", 1981, №3, с. 10 – 14.

[3] Ateş Ahmed. "Arapça Yazı Dilinde Türkçe Kelimeler (X.Yüzyıla Kadar)". Reşit Rahmeti Arat İçin, TKAE. Yay. Ankara 1966, ss. 26 – 31; Ateş Ahmed "Arapça Yazı Dilinde Türkçe Kelimeler Üzerine Bir Deneme II (XI. Yüzyıldan Bugüne Kadar)". Türk Kültürü Araştırmaları, Yıl II, Sayı 1–2, Ankara, 1965, ss. 5–25; Aytaç Bedrettin. Arap Lehçelerindeki Türkçe Kelimeler, Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı Yayınları, İstanbul, 1994; Cheneb, Mohammed Ben, "Cezayir Konuşma Dilinde Muhafaza Edilen Türkçe ve (Türkçe Aracılığı İle Gelen) Farsça Kelimeler" (Çeviren: Ahmed Ateş). TDAY-Belleten, 1966, s. 157 – 213; Duhman Muhammed Ahmed. Dictionary of Historical Mamluk's Words and Expressions, Dar al-Fikr, Damaskus, Syria, 1990; Halasi-Kun, T. The Ottoman Elements in the Syrian Dialects II, Archivum Ottomanicum, Tomus V, Anno, 1973; Mütevelli Ahmet Fuat. "Arap Halk Dilinde Türkçe Kelimeler", Türk Halk Edebiyatında ve Folklorunda Yeni Görüşler II, Konya Kültür ve Turizm Derneği Yayınları, Konya, 1985.

[4] Kaymaz, Zeki. Arapçaya Giren Türkçe Kelimelerin Arapça Kurallarla Çokluk Şekilleri Üzerine / Turkish Studies – Türkoloji Araştırmaları Volume 2/2 Spring 2007. SS. 405 – 409.

Артур Жеффири “Қуръони карим”да ўзлашма сўзлар” (The Foreign Vocabulary of the Qur’an, Oreiental Institute, Barda, 1938) арабларнинг хорижий сўзларга арабча шакл беришга усталигини ўз ҳаётидаги бир мисол орқали ёритиб беради.[1] Масалан, китобнинг 85 (83)-бетида غساق сўзининг туркий экани ҳақида сўз боради.

Мулоҳазамизни мисоллар билан давом эттирамиз. Масалан, *султон* сўзи ҳар иккала тилда ижтимоий-сиёсий истилоҳ сифатида деярли бир хил маъно бергани учун таржимада айнан қолиши табиий эди.

Аслиятда:

«ذوالنون بگريست و گفت : اگر من خداي را عزوجل چنين پرستيدمي كه تو سلطان را ، از جمله صديقان بودمي.»

Огаҳий таржимасида: “Ул чоғда Зуннун йиғлаб, айтди: “Сен султонға парастиш қилғандек, мен Яздонға парастиш қилсам эрди, сиддиқлар жумласидин бўлур эрдим”.

Эски ўзбек тилида, хусусан, Огаҳий асарлари тилида мутлақ ҳукмдор маъносини берувчи *хон, хоқон, қайсар, шоҳ, шаҳриёр, подшоҳ, хусрав, султон, ҳоким, амир, волий, кадхудо, тождор* каби тарихий терминлар ишлатилганини кўрамиз.[2] Шунинг учун Огаҳий таржима жараёнида уларни бир-бири ўрнида бериб борган жумлалар мавжуд. Масалан, аслиятда:

هر كه *شاه* آن كند كه او گويد
حيف باشد كه جز نكو گويد

Огаҳий таржимасида: “Эйки, султон оллида сўзинг топибдур эътибор, Яхши сўз айтурни пеша қил ўзингга зинҳор”. *Султон* сўзининг Огаҳий таржимасида берилишининг эътиборли жиҳатларидан бири қуйидаги парчада аслиятда бўлмаган *султон* сўзи Огаҳий томонидан таржима жараёнида киритилган.

Аслиятда:

«يكى از ملوك خراسان ، محمود سبكتكين را در عالم خواب ديد كه جمله وجود او ريخته بود وخاك شده مگر چشمان او كه همچنان در چشمخانه همي گرديد و نظر مي كرد»

Огаҳий таржимасида: “Хуросон подшоҳларидин бири *султон* Маҳмуд Сабуктегинни вафотидин юз йил ўткандин сўнг тушида кўрдиким, барча аъзоси туфроқ бўлмишдур, магар икки кўзи тирик кишининг кўзидек хонасида айланиб, ҳар тарафга назар қилур”.

Бизнингча, ушбу ҳолат таржимада муаллиф ва таржимон қарашлари бир-бири билан қайсидир даражада тўқнашуви ва унинг асардаги асари (изи) масаласига эътиборимизни тортади. Саъдий бу ўринда Султон Маҳмудга нисбатан ўз қонуний унвонини зикр қилмаслиги катта эҳтимол билан Маҳмуд Ғазнавий шахсига форсийзабонлар ёки шахсан муаллиф муносбатининг бир қадар аксидир. Огаҳий ҳам тарих ва тарихий шахсларга ўз нуқтаи назарини аслият матнига бир сўз – истилоҳни қўшиш билан ифода этиб турибди. Қуйидаги парчада аслият тилидаги жумланинг муаллиф гапи қисмида Султон Маҳмудга нисбатан *султон* ишлатилмагани (эътиборлиси Огаҳий бу ўринда ҳам *султон*ни қўшган), кўчирма гап қисмида эса ишлатилгани эътиборимизни тортади. Аслиятда:

تني چند از بندگان محمود گفتند حسن ميمندي را كه *سلطان* امروز تو را چه گفت در فلان مصلحت ؟

Огаҳий таржимасида: “*Султон* Маҳмуднинг бандаларидин бир нечаси Ҳасан Маймандийдин сўрдиларким: “*Султон* бу кун фалон маслаҳатда на сўз сенга деди?” (ГОТ, 94[a])

Мана шу ҳикоят якунидаги хулоса байтдаги *шоҳ* сўзи таржимада ҳам айнан шундай ўгирилган. Аслиятда:

نه سخن كه برآيد بگويد اهل شناخت
به سر شاه سر خويشتن نبايد باخت

Огаҳий таржимасида:

На сўз эшитса ани демакдур оқил иши,
Ки шоҳ сиррини деб, бошини берурму киши?

Этимологик тадқиқ *шоҳ, шаҳриёр, подшоҳ* сўзларининг келиб чиқиш жиҳатидан ўзаро боғлиқлигини кўрсатади. *Шоҳ* شاه паҳлавий тилида *shâh*, қадимги форс тилида *xshayathiga* шаклида бўлган.[3] Огаҳий таржимасида ҳам бу сўзлар кўпгина ўринларда бир-бирига синоним сифатида ишлатилган. Масалан, аслиятда:

پادشاهی پسر به مكتب داد

---

[1] جفري ارتور. واژه های دخيل در قرآن كريم. ترجمهء دكتر فردون بدره ای (ويرايش جديد) انتشارات توس ۱۳۷۳

[2] Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс ..,Тошкент, 2018, 28-бет.

[3] شمس الدين محمد بن خلف تبريزی . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. ۱۳۸٦ . جلد ۳.ص ۱۲۳۱.

لوح سيمينش بر كنار نهاد
بر سر لوح او نبشته به زر
جور استاد به ز مهر پدر

Огаҳий таржимасида:
Йиборди ўғлини мактабга бир шоҳ,
Кумуш тахта бериб, ул навъким моҳ.
Ҳамул тахта бошиға ёзди зардин:
“Муаллим жаври беҳ меҳри падардин”.

Ушбу ўринда таржимон *подшоҳ* ўрнида *шоҳ* сўзини ишлатиш орқали *моҳ (ой)* сўзига вазн (ўлчам) мос сўз топади. *Шоҳ* ва *моҳ* сўларининг вазн ҳамда оҳангдаги тўла мослиги орқали мутаржим аслиятда лавҳ (ўқув қуроли)га нисбатан ишлатилган *сиймин (кумуш)* ифодасини *ул навъким моҳ* (*худди ой каби*) бирикмасига айлантиради.

Яна бир эътиборли жиҳати шуки, Огаҳий форс ва ўзбек тиллари учун умумий ва деярли бир хил маъноларга эга сўзларни ҳам катта мулоҳа ва эътибор билан ишлатган. Масалан, аслиятда *худованд* сўзи 35 марта ишлатилган бўлса, таржима бу сўз 2 марта қўлланган. Маълумки, мумтоз адибларимиз тилида “подшоҳ” маъносини ифодаловчи *худованд* сўзи ҳам учрайди. Мазкур сўзнинг биринчи қисми бўлган *худо(й)* сўзи, ёзма манбаларга кўра, паҳлавий тилида *xvatay*, ашконийлар даври паҳлавийсида *xvatadh*, ўрта давр форс тилида *xvadai* шаклида бўлган. Баъзи тадқиқотчилар уни авестовий *xvadhaya (hudhaya)* сўзидан келиб чиққан, деб ҳисоблашади. Лекин Бартоломэ, Дармсьтетр, И.Пурдовуд каби авестошунослар бу сўзни санскрит тилидаги *svatas+ayu* (ўз-ўзидан тирик) ёки *svatas+adi* (ўз-ўзидан бошланувчи) сўзларидан олинган, деб талқин қилишади.[1] Ушбу талқин лисоний жиҳатдан ҳам, мантиқан ҳам ҳақиқатга яқин кўринади. “Авесто”да *тангри, худо* маъноларида, кўпинча, *ahura* сўзи ишлатилган.[2] “Бурҳони қотеъ”да *худо* сўзига *“худ о*” (ўз-ўзидан юзага келган)нинг қисқаргани, деб ҳам изоҳ берилади.[3] Мир Жалолиддин Каззозий ёзишича, *худой (худо)* паҳлавий тилида *xvatay* бўлган ва *бошлиқ; подшоҳ* маъноларини берган. Шунинг учун ҳам паҳлавий ёдномаларидан бири “Хватайномак” “Шоҳнома” деб таржима қилинади.[4] Кейинчалик бу сўз илоҳ маъносини касб этган. Мазкур сўзнинг дастлабки маъноси *кишвархудо, деҳхудо, хонахудо, кадхудо, Туронхудо* сўзлари таркибида сақланиб қолган. Шунингдек, *худованд* ҳам даставвал подшоҳ, бошлиқ, етакчи маъноларини англатиб, кейинчалик илоҳ мазмунини касб этган.[5] Форс тили учун бу сўзнинг *подшоҳ, эга, соҳиб* маънолари меъёрий бўлса, Огаҳий ўзбек тилида унинг илоҳ тушунчаси англатиши бирламчи экани, ўзбек ўқувчиси бу сўзни, гарчи қайд этилган маънода мумтоз адибларимиз, жумладан, Алишер Навоий асарларида ҳам ишлатилган бўлишига қарамасдан, юқоридаги маъноларда қабул қилиши анча “оғир” эканини эътиборга олган. Масалан, асарнинг ўлимга ҳукм қилинган банди ҳақидаги машҳур ҳикоятда биринчи вазир подшоҳга аслиятда اي خداوند (эй худованд) деб мурожаат қиладики, Огаҳий уни “Эй подшоҳи олам” деб ўгиради. Ҳатто айрим жойларида ушбу сўзни таржимасиз қолдирган. Масалан, аслиятда:

«يكي از ملوك عرب رنجور بود در حالت پيري و اميد زندگاني قطع كرده كه سواري از درآمد وبشارت داد كه فلان قطعه را به دولت خداوند گشاديم»

Огаҳий таржимасида: “Ул ҳолда бир киши эшигидин кириб, башорат еткурдиким, фалон қалъани сизнинг давлатингиз зўри била ва лашкарингиз қуввати била фатҳ ва душманларингизни асиру дастгир қилдуқ”.

Кўринадики, ижтимоий-сиёсий истилоҳларнинг таржимада берилишиги таржима назарияси ва амалиётига оид кўпгина факт ва мулоҳазаларни тақдим қилади.

Abdullayeva Surayyo Babojonovna (UrDU tayanch doktoranti)

SOG‘LOM DINIY E’TIQODNING SHAXS KAMOLOTIDAGI O‘RNI

[1] شمس الدين محمد بن خلف تبريزى . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. ١٣٨٦ . جلد٢.ص ٧١٨.
[2] اوستا. مترجم جليل دوستخواه. تهران. مروارید. ١٩٩١م.ص. بيست و چهار.
[3] شمس الدين محمد بن خلف تبريزى . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. ١٣٨٦ . جلد ٢.ص ٧١٨.
[4] Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс..,Тошкент, 2018, 108–109-бетлар.
[5] كزازى مير جلال الدين. نامه باستان. جلد ١. تهران. سمت . ١٣٧٩ . ص. ١١٨

Annotatsiya. *Maqolada sog‘lom diniy e’tiqodning inson hayotida tutgan o‘rni, e’tiqodni mustahkamlashga yordam beruvchi asarlar, ularning tahlili va misollar bilan izohlangan. Maqolada sog‘lom diniy e’tiqodning namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari taqdim qilinadi.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль здоровой религиозной веры в жизни человека. Приведены примеры из произведений, которые помогают укрепить веру. В статье представлены показатели проявления здоровой религиозной веры.*

Annotation. *The article discusses the role of healthy religious beliefs in human life. Works that help to strengthen the faith are explained by their analysis and examples. The article presents indicators of the manifestation of a healthy religious faith.*

Kalit so‘zlar: *e’tiqod ko‘rsatkichlari, sura, din, odob-axloq, aqida, ta’lim-tarbiya.*

Ключевые слова: *показатели веры, сура, религия, нравы, вероучение, образование.*

Keywords: *indicators of faith, sura, religion, morals, creed, education.*

Ota-onangni hurmat qil. Ota-onangga yaxshilik qil. Bu so‘zlarni eshitganimizda o‘zimizda aybdorlik, mas’uliyat hissi bizni chulg‘ab oladi. Inson qalbida ota-onaga yaxshilik qilish faqat ularning manfaati uchun bo‘ladi degan fikr o‘tishi, tabiiy. Aslida-chi? Alloh taolo Quroni karimning bir necha suralarida ota -onaga yaxshilik qilish, ularga ehtirom ko‘rsatish, ehtiyojlarini qondirish farzand zimmasidagi eng muhim burchlardan ekanini ta’kidlaydi. Shulardan “Isro surasi”ning 23–24-oyatlarida quyidagicha ta’lim beradi: ”Robbingiz Uning O‘zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi (Ey inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga “uf” dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt!” Ularga mehribonlik bilan xorlik qanotini past tut va (duoda) ayt: “Ey robbim! Meni ular go‘daklik chog‘imda tarbiyalaganlaridek, Sen ham ularga rahm qilgin!” deb marhamat qiladi. Ota-onani hurmatlash, e’zozlash masalasida hech bir tuzum yoki tarbiya vositasida Islomga teng ham yaqin ham kela olmaydi.[1] Darhaqiqat, o‘quvchi-yoshlarni go‘zal xulq, axloq tarbiyasiga doir manbalar islom dinida kuchli hisoblanadi.

Islom dini xalqimizning ruhiyati, maslagi, turmush an’analari, ulug‘ bobolarimiz ma’rifatining mujassamidir. Yoshlar din-ruhiyatimiz tarbiyachisi, ilm dunyoni bilish vositasi ekanini bilishlari kerak. Zero, bu tabarruk madaniy qadriyatlar hozirgi davrda ham insonning iymon va e’tiqodli, go‘zal axloq-odobli, ma’naviyat va tafakkur sohibi bo‘lib yetishuvida asosiy manbadir. Islom dini milliy pedagogika tarixi rivojida abadiy ilm manbayi bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz.[2]

Islom dini pedagogikaning yagona asl manbasi ekan. Unda islomdagi soglom e’tiqod masalalari yuzasidan o‘tmishda qanday asarlar yozib qoldirilgan?

Ulug‘ alloma Hakim Samarqandiy “Savod ul-a’zam” kitobida jamiyat a’zolarining e’tiqodi haqida fikr yuritgan. Unda insonlar o‘zaro ahillikda hayot kechirib, bir-birlarini hurmat qilishlari zarurligi, jamiyatning osoyishtaligi va farovonligi uchun o‘ta zarur bo‘lgan qonun-qoidalar ko‘rsatilgan. Agar inson o‘zi yo‘l qo‘ygan xatoni tan olsa, uning salbiy jihatlarini anglab yetsa, aybdor sanalmasligi ushbu asarda alohida ta’kidlab ko‘rsatilgan. Biror kishini nohaq ayblamaslik, unga qarshi kuch ishlatmaslik lozimligi uqdirilgan.

E’tiqod ilmining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abu Mansur Moturidiy ushbu ilmni rivojlantirib, o‘zining “Tabsira”, “Tamhid” va “Bahr ul-kalom” asarlarida qimmatli fikrlarini bayon qilgan. Ushbu asarlarda e’tiqoddan adashganlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatilgan. E’tiqod masalalari chuqur tahlil qilingan.

Abu Muin Nasafiyning “Tabsirat ul-adilla” kitobida Imom Moturidiyning e’tiqod ilmiga oid qarashlari mukammal bayon etilgan. Shuning uchun ham ushbu asar ko‘p asrlar davomida muhim qo‘llanma vazifasini o‘tab kelmoqda.

E’tiqod ilmining yirik namoyandalaridan yana biri “Al-Aqoid an-nasafiya” asarining muallifi Abu Hafs Najmiddin Umar an-Nasafiydir (462–537/1068–1142). Mutafakkir e’tiqod masalasida yuzdan ortiq asarlar yozganligi manbalarda qayd etilgan. “Al-Aqoid an-nasafiya” asari e’tiqod sohasidagi asarlarning eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. Mazkur risola hajman kichik bo‘lishiga qaramasdan, ko‘p asrlar mobaynida moturidiya ta’limotini yoyib kelmoqda.

Mashhur olim Abul Barakot Ahmad ibn Ahmad Nasafiy ham e’tiqod ilmiga munosib hissa qo‘shgan. Uning e’tiqod haqidagi qarashlari “Madorik at-tanzil va haqoiq at-ta’vil” (“Qur’on ma’nolari va ta’-

[1] A.Zunnunov, M.Xayrullayev, B.To‘xliyev, N.Xotamov. Pedagogika tarixi. “Sharq”, T., 2000, 28-bet.

[2] Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulumid din. Arab tilidan tarjima va so‘zboshi muallifi R.Zohid. T., ”O‘zbekiston”, 2-nashri, 2020, 512-bet.

vil haqiqatlari”) nomli asarida o‘z ifodasini topgan. Mazkur asar ko‘plab olimlarning e’tiqodga oid fikrlari bilan boyitilgan.

Abubakr Kalobodiy Buxoriy (vafoti 990-yil) o‘zining «At-taarruf li mazhabi tasavvuf» (Tasavvuf mazhabi bo‘yicha tanishtirish kitobi) nomli asarida tasavvufiy e’tiqodlarning islom qoidalariga muvofiq kelishini isbotlashga intilgan. Ushbu asarda mutafakkir sog‘lom e’tiqodga oid qarashlarni qiyosiy o‘rgangan. Abdulloh Ansoriy (1006–1089), Abdulloh Kushayri (986–1072), Hujviriy (vafoti 1075)lar ham ushbu masalada o‘z qarashlarini bayon qilganlar.

Imom Muhammad G‘azzoliy esa sog‘lom diniy e’tiqod masalasiga o‘ziga xos tarzda yondashgan. Imom G‘azzoliy sog‘lom e’tiqod haqidagi qarashlarini o‘zining bir qator asarlarida bayon qilgan. Imom G‘azzoliy e’tiqod ilmiga uning shaxs tabiati va ruhiyatiga mos kelishi va inson kamolotiga xizmat qila olishi nuqtayi nazaridan baho bergan.

G‘azzoliy tasavvufda sog‘lom diniy e’tiqod asosiy o‘rin egallashini asoslaydi. Unda din va iymon e’tiqodning ruhiy-psixologik jihati mujassamlashganligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tasavvufda Allohni qalban idrok etish, his-hayajon orqali qabul qilish e’tirof etilgan. G‘azzoliy e’tiqod ilmidagi aqliy mushohadani hissiy idrok usullari bilan uyg‘unlashtirib, sog‘lom jiniy e’tiqodni ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. E’tiqod ilmini tasavvuf nuqtai nazaridan, tasavvufni esa e’tiqod nuqtai nazaridan tahlil qilgan.

Imom G‘azzoliy o‘zining «Eh yo ul-ulum vad din» (Diniy ilmlarning qayta tirilishi) va «Kimyoi saodat» (Saodat kimyosi) nomli kitoblarida tasavvufni e’tiqod ilmining tarkibiy qismi sifatida o‘rganib, tariqatni inson axloqini poklovchi ta’limot sifatida o‘rgangan.[1]

1-jadval

Sog‘lom diniy e’tiqod va e’tiqodsizlik ko‘rsatkichlari

Sog‘lom diniy e’tiqodni ifodalovchi ko‘rsatkichlar	**E’tiqodsizlik yoki e’tiqod sustligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**
Allohga iymon keltirish	Aqidaparastlik
Saxovatlilik	Iymonsizlik
Jo‘mardlik	Johillik
Mehmondo‘stlik	Adolatsizlik
Mehribonlik	Urushqoqlik
Halimlik	Badkirlik
Shafqatlilik	Bevafolik
Silayi rahm	Ehtiyotsizlik
Muruvvatlilik	Meshchanlik
Rostgo‘ylik	Boqimandalik
Iffatlilik	Millatchilik
Salom berish	Soxtalik
Taom berish	Buzg‘unchilik
Tinchlikpavarlik	Shovinistlik
Xotirjamlikka intilish	Murtadlik
Adolatpeshalik	Vatanfurushlik
Ahdga sodiqlik	Sotqinlik
Vafodorlik	Maqsadsizlik
Qat’iyatlilik	Qo‘pollik
G‘ururlilik	Sabrsizlik
Mag‘rurlik	G‘arazgo‘ylik
O‘z xalqi va Vatani sha’nini himoya qilish	Omonatga xiyonat qilish
Milliy mansublikni anglash	Xoinlik
Ko‘zlagan maqsadi sari intilish	Maddohlik
Sobitqadamlik	Subutsizlik
Faxr tuyg‘usiga ega bo‘lish	Yolg‘onchilik
Ezgulikka intilish	Aldamchilik
Sabr-bardoshlilik	Tovlamachilik
	G‘irromlik

[1]Aqoid matnlari. Nashga tayyorlovchi tarjimon Shayx Abdulaziz Mansur. Toshkent islom universiteti, T., 2006, 26-bet.

Yuqorida ruhiyat dunyosida e’tiqodning namoyon bo‘lish holatlari ko‘rsatilgan (1-jadval). O‘zini anglagan, Allohni tanigan har bir banda go‘zal xulq egasi, ikki dunyo saodatmandi bo‘lishni orzu qiladi. Shunday ekan, o‘z o‘rnida ota-ona bo‘lganlar mazkur bilimlarga ega bo‘lishlari shart:

– Allohni tanimoq;

– ota-onaga yaxshilik qilish.

Islom dinida iymon, e’tiqod Alloh taolo tarafidan bandalarga berilgan ne’matlarning eng ulug‘i sifatida e’tirof etiladi. Islom dinida insonning qadri uning iymon, e’tiqodi bilan o‘lchanadi. Insonning ezgu amallari iymon, e’tiqod asosida ro‘yobga chiqadi. Sog‘lom islomiy e’tiqodning asosini halim tabiatlilik, oqil kishilar e’tiqodiga xos bo‘lgan quyidagi belgilar tashkil etadi:

–matonat;

–sabr-toqat;

–Allohga iymon keltirish;

–insoniy ezgu amallarni bajarishga kuch topa bilish kabilar.

Inson qalbi iymon, e’tiqod nuridan bahramand bo‘lgandagina ezgu amallarni bajara olishga qodir hisoblanadi. Kishilar o‘zlarining e’tiqodlari tufayli katta qiyinchiliklarni yengib o‘tishlari bu yo‘lda iymon-e’tiqod halovati hamma narsadan buyuk ekanligi anglashiladi.

Iymon-e’tiqodli insonlar odamlarga faqat foyda keltirishi, o‘z yurtini obod qilishi, bunyodkorlik, ijodkorlik bilan shug‘ullanadi. Shu sababli iymon-e’tiqod egasining sabr-bardoshi yuksaladi. Bunday holat bir qator omillar bilan bog‘liq. Iymon-e’tiqodga ega bo‘lgan insonlar yuksak axloqiy sifatlar, oliy xislatlarga ega bo‘ladilar.

Iymon-e’tiqodning asosini fazilatlilik, omonatdorlik, rostgo‘ylik tashkil etadi. Sog‘lom diniy e’tiqod egalari bo‘lgan zukko ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan bunday sifatlar yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Insonlar orasida o‘zaro hurmat, do‘stlik, mehr-muruvvat, hamkorlik, ishonch, shijoat, jasorat kabi oliyjanob sifatlarni shakllantirishda hadislar va ajdodlarimizning didaktik xarakterdagi asarlari bilan bir qatorda zamonaviy shoirlarning asarlari ham katta pedagogik imkoniyatlarga ega. E’tiqodli insonlar do‘stlari, yaqinlari, biroda r va jigarlarini yaxshi ko‘radilar. Ich-ichlaridan ularga nisbatan mehr, sadoqat tuyg‘usini his qiladilar. Ushbu tuyg‘ular vaqt o‘tishi bilan so‘nib qoladigan tuyg‘ular emas. Abadiy do‘stlik, yaqinlik, hamdardlik tuyg‘usidir. Bunday his-tuyg‘ularning manbai pokiza, sog‘lom iymon-e’tiqoddir. Yetuk sog‘lom e’tiqodli shaxsni yovuzlik, ekstremizm, milliy-ma’naviy mansublik va madaniyatga bo‘lgan tajavvuzlar yenga olmaydi. Mutafakkir ajdodlarimiz, chunonchi Naqshbandiya tariqati namoyondalari sog‘lom diniy e’tiqodga ega bo‘lganliklari uchun ham butun bashariyatni lol qoldirib kelayotgan kashfiyotlarni amalga oshirganlar. Hatto iblis qiyofasidagi iblis ham Allohdan qo‘rqishini tan olib shunday degan edi: “Men musulmonlar orasida sizlar ko‘rmayotgan narsalarni, ya’ni, farishtalar borligini ko‘rdim, ko‘ryapman, men Allohdan qo‘rqaman, Allahning azobi qattiqdir” (Anfol surasi, 48-oyat). Iymon-e’tiqod tufayli tarixda qahramonliklar ro‘y bergan. Jumladan, Najmiddin Kubro Vatanga bo‘lgan e’tiqodi tufayli Chingiziylarga ro‘baro bo‘lib, Vatan bayrog‘ini qattiq himoya qilgan, chunki Hadisda ta’kilanishicha “Vatanni sevmoq iymondir”.

Сапаров Саламат Пердебаевич (преподаватель Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, Кафедра английского языка и литературы)

ОЦЕНОЧНЫЕ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ АНГЛИЙСКОГО И КАРАКАЛПАКСКОГО ЯЗЫКОВ

.

Аннотация. *Мақола инглиз ва қорақалпоқ тилларидаги фразеологик бирликларни баҳоловчи ва эмоционал компонентларига бағишланган бўлиб, унда икки мураккаб қарама-қарши ҳодиса, маъно ва тушунча ўртасидаги муносабатлар аниқ кўрсатиб берилади. Шунингдек, фразеологик бирликларнинг семантик кўрсаткичи – семалари ва уларнинг шаклланиши, экспрессив-эмоционал функцияларни бажариши, фразеологик бирликларнинг турли комбинацияларда ҳаракат қилувчи компонентлари таҳлил қилинади.*

Аннотация. *Статья посвящена оценочным и эмоциональным компонентам фразеологических единиц английского и каракалпакского языков, в которых четко обозначена связь между двумя сложными противоположными явлениями, значением и концептом. Также анализируется семантический показатель фразеологизмов семантики и их формирование, выполнение экспрессивно-эмоциональных функций, компонентов фразеологизмов, выступающих в различных сочетаниях.*

Annotation. *The article is devoted to the evaluative-emotional components of phraseological units in the English and Karakalpak languages, in which the connection between two complexes opposite phenomena, meaning and concept, is clearly indicated. The semantic indicator of phraseologisms of semantics and their formation, the performance of expressive and emotional functions, the components of phraseological units that appear in various combinations are also analyzed.*

Калит сўзлар*: фразеологик маъно компонентлари, денотация, маъно ва тушунча, маъно кўриниши, денотатив компонент, белги компоненти, интеграл семалар.*

Ключевые слова: *компоненты фразеологического значения, денотат, значение и понятие, проявление значения, денотативный компонент, сигнификативный компонент, интегральные семы.*

Keywords*: components of phraseological meaning, denotation, meaning and concept, meaning manifestation, denotative component, significative component, integral semes*.

Фразеологическое значение – феномен исключительно сложный и, разумеется, его ни в коей мере нельзя рассматривать как механическую сумму составляющих его компонентов. Семантическую структуру фразеологизма можно представить как микросистему, все элементы которой находится в тесной связи и взаимозависимости между собой. Семантическое своеобразие ФЕ заключается в специфике сочетания сем. Таким образом, семы выступают не только как конституанты основных семантических составляющих ФЕ, но и как связующие звенья между ними.[1]

Они являются минимальными единицами семантики фразеологических единиц (ФЕ) и выполняют смыслоопределяющую и смыслообразующую функции. Если при сопоставлении ФЕ на первый план выступает выделение минимальных смысловых компонентов, то при сопоставлении фразеологических подгрупп – рассмотрение фразеосемантической парадигмы. В результате сопоставления выявляется набор смысловых компонентов, обуславливающих особенности семантики отобранных для анализа ФЕ в английском и каракалпакском языках.

Интегральные семы выступают как общие определяющие возможность включения той или иной ФЕ в состав определенной фразеосемантической подгруппы и служащие основанием для объединения и сопоставления значений рассматриваемых фразеологизмов. Дифференциальные семы выявляются на основе сопоставления ФЕ, входящих только в одну фразеосемантическую подгруппу, и носят частный характер. Сопоставительный анализ направлен на выявление принципиального сходства и различия в семной организации фразеологического значения изучаемых единиц в английском и каракалпакском языках.

Оценочный компонент, то есть одобрительная или неодобрительная оценка, заключенная в значении фразеологизма, является основным в коннотативном значении ФЕ в силу его социолингвистической природы.

Выделяются отрицательный, положительный и нейтральный компоненты фразеологического значения, в основе которых лежат осуждение, одобрение или отсутствие ярко выраженного одобрения или осуждения, как констатация социально устоявшиейся оценки какого-либо явления.

С оценочным компонентом значения тесно связан эмоциональный компонент, под которым понимается выражение во фразеологическим значении чувств и эмоций. Сравнивая большое количество ФЕ между собой, мы можем наблюдать целую гамму разнообразных оттенков проявления чувств и эмоций, от резко осуждающего презрительного до сочувственного и т. д. В ряде случаев на эмоциональный компонент значения указывают словарные стилистические пометы (типа бран, вульг, груб, ирон, ласк).

Оценочный и эмоциональный компоненты обычно очень тесно связаны в пределах семантики ФЕ. Экспрессивный компонент фразеологического значения тесно связан с эмоциональным и оценочными компонентами семантики и являются важным элементом коннотации.

Четвертый, последний компонент коннотации функционально-стилистический компонент, который свидетельствует о принадлежности фразеологизма к тому или иному стилю речи, его распространённости употребительности. В зависимости от преимущественной сферы их употребления, как указывается у Е.Ф.Арсентьевой,[2] большинство исследователей выделяют три класса фразеологизмов: книжные, разговорные и нейтральные или межстилевые.

---

[1] Райхштейн А.Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. М., 1980, с. 110.

[2] Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц. Казань, 1989, с. 42.

К книжным относятся ФЕ, преимущественно или исключительно употребляемые в письменной речи, то есть в поэтической, публицистичесой, научной, официально-деловой сферах общения и т.д. например:

The world, the flesh and the devil – *аўырдың асты менен жеңилдиң үсти менен жасаўшы* (йтуғын); **to serve God and Mammon** – *Қудайға қулшылық етиўши…, Қудайға шүкиршилик етип жасайтуғын*; **with a stone's throw of**…*–қол созым жерде, таяқ таслам жерде* являются общелитературными, **right under your nose** – *мурнының ушында турған* является разговорным.

К разговорным ФЕ относятся единицы преимущественно или исключительно употребляемые в устной речи, такие ФЕ в словорях расположены под общей пометой разг. прост. груб. бран. пренебр. груб-простр. жаргон ит.д. например: **as hell as the devil** – *жин ургандай, қудай ургандай*; **alive and kicking** – *денисаў, ўақтыхош*, «разговорные обороты в свою очередь часто становятся достоянием общелитературного пласта».[1]Многие исследователи рассматривают фразеологические единицы как элемент художественной литературы, который портит красоту произведения, хотя другая часть исследователей доказывает востребованность и важность фразеологических единиц в художественных произведениях.

Нейтральными или межстилевыми ФЕ считаются ФЕ, употребляемые во всех стилях одинаково: **high and mighty** – *мурны аспанда, аброй-мәртебели;* **up and going** – *күш ғайратлы*; **as pretty as a picture** – *айдай шырайлы*; **as good as gold** – *анасындай мийриман атасындай мийриман, атасындай қайырқом.*

С точки зрения функциональности в каракалпакском языке фразеологизмы тоже подразделяются на три группы. Е.Бердимуратов классифицирует их нижеследующим образом:

1) межстилевые и нейтральные фразеологизмы;

2) разговорные фразелогизмы;

3) книжные фразеологизмы.

Как указывает Е.Бердимуратов межстилевые или нейтральные фразеологизмы составляют основной пласт ФЕ каракалпакского языка. По его мнению, к межстилевым относятся фразеологизмы стилистически нейтральные, свойственные как устной, так и письменной речи. К ним относятся фразеологизмы: *қрын қараў, ала мойнақ, көз бенен қастың арасында,* в том числе адъективные ФЕ *ийне менен құдық қазғандай, көзге түскендей, көзи таныйтуғын (умелый), ат үсти (мимоходом), қойдай жуўас, тил қайтармайтуғын* и др. англ: **hard-working, like looking for a needle in a hay stack; as large as life, as big as life; a man of parts; unofficial; (as) innocent as a (newborn) babe; (as) good as gold** (относительно к дитям).

К разговорным отнесены такие стилистически сниженные фразеологизмы, как: ***ислер бес*- everything is fixed (OK) (хорошее начало, полдела откачало);** ***бети былш етпейтуғын, ақылын жыймайтуғын, бети жоқ* – as loos as beer-drunker's bowels** (не стесняющийся, невозмутимый, терпеливый, море по колено); ***маңлайға питкен* – at one's disposal** (пренадлежащий к чьей либо доле).

В свою очередь, книжные фразеологизмы Е.Бердимуратов подразделяет на 4 группы:

1) общественно-публицистические;

2) научные фразеологизмы;

3) фразеологизмы свойственные официально-деловому стилю;

4) художественно-беллетристические фразеологизмы.

Основной обширный пласт фразеологизмов каракалпакского языка составляют разговорные фразеологизмы. Фразеологизмы, включенные Е.Бердимуратовым в состав нейтральных или межстилевых, мы рассматриваем как разговорные, так как основная их масса употребляется в разговорной речи и обладает экспрессивно-эмоциональной выразительностью. Фразеологизмы, включенные Е.Бердимуратовым в разговорные, в настоящие время ряд языковедов разделяют на 2 группы:

1. Просторечные: ***ислер бес* – excellent, ok;** ***касапаты тийетуғын* – посл. One scabbed sheep infects the whole flock** (Одна паршивая овца портит все стадо); *аўзы ашық* **– as mad as a hatter;** ***жүз болып киятырған* – as high as a kite** (смертельно пьяный) ***жалпақтил* – colloquial language.**

[1] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Дубна, 2005, с. 152.

